

А.А. Приставкин



Uxlar edi
o'ltin
bulutcha



Rus adabiyoti durdonalari

ANATOLIY IGNATYEVICH
PRISTAVKIN



**Uxlar edi
oltin
bulutcha**

Qissalar

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.161.1-22

KBK 84(2Ros-Rus)

P 87

Rus tilidan Gulnora Aripova tarjimasi

Pristavkin, Anatoliy Ignatyevich

P 87 Uxlar edi oltin bulutcha [Matn]: qissalar / A.I.Pristavkin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 376 b.

ISBN 978-9943-7605-4-7

Mashhur rus yozuvchisi Anatoliy Pristavkin tomonidan o'tgan asrning 80-yillarida yozilgan «Uxlar edi oltin bulutcha» qissasida Ikkinchi jahon urushi paytida Moskva viloyatidan Kavkazga ko'chirilgan yetim egizaklar – Kuzminlar (muallif ularni Kuzminchalar deb nomlagan) va ularning boshidan kechirganlari haqida hikoya qilinadi. Urush va uning bolalar taqdiriga ko'rsatgan ta'sirini mahorat bilan tasvirlab bergan yozuvchining ushbu asari kitobxonni befarq qoldirmasligi aniq.

«Mahshar kuni» qissasida butun urush davomida zavodda kecha-yu kunduz mehnat qilgan, o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lgan, biroq bir kungina ishga kelmagani sababli sud qilingan o'smir Konstantin Vedernikovning taqdiri haqida hikoya qilinadi.

UO'K 821.161.1-32


KBK 84(2Ros-Rus)

ISBN 978-9943-7605-4-7

© A.I. Pristavkin. 2021

© G. Aripova (tarj.), 2021

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021





*Ushbu qissamni uni o'ziga yaqin olgan va
meni tushkunlikdan qutqarib qolgan
do'stlarimga bag'ishlayman.*

1

Bu so'z daladagi shamol kabi o'z-o'zidan paydo bo'ldi. Paydo bo'ldi, shitirladi, bolalar uyining olis-yiroq xilvat ko'chalari uzra yelib o'tdi: «Kavkaz! Kavkaz!» Qanaqa Kavkaz? Bu so'z qayerdan tug'ildi? Buni hech kim durustroq tushuntirib bera olmasdi.

Iflos Moskva viloyati bolalar uyining muttahamlarigagina maktabdagi ovoz chiqarib o'qish orqali ma'lum bo'lgan (chunki darsliklar yo'q edi-da!) qandaydir Kavkaz haqida so'zlash, ko'ngli tusaganini qilishga o'rgangan tog'lik qorasoqol Hojimurod dushmanlariga qarata o'q uzgan, muridlar yo'lbo'shchisi imom Shomil qurshab olingan qal'ada o'zini mudofaa qilgan, rus askarlari Jilin va Kostilin chiqur o'rada azob chekkan vaqtlar to'g'risida gapirish g'alati xayoliy havas bo'lsa kerak.

Ortiqcha odamlardan Pechorin ham Kavkazda bo'lgan.

Buning ustiga mana bu papirosalar! Kuzminchalardan biri o'sha papirosalarni Tomilinodagi stansiyada ushlanib qolgan sanitariya poyezdida o'tirgan yaralangan podpolkovnikda ko'rib qoldi.

O'tkir uchli, qordek oppoq tog'lar bag'rida qora chakmon kiyib olgan chavandoz asov otini choptirib kelmoqda. Yo'q, choptirib kelmayapti, balki havoda parvoz qilyapti. Uning ostida esa notekis, serqirra yozuv bilan «KAZBEK»¹ deb yozilgan.

Mo'ylovli, boshi bint bilan bog'langan yosh, kelishgan yigit stansiyaning ko'zidan kechirish uchun lip etib sakrab chiqqan o'ziga oro bergan hamshiraga qarab qo'yar va karton qopqoqqa timog'i bilan ma'nodor taqillatar, yonidagi jajji juldurvoqi Kolka hayratdan og'zini ochib va nafas chiqarmay qimmatbaho qutichaga tikilib qarab turganini payqamasdi.

¹ Kazbek – Gruziyadagi cho'qqi.



U ko'zlari bilan yaradorlardan ortib qolgan nonni izlardi, lekin to'satdan «KAZBEK»ka ko'zi tushdi!

Xo'sh, Kavkazning bunga nima dahli bor? U haqda mish-mish tarqaldimi?

Hech qanday dahli yo'q.

O'tkir, muz qirradi kabi chaqnagan ushbu so'zning sovuq, doimo och-nahor yuruvchi bolalar uyining odatiy ish kunida qanday qilib paydo bo'lgani ajablanarli. Bolakaylarning butun g'ayratli hayoti muzlagan kartoshka donasi, kartoshka po'choqlari va orzu hamda istaklarning eng yuqori cho'qqisi – bir amallab kun kechirish uchun, urush vaqtida bir kunga ko'proq yashash uchun zarur bo'lgan non bo'lagining atrofida mujassamlashgandi.

Yetimlarning eng muqaddas, amalga oshmaydigan orzusi bolalar uyining tabarruk joyi – NONKESKICH turgan joyga hech bo'lmasa bir marta kirish edi, bu so'zni katta harflar bilan ajratib yozamiz, boisi u bolalar ko'z o'ngida qandaydir Kazbekdan ko'ra yuksakroq va yetishib bo'lmasroq hisoblanardi!

U yerga, aytaylik, xuddi Xudo jannatga kiritgandek kiritishardi! Eng saralarini, eng omadlilarini yoki bo'lmasa mana bunday ta'rif berish ham mumkin: yer yuzidagi eng baxtlilarini!

Kuzminchalar ularning safiga kirmasdi.

Nonkeskich turgan yerga kirish ularning hayoliga ham kelmasdi. Bu bezorilarning, militsiyadan qochib, ayni vaqtda nafaqat bolalar uyida, balki butun qishloqda hukmronlik qilganlarning nasibasi edi.

Nonkeskichga – biroq xo'jayinlar tomonidan tayinlangan o'shalarga o'xshab emas, sichqon kabi, bir necha soniyaga kirish, tushda emas, o'ngda stolda uyilib qo'yilgan egri-bugri buxankalar ko'rinishidagi dunyoning ulkan boyligini o'z ko'zi bilan ko'rish – mana haqiqiy orzu!

Va – nafas olish, ko'krak bilan emas, mast qiluvchi, boshni aylantiruvchi hiddan qorin bilan to'yib nafas olish...

Bor-yo'g'i shu. Shu!

G'adir-budur yonlari bilan mayin ishqalanuvchi buxankalar to'kilganidan so'ng qolib ketadigan uvoqlar haqida orzu qilish ham noqulay. Mayli, ularni tayinlanganlar yeyishsin, huzur qilishsin! Bu uvoqlar haqli ravishda ularga tegishli!

Biroq nonkeskichning qulflangan temir eshiklariga har qancha surkalma, bu aka-uka Kuzminchalarning boshida paydo bo'luvchi fantasmagorik¹ manzaraning o'rmini bosa olmasdi – non hidi temir eshik orasidan o'tmasdi.

Ular bu eshikka qonuniy yo'l bilan mutlaqo kira olmasdilar. Bu xomxayol, aka-ukalar esa realistlar edilar. Shunday bo'lsa-da, muayyan orzu ular uchun begona emasdi.

Va mana ushbu orzu qirq to'rtinchi yilning qishida Kolka va Sashkani nonkeskichga, non saltanatiga har qanday... qanday bo'lmasin yo'l bilan kirishgacha yetakladi.

Yurakni zirqiratadigan, non ushog'i tugul muzlagan kartoshkani ham izlab topish mashaqqatli bo'lgan bu oylarda uychaning atrofida, temir eshiklar ro'parasida yurishga, yura turib, u yoqda, ichkarida, qalin devor ortida, iflos, biroq panjaralangan deraza orqasida pichoq va tarozili saralangan odamlar issiq nordon uvoqlarni og'izlariga solib chala pishgan nonni burdalayotganini, kesayotganini, ezayotganini, yog'liqqina bo'laklarini esa boshlig'iga asrab qo'yayotganini bilishga, deyarli tasavvur qilishga umuman kuch yo'q edi.

Ularning og'izlaridan so'lak qaynar, qorinlari tortilar, miyalari xiralashardi. Uvillashni, hayqirishni va o'sha temir eshikni ochishlari, nihoyat, ularning ham xohlayotganliklarini bilishlari uchun eshikni tinmay urish istagi bolalarni tark etmasdi. Mayli, keyin qamoqqa, qayoqqa xohlasalar, o'sha yoqqa olib ketishsin... Jazolashadi, kaltaklashadi, o'ldirishadi... Biroq oldin hech bo'lmasa eshikdan turib uning, nonning qanday qilib uyum bo'lib, tog' bo'lib, Kazbek bo'lib pichoqlar bilan stolda maydalab tashlanganini ko'rsatishsin... Uning hidini tuyishga imkon berishsin!

Shunda yana yashash uchun istak paydo bo'ladi. Shunda ishonch paydo bo'ladi. Non tog'dek uyulib yotibdimi, demak, dunyo mavjud... Shunda chidash, indamaslik va yashashda davom etish mumkin.

Qo'shimchasi payraha yordamida to'g'nab qo'yilgan kichkina payok²dan esa ochlik hissi kamaymasdi. Aksincha, kuchayib borardi.

¹ *Fantasmagoriya* – biror usul bilan hosil qilinadigan g'ayritabiiy manzara, ko'rinish.

² *Payok* – ma'lum vaqtga belgili miqdorda beriladigan oziq-ovqat.

Bir safar esi past o'qituvchi ovoz chiqarib Tolstoydan bir parchani o'qiy boshladi, o'qituvchi keksayib borayotgan Kutuzov urush paytida jo'jani yeyapti, istar-istamas yeyapti, qattiq qanotini deyarli jirkani bilan chaynayapti deydi...

Bolalarga bunday manzara aql bovar qilmasdek tuyuldi! Nimalarni o'ylab topishmaydi-ya! Qanotini chaynay olmagan emish! Bolakaylar kemirib top-toza qilingan suyak uchun o'sha zahoti qayerga bo'lsa, o'sha yerga chopishga tayyorlar! Matn baland ovoz chiqarib o'qib bo'lingandan so'ng bolalarning qorinlari battar ochiqdi va ular yozuvchilarga bo'lgan ishonchlarini batamom yo'qotishdi; agar ularning asarlaridagi qahramonlar jo'jani yeyishmasa, demak, yozuvchilarning o'zlari ham to'qlikdan bezib ketishgan!

Bolalar uyining uchiga chiqqan jinoyatchisi Sichni haydab yuborishganlaridan so'ng ko'plab yirik va mayda bezorilar jonajon militsiyasidan uzoqroqda, shu yerda – Tomilinodagi bolalar uyida qishladi.

Bir narsa o'zgarmas edi: kuchlilar zaiflarga uvoqlarni, uvoqlar haqidagi orzularni qoldirib, churvaqalarni qullikning mustahkam to'rlariga ilintirib hamma narsani yamlamay yutishardi.

Nonning ustki bo'lagi uchun bir, ikki oyga qullikka tushishardi.


Qizarib pishgan, qoraroq, qalinroq, shirinroq non bo'lagi ikki oylik qullikka olib kelardi, u buxankaning usti bo'lardi, biroq gap payok haqida, shaffof bargdek yoni bilan stolda akslanuvchi mayda bo'lak haqida ketmoqda; ostki – oqroq, siyqaroq, yupqaroq bo'lagi bir oylik qullikni anglatardi.

Kuzminchalarning tengquri, o'n bir yoshli Vaska Smorchok bir askar qarindoshining kelguniga qadar nonning orqa jildi uchun yarim yil xizmat qilgani hammaning esida. U hamma yeguligini berib yuborib, o'zi o'lib qolmaslik uchun daraxt kurtaklari bilan oziqlangandi.

Og'ir pallalarda Kuzminchalar ham sotilishgan. Biroq har doim ikki kishilashib sotilishgan.

Agar har ikkala Kuzminchani qo'shib bitta odam qilib qo'yilganda butun Tomilino bolalar uyida ularga yosh jihatdan ham, ehtimol kuch jihatdan ham bas kela oladigan odam topilmasdi.

Ammo Kuzminchalar shundoq ham o'zlarining boshqalardan ustun jihatlarni bilishardi.



Ikkita qo'l bilan tashishdan ko'ra to'rt qo'lda tashish osonroq; to'rt oyoqlab tezroq qochish mumkin. To'rtta ko'z esa qo'riqlanmay yotgan narsani olib qochish kerak bo'lganda ikkita ko'zdan o'tkirroq ko'radi!

Ikkita ko'z ish bilan mashg'ul bo'lgan bir paytda qolgan ikkitasi ikkovi uchun qo'riqchilik qiladi. Buning ustiga uxlab, tushingda nonkeskichni ko'rib yotgan paytingda o'zingning ham ostingdan goh kiyimingni, goh matrasingni urib ketmasliklari uchun kuzatishga ulguradi bu ko'zlar! Aytishadi-ku: agar o'zingnikini shimarib ketishgan bo'lsa, nega anqayib nonkeskichni xayol qilasan, deb!

Kuzminchalarning turli-tuman hiyla-nayranglarini sanab adog'iga yetolmaysiz! Misol uchun, ulardan biri bozorda qo'lga tushdi, uni qamoqqa tortib olib ketishyapti deylik. Aka-ukalardan biri zorlanib, ayyuhannos solib, rahm-shafqat so'raydi, boshqasi esa chalg'itadi. Ikkinchisiga o'girilib qaraguningcha birinchisi lip etib joydan g'oyib bo'ladi. Ikkinchisi ham uning orqasidan qochadi! Aka-ukalar ilonbaliq kabi chaqqon, sirg'anchiq, bir marta qo'ldan chiqardingmi, boshqa tuta olmaysan.

Ko'zlari ko'rib qoladi, qo'llari shartta yulib oladi, oyoqlari uchi-rib ketadi...

Ammo qayerdadir, qaysidir qozonchada bu rejalarning hammasi oldindan qaynab olishi kerak-ku... Ishonchli tadbirsiz: qanday qilib, qayerda va nimani ilib ketish rejasisiz yashash qiyin!

Kuzminchalarning ikkita kallasi har xil qaynardi.

Sashka dunyoqarashi keng, vazmin, og'ir-bosiq bola sifatida turli g'oyalarni o'ylab topardi. Bu g'oyalar unda qanday qilib tug'ilishini uning o'zi ham bilmasdi.

Epchil, chapdast, tejamkor Kolka bu g'oyalarni yashin tezligida hayotga tatbiq etishni, ya'ni foyda ko'rishni, yana ham aniqrog'i, ovqat-povqat topishni bilardi.

Misol uchun, Sashka mallasoch boshini qashib, deylik, Oyga uchib borib kelsakmikin, u yerda kunjara liq to'la, desa, Kolka darrov: «Yo'q» demasdi. U dastlab bu ishni Oy bilan muhokama qilgan, qaysi dirijablda u yerga uchish kerakligini o'ylab ko'rar, keyin: «Nima uchun? Yaqinroq joydan ham o'marish mumkin-ku» deya ta'kidlardir. Ammo ba'zida Sashka xayolchanlik bilan Kolkaga boqar,



u esa radiomisol efirda Sashkaning fikrini o'qir va o'sha zahoti uni qanday qilib amalga oshirishni fahmlardi.

Sashkaning boshi oltindan, bosh emas, haqiqiy Maslahatlar saroyi! Aka-ukalar shunday suratni ko'rishgan: yuz qavatli har xil Amerika osmono'par imoratlari qo'lning ostidagidek yer bag'irlab yoyilib yotibdi. Biz eng birinchi, eng balandlarimiz deyayotgandek!

Kuzminchalar esa boshqa narsada yetakchi. Ular qirq to'rtinchi yilning qishidan qanday qilib o'tib olish va harom qotib o'lib ketmaslikni birinchi bo'lib tushunishdi.

Piterda inqilob bo'lgan vaqtda pochta, telegraf va vokzaldan tashqari nonkeskichni ham hujum bilan egallashni unutmagan ekan!

Aka-ukalar nonkeskichning yonidan o'tib borishardi, aytgancha, bu ularning bu yerdan birinchi marta o'tishlari emasdi. Biroq bu gal ularning sabri chidamadi! Shunday bo'lsa-da, bunday sayrlar ularga ozor yetkazmay qolmasdi.

«Eh, qorin juda och... Eshikni ham g'ajib tashlashga, oyoq ostidagi muzlagan yerni ham yeyishga tayyorman!» – ovoz chiqarib aytib yubordi Sashka va birdan miyasiga yalt etib bir fikr keldi. Yerni yeyish nega kerak, agar uni... agar uni... Ha, ha! To'g'ri! Agar uni qazish mumkin bo'lsa!

Qazish! Ha, albatta, qazish!

U bu so'zlarni aytmadi, shunchaki Kolkaga qarab qo'ydi. U esa ko'z ochib yumguncha signalni qabul qildi va boshini burib, hamma-sini baholadi-yu, variantlarni miyasida aylantirdi! Biroq ovoz chiqarib hech narsani demadi, faqat ko'zlari yovvoyilarcha chaqnadi.

Kim sinab ko'rgan bo'lsa, o'sha biladi: dunyoda qorni och odamdek topag'on va maqsadga intiluvchan odam bo'lmaydi, ayniqsa, u urush davrida nimani va qayerdan topish borasida bosh qotirib pishgan bolalar uyi tarbiyalanuvchisi bo'lsa.

Bir og'iz ham so'z demay (atrofda odamni tiriklayin yutadigan baloxo'rlar kezib yuribdi, eshitib qolishsa ovoza qilib yuborishadi, shunda Sashkaning har qanday, eng dohiyona g'oyasi ham barbod bo'ladi), aka-ukalar to'ppa-to'g'ri bolalar uyidan yuz metr, nonkeskichdan esa yigirma metr naridagi eng yaqin omborchaga yo'l olishdi. Omborcha nonkeskichning orqasida joylashgan edi.

Omborda bolalar hamma yoqni ko'zdan kechirib chiqishdi. Keraksiz temir misrangning qarshisida, siniq g'ishtning orqasida



Vaska Smorchokning maxfiy joyi bo'lgan eng olis burchakka qarashdi. O'tin saqlangan vaqtlarda bu yerda qurolini o'g'irlab ketishgan askar Andrey amaki yashiringanini hech kim bilmagan, faqat Kuzminlar bundan xabardor bo'lishgan.

Sashka pichirlab so'radi:

– Uzoq emasmi?

– Unday bo'lsa qayerdan yaqin? – o'z navbatida so'radi Kolka.

Ular boshqa hech qayerdan yaqinroq bo'lmasligini tushunishardi. Undan ko'ra qulfni buzish ancha oson. Ozroq mehnat, kamroq vaqt talab etadi. Kuch ham ko'p qolmagan. Ilgari nonkeskichning qulfini sindirishga urinib ko'rishgan edi, bunday yorug' fikr faqatgina Kuzminchalarning miyasiga kelmagan! Ma'muriyat eshikka omborxonaga qulfni osib qo'ydi! Og'irligi naq yarim pud¹ keladi!

Uni faqat granata bilan uzish mumkin. Tankning oldiga osib qo'ysang bormi – birorta dushman snaryadi bu tankni teshib o'ta olmaydi.

O'sha omadsiz voqeadan so'ng u yerning derazasini panjara bilan berkitishdi va shunday qalin sim chiviqni payvandlab qo'yishdiki, na iskana bilan, na misrang bilan buza olasan – faqat avtogen bilan olish mumkin!

Kolka avtogen xususida ham o'ylab qo'ydi, u bir joyda yotgan karbidni ko'z ostiga olib qo'ygan edi. Biroq sudrab kela olmaysan, yondirolmaysan, atrofdagi begona ko'zlar ko'p.

Faqatgina yerning tagi begona ko'zlardan xoli! Boshqa yo'l, ya'ni nonkeskichdan butunlay voz kechish Kuzminchalarni mutlaqo qoniqtirmasdi.

Na do'kon, na bozor, na xususiy uylar hozir yegulikni axtarib topishga yaramasdi. Shunday bo'lsa ham bunday fikrlar Sashkaning miyasida g'ujg'on o'ynardi. Kolka bu fikrlarni haqiqatan hayotga tatbiq etish yo'llarini ko'rmasligi juda yomon ish bo'ldi-da.

Do'konchada qorovul, battol chol tun bo'yi hushyor o'tiradi. Ichmaydi, uxlamaydi, kun bo'yi o'tiraveradi. Qorovul emas – pichan qo'riqlayotgan itning o'zginasi.

Atrofdagi behisob uylarda qochqindilar bir talay, yegulik esa oz. O'zlari qayerdan nimani o'marsak ekan deb o'tirishibdi.

¹ Pud – 16,3 kg ga teng og'irlik o'lchovi.

Kuzminchalar bir uychani ko'z ostilariga olib qo'yishgan edi, Sich davrida kattalar uni tozalab ketishdi.

Ammo arzimagan narsalarni tortib ketishdi: har xil latta-puttalar-u tikuv mashinkasi. Bu mashinkani keyin qalloblar tutqichi uzilib o'zi qismlarga ajralib ketmaguncha navbat bilan omborda u yoqdan bu yoqqa aylantirishdi.

Biroq gap mashinka haqida emas, nonkeskich haqida. Tarozi emas, tarozi toshi emas, bor-yo'g'i non – faqatgina u egizaklarni qo'sh kalla bo'lib jon-jahd bilan o'ylashga majbur qilardi.

Natijada hozirgi vaqtda «hamma yo'llar nonkeskichga olib boradi»gan bo'lib qoldi.

Qal'a nonkeskich emas. Bunday qal'alar, ya'ni och bolalar uyining bolasi zabt eta olmaydigan nonkeskichlarning tabiatda yo'qligi ma'lum.

Ayozli qish paytida, stansiyada yoki bozorda yegulik topa olmay umidsizlikka tushgan butun boshli bezorilar gardani bilan pech atrofida muzlab, graduslarning ulushini o'zlariga singdirib va isinganday bo'lganda – ohak g'ishtgacha ishqalangan edi – Kuzminlar o'zlarining aql bovar qilmas rejalarini amalga oshirishga kirishishdi, ushbu aql bovar qilmaslikda muvaffaqiyat garovi yashiringan edi.


Ular tajribali quruvchi kabi, qiyshiq misrang va bir bo'lak faner yordamida ochish ishlarini omborxonadagi olis maxfiy joydan boshlashdi.

Misrangni mahkam ushlab (mana sizga to'rtta qo'!!), aka-ukalar u bilan yaxlagan yerga ovoz chiqarmay urishardi. Birinchi santimetr-lar eng og'iri edi, yer zirqirardi.

Omborxonaning narigi burchagida kattagina tepalik hosil bo'lmaguncha ular faner bo'lagi yordamida tuproqni o'sha yerga tashishdi.

Kun bo'yi qor bo'roni shu qadar ko'p bo'ldiki, qor qiyamasiga uchib ko'zni qoplardi. Kuzminchalar tuproqni uzoqroqqa, o'rmon tomonga tashidilar. Xolstdan qilingan maktab sumkasini ishga moslashtirmagunlaricha tuproqni cho'ntaklariga, qo'yinlariga solib tashishdi.

Endilikda maktabga galma-galdan borishar va navbat bilan qazishardi: bir kuni Kolka teshsa, ikkinchi kuni Sashka kovlardi.



Kimning o'qishga borish navbati kelsa, birinchi ikkita darsni o'zi uchun o'tirar (Kuzmin? Qaysi Kuzmin keldi? Nikolay? Narigisi, Aleksandri qani?), keyin o'zini Kolka yoki Sashka qilib ko'rsatardi. Oqibatda har ikkisi hech bo'lmasa darslarning yarmida qatnashgandek bo'lib chiqardi. Darslarga to'liq qatnashishni esa ulardan hech kim talab qilmasdi ham! Quyuq yashashni xohlaysizlar! Asosiysi, bolalar uyida tushliksiz qoldirishmasa bo'lgani!

Tushlik yoki kechki ovqat paytida esa navbat-navbat bilan yeyishga berishmaydi, shoqollar darrov paqqos tushirishadi, ushog'i-ni ham qoldirishmaydi. Bu joyida ular kovlashni yig'ishtirib, ikkovlon hujumga o'tgandek oshxonaga chopishardi.

Hech kim so'ramaydi, hech kim qiziqmaydi ham: Sashka tamshanib gapiryaptimi yoki Kolkami? Bu borada ular yakdil: Kuzminchalar. Agar ulardan bittasi bo'lsa, yarimtadek gap. Biroq ularni yakka-yakka holda kamdan kam ko'rishardi, bunday holat deyarli bo'lmagan deyavering!

Birga yurishadi, birga yeyishadi, bir vaqtda uyquga ketishadi.

Urishsa bormi, ikkalasini birga urishadi, ayni daqiqada qaysi biri qo'lga birinchi bo'lib tushsa, o'shandan boshlashadi.

2

Kavkaz haqidagi qadimiy mish-mishlar baralla tarqala boshlagan paytda qazish ishlari ayni avjida edi.

Yotoqxonaning turli burchaklarida bir yangilik besabab, ammo qat'iylik bilan takrorlanardi. Bolalar uyini Tomilinodagi issiq o'rinlaridan qo'zg'atib butun to'dani, bitta ham qoldirmay hammasini Kavkazga ko'chirishar emish.

Tarbiyachilarni olib ketishadi, tentak oshpazni ham, mo'ylovli musiqachi ayolni ham, nogiron direktorni ham... («Aqliy mehnat nogironi!») – deyishardi past ovozda.) Qisqasi, hammani olib ketishadi.

Ko'p gap-so'z qilishardi, o'tgan yilgi kartoshka po'chog'i bilan bo'lgani kabi tashvish tortishardi, biroq hech kim qanday qilib bu yovvoyi o'rdani tog'larga haydab borish mumkinligini tasavvur qilolmasdi.

Kuzminchalar bekorchi gaplarga me'yorida quloq tutishar, ko'p ham ishonishmasdi. Vaqtlari yo'q edi. Maqsad sari intilgan bolalar hayajon bilan quduqlarini qazishda davom etishardi.

Buning ustiga, hadeb gapiravergandan ne foyda, birorta ham bolalar uyi tarbiyalanuvchisini uning xohishiga qarshi ko'chirishmaydi! Ularni Pugachyovga o'xshab qafasga solib olib ketishmaydi-ku!

Chuvrindilar birinchi ko'chishning o'zidayoq har qayoqqa sochilib ketishadi, keyin ularni tutib ko'r-chi!

Bordi-yu ularni ko'ndirishga muvaffaq bo'lishsa ham bunday buyuk ko'chishdan har qanaqa Kavkaz ta'zirini yeyishi muqarrar: bor-budini talab ketishadi, shilib tashlashadi, Kazbeklarini xarobazorga aylantirishadi... Dasht-u biyobonga, Sahroyi Kabirga o'xshatib qo'yishadi!

Kuzminlar shunday deb o'ylab kovlashda davom etishardi.

Ulardan biri yerni temir bilan kovlar, yer yumshab, ko'chib tushar, ikkinchisi esa zanglagan chelak bilan qumni tashqariga tashib tamom qilardi. Bahorga borib nonkeskich joylashgan uyning g'isht poydevoriga yetib taqalib qolishdi.

Bir safar Kuzminchalar kovlangan joyning uzoq burchagida o'tirishgan edi.

Bir zamonlar o'tda toblab pishitilgan to'q qizil, ko'kishsimon tovlanuvchi g'isht qiyinchilik bilan maydalanar, har bir parchasini ming azob-uqubat bilan sindirishardi. Qo'llari qadoq bosib ketdi. Yonidan misrang bilan teshish ham oson emasligi ma'lum bo'ldi.

Qazilgan joyda burilib bo'lmas, yoqaga tuproq to'kildirdi. Devonxonadan o'g'irlangan siyoh shishasiga solingan qo'lbola chiroq ko'zni achishtirardi.

Boshda ularning haqiqiy, mumdan qilingan shami bor bo'lib, u ham o'g'irlangan edi. Lekin aka-ukalar uni yeb qo'yishdi. Toqat qila olishmadi, ochlikdan tinkalari qurib ketdi. Bir-biriga, o'sha shanga qarashdi, kichkina bo'lsa ham mayli, yaraydi. Ikkiga bo'lishdi-yu, chaynab tugatishdi, faqat ipiga tishlari o'tmadi.

Endi latta bog'ichni tutatishdi: qazilgan joyning devoriga kamgak qilindi – buni Sashka o'ylab topdi – va o'sha yerdan olov miltillab yonib tura boshladi, uning qurumi taratayotgan yorug'idan ko'proq edi.

Aka-ukalar terga botib, kir-chir, tizzalarini iyaklariga bukib devorga suyanib o'tirishardi.

Bexosdan Sashka so'radi:

– Xo'sh, Kavkaz haqida gapirishyaptimi?

– Ha, – javob berdi Kolka.

– Haydab ketishadimi? – Kolka javob bermagani uchun Sashka yana so‘radi: – O‘zing-chi? Borishni xohlamaysanmi?

– Qayoqqa? – so‘radi Kolka.

– Kavkazga!

– Nima bor?

– Bilmasam... Qiziq-da.

– Meni mana bu yer ko‘proq qiziqtiriyapti! – Kolka jahl bilan g‘ishtni mushtladi. U yoqda, mushtidan bir yoki ikki metr narida, undan ortiq emas, muqaddas nonkeskich turgan edi.

Pichoqlar bilan tilim-tilim qilib kesilgan, oshirilgan non hidi anqib turgan stolchada ko‘kimtir-tillarang buxankalar yotibdi. Biri-biridan chiroyli. Kichkina bir bo‘lagini sindirib olish ham baxt. Shimib, yutib yuborasan. Non jildining ichida bir dunyo yumshoq joyi, chimdilab ol-u og‘zingga sol.

Kuzminchalar umrlarida hech qachon butun buxankani qo‘llarida ushlamagan edilar! Hattoki qo‘llari ham tegmagan.

Biroq nonni uzoqdan, tiqilinch do‘konda kartochkaga berishganini, taroziga tortishganini ko‘rishgan.

Oriqqina, yoshi noma‘lum sotuvchi ayol ishchilarning, xizmatchilarning, boqimdagilarning rangli kartochkalarini darrov ilib olar va ko‘z yugurtirib chiqib – uning ko‘zi pishgan edi – biriktiruv joyiga, teskari tomonidagi do‘kon raqami yozilgan muhrchaga qaychisi bilan qutiga ikki, uchta talonchalab «chiq-chiq» qilardi. O‘sha qutichasida esa 100, 200, 250 gramm raqamlari yozilgan talonchalardan minglab, millionalab bor.

Biroq har bir talonda emas, ikki, uchtasidagina butun buxanka yozilgan bo‘lib, undan sotuvchi ayol tejab qolgan holda o‘tkir pichog‘i bilan kichkina bo‘lagini kesib olardi. O‘zi ham nonning yonida turib foyda ko‘rmaydi chog‘i, qurib qolgan, semirib ketmagan!

Ammo aka-ukalar to‘rtta ko‘zlari bilan har qancha kuzatishmasin, do‘kondan butun, pichoq tegmagan nonni olib ketishganini hech qachon ko‘rishmagan.

Butun non – shunday boylikka, o‘ylashga ham qo‘rqasan! Bordi-yu buxankalar bitta, ikkita yoki uchta emas, juda ko‘p bo‘lsa, qanday jannat ko‘z o‘ngingda namoyon bo‘ladi! Haqiqiy jannat! Barhaq! Xudo siylagan! Va bizga hech qanaqa Kavkazning keragi yo‘q!

Buning ustiga, o'sha jannat shundoqqina yoningda turgan bo'lsa. Goh-gohida g'isht terilgan devordan noaniq tovushlar eshitilyapti.

Qurumdan ko'zi tingan, qumdan, terdan, zo'riqishdan qulog'i bitgan aka-ukalarga har bir tovushda birgina so'z eshitilardi: «Non. Non...» Bunday daqiqalarda aka-ukalar kovlashmaydi, ular ahmoq emas, albatta. Temir eshiklarning yonidan omborxonaga tomon ketayotib, o'sha bir pudlik qulf joyida turganligini bilish uchun bir karra aylanib o'tishadi: qulfni bir chaqirimdan ham ilg'ash mumkin!

Shundan keyingina bu la'nati poydevorni buzish uchun tirma-shishadi.

Qadimgi zamonlarda bu binoni qurganlar ushbu qal'a uchun ularni kelajakda boplab so'kishlarini xayollariga ham keltirmagan bo'lsalar kerak. Kuzminchalar yetib borishlari bilan oshifta ko'zlariga xira kechki nurda butun boshli nonkeskich namoyon bo'ladi, shunda jannatga tushdim deyaver.

O'sha kezda... Aka-ukalar o'sha kezda nima bo'lishini yaxshi bilishgan.

Axir bitta emas, ikkita kalla bu narsa ustida bosh qotirgan.

Buxankaning bittasini joyida yeyishadi. Bunday to'kinsochinlikdan oshqozonlari buralib qolmasin. Yana ikkita buxankani o'zlari bilan olib ketishadi va yaxshilab berkitib qo'yishadi. Ular buni qoyillatishadi. Demak, hammasi bo'lib uchta buxanka. Qolganlariga tegib bo'lmaydi. Aks holda vahshiy yigitlar uyning tit-pitini chiqarishadi.

Uchta buxanka esa – bu, Kolkaning hisob-kitobiga ko'ra, ularda shundoq ham bir kunda o'g'irlanadigan miqdorga teng non.

Bir qismi tentak oshpaz uchun, uning tentakligini va jinnixonada yashaganini hamma biladi. Biroq u sog'lom odamdek yeydi. Yana non kesuvchilar va o'sha non kesuvchilarning atrofida yugurdaklik qilib yurgan shoqollar boshqa qismini o'g'irlashadi. Eng asosiy bo'lagini esa direktor, uning oilasi va itlari uchun olib qo'yishadi.

Biroq direktorning atrofida nainki itlar, nainki uy hayvonlari oziqlanadi, uning tegrasida qarindosh-urug'lari-yu sig'indilar ham talay. Ularning hammasiga bolalar uyidan tashishadi, tashishadi... Bolalar uyining tarbiyalanuvchilari tashishadi. Tashiganlarning o'zlari bu tashishlardan o'z ulushlariga ega bo'lishadi.

Kuzminchalar uchta buxankaning g'oyib bo'lishidan bolalar uyida shovqin-suron ko'tarilmasligini aniq chamab qo'yishgan. O'zlarini xafa qilishmaydi, boshqalarni ham benasib qoldirishmaydi. Bor-yo'g'i shu.

Komissiyaning bostirib kelishi (Ularni ham boqish kerak! Ularning og'zi katta!), nima uchun o'g'irlashganini, nega tarbiyalanuvchilar o'zlariga tegishli ulushni ololmay ochin-to'qin yashayotganliklarini va direktorning hayvon-itlari buzoqday o'sib ketganligini aniqlashtirishga tushishi kimgayam kerak.

Ammo Sashka Kolkaning mushtumi yo'naltirilgan tomonga qarab xo'rsinib qo'ydi.

– Yo'–o'q... – dedi u o'ylanib. – Baribir qiziq. Tog'larni ko'rgim kelyapti. Ular uyimizdan ham baland bo'lsa kerak? Nima deding?

– Xo'sh, nima qilibdi? – so'radi yana Kolka, uning qorni juda och edi. Tog'lar qanday bo'lmasin, bunday paytda ovqatdan boshqa narsa xayolingni band eta olmaydi. Bolakay yerning ostidan yangi pishgan nonning hidini tuyayotgandek edi.

Ikkalasi biroz jim turishdi.

– Bugun she'r yodladik, – esladi Sashka, uning bugun maktabda ikkalasi uchun o'tirishiga to'g'ri kelgandi. – Mixail Lermontov, «Qoyatosh» deb nomlanadi.

Sashka she'r uzun bo'lmasa ham, uni to'liq yodida saqlab qolmagan edi. Bu «Shoh Ivan Vasilyevich, yosh oprichnik va dovyurak savdogar Kalashnikov haqida qo'shiq» emas... Uf! Nomining o'zi yarim kilometr keladi-ya! She'rni-ku aytmasa ham bo'ladi!

«Qoyatosh»dan esa Sashka bor-yo'g'i ikki misrasini eslab qolgandi.

*Boshin qo'yib qoya bag'riga,
Uxlar edi oltin bulutcha...*

– Kavkaz haqidami? – diqqati oshib qiziqdi Kolka.

– Ha. Qoya deyilyapti-ku...

– Agar u ham mana bu kabi yaramas bo'lsa... – Va Kolka yana poydevorni mushtladi. – Sening qoyang!

– U meniki emas!

Sashka taraddudlanib, jimib qoldi.

Uning hayoli allaqachon she'rdada emas edi. U she'rni umuman tushunmas, ularni tushunishning keragi ham yo'q edi unga. Agar to'q qoringa o'qisang, ehtimol, foydasi bo'lar. Ana, xordagi sochi to'zg'igan ayol ularni azoblaydi, agar tushliksiz qoldirishmaganida ular ancha burun xordan tuyoqlarini shiqillatishgan bo'lardi. Ularga bu qo'shiqlar, she'rlar kerakmi... Kuylaysanmi, o'qiysanmi, bari-bir xayoling yegulikda bo'ladi. Och tulkinging xayolida faqat tovuq bo'larmish!

– Xo'sh, keyin nima bo'пти? – nogoh so'radi Kolka.

– Nima-nima? – takrorladi uning ortidan Sashka.

– Qoyaga nima bo'пти? Qulab ketdimi yoki yo'q?

– Bilmayman, – qandaydir bema'niroq javob berdi Sashka.

– Nega bilmaysan? She'r-chi?

– Nima she'r... Haligi, anavi... Oti nima edi... Bulut, demak, qoyaga tiralib qopti...

– Biz poydevorga tiralib qolganimiz kabimi?

– Ha, uxlapti... uchib ketipti... – Kolka hushtak chaldi.

– Bo'ldimi?

– Bo'ldi.

– G'alati yozishar ekan-ku! Goh jo'ja haqida, goh bulut...

– Menda nima ayb? – jahli chiqdi Sashkaning. – Men senga, nima, yozuvchimanmi? – Biroq qattiq jahl qilmadi. O'zi aybdor: xayol surib, o'qituvchining tushuntirishlariga quloq solmagan.

U birdan dars vaqtida hammasi o'zining aynigan Tomilinosidagidan boshqacha bo'lgan Kavkazni tasavvur qildi.

Bolalar uyidek keladigan tog'lar, ularning o'rtasida esa hamma-yoqda nonkeskichlar qadab qo'yilgan. Birortasi ham qulflanmagan. Qazish ham kerak emas, kirding, o'zingga o'zing tarozida tortding, o'zing yeding. Chiqib qarasang, u yerda yana bir nonkeskich turibdi, u ham zanjirlanmagan. Xalqi esa cherkascha kamzulda, mo'ylovdor, yirikkina. Ular Sashkaning yegulikdan huzur qilayotganini ko'rib, kulib, yelkasini qoqib:

– «Yaxshi, – deyishadi. Yana nima ham deyishsin! Ma'nosi esa bitta: «Ko'proq ye, bizda nonkeskichlar ko'p!»

Yoz fasli edi. O'tloqlarni maysa qopladi. Tarbiyachi lovnadan tashqari hech kim Kuzminchalarni kuzaychun chiqmadi. Tarbiyachi ham sovuq moviy ko'zlari bilan bolalarning boshlari

uzra qarar, jo'nab ketayotgan tarbiyalanuvchilar haqida o'ylayapti deb bo'lmasdi.

Hammasi kutilmaganda ro'y berdi. Bolalar uyidan ikki nafarini, kattaroqlarini, eng bezorilarini jo'natish rejalashtirilgandi, biroq ular shu zahoti g'oyib bo'lib qolishdi, Kuzminchalar esa, aksincha, Kavkazga borishni xohlayotganlarini aytishdi.

Hujjatlarni qaytadan yozishdi. Nima uchun ular dabdurustdan ketishga qaror qilishdi, qanday zarurat aka-ukalarni olis o'lkaga haydamoqda – hech kim bunga qiziqmadi. Faqat kichik guruh tarbiyalanuvchilari ularni tomosha qilish uchun kelishdi. Eshikning oldida turib, ularni barmoq bilan ko'rsatib: «Shular» deyishardi. Biroz sukutdan so'ng: «Kavkazga!» degan buyruq berildi. Jo'nab ketishning sababi esa asosli bo'lib, yaxshiyamki hech kim buni payqamadi.

Ushbu voqealardan bir hafta avval nonkeskichning ostidagi kovlangan yerosti yo'li kutilmaganda qulab tushdi. Eng ko'rinarli joyida o'pirilib ketdi va u bilan Kuzminchalarning o'zga, yaxshiroq hayotga bo'lgan ishonchlari ham barham topdi.

Kechqurun ketishayotgan edi, hammasi ko'ngildagidek tuyular, devorni ham teshib tugatishayotgan edi, faqat polni yorib chiqish qolgandi.

Ertalab esa hamma o'rnidan sakrab turdi: direktor va butun oshxona yig'ilgan, ko'zlarini olaytirib turishibdi: bu ne mo'jiza, nonkeskichning ostidagi yer o'pirilib tushdi.

Va fahmlashdi – axir bu yerosti yo'li-ku! Ularning oshxonasi, ularning nonkeskichi tagidan o'tgan yerosti yo'li!

Bundayini hali bolalar uyida ko'rishmagandi.

Direktor tarbiyalanuvchilarni birma-bir so'roq qila boshladi. Kattalarni so'rab-surishtirguncha kichik yoshlilaridan shubhalanishmasdi.

Maslahat uchun harbiy sapyorlarni chaqirishdi. Ulardan bolalarning o'zi shunday yerosti yo'lini qazishlari mumkinmi, deb so'rashdi.

Ular yerosti yo'lini ko'zdan kechirishdi, omborxonadan nonkeskich tomonga yurishdi va o'pirilgan joydan chiqishdi. Ustlarini qumdan qoqib, yelkalarini qisishdi: «Texnikasiz, maxsus tayyorgarliksiz bunday metroni kovlashning hech iloji yo'q. Bu yerda tajribali askar. deylik, xandaq kovlaydigan asbob va yordamchi vositalar bilan

kamida bir oy ter to'kadi... Bolalar esa... Agar bolalarning qo'lidan bunday mo'jiza kelsa, ularni o'zimizga ishga olgan bo'lardik».

– Bizning bolalar haqiqiy mo'jizachilar! – dedi qovog'ini solib direktor. – Men hali o'sha afsungar-ijodkorni albatta topaman!

Aka-ukalar shu yerning o'zida, qolgan tarbiyalanuvchilarning orasida turishgan edi. Ular bir-birining nima haqida o'ylayotganini yaxshi bilardi.

Kuzminchalar surishtiruv boshlansa ipning uchi ularga olib borishini yaxshi bilardi. Har doim shu yerda sandiroqlab yurishgan ular emasmi; boshqalar yotoqxonada pechkaning yonida isinib yotganlarida tez-tez g'oyib bo'lib turgan ular emasmi?

Atrofda ko'zlar ko'p! Birinchisi yoki ikkinchisi ko'rmay qolgan, uchinchisi esa payqagan bo'lishi mumkin-ku.

Bundan tashqari, ular o'sha kechada yerosti yo'lida o'zlarining chiroqlarini va, asosiysi, Sashkaning o'rmonga tuproq tashilgan sumkasini qoldirib ketishgandi.

Sumka eskirgan, biroq uning topildi deyilgani aka-ukalarning ajali yetdi degani! Baribir qochishga to'g'ri keladi. O'zlari xotirjam holda noma'lum Kavkazga jo'nab ketganlari yaxshi emasmi? Buning ustiga, ikkita o'rin bo'shab turibdi.

Albatta, Kuzminchalar qayerdadir viloyat tashkilotlarida Moskva viloyatidagi bolalar uylarini bo'shatish haqida g'oya tug'ilganidan bexabar edilar. Qirq to'rtinchi yilning bahoriga kelib viloyatda bunday uylarning soni yuztadan ortiqni tashkil etardi. Bu to'g'ri kelgan joyda bir amallab yashab yurgan boqimsiz bolalarni hisoblamaganda.

Bu yerda esa Kavkazning farovon yerlari dushmanidan ozod qilinishi bilan bir zunda ortiqcha og'izlarni jo'natish, jinoyatchilikni tugatish, buning ustiga bolakaylar uchun ezgu ishlar qilish kabi masalalar kun tartibida paydo bo'ldi.

Bundan Kavkaz ham, o'z-o'zidan, manfaat ko'rishi mumkin edi.

Bolalarga shunday deyishdi ham: to'yib yeyishni xohlaysizlarmi, yo'lga otlaninglar. U yerda hamma narsa bor. U yerda non ham bor, kartoshka ham, hattoki bizning shoqollar yer yuzida mavjudligini bilmaydigan mevalar ham.

Shunda Sashka Kolkaga qarab: «Meva yeyishni istayman... Anavi, kelgan odam bor-ku, o'sha aytgan mevalarni», dedi.

Bunga javoban Kolka meva bu aynan kartoshka ekanligini, buni aniq bilishini aytdi. Yana meva – bu direktor ekanligini qo‘shib qo‘ydi. Kolka sapyorlardan biri sherigi bilan ketayotib, direktorga qo‘li bilan ko‘rsatib, past ovozda: «Mana bu mevani bir qara... Urushdan bolalarning orqasiga berkinishini-ya!» deganini o‘z quloqlari bilan eshitgan edi. – To‘yib kartoshka yeymiz! – dedi Sashka.

Kolka esa shu zahoti bunga javoban hamma narsasi bor bunday boy o‘lkaga shoqollarni olib kelishsa o‘sha o‘lka bir onda kambag‘al-lashib qolishini aytdi. Ana, kitobda o‘qigan, chigirtka o‘lchami ji-hatidan bolalar uyi tarbiyalanuvchisidan ancha kichik, lekin gala bo‘lib yopishsa, hammayoqni shir yalang‘och qilib ketar emish. Buning ustiga, chigirtkaning qorni shoqolning qornidek emas, to‘g‘ri kelgan narsani yeb ketavermaydi. Chigirtka o‘sha tushunarsiz mevanigina yesa kerak. Biz bo‘lsa poyasini ham, bargini ham, gulini ham paqqos tushirib ketaveramiz...

Shunday bo‘lsa-da, Kolka borishga rozi bo‘ldi.

Jo‘natgunlaricha ikki oy cho‘zishdi.

Yo‘lga tushish kuni ularni nonkeskichning oldiga olib kelishdi, albatta, ostonadan nariga o‘tkazishmadi. Bir payok nondan berishdi. Biroq oldindan berishmadi. Semirib ketasizlar, shundoq ham nonga ketyapsiz deyishdi!

Bolalar eshikdan chiqishayotib, devorning ostidagi, o‘pirilishdan qolgan chuqurlikka qaramaslikka intilishardi.

Biroq bu chuqurlik ularni o‘ziga tortardi.

O‘zlarini hamma narsadan bexabardek ko‘rsatib, ular sumka bi-lan ham, chiroq bilan ham, qishning qoq o‘rtasida uzun kechalarni o‘tkazgan qadrdon yerosti yo‘li bilan ham xayolan vidolasha bosh-lashdi.

Aka-uka cho‘ntaklaridagi payoklarini qo‘ltiqlariga siqqancha di-rektorning yoniga yo‘l olishdi, ularga shunday buyurilgan edi.

Direktor uyining zinasida o‘tirgan edi. U galife¹da, biroq may-kasiz va yalangoyoq edi. Bolalarning baxtiga yaqin-atrofdan itlar ko‘rinmasdi.

U joyidan turmay, aka-ukaga va tarbiyachiga nazar tashladi va shundan keyingina ularning qaysi sababga ko‘ra kelganliklarini tu-shundi.

¹ Galife – yoni chiqqan shim.

Inqillab turdi, egri-bugri barmog'i bilan imladi. Orqada turgan tarbiyachi bolalarni sal turtib qo'ydi va Kuzminlar qat'iyatsizlik bilan oldinga bir nechta qadam bosishdi.

Direktor hech kimga qo'l ko'tarmagan bo'lsa ham undan qo'rqishardi. U qattiq baqirardi. Tarbiyalanuvchilardan birini yoqasidan ushlab olib ovozing boricha hayqirardi: «Nonushtasiz, tushliksiz, kechki ovqatsiz qoldirilsin!..» Bir aylanib baqirsa yaxshi, ikki, uch marta aylansa-chi?

Hozir direktorning kayfiyati chog'dek tuyulardi.

Aka-ukalarning ismini bilmay – u bolalar uyida hech kimning ismini bilmasdi – u Kolkaga barmog'i bilan ishora qildi, juda kalta, hammaog'i yamalgan pidjagini yechishni buyurdi. Sashkani esa qishlik nimchasini yechishga majbur qildi. Bu nimchani Kolkaga, pidjakni esa Sashkaga berdi.

Nari ketdi, ular uchun xayrli ish qilgandek qarab qo'ydi. O'z ishidan mamnun bo'ldi.

– Shunisi yaxshi... – Va qo'shib qo'ydi: – Xo'sh, haligi... To'polon qilmanglar, o'g'irlik qilmanglar! Vagonning ostiga kirmanglar, bo'lmasa majaqlab qo'yadi... Xo'pmi?

Tarbiyachi bolalarni tirsagidan turtib qo'ydi, ular poyma-poy: «Xo'p bo'ladi, Vik Viktrich!» deya javob berishdi. – Unday bo'lsa ketaveringlar! Ketinglar!

Xullas, ruxsat berdi.

Direktorning ko'zi ilg'amas masofaga uzoqlashganlarida aka-ukalar yana kiyimlarini almashtirib olishdi.

Kiyimlarining cho'ntaklarida ularning juda qimmatli payoklari bor edi.

Ehtimol bexabar direktorga bolalar bir xil ko'ringandek bo'lishi mumkin! Yo'q! Besabr Sashkaning noni uchidan kemirilgan, ehtiyotkor Kolya esa nonini faqatgina yalab qo'ygan, yeyishni hali boshlamagandi.

Yaxshiyamki begonalarning hech qaysinisi bilan ishtonlarini alishmagani. Kolka ishtonining manjetida o'ralgan o'ttiz rubllik berkitilgandi.

Urush paytida katta mablag' hisoblanmasa ham, Kuzminlar uchun bu pul katta edi.

Bu ularning yagona boyligi, noma'lum kelajakdagi tayanchi edi.

To'rtta qo'l. To'rtta oyoq. Ikkita bosh. Va o'ttiztalik.

Anna Mixaylovna, unga tayinlanganidek, aka-ukalarni elekt-richkada Kazan vokzaligacha olib borib qo'ydi va siyqabosh, g'ijim kastumdagi qandaydir bir boshliqning qo'liga qog'ozlar bilan birga topshirdi.

Uning ismi Pyotr Anisimovich edi.

U bolalarga birrov qaradi, ro'yxatda belgilab qo'ydi va ushbu ro'yxatni bir zumga ham qo'lidan chiqarmaydigan portfeliga solib, kiyim borasida ming'illab qo'ydi: Tomilinoda, ko'rsatmaga binoan, yaxshiroq kiyim bersa ham bo'lar edi.

– Axir nimalar bo'layotgani noma'lum-ku, – g'udrandi u.

Kuzminlar nima uchun tomilinolik direktor ularning bir-biri bilan kiyimlarini alishtirganini hozirgina tushunishdi, u o'z vijdonini gina-kuduratlardan berkitgan edi. Agar uning vijdoni bo'lsa...

Portfelini silkitib, Pyotr Anisimovich aka-ukalarni poyezd tarkibi bo'ylab oldingi vagonlarga yetaklab olib bordi.

Qandaydir odamlar uning oldiga qop va kiyimlari bilan yugurib kelishar, vatanlariga keta olmayotganliklaridan shikoyatlani-shar, yordam berishni, qanday qilib bo'lmasin joylashtirib qo'yishni so'rardilar...

Pyotr Anisimovich hammaga bir xil: «Yo'q, yo'q. Iloji yo'q», deb javob qaytarardi.

Bir marta esa qizishib, baqirib berdi:

– Nima, xudoyixonam bormi senlarga! Nimalar bo'layotgani noma'lum-ku! Yarim mingta boqimsizim bor, ularni qayerga o'tqazishni bilmayapman! – Shu bilan birga u nima uchundir Kuz-minchalarni ko'rsatardi.

Aka-ukalarga «o'tqazish» so'zi unchalik yoqmagan bo'lsa-da, in-damay turishdi.

Ular yurib borishar ekan, odamlar vagonlardan boshlarini chiqarib kuzatishardi.

Yangi kelganlarga qichqirishar, hushtak chalishar, ayniqsa, bo-zordagi, stansiyadagi, birga o'tirgan turmadagi tanishlaridan kimni-dir ko'rib qolishsa gijgijlashardi...

Kuzminlarni ko'rib, tanib bo'lishgandi, orqalaridan baqir-chaqir-lar boshlanib ketdi:

– Tomilino biti, qayoqqa o‘rmlab ketyapsan?

Aka-ukalar eng yuqoridagi, uchinchi tokchani egallashdi va cho‘zib o‘tirmay darrov oynaga otilib, boshlarini begona boshlar orasiga suqishdi.

Oldinlari nafaqat uchrashgan, balki dushmanona munosabatda bo‘lgan, hattoki yoqalashishgan lyubersiliklarni olib kelishayotganini ko‘rishdi va boshqalar bilan har kim o‘zi bilganicha chirillay boshlashdi.

– Lyubersi biti – qa-yoq-qa o‘r-ma-la-yap-san...

Shu zaylda lyublinolik, mojaysklik (bular haqiqiy kallakesarlar!), serpuxovolik, podolsklik, volokolamsklik, mitishilik (bularning hammasi bolalar qabulxonasidan, shunday royish, shunday yuvoshlarki, biroq narsangni o‘g‘irlab ketishganini sezmay qolasan!), noginolik, ramenskoyelik, kolomensklik, kashiralik, orexovo-zuyevoliklarni shunday kutib olishdi.

Biroq moskvaliklarni hammadan yomon qarshi olishdi.

Ular imtiyozga ega edilar, ularni yaxshiroq boqishar, ular viloyatliklar kabi juldur kiyib olmagandilar.

Butun eshelon moskvaliklarni qarshi olarkan, shunday do‘faryod ko‘tardiki, Kalanchyovkadagi tramvaylarning qo‘ng‘iroq ovozi eshitilmay qoldi.

Bo‘kirishdi, uvillashdi, ma‘rashdi, ba‘lashdi.

Ular yangi va yangi «kasbdoshlar» to‘dasini qarshi olgan holda qorong‘i tushguncha hangrashdi.

– Mitishiliklar – qoqsuyaklar!

– Hoy, mojaysklik, kel, urishaylik!

– Kashira – ovqati doim sasigan!

– Orexovo-Zuyevo – kiyimsiz faqirlar!

– Kolomnaliklar – doim och-yalang‘och!

– Zagorsklik tipratikanlar bizni urmoqchi bo‘lishdi, biroq tikanlari bilan o‘zlarini yaralashdi!

Jo‘r bo‘lib lapar kuylay boshlashdi, biroq so‘zlarida yomonlik yo‘q edi. Ko‘proq odatga ko‘ra baqirishardi.

Poyezd Nuh kemasi kabi bolalar uyining har biridan bir juftan olar, ularning esa buyuk to‘fondan keyin bo‘lgani kabi bir Kavkaz zaminida yashashlariga to‘g‘ri kelardi.

Axir zagorskliklar monastirga tilanchilik qilish uchun kelgan dmitrovliklarning kelishini poylab ularni yovuzlarcha do‘pposlagan

vaqtlar bo'lgan. Shunday ur kaltak-sur kaltak qilishganki, dmitrovliklar uzoq vaqt ko'zga ko'rinishmagan, jarohatlarini tuzatishgan. Keyin esa Dmitrovga qarindoshinikiga kelgan zagorsklıklardan birini tutib, bir oy sovuq tashlandiq cherkovda, zax sag'anada ushlab turishgan. Ular ham qarzlarini qaytarishgan, dmitrovlikni elektrichkada ushlab olib, tunda qabristondagi xochga bog'lab qo'yishgan: dmitrovlik uni so'yishayotgandek bo'kirgan! Biroq kim ham tunda, uning ustiga bunday baqiriqni eshitib qabristonga keladi?.. Aksincha, o'tkinchilar tum-taraqay qochishgan.

Moskva viloyati shaharlarining koloniyalari va bolalar uyi o'rtasida bundan-da ayovsiz to'qnashuvlar bo'lgan, pichoqli mojarolar ham, pistirmalar ham, bolalar uyini qamal qilishlar ham ro'y bergan...

Endi bo'lsa ularning hammasini, barcha-barchasini badkirdor hayotning o'zi birlashtirdi. Bir-biriga zid kimyoviy reaktivlar bir shisha idishga – poyezdga solindi. Shunday kimyoviy reaksiya sodir bo'ldiki, eshelon muddatidan oldin sinib chil-parchin bo'lib ketadigandek edi!

Xayriyatki, poyezdning vagonlari bitta emas, bir nechta!

Bolalar bir-biriga darrov emas, asta-sekin ko'nika boshlashdi, bo'lmasa birorta ham temir bunga dosh bera olmasdi. Ba'zida janjallar bo'lib turdi, kimdir chindan ham boshqa vagonga, gohida esa boshqa poyezdga qochib ketgan... busiz bo'lmaydi.

Tunga borib tarkibdagilar tinchiy boshlashdi. Vagonlarni quti-chaga o'xshab liq to'ldirishdi. Yetib kelganlarning har biri nafaqat o'zgalarni hushtakbozlik qilishi, balki o'zlari haqida ham o'ylashi: tokchani topishi, ishqab tozalashi, qo'shnisini turtib yuborishi, o'tirib, undan ham yaxshisi, yotib olishning imkoni bo'lishi uchun yaxshilab suqilishi lozim edi.

Bizning Kuzminlar xuddi shunday qilishdi.

Pastda, ular o'tirgan tokchaning ostida ham odatiy mashmasha ketayotgan edi. Kimdir kimnidir o'tkazib yubormas, turtkilar, siqib chiqarar, haydardi... Shovqin ko'tarilar, kattalar aralashishga majbur bo'lishardi.

Bora-bora tinib-tinchiy boshlashdi.

Bitta pastki tokchaga ikkitadan qilib joylashtirishdi, tunga ham poldagi, ham yo'lakdagi joylarni to'ldirishdi. Kuzminchalar uchinchi

tokchani tanlab yanglishishmagan edi. Bu yerga hech kim chiqmas, baland edi. Chiqish ham qiyin, bordi-yu chiqib olsang, qulab tushish ham mumkin.

Agar pastdan kimdir aka-ukalarning yoniga suqila boshlasa, ularning qiziquvchi basharalarini oyoqlari bilan tepkilab tashlardilar. Chaqirilmagan joyga chiqma! Bu yerda biror narsangni unutib qoldirdingmi!

Boyorlar kabi, har biri uchinchi tokchada alohida yaslanib yotib olib, yuqoridan turib, xuddi kino ko'rayotgandek, pastda nimalar ro'y berayotganini tomosha qilishardi.

Suhbatlar, qiqir-qiqir kulgilar, latifalar... Kimdir qo'shiq kuylay boshladi:

*«Buyuk Kavkaz tog'ida
Bir monax yashar ekan.
Tunni kunga ulab u
Oltin axtarar ekan.
Murodiga yetibdi,
Zar sotishga ketibdi».*

Monaxning oltin va Kavkaz borasidagi ishi qanday yakunlangani noaniqligicha qoldi: vagon siltanib joyidan qo'zg'aldi!

Hamma jimib qoldi. Quloq tutishdi. Ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilishmasdi, nahotki qo'zg'algan bo'lsak?

Bu yerda, biroz orqaga surilib, vagon yana bir marta, bu safar kuchliroq siltandi, sharaqladi, temirini g'ichirlatdi va chindan ham harakatlana boshladi! Uning yura boshlagani yengil g'ijirlashdan, hozircha onda-sonda silkinishdan-u taraq-turuqdan ma'lum bo'ldi.

Hech kim dunyo poytaxti yakkam-dukkam olovlari bilan uzoqlasha boshlaganini ko'rish uchun o'zini derazaga tashlamadi.

Hamma loqayd edi, qahramonlarimizning ham ko'z yoshlarga ishonmaydigan – buni ular o'z tajribalaridan bilishardi – Moskvadan ko'ngillari qolgan edi!

Pastda vidolashuv paytida o'sha, ishonmaydigan ko'z yoshini to'kish joiz bo'lganini bilganlar faqat ming'irlab qo'yishdi.

Qizlardan kimdir chirilladi: afsus...

– Nimaga afsuslanasan?

– Ketyapganimizga.

Chindan ham, nimasiga afsuslanish kerak?.. O'zlari ham tushunishmaydi: shunchaki, afsus. Qaytib kelmasak-chi! Qayerga qaytib kelmaymiz? Moskvagami? Yaxshi-ku, qaytib kelmasligimiz aniq, bizga imoratlari oq g'ishtli shaharning nima keragi bor! Uylari toshdan – odamlari temirdan...

Yo Parvardigor! Bu o'ng'aysiz, yuviqsiz, la'natlangan, urushda aynigan o'lkani yer yutsin! Bu yerda hamma bir harbiy kun bilangina yashaydi: sotib olish-u sotish... Dastgoh oldida turib, muzlagan sexlarda dushman ustidan g'alabani ta'minlayotganlar esa nafaqat boqimsiz bolalarni ko'rishmaydi, ular o'z farzandlarini ham yovvoyilashuv darajasiga olib borib qo'yishgan: smena o'n ikki soatlab davom etadi, shu sababli shu yerning o'zida, sexda uxlashadi...

Kuzminlarga kelsak, ularning bu yorug' dunyoda birorta ham yaqin insoni yo'q... Bu yerda ham va umuman hech qayerda!

Ular uchun faqat o'zlari bor – mana bunisi to'g'riroq bo'ladi.

Bundan chiqdi, ularni qayerga olib borishmasin, ularning uyi, qarindosh-urug'i va boshpanasi – bu ularning o'zi.

Moskva viloyatida xarob bo'lishdi, uvadasi chiqdi, bitlab ketishdi, endi esa xursand bo'lib qochishayotgandek. Cho'ldagi urug'lar kabi, noma'lumlikka uchib ketishmoqda.

Qayergadir, biror tasodifiy tirqishga, yoriqqa, chuqurchaga joylashib olamiz... Jonli suv ularni silab-siypab va e'tibor bilan sug'orsa, balki ko'karishar.

Nimjon novda bo'lib, cho'p bo'lib, mitti rangsiz kartoshka tolas bo'lib o'sishar, biroq so'rov ham yo'q-da. Unib chiqmasliklari, mangu yo'q bo'lib ketishlari ham mumkin. Shunda ham hech kim so'ramaydi.

Yo'q, demak bo'lmagan. Demak, kerak emas.

Bu ta'riflar nafaqat Kuzminchalarga, balki qirq to'rtinchi yili urush orqali, vayron bo'lgan, fashistlardan so'ng hali o'ziga kelishga ulgurmagan yerimiz orqali g'aroyib, bebok, nihoyatda quvnoq poyezdimizda ketayotgan har bir bolaga tegishli!

Men ularning ba'zilarini bolalik xotirasining ajib o'ziga xosligi tufayli yodimda saqlagandim, nafaqat yuzlarini, balki familiyasi va ismlarini eslab qolgandim va o'n yillardan keyin topishga urindim.

Manzillar stoli¹ga so‘rov bilan yuzlab sariq otkritkalarni yubordim – birortasi ham javob yozib manzilini jo‘natmadi. Birorta bizning ...dan bitta tugul xat kelmadi.

Mana, asarlarimni yigirma besh yildan beri chop qilyapman; o‘sha familiyalarni esa hikoyalarimda, qissalarimda, hujjatli ocherklarimda yashirnasdan, atayin ko‘rsatyapman va yana – javoban birorta ham so‘z yo‘q.

Qo‘rqinchli xayol keladi: nahotki o‘shalarning ichida faqat men omon qolgan bo‘lsam? Nahotki nobud bo‘lishgan, yo‘qolib ketishgan bo‘lsa? Unib, ko‘karishga ulgurishmabdi-da?

Bu qissa, ehtimol, bo‘shliqqa oxirgi hayqirig‘im bo‘lsa kerak: javob bering! Axir biz o‘sha tarkibda besh yuzta edik-ku! Balki tirik qolganlardan kimdir, bittasi bo‘lsa ham, ehtimol meni eshitar, boisi ko‘pchiligi keyin, bu mening ko‘z o‘ngimda ham ro‘y bergan edi, o‘sha, bizni olib borishgan yangi zaminda nobud bo‘lishdi, g‘oyib bo‘la boshlashdi...

Eng ehtiyotkorlari cho‘ntaklariga, to‘rvalariga, qoplariga, maxfiy joylariga qo‘llarini suqib u yerdan yegulik olishayotgani tepadan ko‘rina, aniqrog‘i eshitila boshladi.

Kimdadir sabzi, lavlagi, tuzlangan bodring, vobla balig‘ining boshi yoki qovurilgan kartoshka bor edi. Bittasida hattoki – bo‘tqa, lattaga o‘ralgan zich guvala... Yana – haqiqiy mo‘l-ko‘llik ham – kulrang pirogcha. Ularni muzqaymoq chiqindilari va chiqitlardan tayyorlashardi.

Pirogchalar, pirogchalar, urush blinlari, piroglarni bir marta yesang kun bo‘yi to‘q yurasan!

Va birdan... Ushbu «birdan» so‘zidan ichaklarning chimdila-na boshladi! Aqldan ozdiradigan hidli tokchalar, vagonlar, poyezd bo‘ylab tarqala boshladi... Ichaklaringni xuddi arra bilan kesganday! Oltindan sap-sariq shu‘lali cho‘zinchoq-oval amerika bankachasida kolbasa go‘shini ochishdi!

Ablah moskvaliklar, g‘ishtli uylarga kirvolib, oq non yeyishyapti!

Bu gap mana shular, dimlangan go‘sh t yeyayotganlar haqida, – deb yuborishdi qashshoqlashgan Moskva viloyatiliklar bir ovozdand!

¹ *Manzillar stoli* – kishilarning manzillari haqida ma‘lumot beruvchi bo‘lim yoki idora.

Hammasi haqida bunday deyish adolatdan emas, albatta. Biroq chetdan, o'rmondan turib bu yerda, poytaxtda o'zlarining direktoriga o'xshagan meshqorinlar hammasini o'marishga ulgurmagandek tuyulardi! Yo'qsa, ayting-chi, qulog'imga shivirlang-chi, pastda yarqirayotgan kolbasa bankasi, oltin tusli quyoshcha qayerdan paydo bo'ldi?

Bunday kolbasa haqida bizning Kuzminchalar faqat hikoyalarda eshitishgan! Hidi borasida esa: Sashka ushbu unutilmas, hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan hidni hayotida ikki marta tuygan va bu tuyg'uni Kolkaga so'zlab bergan...

Tovuq qanoti haqidagi ertakka o'xshab... Tovuqning qanoti shirin-da, sen uni yeganmisan, yo'q, yemaganman, faqat barinimiz yeganini ko'rganman.

Endi esa ikkovi yulduz yiltirab turgan qorong'i quduqqa boqqandek pastga qarashardi. Faqat aka-ukalar emas, albatta, hamma qaragan bo'lsa kerak! Eshitishgan, hidlashgan, kim bilsin, hayotlarida yana qachon bunday tuyg'uni his qilishadi! Va hidlashadi!

Keyin esa, buyruq berilgani kabi, aka-ukalar teskari burilib bir-biriga qarashdi. Ikkovi ham bir-birining nima haqda o'ylayotganini bilishardi.

Sashka, ochlikdan butun vagonga baqirib yubormaslik uchun og'zimni nima bilan yopsam ekan, deb o'yladi. Bu baqiriq banka, o'sha yetib bo'lmas orzuga emas, balki, bu endi boshqalarning suhbatidan ma'lum bo'ldi, bolalarga besh kunga yetadigan non va boshqa payok berilishi yozma ravishda buyurilgan tomilinolik muttaham direktorga atalgan edi! O'sha vaqtda zinapoyada o'tirib olib, husnbuzar toshgan qo'ltig'ini qashiyotgan maraz nimalarni o'yladi, uning o'ziga o'xshagan badbashara insofi qayerda edi: axir u ikkita bolani uzoq kunlik yo'lga jo'natayotganini bilardi-ku! Nahotki uning insofi qiynalmadi, g'arg'asha bo'lib qotib qolgan yuragida birorta hujayra qimirlamadi!

Kuzminchalarim va shaxsan mendan olis saksoninchi yillar qa'ridan kechikib kelayotgan ushbu alamni, ushbu nafratni qabul qilib oling, front orqasiga yashiringan semiz kalamushlar.

Urush okeanidan terib olingan bolalarga to'la uy-kema bunday kalamushlar bilan to'lib-toshgan edi...

Shundaylardan birining ismi Vladimir Nikolayevich Bashmakov edi.

U Talovaya internatining direktori bo'lib, taqdirimizning hukmdori edi va bizni ochlik bilan azoblardi.

Hey, qayerdasan, navbatdagi tarbiyalanuvchiga bir nechta halokatli sutkalarni o'ylab topishni yoqtiruvchi, kalta qo'lini ishga solishni va hukmini yurgizishni yaxshi ko'ruvchi napoleoncha!

– Tushliksiz, kechki ovqatsiz, nonushtasiz, tushliksiz, kechki ovqatsiz...

Hukmni eshitib, qalb zirqirovchi sezgidan siqilardi: u ushbu ro'yxatni ochlik belbog'i qilib belingga necha marta o'rar ekan deb!

Kuzminchalar berilgan nondan bir bo'lakni yonlaridan chiqarishdi. Yo'lda chimdilayverib bir burdagina qoldirgan edilar.

Kolka hidlab ko'rdi va taklif qildi:

– Xohlaysanmi?

– Sen-chi?

– Men ertalabdan ko'p yeb bo'kib qoldim, – dedi Kolka. O'zi esa o'yladi: agar Sashka ikki bo'lagini yesa, to'q bo'ladi. Tunda esa shundoq ham yemasligim kerak, yo'qsa to'qlik hissi uyquda foydasiz o'tib ketadi.

Kolka o'zining bo'lagini Sashkaga uzatdi, o'zi esa teskari burilib oldi. Kolbasaning hidi ichak-chovog'ini portlovchi o'q kabi ag'dar-to'ntar qilardi.

Yaramaslar, qoshiqlari bilan tunukani tirnamasalar bo'lardi, bu tovushdan xuddi seni, aynan seni qoshiq bilan tirnashayotganday qorning akashak bo'lib ketardi.

Kolkaning chinqirgisi, o'zi yotgan yog'och tokchani kemirgisi keldi! Yuzi bilan quruq doskalarga muk tushdi, boshini qo'llari bilan siqdi, bu holat davom etaversa mazasi qochishini sezardi. Baqirib, hayqirib yuborsa butun vagonga, begonaning bayrami uni shunday ko'yga solmoqda. Sashkaga ham yengil emas. U Kolkaning non bo'lagini qaytarib berdi. Shiftga termilib, nafrat bilan shivirladi:

– Hech bo'lmasa ertangi kungacha yetib olsak... Ertaga, poyezd to'xtashi bilan...

Kolka ilib ketdi va xo'rsindi:

– Bozor-ga! Eh!

Bozor ikkisi uchun yo'q deganda ushbu yo'lga bardosh berish degani edi.

Yo'lda uchragan moskvalik hamrohlarga bir necha sutkaga yetgulik payok berishgan edi. Qarindosh-urug'i ham yegulik qistirgan ko'rinadi. Kuzminchalarning esa eng yaqin qarindosh-urug'i – bu o'z mahsulotlarini yaxshi qo'riqlamaydigan bozordagi xolalar.

– Men hozir bir narsani mo'ljallab qo'ydim, ertaga qanday qilib do'ndirishni o'ylayapman, – dedi Sashka va boshini qashidi. Uning miyasida, notanish qorong'ilikda Sashkada eng ajoyib g'oyalar tug'ilardi.

– Qilamiz, – g'azab bilan dedi Kolka. Cho'rt kesib qo'ya qoldi. Ikkoviga ham tushunarli edi: u Sashka nimani o'ylab topgan bo'lsa, hammasini bajaradi. Quruq gapga qorin to'ymaydi!

4

Poyezd bir silkindi-yu, to'xtadi.

– Bu qayer? Voronejmi?

– Kim bilsin? – pastdagi ovoz javob berdi. Aka-uka, ko'rsatma berilgandek, uyg'onishib derazaga tikilishdi. Kulrang fasadda jigarrang moybo'yoq bilan «VORONEJ» deb yozib qo'yilgandi.

Kuzminchalar yo'lda shunday shahar kelishini eshitishgandi. Biroq ularni shahar emas, vokzal yonidagi bozor qiziqtirardi.

Ikkovi ham tokchalardan pastda turtishayotgan va derazaga qarayotgan bolalarning boshiga sirg'anib tushishdi. Aka-uka tambur'ga suqilib o'tishdi va temiryo'l xizmatchisi iflos ko'k harbiy kiyimini kiygan kalta oyoq mo'ylovli provodnikka yo'liqishdi. Etigining qo'njida ikkita bayroq chiqib turibdi. Qopida nimanidir sudrab ket-yapti, mo'ylovlari zo'r g'ayratdan terlab ketgan, ko'zlari chaqchaygan.

– Amakijon, uzoq turamizmi?

Provodnik ularni ko'kragi bilan tamburning oxiriga surib ketdi, qopini bo'g'iq taqillatib yerga tashladi. Qaddini rostlab, burildi. Qarab qo'ydi.

– Sizlarga nima kerak?

¹ *Tambur* – yo'lovchi vagonlarining yopiq dahlizi.

– Bozor, – dedi Kolka. Umid bilan so‘radi, bekordan bekorga kishi qopini tortib ketmayapti-ku. Qopning ichida kartoshka bor, ko‘rinishidan bildi. Aytgancha, bu qopni ko‘zdan qochirish kerakmas.

– Ha! Bozor vokzalning orqasida, – ming‘illadi provodnik va chiqish tomonga qarab qo‘lini siltadi. – Qara, kech qolma! Poyezd uzoq turmaydi! Bir marta gudok berdimi, yugur... Ikkinchi marta chaldimi – haligi... yura boshlaymiz...

Kuzminlar bir-biriga qarab qo‘yishdi.

Ikkalasi yaxshiyamki poyezd uzoq turmaydi, deb o‘ylashdi. Ularga poyezdning uzoq turishi kerak emas. Qancha tez qo‘zg‘alsa, shuncha yaxshi. Ular uchun yaxshi. Ular esa o‘zlari haqida ham, poyezd haqida ham oldindan o‘ylab qo‘yishdi.

Vokzalning yarim xaroba binosi bilan tugagan uzun devor ortida – u yerda shafqatsiz janglar kechgan bo‘lsa kerak – xalq to‘la maydon ochilardi. Singan g‘ishtlar, suv to‘la xandaq ustidan sakrab, aka-uka boshqa o‘nlab bolalar kabi bozor tomonga chopib ketishdi.

Xanjar o‘ljasiga qanday sanchilsa, ular yugurib kelib bozorga shunday sanchilishdi.

Kiraverishda, har doimgidek, qopda pistalar va to‘qilgan supurgilar turibdi. Ichkarida esa sabzavot: kartoshka, lavlagi, sholg‘om, bodringlar taxlangan... Sabzavot Moskva viloyatiga qaraganda ko‘proq, sut ham mo‘lroq, uni stakanlarda sap-sariq ko‘pigi bilan namoyishga chiqarib qo‘yishibdi. Qatiq deyishadi. Cho‘zib baqirishyapti: «Qa-tiq! Kimga qa-tiq!» Xola ularning orqasidan baqiryapti. Chunki Kolkaning cho‘ntagidan qip-qizil o‘ttiztalik mo‘ralab turibdi. O‘ttiztalikning orqasida esa yana qandaydir qog‘ozlar ko‘karib turibdi... O‘ttiztaliksiz xola ularni payqamasdi ham, qadrdonim deb chaqirmasdi ham. Muttahamlar kammi!

Sashkaning niyati butun bozorga cho‘ntagidagi qimmatli o‘ttiztalikni ko‘rsatish, yonida esa «Belomor-kanal» papirosi qutisining qiyqimlarini tiqishtirib tashlash edi. Oddiy quti, pulning chiqib turgani o‘ttiztalikdan ko‘rinib turibdi.

Albatta, aka-uka tavakkal qilayotgan edilar. Haqiqiy o‘ttiztalikni ko‘z-ko‘z qilish xavfli, firibgar akasi osongina molimardumxo‘rlik qilishi mumkin! Biroq bu ham hisobga olingandi. Kolka to‘ralar kabi yurib kelyapti, o‘ttiztalikni ko‘z-ko‘z qilyapti, Sashka esa orqasidan

ko'zini uzmay qadam bosyapti, kimdir payida bo'lsa yoki yaqinlasha boshlasa surib chiqaryapti.

Atrofda betartib olomon chug'urlashmoqda. Pista chaqmoqda. Yerni po'choq bosgan.

Yonda chinqiriq boshlandi: kimnidir tutib olishdi, demak do'pposlashyapti.

Bu manzara aka-uka uchun yangilik emas, o'zlari ham qo'lga tushishgan va o'zlari ham so'yilayotgandek baqirishgan, qaraysan – kimdir himoya qilishga tushadi. Sukut saqlab turaversang, narsasi uchun boshingni ham uzib olishga tayyorlar, ayab o'tirishmaydi.

Balki o'zlarinikidan, eshelondan kimdir baqirgan bo'lishi mumkin, ammo aka-ukalar boshqa tomonga burilishdi. Bu yerda haddan tashqari hushyorlar o'tiribdi!

Ellik qadam yurishdi va taqalib qolishdi: mana u! Mana, ular izlayotgan narsa shu yerda yotibdi!

Yassi taxta peshtaxtada, markazida emas, chetida lattada uyda yopilgan, ehtiyotlik bilan teng yumaloq bo'laklarga bo'lingan javdar non turibdi. Yonida esa butunlay mo'jizaviy, oppoq, uzun narsa: Kolka yurayotib qoqinib ketgandek ko'rib qoldi. Afsun qilingandek tikildi.

Sashkani uni yengilgina biqinidan turtib qo'ydi:

– Nima, angrayib qolding... Baton bu! Shunaqa oppoq bulka, kinoda ko'rsatishgandi...

U pichirladi, o'zining esa tomog'iga loy bo'lagi tiqilib qolgandek bo'ldi, na yuta olmaysan, na tupurib tashlolmaysan. Bunga ko'z oldidan ketmayotgan mana bu jin urgur baton aybdor.

Sashka urushdan oldingi bir kinoda ko'rgan edi: ko'chada non do'koni turibdi, kimdir kirib mana bunday oppoq nonni sotib olyapti... Va: «Baton sotib oldim» deyapti. Nahotki yolg'ondakam sotishgan bo'lsa? Kartochkalarsiz! Butunligicha!

Aka-ukalar atrofiga nazar tashlashdi, kimdir ulami quvib o'tmasa bo'lgani. Xaridorlar ushbu g'oyat ajoyib narsaga tashlanishmasa bo'lgani. Ammo yo'q. Hech kim olmayapti, pulini tiqishtirmayapti... Bir-ikkitasi kirib narxini so'rab, ketib qolyapti. Non qimmat bo'lsa kerak, qo'l tegizilmagan holatda yotibdi, boy xo'jayinini kutyapti, butun olamga oltin jildi bilan yaraqlayapti.

Hidini aytmaysizmi, hidini! Aka-ukalar yuz metr naridan bu hidni sezgan bo'lishardi, balki qorinlari och bo'lgani uchun ham asalari gulga intilganidek shu yerga uchib kelishgandir.

Aka-ukalar ichlarida duo qildilar. Shunday so'rashdi: «Ey Xudo! Hech kimga berma, fursatimiz yetgunicha asrab tur! Hamyoni kattalarni, bizdan oldin ushbu mo'jizani ilib ketishi mumkin bo'lganlarni bir chetga surib qo'y... Ey Tangrim, o'zing ko'rib turibsan-ku, biz yo'limizda davom etishimiz kerak, bordi-yu hozir qo'ldan boy bersak-chi... Juda yegimiz kelyapti, ey Xudojon! Sen minglab odamlarni nonga to'ydirgansan (kampirlar aytishgan), yana ikkita odamni o'sha baxtililarning safiga qo'shib qo'y!» Ehtimol aynan shunday so'zlar aytilmagandir, biroq ma'nosi uchun, o'sha iltijolarning samimiyligi uchun javob beraman.

Endi aka-ukalar vazifani shunday taqsimlashdi: biri poyezdga, boshqasi baton va nonga yuzi bilan buriladi, nariroqda esa mumkintakda asal bo'lak-bo'lak bo'lib yotibdi...

Mana qayerda o'sha to'rtta ko'z asqatadi! Bularning hammasini Sashkaning kallasi och qoringa o'ylab topdi! Yelkama-yelka, o'ttiztalikni ham uxlatib ketishmaydi, atrofda harq hamma narsa ko'rinadi, signal berish uchun esa bor-yo'g'i tirsagini qimirlatish kifoya.

Sashka parovoz gudok berganini eshitdi. U bo'g'iq tovush bilan, cho'zib: «K-e-e-t-yap-m-a-a-n!» deganday o'ziga chaqirardi. Aynan u qahramonlarimizning haqqoniy ishlarini boshlashlari uchun o'ziga xos signal edi.

Endi olg'a! Faqat olg'a! Batonga – yumaloq javdar burdalarga, atrofida surbet arilar daydib yurgan bo'laklardagi asalga... Biroq dastavval qadrdon oltin nonga! Tezroq, Kolka! Tezroq!

Sashka o'tkir tirsagi bilan Kolkaning biqiniga turtib qo'ydi. «Chaqqonroq», deya pichirladi.

Kolka bo'lsa balandroq, o'ttiztalik qog'ozchadan bilinarliroq qog'ozni chiqardi va to'ppa-to'g'ri peshtaxtaga yo'l oldi. Ularning zaxirasida ko'p emas, bir yoki ikki daqiqa borligini biladi. Pesh-taxtaga yaqinlashdi, pullari yaxshiroq ko'rinishi uchun aylanib, so'radi:

– Bu yerda nimalar bor ekan? – Aynan shunday, uning uchun arziqli hech narsa yo'qdek ohang bilan so'radi.



O'rta yoshlardagi ayol, moviyrang chaqchaygan shisha ko'zlari tugmadek osmonga qaragan. Bo'yidan ko'ra eniga tarvaqaylagan. Sashka hozir: «Peshtaxtadan ham keng ekansan», degan bo'lardi. Buni qarang, yorilib ketay deyapti, bozorda bo'lmay, yana qaysi yemakxonada cho'chqadek boqishdi ekan-a?

Kamida yuz pud go'sht tosh bosadigan ayolning orqasida u bilan solishtirganda nimjondek ko'rinuvchi erkak o'tiribdi. Ayol agar istasa uni ezib qo'yishi mumkin edi.

Bularning hammasi istar-istamay, norozi chehra bilan nonni ko'zdan kechirayotgan Kolkaning xayolidan yengilgina shabada kabi uchib o'tdi.

– Har xil narsalarni opkelishaverar ekan-da... – g'ijinib g'uldiradi u va yiroqqa qaradi, hozir yana yo'lida davom etadi. – Bu yerda arzirli narsa yo'qqa o'xshaydi.

Ayol pistasini chaqib, loqaydlik bilan yonga tupuradi. Pistalarni pulemyotdek tirillatadi. Biroq unga ham bu gaplar tegib ketdi.

– Har xil? – deb so'radi, hattoki pista po'chog'i labida osilib qoldi. – Bu senga har xilmi? – Kolkaning burni ostiga batonni suqdi.

Kolka ketishga chog'langan edi, lekin ushlanib qoldi, batonni qo'lga oldi va prujinasimon jildidan, mast qiluvchi hididan birdan behuzur bo'ldi.

– Kepakdanmi? – deb so'radi va aftini burishtirdi. Ko'rinib turibdi, go'yo kepakdan qilingan har xil narsalarni burnining ostiga suqishlarini yoqtirmaydi.

– O'zing kepakdansen! – to'satdan jahli chiqib ketdi ayolning. – Bug'doydan! Ko'zni kattaroq ochish kerak!

Kolka esa chindan ham ko'zlarini yumib olgandi, hozir u qusib yuboradi. Shu yerga, to'ladan kelgan ayolning oldida qayt qilib yuborsa bormi, barcha rejalariga nuqta qo'yildi deyavering. Ana mumammo! Hammasini obdan o'ylab chiqqan, har bir harakatini oldindan mo'ljallab qo'ygandi, ochlikdan ko'ngil aynishini, ichaklarning siqilishini esa unutishdi, e'tiborga olishmadi.

Kolka javob tariqasida bosh irg'atib qo'ydi, chuqur nafas oldi, yana bir marta nafas oldi. Ko'rsatish uchun esa qo'lini og'ziga olib bordi, xuddi esnaganday. Hattoki tabiiy chiqdi, yigitcha esnab qo'yyapti, u bu yerda turishdan, go'yoki kepakdan qilinmagan qandaydir majmag'il batonga qarashdan zerikdi chog'i.

– Xo'sh, necha pul? – so'radi batonni ayol tomonga pala-partishlik bilan surib. Biroq olib ketishga umidi bo'lgani uchun juda uzoqqa surmadi.

– Bir yuz ellik.

– Arzonroq bo'ladimi?

– Bo'lmaydi. Sen bunga bir qaragin! Top-toza bug'doydan!

– Yuz, – ping'illadi Kolka qo'lini siltab. – Ko'rganman sening top-toza bug'doyingni. Bozor kunida narxi bir pulga qimmat.

– Yuz qirq, – deydi ayol va yana pistasini chaqishga tushadi.

– Yuz yigirma, – so'z tashladi Kolka va ketishga taraddudlana boshladi. Yon tomonga bir qadam tashladi, ayolga, uning batoniga esa qaramayapti ham. Qiziq emas.

– Yuz o'ttiz, – orqasidan qichqirdi ayol. Og'zidan pista yelpig'ich bo'lib uchib chiqdi.

– Mayli, – tushdi Kolka, qaytib va pullar yana ko'rinsin uchun cho'ntagidagi pullarni urib qo'yib. – Ziyonimga, hisobga ol!

Batonni oldi, pul turgan cho'ntagiga tiqa boshladi. Lo'ppi sotuvchiga o'ziga kelishga imkon bermaslik uchun darrov boshqa nonni barmog'i bilan ko'rsatdi:

– Buning narxi qancha?

– Bo'lagi – o'ttiz. Asal ham – o'ttiz! – Ayolning labi labiga tegmay gapira ketdi, po'choq har tomonga ucha boshladi.

– Olaman! Ship-shiydon qilyapgan bo'lsang ham! – abjirlik bilan dedi Kolka nogoh quvnab ketib va shu zahoti o'sha cho'ntagiga ikki burdasini tiqdi. Va yana ayolning o'zini o'nglab olishiga imkon bermay darhol ikki bo'lak mumkatakni qo'yniga soldi. – Eh, shuncha boyligimiz qayerlarga sarf bo'lmagan... Hammasini olaman! Hammasini!

Ayol nimanidir sezgandek, pistani bir chetga qo'ydi, tugmadek ko'zlarini Kolkaga tikdi.

– To'la! Nega ushlab tashlayapsan! To'la, deyman!

Shu paytgacha yonida mudrayotgan erkak xotining ovozidan cho'chib tushib, atrofga alangladi. Uning ko'z o'ngida mahsulotini o'marishyapti, u bo'lsa yulduz sanab o'tiribdi.

Mana u, ikkinchi mushkul vaziyat! Hammasi olindi va chiroyli jo'nab qolish kerak. Axborot byurosi ma'lumotlarida aytishganidek: dushman qo'shinining Stalingrad ostonasidagi qurshovi yakunlandi. So'nggi zarba berish vaqti keldi.

Buning uchun Sashka pistirmada turibdi. Kulikovo maydonida Dmitriy Bobrok otryadining Mamay qo'shiniga qarshi turgani kabi. Maktabda o'tishgan. Ayni damda Mamay, turgan gapki, dumbasi katta ayol...

Mo'g'ul-tatarlar ruslarni siqa boshladi: ayol takroran baqirdi:

– To'la! – va Kolkani yengidan ushlab oldi. – Qani, to'la!

Ayni shu vaqtda volinlik askarboshi Dmitriy Bobrok pistirmadagi polkka oldinga chiqishni va fashistlarga hal qiluvchi tank zarbasini berishni buyurdi.

Suvdan sho'ng'ib chiqqanday, yonida Sashka paydo bo'ldi.

– Tezroq! Tezroq! – sotuvchi ayolni yanada qattiq karaxt qilish uchun baqirdi. – Poyezd ketyapti!

Kolka boshini burdi va ayol ham beixtiyor ortidan qaradi: poyezd, ularning poyezdi asta qo'zg'alayotgan edi. G'ildiraklari g'ijirlay boshlagandi. Ichkariga tiqilganча bolalar eshikning oldida g'ovur-g'uvur ko'tarishga tushishdi.

– Yugur! – yanada baland ovozda, sarosimalanib baqirdi Sashka. – Keyin... Keyin beramiz!

Ayol darhol o'ziga keldi. Kolkaning yengiga xippa yopishib oldi.

– Qachon keyin? Hozir to'la! – Va chinqirdi: – Pu-ul!

– Pulini ber! – baqirdi Sashka. – Bo'lmasa qolib ketamiz!

– Pullar batonning ostida-ku!

– Batonni ber menga!

Sashka batonni qo'liga oldi, u yerda esa non ham xalaqit beryapti. Kolka nonning ostidan izlay boshladi, qo'lingni tushir, qanday qilib olaman deganday qo'lini tortdi.

Ayol qo'lni qo'yib yubordi, Kolka birdan sapchib yugura ketdi. Sashka esa allaqachon qo'lida baton bilan poyezd tomonga uchayotgan edi.

Quyidagi manzara namoyon bo'ldi: oldinda Sashka baton bilan, so'ngra Kolka, uning izidan ayol va uning eri quvib ketishyapti.

Ayol shu qadar qizishardiki, Kolka orqada uning haroratini tuyardi.

Biroq kulishning mavridi emasdi, ayol o'zining bo'yiga nisbatan enliroq bo'lsa-da, shunday chopardiki, bir qadam ham qolib ketmasdi. Yetib olishadi, o'ldirishadi. Bular aniq ayab o'tirishmaydi. Shu orada boshqa sotuvchilar ham musobaqaga qo'shilishdi, ular uchun

o'g'rilarini quvlash -- ovunchoq. Do'pposlash esa -- butunlay yurak chigilini yozish...

Butun bozorni dod-faryod qopladi:

– Ushla-a! O'g'ri-i-i!

Butun eshelon derazadan boshini chiqardi. Teatrdaagi tomosha.

*Moskva viloyatilik bolalar yulg'ich-o'g'rilar,
Go'ng solingan cholning qopin asta o'g'rilar!*

Barcha o'n beshta vagondan, yuzta oynachadan besh yuzta masxaraomuz bashara, besh yuzta zaharxanda tomoq jo'r bo'ldi. Qiyqirig, qahqaha, bo'kirish, chiyillash, gijgijlash.

– Hoy, Voronej, ketidan quvib yetolmaysan!

– Yetib olsang-da ololmaysan!

– Hoy, eringni yo'qotib qo'ydingmi!

– Xotin emas, parovoz! Bug'ingni chiqar, bo'lmasa portlab ketasan!

– Balki uni poyezd vagonlarini itarishga olish kerakdir?

Kimdir zamonaviy qo'shiqni hirgoyi qila ketdi, boshqalar unga jo'r bo'lishdi:

*Poyezd to'g'ri Moskva tomon Tambovdan yelar,
Men yetibman o'z tokchamda, buni kim bilar...
Tra-la-la...
O'g'rini ushla!*

Derazadan g'ajib, kemirib tashlangan narsalar, shishalar, bankalar ucha boshladi, aynan ular fashist-Mamay o'rdasining siljishini to'xtatib qoldi. Tarixda doim bo'lgani kabi, jangning natijasini oxir-oqibat xalq hal qildi.

Sashka birinchi bo'lib vagoniga yugurib keldi, tutqichini ushlab oldi, qayrilib qaradi.

Kolka toyib ketdi, qo'lidagi non bo'lagini tushirib yubordi. Olish uchun engashgan edi, ikkinchisini tushirib yubordi.

Ayol esa musht ko'rsatib do'q qilib Kolkaga yaqinlashardi. Hademay ushlab oladi. Orqada esa eri yugurib kelyapti. Ko'ngillilar orasidan bir yigit ham o'ziga ermak topgan ko'rinadi, yana bir nech-tasi o'qday uchib kelyapti...

– Tashla! – bor kuchi bilan, chorasizlikdan, butun Voronejga eshiltgudek baqirib yubordi Sashka. – Tashla! Tashla! Tashla!

Kolka o‘zini yo‘qotib qo‘ydi, biroq ustiga yaqinlashgan nafasni eshitdi! Nafas emas, pishillash, g‘ijirlash: kamida tank ustiga bostirib kelayotgandek!

Salkam emaklab, oyoq-qo‘li bilan sakrab chiqdi, vagon zinasini ushlab oldi, ayol bo‘lsa oyog‘idan tortqilayapti.

Sashka va provodnik Kolkaning qo‘ltig‘iga mahkam yopishishdi, o‘zlariga tortishdi, ayol esa o‘ziga, garmon kabi cho‘zdi. Baqiryapti, shovqin solyapti, cho‘chqaday chiyillayapti! Eri ham yonida...

Sho‘rlik Kolkani shunday siltashdiki, ayolning hovuchida Kolkaning ishtoni qolib ketdi.

Yetib kelib qo‘lini cho‘zayotgan erini esa provodnik bayroq bilan turti va etigi bilan qo‘shib qo‘yib:

– Chiqlmasin! – deya baqirdi. – Quyonlarni kiritmaymiz! Ha! Badbaxt chayqovchilar! Ro‘-da-po-lar!

Ularning boshiga derazalardan har xil shisha idishlar-u po‘choqlar ucha boshladi...

Masxara va mayna qilishlar ostida poyezd tezlik oldi.

«Tra-la-la, o‘g‘rini ushla!»

5

Baton kuzminlarni ancha boqdi.

Ichini ushog‘i qolmaguncha kemirib, yalab, yeb qo‘yishdi. Shakli esa...

Qattiq jildi ular uchun idish bo‘ldi, uni avaylab-asrashardi. O‘ylab ko‘rilsa, sehrli idishdek bo‘ldi. Undan, Sashkaning g‘oyasiga ko‘ra, ikki baravar, uch baravar, besh baravar foyda olish mumkin edi!

Stansiyalarda, kichik yarim stansiyalarda o‘zlarining ichi kavak batonlari va Kolkaning cho‘ntagidan ko‘rinib turgan doimiy o‘ttiztaligi bilan bozordagi ayollarning yoniga yugurib borib batonning ichiga smetana, qatiq yoki ryajenka quyib berishlarini so‘rashardi.

So‘ngra aka-ukalar o‘rtasida kichkina sahna ko‘rinishi boshlanardi: biri bu qimmat ekanligini, poyezd esa jo‘nayotganligini aytib baqira boshlardi...

Ichidagi sut mahsulotini to'kishar, batonga shimilganini esa qoshiq bilan qirishardi. Qoshiqlarni moskvaliklardan olib turishardi.

Ammo baton ham, bu hayotda hech narsa mangu bo'lmaganidek, abadiy emas ekan.

Jildi asta-sekin yuqqalashdi, namiqib qoldi va Voronejdagi voqeadan bir necha kun o'tib qahramonlarimizni boqib kelayotgan idish mayda bo'laklarga ajralib ketdi. Ularni afsuslar-nadomatlar bilan shu zahoti yeb qo'yishdi.

Asal ham tamom bo'ldi. Kolkani yugurishi paytida u qo'ynidan oqib o'tib ko'ylak va qorniga shimib ketdi. Ko'ylakning ishi oson ko'chdi: uni hamma yog'idan shimishdi, chaynashdi, teshilib ketguncha yalashdi.

Qorniga esa Kolka tegizdirmadi. «Bunaqada ko'ylakdan ham, qorindan ham ayrilish mumkin», dedi.

U vagonlar bo'ylab yurar, atrofida esa arilar g'ujg'on o'ynardi. Dastlabki vaqtlarda pastdagi bolalar ularni shunday farqlashardi: Kolka, bu shirini, Sashka esa – farqli bo'lishi uchun, achchig'i.

Laqablar shu tariqa saqlanib qolgan bo'lardi, lekin atrofda qilarni laqillatishni va bir-biri bilan o'rin almashishni yaxshi ko'ruvchi Kuzminchalar tezda hammanni chalkashtirib yuborishdi, ayniqsa, asal hidi yo'qolgandan so'ng. Bu yillar davomida ishlab chiqilgan o'zini o'zi himoya qilish usuli edi.

Pastdan qichqirishardi:

– Hoy, shirin! Batoningni ol, hozir stansiya keladi!

Kolka bo'lsa javob qaytarardi:

– Unga o'zingiz ayting! U – Kolka! – va Sashkani ko'rsatardi.

Ular joylarini ham o'zgartirishar, kiyimlarini ham almashtirishardi. Buning biror bir ma'nosi va yaqqol foydasi bo'lmasa ham.

Atrofdagilarga ularning qaysi biri nima kiyishi va qayerda uxlashining farqi yo'q. Biroq aka-ukalar ularga hozircha farqi yo'qligini bilishardi, juda ham yaxshi bilishardi. Biror ko'ngilsizlik, jinoiy harakat sodir bo'lsa atrofdagilarni gangitib qo'yib, bu bilan chalg'itish juda ham muhim...

Ular ilgari shunday qilishgan...

Biroq aka-ukalar hozir o'tmishga emas, kelajakka boqishmoqda edi! Tez orada vagonda boshqacha hidlar asal va ter hidining o'rmini

egalladi. Poyezd maktabchasiga «qoratuproq hududi» deya nomlanadigan joyga kirib keldi.

Ko'pni ko'rgan boqimsizlarni hayron qoldirish oson emas. Lekin birdan ko'z o'ngida noodatiy manzara paydo bo'ldi: bu yerdagi tuproq chindan ham qop-qora edi.

Deyarli daraxtsiz, o'rmon va har xil qayinsiz, ufqqacha do'nglik bo'lib yotibdi, rangi esa bolalar uyidagi o'zini hurmat qiluvchi har bir shoqolnikidek qop-qora.

Tuproqqa o'tirgan go'ngqarg'alarni ajratib bo'lmasdi! Parovoz ham ko'rinmay qoldi!

Yana bir hayron qoldiradigan jihat: qarovsiz, qorovullarsiz ushbu qora yerda turli meva va sabzavotlar o'sib yotibdi. Qandayligini uzoqdan anglab ololmaysan. Agar sal sekinroq yurganida, biror yerda to'xtab turganida bormi!

Ammo poyezd qasddan qilgandek, yonidan o'tar, esini yo'qotgan kabi shiddat bilan harakatlanardi...

Vagonda yolvora boshlashdi: qimmatli do'stim, bir necha daqiqaga to'xtab tur... Hech bo'lmasa soniyaga, faqatgina sabzi, lavlagidan uzib olaylik... Tormozingni bos, poyezdjon, sendan nima ketdi! Va dabdurustdan – to'xtashdi.

Balki ularning yalinib-yolvorishlarini eshitgandir? Ehtimol, dalalarning o'rtasida tafakkur kuchi bilan to'xtatishgandir?

Eshelon harakatini sekinlatdi, vishilladi-yu qotdi. Kalta sochli kamgap mashinist o'tyoqarga to'ng'illadi:

– Bas. Vagondagilarga bu yerda osh-non bo'ladi! Bug'ni ikki soatga yop va qaynatilgan suvni uzat, choy ichamiz!

Butun tarkib, besh yuzta bola, eng kichkina va qo'rqoqlardan, yana kasallardan tashqari, nima uchun to'xtalganini bilish maqsadida boshlarini vagonlardan chiqardi. Biroq ba'zilar uzoq kutib o'tirmay dalaga, yaqin-atrofdan ko'karib turgan pushtalarga tashlanishdi va uza boshlashdi.

Dastlab eng dadillari, eng uddaburonlari hamla qilishdi. Qolganlari esa turib kuzatishardi.

Va to'satdan, nimanidir fahmlab, hamma oldinga tashlandi. Yovvoyi o'rda yam-yashil ekinga tashlangandek bo'ldi va dalani bir lahza qoplab oldi.

Mashinist oynadan bu xonavayronlikka qarab, hm deb qo'ydi, xolos: ko'z o'ngida bolalar sabzavotlar orasida xuddi o'tdagi qo'ng'izga o'xshab, lip-lip etib u yoqdan bu yoqqa sakrardi.

U katta tunuka krujkasiga qaynatilgan suvni quydi va qaltiragan qo'llari bilan ko'tarib, labini tegizib, qo'shib qo'ydi:

– Bolalar umrlarida bir marta yeb to'ysalar Rossiya qashshoqlashib qolmaydi...

Dalada esa aql bovar qilmas narsalar bo'layotgan edi. Har qaysi bola qo'lidan kelgancha timirskilanardi. Qo'lga tushgan narsasini tashishardi. Hali don tugmagan sut makkajo'xorini uzishardi. Tishlari bilan palagidan mayda qovoqlarni g'ajib, joyida olma kabi po'sti bilan chaynashardi. Qolganlar palagi bilan uzib poyezdga sudrardilar.

Qora, ta'mi bemaza tuproqni tupurib tashlab bodring, sabzi, yosh lavlagini qo'yniga va og'ziga solishardi. Yetilmagan kungaboqarlarining boshini aylantirishar, bordi-yu bunga kuchlari yetmasa, tomiri bilan yulib, bir quchoq o'tin kabi vagonlarga sudrashardi.

Ba'zan shunday beo'xshov sabzavotlar ham uchrardi! Kolka ko'ylagiga duch kelgan ulkan bodringlarni solib oldi, keyin esa ular bodring emas, qovoqchalar ekanligi, ularni mutlaqo yeb bo'lmasligi oydinlashdi. Shunday bo'lsa-da paqqos tushirishdi, shuncha boylik ulov bo'ladi-ya!

Kuzminlarning Regina Petrovna bilan uchrashuvi shunday g'ayrioddiy vaziyatda ro'y berdi.

Aka-ukalar qo'lga kiritgan narsalarini tashishar va hammasini yuqori tokchaga tiqib yugurib borib yana olib kelishdan boshqa hech narsa haqida o'ylashmasdi.

Aytish joizki, ular tishlari va qo'llarini bir xilda ishlatishardi. Har ikkalasi yo'l-yo'lakay kungaboqarning boshidan shirali, sersuv pistoralarini tishlab uzib olishga, ularni chaynashga va o'tga tupurib tashlashga ulgurishardi.

Ayol esa ularning vagonga kirish joyida turardi.

Hattoki Sashkaning hayratdan og'zi ochilib qoldi va u yerdan pishmagan pistoralardan iborat oxirigacha chaynalmagan oq bo'tqa to'kilib ketdi. Kolka ham unga tikilib qoldi. Bu shunday nogahoniy ayol edi.

Yosh, ha, ehtimol yosh, qorasoch, uzun qalin sochlari pala-partish orqaga tashlangan. Ayolning chuqurligi noma'lum ko'zlari qora,

ichidan chaqnovchi va iliq navozish bilan chulg'ovchi edi; lablari, uning lablari yirik, jonli edi, bu lablar alohida hayot kechirar va ustidan hech narsa bo'yalmagandi, bu bolalarga hammasidan ko'proq yoqdi. Yana ayolning yuzida mag'rur sharqona viqor aks etgandi. Boshini malika va ilohalardek baland tutardi u.

Aka-ukalar uni ko'rishdi-yu, sevib qolishdi. Umidsizlarcha, butun umrga. Biroq ular buni bir-biriga aytishmadi. Bu ularning boshqa narsalar kabi shunchaki umumiy emas, balki alohida, har biriga tegishli tuyg'usi edi. Buning ustiga Kuzminchalarga ayoldagi bir-biridan farqli jihatlar yoqardi. Sashkaga uning sochlari, ovozi, ayniqsa, kulgandagi ovozi yoqardi. Kolkaga esa ayolning lablari, sharq ertaklari kitobida ko'rgan Shahrizodanikiga o'xshash fusunkor tashqi ko'rinishi ma'qul edi. Biroq bu darrov ro'y bermadi. Bu tuyg'ularni ular biroz vaqt o'tib fahmlashdi. Hozir esa aka-uka vagon oldida odamni emas, osmondan tushgan farishtani ko'rgandek uning oldida qotib qolishdi. Yarim metrga chiqib turuvchi shishgan qo'yinlari bilan, kungaboqarga liq to'la qo'llari bilan, chaynab ulgurishmagan, pishmagan pistalarga to'lgan og'izlari bilan ular ayolning oldida botib qolishgandek edilar.

Ayol ularga nazar soldi va qattiq kulib yubordi. Uning ovozi past, mayin edi, bu ovozdan terlariga titroq yugurdi. – Ana bo'lmasa! – dedi ayol kontralto kuylagandek bo'lib va aka-ukalarni tomosha qilib. – Namuncha o'xshash bo'lmasanglar? Bir juft etik! Yo'q, – xitob qildi u va egizaklarni yaqinroq ko'rish uchun egildi. – Yo'q, sizlar bir oyoqqa kiyilgan ikkita etikka o'xshaysizlar! – Va yana ajoyib tarzda yengil, xushchaqchaq kulib yubordi. Aka-ukalar hayiqib jim turishgani bois – faqat Sashkaning og'zidan oppoq chaynalmagan pistalar to'kilishda davom etardi – ayol, ularga eski, yaxshi tanishiga murojaat qilganday gapirib, qo'shib qo'ydi:

– Vagonimda ham ikkita erkakcha bor, ammo ular sizlardan kichik. Ancha kichik! Ularning yoshlarini qo'shilsa yetti yil bo'ladi. Ismlari esa Jores va Marat, ikkalasi juda ham jiddiy, o'zlaricha erkaklar, sizga aytsam! Meni esa Regina Petrovna deb chaqirishingiz mumkin. Eslab qoldingizmi? Re-gi-na Pet-rov-na. Xo'sh, sizlar kim-sizlar? – Shundan so'nggina Sashka og'zini yopish kerakligini fahmladi, Kolka esa yo'talib olib va oyoqlarining ostiga pista qoldiqlarini tupurib tashlab, hayajondan xirillagan ovozi bilan: «Kuzminchalar-

miz», dedi. – Bor-yo‘g‘i shumi? – so‘radi dimog‘i chog‘ bo‘lib ayol. Aka-ukalar baravar bosh qimirlatishdi.

– Bunday bo‘lmaydi! – kulib yubordi ayol va uning lablari qal-tirab ketdi, ehtimol u shunday kular. – Balki sizlarni Kuzmincha bi-rinchi va Kuzmincha ikkinchi deb chaqirarman?

– Yo‘q, – dedi Kolka g‘azab bilan. – Biz – alohida – Kolka va Sashka bo‘lamiz. Birga esa Kuzminlar, ya‘ni Kuzminchalarimiz.

Ayol bu gaplarga hayron bo‘lgandek boshini chayqadi, uning sochlari to‘lqinlanib, chakka va yelkasiga tushdi.

– Qaysi biringiz kimsiz? Xu iz xu? – deyishadi inglizlar... Yo‘q, aytasangiz ham keyingi safar baribir farqlay olmayman, axir sizlar bir-biringizning nusxalaringizsiz-ku, tushunyapsizmi... Bir xil...

Aka-ukalar «nusxa» so‘zini tushunishmadi, lekin keyinroq bir-biriga ular bilan birinchi marta chet tilda gaplashishganini sezishdi. Sashka hatto terlab ketdi, Kolka esa ishtonini ho‘llab qo‘ydi.

Lekin ayol buni sezmedi. U aka-ukalarga yaqin kelib egil-di, undan kelayotgan hiddan nafas olib bo‘lmay qoldi – qandaydir xushbo‘y, muattar, ilgari noma‘lum bo‘lgan ifor. U qvozini pastlab, odamlar faqat yaqinlariga gapiradigandek murojaat qildi:

– Do‘stlarim mening! Biz siz bilan uchrashamiz, axir men sizlar-ning tarbiyachingiz bo‘laman! Ha, Ha! Sizlar ham menga qaysi birin-giz kim ekanligingizni aytasiz va meni ahmoq qilmaysiz, shundaymi? Axir sizlar boshqalarni laqillatasiz-ku? Sizlarning o‘xshashligingiz bilan har kimni laqillatish mumkin... To‘g‘rimi?

Aka-ukalar boshlarini quyi solishdi.

U Kuzminchalar haqida hammasini tushungan birinchi ayol edi.

– Ko‘rishguncha, aziz Kuzminchalarim! – dedi ayol va chuqur nafas olib qo‘ydi. – Men Moskvadan ikkita muhim erkakni olib kel-yapman, ular mensiz uzoq tura olishmaydi... Biz hali uchrashamiz-ku? Deylik, keyingi stansiyada... Xo‘pmi? Mana, kelishdik. Omad yor bo‘lsin!

U ketdi.

Kuzminchalar esa vagonga chiqishdi, yuqorigi tokcha-ga o‘z boyliklarini to‘kishdi, biroq negadir bundan xursand bo‘lishmadi.

Ular keyingi stansiyaga tezroq yetib borish uchun darhol poyezd yurishini kuta boshlashdi.

Navbatdagi stansiyaga yetib olishganda, uzoq toliqtiradigan daqi-qalardan so'ng g'alati «Reginapetrovna» ismli ayol vagona yo'qligi ma'lum bo'ldi. U boshqa stansiyalarda ham yo'q edi. Shu sababli aka-ukalarga hammasi tuyulgandek bo'ldi. Keyingi kuni esa dizenteriya¹ hujum qildi.

6

Hamma, butun eshelon ichburug'ga giriftor bo'ldi, chunki yuvilmagan sabzavotlar ozib-to'zib ketgan bolalarning oshqozonida hazm bo'lishga ulgurmagandi.

Mo'ylovli provodnik hojatxonaga qarab og'ir uflardi.

Hammayoq bulg'angandi, hojatxona kursisi ham, uning atrofida-gi pol ham, suv krani ham, kran ostidagi chanoq ham, sovun tokchasi ham, hattoki devorlar ham shiftgacha dog'-dug' qilindi.

Tamburgacha, vagonlar orasidagi o'tish yo'lakchasigacha yetib borishibdi zumrashalar.

Bundan buyon tez-tez to'xtay boshlagan poyezddan chiqqan bolalar endi dalaga «o'lja» izlab emas, balandlik orqasiga «yengilla-shib» olish uchun yugurishardi.

Hatto yugurishga ham kuchlari yetmay qoldi, shu yerning o'ziga, vagonga yoki vagonning ostiga kirib olishardi. Ba'zi zaifroqlarining kuchi faqat vagonning ostiga tushishga yetar, vagonga esa ularni sudrab olib chiqishardi.

Qorakuyaga belangan, yag'iri chiqqan qora jomakorda, kichkina, burushgan mashinist endi yo'lga chiqishdan oldin o'zi butun poyezd tarkibini aylanib chiqib, egilib yalinardi:

– Bolajonlar! Azizlarim! G'ildiraklar ostida o'tirgan bo'lsangiz, qanday qilib ketaman! Xudo ko'rsatmasin, birontangizni bosib ketsam! Men axir frontda xizmat qilganman, Stalingradga yerga yotqizilgan relslarda askarlarni tashiganman... Tunlari tashiganman! Birorta ham avariya uchramaganman! Bu yerda esa... – U oqargan tipratikan sochli boshini chayqab, direktorni yordamga chaqirardi. Hovliqma Pyotr Anisimovich paydo bo'lib, portfelini ko'ksiga bosib u vagonidan bu vagonga yugurib, egilib so'rardi:

¹ Dizenteriya – ich ketish.

– Chiqinglar! Ketish kerak! Poyezd kutyapti! Bunaqada hech qachon joyimizdan jilmaymiz, tushunyapsizmi?

Bolalar javob berishmas, qimirlamasdilar. Direktor qaddini rostlab, mashinistning ko‘zlariga boqib, taajjublanib:

– Axir nimalar bo‘layotgani noma‘lum-ku! – der edi.

– Shundayku-ya, – g‘uldurladi mashinist. – Endi nima qilamiz?

Kuban nomli eng yaqin stansiyada uch sutkaga turib qolishdi. Tog‘ daryosidan o‘tgan, hujum vaqtida sapyorlar tomonidan solingan vaqtinchalik ko‘prikni avjiga chiqqan tabiiy ofat uchirib ketgan, yangi ko‘prikni esa hali qurishmagandi.

Sostavni zaxira yo‘llariga o‘tkazishdi. Bolalarni tushirishdi, qo‘shni mol tashuvchi poyezdda pichanning ustiga joylashtirishdi: ilgari unda otlarni tashishgan edi.

Aka-ukalar orasida betoqatrog‘i bo‘lgan Sashka har xil sabzavotlar, pista, yashil tarvuzlar, baqlajon va qolgan narsalarni ichiga tiqqancha ikki baravar to‘yib yegan edi. Aynan u birinchi bo‘lib qorin og‘rig‘idan shikoyat qilib yotib qoldi. Har soatda boshqalarning orqasidan tamburga yugurib sillasi quridi.

Kechga yaqin direktor bilan birga oq xalat kiygan erkak va ayol kirib keldi. Hammani ko‘zdan kechirishdi, shu jumladan Sashkani ham. Qormini paypaslab ko‘rishdi, tilini tekshirishdi.

Sashka poxol to‘shamada bo‘zarib, miq etmay yotardi.

Kolka esa uni harakatga solishga urinar, Stansiya deb nomlanuvchi stansiya haqida, uning bog‘larida sariq tog‘olcha mevasi o‘shishi to‘g‘risida gapirib berardi. Ko‘chaning o‘zida osilib yotibdi, uz-da og‘zingga tiqaver. Ko‘tarmaning yonida esa yana bir tekin meva: olxo‘ri deb ataladi. U ham to‘lib-toshib yotibdi.

Ko‘tarmaning atrofida har xil mevalarning danaklari shunchalik ko‘p sochilib yotibdiki, yer ko‘rinmaydi. Yura olishga kuchi bor muttahamlar, hamma shoqollar o‘sha danaklarni relslarga qo‘yib yoki tosh bilan chaqib yeyishyapti. Taraqa-turuq va jaranglagan ovozlari butun stansiyani qomatga keltiryapti!

– Eshityapman, – deyishga urindi Sashka va hattoki rangpar lablari bilan jilmayib ham qo‘ydi. Ichidan joni chiqib ketganga o‘xshaydi. Kolka unga qarab hayron bo‘lardi.

Biroq u stansiyada ko‘rgan narsasi – suv chiqaruvchi nasoslar o‘rnatilgan binoning orqasidagi, olis boshi berk ko‘chadagi eski

vagonlar haqida aytmadi. U o'sha vagonlarga yurib-yurib adashib, ko'tarma atrofida olxo'ri terib borib qoldi va issiq vagondan, tepadagi panjaralangan derazadan kimdir uni chaqirganini eshitdi. U boshini ko'tardi va birinchi bo'lib kimningdir notanish ko'zlarini ko'rdi: o'g'il yoki qiz bolaning. Qora chaqnab turgan ko'zlariga, keyin og'ziga, tili va labiga ko'zi tushdi. Bu og'iz tashqariga cho'zilib faqat g'alati: «Xi», degan tovush chiqarardi. Kolka hayron bo'ldi va ko'kimtir qattiq reza mevani tutib turgan qo'l kaftini ko'rsatdi: «Shumi?» Axir shuni so'raganlari ma'lum edi-ku. Reza mevadan tashqari boshqa hech narsa bo'lmaganidan keyin yana nimani so'rashsin?

– Xi! Xi! – qichqirdi ovoz va birdan vagonning yog'och ichi jonlandi. Panjaraga bolalarning qo'llari, boshqa ko'zlar, boshqa og'izlar mahkam yopishib olishdi, ular go'yo bir-birini itargandek o'zgarar, shu bilan birga filning qorni quldurlagandek g'alati g'ovur-g'uvur ovozlari kuchayib borardi.

Kolka sapchib ketdi, yiqilib tushay dedi. Shu yerda allaqayoqdan qurollangan askar paydo bo'ldi. U mushti bilan yog'och vagonga sekin taraqlatdi va ovozlari shu zahoti tindi, suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Qo'llar ham kirib ketdi. Faqat vahimaga to'la ko'zlargina qoldi. O'sha ko'zlar endi askarga tikilgandi.

U esa boshini yuqori ko'tarib, mushtini ko'rsatdi va odatdagidek dedi:

– To'polon qilinmasin! Chechmeklar! Kimga gapiryapman! Jim bo'ling!

U hali og'ziga kelib ulgurmagan Kolkani oldiga keldi, xuddi qayerdan kelganini bilgandek epchillik bilan yuzini stansiya tomonga burdi va orqasiga turtib:

– Bu yerdan jo'na! Tuyog'ingni shiqillat! Bu yer senga sirk emas! – dedi.

Kolka bir hovuch reza mevalarni qo'lida siqib stansiyagacha yelday uchdi. Sashka og'ir holatda bo'lmaganida darrov unga bu yangilikni yetkazgan va chechmek haqida ham so'ragan bo'lardi... Deylik, bezorilar yoki boqimsizlar, yoki o'g'rilar?.. Ushbu nomlar unga ma'lum. Bu yerda esa qulog'iga yangi so'z eshitildi, miyasiga singdirish lozim. Biroq Sashkaning ahvoli yaxshi emasdi. Aftidan, Sashka halok bo'layotgandi.

Xalatdagi oppoq ayol esa hapdorilar va shishachada bo'tana olib kelgandi. Kolka Sashkaga rahmi kelib o'sha tabletkalarning yarmi ni yeb qo'ydi (namuncha bemaza bo'lmasa) va bo'tanani ham ichib yubordi. Sashkaning o'zi bunday davolanishlar bilan omon qolmasligini tushunardi. U Sashkaning o'rniga hattoki termometrini ushlab turdi, biroq uni tutib olishdi.

Ziyrak oppoq ayol shifokor aka-ukalarni ajratdi va Kolkaga boshqa vagonda yashab turishni tayinladi.

Kolka qarshilik ko'rsatdi, ketmadi, hattoki baqirib tashladi, biroq bari behuda. Ayol shifokor toshdek qattiq bo'lib chiqdi. Kuch bilan, oppoq kiyimli erkak yordamida Kolkani haydab chiqarishdi va Sashkaning oldida paydo bo'lmaslikni buyurdi. Aks holda butunlay olib ketishlari mumkinligi bilan qo'rqitishdi.

Kolka fahmlab, vagonning ostiga tushdi va o'sha yerdan ukasi bilan gaplashishga urindi. Oldida shifokorlar bo'lmagan paytda Sashka bo'g'iqroq qilib javob berardi. Taxtaga quloqni qo'yib uning gaplarini tushunib olish mumkin edi.

Kolka relslarning orasiga o't-o'lanlarni ustma-ust tashlab o'ziga karavotcha yasab oldi va Sashka yotgan joyning ostida uxladi. Kolka joyida ekanligini bilish uchun har zamon-har zamonda vagonning ostiga tosh bilan taqillatardi. Sashka unga javob berardi.

Ikki kun shu zaylda o'tdi. Ularning yaqin joyda turgan sobiq eshelonlarini tartibga keltirishdi. Qirib tozalashdi, yuvishdi, yig'ishtirishdi, ohak va karbol kislotasi bilan sasitishdi. Shu bois eshelonga birinchi bo'lib ko'chishni xohlaganlar u yerda ko'zlari yoshlanib nafas ololmadilar. Shundan so'ng vagonlar shamolda tozalanishi kutib yana bir sutka kutishdi. Bu sutkada Kolka g'alati mol poyezdiga yana bir bor bildirmay o'tdi. Tikanakli tuplardan dumaloq teshik teshishga erinmadi, bularning hammasi har bir shoqolga xos bo'lgan bitta yaramas odat: qayerdan haydasalar, o'sha yerda aridek aylanib yurish odati tufayli edi! Shunaqa joylardan nimanidir o'marishing mumkin. Og'zing bilan bo'lmasa ham, ko'zing bilan... Bizda tomosha qilganga ham pul olishadi! Bolalar uyi shoqollarida esa o'tkir ko'zlar uchun ikkinchi payokka ega bo'linadi.

Kolka ko'tarma yonidagi tupda har qancha o'tirib kuzatmasin, eshitmasin, hech narsani payqay olmadi. Askarni ko'rdi, lekin u Kolkani turtgan emas, boshqa, balandroq va yirikroq edi. U eshelon

bo'ylab yurib ensiz vagon soyasida jaziramadan yashirinishga harakat qilardi.

O'zlarining qisqa hayotlari davomida aka-ukalar Tomilinodan o'tuvchi har xil poyezdlarni ko'rishgan: yonida qizil yarimoy tushirilgan sanitar poyezdlarini ham, brezent ostiga yashiringan tanklar yuklangan harbiy poyezdlarni ham, ichida qochoqlar, ishchilar, hatto mahbuslar bo'lgan poyezdlarni ham... Bir safar ular asir tushgan fashistlarni issiq vagonda, ularning generallarini esa alohida, hashamatli vagonda olib ketishayotganini ko'rishgan... Ularni keyin Moskva bo'ylab kolonna qilib olib yurishgan. Biroq bu eshelon, Kolka qasam ichishi mumkin, na fashistlarniki, na qochoqlarniki edi. U ko'proq o'zlarining boqimsiz poyezdiga o'xshardi: ularni ham boqishmagan ko'rinadi. Shoqollar o'zlariga ovqat topishlari mumkin edi – bolaligidan odatiy mashg'ulot! Ustidan qulflangan joyda esa qanday topasan?

Kolka qulflanib o'tirish qanchalik og'ir ekanligini bilardi, ularning Sashka bilan ko'p marta turmada o'tirishlariga to'g'ri kelgan, oxirgi marta bozorda o'marib ketilgan tuzlangan bodring uchun. Ularni sudrab ketishayotganda aka-ukalar o'sha bodringni kavshab tashlashdi, so'ngra tun bo'yi baqirib chiqishdi, chanqab ketgan edilar. Kuzminlarni tuzlangan bodring va yana boshqa narsalar uchun qamashgan, bularni esa nima uchun?.. Balki ular direktorni shipirib ketishgandir? Ehtimol, butun to'dasi bo'lib nonkeskichni qo'lga tushirishgandir?

Kolka fahmlaguncha o'sha poyezd cho'ziq ovoz chiqarib yura boshladi. Askar oxirgi marta tarkibga ko'z tashladi, zinapoyaga sakrab chiqdi va shu onda yana ovozlar eshitildi. Bu safar bitta vagon emas, hamma vagon dod-voy sola boshladi...

Poyezd aka-ukalar hozirgina kelgan tomonga jo'nab ketdi, biroq ajablanarlisi, issiq vagonlardan taralayotgan tovush va ovozlar g'irashirada g'oyib bo'lmaguncha stansiyada uzoq vaqt havoda parvoz qilib yurdi.

Biroq bularning hammasi, albatta, Kolkaning tasavvuri, chunki undan bo'lak hech kim, keyinroq ma'lum bo'lishicha, o'sha baqiriy va yig'ilarni eshitmagan ekan. Ularning parovozidagi mo'ysafid mashinist yurib bolg'asi bilan g'ildiraklarni taqillatar, shoqollar poyezdning yonida kuymanar, stansiyadagi odamlar ishlari bilan ba-



maylixotir harakatlanar, radio damli orkestrning: «Dalalari keng vatanim manim...» sho'x marshini ijro etardi. So'ngra biz ham sirli Kavkaz tomon harakatlandik.

Yaqin o'tmishda sapyorlar tomonidan barpo etilgan liqillovchi omonat ko'prik bo'ylab buyuk toshqin paytida biz asta odimlab o'tib ketayotgan Kuban daryosi ortida ko'z o'ngimizda suv bosgan bog'lar namoyon bo'ldi, keyin ufqda olis tog'lar ham yorisha boshladi. Biz hayotimizda buyuk kashfiyotga qo'l urgandek shodlanardik: «Tog'lar! Qarang, axir bu tog'lar-ku! Haqiqiy tog'lar!» Ular osmon labidagi siyrak bulutlar kabi ko'karib ko'rinar, ma'lum bo'lishicha, ularga yana bir necha sutka yurish lozim edi! Jilvalanuvchi cho'qqilardan nafasing ichingga tushib ketadi, bu vaqtda bizga chindan ham bizning mo'l-ko'llik, to'qlik va urushsiz, quvonchli hayotimiz haqidagi barcha shoqolcha orzularimiz albatta ushaladigandek tuyulardi.

Tengdoshlarimiz bizga eshelondan qo'llarini cho'zgan Kuban stansiyasidagi qiziq uchrashuv unutildi, yo'q bo'lib ketdi: «Xi! Xi!» Bizning poyezdlarimiz bir-birini tanimagan egizaklar kabi biroz yonma-yon turishdi-yu, umrbod ajralishdi, ularning biri shimolga, ikkinchisi – janubga ketayotgani hech narsani anglatmasdi.

Bizni yagona taqdir bog'lagan edi.

Hamma poyezdga o'tishi va u poyezdning jo'nashi haqida qarorga kelinganida Sashka va yana ikki bolaga borish mumkin emasligi, ular juda madorsiz ekanligi va umuman, ularni gospitalga yotqizish lozimligi aytili.

Kolka vagonning tagida yotib, polga qulog'ini bosib eshitardi.

U hammasini tushunmadi, biroq bilgan eng asosiy narsasi shu edi – Sashkaning kuni bitdi.

Dastavval tabletkalar bilan, har xil bemaza siroplar bilan zaharlashdi, keyin esa chiqarib tashlashdi: mumkin emas! Poyezdga chiqish mumkin emas, Kolka bilan bo'lish mumkin emas! O'z-o'zidan o'lar holatga yetkazishadi.

Kolka vagonning ostida o'tirib, Sashkaga so'nggi yangiliklarni pichirlar, unga kirishga ruxsat bermayotgan oppoq shifokor ayolga qarshi gij-gijlardi...

Sashka esa Kavkazga borishi kerak. Uning Stanitsa deb nomlanuvchi qishloqda qiladigan ishi yo'q. Bu yerlarda olxo'ri va

tog'olchalar ko'p o'ssa ham, ko'tarma oldida danaklar milliontalab sochilib yotgan bo'lsa ham, aka-ukalar birgalikda va poyezdda bo'lsalargina omon qolishlari mumkin...

Kolka shu zahoti taklifni ilgari surdi – bu fikr miyasiga qayoqdan ham keldi – bir-biri bilan joylarini almashtirish. Tunda, hamma uyqudaligi paytida Sashkaning o'rniga pichanga oshib chiqish, Sashkani esa eshelonga jo'natish. Yura boshlaganlarida esa poyezdga sakrab chiqish...

Ehtimol aqli Sashka boshqa yo'lini o'ylab topgan bo'lishi mumkin edi. Ammo Kolka o'z rejasi bilan g'ururlanar, ukasini qanday qilib qutqarib qolganiga aqli yetayotganidan xursand bo'lardi.

Biroq Sashka bu g'oyani yolg'on ishlatib rad etdi. Ularning ko'rinishi turlicha edi. Holi-joni qolmagan Sashkani sog'lom va qirmizi yuz Kolka bilan adashtirib yuborish qiyin edi. Ustiga ustak, buning uchun vaqt ham kam, poyezd tez orada yo'lga chiqadi... Boshqa narsani o'ylab topish kerak.

Sashka biroz jim turib, so'ng so'radi:

– Haligi yordam bermasmikin?.. Rezina?

– Rezina? – so'radi Kolka. – Menda rezina yo'q, nima qilasan uni?

– Senda emas, – kulimsiradi Sashka. – Tarbiyachi... Uning ismi Rezina edi, to'g'rimi?

Kolka uning buzib aytilgan ismidan irg'ib turib boshini vagonga urdi. Ko'zlaridan uchqun chiqdi. Qanday qilib o'zi fahmlamadi! Albatta! O'sha mo'jizachi ayol, sharq malikasi, haqiqiy Shahrizodadan boshqa ularga kim yordam bera oladi! Tezroq, uni tezroq topmoq kerak!

– Regina Petrovna... Mana uning ismi! – dedi Kolka va peshanasini ishqaladi.

– Sen yotaver. O'zingni uxlayotganga sol, hech qanday dori ichma, bo'lmasa zaharlashadi. Olib ketishlariga ham yo'l qo'yma! Men bo'lsam hozir... Men uni topaman! Eshityapsanuni? – deya vagonning ostini uch marta dukillatdi. Bu Sashkaga kutish zeriktirib qo'ymasligi uchun edi.

Sashka esa bir marta taqillatish bilan javob berdi. U kuchini ayardi, majoli qolmagandi ham. Kolka esa o'zining esheloniga tashlandi, chunki vaqt oz edi.

Kolka hamma vagonlarga boshdan oyoq kirib chiqdi, tokchalarga va tokchalarning ostiga mo'raladi, biroq hech qayerda Regina Petrovna ismli sharqona chehrali ayol yo'q edi. Hech kim uni tanimasdi.

Kolkaga salom berishar, pastdan va yuqoridan baqirishardi:

– Hoy, Kuzmincha! Ikkinchi Kuzminchang qani?

– Sen ularning qaysi birisan? Sashkamisan yoki Kolka?

– Men Petka, – javob berardi u.

Kolka yana o'yladi: o'sha ayol, Regina Petrovna buni chet tilida: «Xu iz xu», deb so'ragani edi. Tushunarsiz, biroq ajoyib, xuddi kimnidir so'kishgandek.

Boshqa paytda Kolka bu matndan latifa to'qir va butun vagonni kuldirardi, hozir esa... Parovozgacha yetib oldi, nima uchundir tender¹ga qarab qo'ydi, u yerda ikkita qopchi savdogarlar²ni ko'rdi, ular burchakda o'tirib tuxum bilan bodring yeyishayotgan edi. Biroq o'sha ayol hech qayerda ko'rinmasdi.

Kolka ukasi bilan halok bo'lishayotganini tushunishdi. Parovozdan bug' ko'tarildi, mashinist oldingi g'ildiraklarning qizil to'g'ini bolg'acha bilan taqillatmoqda, g'ildirak aylanadimi, yo'qmi deb tekshiryapti...

Kolka uning yoniga yugurib borib, umid bilan so'radi:

– Hademay yuramizmi?

Soch-soqoli oqargan mashinist, bugun u qorakuyada emasdi, hammonga borib kelishga ulgurgan bo'lsa kerak, bolg'achasi bilan yengilgina urib qo'ydi, eshitdi va:

– Yana nimasini kutasan... Shundoq ham uzoq turib qoldik! Signal beraman-u ketamiz. Yarim soatdan keyin. Nimaga ulgurmading? Shoshil!

Kolka esa hech narsaga ulgurmagandi. Ukasini qutqarishga ulgurmagandi! Balki Sashka yotgan mol poyezdiga bostirib kirib, uni ushlab olsinmi, boshqalar fahmlaguncha ular o'zlarining vagonlarigacha yetib olishadi.

¹ *Tender* – bevosita lokomotivga tirkaladigan, suv hamda yonilg'i saqlanadigan vagon.

² *Qopchi savdogarlar* – taqchillik davrida don serob joylardan g'alla keltirib sotish bilan shug'ullangan olibsotlar.

Kolkaning boshiga har xil noma'qul fikrlar kelar, biroq bu fikrlarning orasida ukasiga yordam berishi mumkin bo'lganlari yo'q edi. Bularning hammasi noilojlikdan! Poyezd yurguncha Regina Petrovnani topa olmaydi!

U ko'zlarini ko'tardi va dong qotib qoldi: ro'parasida, temir yo'lda turibdi, o'ylanib olisga qarayapti, Kolkani esa ko'rmayapti.

Mushkul vaziyat bo'lmaganda Kolka ikki dunyoda ham bunday go'zal ayolning oldiga borishga botinolmasdi.

Biroq hozir ikkilanishlarga o'rin yo'q edi. Yaqin insoniga tashlangandek tashlandi, dudmal tushuntira boshladi. Ich ketishi haqida, kukun va tabletkalar, oq xalatli ayol haqida, uning Sashkani qoldirmoqchi ekanligi, Kolkani esa haydab yuborgani haqida chalkash tushuntirdi... Haydab ham yubordi! Sashkaning o'zini esa tinkasini quritishadi, u bu stansiyada halok bo'ladi. Usiz esa Kolka so'nishi aniq. Aka-ukalarning shu vaqtgacha o'lmaganining sababi ularni bir-biridan ajratishmaganligida edi...

Regina Petrovna darhol so'radi:

– Bundan chiqdi, sen – Kolkasan? Ketdik!

Sashka ular Kuban daryosini liqillab, quturgan suv bosimi ostida qaltirab turgan ko'prikdan qanday qilib yugurib o'tishganini ko'rmadi.

Hamma derazaga yopishib qoldi, Kolka ham hammasini batafsil ko'rish va Sashkaga so'zlab berish uchun boshini chiqardi.

Pastda jigarrang loyqa daryo gumburlab oqar, ulkan girdoblar hosil qilib vayron bo'lgan ko'prikning tosh tiragichida ko'pikli to'lqin bo'lib urilardi.

Poyezd sekin, paypaslagandek harakatlanar, tipratikan sochi oqargan mashinist o'zining front yo'llarini, ayniqsa, Volgaorti cho'llari orqali yalang'och shpallar ustiga qo'yilgan relslardan yurishga to'g'ri kelgan yo'llarni ko'p bora yodiga olgan bo'lsa kerak.

Yog'och qoziqoyoqlar va ko'prikning o'zi sekin, biroq sezilarli tebranardi. Agar Kolkaga o'xshab pastdagi bittagina guvillayotgan suvga qaralsa, ko'prik sekin-asta, sapchib va qo'zg'alib, ostidagi jarlikka tushib ketayotgandek tuyuladi.

Kolka birdan tislandi, bosh chayqab qo'ydi: u qo'rqib ketdi.

Biroq ko'prik tugab borar, baland ko'tarmaning yonida – Xudoga shukur, o'tib olishdi, qulab tushishmadi – yoppasiga suv bosgan bog' va tomorqalar ko'rindi.

Bolalardan hech biri bundayini hech qachon ko'rmagan. Atrofidagi hamma narsani ko'mib tashlagan bo'lsa, daryo suvi – haqiqiy kuch ekan! Faqat daraxtlarning uchi ko'rinadi!

Regina Petrovna keldi – u endi ular ustidan rahbarlikni qo'lga olgandek edi, chunki oppoq shifokor ayolga, ayniqsa, Sashkani kuzatishga va'da bergandi – va hozirgidek issiq davrda tog'larda qor erishini va Kavkazdagi daryolar to'lib-toshishini tushuntirdi. Kuban ham tog' daryosi.

– Bu nima degani? – ishonqiramay so'radi Kolka. – Biz nima, Kavkazdamizmi?

Regina Petrovna unga porlab turgan qora ko'zlari bilan qaradi – u boshqa narsa haqida o'ylayotgandek bo'lib ko'rinishi mumkin edi – va ha, biz Kavkazdamiz, deya javob berdi.

– Kirib keldik, do'stim!

– Tog'lar-chi? – ta'bi xira bo'lib so'radi Kolka. Sashka indamay turdi, chunki u holsiz edi. Biroq u ham, albatta, shuni so'ragan bo'lardi. Mana senga Kavkaz – dalalarda suvdan bo'lak hech vaqo yo'q!

Lekin Regina Petrovna yumshoq kulib qo'ydi, uning bo'yalmagan katta lablari titradi, ko'zlari ma'yus teranlikka to'ldi.

– Kechgacha kutib turing, – egilib va xuddi ulkan sirni oshkor qilayotgandek dedi u. – Kechgacha sabr qiling, aziz Kuzminchalarim, tog'ni ko'rasiz!

– Tog'lar qanday bo'ladi? – so'radi o'zi va Sashkaning o'miga Kolka. Sashka esa faqat ma'qullab bosh silkib qo'ydi.

– Ko'rasiz... Chiroyli... Yo'q, ular juda chiroyli! Poylab turing, o'tkazib yubormang!

Regina Petrovna ularga hidsiz va ta'msiz amerikacha oq sariyog' – lyard surtilgan non bo'lagidan bittadan berdi, o'zi esa chiqib ketdi. Uni ikki erkakcha – Marat va Jores kutishayotgandi.

Sashka tili bilan lyardni yalab qo'ydi, biroq yemadi, Kolka esa eng yaqin stansiyada ikkita non bo'lagini bir litr sariq yirik tog'olchaga almashdi. Nonga istalgan narsani alishtirish mumkin edi.

Sashka tog'olchani sal-pal va sekin tatib ko'rdi, zo'r berib: «Eh, Moskvada bo'lganidami...» deb qo'ydi. Kolka Moskvada bunday boylik tushiga ham kirmaganini aytmoqchi bo'lgan ukasini tushundi: bir litr tog'olcha! – Kuzminchalar tomilinolik qismatdoshlariga na maqtana olmasliklaridan, na ularni mehmon qilishning iloji yo'qligidan afsuslanishardi!

Kolka ukasi bilan tog'olchani qo'llarida ko'targan holda bolalar uyi yotoqxonasida qanday qilib paydo bo'lishganini tasavvur qildi! Hamma ilgari ko'rmagan mevaga tikilib so'rashni boshlardi, Kolka esa istar-istamay bu Kavkazdan, Kuban tog' daryosidan kelgan meva, nomi tog'olcha ekanligini, u yoqlarda bu meva to'lib-toshib yotganini aytardi: tomog'ing tiqilguncha ye!

Shu joyda u so'raganlarga tog'olchani ulashib shoqollarni mehmon qilgan bo'lardi: Bonyaga uchtasini berardi, uning yoshi katta va hech qachon Kuzminchalarni urmagan; Vaska-Smorchokka ikkita bergan bo'lardi, u doim och... Tolka-Burjuuga bittasi yetadi, u bir paytlar, askar otasi unga qozonchada bo'tqa olib kelganda va Tolka ularning ko'z o'ngida ovqat yeb bo'kkanda qoshig'ini yalashga bergan.

Tarbiyachi Anna Mixaylovnaga ham Kuzminchalar bir donasini bergan bo'lishardi. Anna Mixaylovna sovuq, bee'tibor va Kuzminlarga loqayd munosabatda bo'lgan bo'lsa ham, ularni payqamay va ismlarini biror marta eslab qolmagan ersa-da, Kolkaning unga rahmi kelardi. Har holda o'zining generalini kutadi, demak, butunlay befarq emas, boshqalar kabi askarlarning boshini aylantirib yurmaydi...

Yana, bir safar Kuzminchalar uning kichkinagina xonasini titkilash uchun kirishdi va hattoki quruq po'choqni ham topa olishmadi. Faqat bozorda bir olibsotar ochko'zlik bilan qo'lidan yulqib olib, evaziga uchta kartoshka bergan qandaydir sariq, ustuxondan qilingan bankacha bor edi. Keyinroq Anna Mixaylovna hammaga fil suyagidan yasalgan qimmatbaho buyumi yo'qolganini aytib yurdi... Ehtimol, tarbiyachiga Kolka ikkita tog'olcha berardi, bankasi uchun to'yib yesin.

O'g'rinamo direktor Viktor Viktorovichga ham Kolka tog'olcha bergan bo'lardi. U Kuzminchalarni kongga jo'natgandi. Mo'ylovli musiqachi ayolga ham... Ayamaydi... Kavkazda tog'olcha ko'p, may-

li, yeyaverishsin! Ularga ham urush paytida oson emas. Ularning ham tog'olcha yegilari keladi.

Kolka shularni o'ylab turib o'sha tog'olchani hammasini pok-pokiza tushirdi.

Xayolida Bonyani, Tolkani, Vaskani, Anna Mixaylovnani boqayotgan bir vaqtda... og'ziga bitta, ikkita, ba'zida uchta solgan edi! Xayolda mehmon qilish yaxshi, hammasi qorningga tushishi aniq bo'lib chiqdi.

Kolka og'irlashdi, biroz mizg'ib olmoqchi bo'ldi. Ammo Regina Petrovnaning tog'larni poylab yotish kerakligi haqidagi so'zlarini esladi. Agar Sashka sog'lom bo'lganida ular, albatta, yaxshiroq poylashardi; biri uxlaydi, boshqasi derazadan kuzatadi: ajoyib go'zallikdagi tog'lar ularni kutmoqda.

Endi esa Kolka ikkalasining o'rniga poylar, biroq hech qanaqa tog' ko'rinmasdi. Do'ngliklar, tepaliklar boshlangandek edi, biroq bunday balandliklar Moskva viloyatida ham qalashib yotibdi, Kolka ularni kutmagandi. Qosh qorayib boryapti, ufq ko'm-ko'k tusga kira boshladi, oldinda ko'kimtir bulutlar nam tortib shishayotgandek, Kolka bo'lsa ixlosi qaytib derazadan nari ketdi.

Kolkani chehrasida aks etgan belgilarni qiziqib kuzatayotgan Sashkaga xafa bo'lib dedi: «Kavkaz! Kavkaz! Tushingda ko'rasan, galvars!» – Yo'qmi? Ko'rinmaydimi? – pichirladi Sashka va uning ham rangi o'chdi.

– «Xu iz xu», – ajnabiychasiga so'kinmoqchi bo'ldi Kolka, biroq niyatidan qaytdi. Har holda bu so'zlarni Regina Petrovnaning o'zi aytardi.

Shu joyda uning o'zi paydo bo'ldi va qandaydir g'alati, past ovozda: «Tog'larni ko'rdingizmi? Kuzminchalar? Yoki o'tkazib yubordingizmi? Uxlab qolgan bo'lsangiz kerak?» dedi. Kolka lip etib sakrab turdi-yu, derazaga tashlandi:

– Tog'lar yo'q-ku! – umidsizlik bilan dedi u, chunki unga Kavkazda hech qanaqa tog'lar yo'qdek, faqat ular haqida puch gaplar gapirilayotgandek tuyuldi.

– Eh, azizlarim... Do'stlarim, Kuzminchalarim! – dedi samimiylilik va yuqori kayfiyat bilan Regina Petrovna va sekingina kulib qo'ydi. Bunday shildirovchi kulgidan Sashkaning yuragiga iliqlik yugurdi va

Regina Petrovnaning o'zi aytdimi, demak, Kavkazda tog'lar aniq bor ekanligi aniqlashdi!

Tarbiyachi derazaga yaqinlashib, ufq tomonga boshini irg'adi:

– Mana, mana-ku ular!

– Qani? – Kolka derazadan boshini chiqardi, boshqa tarbiyalanuvchilar ham qaray boshlashdi.

– Ko'rmayapsizlarmi?

– Ko'rmayapmiz! – jo'r bo'lib javob berishdi ular.

– Ko'rmayapman, – dedi Kolka. Biroq oz-moz ishonchsizlik bilan dedi, chunki Regina Petrovna faqat rost gapirishini bilmasligi mumkin emasdi. U Kavkaz tog'lari borasida bunday achchiq hazil qila olmaydi.

Regina Petrovna qo'li bilan ko'm-ko'klikdan mayin pushti rangga kira boshlagan bulutni ko'rsatdi va:

– Unday bo'lsa, bu nima? – dedi.

– Bu? – unga taqlidan so'radi Kolka. – Bu axir... – U bu bulutlar, oddiygina, azaliy osmon bulutlari demoqchi edi... Biroq to'satdan tushundi va gapi og'zida qoldi, sekingina pichirladi:

– Tog'larmi?

Qo'qqisidan, aqldan ozgan kabi butun vagonga baqirdi:

– Tog'-lar! Tog'-la-ar!!!

Hali hech narsadan xabari yo'q bolalar o'zlarini derazaga otdilar va bir-biriga bulutlarni ko'rsatib, bular aslida bulutlar emas, tog' cho'qqisining ufqi shunday oqarib-ko'karishini va ulargacha bir necha kun yurish lozimligini tushuntira boshlashdi.

O'zidan boshqa hamma bu manzaraning guvohi bo'lganini tushungan Sashka hayajonlanib, to'lqinlanib, so'radi: «Ko'rsatinglar, mengayam ko'rsatinglar!» U derazaning oldiga surildi, Kolka esa unga yaxshilab tushuntira boshladi: «Ana, ana, oldinda...» Sashka bo'lsa rangi quv o'chib, so'rardi: «Qani? Qani?» – Ko'rgach yuziga tabassum yugurdi.

Ular shu zaylda Kavkazga, haqiqiy tog'larga yetib borishdi.

Mabodo qaytib kelishganda o'zlarining Tomilinodagi bolalar uyida ko'tarmaning oldida uyilib yotgan tog'olcha yoki olxo'ri, hattoiki jo'shqin Kuban daryosi-yu ular qaynayotgan suv uzra barcha eshelonlardan birinchi bo'lib o'tishgan yangi liqillovchi ko'prik bilan maqtanishmaydi. Yo'q, yo'q!

Ular darhol eng asosiysini: qanday qilib olis binafsharang tuman pardasida ufq ustidagi balandlikda, poyezd harakatlanib ketayotgan chog`da oppoq bulutlarni ko`rganlarini va ular aslida bulutlar emas, Kavkaz tog` tizmalari va cho`qqilari bo`lganligini gapirib berishadi.

– Ura! Yashasin tog`lar! – baqirdi Kolka tomog`ini qirib, boshqalar ham bu hayqiriqni ilib ketib, tokchalarni, devorlarni taqillatishga tushishdi, raqs tushib o`mbaloq oshishni boshlashdi... Bayram boshlanganga o`xshab ketdi, vagon aqldan ozgandek edi... Va faqat umumiy, boshqarib bo`lmaydigan qiy-chuvda, uyg`un bolalar jo`ri orasida o`zgarmas «tog`lar» so`zini farqlash mumkin edi.

Biroq yana bir yarim kun yurishdi: tun, kun va yana tun, tog`lar va stansiya joylashgan o`sha joyga yaqinlashmagunlaricha...

7

Ularni ertalab barvaqt uyg`otishdi.

Vagonlardan yuklarni tushirish, kimning narsasi bo`lsa qoldirib ketmaslik haqida buyruq berildi.

Mo`ylovli pakana provodnik buyumlarni aytib baqirdi va aka-ukalarga imladi:

– Mana, tirranchalar, Kavkazga ham yetib keldik, chiqib uni ushlab ko`rishingiz mumkin!

U eshikka qarab yugurib ketdi, naysimon qilib o`ralgan bayroqchalar esa etiklarining ostidan dikkayib turardi.

Kuzminchalar bir-biriga, keyin derazaga qarashdi.

Tarkib baland bo`lmagan odam yashamaydigan tog`ning oldida to`xtadi – bu yerda na stansiya, na vokzal bor edi. Yaqinda bo`lib o`tgan urush vaqtida hammasi yonib ketgandi.

Telegraf ustuniga qiyshiq qilib qoqilgan fanerga ko`mir bilan «Kavkaz suvlari» deb yozib qo`yilgandi.

Temiryo`lning o`ng tomonida ufqqacha bu yerdan ko`rinmaydigan qishloq yo`li va oppoq, ushbu ko`kalamzorga sochilgan uychalar, ehtimol ovulchalar bo`ylab daraxtlar zanjiriga ega to`rtburchak yamyashil dalalarda tonggi tuman pardasidagi keng vodiy ochilardi.

Vodiyning ortida, ko`rinar-ko`rinmas uzoqlikda g`urra kabi, o`rmonning sariq dog`larida burg`ilangan tepaliklar qad ko`tarib turardi, ularning orqasida esa, havoda paydo bo`lgani kabi asosiy Kavkaz tog`lari muz cho`qqilari bilan jilvalanardi.

Ilgari, qandaydir yarim stansiyada provodnik Ilya bayroqchalarni osmonga niqtab, Kuzminchalarga o'sha tog'lar qanday nomlanishini, qaysi biri – Kazbek, qaysi biri esa – Elbrus ekanligini miridan sirigacha tushuntirgandi. Bu tog'lar ham, egizaklarga o'xshab, ikkita bosh, bitta tanaga ega edi.

Kelishgan polkovnikning qo'lidagi, bu tog'larga mutlaqo o'xshamaydigan, cho'qqilari siniq shakldagi papiros qutisi darhol esga tushdi.

Bunday tog'lar yo'lda doka orqasidan ko'ringan kabi, haqiqiy, biroq ularning haqiqiyligini his qilib bo'lmaydigan masofada namoyon bo'lgandi.

Bugungi yorug' tongda ko'kimtir yonbag'irlardagi daralarning barcha burmalari, shuningdek, oq qiyshiq shtrix bo'lib pastga cho'ziluvchi muz xalqoblari farqlanardi.

Tog'lar yonginada edi. Ular hattoki o'zlari osilib turgan o'rmon do'ngliklaridan-da yaqinroq turgandek tuyulardi.

Lekin vodiy ortidagi qizg'ish tepaliklar uzoq, juda ham uzoq ekanligi, ularning ustida, osmonda parvoz qilib yurgan cho'qqilar esa ulardan ham olisligi ravshanlashib borardi.

Temir yo'lining, hozirda mavjud bo'lgan stansiyaning chap tomonida bevosita relslardan quyosh nurida sarg'ayib ketgan qiyalama va o'rmonsiz do'ngliklar ko'tarilgan. Ularning birida urushda qanday qilib omon qolgani noma'lum rotonda¹ kolonna bo'lib oqarib turardi.

Bolalarni qatorda beshtadan kolonna qilib saflab, ushbu rotonda yo'nalishi bo'ylab olib ketishdi. Biroq hech kim safda yura olmasligi, yurishni istamasligi o'sha zahoti ma'lum bo'ldi, bolalar to'dalarga bo'linib, g'uj bo'lib borishar va chekinayotgan qochqinlarni eslatardi.

Oldindagilar direktorning ortidan keng daraga ichkarilab borayotgan bir vaqtda orqadagilar hamon vagonlar atrofida g'imirlab hech ham undan uzila olmasdilar.

Baland bo'lmagan bo'rtiq tepaliklar orasidagi ensiz, biroq tekislangan yo'ldan yurib o'tib, bolalar to'satdan ushbu tepaliklardan stansiyalar bilan berkitilgan keng maydonchaga kelib qolishdi.

¹ *Rotonda* – doira yoki yarimdoira shaklidagi gumbazli bino.

Bu yerda sobiq sanatoriyning vayronalari oqarib yotardi va yerda-gi g'isht hamda axlatlar orasida hamma suv to'ldirilgan to'rtburchak shakldagi beton chuqurlarni ko'rishdi. Betonning ichidagi suv ko'pirib qaynar, maydoncha uzra yengil bug' parvoz qilar, suvdan esa sasigan hid kelardi.

– Fu, sasitib yuborishibdi! – dedi kimdir. Va bu hazilni qaytarib, baland ovozda kula boshlashdi va bu bilan notanish yerda ilk daqiqalarda yuzaga kelgan tig'izlikni yecha boshlashdi.

Kolonna bo'ylab mokidan orqaga-oldinga zir yugurgan Pyotr Anisimovich halloslab yugurib keldi va portfelini silkitib, to'xtashni buyurdi.

Biroq hamma shundoq ham qayerga borishni bilmay toshday qo'tib turardi. Ular yetib kelishgan edi.

Pyotr Anisimovich chuqurlarga ko'rsatib, dedi:

– Oltingugurt suvi! Eshitmaganmisiz? Mana... Demak, kimdir cho'milmoqchi bo'lsa, bu hattoki foydali...

Bolalar jim turishardi. Orqadan yetib kelayotganlar hali g'ovurg'uvur gaplashishda davom etishar va hech narsani eshitmay, oldindagilarni turtib, so'rashardi: «Bu nima, bizning uyimizmi? Yetib keldikmi?» – Haligi... Tushish kerak ekan... yechinib yo'lda orttirilgan kir-chirlarni yuvib tashlamoq lozim emish, – balandroq ovozda qo'shib qo'ydi direktor va chuqurchalar tomonga ishonqiramay ko'z qirini tashladi. Uning ham chuqurchalarda qanday cho'milish kerakligini bilmasligi ravshan edi.

– O'zing tush! – dedi kimdir olomon orasidan. – Biz, nima, jin-nimizmi! Yoki bizni bu yerga sho'rvada pishirish uchun opkelish-ganmi?

– Sho'rva? – tushunmadi Pyotr Anisimovich. – Nega sho'rva? – U bolalarning yuzlariga birma-bir tikilib, kimningdir qo'llab-quvvatlashini kutayotgandek edi. Ammo yuzlar saralangandek, iljayishni ifodalagan, qiziqsinuvchan, juda bo'lmaganda ishonqirama-gan yoki cho'chigan edi.

– Axir nimalar bo'layotgani noma'lum-ku! – dedi u peshanasida-gi terni artib. – Nima uchun sho'rva?

– Chunki qisqichbaqalarga o'xshab qaynab ketamiz! – dedi kim-dir yashirinmay. – Bu axir qaynayotgan suv-ku! Qara, qanday vaqir-lashini!

– Ha, – to‘ng‘illadi direktor va chuqur nafas oldi. – Oltingugurt suvi... Hech qachon ko‘rmagansiz... Umuman olganda, bu tushunarli...

Pyotr Anisimovich chuqurlarga qaradi va yerni toptab, ularning eng yaqindagisiga yo‘l oldi.

Bolalarga o‘g‘irilib qaramay, hattoki ular haqida unutgandek bo‘lib, u sekin yechina boshladi. Pidjagini yechdi, uni astarini tashqariga qilib ikki bukladi, ostiga esa xuddi qimmatbaho buyumdek portfelini qo‘ydi. Shimini, ko‘ylagini, maykasini va oxirgi navbatda nima uchundir botinkasini yechdi.

Qora, tizzasigacha uzun satin tursikda sekin-asta, inqillab-sinqillab va oh-voh qilib, chuqurga yaqinlashdi. Oyog‘i bilan suvga tegindi, qo‘li bilan ushlab ko‘rdi va tushishga hech botinlmadi. «O‘rkachli toychoq»dagi bijg‘ib turgan qozonda keyinchalik qaynab pishib ketuvchi podshoh kabi!

To‘satdan ohlab, Pyotr Anisimovich qirg‘oq bo‘ylab to‘ppato‘g‘ri suvga sirpanib tushdi, yaqin joydagi toshlarga tomchilar sachrab ketdi.

Bunday sirk atrofida to‘plangan olomon bo‘ylab kulgi yugurib o‘tdi. Ovozlar, qahqaha, hazillar eshitildi.

– Nimalar bo‘layotgani noma‘lum-ku! – dedi kimdir direktorning ovozini o‘xshatib.

– Jud-da ma‘lum! Hozir go‘shtli sho‘rva bo‘ladi!

– Sardakli sho‘rva!

– Direktorli sho‘rva!

– Balki, o‘rtoqlar, qutqarish kerakdir: siz ahmoqlar ko‘psiz, direktor bo‘lsa bitta!

– Unga portfelini tashlang! U portfelsiz cho‘kib ketadi!

Yana turli narsalarni baqirishdi, Pyotr Anisimovich esa suvni shapillatib, sachratar, bolalarga va ularning luqmalariga hech qanday e‘tibor bermasdi.

U pishqirar, qo‘ltiqlarini qashlar, og‘ziga suv to‘ldirib favvora qilib tuplab chiqarar va butun harakatlari bilan sasigan chuqurchada cho‘milish qanchalik yoqimli ekanligini ko‘rsatishga urinardi.

Hazillar bora-bora to‘xtadi. Ishonchsizlik o‘rnini qiziqsinish egalladi. Eng qo‘rqmaslari chuqurchalarga yaqinlashib, qo‘llari bilan suvni ushlab ko‘rishdi. Va shu zahoti orqaga sapchishdi. Qirg‘oqda

anqayib turgan eng qiziquvchi bolakayni kiyimi bilan itarib yuborishdi. U esa chiqishga urinmay, olomonning kulgisi va daldali qichqiriqlari ostida suzishda davom etardi.

Shunda bir nechta bola xuddi badbo'y suvdan qo'rqqandek oh-vohlab, so'ngra o'zini suvga tashladi, biroq ularning qo'rqmayotgani aniq edi, chunki ular chaqqonlik bilan shovqin solishni boshlashdi: suvni sachratishdi, shapillatishdi, og'izlariga to'ldirib favvora qilishdi...

Shu joyga kelganda qolganlar ham tutaqib ketishdi. Nihoyat ularga hech qanday sho'rva tahdid solmayotganini, bu hammom, quvnoq hammom ovunchoq ekanligini tushunishdi.

Bo'kirib, «ura» deb baqirib to'lib borayotgan chuqurchalarni egallashga tushishdi, turtishishlar, bir-biriga suv quyishlar boshlanib ketdi.

Qizlar umumiy qiy-chuvni qo'rquv va qiziqish aralash chetda turib tomosha qilishardi.

Regina Petrovna paydo bo'lib qizlarni o'zi bilan yetaklab ketdi. Sanatoriy xarobalari orqasida, dalaning yoqasida katta to'rtburchak basseyn bug'lanib turardi. Uni negadir darhol sezishmadi. Regina Petrovna qizlarni aynan shu yerga olib keldi. Uch va to'rt yoshli ikkita tetik indamas jiddiy bolalarni yechintirib, navbat bilan basseynga tushirdi. Qizlar odatdagidek chiyillab izma-iz tushishdi.

Chetdan qaraganda g'aroyib manzara yuzaga kelgan bo'lsa kerak.

Besh yuzta bola – endi ularning yosh bolalar ekanligi bilinib turardi – eng oddiy bolalar o'zlarini suvga tashlab, xarobalar orasida quturishardi. Ular o'zlari va boshqalarning chuqurchalariga sho'ng'ir, bir-biriga suv separ, iliq suvni g'ishtlarga sachratardi. Yolg'iz Pyotr Anisimovichgina kiyinib va o'zining oqarib borayotgan siyrak sochlarini tarab olib, portfelini tizzasiga siqib, yonda o'tirar va chuvilla-shayotgan bolalar tomonga xavotir bilan qarab-qarab qo'yardi.

Yonida oppoq tipratikan sochli keksa mashinist cho'qqayib o'tirib olib sarbast qiyofa bilan tamaki tutatardi. Direktorga g'aroyib hammomni u ko'rsatgandi. U ilgari bu yerlarga ko'p marta kelganligi aniq.

Cho'miluvchilarni qayta safga tizish uchun qiyinchilik bilan chuqurchalardan chiqarishdi.

Kimdir kiyina boshlagan, ba'zilar esa suvda tipirchilay boshladi, ularni suvdan tortib chiqarish uchun kuch qolmagandi. Kolka bilan Sashka ham dastlab suvga tushishni istashmadi, suvdan juda badbo'y hid kelayotgandi. Ko'ngillari aynigandi. Keyin esa yoqib qoldi, buning ustiga katta bo'lmagan, biroq moviy rang kafel yotqizilgan qulay chuqurchaga tushishgandi.

Aka-ukalar bir-birini ishqalashdi, suvning ostida qanday ko'rinishlarini bilish uchun birga sho'ng'ishdi. Ammo mahkam ushlab qolish uchun hech narsa yo'q edi va ular darrov suv yuzasiga qalqib chiqishdi. Shunda ular og'izlari bilan suvga guvillashdi, qo'shni chuqurchadan suqilmoqchi bo'lgan bolakayga suv sachratib to'lqin hosil qilishdi va kiyina boshlashdi. Berilgan vaqt ularga kifoya qildi, buning ustiga kasallikdan vujudi zaiflashgan Sashka ham suvda uzoq o'tira olmasdi.

Aka-ukalar boshqalar singari ho'l kiyimda safning o'rtasida turishar va balandlikda yarqirovchi toqqa boqishardi. Bu tog'lar hammayoqdan ko'rinishi va ularga to'yguningcha boqish mumkinligi ma'lum bo'ldi. Bu ham jonga tegmasdi.

Pyotr Anisimovich, chuqurchada o'tirganlarga e'tibor bermay, ro'yxat bo'yicha hammani birma-bir baqirib chaqirdi.


Yo'lda kelayotgan vaqtda ular yettita odamni yo'qotishgani aniqlandi: kimdir qolib ketdi, kimdir, ehtimol qochib ketdi, busiz bo'lmaydi.

Ular kelgan yo'llaridan yurib temir yo'lga qaytishdi va stansiyaning yonidan (bu joy nima uchun «Kavkaz suvlari» deb nomlangani endi tushunarli bo'ldi, biroq «Sasigan suvlar» deb nomlansa to'g'riroq bo'lardi) vodiya tusha boshlashdi.

Yashil dalalarning o'rtasidan keng va chang yo'l bo'ylab cho'zilib yurib borishdi. Kuzminlar har ehtimolga qarshi nima qayerda o'sayotganini eslab qolishga harakat qilishardi, chunki qayerga va qancha yurishlari noma'lum edi.

Kichkina tanaffus bilan – tanaffus vaqtida qo'liga tushgan narsani paqqos tushirishdi, ammo bu ishni erinchoqlik bilan qilishdi, yo'lda to'yib olishgandi – ular bog'-rog'lar orasidan oq uylar ko'rinmaguncha oyoqlarini sudrab borishdi.

Bolalar kolonnasi oppoq, changdan yumshab qolgan va ajablanarli tarzda bo'sh bo'lgan, Qayin deb nomlangan qishloqning ko'chasini yorib o'tdi. Qiziq tomoni, bu yerda birona ham qayin o'smasdi.



Qishloqning orqasida bo'yi Kuzminlardan balandroq bo'lgan, yuqoriga ko'tarilib turgan tosh ustunlar dalasi yastanib yotardi, ular ko'p, kulrang bo'lib, bundaylarini Moskva viloyatida fashist tanklariga qarshi qo'yishgandi. Bu yerda ham himoyalaniyishgan ko'rinadi, deya o'ylashdi aka-ukalar – ana, qanchadan qancha toshlarni tiqib tashlashibdi! Lekin hozir ularning nigohlari oldinga, aftidan tugab borayotgan yo'lga qaratilgandi.

Qishloqqa uch kilometr qolganda to'xtashdi. Ko'm-ko'k tog'lar boshlangan joyning ro'parasida, daraxtlarning ortida imoratlardan ko'rinardi: bittasi ikki qavatli oq uy, qolgan ikkitasi – bir qavatli, biroq uzun, muvaqqat yog'och uyga o'xshash.

Kiraverishdagi ustunchaga yashil tikanli devorning orqasida SIL-KOZTEKNYUKOM degan yozuv osilib turardi.

Bu so'z bo'r bilan kesishtirib chizib o'chirilgan, pastida esa shoshqaloq yozuv bilan: «Moskva viloyatidan ko'chirib keltirilganlar uchun. 500 k. Boqimsizlar» deb qo'shib qo'yilgandi.

Pyotr Anisimovich cho'zilib ketgan kolonnani xavotir bilan ko'zdan kechirdi. Portfelni qo'yniga siqib, ustundagi-yozuvni o'qidi, boshini chayqatdi va bolalarga burildi.

– Mana, keldik, – dedi va peshanasidagi terni artdi. – Demak, biz shu yerda yashaymiz. Tartib-intizom va shunga o'xshash narsalar, o'zingiz tushunasiz... Janjal-to'polon qilinmasin. Uzoqqa yugurib ketmang, sizlarni hech kim izlab o'tirmaydi... Yo'qolib ketasiz.


Bu paytda tog'larning ortidan gumburlagan ovoz keldi va cho'ziq momaqaldiroq bo'lib yangradi. Bolalar boshlarini ko'tarishdi, ammo bulutdan nom-nishon yo'q.

Pyotr Anisimovich ham osmonga boqdi, o'zining «nimalar bo'layotgani noma'lum-ku»sini qaytargisi keldi, biroq boshqa narsani dedi.

– Minalarni portlatishyapti... Fashistlardan so'ng qolganlarini... Mayli. – Va yana qo'l kafti bilan peshanasini artdi. – Demak, endi sizlarga qayerda yotoqxona, qayerda hojatxona joylashganini ko'rsatishadi. Bo'shsizlar.

Aftidan, bu ularning tashrifi munosabati bilan aytilgan kirish so'zi edi.

Shu vaqtga qadar qandaydir omborga mudirlik qilgan boshi qotgan inson boshqacha gapira olmasdi ham. Buning ustiga, aytishga



gap ham yo'q edi, u bunday vaziyatga birinchi marta tushmoqda. Bolalarni olib borib qo'yishni tayinlashdi, u olib borib qo'ydi.

Ilgari ishchi ta'minot bo'limida kartoshka, sovun, bidonda o'simlik yog'i tashigan. Bu u qila oladigan eng asosiy ish edi. U tunda binoyidek xo'jalik xodimi degan nom chiqargandi.

Uning portfelida ilgari nakladnoylarning o'rmini bolalar uchun qandaydir hujjatlar egallagandi. Ularni hali tartibga solish kerak. Vaqt topsa, albatta.

«Bo'shsizlar»ni aytib, Pyotr Anisimovich yetib kelganlar o'zlarining temir karavotlarini egallash uchun tashlanishadi deb o'ylab uylar tomon qo'l siltadi. Biroq u xato qilgandi. Kolonna qanday turgan bo'lsa, shunday turaverdi. Hamma uylarga qarab nimanidir kutishardi.

Direktor ushbu tushunarsiz, boshqarib bo'lmaydigan omma turli vaziyatlarda o'zini har xil tutishini payqadi, shu bilan birga oldindan kelishib olmay, hamma besh yuzta odam bir harakat qilardi.


Hozir olomon katta o'tkir tipratikanni eslatardi. Hech qanaqa hazil, kulgi, hattoki hech qanday tovush eshitilmadi.

Stansiyada uzoq piyoda yo'l yurish vaqtida yuzaga kelgan g'ayriixtiyoriy xavotir ko'zlangan manzilga yetib kelinganda g'oyib bo'lmadi, aksincha, kuchaydi.

Buning ustiga mana bu tugamayotgan portlashlar bolalarni bezovta qilar, allaqachon unutilshlari kerak bo'lgan narsani eslatardi. Bolalar qishloqqa tinch hayot kechirish uchun kelgandilar va Xudo siylagan tog' o'lkasi ularni tinchlik-totuvlik bilan kutib olishi kerak edi. Yozning oxiridagi zarrin quyoshi bilan, daraxtlardagi mo'l hosili bilan, tonggi shafaq paytidagi qushlarning sokin kuylashi bilan...

Bizda stansiyadan bu yerga, serdaraxt tog'larning etagiga kelayotganimizda yo'lda paydo bo'lgan qo'rquv hissini eslayman. Biz poyezdga, vagonga, yo'lga o'rgangan edik, bu bizning muhimimiz edi. Biz vokzallar, bozorlar, qopchi savdogarlar, qochqinlar, sershovqin perronlar-u poyezdlar orasida o'zimizni nisbatan xavfsizlikda sezardik.

Butun Rossiya harakatda edi, butun Rossiya qayoqqadir ketayotgandi va biz, butun jon-tani bilan bog'langan bolalari ham ushbu oqimning ichida edik.



Endi esa bizni hech kim termagan gullar, pishgan olmalar va qu-yoshga tikilib irjaygan qora, yarmi to'kilgan kungaboqarlar o'sib yot-gan mustahkam yo'ldan olib ketishardi. Va birorta odam ko'rinmasdi. Birorta...

Ko'p soatlik yo'limiz davomida biz na ot-aravani, na mashinani, na tasodifiy yo'lovchini uchratmadik. Atrof bo'm-bo'sh edi.

Dalalar yetilib pishmoqda edi. Ularni kimdir ekan, kimdir o'tagan, tozalagandi. Kim?..

Uzoq yo'limizda qishloq bor edi, kimdir axir u yerda yashagan-ku...

Ne sababdan bu go'zal zamin bizni bunday ovloq va jimjit kutib oldi? Nima uchun texnikumning bizga yolg'izligimizni eslatib tur-gan, shoshqaloqlik bilan qilingan ahmoqona taxtachali binosi bo'm-bo'sh, kimsasiz edi?

Biz esa chindan ham qandaydir aql bovar qilmas tajriba uchun cho'lga tashlangan hayvonchalarni yodga solardik: «500 k. Boqim-sizlar». Bizning zotimiz shu tarzda belgilangandi. Faqat «k» harfi nimani anglatgan? Kavushdo'zlar, kavkazliklar, kulgililar? Balki kel-gindilardir?

Orqamizda, tog'larda yana yangroq aks sado berib portladi va biz kolonnaning o'rtasidagi qiz «uyga ketgim kelyapti» deganini va yig'lab yuborganini eshitdik.

Hamma g'imirlay boshladi, o'girilib qarab uni ovutishga tushish-di. Unga:

– Qo'y! Nega qo'rqasan, qara! Mana bizning uyimiz! Ko'ryapsanmi? Bu yerdagi hamma narsa bizniki, uy ham, daryo ham, tog'lar ham... Bu yerda yashash uchun keldik!

Tog'larda nechanchi marta gumburladi. Biz yangi hayot ostonasi-da turib u yerga kirishga shoshilmasdik.

O'ylashimcha, hammamiz tashvish tortganmiz va o'zimizni yolg'iz sezganmiz. Xayollar esa shunday sirg'anma, noaniq edi, bi-roq biz uyga keldik va endi bu yerdagi hamma narsa bizniki degan tuyg'u yo'q edi...

Bu yerda biznikilar – faqat o'zimiz edik. O'zimiz va nimadir ro'y bersa juftakni rostlashga tayyor oyoqlarimiz. Yana ba'zilar mavjud emas deyidigan qalbimiz ham...

Unday bo'lsa nima sababdan o'sha vaqtda, men eslayman, aniq eslayman, ichimda nimadir qattiq og'ridi? Nafaqat mening ichimda...

Balki bizni yangi maskanda hech qanaqa baxt kutmayapti degan gumonning paydo bo'lgani uchundir. Ammo biz baxtning nima ekanligini bilmaganmiz. Biz shunchaki yashashni istar edik.

8

Kunni tunda maqta deyishadi.

Hozircha esa uch tomondan uylar, to'rtinchi tomondan – jonli chakalak devor bilan to'silgan hovlida yo'lda berilgan bisotimizni tashladik: chet eldan keltirilgan yorliqli konserva bankalar bilan to'ldirilgan bir nechta quti, direktorning shaxsan o'zi tomonidan g'amlab qo'yilgan, ishchi ta'minot bo'limi zaxiralaridan olingan taxir o'simlik yog'i idishi, begona yorliqli g'alati sovg'a qopchalari va bir uyum latta-putta.

Baxtimizga, ikki qavatli uyda, uning barcha xonalarida to'shakli karavotlar bor edi, kimga karavot yetmay qolgan bo'lsa, ularga polning o'zida joy solishdi.

Qizlarni, ular kamroq edilar, birinchi qavatga, o'g'il bolalarni ikkinchi qavatga, eng kattalari, oltinchi, yettinchi sinf o'quvchilarini esa bir qavatli bino qanotiga joylashtirishdi. Uning boshqa qanoti oshxona va yemakxonaga berildi. Ikkinchi bir qavatli binoni direktor va tarbiyachilar egallashdi. Shu yerning o'zida omborxonona va boshqa xizmat xonalari joylashgan edi.

Biroq bu bir necha hafta ichida erishilgan ko'rinarli tartib edi. Qolgan narsalar tartibsiz ravishda uyushtirilar, ya'ni umuman uyushtirilmasdi. Uch nafar tarbiyachi-yu direktor – va koloniyaning butun shtati. Hech kim hech kimni tanimasdi va taqdir taqozosi bilan birlashtirilgan ushbu yarim mingtalik bahaybat olomoni darrov inobatga olish imkonsiz tuyulardi.

Oshpaz yo'q edi, buning ustiga pishiradigan narsalar ham mavjud emasdi. Chiroyli amerika bankalarida yashil qichitqi o't solingan sho'rva ekan. Tekshirilmay guruhlarga tarqatilgan sovg'a qog'ozxaltalariga quyidagilar joylangandi: ingliz kasaba uyushmalari – tred-yunionlardan kelgan xatlar, «Britaniya ittifoqchisi» gazetasi, bir necha quti sigaret, yupqa qog'oz gugurtlar, shuningdek, beadab kiyimlardagi reklama go'zallarining suratlari.

Pyotr Anisimovich ushbu qog'ozxalta bolalar uchun mo'l-jallanmaganini fahmlaguncha tarbiyachilarning yarmi sigaret tuta-

tar, go'zallarni esa devorlarga osib, yo'qolib qolgan taqdirda egasini topish mumkin bo'lishi uchun orqasiga qalam bilan dastxat ham qo'yishgandi. «Britaniya ittifoqchisi» esa hojatxonaga ishlatildi. Af-tidan, u bu yerda eng foydali narsa bo'lib chiqdi.

Qichitqi o't solingan sho'rva bankalarini esa o'rtasidan bo'lib likopcha o'rniga ishlatishdi. Qoshiqni bolalar o'zlarini axtarib topish-gan va o'zlarida saqlashayotgan edi. Ko'pchilikning qoshig'i qo'lda yasalgan, daraxt bo'lagidan qir qilindi. Buning ustiga bu qoshiqlar bilan yeyiladigan narsaning o'zi yo'q edi. Boshidanoq qo'lda yasalgan oshxonadagi uch oyoqli temir o'choqda qaynatilgan bemaza ov-qatning hech qanaqa quyqumi yo'q edi va zatiruxa deb nomlanardi: makkajo'xori uni, suv va direktorning o'simlik yog'i, uni konserva bankasidan ichish mumkin edi. Tez orada esa un ham tugadi, kolo-niya yegulikni mustaqil topishga tushdi, aksariyat uchun bu ish yan-gilik emasdi. Shu jumladan, Kuzminchalarga ham.

Hozircha isitmayotgan pechka orqasidagi burchakka durustgina joylashib olib, axir qish ham g'izillab kelmoqda edi – bu joyda ham Kuzminchalar boshqalardan oldinga nazar tashlashardi – aka-ukalar mavjud boyliklarni tekshiruvdan o'tkazishdi.

Shu atrofda, Sunja qirg'og'ida, sayoz va qizg'ish daryocha ol-dida tashkil etilgan joyda ittifoqdosh paketda yassi, xorijiy gugurt-lar, shaffof, chiroyli qog'ozxalta, aka-ukalarga tog'larning nomi-ni ta'riflayotganda provodnikning cho'ntagidan o'marilgan vagon kalitlari, tez-tez foydalanilaverganidan bukik joylarda ishqalangan o'ttiztalik va o'sha ochiqko'ngil merov provodnikdan urib ketilgan bir nechta kartoshka bor edi.

Tomilinodagi qo'r-qut bilan solishtirganda bu anchayin ko'p edi, ko'p esa bu yaxshiroq degani.

Sobiq hayvon inida qilingan tuynukni aka-ukalar kengaytirish-gandi, bu agar biror narsa qo'lga tushsa shu yerga yashirish uchun qilingandi.

Va o'sha narsalar darhol bo'lmasa-da, paydo bo'ldi.

Kuzminchalar o'zlarining yangi hayotlarida sodir etgan yana bir narsa: koloniyaning o'zini tekshiruvdan o'tkazishdi, ya'ni uning hu-dudini, barcha xonalar, burchaklar, cherdaklarni ko'zdan kechirishdi.

Ular odatdagidek shu paytgacha bo'sh yotgan nonkeskichdan boshlashdi. Tarozi va uning toshlaridan tashqari – ular derazadan

ko'rinib turardi – u yerda hech narsa yo'q edi. Eshikdagi qulf mahkam emasdi, derazalarga esa temir panjara o'rnatilmagandi.

Bularning barchasini Kuzminchalar Tomilino bilan solishtirganda birmuncha rivojlanish sifatida baholashdi. Oshxona va yemakxonani ehtiyotsizlik bilan bolalar yotoqxonasining yonida joylashtirganligi ham ular uchun g'alati tuyuldi. Vaziyat tug'ilsa ushbu hech kim qo'riqlanmayotgan tomondan oshxonaga kirish yo'llarini ham izlab ko'rish kerak. Bu oshxona aka-ukalar o'rgangan tushunchadan biroz yiroq bo'lsa ham.

Zatiruxani qizlar ko'chani o'zida, uch oyoqli temir o'choqda pishirishardi. Buning ustiga u aka-ukalarning o'marib ketishiga arzimasdi.

Yemakxonaga xohishga qarab tushlikda bir, ikki marta kirib chiqish mumkin edi. Tag'in ham aka-ukalar bu yerda birinchi kundanoq o'zlarining o'xshashliklari bilan hammani laqillatishga ulgurishgan edi.

Karavotlari, kiyimlari, qoshiqlari, kosalari, hattoki vaziyat taqozo etganda odatlari bilan ham almashishardi.

Shu bois bolalardan biri chin qalbdan xitob qilib yubordi:

– Oshnalar, hech bo'lmasa o'zlaringiz qaysi birlaringiz ekanligini eslaysizmi? Qaysi biringiz Sashka, qaysi biringiz esa Kolka?

Aka-ukalar o'ylab o'tirmay buni eslay olmasliklarini aytishdi va bu bilan qolganlarni yanada qattiq gangitib qo'yishdi. Uxlash xonasi shunday qah-qah urib gumburladiki, olisdagi, tog'lardagi portlashlarni ham bosib ketdi, eng qattiq kulgan esa aka-ukalarning o'zi bo'lib chiqdi. Maynabozlik boshlanib ketdi, bunda esa Kuzminchalar o'zlarini suvdagi baliqdek his qilishardi.

Ular direktorning xonasini va, ayniqsa, uning yonidagi buyumlar omborxonasini taftish qilishdi.

Direktorning xonasida hozircha molimardumxo'rlik qiladigan narsaning o'zi yo'q edi va bu hozirgi direktorni tarbiyachilari bir necha marta talab ketmoqchi bo'lgan, biroq har safar itlari xalaqit beravergan tomilinolik firibgardan farqlab turardi.

Aka-ukalar burunlarini tiqishga muvaffaq bo'lgan omborxonada esa latta-putta qoplardan tashqari, o'simlik moyi idishigina turardi, aynan uni aka-ukalar kuzatuvga olishdi.



Buning ustiga, qulf ham, zulfin ham juda oddiy bo'lib chiqdi: ularni barmoq bilan ochish mumkin edi.

Omborxonaning eshiklari yonida sandiroqlab yurib, Regina Petrovnaga yo'liqishdi. U shu yerning o'zida, muyulishda yashardi.

Uyning qisqa yon tomonidagi kichkina xona, ikkita temir karavot, koloniyachilarnikiga o'xshash javoncha – bor-yo'g'i shu.

Lekin derazada parda, karavotlarda ko'z uchun noodatiy qandaydir rangli choyshablar, ostona oldidagi polda gilamcha, devorda kichkina, yog'och gardishli ko'zgu chiroy to'kib turardi.

Tarbiyachi uyga taklif qilgan Kuzminchalarga bularning hammasi haddan tashqari bayramona va bashang bo'lib tuyuldi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi.

Ular o'zlarining oyoq kiyimlari, o'zlarining ishtiroklari bilan ushbu saranjomlikni buzishga botinolmay bo'sag'a yonida laqillab turishardi, shu bois beka deyarli kuch bilan ularni xonaga itarib kirgizdi va karavotning o'ziga o'tirishni taklif qildi. Stullar hozircha yo'q edi.

Yo'l-yo'lakay erkakchalar hovlida o'ynayotganliklarini va, Xudoga shukurki, to'polon va kir-chir kamroq ekanligini tushuntirib, Regina Petrovna javonchaga toza qo'lsochiqni to'shadi, unga ikkita qoq non bilan ovqat qo'ydi. Keyin temir o'choqdan cho'michchada choy olib kelib, hammaga quyib berdi va Kuban stansiyasida Sashkani majburlab ichirishgan o'sha dorinikiga o'xshash oppoq qog'ozdan olingan bir nechta qand donasini solib chiqdi.

Aka-ukalar shirin choyni ochko'zlik bilan ho'plashar, og'izda o'zidan o'zi erib borayotgan qoq nonni tejab kemirishar va shu bilan shundoq ham kuchli ochliklarini kuchaytirishardi.

Bekaning o'zi esa qalin qora sochlarini orqaga turmaklab, derazaning oldida ko'chaga qarab turar, bu yengilgina derazani agar kimdir bu yerga kirishni istasa osonlik bilan sindirishi mumkin edi.

Tajribali Kolka buni darrov aniqladi.

– Xo'sh, o'xshashliklaring bilan hammaning miyasini qotirishga ulgurdinglarmi? – so'radi Regina Petrovna aka-ukalarga qarab. – Men esa bu yerda hujjatlarni saralayotgan edim, qizlar bilan shug'ullansam-da, biroq sizlarniki ham uchrab qoldi... Ikkingizga bitta tavsifnoma. Bu yerda nafaqat tashqi ko'rinishingiz, balki odatlaringiz, qiziqishlaringiz ham bir xil ekanligi yozilgan. Sizlarga ikki-



ta tavsifnoma yozish shart emas, chunki Kuzminlar ikki qiyofadagi bir inson, deyilgan.

Regina Petrovna yana bir nimalarni qo'shmoqchi edi, biroq shashtidan qaytdi.

– Mayli. Keyinroq, – taraddudlanib dedi u. – Qaysi biringiz kimsiz? Xu iz xu?

Kolka uf tortib qolib ketgan qoq non bo'lagiga qaradi va:

– Sashka tezroq yeyapti, uning sabri kam. Menda esa ko'proq. Biroq u aqlliroq, miyasi tezroq ishlaydi. Men esa – ishbilarmonroqman, – dedi.

– Aha, demak, har xilsizlar.... Men ular sizlarni bilmaydi degan xayolga borgandim. Siz ularni mutlaqo dovdiratib qo'yibsiz. Shunday bo'lsa-da... Ba'zilarni dovdiratish ham shart emas, ular uchun hamma bolalar bir xil. Aytgancha... – Regina Petrovna nimanidir esladi va deraza tomon qaradi. – Tavsifnomada sizlar militsiyaga ham tushganingiz haqida aytib o'tilgan... Agar sir bo'lmasa, nima uchun?

Kolka uyalib Sashkaga qaradi. Biroq Sashka o'zining qoq nonini kemirib tugatar va gapirmasdi.

– Haligi... Biz bozorda bir ayolning tuzlangan bodringini o'g'irlagan edik.

– Bodring? Bir dona bodringmi?

– Yo'q, bir dona emas, ikkita! Bittasini men oldim, ikkinchisini esa – Sashka. Ko'proq bo'lsin uchun!

Sashka esa qoq nonini yeb bo'lib qo'shib qo'ydi:

– Yo'q, unaqamas. Biz hushyorligimizni yo'qotdik. Bittamiz atasda turgan edik. Ya'ni agar biror kor-hol ro'y bersa u «atas» yoki «atanda» deb baqirishi kerak... Ikkinchimiz esa bochkadan bodringni o'mardi. Keyin atasda turgan birinchimiz ham bodring olmoqchi bo'ldi, shunda bizni ushlab olishdi...

Regina Petrovna kulib yubormadi, balki derazadan qarab o'ylanib qoldi, so'ng bolalarga o'girildi.

– Chidab turing, do'stlarim. Mening erkakchalarim ham chidashyapti... Guruhimdagi hamma qizlar ham sizlarday ochiqqan. Mana, direktor Gudermesga bormoqchi, balki oziq-ovqat olib kelar. Hozircha esa... Menikiga kelib turinglar, xo'pmi? Rostdan ham, kelinglar, mehmon qilaman. Ana, qandlarim yana bir haftaga yetadi, choy ichamiz.

Aka-ukalar o'rinlaridan turishib, kelib turishga va'da berishdi. Ular bir-birlariga qaramasalar-da, biroq nimani his qilayotganlarini sezishardi: Regina Petrovnaning o'zi ham ochin-to'qin yashayotgani uchun ushbu maftunkor va mehribon ayolnikiga tez-tez kirib turishmaydi.

Bordi-yu qayerdandir arzirli narsani o'mara olishsa, shundagina kirishadi. Uni shohlarga xos mehmon qilish uchun kirishadi.

Bundan tashqari, Regina Petrovnaning o'zi, balki, ishlab topa olmagan uchun o'zlari ovlab, bir amallab topishadi. Axir uning nozik barmoqchalari qulfni sindira oladimi? U va uning erkakchalari – Marat va Joreslar yeyishi kerak-ku.

Xayrlashayotganlarida Kuzminchalar shunday o'ylashardi. Kolka qoq non bo'lagini tejab qolib, cho'ntagiga solib qo'ygandi. Keyinroq uni Sashkaga sovg'a qiladi.

9

Uylar, omborchalar, yotoqxonalar, cherdaklar (u yerda, yaxshi qoqilmagan eshiklarning orqasida ham matraslar yotardi)ni diqqat bilan ko'zdan kechirib, tikanli tirik buta g'ovni tupigacha o'rganib chiqib va unda ikkita yashirin tuynuk topib, aka-ukalar o'zlarining diqqatlarini daryochaga, yaqin-atrofdagi bog'larga va, albatta, koloniyadan uch kilometr narida joylashgan Qayin qishlog'iga qaratdilar.

Daladagi tanklarga qarshi xodalar deb o'ylagan narsalari mutlaqo qo'rqinchli bo'lmagan. yangi mozorlarsiz qadimiy qabriston bo'lib chiqdi. Kulrang granit ustunlarda noma'lum tilda nimadir o'yib yozilgan, ba'zilarida esa patronchali ikkita cho'ntakcha chizilgandi, bundaylarni aka-ukalar «Cho'chqaboqar ayol va cho'pon» suratida ko'rishgandi. Cho'pon qo'ylarni o'tlatyapti va baralla qo'shiq kuyalayapti.

Aka-ukalar silliq tosh va chizilgan cho'ntakchalarni ushlab ko'rishdi va ular o'n marta tomosha qilgan sevimli suratlaridan farqli ravishda bu yerdagi tog'larda hech kim quvnoq qo'shiqlarni kuylamasligini va qo'y boqmasligini bir vaqtda o'ylashdi.

Aka-ukalar bir necha kun davomida qishloqni diqqat bilan ko'zdan kechirishdi va u yerda odamlar yashashi haqida xulosaga kelishdi. Bekitqiqa, ishonmay yashashardi, chunki kechqurunlari na ko'chaga chiqishmaydi, na supachada o'tirishmaydi. Tunda uy-

larida olov yoqishmaydi. Ko'chalarda sandiroqlashmaydi, mol haydashmaydi, qo'shiq kuylashmaydi. Xudo biladi, qanday qilib bunday yashashlarini, biroq eng asosiysi, yashashadi.

Aka-ukalar birinchi marta bog' tomondan kirib olishdi. Kartoshkaga yo'liqishdi, namuna uchun bir tupini kovlab chiqarishdi, turgan joylarini belgilashdi: hosil yetilgan, kechqurun kelish kerak.

Eshittirmay pichanxonagacha yetib borishdi, kutib turishdi, quloq tutishdi. Ammo shu orada yo'tal, erkak kishining qattiq yo'tali, qandaydir to'ng'illash eshitildi. Ular orqaga burilishdi. Qishloq xo'jayini bilan uchrashuv yaxshi oqibatlariga olib bormasligi ravshan edi. Tomilino bozorida erkaklar ayamay urishgan. Shaharliklar ham urishgan, ammo biroz ayab.

Takroran qorong'ida koloniyadagi tinimdan so'ng yo'qlab kelishdi. kartoshkalarni kovlab olishdi, qo'yin va cho'ntaklarini to'ldirishib, yo'lning yoqasidan bildirmay o'tishdi.

Yana hech narsani ko'rishmadi, faqatgina devorlar orqasida bo'g'iq ovozlari taralardi.

Tomilinodagi kabi na itning vovullashi, na tovuqlarning qaqag'lashi, na cho'chqachalarning chiyillashi, buzuq garmon sadolari ostida laparlarning kuylanishi...

Hech nar-sa.

Shunday vaqtlar bo'lgandiki, tomilinolik bolalar, kattalar ham qiyshiq ko'zli garmonchi, u kunduz kuni platformada muzqaymoq sotardi, bolalardan mutlaqo uyalmasdan qizlarga tegajog'lik qilar va ba'zilarini hatto tizzasiga o'tirg'izardi. Kayfi oshgandek bo'lib irjayar, yagona ko'zi bilan o'qrayar, xaxolab: «Haligingina nima deysan?» deb so'rardi. Bolalar xijolat tortishar, jim turishardi. Shunda garmonchi bo'yog'i ko'chgan garmonini cho'zib, butun boshli ko'chaga o'zining adabsiz laparlarini baqira boshlardi.

Moskva viloyatidagi uylarda hayot bor edi. Bu aniq.

Bu yerda esa u zimdan yonib turgandek. Odatlanmaganlikdan aka-ukalar hadiksirardilar: uy haqida to'liq tushuncha bo'lmay turib u yerga qanday qilib kirish, uning egalari kim, qachon, qaysi vaqtlarda uyda bo'lishadi?

Biroq shu orada bir tasodif ularga yordamga keldi.

Bir safar, qishloq atrofida tentirab, quruq shox-shabba terib yurgan bir kishiga duch kelishdi.

Aka-ukalar g'irillab o'tib ketmoqchi bo'ldilar, lekin vagon provodnigini tanib qolishdi. Mo'ylovli, oyoqlari kalta, ammo hozir ish kiyimisiz, ko'ylakda, oddiy ishtondagi odam o'sha garmonchiga o'xshab ko'rinishi yosh kishi bo'lib chiqdi.

Provodnik bolalarga qarab tirjaydi. Egizaklar Voronejda olib-sotardan qochganlarini eslagan bo'lsa kerak! U yana bolalarga ikki boshli Elbrusga ega Kazbekni ham ko'rsatgandi. Ular bo'lsa... kalitlarni uxlatib ketishdi. Ko'proq odat bo'lib qolgani uchun uxlatishgandi: kalitlar juda yarqiragan va jarangdor edi, qo'lning o'zi unga talpingan bo'lsa kerak. Nima uchunligini Xudo biladi.

– Keldinglarmi? – jiddiy so'radi provodnik va miyig'ida kulib qo'ydi.

– Aylanib yuribmiz, – dedi Kolka. Sashka bosh irg'adi.

– Bu yerda sizlarnikidan ko'pchilik aylangan ko'rinadi, – dedi provodnik. Kartoshkamning yarmini o'g'irlab ketishibdi! – Va bu-yurdi: – Shoxni ol, ketdik.

– Kartoshkani biz olmadik, – gapini bo'ldi Kolka.

– Siz emas... Siz emas... – qo'l siltadi provodnik. – Sizlar faqat kalitni olgansizlar. Yoki unday emasmi? – U yana bir marta qaytardi: – Xo'sh, ketdik! Mayli.

Shoxlar katta bir bog' qilib bog'langandi. Har biri bittadan bog'ni oldi. Yo'lga olib borishdi, zanglagan g'ildirakli yog'och aravaga ortishdi va qishloqqa g'irillatib ketishdi. Oq, qo'rali kichkina bog'chasi va tomorqasi bor eng chetki uyda to'xtab, narsalarni tushirishdi. Provodnik uyga kirib ketdi, bolalar esa hovlida kutish uchun qolishdi.

Ikkalasining xayoliga bir narsa keldi: bu uy eng chekkada, koloniyaga yaqin joylashgani uchun ham koloniyachilar bu yerga ov uyushtirishgan edi. Chetdan har doim tashish xavfsizroq.

Kutib turganlarida bo'yلامasiga ichidan shiypon o'tgan, shiyponning ostida makkajo'xori poxoli, shox-shabbalar, orasida vaqt ta'sirida ko'karib ketgan tor bo'g'izli mis ko'za yotgan qandaydir temirchalar bor noobod baland devorli hovlini qiziqish bilan tomosha qilishardi. Ko'zani hozircha nima uchunligi noaniq bo'lsa-da, eslab qolish lozim edi. Hovlining poli – aka-ukalar bundayini birinchi marta ko'rayotgan edilar – mustahkam, silliq, sariq loy qoplangan edi. Uyga kiraverishda o'ngib ketgan echki terisi yotgandi.

Uy egasi eshikdan paxmoq boshini chiqarib, baqirdi:

– Kiringlar, nimaga qaqqayib turibsizlar?

Aka-ukalar orqalariga qarab, biror kor-hol ro'y bergan taqdirda tumtaraqay bo'lish uchun ketma-ket tizilishib, mis va sopol ko'zalar turgan tor ko'lankadan o'tishdi va mehmonxonaning ostonasidan o'tishdi. Bu yerda Rossiyada pechkalami oqqa bo'yagandek devorlar ham, shift ham oppoq rangda edi.

Burchakda kimningdir surati osig'liq turibdi. O'rtada g'adirbudur, hech narsa to'shalmagan stol, ikkita kursi, karavot. Karavotning ostida qo'lda to'qilgan gilamcha: qora tagzamini bo'ylab qizil naqshlar. Xonada boshqa hech narsa yo'q edi. Kiraverishda tokcha qoqilgan, uning ustida esa sodda ro'zg'or buyumlari, bo'ydoqniki ekanligi darhol ko'rinib turibdi: cho'yan qozoncha, ikkita temir kosa, askarlarning dekchasi, bir tomoni ezilgan krujka. Stolda tunkadan qilingan, hamma yog'ini qurum bosgan yarimchelak choy-nak.

– Shunday yashayapman, – dedi provodnik va yana kulimsirab qo'ydi. – Aytishadi-ku, yaxshi yashayapman, bundan yaxshirog'ini kutypapman, deb! – Va karavotda, iflos kulrang adyolda yonma-yon o'tirib olgan bolalarga qarab so'radi: – Qo'shni ekanmiz-da? Buni qarang-a!

Aka-ukalar bosh irg'ashdi.

– Otlaringiz nima edi? – Kolka:

– Men Sashkaman, – dedi, Sashka esa:

– Men Kolka.

Xuddi ularning yolg'oni hozir ahamiyatga egadek. Odat bo'lib qolgani uchundir.

– Men esa... Ilya. Shunday deb chaqiring. – Aka-ukalar yana boshlarini qimirlatib qo'yishdi.

– Men sizlarning o'sha tentak xotindan qochganingizni esladim! O'zim ham yugurganman... Eh, qanday yugurganimni bilsangiz edi. Keyinroq so'zlab beraman. Men bu yerda bir o'zim yashayman. Xotirim yo'q. Mana, ko'chada kartoshka qaynataman, temir o'choq yasadim. Choy qaynataman. Bu yerdan quvib yubormasliklari uchun qarab turibman!

Kolka darrov so'radi, bu savol ularni qiziqtirardi:

– Nima, uy sizniki emasmi?

Provodnik cho'ziq kulib yubordi, mo'ylovlari qimirlab ketdi.

– Bu yerda meniki... Hattoki bit ham meniki emas! Qishloq qanday nomlanishini bilasizmi o'zi?

– Ha, Qayin qishlog'i, – javob berdi Sashka.

– Qayin! Qanaqasiga Qayin bo'lsin, agar u Dey Churt deb nomlangan bo'lsa, – baqirib yubordi provodnik: – U hozir Qayin deb nomlanadi. Tog'terak yoki Qarag'ay deb ham nomlanishi mumkin edi... U aslida Dey Churt deb ataladi. Mana shunaqa.

Va provodnik Ilya bolalar tushundi deb hisoblab xonaga ko'z yugurtirdi.

Biroq Kolka hammasini aniq bilishni xohlardi. Unday bo'lsa ular bu yerga nima uchun kelishdi? Va u qaysarlik bilan so'radi:

– Nima – Day Chirt? – ataylab buzib aytdi.

– Ha, aynan chirt... Bo'lmag'ur joy. Atrof chirt-pirt!

Provodnik Ilya bunday fahm-idroki pastlikdan hayron bo'lganicha boshini chayqatdi. Xuddi ular xonada yolg'iz emasdek, egilib va pichirlab aytdi. Umuman, bolalarga u har doim o'girilib qarayotgandek tuyulardi.

– Siz o'zi nega bu yoqlarga keldingiz? Hoy, shaharlik suvaraklar?

– Bizni opkelishdi, – dedi Kolka.

– Qayoqqa olib kelishdi? Qayoqqa?

– Kavkazga...

– Xa-xa! Kavkaz katta! – qo'l siltadi Ilya. – Sizlarni bu yerga odam ko'chirib obod qilish uchun olib kelishdi. Tushunarlimi? Mana sababi... badbaxt nokaslar! Sizlar bu yerda aholi bo'lishingiz kerak... Men ham aholi bo'lishim kerak... Ular ham, jonsarak qo'ng'izlar... – Va u derazaga, jonli shox devorning orqasida oqarib turgan ro'paradagi uychaga ko'rsatdi.

– U yerda yashashdimi? – darhol so'radi Kolka.

– Yashashadi... Menga o'xshab... Hech narsasi o'ziniki emas. Hammasi birovlardan qolgan. – Va u nima uchundir barmog'i bilan rangli gilamchani ko'rsatdi.

– O'g'irlanganmi? – so'radi birdan Sashka nimanidir fahmlab.

– Ha-da!

Provodnik ma'qullab bosh silkidi va qandaydir g'azablanish bilan qo'shib qo'ydi:

– Agar seniki bo'lmasa, turgan gapki, o'g'irlangan. Siz, nima, o'g'irlanmaganda yashayapsizmi? Texnikumdami?

Kolka Sashkani turtib qo'ydi. Ikkalasi bir xil o'ylashdi:

«Bu yerda hammasi binoyidekmas. Yoki bu Ilyaning miyasi biroz aynigan, lekin sezilmayapti. Yoki u bizlarni kartoshkasini qazib o'marganimizda gumon qilyapti. Kalit haqida bilib oldi-ku... Qo'lga tushmadingmi – o'g'rimassan!» Kolka eshikka qarab, sekin so'radi:

– Qayerdan bilasiz? Bizning... Biz hech qayerda timirskilanib yurmaymiz...

Provodnik Ilya faqat ha-a deb qo'ydi va aka-ukalarga qattiq qarab qo'ydi.

– Xa-xa! Timirskilanish kerak, bo'lmasa qanday yashaysan? Ana, sizlarda kichkina omborcha bor, u yerda qishki kiyimlar... Hech kim qo'riqlamayapti. U yerga kirmaslik gunoh! Men esa sotib olaman, tushunarlimi?

Aka-ukalar ikkilanib bosh irg'itishdi. Tekshirish emasmikin? Tirmizaklarni sinab ko'raman, rozi bo'lishlari bilan tutib olaman, degandek. Aka-ukalar bu borada bilimli edilar va militsiyaga faqat bodringlar tufayli tushishmagan.

Ammo Ilya qat'iyat bilan fikrida turardi.

– Kartoshkani kovlasangiz kaltaklayman. Buni o'zingiznikilarga ham ayting. Boshqalarnikini kovlayvering, menga farqi yo'q... Kiyim olib kelsangiz, pul beraman! Kartoshkayam beraman... Yana ko'p narsalarni!

– Ko'ramiz, – dedi Sashka mujmallanib, u hammasini tushungan va ehtimol, kiyim borasida nimalarnidir o'ylab qo'ygandi. – Ketsak bo'ladimi? Ilya amaki?

– Amaki dema, shunchaki Ilya. Kelinglar. Men hozircha safarda emasman, shu yerda bo'laman. Begonanikiga kelsak, mana...

U pillapoyada turib barmog'ini ko'tardi va nimanidir uzoq eshitdi. Tog'lar navbatdagi marta gumburlagandi: – Eshityapsizlarni? – dedi.

– Minalarni portlatishyapti, – undan oldinroq aytdi Kolka o'zini bilimdon tutib.

– Xa-xa! Minalarni... – mutlaqo tabassumsiz ishshaydi Ilya. – Biz esa, o'jiz ko'chmanchi qanjiqlar, olovdan qo'rqamiz... Qo'rqamiz! Bu axir hayotmi? – U oyog'ining ostida turgan echki terisini jahl bilan tepdi.

– Kimdan? – yana so'radi Kolka.

– Shaytonlardan! – baqirdi Ilya va bolalarni eshikka itardi.

Odatiy: «Nimalar bo'layotgani noma'lum-ku!»sini aytib, direktor Gudermesga ketdi – nima u Gudermes, qanaqa, qayerda joylashganligini aka-ukalar bilishmasdi – va koloniya asta-sekin har qayoqqa tarqala boshladi. Qishloqqa matraslar, yostiqlar, mebellarning qoldiqlarini sudrab kelishdi, kartoshkaga, o'tgan yilgi makkajo'xoriga almashtirishdi.

Yalpoq toshni keltirishdi, yotoqxonaning o'rtasida yerga taraqlatib urishdi – Sashka o'ylab topgandi! – va uch kishi ishga kirishishdi. Birinchisi donni toshga qo'yar, ikkinchisi unga ikkinchi, kichkinaroq tosh bilan zarba berar, uchinchi – qo'li bilan maydalangan donni konserva bankasiga solardi. Ushbu bankada keyin maydalangan dondan bo'tqa qaynatishardi.

Dadillik bilan bo'lmasa-da, biroq sabot bilan koloniya atrofidagi hududni kengaytirgan holda dalalarni kilometra-kilometr yig'ib-terib ola boshlashdi, ammo yig'ib-terish mumkin bo'lgan narsalar ko'p emasdi. Makkajo'xori hali pishib yetilmagan, kartoshka esa faqat stansiyada yashovchilarnikida o'sardi. Biroq u yerda kartoshkalarni qo'riqlay boshlashdi!

Bir safar uy egalari tayoq bilan koloniyachilarni darvozagacha quvlab borishdi va faqat mo'jiza tufayli kaltaklab tashlashmadi. Lekin tahdid bilan, hamma eshitsin uchun baqirishdi: «Agar yana bir marta kovlasangiz, ishtonsiz tirranchalar, uylaringizni yoqib yuboramiz!» Koloniyachilar shunday javob berishardi:

– Qishloqi pastkashlar! Suringlar bu yerdan! Biz qishloqlaringizni oldinroq yondirib yuboramiz! – Bolalardan yana biri:

– Qayin biti, qayoqqa o'rmlayapsan! Karavotning ostiga, axlat cho'qilaganimi! – deya bas kelmasdi.

– Qarab turinglar! Shunday yonasizlarki, bilib qo'yinglar!

– O'zimiz yordam beramiz! – ovozining boricha baqirdi koloniyachilar. – Kavkazingiz bilan daf bo'ling! Bu yerda sizlarni kuya yeb bitirsin! Hammangizni xanjar bilan so'yib ketishsin! Yetilmagan mushtumzo'rlar!

Bolalar xanjarlar haqida gap kelib qolganda eslab o'tishdi. Lekin stansiyaliklar jimib qolishdi va orqa-o'ngiga qarab ketib qolishdi. Va bu yerga boshqa kelishmadi.

Texnikumning atrofida endilikda har kecha gulxan shu'lasini tura boshladi. Har bir koloniyachi boshqasi bilan kuchini birlashtirib quruq shox-shabba va eski o't-o'lanlarni yoqar va biror-bir yegulik, ak-sariyat konserva bankani qaynatardi.

Aka-ukalar ham provodnik Ilyaga matraslarga almashtirishgan kartoshka va bir nechta makkajo'xori so'talarini ishga solishdi.

Ilya boshini silkitib va matraslarni ko'zdan kechirib, tomga chiqib ketdi, bir nechta sariq, toshdan qattiq makkajo'xori so'talarini olib tushdi va yana nasihatimiz ohangda, jiddiy eslatdi: «Kiyim-kechak kerak. U yerda qalashib yotibdi deyishadi... Tashi uni!» Shu bilan jo'natib yubordi.

Bir kun aka-ukalar gulxanning oldida o'tirishgan edi. Tunuka bankada simli yoysimon bandda shu yerdagi daryochada yetarli darajada o'sgan qamish ildizidan tayyorlangan bo'tqa qaynardi: makkajo'xori ko'pga yetmadi.

Sashka iflos boshini qashlab, dedi:

– Juftakni rostlash vaqti keldi. Nima deding?

Kolka qayoqqa deb so'ramadi. Koloniyadan bitta, stansiyaga olib boruvchi yo'l o'tgandi. U yoqqa koloniyachilar bitta yoki ikkitadan bo'lib ketishgan va hech qachon qaytib kelishmagan.

– Kutmaymizmi?

– Kimni kutish kerak?

– Direktorni... Gudermesdan qaytishini.

– Balki o'sha Gudermes yo'qdir! Sen Vik Viktirichni esla! U borgan bo'larmidi? Oziq-ovqatlarni izlab?

– O'zining itlari uchun borgan bo'lardi!

– Ha. Buyam... ishlar pachava ekanini ko'rib, portfelini quchoqlab jo'nab ketgan! Unga juda kerakmiz-da!

Indamay turishdi. Gulxandagi shoxlar shitirlab, tez yonardi, shu sababli aka-ukalar bunday shoxlardan bir uyumini tashib kelishdi. Atrofdagi, u yoq-bu yoqda olov yonar, biroq bu safar Kuzminchalarining yonida hech kim yo'q edi.

Kolka qo'lda yasalgan qoshiqcha bilan bo'tqani tatib ko'rdi, af-tini burishtirdi va to'satdan: «Ombor-chi?» dedi. Sashka yerda yotib osmonga tikilardi.

– Nima ombor? Sen u yerda qolgan deb o'ylaysanmi?

– Qolgan. Ilya biladi!

– Biladi... boshqalarni ishga solib, rohatini o'zi ko'rishni! – Kolka so'radi:

– Nima, qiyinmi? Buzib ochamiz... – Sashka yupqa ko'kimtir g'ubor qoplagan, so'nib borayotgan osmonga boqar va sukut saqlardi.

– Tosh bilan ursang, hammasi uchib ketadi! – qo'shib qo'ydi Kolka.

– Tosh bilan? Hech qanaqa tosh-poshning keragi yo'q, – xotirjamlik bilan dedi Sashka. – U yerda axir zulfin o'rnatilgan-ku?

– Ha, zulfin, – tasdiqladi Kolka.

– Yoysimon tutqasi esa cho'zinchoq. Agar qulfni yonboshlatilsa...

– Tushundim! – xitob qildi Kolka. – Tushundim. Zulfinning surilishi osonlashadi...

– Bu ahmoqqa ham tushunarli-ku, – osmonni tomosha qilar ekan. erinchoqlik bilan, joyidan jilmay dedi Sashka. – Bizning shoqollar esa, senga o'xshab qulfni tosh bilan urishgan... uni ezib tashlashibdi... Miyasi yo'qlar...


Ular bir-biriga boshqa hech narsa deyishmadi. Quruq gap bilan qorning to'ymaydi! Bugun qorong'i tushishi bilan ular omborga yo'l olishadi... Hozircha esa bo'tqani yeb boshqa shoqollar ularni bu ishda dog'da qoldirmasliklarini kuzatish kerak.

G'oyalar havoda uchib yurishi allaqachondan ma'lum va bugungi kungacha omborni o'marishmagan bo'lsa – bu xotirjam bo'lish uchun sabab bo'lolmaydi. Bugun kelasan, o'nta bekorchixo'ja esa bir vaqtning o'zida zulfin haqida bosh qotirib, oxiri yechim topgan bo'ladi. Tabiatda shunday mo'jizalar ham bo'lib turadi!

Aka-ukalar tezlik bilan bo'tqalarini yeb olishdi, bankani yaxshilab berkitib qo'yishdi va keyin g'ira-shira tushguncha omborxonada eshigini qo'riqlab tupning ichida o'tirishdi.

Ammo bu safar hech kim eshikka ko'z olaytirmadi. Balki aka-ukalar butun koloniyada u yerda nimadir bor deb o'ylagan yolg'iz ahmoq edilar. U yerda esa ulardan oldin, qonuniy yo'l bilan tozalab ketishgandir, bekorga direktor Pyotr Anisimovich katta qop bilan Gudermesga ketmadi-ku. Portfeli va qop bilan. Direktor u yoqlarga o'zining latta-puttalarini sotish uchun ketmagandir axir?

Mo'ljaldagiday bo'lib chiqdi.



Mayda qadamlar bilan, orqa-o'ngiga qarab Kuzminchalar omborgacha yugurib borishdi. Kolka qulfni gorizontol ravishda burdi, zulfinni chapga tortdi va – mo'jiza, dastlab Sashkaning dohiyona miyasida sodir bo'lgan mo'jiza – zulfin shaqirlab, eshik ochildi.

Aka-ukalar dong qolib qora teshikka qarab turishardi, ular hammasi bu qadar oson ko'chishiga ishonolmasdilar. «Sim-Sim, ochil!» Va mana, marhamat!

– Ko'z-quloq bo'lib tur! – qizishib, shu sababli haddan tashqari qattiq shivirladi Kolka va omborning ichiga, uning sirli, jozibali qa'riga o'zini tashladi.

Sashka esa, zulfinni tezda chertib, qulfni joyiga qo'yib qo'ydi. Bir necha qadam yurdi, kimdir kuzatmayotganiga ishonch hosil qilish uchun atrofga alangladi, lip etib tupning ichiga kirib ketib atrofni kuzata boshladi.

Albatta, u hech bo'lmasa bir ko'zi bilan ichkarida, omborda nimalar yotganini ko'rgisi va bir daqiqaga bo'lsa-da o'zini bir vagon narsalarning sohibi deb his qilgisi kelardi! Yo'q, hammasi bir o'ziniki bo'lishi uchun emas. Shuncha narsani bir o'zi – mayli ikkalasi – nima qiladi?

O'zini haqiqiy insondek his qilgisi kelardi – mana uning istagi. Oshqozonida faqat qamish ildizlari. Va dabdurustdan – hammasi seniki! O'z qirolliging o'rtasida barinlardek yurasan, paypaslab ko'rasan va bilasan: xohlasam, buni olaman, xohlasam uni. Balki hech narsa olmasman, ko'zim bilan yeb to'yib, chetroqqa chiqarman.

Shu joyda Sashka o'zini o'zi to'xtatdi: hech narsa olmaslik yaramaydi. Olish kerak. Me'yorida. Kolka bu qanday me'yor ekanligini o'zi chamalab ko'radi. Hech kim xalaqit bermasa bo'ldi.

Sashka shunday naql borligini biladi: xayolingda hech kim haqida o'ylama, hech kimni chaqirma, o'yladingmi – mana senga: kelishyapti. Qizlar kelishyapti, butun atrofga o'zlarining qizlarga xos bo'lgan g'iybatlarini aytib shovqin solishyapti. Direktor haqida, Gudermes haqida, uning qayerga ketgani to'g'risida. Gudermesning nima keragi bor, go'yo bulkalar daraxtda pishib yotgan jannatmakon yerdek. Bulkalar esa mana bu omborda o'syapti. Sashka shunday o'ylardi.

Olisdan qizlarning ovozi tinishi bilan ularning mehribon Regina Petrovnasi Marat va Jores bilan paydo bo'ldi. Omborning zinapoya-

sigaga o'tirib, erkakchalari o'ynashayotganini kuzatmoqda. Ular esa tuplarga kirib, Sashkaning boshiga chiqib ketay deyishyapti. Xudo ko'rsatmasin, ko'rib qolishsa... Shov-shuv bo'lib ketadi! Yoki Kolka ichkaridan taqillatishni boshlasa. U pillapoyada Regina Petrovna xayolga berilib, olisga qarab o'tirganini ko'rmayapti-ku.

Regina Petrovna erkakchalarini chaqirdi va ular ketishdi. Sashkaning esa birdan unga rahmi kelib ketdi.

Ajoyib ayol, u ham bu bema'ni koloniyada ehtiyojmandlikdan qiynalib serrayib yuribdi. Axir bunday go'zal ayollar koloniyada, bezorilar orasida yashab, muhtojlikdan qiynalishi kerakmi? Uni bu yerga nima yetaklab keldi? Koloniyachilar – ular boshqa masala, ular kulbasizlar, shamol qayerga uchirsa, o'sha yerga uchaveradilar... Bir safar kimdir Kolka haqida shunday degan ekan: «Sashka – uysiz qashqa».

Eh, Kolka ichkarida Regina Petrovnaning nigohi qanday ma'yus ekanligini bilganida edi, uning uchun ham nimanidir urib ketardi!

Sashka o'ylanib qoldi, kutilmagan holatdan seskanib ketdi: qizlar qaytib kelishmoqda. Tortishishyapti, ovozlari uzoqlarga eshityapti. Ular bugun qaytib kelishi kerak bo'lgan direktorni olib kelish uchun stansiyaga arava jo'natishgani haqida bahslashishardi. Koloniyachisan-ku, ahmoq bo'lma, o'tib ketayotgan poyezdga o'tir-u, to'rt tomoning qibla. Ot arava esa o'zidan o'zi uyiga qaytib kelaveradi... Ham koloniyachisiz, ham direktorsiz.

Qizlar yashirinib olishdi – katta guruhdan uchta bola to'satdan paydo bo'lishdi. Bu yerga qanchadan qancha odam yig'ilishini Sashka xayoliga keltirmagan edi! O'z manfaatini ko'zlab chog'i!

Koloniyachilar orqa-o'ngiga qarab omborxonaga yaqinlashishdi, qulfni tortishdi, mix olib, u bilan chuqalay boshlashdi.

Sashkaning tepa sochi tikka turdi. Oyoq-qo'li uvushdi. Kolka, Sashka qulfning oldida kalovlanyapti deb o'ylab ichkaridan ovoz chiqara boshlasa-chi?

Uning baxtiga, yaqin atrofda kimlarningdir ovozi eshitildi. Koloniyachilar birdan tislanihdi. Aylanib yurgandek, hushtak bilan kuychalib, ketib qolishdi.

Sashka ham yengil tortdi. Andak qo'rqib ketgan bo'lsa ham, jahl bilan o'yladi: «Jinnilar! Kattayib qolganlar! Qo'llari o'sib qolibdi, lekin mixni emas, kallani ishlatish kerak, kallani!» Tinchib qoldi, Kol-

ka uch marta sekingina taqillatdi, ammo Sashkaga butun koloniyaga taqillatayotgandek tuyuldi.

O'zini eshik tomonga tashladi. Qulfni yonga burmoqchi edi, burolmadi. Koloniyachilar mix bilan burab qulfni aylanmaydigan qilib qo'yishgan shekilli!

– Och! – pichirladi Kolka eshikning orqasida. – Tezroq bo'!

– Hozir! Hozir! – asabiylashdi Sashka, lekin la'nati qulf hech bo'sh kelmayapti. Uzoqroqdan odamlarning ovozi eshitildi.

Eshikdan orqaga tashlandi. Biroq darrov qaytib keldi. Qanday qilib qulflangan Kolkani omborda tashlab ketsin.

U esa endi shivirlamas, qattiq pishillar, asabiylashardi.

– Ochaqol! Nega imirsilaysan! Qo'lga tushamiz hozir!

Sashka qulfni uzib, uni xalos qildi. O'zi yiqilib tushay dedi. Shoshilib barmog'ini qisib oldi, terisi shilindi, qon keta boshladi.

Kolka eshikdan yugurib chiqdi, Sashka esa uni tanimadi: yergacha uzun palto, ko'zigacha tushib turgan shapka, katta botinka kiygan qandaydir baqaloq. Tanimasang, qo'rqib ketishing aniq.

Eshikni qulflashdi. Ombordan uch qadam yurmaslaridan Regina Petrovna peshvoz chiqdi. Yolg'iz emas, qizlari bilan, tarbiyalayapti chog'i.

Kuzminchalarga duch kelib qoldi-yu, hayron bo'ldi. Qizlar ham to'xtab, sinchiklab qaray boshlashdi.

– Mana mening do'stlarim! – dedi tarbiyachi. – Bizda esa xushxabar! Direktor qaytib keldi! Sizlar nega menikiga kelmay qo'ydinglar?

Aka-ukalar turgan joylarida deysinib, Regina Petrovnaga qaramasdilar.

Qizlar xaxolab kulib yuborishdi. Shunda tarbiyachi ham Kolkaning ust-boshiga e'tibor berdi. Qahqaha urib kula boshladi. Boshqa payt aka-ukalar balki qo'shilishib kulgan bo'lishardi, lekin hozir mutlaqo kuladigan ahvolda emasdilar.

– Bu qanaqa kiyim bo'ldi? Kim seni bunday kiyintirdi? – so'radi Regina Petrovna qiziqib. – Aytgancha, sen kimsan, Sashkami yoki Kolkami?

– Sashka, – po'ng'illadi Kolka. Aldagisi kelmayotgandi, biroq majbur bo'ldi. Sashka ham, qisilgan barmog'idagi qonni shimib, qo'shib qo'ydi:

– Men esa Kolkaman. – Bu kelajakda akasini qutqarishga to‘g‘ri kelib qoladigan holatlar uchun edi.

– Mana, qizlar, eslab qoling... Agar qo‘lingizdan kelsa, – dedi Regina Petrovna dimog‘i chog‘ bo‘lib. Biroq shu zahoti jiddiylashdi. Hattoki qattiqqo‘llashdi.

Kolkaga egilib:

– Kaltafahmligim uchun kechirasan, yangi palto kiyganingni sezmapman. Shapkangniyam payqamabman. Qayerdan olding? – deb so‘radi.

– Ombordan, – kutilmaganda surbetlarcha javob berdi Kolka. Sashkaning hatto so‘lagi tomog‘iga tiqildi. Yo‘tala boshladi. Fahmlamagunlaricha juftakni rostlab qolmoqchi bo‘ldilar.

Ammo tarbiyachi sodda odam edi. U omborxonaga haqida hech narsani tushunmadi. Muloyimlik bilan dedi:

– Yaxshi-ku. Sizlarni kiyintirish vaqti keldi. – Va shu zahoti qizlarga qarab:

– Ketaveringlar, sizlarga yetib olaman, – dedi. Qizlar ketishdi.

– Kattarog‘-u... – dedi Regina Petrovna, aslida Kolka bo‘lgan Sashkaga boshdan oyoq ko‘z yugurtirib. Uning yoqasi va shapkasini to‘g‘rilab qo‘ydi. – To‘kisroq qilib tikilgan ekan... – qo‘shib qo‘ydi o‘ylanib.

Tezda ketmoqchi bo‘ldi, lekin nimadir tutib qoldi.

– Sizlar hech bo‘lmasa sovuq tushguncha bularni kiymay turinglar, hozir issiq... Issiq-ku, shunday emasmi? Qandaydir masxaraboz deb o‘ylashadi, – deya maslahat berdi.

– Issiq, – dedi Kolka xuddi qilgan ishi noto‘g‘riligiga iqrор bo‘lganday.

Regina Petrovna oxirida unga, Sashkaga qarab qo‘ydi va tez yurib ketib qoldi.

Aka-ukalar esa shu zahoti tupdagi tuynukka sakrashdi. Bu kiyimda, Regina Petrovna haq, hovli orqali yurib bo‘lmaydi. Ikki daqiqalardan so‘ng palto, botinka va shapkani tugun qilib bog‘lab, ular yo‘lda boshlaridan kechirgan voqealarni bir-biri bilan o‘rtoqlashgancha Qayin qishlog‘i tomon yo‘l solishdi.

Kolka baqirardi:

– U yerga kirdim... Voh! Atrofda lash-lushlar tiqilib yotibdi! Qaysi biridan boshlashni bilmay o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim... Keyin esa ovozlalar...

- Bu qizlar edi...
- Ha, men bo'lsam qo'rqqanimdan latta-puttalarining ichiga sho'ng'idim! Biroz o'tirdim, tinchidi. Titkilay boshladim, qarasam, qulf shaqirayapti...
- Bu shoqollar edi!
- Senga oson, sen ko'rib turibsan! Meni esa qaltiroq bosdi... Ustimga palto tashladim, u esa osilib yotibdi... Shapka ham ko'zimgacha tushib turibdi... Botinkalar ham katta... Tezroq chiqish kerak, deb o'ylay boshladim! Mayli, osilib turaversin, hech bo'lmasa shunday yetib olarman... Sen bo'lsa qulfni ochmaysan! Terlab ketdim!
- Qulf ochilmay qoldi!
- Ochilmay qoldi... Men bo'lsa ichkarida pishib ketdim... Regina Petrovna nimalarnidir so'rayapti, peshanamdan esa shoda-shoda ter tommoqda. Tuplarning ichiga otilsammikin, deb o'yladim! Kutishga toqatim yo'q! Baribir tutildik-ku!
- Sen nega unga omborxonaga haqida aytding?
- Nima qilishim kerak edi?
- Bir nima o'ylab topsang bo'lardi-ku!
- Mana, o'ylab topdim-ku! Nima, u sen bilan mening hemirimiz ham yo'qligini bilmaydi deb o'ylaysanmi? Hech narsamiz o'zimizniki emas!
- Baribir... Ilya bizni kutayotgandir?
- Balki kutmayotgandir. U har doim uyida. U qorong'i tushganda chiqmaydi.
- Qo'rqadimi?
- Qo'rqadi.
- Menam qo'rqayapman... – dedi dabdurustdan Sashka. Kolka hushtak chalib, ukasiga qaradi.
- Nimadan?
- Bilmayman.
- Nimadanligini bilmay qanday qilib qo'rqish mumkin?
- Mumkin. Buning ustiga... Atrofda hamma qo'rqayotgan bo'lsa... bu hatto qo'rqinchliroq.
- Mayli, – xulosa qildi Kolka. – Hozir lash-lushlarni olib borib, to'yib ovqatlanamiz! Qo'rquving ham bosiladi!

Ilya yo'lakdan tugunga nazar tashladi va bolalarni uyga taklif qildi.

Derazalarni parda bilan yopib, kerosin lampasini yoqdi. Qaynatilgan kartoshka, o'zi churek deb nom qo'ygan makkajo'xoridan qilingan blinlarni olib keldi. Charvi yog' kesdi, mug'ambir tulkinging charvisi ham bor ekan. Shu damga qadar hech bir xo'jayin Kuzminchalarning oldiga bunchalik ko'p noz-ne'matlarni qo'ymagan edi.

Biroq aka-ukalar ham hozir savdogarga aylanishgan! Xo'jayin! O'zlarining mahsulotlarini olib kelishdi! Ziyofatsiz qanday naf bo'lishi mumkin?

Ilya dasturxonga shisha ham qo'ydi:

– Kayf-safoga marhamat!

Piyolalarga quyib, taklif qildi. Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi.

Ikkalasing xayoliga: ichish yomon, sharmanda bo'lish esa undan-da yomon, degan o'y keldi. Umrlarida birinchi marta ularni shunday mehmon qilishmoqda, o'zlariga teng ko'rishmoqda. Birinchi marta, katta odamlardek, sivuxa¹ quyishyapti.

Ilya esa o'zining piyolasini cho'zyapti.

– Provodniklar aytganidek, qani, ketdik! Omad uchun! Shunaqami?

Aka-ukalar piyolalarini olib, hidlab ko'rishdi: puf, muncha sasiq. Yaxshisi mazali mors quyib bersa bo'lardi... Bir gal mehmon qilishgandi, shunday shirin ediki, mana bu badbo'y narsadan ming chandon afzal.

Biroq yoqmaganini ko'rsatishmadi. Aksincha, Ilya bilan piyolalarini qattiq urishtirishdi, xuddi umrlarida bu ishni ko'p marta qilgandek!

Ilya qizg'inlik bilan ko'tarib, yutib yuborganini, iyagidan tomchilarni artib, nonni hidlaganini kuzatib turishdi. Bu ishda usta ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi!

Aka-ukalar fursatni cho'zayotganlarini payqab, quvnoq kayfiyatda:

¹ Sivuxa – yaxshi tozalanmagan bug'doy arag'i.

– Qani, nafas olmasdan simiringlar. Ichsam, to'yib ichay, debdi mushukcha uni cho'ktirishga olib ketishayotganda...

Aka-ukalar cho'ziq kulib yuborishdi. Kolka ko'zlarini yumdi, ho'pladi, yana bir marta ho'pladi va ko'zlaridan yosh chiqib ketmanguncha yo'talib yubordi.

Ilya bo'lsa fahmlab non bilan charvi yog'ni tiqishtirdi, buni shunday epchillik bilan qildiki, to'ppa-to'g'ri og'zini mo'ljalladi.

Kolka sho'r nonni chaynab, ko'z yosh to'ka boshladi, tomog'ining tomiri tortishdi. Na nafas ololmaydi, na bir so'z gapirolmaydi.

Birdan, bu qanday ro'y berdi, o'zi ham tushunmadi, yengillashgandek bo'ldi. Tanasiga iliqlik yugurdi, boshiga harorat zarba berdi. Sashkaga qaradi, u esa hali ham qiynalar, boshini chayqatar, lablarini cho'chchaytirardi.

– Nima, sizlar bizni bu yerda asal ichyapti deb o'ylaganmidinglar! – baqirdi Ilya va Sashkani o'zining odamidek yelkasidan qoqib qo'ydi. Unga ham yog'li non suqdi.

– Qorning ochligida yeb qol!

Qayerdandir gugurt qutisini oldi, aka-ukalarga o'zining transportida shishani qanday qilib o'lchashlarini ko'rsata boshladi. Bo'yiga gugurt qutisi «mashinist» deyiladi, qirrasi – «mashinist yordamchisi», yoniga esa – «o'tyoqar»... O'tirishganida aynan shunday so'rashadi, mashinistchasigami yoki yordamchisigachami deb?


Yarim soat o'tar-o'tmay yuzlariga qizil qon yugurgan bolalar Ilyaga ahyon-ahyonda qichqirib stolda xo'jayinlik qilishardi.

Qiziq tomoni: Ilya faqat kular, biroq hamma-hammasini ko'tarardi! Binoklsiz ko'rinib turibdi, bu Ilya yoqimtoy va ko'ngilchan bola! Quyadi-yu suqadi, tugunga boqmaydi ham.

– Latta-putta – bu latta-putta, – cho'rt kesdi Ilya. – Sizlarni tugun sababli emas, o'zimmiki deb hisoblaganim uchun mehmon qilyapman!

Va dovyurak aka-ukalarga «mashinistchasiga» ichishni taklif qildi, albatta, kinodagi kabi yettita dovyurak uchun emas, ammo ularning har biri yettitasiga teng kelardi! Bunday azamatlar bilan har qanday ishni do'ndirsa bo'ladi! Omborxonani ham, boshqa joyni ham...

– Istalgan... Omor...xona... – javob berishga harakat qiladi Kolka, biroq hech to'g'ri talaffuz qilolmaydi. Hammasini tushunib, eshitib turibdi, lablari esa begonanikidek. – Qistalgan... Omor...



Sashka esa gapirishga ham urinmayapti, shunchaki boshini irg'atyapti.

– Axir u yerda bunday uvadadan... tiqilib yotibdi-ku? – so'roqlab bilmqochi bo'lyapti Ilya va bexosdan uning yuzi ikkiga, uchga bo'linib, Kolkaning ko'z o'ngida ko'payib, chaplasha boshladi.

– Faqat olish va olish kerak, shundaymi?

– Aka! – poyintar-soyintar tasdiqladi Kolka. – Men doim olish... Uyam har doim olish...

Sashka rozi bo'lib boshini chayqaydi va qo'li bilan o'sha boshini tirab, stoldan ko'tarolmaydi.

Ilya bir nimani payqab, ohangini o'zgartirdi va xuddi ichmagan-dek, o'zi ham o'zgarib boshladi.

– Eh, ahmoqlar... Eh, bo'z bollarim... Endi sizlarni nima qilaman? – deb g'uldurlaydi. – Axir, Xudo haqqi, bu turishda koloniyalar-ringizga yetolmaysiz-ku... yetolmaysiz, to'g'rimi? – Kolkaning yelkasini qoqishni boshladi.

– Men... Tayyorman... Men oldinga... mashinistchasiga... – baland ovoz bilan aytdi Kolka turayotib va to'satdan stolga dumalay boshladi, ichida qo'lbola araq bo'lgan piyolasini tō'ntarib yubordi. Hayron bo'lib, xalqobga barmog'ini botirdi, yaladi-yu birdan ko'ngli ayniy boshladi.

Ilya Kolkani dast ko'tarib, ostonaga sudrab ketdi.

– Men esa aytyapman... Tayyor! – endi boshqacha, mutlaqo do'stona bo'lmagan ovozda dedi u va ushlab turib, hovliga sudrab tortib chiqardi. Uni qusishga qoldirib, Sashkani olib chiqish uchun qaytib kirdi.

So'ngra ikkalasini pichani yotgan bostirmaning ostiga olib bordi. – Shu yerda uxlanglar! Mashinistlar! Ertaga uyg'otaman!

Uyiga qaytib kelib eshigini mahkam qulflab oldi. Tugunni yechib ichidagini to'ppa-to'g'ri stolga ag'dardi. Har bir buyumni alohida, shoshmay ko'zdan kechirar va yonidagi to'shakka taxlardi.

Keyin yana bir marta alohida, teskari tartibda ko'z yugurtirib chiqdi, bunday palto, shapka, qattiq, baland charm botinkalar qancha turishini chamalab ko'rgancha paypasladi... Palto movutli, yapyangi, chet el tamg'asi bor. Shapka esa o'ziniki, Qozonda tikishgan, silliqqina mo'yna, mayin... Mo'yna emas, mushukning o'zginasi... Silasang, ko'ngling yumshaydi. Ilyaning hayotida har xil vaziyatlar

bo'lgan, biroq endigina u omadi kelayotganini sezdi! Qo'ldan chiqar-
masa bo'ldi!

12

Qush uyasida ko'rganini qiladi, deyishadi. Ilya ota-onasiz o'sgan, ularni o'ttizinchi yillardayoq quloq qilib qishloqdan olib ketishgandi. O'sha vaqtdan buyon Vidnoda xarob bo'lishdi, olis Sibirga ketayot-
ganda qurbon bo'lishdi. U buvisi bilan qoldi, shunday yashadi, muh-
tojlikda kun kechirdi.

Yoshligidan kolxozda eshakday ishladi – o'sha kolxoz juda qash-
shoq edi. Ilya bir latifani eslab qoldi: Cherchill, Ruzvelt va Stalin
ketishayotgan ekan, yo'lda buqaga duch kelishibdi. Cherchill unga:
«Liniya kemasini yuboraman!» debdi. Ruzvelt «uchar qal'asi» bilan
qo'rqitibdi. Buqa joyidan jilmabdi. Stalin borib qulog'iga shivirla-
gan ekan, buqa tuyog'ini qo'liga olib qochib qolibdi. Janoblar buqani
kema va samolyotdan battar qo'rqitgan narsa nima ekanligiga qizi-
qishibdi. Stalin: «Men unga: «Seni kolxozga yuboraman!» dedim»,
deya javob beribdi. Bu latifa aynan ularning kolxozi haqida bo'lsa
kerak.

Ilya jamoat oshxonalarida kamolga yetishga ulgurmay urush
boshlandi. U front uchun yoshlik qilsa-da, vazni yetishmagan bo'lsa
ham, ish uchun yarardi. Ozg'in va kichkina edi, buning ustiga ham-
ma tishlari o'sib chiqmagandi hali.

Ularni povestka bo'yicha butun okrugdan yig'ib chiqishdi, mol
poyezdiga yuklashdi va butun Rossiya bo'ylab, ota-onasining yo'li
bo'ylab olis Sibirga olib ketishdi. Yo'lda ochiqishdi, polga to'shalgan
xashakni yeyishdi. Omskda ularni birinchi marta iflos stansiya osh-
xonasida ovqatlantirishdi. Tajribaliroqlari – Ilya eslab qolgandi –
ko'p yeyishmasdi, g'amlab qo'yishardi: nonning sirtini qo'njlariga,
bo'tqani dastro'mollariga.

Xuddi bilgandek! Novosibirskka yetmasdan tashlab ketish-
di, o'sha yerda bir oy bekor yurishdi: na rahbariyat, na ish, na
yegulik. Bezorilik qila boshlashdi, oziq-ovqat, non, kartoshka qat-
novlariga hujum qilishdi. Olib har yoqqa yugurishardi. Ilya hozir
koloniyachilarga qarab, ularni o'ziga o'xshatdi. Rossiya ulkan,
go'zal joylari ko'p-u, o'ylab ko'rilsa, tartibsizlik hamma yoqda
bir xil...

Ilya uchta og'aynisi bilan uylariga qaytishga qaror qilishdi. Ular bunday «armiyadagi mehnat» qoniqtirmasdi.

O'tib ketayotgan mol poyezdiga o'tirib, jo'nashdi. Biroq deyarli yashirinmasdan ketishardi va Uralga yetganda, peregon¹da ularni olib ketishdi.

Merganning bo'sh uyiga qamab qo'yishdi, ustlaridan soqchi tayinlashdi. Ular derazadan ko'mir ortilgan poyezdni ko'rib qolishdi, hojatga chiqmoqchi ekanliklarini aytib iltimos qilishdi. Soqchi tajribasiz edi – chiqarib yubordi. Ular uyning orqasiga o'tib, keyin to'ppa-to'g'ri o'sha poyezdga chiqib olishdi. Darrov g'oyib bo'lishdi!

Bolalar ehtiyotkor bo'lib olishdi. Temiryo'l tutashgan joyga yaqinlashishlari bilan tushib qolishardi. Piyoda yurib aylanib o'tishadi, semafor²ning oldida esa o'zining tarkibi qorovullik qilyapti. Shunday qilib Uraldan ham eson-omon o'tib olishdi.

To'yar-to'ymay yashashdi, bu tushunarli. Qayerdadir tilab olishadi yoki o'g'irlashadi. Bir kuni yo'lovchi amakining chamadonini o'marishdi. Ichida yegulik topilmadi, lekin ofitserlarning ichki kiyimi, gymnastyorka, movut ishton bor edi. Kiyib ko'rishdi: hammasi olti o'lchamga katta, maskaradga ham yaramaydi.

Ilya bugun, paltoni ko'zdan kechirar ekan, o'sha vaqtlarni yodiga oldi.


Ilyani formal kiyim-kechak bilan qishloqqa jo'natishdi, lekin u mana bu aka-ukalarga o'xshab xomkalla emasdi. Oziq-ovqat, sut, bo'lakli muzqaymoq, tuxum, tvorog olib keldi, gymnastyorkani esa o'ziga loyiq ko'ylakka almashtirdi.

Tutayevo (sobiq Romanovo) yaqinida ziyofatdan qorinlari to'ygan bolalarni yana ushlab olishdi. Uzil-kesil aniqlashtirmagunlaricha voyaga yetmaganlar koloniyasiga tashlashdi. Koloniya esa qattiq qo'riqlanar va tikanli sim ortida joylashgan edi.

«Tutayevoga keldik biz, uchta joyni ko'rdik biz: to'planish joyi, yonida kasalxona va la'nati turma...» Ular o'zlarining koloniyalari haqida shunday kuylashardi. Ona Volga tomondan shunga o'xshash manzara ochilgan bo'lsa kerak.

¹ *Peregon* – ikki qo'shni stansiya orasidagi masofa.

² *Semafor* – yo'lning ochiq yoki berkligini ko'rsatadigan rang-barang chiroqli asbob, yo'lko'rsatkich.



Ilya qo'lga tushgunga qadar koloniyada ikki mingtaga yaqin o'smirlar yig'ilib qolgandi. Ocharchilik. Hammasini joylashtirib, aniqlashtirguncha oyog'ingni uzatvorasan.

Bir kun qochishga kelishib olishdi. Har kuni oziq-ovqat ortilgan ot arava kelardi; unga darvozalami ochishardi. O'zaro ot chiqayotganda birga ochiq darvozalarga otilishga va... tumtaraqay bo'lib qochishga qaror qilishdi. Kimning omadi chopsa, o'sha ozodlikka chiqadi.

Oxiri yetishishdi, eti suyagiga yopishgan qirchang'i keldi, hidlangan baliqni olib keldi. Undan suyuq yovg'on baliq sho'rvasini qaynatishardi. Tushirishdi, darvozani ochishdi, koloniyachilar shu zahoti baqirib tashlanishdi... Baqirishdi, qo'rqmaslik uchun!

Akillash, chiyillash, dukur-dukurlash!

Ilya darrov fahmladi – bolalar bir tomonga tashlanishdi, u esa boshqa, Volga tomonga.

May oyi edi, suv muzlagan, biroq u buni darhol sezmedi! Biroq o'tgandan so'nggina suzib yeta olmasligini tushundi; cho'ka boshladi...

Hushiga kelib, pechkaning oldida yotganini, ustiga qo'yning terisi yopilganini ko'rdi.

Boshini chiqarib, qaradi: yog'och uy. Kampir bilan chol stol atrofida o'tirib, bir-biri bilan u haqda gaplashishyapti. Kampir deydi: «Chol, hoy chol, kel, uni qaytarib topshiraylik. U yoqda, koloniyada har xil qotillarni saqlaydilar deyishadi, balki u o'shalardan biridir?» Chol esa unga javoban: «Ahmoqsan, kampir, qari ahmoq! Peshanasiga yozib qo'yibdimi qotilligini? Bordi-yu o'g'limiz ham qayerdadir bunga o'xshab ozor chekayotgan bo'lsa, mehribon insonlar esa yordam berishni rad qilishsa-chi?» Ilya tezda sog'ayib ketdi. Chol unga daryoda bakenchi¹ bo'lib ishlashini aytdi. Daryoning qoq o'rtasida kimdir qo'llari bilan suvni mushtlayotganini ko'rdi, uzoqdan qaraganda cho'kayotgani ma'lum edi... Bahorda qanday cho'miluvchi bo'lsin, hayron bo'lib, yaqinroq suzib bordi, u, ya'ni Ilya esa hushidan keta boshlagandi...

Ilyaga o'g'lining kiyim-kechagini kiydirishdi, sariyog' bilan non berishdi. Chol qorong'ida uyidan olib chiqdi.

¹ *Bakenchi* – suv yo'llarida xavfli joylarni va kemalar yo'lini ko'rsatuvchi.

– Yaroslavgacha bu yerdan uzoq emas. Ribinskkacha ham yaqin, biroq ko‘prikdan qanday o‘tish mumkin, bilmayman. Ko‘prikning oldida qorovullar bor, tutib olishlari mumkin. – Ammo Ilya yo‘lda tajriba to‘plashga ulgurandi, mashinistning yoniga chiqdi, Ribinskkacha ko‘mir tashuvchi bo‘lib yollandi, shunday qilib o‘tib ketdi.

Qadrdon qishlog‘iga qaytib keldi. Kulbaning eshigi qoqilgan, kampirsho yo‘q. U olamdan o‘tgandi. Qo‘shnisi Olya xolaning eshigini qoqdi, tun edi, ust-boshi bo‘lsa qop-qora. Qo‘shni derazadan uning qora basharasini ko‘rdi-yu, iblis keldi deb o‘ylab, shunday shovqin-suron ko‘tardiki, butun qishloq yugurib keldi.

Oradan bir-ikki kun o‘tdi, hamma Ilyaga shu yerda o‘tmashib qolib uylanishni maslahat bera boshladi. O‘rgangan ko‘ngil... Ilya uyda o‘tira olmasdi: o‘zini harbiy uchyotga qo‘ysa, yana sidirib ketishadi! Rossiya bo‘ylab safarini davom ettirishga kirishdi. Bu borada tajribasi bor edi. Tiqilinchdami, minish vaqtidami yoki vagon derazasini ilgak bilan ochibmi poyezdga chiqib oldi. Yigitcha abjir va omadli edi!

Biroq bir safar qo‘lga tushdi, yana qamoqqa tiqishdi.

Ammo endi Ilya kamolga yetgan, firib berishni o‘rganib olgandi.

Derazani g‘isht bilan maydaladi va chuqur nafas oldi. Shakarni taysa ham bo‘lardi, biroq o‘sha mahalda shakar yo‘q edi. O‘pkasiga shisha tiqildi, tomog‘idan qon ketdi. Kasalxonaga yotqizishdi. U yerdan esa ozodlikka yo‘l har doim qisqaroq. Shishani yirikroq maydalagan ko‘rinadi, uzoq vaqt laxta-laxta qon tuplab yurdi. Yarim yilcha.

Kalini viloyatida, Ostashkov yaqinidagi yog‘och tayyorlash korxonasiga o‘tin arralovchi bo‘lib yollandi. Ahmoqlar uchun ish: arrani o‘zingga tortasan va arrani o‘zingdan itarasan... Arralash vaqtida esa o‘zingcha qo‘shiq kuylaysan: «Men uchun, sen uchun, is-siq-lik uchun... Men uchun, sen uchun, is-siq-lik uchun...» deb. Bir safar oshnasi bilan ishga ketayotgan edi, nemis asirlarni ko‘rib qoldi, ular qo‘shni qishloqda daraxt arralashayotgandi. Deyarli ozodlikda bo‘lganlar kabi yashashardi.

Xullas, nemislar o‘tirishibdi, non va cho‘chqa yog‘i yeyishyapti. Ko‘rib qolib, chaqira boshlashdi:

«Ruslar, shnel. Kelinglar, mehmonimiz bo‘linglar!» Yigitlar gazon bosh tortishdi, biroq xotiralariga mustahkam o‘tmashib qol-

di – yaramas fashistlar o'zimizning ovqatimiz bilan bizni mehmon qilishmoqchi!

Qaytishda chidab turisholmadi, kirib o'tishga qaror qilishdi. Yerto'la uyga kirishdi, hech kim yo'q; ular uylariga xotinlarni izlab ketishgandi. Shunda yigitlar battar darg'azab bo'lishdi. Biz baraklarda yashaymiz, shildir suv ichamiz, ular bo'lsa pechkada issiqda va bizning ayollar bilan vaqtichog'lik qilishar ekan-da!

Yerto'la uyda nima bo'lsa, hammasini olib ketishdi, birinchi navbatda go'sht, konservalarni... Bir pudga yaqin un olishdi-yu, sudrab olib borisholmadi, shunchaki keragida ishlatish uchun yo'l chetidagi qarag'ayga osib qo'yishdi – keyinroq olib ketamiz deb.

Tanish kampirning kulbasiga kelishdi. Kampirsho, qovur, qaynat, pishir va qo'lbola araqdan uzat! G'alabani bayram qilamiz! Bugun nemis-fashist bosqinchilarini qurshab oldik, bu esa bizning harbiy o'ljalarimiz!

Kampir hech narsani tushunmadi-yu, kechki ovqatni tayyorlab berdi.

To'yib yeyishdi, ichishdi, uxlashga yotishdi.

Tunda Ilya g'alati ta'sirdan uyg'onib ketdi, kimdir uning yalang'och oyog'ini yengil hidlayotgandek... Oyog'ini tortib oldi, anavi bo'lsa irilladi! Sakrab tushdi: yo pirim, uyning ichida ovcharka turibdi, yonida esa harbiylar va uchastka militsioneri.

Ularni va ularga qo'shib kampirni ham so'roq qilishdi. Tintuv o'tkazishdi. Kampir paqqos tushirishga ulgurmagan hamma o'ljani olib ko'rsatdi, faqat unni bermadi. Menda un yo'q... Yo'q va bo'lmagan ham. Hech qanaqa o'n uch kiloni ko'rmaganman.

Ilyani o'rtog'i bilan chanaga ortib shaharga olib ketishdi. Kecha ular yurib o'tgan o'sha o'rmondan o'tishdi. Ilya yo'lda so'radi: «To'xta, o'rtoq boshliq! Sen kecha, yanglishmasam, unni so'raganding? Ana, qara, shoxda osilib turibdi!» Boshliqning g'azabi qo'zg'adi, yolg'on so'zlayapti deb o'yladi. Keyin esa o'zi ham payqab, Ilyaga baqirdi: «Qani, chiq! Qanday osgan bo'lsang, shunday tushir!» Ilya esa unga javoban: «Yo'q... boshliq... Senga ko'rsatganim uchun rahmat de. U endi menga uzoq vaqt kerak bo'lmaydi. Men sening iltifoting bilan baliq sho'rva ichib yuraman! Shuning uchun, senga kerakmi, o'zing qarag'ayga chiq!» Boshliq chiqib tushdi. Unga hech narsa bo'lmadi! Ilya esa bu manzaradan g'oyat zavqqa to'ldi!

Ilyaga bir yil berishdi. U birinchi oyning o'zidayoq kimyoviy qalam kukunini ko'ziga sepdi. Yarim yilga ko'r bo'lib qoldi. Shifoxonaga tushdi... Va u yerdan yana ozodlikka...

Mo'ylov qo'ydi, ko'rinishidan kattaroq tuyula boshladi. Yangidan yashashga qaror qildi.

Lagerdagi bir mahbus – u kissalardan hamyon o'g'irlagani uchun qamoqqa tushgandi – Kavkaz yerlari tashlandiq ekanligini aytdi. Bor, u yoqlarda uyni lash-lush-u tomorqasi bilan bepul tarqatishyapti, deydi. Faqat adashtirib yuborma, qochqinlardanman degin...

Ilya kim bo'lsin? Qochgan-ku! Demak, qochqin.

Janubiy yo'nalishga provodnik bo'lib ishga kirib, koloniyachilarni manziliga yetkazardi. Sansalorliksiz joylashib oldi. Aytganlaridek, hamma narsa bor: uy, tomorqa... Va kim ekkanligi noma'lum kartoshka tomorqada o'sib yotibdi, kungaboqar ham, makkajo'xori ham yetilyapti.

Qopqonga tushganini darhol sezmadi. Ziyrakligi pand berdi. Halol yo'l bilan yashab ketmoqchi bo'lgandi, yana qaltis ishlarga aralashib qoldi. Tag'in qanday deng!

Qochsa edi! Ammo qochishdan charchagandi. Pul ham kerak. Bu yerda esa Kuzminchalar tasodifan duch kelib qolishdi.

Aka-ukalar kech uyg'onishdi. Quyosh kun yarmidan o'tgandi. Pichanda havo dimiqqan.

Mashaqqat bilan, lohaslikni yengib, kulbagacha yetib olishdi, Ilya esa nonushta tayyorladi: choy va cho'rak nonlar-u, yana – qo'lbola araq.

Kuzminlar boshlarini chayqata boshladilar: ichish u yoqda tursin, unga qaray olmasdilar. Shishani ko'rganda behuzur bo'lardilar.

Temir krujkadan sekin-asta choy xo'plashar va bugun ayniqsa behalovat hamda ezma bo'lgan Ilyaga zimdan qarab qo'yishardi. U so'radi:

– Baribir yuvinib olmapsizlar-da?.. To'g'ri qilasiz. Tez-tez yuvinish hatto zararli. Qandaydir bir kitobda o'qigandim. Nonushtadan keyin ham bo'ladi. Mushuk haqidagi voqeani eshitganmisiz? Yo'q? Hozir aytib beraman. Mushuk qushchani tutib olibdi. O'tirib, yemoqchi bo'libdi-yu, qushcha o'tkir zehnlilik ekan, so'zlay boshladi: «Qanday qilib sen, mushukcha, yuvinmasdan meni yemoqchisan? Axir qo'llaring iflos-ku!» Mushuk panjalarini ochishi bilan qush-

cha uchib ketibdi. Shundan keyin mushuklar faqat ovqatdan keyin yuvinishar ekan...

Va yana serg'ayrat xo'jayin kecha hech narsa bo'lmagandek qo'lbola araqdan quyishga harakat qilardi.

Yoki chindan ham, hech narsa bo'lmaganmidi? Aka-ukalar faqat boshini eslardilar, qolgani qandaydir g'ira-shira ichidan ko'rinardi. Kimdir maqtanar, baqirar, kimdir qayergadir chaqirardi...

Balki hech kim baqir-chaqir qilmagandir, sababi ularning ikki-sining tushiga shijoatli, o'ktam ot kirgandi... Qayergadir ot choptirib borishdi va bunday choptirishdan nafasleri giriboniga kelgandi. Tushni o'ngdan farqlash qiyin edi, biroq o'ngida otlarning bo'lishi mumkin emasdi!

Shunda Kolka kiyim-kechaklar haqida esladi va burchakka, so'ng Sashkaga qaradi. Sashka ham kiyim-kechaklar haqida o'ylagandi.

Ilya ularning nigohini ilib oldi va tezda so'radi:

– Nima? Nimanidir yo'qotib qo'ydinglaringmi? – Va g'alati kula boshladi. Mo'ylovlari qimirlab ketdi.

– Palto... qani? – so'radi Kolka.

– Shapka-chi? – qo'shildi Sashka. – Va anavi... botinkalar?

– Ha, sizlar bu haqdami! – soddalik ila hayron bo'ldi Ilya. – Ha! Ular uzoqda... Ularga endi yetib ololmaysiz!

– Qanaqasiga... yetib ololmaymiz? – so'radi Kolka va Sashkaga qaradi, so'ngra ikkisi bu orada kulishda davom etayotgan Ilyaga tiki-lishdi. Biroq uning kulgisi tindi va u xavotirlanib so'radi:

– Siz axir menga o'sha... lattalarni sovg'a qilgandingiz-ku? Men kecha sizlarni to'g'ri tushundimmi?

– Sovg'a qildik? – qayta so'radi Kolka ko'zlarini baqraytirib.


– Bizmi? Sovg'a qildikmi? – takrorladi Sashka. Ikkalasi Ilyaga xuddi uni birinchi marta ko'rib turgandek o'qrayishdi.

– Nima? Sovg'a qilganingiz esingizda yo'qmi?

Ammo Ilya aka-ukalarning hang-mang bo'lib qolishganini o'zi ham ko'rdi.

Turib, ularga choy quydi. Cho'rak nondan kichkina bir bo'lagini sindirib oldi. O'tirdi, garang bo'lib boshini sarak-sarak qildi.

– Ha! Bopladilaring-ku... Balki eslatib qo'yarman, xo'sh? – Aka-ukalar jim turishda davom etayotganlari sababli u kechagi bo'lgan voqealarni: qanday qilib savdolashishganini, kartoshka, makkajo'xo-



ri yoki puldan birini tanlashni taklif qilganini, Sashka esa cho'chqa yog'ini so'rganini so'zlab berdi. Bir bo'lak cho'chqa yog'i va bir chelak kartoshka berish haqida qarorga kelishganida esa Sashka birdan:

– Tekinga olaver! Biz ertaga yana olib kelamiz! – degan emish. Ilya, albatta, qat'iyon rad qilgan, shunda Kolka ham ukasiga qo'shilib Ilyani ko'ndirishga tushgan va mustahkam do'stliklari tufayli mana bu jinnicha lash-lushlarni olib ko'zdan yo'qotishni so'rgan. Ular esa o'sha omborchani yana bir marta o'marish ular uchun ish emasligini aytishgan ekan. Ular, Sashkaning tushuntirishicha, bor-yo'g'i qulflarning lo'kidonini surib qo'yib eshikni ochgan emishlar...

Aka-ukalar polga tikilganicha Ilyaga quloq tutishardi. Ular hattoki bir-birlariga qaramasdilar. Ular bu voqealarni eslay olmadilar. Lekin Ilya lo'kidon haqida bilar ekan... Unda... Mastlikda shuncha narsalarni qo'ldan chiqarishibdi-da!

Ilya yana choy taklif qildi, biroq aka-ukalar uyga shosha boshlashdi.

– Ha! Tushunaman! Vaqt kutib turmaydi! Kutmaydi! – jonlandi Ilya va turdi. Aka-ukalar ham turishdi. – Menga har doimgidek ishonaverishlaring mumkin, – derdi u aka-ukalarning orqasidan hovliga chiqayotib. – Hushtak chalsangiz, muvofiq bo'lishga tayyorman! Sovg'angizni esa boshqa olmayman, bilib qo'ying! Lo'kidonni suring, kiyim-kechaklarni olib keling, lekin... hammasi naqd pulga! Xo'sh? Kelishdikmi?

Kolka va Sashka ikkilanib bosh irg'ashdi. Ular tushkun kayfiyatda edilar. Savdolashishdi – quvnashdi, hisoblashishdi – yig'lashdi!

Eshikning oldida Kolka chuqur xo'rsinib o'girildi va Ilyaning ko'zlariga qaramay, yalinib so'ragandek bo'ldi:

– Balki... bizga andak yog'... Biz rad qilmasdik.

Sashka indamadi, u hatto Kolkaning xo'rlanishini ko'rmaslik uchun teskari burilib olgandi.

Ilya butunlay ketishga taraddudlanayotgan edi. Hayron bo'ldi. Qayta so'radi:

– Cho'chqa yog'i? Sizlarga... – Va aka-ukalarga tikilib qarab, pauza qildi. – Axir siz, baloxo'rlar kecha hammasini yeb bitirdingizku, menda faqat qup-quruq latta bilan tuz qoldi!

Aka-ukalar tashvishga tushib jim turishardi. Gazak uchun Ilyaning o'zi suqqan o'sha bo'lakdan boshqa hech narsani eslay olishmasdi.

– Yegulikka kelsak. Sizlar, haligi, to'rt kishi uchun yerkansizlar! – Ilya og'ir xo'rsindi, axir o'zining eng yaqin do'stlariga yo'q deyish og'ir-da.

Birdan jonlandi:

– Ha! To'xtab turinglar! Qaray-chi, balki...

Uning hotamtoyiligi daryo bo'lib toshardi. Saxiylik ham, bag'rikenglik ham. U eng qadrli o'rtoqlarini ochiq qo'l bilan qo'yib yuborolmasdi!

U uyiga kirib ketdi, qo'lida yarim bo'lak cho'chqa yog'ini ko'tarib qaytib chiqdi. Shu zahoti qariqiz bargini topib, uning ichiga solib o'rab qo'ydi. Taraddudlandi, oxirgisini berayotgani ko'rinib turardi. Yuragidan sug'urib oldi deganlaridek!

U qo'lidagini uzata turib, shunday dedi:

– Mayli, do'stligimiz haqqi... o'zim bir amallab yasharman.

Aka-ukalar har qaysisi har xil qilib: «Rahmat!» deyishdi va ketishdi. Ilya ularning orqasidan qarab qoldi. To'satdan qichqirdi:

– Hoy, baloxo'rlar!

Kuzminchalar o'girilib qarashdi. Ilya xuddi ikkilanib, aytсамmikin, aytmasammikin, degandek ularga indamay qarab turardi, ammo qo'qqisidan o'rtacha ovozda baqirdi:

– Bu yerlardan ketsangiz yaxshi bo'lardi! Rost aytyapman! Qochinglar! Bor kuchingiz bilan chopinglar!

13

Aka-ukalar koloniyaga borishmadi.

Bordi-yu direktor nimadir olib kelgan bo'lsa va qaynoq ovqat pishirishsa ham, ularga baribir yetmaydi. Kech qolishdi. Yana kimgadir sovg'a bo'ldi. Ammo yog'liq sovg'a emas.

Qishloq ko'zdan yashirinishi bilan ular yumshoq qaynoq chang qoplagan yo'ldan dalaga burilishdi, uning orqasida, tuplar yoqalab Sunja daryosi oqib o'tadi. Shu yerda, qirg'oq ustida tikanak maymunjon va mayda kumushrang bargli yovvoyi zaytun butazorlari orasida – Sashka ushbu butazorning ustiga qushlar hech qachon qo'nmasligini payqadi – maysaning ustiga yonboshlashdi.

Gapirgilari kelmasdi.

Kolka birinchi bo'lib og'iz ochdi:

– Boshim yorilay deyapti! Senda-chi?

Qovog'i solingan Sashka sukut saqlardi.

– Yorilay deyapti, shang'illayapti... Katla emas, naq parovoz!
Boshqa hech qachon ichmayman... Bunday ta'sir qilishini bilmagan-
dim...

U gapini tugatolmadi, qirg'oqdan suvga tushdi, hovuchlab suv olib yuziga sepa boshladi. So'ngra, qo'liga suv to'ldirib, to'yib ichdi va yana to'ldirib, barmoqlari orasidan tomayotganiga qaramay, Sashkaga olib kelib uning yuziga sepib yubordi. Sashka hattoki yuzini o'girmadi, balki sezmagandir ham.

– Itxona nima ekanligini bilasanmi? – so'radi u ko'zini ochmay. Burnida tomchilar yaltirar, peshana va chakkasidan oqib tushardi.

– Nima? – qiziqsinishsiz so'radi Kolka. – Itxona? – U Sashkaning aqlli kallasida nimadir qaynay boshlaganini sezdi. – Yo'q, bilmayman.

– Quti... Temir quti, – davom etardi Sashka ko'zlarini ochmay. Balki u o'zining tushini so'zlab berayotgandir. – Vagonning ostiga osishadi... Biz bir stansiyada g'izillab yugurayotganimizda qo'shni poyezdda ko'rib qoldim... Ilya bo'lsa bayroqlarini sanchib deydi: itxona urushgacha yoki, haligi, qachon... itlarni shunday qutilarda olib yurishgan. Hozir esa odamlarni ham tashish vaqti keldi chog'i.

– Sening Ilyang epchil chiqdi! – Kolka xo'rsindi.

– Birga laqillab yurganmiz, – dedi Sashka va ko'zlarini ochdi. – Demak, men o'shanda ichiga kirib, o'lchab ko'rdim... Chindan ham, yurish mumkin. – Kolka tushundi.

– Unday bo'lsa, fursati yetdi chog'i? – so'radi Sashkaga qarab. – Koloniya-chi?

– Tatib ko'rdik-ku!

Sashka yo'lda yotgan go'ngni ko'rib qolgan odam haqidagi latifani aytib beribdi. O'sha odam hayron bo'lib, egilib, tili bilan tatib ko'ribdi. Va birdan xitob qilibdi: «Yaxshiyam tatib ko'rganim, bo'lmasa bosib olardim!» Kolka kulmadi. U qariqiz bargi bilan boshini yopib quyoshda mudrardi. Buning ustiga kulolmasdi ham, axir ularning ikkisi aynan o'sha latifadagi holatga tushishgandi... Koloniya bilan ham, Ilya bilan ham o'sha holatga tushishdi.



Sashka esa endi chidab turolmasdi. U g'oyalarini charxlash bilan band edi.

– Ketdik stansiyaga, – taklif qildi u.

– Hozirmi?

– Albatta...

– Balki, dastlab... omborni titkilmamiz. Ilya aytgandek...

– Unday bo'lsa, ketdik. Ammo bugunoq qaytib kelamiz!

Kolka Sashka bekorga o'zini va uni sudramayotganini tushundi, demak, shunday qilish kerak.

– Biroz yotaylik, – dedi u. – Oyoqlarim qaltirayapti.

– Avjiga chiqamiz, – ishbilarmon odamdek gapirdi Sashka. – Ana, aytgancha, arava...

Sashkaning mavridida aravaga ko'zi tushgandi, aks holda ular stansiyaga kechga yaqin yetib borishardi. Buning ustiga, yetib borishlari ham aniq emasdi.

Dalani kesib o'tib, aravaga sakrab chiqishdi-da, uzoqdan baqirishdi:

– Stansiyagami?.. Amakijon?..

– Stansiyaga, xolajon, – dedi erkak va qo'li bilan buyurdi: – O'tir! Bir zumda yetib olamiz! Mening parovozim tezyurar!

Aka-ukalar erkakning soch-soqoli oqarmagan bo'lsa ham, lekin Ilyadan kattaroq ko'rinishini payqashdi. U o'ngib ketgan, quyoshdan oqarib ketgan gimnastyorkada, ko'zigacha tushib turgan soyabonli kepkada edi. U mudroq bosib o'tirar, ba'zida moviy ko'zlari bilan yo'lga qarar va yana xayolga cho'mardi. Yoniga o'tirib olgan bolalarga e'tibor bermasdi.

Stansiyaga yaqinlashgandagina qiziqsindi:

– Koloniyachi bo'lsangiz kerak?

– Nima edi? – bezovta bo'lib so'radi Kolka.

– Qochyapsizmi?

– Qayoqqa... qochyapmiz?

– Qayoqqa bo'lardi... Hamma qochgan tomonga... Uygah! – dedi erkak va otga «chu-chu» deya labini chapillatib qo'ydi.

– Kimningdir uyi bor... Kimdadir yo'q, – to'ng'illadi Kolka va erkakka qaradi.

Biroq erkak janjallashishni xohlamasdi va suhbatni bolalarni ko'yish uchun boshlamagandi. U kepkasini ko'tarib, aka-ukalarga ko'z yugurtirdi-da, qisqagina qo'shib qo'ydi:

– To'g'ri, kimdadir bor... Kimda? Men esa aytaman, urush shundayki, hammani ag'dar-to'ntar qildi va odatiy hayot tarzidan chiqarib yubordi... Osmon yer bilan, tiriklar o'liklar bilan o'rin almashib qolishdi... Endilikda esa hamma urush tugaganini tushundi... Uy haqida gapira boshlashdi... – U jim turar, biroq javobni kutmasdi. Xayolga berildi. Va yana dabdurustdan boshladi: – Bugungacha hayot haqida o'ylashmasdi, qanday qilib yashashni emas, qanday qilib tirik qolishni o'ylashardi... To'qlikka sho'xlik emas, omon qolish haqida bosh qotirishardi! – U qamchi dastasi bilan oyog'iga urib qo'ydi, undan esa jonsiz, taqillagan ovoz chiqdi. Bolalar erkakning oyoqlari yo'qligini endi tushunishdi. Nogiron ekan.

U esa davom etardi:


– ...O'zimning bir parchamni berdim, ikkinchi parchamni berishga tayyor edim. O'zimga o'zim kerakmasdek edim. Hozir esa umr oxirlab boryapti, o'zimga o'zim achinaman... Balki yana yashasammikin, deb o'ylab qolaman. Xo'sh, qayerda yashayman? Uy qani? Qani? Yo'q... Oilamni qirib tashlashdi, uyimga o't qo'yishdi. Xabar topishim bilan o'zimning qishlog'imga qaytmadim. Shunday vaziyatda qaytib kelish– qabristonga joylashish degan gap! Har kuni qon yutish... o'lib qolishing aniq. Shu bois Qayinga kelib, shu yerlarda o'mashib olishga qaror qildim... Sizlar-ku hali yoshsizlar, sizlarda vaqt bor. Menda esa yo'q. Men hech bir umidsiz ko'chib kelganman. Endigina umid uchuqunlari paydo bo'ldi. Ana, stansiya orqasidagi yordamchi xo'jalikda ter to'kaman. Ishonmasangiz, Demyanni so'rang...

Gapirib bo'ldi-yu yana kepkasining ostiga berkinib olgandek bo'ldi. Toshbaqaga o'xshab kosasining ichiga kirib ketdi.

Aka-ukalar stansiyaga yetganda tushib qolishdi, minnatdorchilik bildirishdi, erkakka jon kirgandek bo'ldi-yu, bosh silkidi:

– Sog' bo'linglar! – Jilovni tortdi. – Qochib ketmasalaring, kelib turinglar... Shaxsan men qochib ketolmayman. O'lka farovon, yashash mumkin... Vahima hammasini buzyapti. Mening esa qo'rqadigan narsam yo'q. Qo'rquvim tugagan...

Aka-ukalar yana bir marta «rahmat» aytishdi va ketishdi. Qoq suyak orqalari aravaning xodasida ishqalanib ketgandi. Oltinugurt chuqurchalarigacha yetib olishdi, chayinishdi, yengil tortishdi. Xuddi o'sha sassiq chuqurchalar ertakdagi jon bag'ishlovchi suv bilan to'ldirilgandek.



Qachonlardir, juda ham olis zamonlarda bu yerga, suvga shimoliy poytaxtlik to'ra va oyimtillalar kelishardi... Rang-barang soya-bonda, oppoq kiyimda, boy foytunda, bu yerda poytaxtlik ayollar va mo'ylovli ofitserlar sayr qilishardi, bularning bari bor-yo'g'i Kavkaz suvlaridan ichish va sog'liqlarini tiklash uchun qilindari... Damli orkestr ular uchun chalar, pechakgullar ular uchun barg yozardi. Qaynoq suvlardan so'ng ajoyib janoblar tepaga, rotondaga ko'tarilishib, quyosh botishi paytida olis tog'lami tomosha qilishardi... Regina Petrovna aytganidek, shohid bo'lishardi!

Bu chindan ham sodir bo'lganmi yoki tarbiyachi to'qib chiqardimi, aka-ukalar anglay olishmadi. Suvlar bo'lgani aniq, ular bu yerda Kuzminchalardan ham oldin oqqan. Chuqurcha sababli poyezdsiz Moskvadan bu yerga kelgan xonimlar va janoblar borasida esa aka-ukalarda shubha uyg'ondi. Cho'rak non, kartoshka yoki tog'olcha uchun bo'lsa mayli... Qorning ochsa, ot qo'yib kelasan... Suv bo'lsa, bu axir oddiygina suv-ku. Yeyishing – suv, ichishing – suv...

Biroq poyezd hadeganda kelavermasdi, uni bu yerdan, uzoqdan ko'rish uchun aka-ukalar qordek oppoq rotondasi yarqirab turgan tepalikka chiqib olishdi.

Yaqindan qaraganda uning qordek oppoq emasligi ma'lum bo'ldi. U titig'i chiqqan, bulg'ab tashlangan edi, buning ustiga hamma ustunlari timalgan, ruscha va ehtimol nemischa so'zlar yozilgandi.

Sashka tosh zinalarga o'tirib, vodiya qaray boshladi. Bir zamonlar xonim va janoblar qaragandek. Kolka bo'lsa o'tkir toshni topib olib ustunga o'yib yozdi: «Tomilinolik kuzminlar. 10.9.44-y.» Yozuvga razm solib, miyig'ida kulib qo'ydi. Biznikilarni bilib qo'y, biz ham suvlar qabul qilganmiz va tog'dagi kunbotarga shohid bo'lganmiz! Ular yana... deylik... yigirma yildan so'ng o'sha Demyanga o'xshab chol bo'lib qaytib kelishadi, bolalar uyidagi shoqol-larga rotondani ko'rsatib, bu yerda Sashka bilan aylanganmiz, deb maqtanishadi. Orkestr o'ynagan, xonimlar soyabonlari bilan zavqshavqqa to'lishgan...

Kolka o'zining tasavvurini yaxshilab pishitishga ulgurmadi, yaltirbosh tog'ning uzoq muyulishida tutun ko'rindi. Aka-ukalar mayda qadamlar bilan pastga yugurib ketishdi. Poyezdga chiqib olishga ulgurishdi.

Sashka bilimdonlik bilan, vagonlarning ostiga ko'z tashlab tarkibni aylanib yurib o'tdi. nihoyat izlagan narsasini topib, akasini chaqirdi.

– Qara! – deya barmog'i bilan ko'rsatdi.

Vagonning shundoqqina tagida kir, sariq rangli, tobut kabi cho'zinchoq quti relslar ustidan osilib turardi.

Sashka qopqog'ini ko'tardi va Kolkaga chiqishni buyurdi.

– Keta olmasak-chi?

– Ketamiz, – dedi Sashka. – Nima qilibdi?

Kolka chiranib va qattiq pishillab qutiga kirib oldi, so'ngra orqasidan Sashka ham kirdi. Yon devorda dumaloq teshiklar ochilgan bo'lib, ulardan bir ko'z bilan qarash mumkin edi. Yonma-yonda shpallar, relslar, maysa. Bitta narsa qo'rqinchli – yo'lda quti uzilib ketmasa bo'ldi, aks holda chindan ham tobutga aylanadi.

– Tobut temirdan, musiqali! – dedi Kolka teshikka qarab. – Shimoliy poytaxtlardan... Ekipajda, suvlarga... Janob Kuzminlar, yetib keldik!

Yuzini shishirdi: «Pum, pum, pum, pum...» Itxonada yetib kelishi munosabati bilan orkestr bo'lib chala boshladi.

Sashka esa:

– Tekinga qayoqqa borishni xohlaysan? – deb so'radi.

– O'zing qayoqqa xohlaysan? – savolga savol bilan javob qildi Kolka. – Pum, pum, pum...

– Uzoqroqqa, uzoqroqqa, – dedi Sashka. – Men yanada uzoqroqqa ketishni xohlayman. Orqaga qaytishni istamayman.

– Yomonroq bo'lmaydimi?

– Hozirgidanmi?

– Ha, hozirgidan!

Oldindagi poyezd guvilladi, vagonlar gursilladi. Quti kuch bilan silkindi.

Kolka marshini tezlatdi: «Pum, pum, pum...» Sashka esa taklif qildi:

– Ketamizmi?

– Hozirmi?

– Nima bo'пти?

– Regina Petrovna-chi? – Sashka indamadi.

– U erkakchalari bilan yolg‘iz qolyapti. Achinmaysanmi? – bairdi Kolka.

Sashka tezlik bilan qopqoqni ochdi va sakrab chiqdi. Orqasidan Kolka ham tushdi, tushayotib, shpalga qoqilib ketdi. Poyezdning, o‘zinikiga aylangan qutisining orqasidan qarab qolishdi. Xuddi orzusini kuzatayotgandek.

Ular zaxira yo‘llardagi yarmi yonib ketgan mol poyezdida tunab qolishdi. Regina Petrovnanikida esa kelasi kuni tunga yaqin paydo bo‘lishdi.

Biroq dastlab o‘sha lo‘kidonli qulf hamon osilib turganiga ishonch hosil qilish uchun omborxonaning yonidan o‘tishdi.

Tarbiyachi darrov ochmadi. Aka-ukalarni ko‘rib, kirishni taklif qildi, biroq bir qadam qo‘yib: sekinroq, bolalar uxlayapti, dedi.

Kuzminchalar oyoq uchida yurib, har xil bo‘lib uxlayotgan erkakchalarning karavotiga nazar tashlab xonaga kirishdi. Jores chalqanchasiga, Marat esa, aksincha, yumaloqlanib, boshiga adyolni tortib uxlardi. Shunda Jores biroz kattaroq ekanligi sezildi.

Regina Petrovnaning o‘zi och pushtirang, tilladek jilvalanuvchi tugmali, yergacha tushib turgan ko‘ylakda edi.

– O‘tiring. Sizlarni kutgandim. Qanday shamol uchirdi, do‘stlarim? Och qoldingizmi?

– Yo‘q, – ikkalasi uchun javob berdi Sashka. – Biz bir marta ovqatlandik.

Kolka esa qariqiz bargiga o‘ralgan cho‘chqa yog‘ini javonchanning ustiga qo‘ydi.

Regina Petrovna cho‘chqa yog‘iga qaradi, unga qo‘lini tegizmay, bolalarga nazar tashladi-yu, boshini chayqatdi.

– Yo‘q, yo‘q. Rahmat. Olmayman.

Aka-ukalar talmovsirab jim turishgani bois, tushuntirdi.

– Buni sizlar ishlab topdingiz, o‘zingiz yeng! Aytgancha, uni qanday qilib ishlab topdingiz?

Aka-ukalar bir-biriga qarab qo‘yishdi.

– Ana, – dedi Regina Petrovna. – O‘ylashimcha, biz bir-birimizni tushundik. To‘g‘rimi?

Sashka bosh chayqadi. U Kolkadan tezroq fahmlardi. Biroq bu yerda fahmlashning ham hojati yo‘q. Tarbiyachi omborxonaning yonidayoq kiyim-kechak o‘g‘riligi haqida sezgandi. Shu sababli

ularni hayajonlanib kutgandi. Biroq boshqalarga sotib bermadi-ku! Asosiysi shu!

U esa shu asnoda gapini davom ettirardi:

– Axir men sizlarni qidirdim, so‘rab surishtirdim. Sizlar uxlamangansiz, shundaymi? Hamma sizlarni qochib ketdi deb o‘yladi, sizlarni stansiyada ko‘rishgan ekan... Biroq men ishonmadim, shunchaki ketib qolmasligingizni bilardim. Adashmagan ekanman.

Regina Petrovna devorda osilib turgan paltosining cho‘ntagiga qo‘lini suqib, nimanidir izladi va topa olmay, qaytib kelib o‘tirdi.

– Ha, mayli. Nima uchun sizlarni qidirganimni bilasizmi? Yaqin kunlarda biz konserva zavodida ishlashni boshlaymiz. Pyotr Anisimovich bitim tuzib kelibdi. Katta sinfda o‘qiydiganlar: beshinchi – yettinchi sinf o‘quvchilari ishlaydi. Lekin men sizlarni ham yozib qo‘ydim... Hech bo‘lmasa qorningizni to‘ydirib olasiz. Tushudingizmi?

Aka-ukalar gumonsirab bosh chayqashdi, hech qanaqa zavod ularning rejalarida yo‘q edi.

– Iltimos, adashtirib yubormang: siz to‘rtinchi emas, beshinchi sinfsiz... Kichkinalarni kolxozga olma terimiga jo‘natishadi... Endi bo‘lsa boringlar. – Va orqalaridan: – Mana buni ham olib ketinglar! – dedi.

Kolka bir og‘iz so‘z aytmay bargga o‘ralgan yog‘ni olib ketdi. Eshikning oldiga yetganlarida aka-ukalar buyruq berilganday o‘girilishdi.

– Biz aslida o‘ylagandikki...

– Nimani?

– Sal qolsa ketardik! – to‘rsilladi Sashka.

– Butunlaymi? – bo‘g‘iq ovozda so‘radi Regina Petrovna. Va birdan so‘nganday bo‘ldi.

– Ha.

– Biz-chi? Qolganlar-chi?

Bolalar dovdirab qolishdi. Biroq ular Regina Petrovnani tashlab ketishga botinolmaganlari uchun shu yerda qolganliklari ravshan edi.

– Azizlarim... To‘xtab turing! – tezlik bilan ilib ketdi Regina Petrovna. – Konserva zavodiga borib kelaylik... Ko‘raylik... Balki yoqib qolar? O‘ylashimcha, hammasi joyida bo‘ladi. Mana ko‘rasiz.

Kolka hech narsa demadi, u tez fahmlay olmasdi. Sashka esa qovog'ini solib, polga qarab, ikkisi uchun javob berdi:

– Umuman olganda... Biz kutib turamiz. Gapimiz rost.

Deyarli kattalardek javob berdi u.

– Kelishdik. – Regina Petrovnaning kayfiyati biroz ko'tarildi. – Menda esa yana bir sovg'a bor... Esimdan chiqay debdi. Bu yoqqa kelinglar.

U javonchadan katta paxmoq shapkani oldi, shapkaning ichidan esa kamarni chiqardi.

Aka-ukalar shapkaga suqilib qarashdi.

– Bu nima?

– Telpak... bo'lsa kerak...

– Qayerdan?

– Qo'shimcha binodan... Havaskorlardan qolgan bo'lsa kerak. Balki qishloqdan olib kelishgandir... Bilmayman. U yoqda bunday narsalar ko'p... Bolalar topib olishibdi. U bilan maynabozchilik qilishdi, maskarad uyushtirishdi... – Regina Petrovna hovlidagi baqiriq-chaqiriqqa quloq tutdi. – Men esa sizlar uchun o'zim bilan olvol-dim. Yoqdimi?

Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi: xatolarini angladilar. Qanday qilib ular cherdakni tintayotib, qo'shimcha xonani ko'zdan qochirgan ekanlar! Agar u yerda yegulik bo'lganda-chi?

Kolka qiziqsinib so'radi:

– U yerda patronchali cherkaskalar bormidi?

– Ko'rmadik, – javob qildi Regina Petrovna. – Siniq xanjar va kamarcha bor edi... U sizga kerak bo'lib qolar deb o'yladim.

Ammo aka-ukalarni kamarcha qiziqtirmasdi. Ular telpakni galmagaldan tomosha qila boshlashdi. Kolka uning ichiga yelkasigacha kirib oldi va uxlab yotgan erkakchalarni esida chiqarib, so'niq ovozdada qo'shiq kuylay boshladi.

*Agar do'sting yoningda bo'lsa,
Quloq solsa har bir so'zingga,
Yolg'on qo'shmay gapiradi u
Tikka boqib turib ko'zingga.
Agar do'sting yoningda bo'lsa,
Xiyonatlar qilmaydi ta'sir.*

*Yomonlarning o'tmaydi zahri,
Dushmaning ham ololmas asir.*

– Sekinroq! – Sashka uning boshidagi telpakni yechib bostirib kiyib oldi. – Men Hojimurod bo'laman! Sen bo'lsang...

– Men bo'lsam Budyonniy! – baqirdi Kolka va telpakni o'ziga tortib oldi. – Budyonniy biz uchun kurashgan, sening Hojimuroding esa fashistlar tomonda jang qilgan!

– Hojimurod fashistlar tomonda jang qilganmi? – Regina Petrovna ulardan telpakni olib qo'yib tortishuvga yakun yasadi. So'ng jilmayib so'radi:

– Hozir miyamga bir fikr keldi. Men bu telpakni o'rtasidan ajrataman va sizlarga qishga ikkita quloqchinli issiq qalpoq tikib beraman.

– Nima? – qayta so'rashdi aka-ukalar. – Paypoq?

– Qalpoq. Foydasi ko'p. Kamarni esa o'zingizga olishingiz mumkin, Kolyaning ishtoniga mos. Sen bizning Kolyasan-ku axir? Arqonning o'rniga yaraydi.

Aka-ukalar ingichka, qora chega va naqshli kamarchaga tikilib qolishdi, unga qo'shimchasiga yana bir nechta kamar-shokilalar osilib turgandi.

Kolka yangi buyumni taqib o'lchab ko'rdi, mamnun bo'lib, shunday qarorga keldi:

– Men unda qoshiq olib yuraman... Yana boshqa narsalarniyam... Ilyadan o'g'rilangan kalitlarni osib qo'yish ham mumkin, lekin o'g'irlab ketishadi-da! Balki makkajo'xori osarman?

O'zicha tasavvur qila boshladi: Kolka Tomilino bolalar uyida ket-yapti, belbog'ida esa limon-granatalar singari makkajo'xori so'talari osilib turibdi! Ensasida esa telpak! Biznikilarni bilib qo'y! Tog'dan qaytib keldik! Yurakni oldirmadik! To'ydik va o'zimiz bilan ham olib keldik! Bitta so'tasini ajratib shoqollarga tarqatyapti.

*Bizlar uchrashamiz qachondir yana,
Bizlar uchrashamiz, alvido dema...*

Regina Petrovna aka-ukalarni eshik tomon kuzatib, sal turtib qo'ydi:

– Boringlar, hovlida kuylanglar!

Aka-ukalar chiqib ketishdi. Regina Petrovna ham orqalaridan chiqdi va hovlidagi bolalarga razm solib, ularning orasidan Kuzminchalarni topishga harakat qilib pillapoyada uzoq vaqt turdi. Telpakni kiyib olib – xayriyatki qo‘shimcha xonada bunday telpaklardan ko‘p edi – koloniyachilar urushni tasvirlagan-cha tayoq bilan bir-birini quvlashardi. Kimdir teshik chakmonni orqasidan sudrab yurar, yalang‘och tovonni etagidan ko‘rinib turardi.

Regina Petrovna asta qadam tashlab uyiga ketdi. Yotdi, uxlashga harakat qildi, lekin uyquasi kelmasdi. Bir necha marta turib, derazaga qaradi. Nihoyat o‘zini allanimalar bilan mashg‘ul qilmoqchi bo‘ldi. Qaychini olib, telpakni ikkiga bo‘lishga kirishdi. Kuzminchalar haqida, bu telpakdan qanday ajoyib, qalin shapkalar tikish mumkinligi to‘g‘risida o‘ylab vaqt haqida butunlay unutdi. U deraza tavaqasi asta ochilib, u yerdan qora stvol xonaga sinchiklay boshlaganini sezmedi.

Uchta odam qorong‘idan turib uning telpakni qiyqimlayotgan qo‘llariga boqishar edi.

14

Bolalar yotoqxonasida shovqin-suron allamahalgacha davom etdi. Baqiriqlar, chinqiriqlar, yugur-yugur, chop-chop. Regina Petrovna haq edi: koloniyachilarni ovqatlantirishgandi va ularga jon kirdi, osh-non – ular uchun haqiqiy bayramligi ma‘lum!

Shu sababli to‘polon ko‘tarishdi: uvillashdi, chirqillashdi, ma‘rashdi, vovullashdi, ba‘lashdi, akillashdi va hokazo.

Kimningdir miyasiga qo‘shiq kuylash fikri kelib qoldi. Jo‘r bo‘lib bo‘lmasa-da, biroq qattiq baqirishdi.

Ko‘chaga, o‘g‘rilarga, bozorga, yetimlarga, nogironlarga, lagerga, vokzal va poyezdga, Sibir-surgunga, turmushga, bezorilarga xos va ba‘zi kinodagi sho‘x ashulalarni ijro etishdi.

Qo‘shiqdarida uyg‘unlik yo‘q edi, har bir burchak o‘zinikini kuy-lardi, ko‘p o‘tmay bolalar butunlay tinib-tinchib qolishdi.

Tongga yaqin portlash eshitildi. Biroq hali qorong‘i edi.

Kuzminchalar bir vaqtda uyg‘onib ketishdi. Ikkalasiga ham ularning ustiga bomba tushgandek tuyuldi. Bu ularga urushning birinchi oylaridan tanish bo‘lib qolgan tuyg‘u edi.

Devorlarni qonli rangga bo'yab hamma oynalarda qip-qizil shu'la tovlandi. Pastda, qizlarning qavatida kimdir chinqirib, baqirib yuborgani eshitildi.

Birvarakayiga bir nechta ovoz dod-voy soldi:

– Yonyapmiz! Yonyapmiz!

Aka-ukalar matrassiz, o'z kiyimlarda uxlashardi, aks holda karavotning temir to'ri qovurg'anggacha izini qoldiradi. Tushunishga ulgurmay sarosimada hamma bilan chiqish eshigi tomon yugurishdi. Eshiklar uchib ketdi. Orqadagilar oldindagilarni ezib qo'yishdi, ur-yiqit boshlandi. Qorong'ida kimningdir barmog'ini siqib qo'yishdi, kimningdir burnini sindirishdi.

Kuzminchalarning omadi keldi, ularga jiddiy shikast yetmadi.

Hamma hovliga oqib chiqdi va ovozlari qa'riga, yugur-yugurga, yorug' va issiq olovga, qandaydir dahshatli-quvnoq sarosimaga sho'ng'ishdi.

Behalovatlik kuchli edi, hech kim hech narsani tushunmas, hamma u yoqdan bu yoqqa yugurib baqirardi. Omborxonada joylashgan uyning yonayotgani ko'rindi.

Biroq qahramonlarimizning birinchi xayoli omborxonada emas, albatta, Regina Petrovna va uning erkakchalarida edi... Qani u? Chiqishga ulgurdimikin?

Gangib, fahmlagunlaricha – qattiq uyqudan so'ng fahmlash qiyin edi – tarbiyachini ko'rishdi. U bezovtalanganicha erkakchalarini bag'riga bosib, ushbu g'ala-g'ovurning o'rtasida qotib turar, ko'zlarida vahima aks etgandi.

– Regina Petrovna! – qichqirishdi aka-ukalar va yo'lda kim bilandir to'qnashib, kimnidir turtib u tomon tashlanishdi. – Regina Petrovna, biz bu yerdamiz!

U baqirayotgan bolalarga ko'z qirini tashlab qo'ydi va ularni ko'rgan yoki eshitganini namoyish qilmay, yana olovga tikildi, uning tobora kengayib borayotgan qorachiqlarida alanga tovlannardi.

Pyotr Anisimovich lip etib kelib allakimga baqirdi:

– Chelak qani? Chelak olib keling! Axir nimalar bo'layotgani noma'lum-ku! – dedi va g'oyib bo'ldi.

Shu zahoti, bu safar qo'lida suv to'ldirilgan chelak bilan paydo bo'ldi.

U portfeli bilan olovdan yopinib, yonayotgan uyga yaqinlashdi, lekin yaqin borolmadi va suvni yerga to'kib yubordi. Suv darrov bug'lanib ketdi.

Endilikda, xavf-xatarning ilk vahima va tuyg'usi o'tib ketganda bolalar, hattoki qizlar ham qo'rqinchdan baqirishmas, hovli bo'ylab bunday misli ko'rilmagan manzaradan quvonib-to'qinlanib yelib-yugurishardi. Ularga alanganing bunday avj olayotgani yoqa boshlagandi!

Alanga bahaybat sham kabi tikkasiga ko'tarilar va yirik uchqunlarni har qayoqqa uchirib guvullardi.

Uy ichidan yonardi, uning sinchi yap-yalang'och bo'ldi. Ushbu lahzada u shaffof tuyular va hozir uning negizidagi cho'g'langan har bir to'sinini ilg'ash mumkin edi.

Eng qo'rqqoq qizlardan bir nechtasi hamon qotib turgan Regina Petrovnaga qutqaruv oroliga yaqinlashgandek yaqin kelishdi.

Pyotr Anisimovich Regina Petrovnaga murojaat qilib, baqirardi:

– Siz nimanidir payqadingizmi? Nimanidir ko'rdingizmi?

Regina Petrovna xuddi direktorni sezmayotgandek edi, unga o'girilib qaramadi ham. Biroq unga savol bilan murojaat qilayotganlarini darrov sezdi.

– Nima... Ko'rdim... – olovdan ko'zini uzmay uyqudagi kabi sekin gapirdi u.

– Sizdan so'rayapman! – baqirardi Pyotr Anisimovich portfeli bilan alanganidan o'zini himoya qilarkan. – Qanday portlaganini ko'rdingizmi? Ko'rdingizmi yoki yo'q? Keyin, yana... Otlarda...

– Otlarda? – ming'illadi Regina Petrovna. – Qanaqa otlarda?

– Axir nimalar bo'layotgani noma'lum-ku! – baqirdi Pyotr Anisimovich, lekin gapi og'zida qoldi: u tarbiyachining ahvoli chatoq ekanligini endi payqagandi.

Boshqa tarbiyachi, Yevgeniya Vasilyevna yugurib kelib, nashatirga botirilgan paxtani Regina Petrovnaning burniga tutdi, chakkalarini artib qo'ydi, u esa «ah» deb, boshini orqaga tashlab o'tira boshladi.

Uni shu zahoti qizlarning yotoqxonasiga olib ketishdi. Erkakchalarni u yerga oldinroq olib borib qo'yishgandi.

Bularning barchasini kuzatib turgan Kuzminchalar Regina Petrovnalariga yordam berish uchun olg'a tashlanishdi, ammo ularni eshikdan kiritishmadi.

– Boringlar, ketinglar... – deyishdi. – Hamma olovni o‘chiryapti, sizlar bu yerda nima qilib sanqib yuribsizlar.

Ichkarida bir qizning baqirib yig‘layotgani eshitildi, uni ovutishardi.

– Xo‘sh, otlar deb kim aytdi? – so‘rardi kimningdir zaif ovozi. – Bo‘lmagan gap... Chindan ham, bekor gap... Hech qanaqa otlar va hech qanaqa granatalar bo‘lmagan. Omborda nimadir portlab ketdi. Axir u yerda kerosin, yog‘ va boshqa narsalar bor. Endi nimalar bo‘lganini bilib bo‘ladimi!

Aka-ukalar bir-biriga qarashdi va hovliga chiqishdi. Uyning tomi osmonga yonayotgan yog‘ochlardan salyut hosil qilgan-cha qulayotgandi. Uchqunlar asta-sekin pastga qulab quruq o‘tda yaltiroqqo‘ng‘izlarga o‘xshab tutab yotardi. Hech kim ularni o‘chirishga harakat qilmasdi. Hattoki Pyotr Anisimovich ham qo‘shni binolarga olov xavf solmayotganini tushungach, oshxona zinasiga joylashib oldi va portfelni ko‘ksiga bosib, olovni tomosha qila boshladi. Uning chehrasida qandaydir achinish, ojjizlik aks etib, «Axir nimalar bo‘layotgani noma‘lum-ku!» deyayotgandek edi. O‘zining qirq yillik umri davomida bu odam ko‘plab falokatlarni boshidan kechirgan, agar omon qolgan bo‘lsa, demak, bu uning tug‘ma bardoshi tufayli edi.

U Orskdagi bazani o‘zi tashlab ketgandi, sababi u yerdagi hamma narsani tashiy boshlashdi, qamoqning nafasi sezildi, xalq ta‘limi tuman bo‘limiga yuborishdi va u yerda unga bolalarni qo‘shib qo‘yishdi. Unga tamom bo‘lgan odamdek qarashardi, chunki u yerdagi bolalar qanaqa ekanligini bilishardi – besh yuzta eng ashaddiy bezorilar. U poyezdni tayyorlaguncha, tarbiyachilarni axtarib, oziq-ovqat va kiyim-kechak so‘rab olguncha tuman rahbariyatining miyalarida bir fikr uchib yurardi: Meshkovning omadi kelmadi! Tamom bo‘ldi Meshkov! Unga bundan battar bo‘lmasligini bilgani uchungi-na ketyapti... Iloji yo‘q!

Tong otgani sezildi.

Kutilmaganda kolxozdan nasosli suv tashuvchi mashina g‘ildirab keldi.

Bolalar darrov o‘zlariga ish topib olishdi: nasosni chayqatish; ikkitalab, keyin to‘rttalab, pastga va tepaga. Biroq tezda charchab, jo‘nab ketishdi. Faqat Kuzminchalargina qo‘llarida oppoq

po'kakchalarni ko'rmagunlaricha shalabbo bo'lib kattalarga yordam berishga urinishardi. Ularni uxlashga olib ketishdi.

Ketayotib, ular yana Regina Petrovna yotgan xonaga kirishga urinib ko'rishdi, lekin eshik qulflangan edi. Biroz turishdi, quloq tutishdi, ammo ichkaridan hech qanday ovoz eshitilmadi.

Ularning uyquasi kelmasdi.

Aka-ukalar endi cho'lga o'xshab qolgan hovlida ozgina laqillab yurishdi; to'satdan sahroga aylanib qolgan joyda uyning qoldiqlari tutayotganini ko'rish g'alati edi.

Suv tashuvchi mashina ketdi, atrofga jim-jitlik cho'mdi.

Sashka yarim ovozda dedi:

– Sen ham granata bilan deb o'ylayapsanmi?

– Nega granata bilan? – sekin so'radi Kolka.

– Unda nima bilan? Qattiq gumburlaganini eshitmadingmi?

– Uxlayotgan edim... – javob berdi Kolka. – Tushimda boshimga kimdir taraqlatib urgandek bo'ldi, keyin esa uyg'onib ketib bu bomba degan qarorga keldim.

– Otlar-chi?

– Qanaqa otlar?

– Ular otlar bo'lgan deyishyapti-ku.

– Tovuqlarni sog'ishyapti, sigirlar esa tuxum qo'yyapti deyishmoqda.

– Demak, ishonmayapsan? – dedi Sashka. U yana savolini takrorladi: – Demak, ishonmayapsan... Yur!

– Qayoqqa?

Sashka javob bermadi. Kolkani qo'lidan qattiq ushlab oldi, unda hozir qandaydir qat'iyat sezilar edi. Yashil ihota bo'ylab o'zlarining maxfiy tuynuklariga olib bordi. Tikanaklar orasidan birinchi bo'lib o'tdi, Kolkani kutib turdi va yana qo'lidan ushlab olib yonib ketgan binoning orqa tomoniga tutashgan makkajo'xori dalasining chetiga sudrab ketdi.

Ko'plab singan makkajo'xori poyalarining orasida, yumshoq yerda ko'p sonli ot tuyoqlari yaqqol bilinib turardi. Ba'zi joylarda o't yulinib yon tomonga tashlangandi. Uning tutamlari hattoki makkajo'xori poyalarida osilgan edi.

Kolka egilib yerda yotgan yaltiroq mis gilzani oldi, uni o'tlar orasida payqamaslik qiyin edi.

Sashka gilzani akasining qo'lidan oldi, biroz aylantirdi-yu cho'ntagiga soldi. Asqatib qolar.

– Qanday qilib bilding? – so'radi Kolka va yana yerga ko'z yugurtirdi, biroq boshqa hech narsani topa olmadi.

– Qanday?.. Axir tushunarli-ku, agar ular kelgan bo'lsalar, demak, bu yerda bo'lishgan... Nima, ular ahmoqmi to'ppa-to'g'ri hovli-dan otda kirib! Bu axir tuzoq-ku!

– Kim – ular?

– Bilmayman.

– Aynan ular otishgan deb o'ylayapsanmi?

– Bilmayman, – takrorladi Sashka va tog'larga qaradi. Musaffo, bulutsiz, yangi tong otmoqda edi. Tog'lar balanda bayramona yaltirar va o'zining qor qoplagan cho'qqilari bilan yiltillab ko'rinardi. Ular juda ham yaqindek tuyulardi.

Hech qanaqa yong'in, hech qanaqa tungi vahimalar ushbu abadiy ilohiy go'zallikka putur yetkazolmasdi.

– Kun issiq bo'ladi shekilli, – dedi Kolka va o'yg'a toldi. – Tomilinda esa bolalar maktabga chiqishgan bo'lsalar kerak...

Aka-ukalar bir-biriga qarashdi va Tomilinda, o'sha axlat o'rada ular uchun qulay sharoit bo'lmagan bo'lsa-da, biroq bu yerga, ushbu ajoyib tog'larga qaraganda yengilroq, xotirjamroq yashaganliklarini bir vaqtda o'ylashdi.

15

O'sha kuni tush paytida mototsiklda ikkita militsioner va ular bilan birga harbiy kishi keldi.

Hovlida to'plangan bolalar mo'jiza-mototsiklni tomosha qilib, uning atrofida bahslashishayotgan bir vaqtda mehmonlar direktorining yoniga o'tishdi, u va tarbiyachilar bilan gaplashishdi, yonib ketgan uyni aylanib chiqishdi va oppoq chang ko'tarib jo'nab ketishdi.

Bolalar va Kuzminchalardan hech narsa so'rashmadi. Bordi-yu so'rashsa ham ular o'zlarining kashfiyotlari to'g'risida miq etmasdilar.

Tushlik vaqtida oshxonada hamma bomba yoki granatadan hech qanaqa xavfli portlash bo'lmaganini, noma'lum sababga ko'ra omborda yong'in kelib chiqib, yoqilg'i kanistrasi portlab, undan butun uy yonib ketganini e'lon qilishdi.

Bu xabarni direktor Pyotr Anisimovich oshxonaning o'rtasida qo'lida portfeli bilan turib olib, bo'sh qo'li bilan peshanasidagi terni artib e'lon qildi. U tashvishli ko'rinishda edi.

U xabarni yetkazdi va birdan qo'shib qo'ydi:

– Axir nimalar bo'layotgani noma'lum-ku, – va bu bilan koloniyachilarning kulgisini qistatdi.

O'sha vaqtda Kuzminchalar ham oshxonada o'tirgandilar, ular ikkinchi marta kirib, kecha o'tkazib yuborgan tushliklarining o'rnini to'ldirayotgan edilar. Buning ustiga mastava ham og'izlariga juda yoqayotgan edi.

Direktorning go'yoki portlagan kanistra haqidagi so'zlarini tinglar ekan, ular bir-biriga ma'noli qarab qo'yishdi va ovqatlarini yeyishda davom etishdi.

Direktor yana ertaga konserva zavodidan mashina kelib katta sinf o'quvchilarini olib ketishini qo'shib qo'ydi. Kichkinalar piyoda yurib kolhoz bog'iga borishadi va olma terishadi. U yerda ularni ovqatlantirishadi...

Bu bilan yong'in haqidagi voqea nihoyasiga yetgandek edi.

Uyning yonib bo'lgan qoldiqlarini yoyib tashlashdi, ko'mirga aylangan xodalardan o'tin qilishdi, qurumga belangan koloniyachilarni boshdan oyoq yuvinish uchun Sunjaga olib ketishdi va ular u yerda qum bilan ishqalanishdi.

Aka-ukalar Regina Petrovnani erkakchalari bilan oshxonaga joylashtirib, ular uchun bir burchakni adyol bilan ajratib qo'yishgani haqida xabar topishdi. Biroq uning o'zi yo'q edi. Qizlar uning shifoxonaga ketganini, ularga erkakchalariga qarab turishni tayinlaganini, biroq Kuzminchalar ham yordam berib turishini so'raganini aytishdi.

Aka-ukalar bosh silkib qo'yishdi.

– Qachon qaytib keladi? – so'radi Kolka.

– Bir necha kundan so'ng. Nima edi?

– Hech nima. U kasal bo'lib qoldimi?

– Yo'q, – deyishdi qizlar. – Lekin shunday qilish kerak.

Aka-ukalar ketishdi. Qizlar yolg'on gapirayotgani va agar Regina Petrovna kasal bo'lmagan bo'lsa, bolalarini aslo tashlab ketmasligi haqida o'zaro xulosaga kelishdi. Ammo agar u yaqin orada qayib kelishga va'da bergan bo'lsa, demak, hammasi u darajada qo'rqinchli emas. Faqat aka-ukalarni konserva zavodidan haydab solishlari

aniq. Keyin ularga tuz yetishmasligi tufayli bo'ylari pastligini isbotlab ko'r-chi! Qo'llari ham, oyoqlari ham, tishlari ham o'smagan... Kallalari ham kichkina.

Urush paytida tuz, gugurt va sovun bilan muammolar yuz berishi ma'lum. Buni ayollar yaxshi bilishadi. Lekin bolalar uyi tarbiyalanuvchilari ham qalbaki sovun yasashni mashq qilishardi: hammomning oldida yog'och qayroqtoshga mag'zavalardan yupqa qatlam terishardi.

Gugurtlarning o'rniga «katyushalar», chaqmoqtosh, temir parchasi va pilik bo'lagi bo'lardi. Lekin tuzni kashf qilishning iloji bo'lmadi. Bir safar katta tuz toshi yotgan mol hovliga kirishdi. Tizza va kaftlarini yerga qo'ygan holda mazali shirinlik kabi o'sha toshni yalashdi, ularni hech qanaqa kuch bilan ajratib bo'lmadi.

Yuqori sinf o'quvchilarining bo'ylari, agar o'ylab ko'rilsa, Kuzminchalardan ko'pam baland emasdi, lekin tashqi ko'rinishlari bilan ulardan farqlanardilar. Soch turmaklari ham boshqacha edi. Ular kattalarga o'xshab tutunni o'zlariga tortib, chekardilar. Qizlarga nafrat bilan qarardilar: «ahmoq zaifalar!». Va kam sonli tishlari orasidan po'pisa qilib, yerga tupurardilar. Ularning tishlari sira o'sishni xohlamasdi.

Ayniqsa, «sh»lab gapiradigan Mityokni aka-ukalar yaxshi tanishardi.

Ertasi kuni tongda, juda barvaqt, yerdan, daladan musaffolik va yengillik nafasi ufurib turgan, chang-to'zon bo'lmagan mahal hovliga yap-yangi, bortiga ham, kapotiga ham, kabina eshiklariga ham chet el yozuvlari tushirilgan yashil «Studebekker» mashinasi kirib keldi. Uning bort va kuzovi ichkariga ko'tarildilar, ulardan esa butun mashina uzunligiga teng panjarasimon yog'och o'rindiqlar hosil bo'lardi.

Eshikni qattiq qarsillatib, kabinadan erkaklamikiga o'xshash shim, paxtali kurtka va orqasiga qayrilgan chapani furajka kiygan ayol chiqib keldi. Biroq hamma bolalar uning ayol ekanligini sezishdi, bir necha daqiqa o'tib esa ismi Vera ekanligini ham bilib olishdi.

Keyin u har kuni tongda kelib, koloniyachilar kim o'zarga mashina kuzoviga lapanglab chiqishlarini tomosha qilib nima uchundir kulardi. U quvnoq ayol edi va qotib-qotib kulib: «Qani, erkaklar! Tarang tortilinglar, hozir ter to'kishga boramiz! Bo'lmasa sizlarsiz kon-

vayer yurmayaptimi!» deya baqirardi. Konveyer nima va u qanday yurishini bolalar keyinroq bilib olishdi. lekin bu haydovchi Verani, u erkaklar kiyimida bo'lsa ham, yoppasiga hamma koloniyachilar yoqtirib qolishdi. Ular Vera haqida samimiyat bilan gapirishar, har biri xufiyona unga yoqishni, katta bo'lganlarida ehtimol unga uylanishni orzu qilishardi. Va har bir bola, albatta, shu vaqtdan e'tiboran Vera kabi haydovchi bo'lishni xohlardi. Shuningdek, qizlar ham.

Birinchi tongdayoq, aka-ukalar taxmin qilganlaridek, ularni mashinadan haydab tushirishga urinishdi. Buning ustiga boshqa mayda bolalar ham tiqilib olgan edilar. Mashina keyin har kuni shunday to'la boshladi va har kuni tarbiyachi kelib mashinada zavodgacha borishni orzu qilayotgan quyonlarni tortib chiqarardi. Ular qaytishda piyoda yurib kelishga rozi edilar.

Ammo quyonlardan xalos bo'lsalar-da, Kuzminchalardan qutulolishmadi. Ular kichkinalarning yotoqxonasida yashasalar ham, katta ekanliklarini, yoshliklarida tuzni kam yeganliklarini va bo'y hamma narsani hal qilmasligini tushuntirib dod-voy ko'tara boshlashdi.

Ehtimol, ularni boshqa quyonlarga o'xshab bittalab mashinadan tortib olib chiqargan bo'lardilar, lekin bir-biriga yopishib olgan va butun koloniyani boshiga ko'tarayotgan bolalarni...

Qo'l siltashdi va jo'nashga yo'l qo'yib berishdi.

Vera, ma'qullab kulimsirab, hamma joyiga o'tirib olganini tekshirib, Kuzminlar tomonga ayyorona qarab qo'ydi, kabinaga chiqdi, o't oldiruvchi mexanizmni buradi va joyidan siljishdi.

Mashinada o'tirgan koloniyachilar bunday yorib o'tuvchi va chaqqon harakatlanishdan chinqirib baqirishardi. Zavq-shavq bilan hushtak chalishdi, o'ttizta tomoq qirilib baqirdi, Vera esa qotib kulib va bir ko'zi bilan orqa oynadan o'zining qaroqchilarini (ularni keyin shunday atay boshladi) ko'rish uchun qayrilib qarab, tezlikni yana oshirdi.

Mashina oppoq, tig'izlangan yo'lda shunchaki yurmas, uchib yelib borar va orqasidan uzun tutunli dum qoldirardi.

Ularni, his-tuyg'ulari to'lib-toshayotganidan uvvos soluvchi va guvillovchi bolalarni birinchi kuni shu tarzda olib kelishdi.

Idora derazalaridan, zavod yo'laklaridan odamlar mo'ralab, o'zaro pichirlashardi: «Koloniyachilar kelishdi».

Vera mashinadan sakrab tushdi, kepkasini orqaga burdi va kula turib, bolalarga qarab baland ovozda gapirdi: «Yigitlar! Tushinglar! Hozir sizlarni tilxat bo'yicha bittalab topshiraman!» Biroq hech kim ularni sanamadi, tekshirib o'tirmadi ham. Vera endi bo'sh mashinada katta temir darvozadan zavod hududiga kirdi, bolalarni esa yo'lakning kichkina eshigi orqali olib kirishdi.


Ular mevali savat va qutilar bilan to'ldirib tashlangan, dunyodan baland tosh devor bilan ajratilgan katta hovliga kirishdi. Bu yerda pomidorlar, olxo'rilar, olmalar, noklar va bir safar bizning Kuzminchalar bodring deb o'ylab to'yib yegan o'sha g'alati qovoqchalar bor edi. Hech kim hech narsani qo'riqlamasdi. Isqirtroq ko'k xalat kiygan tashvishli ayollar u yoqdan bu yoqqa yugurib o'tishar, yo'l-yo'lakay shang'illayotgan bolalarga o'girilib qarashar va uzun binolarning devorlari ortida g'oyib bo'lishardi. Balki ular yordamga jo'natilgan koloniyachilarni tomosha qilish uchun paydo bo'lishgandir. Zavodda erkaklar soni o'ntadan ortiq emasdi.

Bolalar hech kim ko'rib qolmasligi uchun orqaga qarab, savatlar-dan mevalarni ola boshlashdi – kimdir olxo'rini, kimdir pomidorni darrov og'izlariga solib yutib yuborishga harakat qilishardi. Lekin bir ayol yonlaridan to'xtamay o'tib borayotib, gap tashladi: «Yeyaveringlar! Osh bo'lsin, uyalmanglar! Bularning hammasi shlangda yuvilgan...» Talashuv-tortishuv boshlanib ketdi. Hamma savatlarga tashlanib og'izlariga, cho'ntaklariga, hattoki qo'yinlariga to'play boshlashdi. Olmalar, noklar, olxo'rilar, pomidorlar, xullas, kim nimaga yaqin turgan bo'lsa, o'shanga hujum qildi. Bolalar shishib, og'irlashib borishardi.

Har biri qorin va ko'ylaklarini to'ldirishdi, shunday to'yib yeyishdiki, faqat ko'z va quloqlaridan oqmasdi, xolos.

Biroq hech kim hamon ularni shoshirmas, hech kim bunday tashlash uchun ta'na qilmasdi. Eng afsuslanarlisi: meva-chevalar qanday ko'p bo'lgan bo'lsa, shunday ko'pligicha turaverar, kamaymasdi. Koloniyachilar agar gap yegulik haqida ketsa, ular uchun ilojsiz narsaning o'zi yo'qligini bilishsa-da, ishonishsa-da, barcha savatlarni, xohlasalar ham, yeb tugatish yoki, aytaylik, zavod hovlisidan o'marishning iloji yo'q edi.

Qorinlari kichkina bo'lgani uchun yeb tugatishmadimi, demak, hazm qilib yana yeyish mumkin. Koloniyadagi boshqa bolalar



uchun ham terib olishlari yoki o'zlari uchun boshqa kunlarga g'amlab qo'yishlari mumkin... Quritib yoki yana boshqachasiga...

Qo'yinlarini olxo'riga to'ldirgan Kuzminchalar shunday o'y-lashardi. Keyin bu olxo'rilar ezilib, suyuq bo'tqaga aylandi, ular-ni sekingina ko'ylakning ichidan tozalab olib, tashlab yuborishga to'g'ri keldi.

Tomilinoda shoqollar olxo'ri savatini emas, hech bo'lmasa bitta donasini ko'rib qolishganida bormi! Hattoki o'sha ezilgan olxo'rilar-ni ham!..

Hammaga aynan olxo'rilarni saralash vazifasi topshirildi. Har kuni ulkan, yuz litrlik shisha butilkalarni olib kelishar, bu shishalar-ga koloniyachilar olxo'rilarni axlatdan tozalab, pishgani bo'yicha saralab terib solishlari lozim edi. Shishalarni qandaydir sassiq su-yuqlik bilan to'ldirishar, undan so'ng mevalar yoqimsiz oqarib yeb bo'lmaydigan holatga kelardi. Koloniyachilarga tushuntirishlaricha, bunday ko'rinishda olxo'rilar qishgacha saqlanishi mumkin ekan. Hosil yig'im-terimi davri tamom bo'lganidan so'ng ularni qayta ish-lashga yuborib, jem va murabbo pishirishar emish. Buzilgan oq ol-xo'rilardan qanday murabbo chiqsin!

Umuman, hammasini tushuntirsalar ham, bolalarga ularning ko'z o'ngida va ularning mehnati bilan meva buzilishi ro'y berayotgani yoqmadi. Agar mana bu zahar bilan to'ldirgandan so'ng ularni yeb bo'lmas ekan, demak – u buzilgan va ularni buning teskarisiga ishon-tirib bo'lmasdi.

Pomidor va olmalarni koloniyachilar bajonidil saralashardi. Ular-ni hech narsa bilan to'ldirishmas, zaharlashmas, daroz yahudiy yigit-lar kelib idishlarni sex eshigiga olib ketishardi.

Ularni hamma yahudiylar deb chaqirishardi. Ularning hamma-si novcha, bo'ylari ikki metr bo'lsa kerak, ko'k ko'zli, och malla sochli va xushkayfiyat edilar. Katta savatlarni ular xuddi o'yinchoq ko'targandek hazillashib, yelkalariga bittadan ko'tarishar va umu-man shikoyat qilishmas, charchamasdilar. Buni Kuzminchalar darhol payqashdi.

Yahudiylar – demak kuchli va xushfe'l xalq. Aka-ukalar shunday qarorga kelishdi.

Yahudiylar mahsulotni olib kirayotgan sexning eshigida turgan Zina xola esa avval ularga yoqmadi. U yosh emas, mijg'ov, iflos

ko'k xalatda va ensasida tugun qilib bog'langan oq qiyiq ro'molda edi.

Zina xola koloniyachilarni hushyorlik bilan kuzatar, eng qiziquvchanlarini eshikdan haydab solar, butun hovlini boshiga ko'tarib baqirardi:

– Hap bu bolalarni! Qayerdan bunday yaramaslarni olib kelishdi-ya?! Bu axir uyat, sharmanda-ku!

Uning quloqni teshuvchi ovozi zavod hovlisining hamma burchagidan eshitalardi.

Ammo bir safar odatdagiday baqirib bo'lgach, u to'satdan Sashkani yoniga chaqirib – u ayolga yaqinroq turgan edi – undan so'radi: «Sen, bolakay, qayerdansen?» – «Menmi?» – so'radi Sashka unga yaqinlashmay, u Zina xoladan nimani kutishni bilmasdi. – Men Tomilinodanman...

Xola bosh irg'adi. Xuddi Tomilino qayerda joylashganini biladigandek.

Balki Tomilinoni tomli shahar deb tushungandir.

– Ota-onang qani?

Sashka yelkasini qisib, o'girildi. U bunday savollarga javob bermasdi.

– Bir o'zingmisan?

– Nega bir o'zim! – jerkib javob berdi u. – Biz ikkitamiz!

– Qanday qilib – ikkita? Kim bilan – ikkita? – qaysarlik bilan savolga tutardi xola. – Akam bilan.

– Buni qara, – dedi xola, Sashka ko'rsatgan tomonga qarab. Kolka savatning yonida o'tirib pomidor chaynardi. – Sizlar, nima, egizakmisizlar?

Sashka o'ylab turib ma'qullab bosh qimirlatdi. U egizaklar nima ekanligini bilmasdi, biroq shunday tushundi: ular ikkitami, demak, egizaklar.

– Uni chaqir, – buyurdi Zina xola.

U Kolkaga qovog'ini uyub razm soldi va bosh chayqadi.

– Mayli. Men sizlarni keyinroq farqlab olarman, – hal qildi o'zicha va qo'li bilan imladi. – Bu yoqqa yuringlar...

Bu paytda sexning eshiklari yopiq, tanaffus edi.

Zina xola ularni ulkan, bir qavatli uy bilan barobar pishillab turgan doshqozonlar joylashgan taqiqlangan saltanatga olib kirdi. Har bir doshqozonning tepaga olib chiquvchi temir zinasi bor edi.

Zina xola ularni zinaning ostida turgan qutiga o'tirg'izdi, qandaydir sariq bo'tqa bilan to'ldirilgan bankani oldi.

– Shu yerda yenglar, mana qoshiq. Sexda tentirab yurmaling! Tushunarlimi? – Aka-ukalar bankaga tikilganча bosh silkishdi. Ketayotib, Zina xola tushuntirdi:

– Bu ikra... Baqlajondan qilingan. Uni aslida non bilan yeyish kerag-u, non yo'q-da. Nonsiz yeyaveringlar...

Xola ketishi bilan bolalar bankaga tashlanishdi, qoshiq bilan uni shipirishdi. Banka bir zumda yaltirab qoldi, bolalar o'zlariga kelgunlaricha tamom bo'ldi! Ikrani chaynab o'tirishmadi, so'rib olishdi, shunday mayin, shunday yoqimli ediki, sarmast qilardi.

Kuzminchalar galma-galdan barmoqlarini tiqib, bankani tozalab qo'yishdi, yashil shishasi tozalikdan yaltirab ketdi. Zina xola bir daqiqadan so'ng qaytib kelib, bo'sh bankaga och ko'zlari bilan tikilib o'tirgan aka-ukalarni ko'rib sarosima va hayratga tushib qoldi.

– Chempionlar! Tozalab qo'yish bo'yicha!

U Sashkaga qizil tasmani uzatdi.

– Sen belgili bo'lasan. Sen esa – yo'q. – Bu Kolkaga aytilgan edi. U Kolkani juftini shakl bo'yicha takrorlagan, biroq umuman sezilmasligi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsa sifatida qabul qilardi.

U Sashkaning qo'lidan tasmani olib, bo'yni atrofiga bog'lab qo'ydi.

– Mana bunday. Ikra bo'lsa boshqa yo'q. Keyinchalik bo'ladi... Kun o'tsa, yegulik ham bo'ladi... Boringlar, ishlanglar. – Va hovli tomonga ishora qildi.

U tushunarsiz gapirganiga qaramay, Sashka tushundi va keyin Kolkaga ham tushuntirdi: u ertasi kuni yana ikra beraman dedi chog'i.

Ammo ertasi kuni Zina xola o'zini aka-ukalarni tanimayotgandek tutardi. Sashka uning ko'z o'ngidan lip-lip etib u yoqdan bu yoqqa behuda o'tdi, hatto salomlashdi ham. Zina xola qattiqqo'llik bilan bosh irg'adi va hech narsa demadi. Aksincha, butun hovliga qarab boplab baqirdi:

– Buni qara-ya! Zumrashalar! Sho'rpehana suyaklar! Tegma, savatga tegma! Yahudiyalar tashisin!

Ikkinchi kuni ham, uchinchi kuni ham Zina xola aka-ukalarga e'tibor bermadi. Ular Zina xola haqida o'ylamay qo'rganlaridagina

uning o'zi tanaffusda ularni qutining orqasidan topib oldi. Aka-ukalar yeyaverib joniga tekkan pomidorni paqqos tushirib o'tirardilar. Zina xola ularni yana sexga olib ketdi.

Tanish temir zina ostidagi qutiga banka qo'yib ketib qoldi. Biroq bu safar bankaga Sashka haqiqiy nomini unutilib, o'zicha «baxtjonli» deb nomlab olgan ikra emas, boshqa narsa berkilgandi. Banka labigacha xushbo'y, shirin meva qiyomi bilan to'ldirilgandi.

Va yana aka-ukalar shoshilmaslikka harakat qilsalar ham, qandaydir soniyalar ichida bankani ship-shiydam qilib bo'shatishdi. Lekin Zina xola shaylanib turardi va ikkinchi, uning ketidan uchinchi bankani ham olib keldi.

Uchinchi bankaga kelganda Kolka bilan Sashka sekinlasha boshlashdi.

Bu, albatta, ularning ushbu, uchinchi bankani batamom yeb bitira olmasliklarini yoki, deylik, to'rtinchi bankani rad etishlarini anglatmasdi...

Shunchaki ular sekinroq, ba'zilar aytadigandek, mazasini tuyib yeya boshlashdi. Ehtimol to'rtinchisi yanada totli bo'lishi mumkin edi, lekin boshqa berishmadi.

Zina xola tanaffus hali tugamagani sababli ularning yonida o'tirib, so'radi:

– Xo'sh, chempionlar? Shirin ekanmi?

Aka-ukalar ma'qullab bosh silkishdi va bir-biriga ma'noli qarab qo'yishdi.

Gap shundaki, tunov kuni Sashka bilan Kolka kiyimlarini almashtirib olishgandi. Bu Zina xola uchun emas, umumiy dahmazalik uchun qilingandi, shu bois qizil tasmani Sashka emas, Kolka taqib olgan edi.

Zina xola ularga diqqat bilan razm soldi va qo'qqisdan Sashkaning biqiniga turti: «Sen nega tasmani yechding? Bilmaydi deb o'yladingmi? Men seni hamma yoqda tanib olaman! Sen boshqachasan». Hech kim hech qachon aka-ukalarni bunchalik oson farqlamagandi, qorovul Zina xola esa bir zumda topdi. Bu bolalarni lol qoldirdi. Ular Zina xolaning oldida qorni to'q, minnatdor va biroz xijolat tortib o'tirishardi.

Lekin Zina xola ulardan o'pkalamadi. U so'radi:

– U yoqda... Tomilinoda sizlarni nimalar bilan boqishgan?

Aka-ukalar gap topolmay qolishdi. Bu g'alati savol edi. Hamma yerda, ularning tushunishicha, bir narsa: yovg'on sho'rva bilan boqishardi. Agar boqishsa.

– Yovg'on sho'rva bilan! – dedi Sashka.

Zina xola asosan unga murojaat qilardi.

– Yovg'on sho'rva bilan? – so'radi Zina xola. – Bu obiyovg'on bilanmi?

Aka-ukalar yana uyalib ketishdi.

Yovg'on sho'rvani qanday qilib bilmaslik mumkin? Sho'rva – sho'rva-da! Loyqaga o'xshagan sho'rva, ichida bir parcha qora kartoshka, u muzlagan bo'lishi ham mumkin, yoki... erimagan bug'doy yormasining quyqasi: juda mazali. Guruch, guruchli sho'rva – mastavani esa ular kuni kecha birinchi marta tatib ko'rishdi.

– Jo'xori bo'tqasi berishadimi sizlarga? – so'radi yana Zina xola.

– Yo'q... Zatiruxa berishadi.

– Ha, uyam jo'xori bo'tqasiga o'xshaydi, biroq suyuqroq bo'ladi... – Va chuqur xo'rsindi. – Bizni ham olib kelishgan... Kursk viloyatidan.

Aka-ukalar Zina xolaga tikilishdi. O'zini o'zi eplay oladigan katalarni qanday qilib olib kelish mumkinligini darhol tushunishmadi.

Zina xola esa davom etardi:

– Vakil keldi, narsalarni yig'ishtirishni buyurdi... Uyimda esa kasal singlim va aqldan ozgan qizim bor, uni bir fashist zo'rlagandi. Biz buyumlarni bog'lab tugib qo'ydik – kambag'al uchun ko'chko'ronini yig'ishtirish – belbog'ini bog'lab olishdek gap! – o'zimiz esa o'kiryapmiz, nima uchun o'kiryapganimizni bilmaymiz... Hovli bo'm-bo'sh, o't o'sib ketgan, buning ustiga minalar ham bor... Molimiz yo'q, hattoki mushuklarni yeb qo'yganmiz... yertut yeb kun kechirdik. Bizni mol poyezdiga ortishdi-yu, olib ketishdi. Biz esa hamon o'kiryapmiz, o'kiryapmiz. Vakil bo'lsa: «Xotinlar, o'kirish yetar, men sizlarni jannatga olib ketyapman...» deydi. Biz esa jannat – bu otib tashlash deb tushundik, chunki hamma sotqinlarni qidirdi, kim fashist bilan yotgan bo'lsa, o'sha bizda xoin hisoblanadi... Qizimni esa fashist zo'rlagan... Shunda ovoqimiz boricha baqirdik! Baqiriqdan vagon yo'lidan chiqib ketayozdi...

Zina xola o'girilib qaradi. Sexdagi odamlar yugurib yela boshlashgan, tanaffus tugagandi. U o'midan turdi.

– Keyin esa jannatga, ya’ni bu yerga olib kelishdi, bu yerda esa chidasa bo’ladi, yashasa ham bo’ladi. Faqat mana bular...

U aytmadi, biroq qo’li bilan qilichni silkitganday bo’ldi.

– Shunday qo’rqamiz ulardan... Shunday qo’rqamizki... Bizda bo’lgan... Sizlar hali kichkinasizlar, bilishlaring shart emas...

Sashka Zina xolaning ketidan atrofga nazar tashlab, so’radi: – Aying kim? Kim?

Zina xola atrofga ko’z yugurtirib, aka-ukalarni ichkariga chuqur-roq itarib kirgizganicha shivirlay boshladi:

– La’nati chechenlar! Nahotki eshitmagansiz? Ular bu yerda fashistlar davrida bizga o’xshab xoinlik qilishgan! Balki ularni qizlar erkalashgandir, biz bilmaymiz-ku! Ularni bizga o’xshab mol poyezdiga to’dalab ortishdi, hattoki tugunlarini yig’ishtirib olishga berishmadi! Shunday deyishadi... Bizlar-ku Kavkazga keldik, ularni esa Sibirdagi «jannat»ga olib ketishdi... deyishadi. Ba’zilari esa... – shu joyda u ovozini pastladi. Kuzminchalar bazo’r eshitishardi, – ba’zilari borishni xohlashmadi... Taq, ular tog’larga yashirilib olishdi! Shundan beri noma’qulchiliklar qilishyapti! Qaroqchilik qilishyapti! Mana shunaqa!

Shoshilib, orqa-oldiga qarab bularning hammasini aytib bo’lgach, Zina xola aka-ukalarni ichkaridan chiqara boshladi va qo’shib qo’ydi:

– Endi esa boringlar, boringlar! Ko’p narsani bilsanglar tez qarib qolasizlar! Boringlar!

Sashka tiralib, ketishni xohlamasdi.

– Demak, ular yondirishgan ekan-da... Granata bilan! – hayqirib yubordi u, o’zining kashfiyotidan lol qolib.

Zina xola qo’rqib atrofga qaradi va birdan butun sexga baqirib yubordi:

– Xo’sh, nimaga qarab turibsizlar! Xo’sh! Sexni ko’rmaganmisizlar? Qani, ishlanglar! Valaqlashga vaqt yo’q!

Shu bilan aka-ukalarni boshqa eshitishni xohlamay, hovliga chiqarib yubordi.

Kutilmaganda kolxoz uchun badiiy havaskorlik uyushtirishga jazm qilishdi.

Mahalliy aholi bilan munosabatlarni yaxshi deb bo’lmasdi!

Qishloqdagilar polizda bir koloniyachini poylab qo'lga tushirishdi va chala o'lik bo'lguncha do'pposlashdi. O'ch olish niyatida koloniyachilar bir yigitni ayoli bilan tutib olishdi, qip-yalang'och qilib bir-biriga orqama-orqa qilib bog'lashdi va shunday ko'rinishda qishloqqa olib borishdi. Odamlar to'plana boshlashganida esa tuplarning ostiga kirib ketishdi...

Va hammasi boshlanib ketdi.

Pyotr Anisimovich kolxoz boshqarmasidan homush tortib, ko'ksiga portfelini siqib, o'zining doimiy gapini takrorlab qaytib keldi. U tarbiyachilarni yig'ib, boshqarmada eshitganlarini so'zlab berdi va gapining oxirida taklifini ilgari surdi:

– Balki, haligi... Balki kolxozchilar bilan uchrashib, gaplashib olish kerakdir? Yoki ularga qo'shiq kuylab bersakmikin? Qarang, bolalarning yotoqxonalarida qanday bo'kirishini!

– Kuylab raqs tushib berish mumkin, – deya javob berishdi. – Bu yerda hamma o'zicha artist. Ayniqsa, ko'zboyloqchilar ko'p: yo'qdan paydo qilishadi!

Biroq direktor hazilni qabul qilmadi, portfelni bolasiga o'xshab ko'kragiga bosib, alamdiyda ohangda dedi:

– Demak, haligi... Xor... She'rlar ham. Men qishloq ahliga ular uchun chiqish qilib berishimizni aytaman, ular esa noz-ne'matlar bilan kelishadi... Qisqasi, inoqlik, totuvlik o'matamiz.

Tinchlik-totuvlik haqidagi gaplar koloniyachilarga yetib bormadi. Befoyda gap, deya tushunishdi. Oldin o'g'irlashgan va keyin ham o'g'irlashadi, yana nima qilishsin. Noz-ne'matlarga kelsak, buni ular yaxshi tushunishdi. Ko'plab chiqish qilmoqchi bo'lganlar topila qoldi.

Kuzminchalar ham tumshuqlarini suqishdi, ilgari xorda kuylashganini va Tomilino nomidan qandaydir qo'shiqni kuylab berishlarini aytishdi. Ularni ro'yxatga yozishdi.

Boshqalar ham sobiq kollektivlari nomidan yozilishdi. Ro'yxatga olish ishlari oshxonada bo'lib o'tdi.

Mitishiliklar xor taklif qilishdi – ular son jihatdan ko'p edi: «Qahramonlik ishlariga bizni vatan chorladi». Boshqasi: «G'alaba qo'shig'i, parvoz qil...» – bu ikkitasi sarahbor uchun, keyin esa: «Yo'l qo'shig'i». Ko'ngil uchun.

Birinchisini ma'qullashdi, ikkinchisini ham maqtashdi, Dunaevskiyning «Yo'l qo'shig'i»ni hamma bilardi.

– Balki Dunayevskiyni sizlarga yaxshiroq kuylab berarmiz, – javob berishardi mitishiliklar har qaysisi o‘z holicha.

Mitishiliklar qadrlarini rostlab turishdi: o‘ng oyoqlarini oldinga chiqarib va bir vaznda taqillatib, birgalikda po‘ng‘illashdi: «Tum-ta, tam-ta, tum-ta». Boshlanishi hammaga yoqdi. Xuddi poyezd taqilla-yotgandek. Keyin qo‘shiqning g‘alati so‘zlari boshlandi.

– Bu nimasi? Axir nimalar bo‘layotgani noma‘lum-ku? – so‘radi Pyotr Anisimovich, alomat xorga razm solib.

Xor gangib jim turardi.

– Balki, davom etishar? – so‘radi tarbiyachilardan biri.

– Davomi ham bormi? – hayron bo‘ldi Pyotr Anisimovich va portfelini siltadi.

Lekin xor ularga davom etishni buyurishyapti deb o‘yladi. Mitishiliklar yana, og‘zaki buyruq bo‘lgandek o‘ng oyoqlarini oldinga chiqarib uyg‘un tarzda to‘ng‘illay boshlashdi: «Tum-ta, tu-ma-ta, tuma-ta, tum-ta!»

Yakkaxonlardan biri ma‘yus xumorlik bilan jo‘rlikdan ajralib chiqdi:

Mana, poyezd keldi o‘sha manzilga,

Teshikka boqaman – xonim yo‘q, qara!

Xor direktorga yoqish ilinjida bor ovozi bilan jarangladi: Poruchik ado bo‘l-di, Xo-nim qo‘li...

– Yetar! Bas! – qichqirdi Pyotr Anisimovich. Hattoki portfelini iyagiga qisib, turib ketdi. – Bu kerakmas! Faqat birinchisi. Bahodirlarning ishlari haqida...

– Boshqalari-chi? – so‘radi kimdir xordan.

– Qanaqa boshqalari? Sizlarda yana bormi?

– Bizda ko‘p, – deya javob berishdi. – «Tekin», «Murka», «Nega sen, Valka, kekkayasan»...

– Yo‘q, yo‘q! – dedi Pyotr Anisimovich. – Ularni o‘zingizga qoldiring!

Xor hafsalasi pir bo‘lib joyini lyubersiliklarga bo‘shatdi.

Lyubersiliklar «Eh, olmacha dumalab ketdi, Kavkazdagi hayot... bostirib keldi!» deya xirgoyi qilib, «Olmacha»ga raqsga tushishdi. – So‘zlarsiz raqsga tushing, – dedi direktor chuqur xo‘rsinib. – So‘zlarsiz yaxshi chiqyapti.

Mojayskliklar «Temir kosov» nomli sahna ko‘rinishini namoyish etishdi: bolalar maktabga o‘n dona... temir kosov olib kelishlari uchun qanday qilib ariza yozishni bilishmay hayronlar... Bit-tasi gapiradi, ikkinchisi esa tuzatib turadi: temir kosa, deb. Buni ma’qullashdi.

Kashiraliklar – bu jamoa faqat qizlardan iborat edi – «Alanga» haqida qo‘shiq kuylashdi: «Jangchini urushga suyuqliki kuzatdi...» – Urushga suyuqliki, urushdan esa onasi kutib oldi! – baqirdi koloniyachilardan biri. Ammo hech kim bunday luqмага javob bermadi, qo‘shiqni ma’qullashdi.

Lyublinolik ikkita koloniyachi taqlid namoyishini taklif qildi.

– Taqlidni? – jonlandi tarbiyachilar. – Xo‘sh, xo‘sh! – Dastlab ular his-tuyg‘u bilan turnalar haqida kuylashdi: «Men bu yerda, o‘zga osmon ostida chaqirilmagan mehmonman...» Shu bilan birga derazaga, osmonga ko‘rsatishardi. Shubhasiz o‘zga. Qisqasi, qo‘shiq koloniyachilar haqida. Qo‘shiq bandidan so‘ng dabdurustdan nogiron araqxo‘rlarnikiga o‘xshash ovoz bilan to‘ng‘illay boshlashdi:

– Qa-dr-don o-na-lar! O-ta-lar! Kim qancha bera oladi... Kim bir tiyin, kim ikki...

Komissiyadan nogironlar haqida kuylamaslikni so‘rashdi. Yaxshisi turnalar haqida. Lyublinolik rozi bo‘lishdi, biroq ular «Hammasi yaxshi, go‘zal markiza» kuyiga fyurer haqida qo‘shiq qo‘shishlarini aytishdi. Fyurer haqida tinglab ko‘rimsiz ruxsat berishdi.

Ramenskoyeliklar A.Pushkinning «Kavkaz asiri» va Barkovning Luka ismli bir dvoryan savdogar ayolni sevgani haqidagi dostonidan parchani ifodali o‘qishni so‘rab olishdi. Qisqasi, fojia.

Lukani rad etishdi, qolganini olishdi.

Kolomenskliklar qishloq ahli uchun maxsus kolxoz laparlarini taklif qilishdi... Pyatnitskiy xori kabi.

«Olmacha»dan qolgan achchiq tajribadan so‘ng Pyotr Anisimovich bittagina qo‘shiqni kuylab berishni so‘radi.

Men kolxozda ishladi-i-im, eh!

Bir miri ishlab topdi-i-im, eh!

– Yo‘q, bu ular uchun ma’qul kelmaydi... – dedi tezda Pyotr Anisimovich. Va yengil tortib nafas rostladi. – Bo‘ldimi?

Biroq shu joyda komissiya oldiga Mityok chiqdi va «sh»lab gapira ketdi:

– Men ham shahnaga chiqsham bo‘ladimi?

– Shen? – hayron bo‘ldi Pyotr Anisimovich. – Shen qanday qilib shahnaga chiqashan?.. – taqlid qilib takrorladi u.

– Nimashi yomon? – tushunmadi Mityok. – Fokush ko‘rshataman...

– Nima, nima? – Hamma jonlandi.

– Fokush, – takrorladi Mityok.

Va ijozat berishlarini kutib o‘tirmay, Pyotr Anisimovichga yuzlandi:

– Mana, shijning shoatingij...

Pyotr Anisimovich darrov e‘tiroz bildirdi:

– Yo‘q, yo‘q. Sen mening soatlarimga tegma!

– Shoatingij mana, – dedi Mityok va cho‘ntagidan direktorning soatini chiqardi.

– Axir nimalar bo‘layotgani noma‘lum-ku... – og‘iz ochdi direktor va qo‘l siltadi.

– Anavi yerda, klubda... Faqat kolxozchilarning hech narsasiga tegma. Aks holda janjal boshlanadi... Yana cho‘ntaklarimizni shilish uchun kelibdi... deb o‘ylashmasin.

– Kimni shilaylik? – aybsizdek so‘radi Mityok.

– Kimni xohlasang, – qaytardi direktor. – Biroq ularnikini olma!

– Mayli, – dedi Mityok va direktorning portfeliga ma‘noli qarab qo‘ydi.

Shu payt yana bir nechta shoqollar komissiyaga suqulishdi, ularning har biri o‘zicha baqirardi:

– Men ham fokuslarni bilaman!

– Xohlaysizmi stakanni g‘ajyman?

– Yoki lampani?

– Xohlaysizmi... Hammaning ko‘zidan yosh oqadi!

– Men esa qo‘lga qarab fol ochaman! Nima bo‘lishi haqida!

Direktor portfelini ko‘tardi va o‘zini himoya qilayotgandek baqirdi:

– Boshqa safar! Stakanlarni g‘ajish boshqa safarga qoldirilsin! Buning ustiga, stakanlarimiz kam bo‘lsa! Ko‘z yoshlarimiz esa shusiz ham... oqib yotibdi! Xayr! Xayr, o‘rtoqlar!

Oradan bir hafta o'tdi. Qizlardan tashqari barcha koloniyachilarni sexga ishlash uchun ko'chirishdi. Har kimni har qayoqqa joylashtirishdi. Ba'zi bolalar bankalarni yuvishga jalb qilindi.

Uchi qaytgan mixli yuvadigan mashina-karusel, mixlarga tubini yuqoriga qilib shisha bankalarni kiydirishadi. Karusel aylanadi, uning bir uchida temir kojux, u yerda bankalar qaynagan suv bilan yuviladi, so'ng ularga kuchli bug' bilan purkalanadi.

Karusel bir aylana qilganidan so'ng bankalar shunday qaynoq bo'lib qaytib keladiki, ularni qo'lqoplar bilan yechishadi. Qizib turgan bankalarga qaynagan jem quyishadi.

Qo'lqoplarni koloniyachilar birinchi kuniyoq o'marishdi. Bir-birinikini. Keyinchalik qaynagan bankalarni yenglarini bilan ushlar, yaxshiyamki hammaning kiyimi o'ziga mos emas, kattaroq edi.

Yuvish bolalarga yoqardi, chunki ularning oldilarida jem qaynab pishardi.

Kuzminchalar bilan birga koloniyachilarning boshqa qismini konveyerga yuborishdi. Bu quvnoq haydovchi Vera eslatib o'tgan o'sha konveyer edi. Bolalarni olib kelib, joyni ko'rsatishdi. Savatlaridan to'kilgan pomidorlar suvda suzib yurgan bahaybat bakdan keng rezina tasmasi suzib chiqardi. Ikki tomondan turib har xil shoxlar, barglar, chirindilarni chaqqonlik bilan ushlab olib, ortiqcha narsani o'tkazib yubormaslik lozim edi. Buni tasmaning eng oxirida turgan ikkita ayol jiddiy kuzatib turardi.

Shitirlovchi, yumshoq egiluvchi tasma shiftgacha o'rmalab, u yerdan maxsus to'rlardan xas-cho'p qoldiqlari va loyqani yuvib tozalagan holda quyuq suv oqimi quyilardi.

Tasma kattagina temir qalpoqning orqasiga yashirinib, uning ostidan har tomonga vishillab qaynoq bug' ajralib chiqardi. Qalpoqning qarama-qarshi tomonidan, kalta xartumchadan katta yog'och bochkaga bug' bilan birga hidi o'tkir, qizil, qaynab turgan tomat quyilardi.

Kun bo'yi konveyerning oldida turish odamni zeriktirardi.

Ammo konveyer kun bo'yi ishlamasdi ham: goh tasma qisilib qolar, goh pomidorlar kechikar, goh bug'ni yoki umuman elektr energiyasini uzib qo'yishardi. Tasma qisilib qolmaganida unga tayoq tiqishardi!

Shunda bolalar, birinchi galda Kuzminchalar sexning olis bur-chagiga shoshilishardi, u yerda, bankalar yuviluvchi joyning yonida po'lat to'siq bilan ajratilgan qozonlarda olxo'ri jemi qaynab turardi.

Jemning hidiga koloniyachilar asalarilar asalga uchgandek uchib kelishardi.

Kuzminchalar hammadan oldin paydo bo'lishardi!

Baqlajon ikراسي – «baxtjon» -- gap yo'q, ajoyib, uni chelaklab ye, faqat me'dangga tegadi-da.

Olma sousi nordon, uni tezda rad etishdi.

Qiymalangan qalampir – uni goh-gohida tayyorlashadi.

Ammo jem... Mana jannatiy taom! Agar boshing bilan banka-ga kirib olsang, hammasini shimib olasan, kindigingdan asal oqib chiqadi-ya!

Birorta pishirish koloniyachilarning diqqat-e'tiboridan chetda qolmasdi.

Daroz yahudiyalar yangroq temir zinadan eng yuqoriga chiqib doshqozonga olxo'ri bilan to'ldirilgan og'ir savatlarni ag'darishar, ularni endi hovlida qizlar tozalab o'tirishardi.

Keyin erkaklar qadamidan og'ir tebranuvchi, goho jaranglovchi o'sha zinalardan shakarni to'kib, doshqozon uzra shaqirlatib bo'zrang jut qoplarini chokidan so'kishar va shu zahoti polga uloqtirishardi.

Koloniyachilar o'sha qoplarni tutib olib, ichida qolgan shakar uvoqlarini sidirib olishardi.

Ba'zida esa yukchilardan biri bexosdan qilgandek, qopni doshqo-zon chetiga engashtirar, shunda osmondan yog'ilayotgan afsonaviy mo'jiza bolalarning tutib turgan qo'llariga to'kilardi: oh, qanday op-poq, lazatli oqim!

Shakarni og'izlariga solib shimishar, huzur qilishardi. Cho'n-taklariga ham tiqishardi, shu bois orqaga qaytayotganlarida asalarilar g'uj bo'lib mashinaning orqasidan buralib uchib yurishardi.

Biroq eng tantanali lahzalar jemni quyib chiqish boshlanganda kirib kelardi. Tor bo'g'zidan quyuq, xushbo'y hidli, yiltiroq-jigarrang jem bug'da qizdirilgan shisha bankalarga quyiladi va bordi-yu ular-dan biri tasodifan yorilib ketsa, koloniyachilar qaynab turgan, quyuq jemli shishani ilib olib, biror joylarini kesib yoki kuydirib olishdan qo'rqmay uni darrov yeb qo'yishardi. Eng ajoyib tomoni, hech kim hech qachon kesib ham, kuyib ham qolmagan!

Jemga to'lgan bankalar tillaga o'xshab jilvalanuvchi tunuka qop-qoqlar bilan yopildirdi. Qopqoqlarni uzatib turishga (ana omad) o'sha Mitkani o'tirg'izib qo'yishdi. Bu yerda u boshqa koloniyachilarning havasini keltirib, terlab ishlardi.

Qozondan tortib omborgacha bo'lgan jem ishlab chiqarishning butun boshli jarayonini aka-ukalar batafsil kuzatishdi va yodlab olishdi. Bu oddiy qiziquvchanlik emasdi.

Aka-ukalar jem, ayniqsa, bankalarga yopilgan jem och-nahor qishda asqatishini tushunib yetishdi. Biroq ular qish haqida keyinroq o'ylashadi, hozir esa ularda g'amlab qo'yish uchun bir nechta bankani urib ketish istagi paydo bo'ldi. O'zlariga va, albatta, Regina Petrovna hamda uning erkakchalariga.

Bu borada soddadil Mitka bilan kelishib olishdi. Sexda u va bankalarni yopuvchi qolgach, bankalar yopuvchining orqasidagi uzun, ustiga temir qoqilgan stolda yig'ilib qolishi bilanoq Mityok hushtak chalib qo'shiq kuylashni boshlardi: «Qaddon do'stim, kolxozimizga bir kelib ket...» Kuzminchalar navbatma-navbat konveyerni tashlab chaqiriq qo'shig'i tomon shoshilishardi.

Bu ishda eng asosiysi – kattalardan hech kim payqab qolmasidan bankalarni konveyerning orqasiga yashirishga ulgurish.

Yahudiylar bu hisobga kirmasdilar.

Ular navbatdagi bankani cho'ntagiga tiqayotgan koloniyachini ko'rganlarida jilmayib qo'yardilar, xolos.

Gohida esa tasodifan bo'lgandek o'zlarining jussador gavdalari bilan o'marayotgan koloniyachini bekitib turishardi.

Sashka jem operatsiyasini uch bosqichga ajratdi.

Birinci bosqich – qaynatish sexidan olib chiqib puxta yashirish. Ikkinchi bosqich – ko'zi o'tkir Zina xolaning yonidan olib o'tish va hovliga yaxshilab bekitish. Uchinchi va balki eng asosiy bosqich – jemni pastqam devordan narigi tomonga, ozodlikka o'tkazish.

Operatsiya boshlanganidan bir necha kun o'tib Kuzminchalar yettita bekitilgan jem bankasini g'amlab qo'yishning uddasidan chiqishdi.

Sexda, konveyer yaqinida shu qadar ko'p har xil quvurlar, murakkab metall mexanizmlar, ko'plab puchmoqlar-u tuynuqlar bor ediki, xohish bo'lsa yettita emas, yetti mingta bankani bekitish mumkin edi bu yerga! Hech qaysi iskovuch it tintuv paytida ularni topa olmasdi.

Bu borada bizning aka-ukalarimiz, shu jumladan boshqa koloniyachilar ham mohir mutaxassislar hisoblanishardi.

Berkutilgan bankalarni ko'zlari chaqchaygan, biroq aslida badjahl bo'lmasa-da, ammo juda ham cho'chigan va shu sababli ikki baravar tirishqoq bo'lgan Zina xolaning yonidan olib o'tish uchun Sashka akasiga quchoqlashib yurishni taklif qildi. Mashinaga, mashinadan, oshxonaga, hovliga quchoqlashib...

– Isib terlab ketsak kerak? – so'radi befahm Kolka.

– Chida!

– Nega? – yana so'radi Kolka.

– Shunga! – dedi Sashka. – Shunday yurganingda bilib olasan! Qara, o'ramizda qancha bo'sh joy qolyapti! – Kolka angladi va qiziqib so'radi:

– Haligi... Sevishganlar ham oralarida banka olib yurishadimi?

Ular ham doim quchoqlashib yurishadi-ku. O'zim ko'rganman!

Sashka o'ylab turib, dedi:

– Kim bilsin.

Endi ular bir-birlarini yelkalaridan ushlab yurishardi. Sexdagi ayollar ularga boqib: «Bularning ahilligiga bir qarang! O'rtalaridan qil ham o'tmaydi-ya!» deyishardi. Agar ularni ajratishning uddasidan chiqishsa ko'ylaklarining ichida: biri ikkinchisining ustiga qo'yilgan ikkita banka turgani hech kimning xayoliga kelmasdi. Koloniya orqasidagi jo'xorizorda puxta repetitsiya qilingan, koloniya devorlarida sinab ko'rilgandi. Quchoqlashib ketayotganlarida bankalarni hech qanaqasiga ko'rib bo'lmasdi. Ushlab, paypaslabgina aniqlash mumkin, lekin kim ham ularni paypaslab o'tirardi?!

Shunday bo'lsa-da, ular oralariga birinchi bankalarni qo'yishgan kuni Zina xola nimadandir gumonsiraganday bo'ldi.

Avvallari oldidan ko'p marta quchoqlashib o'tishgan. To'xtatmas, bir marta ham so'ramagandi. Bu yerda esa ayollarga xos sezgirlik tuyg'usi ish berdi shekilli, Zina xola butun sexni boshiga ko'tarib chinqirib baqirdi:

– Hoy, sen! – albatta, Sashkani ko'rsatdi. Uni Zina xola qizil tasmasiz, har qanday masofadan tanirdi. – Bu yoqqa kel deyman. Nega hadeb u yoqdan bu yoqqa o'taverasan...

Ikkalasi quchoqlarini ochmagancha yaqiniga kelishdi. Bankalar terini sovutar, nafas olib chiqargan mahal silliq shishasi qovurg'alarini silab o'tardi.

Zina xola aka-ukalarga qaradi va dedi:

– Nega yopishib oldilaring? Hojatgayam birga borsalaring kerak? Kolka indamasdi. Zina xola undan so‘ramasdi, u Kolkani umuman tan olmasdi ham. Buning ustiga Sashka unga qanday qilib javob berishni biladi.

Sashka hovlida bunday yurish ular uchun qulayligini, chunki xufiya gaplashib olish kerakligini aytardi. Quloqdan quloqqa tezroq yetib boradi.

Sashka umuman olganda aldamayotgandi. Sir chindan ham bor edi, faqat quloqlarda emas.

– Bularga bir qarang! – mijg‘ovlandi Zina xola. – Sirmush! Sirlaringni bilib qolsam-chi, shunda nima bo‘ladi? – va aybsitib orqalaridan qarab qoldi. Biroq hech narsani payqamadi.

Aka-ukalar esa shoshilmay tashqariga chiqishdi va burchakka o‘tib ketishdi.

Shu yerda, orqa hovlida, zavod ishchilari hech qachon o‘tmaydigan sexning orqasida axlatxona joylashgan edi. Bankalar, turli-tuman qutilar, aravalar, bochkalar va shu kabi eski-tuski narsalar uyulib yotardi. Shu joyga jemni ishonchli yashirib qo‘yish mumkin.

Bankalarni ozodlikka chiqarish qoldi, xolos.

Aka-ukalar unchalik ishonmasalar ham, yo‘lakni sinovdan o‘tkazishdi. Ammo qurollangan kampirsho o‘qlanmagan miltig‘i bilan, Zina xolaga o‘xshab zehni o‘tkir bo‘lmasa ham, ularga qarab baqirib qo‘ydi: nega to‘dalashib yuribsizlar, odamlarga o‘xshab navbatma-navbat yuringlar!

«Hammaga o‘xshab – mumkin, – o‘yladi aka-ukalar. – Biroq bankalarni olib o‘tolmaymiz-ku!» Sashkaning miyasiga yana bir fikr kelgandi: jemni devordan oshirib tashlash. Faqat devor toshdan qilingan, ikki metr balandlikka ega edi.

Bir safar Kolka ishdan keyin hammadan ilgari lab ketib devorning narigi tomoniga o‘tib oldi, Sashka esa hovlining ichidan turib unga bir nechta bo‘sh bankalarni otdi.

Besh donadan Kolka bittasinigina ilib oldi. Ular joy almashishdi, biroq natija yaxshilanmadi. Sashka umuman bittasini ham ushlay olmadi. Kolka boshqa hech narsa taklif qila olmasdi, miyasi xuddi tormozlanganday edi.

Kolka go'yo bexosdan Sashkaga bir siqim shakar qistirib qo'ygandi. Shakardan miya tezroq qaynashini eshitgandi. Xuddi doshqozondagi jemga o'xshab!

Biroq shakar ham ukasiga ta'sir qilmasdi. U zerikib, ozib-to'zib, hattoki ko'zlari kirtayib qoldi.

U yolg'iz o'zi hovlida aylanib yurar yoki Zina xola bilan uzoq gaplashardi. U bilan nimani gaplashasan, uni bu ishga ko'ndirolmaysan, Kolkaning bunga ishonchi komil edi. Bankalar yotibdi, vaqt esa ket-yapti... Ularni zavodga boshqa olib borishmasa-chi: har bir kun oxirgisi bo'lishi mumkin edi!

Bir kuni Sashka dedi:

– Bilasanmi... Ular bu yerda ham bo'lishgan.

– Kim? – so'radi Sashka, lekin o'zi ham sezganday bo'ldi. – Iblislarmi?

Ilya chechenlarni shunday atardi.

– Ha. Iblislar. Ot choptirib o'tishgan, multiqlari bilan... O'q uzishdi va tog'larga shoshilishdi. Zina xola ko'rgan emish. Aytishicha, qo'rquvdan o'lishiga sal qopti.

– Kimnidir o'ldirishibdimi? – so'radi Kolka.

– Bilmayman. Sen Regina Petrovna nima uchun indamadi deb o'ylaysan?

– Nima uchun?

– Regina Petrovna ularni ko'rgan va kasal bo'lib qolgan. Zina xola qo'rquvdan deydi, shunday bo'lib turadi.

– Regina Petrovna hech narsadan qo'rqmaydi, – dedi Kolka.

– Erkakchalar-chi? Portlash-chi? Qo'rqinchli emas, deb o'ylaysanmi?

Aka-ukalar hovlining orqa tomonida, qutilarning ustida, zaxiralarning yaqinida o'tirishardi. Oyoqlarining ostidagi maysazordan hovli orqali ariq oqib o'tgandi. Unga sexdan chiqqan chiqindilarni tashlashardi. Ariq suvi iflos, sariq rangda bo'lib, juda badbo'y edi.

– Xo'sh? O'ylab topdingmi? – so'radi Kolka.

– Nimani?

– O'zing bilasan nimani! Zaxiraning yonida shunday o'tira-veramizmi? – Sashka boshini qashidi va dedi:

– Eh, qich bitishyapti... – Bu bolalar uyi jargonida «bit qichishyapti» degan ma'noni bildirardi. Va dabdurustdan:

– Yur, ketaqolaylik? – dedi.

– Hozirmi?

– Ertaga. Ana, Zina xola allaqachon qochib ketardim, oilam borda, deyapti... Ular bu yerga safarbar qilingan, ularni zavodga biriktirib qo'yishgan. Bizni esa hech kim biriktirmagan!

– Regina Petrovna-chi? – so'radi Kolka. Sashka o'ylanib qoldi.

– U qaytib kelmasa-chi?

– Qaytib keladi, – qat'iy va'da qildi Kolka. – Uning erkakchalari shu yerda.

– U o'lib qolgan bo'lsa-chi?

– Yo'q, – dedi yana Kolka. – Biz uni kelgunicha kutib turamiz va yo'lga bankalar to'plab olamiz. Baribir bankalarni olib chiqishimiz kerak.

Sashka sukut saqlar, tussiz-moviy tuman pardasida bazo'r ko'zga tashlanuvchi olis tog'larga qarardi. Quyosh nur sochar, atrof tinch edi. Faqat ariqdagi suv chayqalar va arilarning g'o'ng'illashi quloqqa eshitalardi.

– Balki hech qanaqa iblislar yo'qdir? – umid bilan so'radi Kolka. Axir ularni militsiya tutishadi-ku? Ilgari gumburlatishar, bomba tashlashardi. Endi esa gumburlatishni bas qilishdi.

Kolka bu so'zlarga ishongani uchun gapirmasdi. Unga Kavkazda yashash yoqib qolgandi.

Bo'lmasa-chi! Och shoqolning yegulik haqidagi azaliy orzusi ro'yobga chiqdi. U yana qayerda shakar, «baxtjonli» ikra, murabboga bunday to'yishi mumkin? Zina xola ularni jannatga olib ketishayotganini aytgandi, chindan ham, bu yer, zavod jannatning o'zginasi.

Zavodga biriktirib qo'rganlaridan yig'lash shart emas. Kolkaning orzusi – koloniyachilarni zavoddan boshqa joyga ko'chirmasalar bo'lgani. Ulg'ayib katta bo'lsa, uni umrbod zavodga biriktirib qo'yishlarini so'raydi. Shunda uning uchun shirin hayot boshlanadi! Yahudiy yigitlar kabi shakar tashiydi! Kim tashisa, ziyonda qolmaydi.

Sashka Kolkaga qaradi va nimalar haqida o'ylayotganini tushundi.

– Mayli, – dedi u akasiga. – Kutamiz.

– Jem-chi? Uni nima qilamiz? – tinchlanmasdi Kolka.

Sashka tog'larga, ostidan aynigan suv oqib o'tuvchi devorga razm soldi.

– Oqizamiz.

– Nima? – tushunmadi Kolka. Sashka kulib yubordi.

– Ularni suvda oqizamiz, bankalarni, tushundingmi?

– Qanday qilib?

– Qanday... Bilmayman. Albatta o'ylab topamiz, – va'da berdi Sashka. U yuzini quyoshga tutib, ko'zlarini yumdi-da, nimalardir haqida o'ylay boshladi.

Sashkaning g'oyasi tinchlikparvar edi. Murabboni yog'och parchasiga bog'lab oqim bo'ylab qo'yib yuborish, devorning narigi tomonidan esa ularni tutib olish...

Bir marta urinib ko'rishdi: yog'och cho'kib ketdi. Taxta topishdi. Biroq taxta qiyoq o'tga tiqilib qoldi.

Sashka taxta ishlarini chetga surib qo'ydi. Tanaffus paytida hovlida tentirab, burchaklardan nimanidir izlardi. Nimaní izlayotganini o'zi ham bilmasdi. Yurib-yurib nihoyat kalishga, kattagina kalishga yo'liqdi. Kim bunday ulkan kalishni kiyib yurishi mumkin edi, noma'lum! Gulliver bo'lsa kerak!

Sashka kalishni ariqqa olib keldi. Mushti barobar toshni ichiga solib, suvga qo'yib yubordi.

Kalish hamma to'lqinlardan, tiqilinchlardan, devor ostidan suzib o'tdi, devorning orqasida esa Kolka kalishni kutib turgandi.

Shunda Sashka bankani qum bilan to'ldirdi va kalishga soldi. Kalish to'ntarilib, banka cho'kib ketdi.

Sashka yana bir marta bankani qum bilan to'ldirdi va bu safar banka bilan kalishni arqonga mustahkam bog'ladi.

Bulaming hammasi suvning ostidan suzib o'tib, tashqariga suzib chiqdi. Faqat qumning bir qismi to'kilib ketgandi. Mayli, jemni oqizib ketmaydi, u zich berkitilgan. Asosiysi cho'kmasin. suzsiz, chunki uni suvning tubidan ololmaysan! Oqim bilan qamishzorga kirib ketsa bormi...

Qaysidir oqshom, ishdan so'ng Kolka bolalar bilan darvozaning narigi tomoniga chiqdi va darrov ariqqa yugurib ketdi. Koloniyachilar baribir o'rta hovlining orqasida mashinalarini uzoq kutishlariga to'g'ri kelardi.

Ariqdan suv oqib chiqadigan joy xilvat bo'lib, o'rta hovlidan chetroqda joylashgandi.

Shu sababli bor kuch bilan yugurish kerak edi, zavodning g'isht devori yarim kilometrga cho'zilgandi!

Shartlashib qo'yilgandek, Kolka hushtak chaldi, men bu yerda-man, degandek... qani, texnikangni ishga sol!

Hushtak chaldi va kuta boshladi. Ko'rinarliroq bo'lishi uchun maysaga yotib ham oldi.

Vaqt o'tardi. Soniyalar daqiqalarga ulanar, suvda hech narsa ko'rinmasdi.

Va to'satdan, kutishni to'xtatib, o'rmidan turib egnidagi kiyimini qoqa boshlaganida qora kalish, taqdir sovg'asiga o'xshab, devorning ostidan sho'ng'ib chiqdi va suzib kela boshladi... Inglizlarning drednout'iga o'xshab – bir vaqtlar kitobda rasmini ko'rgan! Oqim bo'ylab u yondan bu yonga aylanib oqib kelar, unda – eng asosiysi! – oltin qalpoqli qimmatbaho yo'lovchi o'tiribdi!

Kolka bankani yechdi, sevinchi ichiga sig'maganidan uning oltin boshini va ostini ham o'pib qo'ydi. Yuzining, qulog'ining oldida tutib turib, quyuq yiltiroq jem qanday tovlanishini tinglardi.

Banka ozodlikda zavodning ichidagiga qaraganda boshqacha ko'rinardi.

Kalishni ham Kolka jonlidek silab qo'ydi.

Silab, o'zicha gapirib qo'yardi:

– Yaxshi kalish... Aqlli... Ajoyib. Qadrdon kalishoyimiz bizning!

Uni o'zaro Kalishoy deb nomlashdi.

Bir safar Kuzminchalar qizlar yotoqxonasiga kirib, biroz ikkilanib: Regina Petrovnaning erkakchalari bilan oz-moz aylanib kelsak bo'ladimi, deya so'rashdi.

Qizlar ruxsat berishdi. Faqat qisqa muddatga va uzoqqa ketmaslik sharti bilan.

Orqa-o'ngiga qarab aka-ukalar kichkintoylarni sariq Sunja qirg'og'iga olib kelishdi, berkitilgan joydan qimmatbaho jem bankasini chiqarishdi va qopqog'ini ochishdi. Erkakchalarni maysaning ustiga o'tqizishdi va mehmon qila boshlashdi. Qoshiq bitta bo'lgani bois navbatma-navbat yedirishdi. Birinchi qoshig'ini Joresga, ikkinchisini Maratga.

¹ *Drednout* – zirhli katta harbiy kema.

Erkakchalar shoshilmay, astoydil yeyishardi. Qunt bilan qoshiqni yalab, tugab qolmadimi deb vaqti-vaqti bilan bankaga ham qarab qo'yishardi. Ularga juda yoqqani ko'rinib tursa-da – albatta yoqadi, axir jannatiy yegulik bo'lsa – o'zlari hech narsa so'rashmas, yana berishlarini kutishardi.

Oxiri yeb to'yishdi. Bankaga qarab qo'yib, chuqur nafas olishdi va so'rashdi:

– Yana bo'ladimi? – Bo'ladi, – so'z berdi Kolka. – Kalishoy olib kelsa, bo'ladi.

– Kalishoy – kim u? – so'radi Jores. Sashka Kolkaga qarab turib dedi:

– Kalishoy – bu... Kalishoy-da. U mehribon.

– Balki u sizning onangizdir? – so'radi Marat.

– Yo'q, – dedi Kolka va xo'rsinib qo'ydi.

– Biz esa onamizni sog'indik, – hasratlandi Marat. – Onamizsiz qiyin bizga.

– Albatta, qiyin, – tasdiqladi Kolka.

– Sizlarning onangiz-chi, keladimi?

– Bilmayman, – dedi Kolka va bankani yopa boshladi. Yopayotib bankaning chetidagi jem tomchilarini yalab qo'ydi. U erkakchalarga qaramasdi.

– Hamma onalar kelishadi, – dedi erkakchalar.

Kuzminchalar shoshila boshlashdi, bolakaylarni suvning qirg'og'iga tushirib, lablarini, yuz-qo'llarini suv bilan chayishdi. Koloniyaga qaytishda Kalishoy olib kelayotgan jem haqida hech kimga churq etmaslikni tayinlashdi. Bo'lmasa, Kalishoy xafa bo'ladi.

Bolakaylar va'da berishdi.

Top-toza, qizarib ketgan va kayfiyati chog' erkakchalarni qizlarga qaytarib berishdi.

Kolka yana so'radi:

– Regina Petrovna qachon qaytib kelar ekan-a?

– Qaytib keladi, – deyishdi qizlar. Ular bor gapni oxirigacha aytishmayotgani bilinib turardi.

Shu orada Kalishoy jemni binoyiday tashirdi, bir kuni Kolka qo'lini tuynukka tiqib, paypaslab sanab ko'rdi. Ularning berkitilgan joyida roppa-rosa o'n bitta banka yig'ilgandi.

– O'n bitta! – shivirladi u ukasiga.

Tomilinoliklar ko'rganida bormi! Bunday boylikni ko'rishganda aqldan ozishlari aniq edi!

Zig'irday shakar uchun qullikka sotilishar, bahorda jo'ka daraxtiga chiqib olib, o'zlarini xavfqa qo'yib barglaridan shirasini yalashardi... Muzlangan kartoshkani yeyishardi – nafaqat ochlikdan, balki shirinligidan. Konfetlar haqida faqat afsonalarda eshitishgan, hech kim ularni o'z ko'zi bilan ko'rgan emasdi. Murabboni ham hech kim ko'rmagandi.

– O'n bitta! – takrorladi Kolka ishonchlilik uchun. – Yana ikkita bo'sh shakar qopi!

Ular qopni qochgan paytlarida har ehtimolga qarshi o'zlari bilan olishgandi.

18

Shoqol hamma narsani ko'rgani uchun ham shoqol-da. Aka-ukalarda to'rtta ko'z bo'lsa, shoqollarda bir yuz to'rtta va har biri nafaqat ro'parasini, balki burchaklarni ham kuzata oladi.

Shoqollar bilib qolishdi.

Aka-ukalar qanchalik ehtiyot bo'lishmasin, o'zlarining Kalishoylarini yashirincha suvda oqizishmasin, ularni baribir ko'rib qolishdi.

Kattalar emas, ular anqov, laqma bo'lishadi, ularga nima uchun ko'z ato etilgani tushunarsiz... O'zlariniki, shoqollar payqab qolishdi.

Bir kuni Kolka ariq bo'yida qaqqayib turganicha Kalishoyni kurtardi. Koloniyachilardan biri u tomonga yugurib kelayotganini ko'rdi.

Kolka har ehtimolga qarshi ishtonini tushirdi. Shoqollar uni bu yerda zarur hojat bilan o'tiribdi deb o'ylashsin.

– Seni qidirishyapti! – baqirdi koloniyachi.

– Kim meni qidiriyapti? – so'radi Kolka va ariqqa ko'z qirini tashladi: Xudo ko'rsatmasin Kalishoy qalqib chiqsa sirlari fosh bo'ladi!

U hammasi allaqachon ma'lumligini va ularga qarshi til biriktirilganini bilmasdi.

– U kang seni izlayapti! Kuzmincha! U orqa hovlida! Sashkamidi oti?

– Bu men – Sashkaman, – dedi Kolka.

U ishtonini kiyib, ariqqa, keyin koloniyachiga oxirgi marta nazar tashladi va devor yoqalab yugurib ketdi. O'rta hovliga yetib qolgan-da ro'parasidan Sashka chiqdi.

– Sen... chaqirdingmi? – harsillab so‘radi Kolka, u og‘ir nafas olardi.

– Menmi? Chaqirdimmi? – hayron bo‘ldi Sashka. – Men chaqirmadim. Kalishoy qani?

– Qanaqa Kalishoy? Jo‘natdingmi?

– Qabul qilib olmadingmi?

Ular bir-biriga tikilib qolishdi. So‘zsiz ham tushunarli edi: tutib olishgandi.

Kolka kayfiyatsiz so‘radi:

– Balki qaytarib berishar?

– Shoqollarmi? – Sashka kulib, burni bilan pishillab qo‘ydi. – Bankaga achinmayman... Ular ishni barbod qilishdi... Tushundingmi?

Shu bilan jimib qolishdi. Hatto mashinada ham atrofga qiziqsinib qaramadi, shoqollarning basharasiga boqmasdi, kim ular bilan hazil-lashganini topishga urinmasdi.

Agar sog‘lom fikr yuritilsa, Kuzminchalar faqat o‘zlaridan o‘pkalashlari mumkin edi. Boshqalarni ilintirish va o‘zining ortidan mo‘ralashga imkon bermaslik har bir koloniyachining eng asosiy vazifasi.

Agar u omon qolishni istasa.

Hamma omon qolishni xohlaydi.

Shoqollar ham xohlashadi... Mana, to‘da bo‘lib qurshab olishdi, tilka-pora qilishyapti...

Kalishoyni ular albatta qaytarib berishdi. Jemni esa qaytarishmadi. O‘sha yerning o‘zidayoq, mashina kelguncha yalab tozalab qo‘yishdi. Xuddi shusiz ham to‘yib olish mumkin bo‘lgan zavoddan chiqishmagandek. Yo‘q. O‘sha murabbo bankasi ozodlikda ikki baravar shirinroq tuyulardi!

Endi koloniyachilar sexdan bankalarni avvalgidan ko‘proq tashiy boshlashdi. Ishtonlarining ichida, qo‘yinlariga solib tashishdi, buning uchun bizning aka-ukalarimiz singari juftlashib, quchoqlashib yura boshlashdi.

Zavoddagi ayol ishchilar bu holatni ko‘rib aqlari shoshardi: bizning yetimchalar bir-birini naqadar qadrlay boshlashdi-ya! Yo Xudo, juftlashib, quchoqlashib, shunday shirin, shunday yoqimtoylarki... Farishtalarning o‘zi!

Farishtalar esa tashishda davom etishardi. Ularning kiyimlari ichidan qanotchalar emas, konserva bankalarining qopqoqchalari yorib chiqa boshladi!

Oxiriga borib savatlarga to'ldirishni o'ylab topishdi. Bu savatlarini, shuningdek shakar qoplarini, singan idishlarni ham vaqti-vaqti bilan, sexni bo'shatish uchun tashqariga olib chiqishardi.

Sashka bu manzarani ko'rib, og'zi ochilib qoldi: birgalikda fikrlash mana bunday bo'libdi! Uning o'zi savat haqida o'ylamagandi, shoqollar esa fahmlashibdi. Ular endi o'ljani orqa hovliga sudrab borishardi, u yerda butun boshli omborlar hosil bo'lardi.

Kalish bir necha smena ishlay boshladi. Shoqollar uni Sehrli kalish deb nomlashdi, kimdir shunday ertak o'qigan emish.

Biroq hech qanday ertaknamo kalishni mana bu, haqiqiy Sehrli kalish bilan solishtirib bo'lmaydi: bu kalish qandaydir g'ayritabiiy baxt emas, balki haqiqiy, muayyan miqdordagi oltin qopqoqli, mazali jem bankalariga ko'chirilgan xursandchilik bag'ishlard!

Dastavval aka-ukalar o'zlarining Kalishoylari to'g'risida qayg'urishdi, ayniqsa, Kolka cho'ktirib yuborishmadimi, yo'qotib qo'yishmadimi, yirtib tashlashmadimi deb tashvishlandi.

Lekin bir kuni Sashka:

– Butunlay olavering! Foydalaning! – dedi.

Kolka bu so'zlarni eshitib, zo'rlik bilan tortib olish uchun tashlanishiga bir bahya qoldi. Hattoki ko'zidan yoshlar chiqib ketdi. Tekinga, evaziga hech narsa so'ramay o'zlarining oltinga teng, qadrdon Kalishoylarini berib yubormoqchi! Yaxshisi, bekitib qo'ygan joylaridan bankalarni berib yuborsin! Ular o'zlarining bebaho Kalishoylarichalik turmaydi!

Kolkaning shunday g'azabi qo'zidiki, baqirib yubordi:

– Aqldan ozdingmi? – va chakkasining oldida barmog'ini aylantirdi. U bu harakati bilan Sashkaning miyasi aynib qolganini ko'rsatardi.

Sashka bo'lsa soddadillik bilan so'radi:

– Sezilyaptimi?

Kolka diqqat bilan qarab, ahmoqona oqizilgan ko'z yoshlarini artdi. Yo'q, Sashkaning aqldan ozganligi sezilmasdi. U sobiq Sashka-dek kular, ko'zlari ham o'sha-o'sha edi. Biroq kallasi bilan nimadir ro'y bergandi – teskari ishlay boshlagandi, balki jemdan ortiqcha yeb

qo'ygandir! Kolka so'nggi vaqtlarda bekorga unga tiqishtirmagandi... Balki miyasi shirinlikdan yopishib qolgandir?

– Axir Kalishoy bizniki-ku! Bizniki! – baqirdi unga Kolka umidsizlik bilan. – Usiz qanday yashaymiz?

– Sekinroq... – dedi Sashka va aka-ukalar atrofga nazar tashlashdi.

Biroq hech kim ularning tortishuvini eshitmasdi. Ular orqa hovli-da bo'lib, bu yerda to'liq xo'jayin edilar.

Badbo'y jilg'a shildirab oqar, supurgio't allaqachonlardan beri, balki urushdan avvalgi davrdan buyon shu yerda yotgan eski qutilar ichidan o'sib chiqib yengil hilpirardi.

Sashka tumsayib qattiq nafas chiqardi:

– Qanday yashagan bo'lsak, shunday yashaymiz. Kalishoysiz. Yetar.

– Yetar? – hayron bo'ldi Kolka. – Axir biz... Biz endi boshladik-ku!

– Va tugatdik, – xotirjam dedi Sashka. – Endi to'xtash kerak.

U bu so'zlarni shunday ishonch bilan aytardiki, Kolka jahl ustida aytmoqchi bo'lgan navbatdagi gapini yutib yubordi.

Kolka ukasining ziyrak aqliga har doim ishonardi. Har doim. Ehtimol, birinchi marta shubhaga borgandir. Sashka esa Kolkaga qaradi va u aytmoqchi bo'lgan hamma narsani tushundi.

– Sen ular qanday titkilayotganini ko'ryapsanmi? Ular yo'lida uchragan hamma narsani uzishyapti, kelajak haqida o'ylashmayapti ham! Agar ular Kalishoyimiz bilan cho'kib ketishmasa otimni boshqa qo'yaman.

U shunday qasam ichdi. Sashka ko'p qasam ichmasdi. Shuning uchun unga ishonish mumkin edi.

Lekin Kolka so'radi:

– Balki... ularga aytish kerakdir?

– Nimani aytasan'?

– Nimani bo'lardi, kifoya ekanligini. O'maraverish kerakmasligini, axir katta janjal-to'polon bo'ladi va biz hammamiz...

– Ular hammasi, – xatosini tuzatdi Sashka.

– ...Va ularning hammasi... haligi... barbod bo'lishadi.

– Ayt, – hovliqmasdan dedi Sashka. – Ular senga hoziroq ishonishadi... Faqat nega o'zing ishonmading? Sen hozir eng ashaddiy shoqol kabi fikr yuritding-ku!

Kolka xo'rsindi. Chindan ham, to'ppa-to'g'ri qo'lingdan oqayotgan tekin boylikdan bosh tortish mushkul edi... Aniqrog'i, jilg'adan oqayotgan...

Koloniya-chilardan kim ham rad etardi, buning ustiga ular hayotiy tajribalariga ko'ra yaxshi bilgan qish arafasida? Zavod-ku bir, ikki oyga to'yib olish uchun! Keyin-chi? Qozonni suvga tashlashmi?

Ammo Sashka o'z fikrida qat'iy turardi. Shoqollar o'taketgan bebosh edilar, ularda tarbiyali o'g'rini shoqoldan farqlab turuvchi eng asosiy narsa – chek-chegarani, me'yorni bilish hissi, insof yo'q edi. O'g'rilikda ham insof kerak. O'zingga oldingmi, boshqalarga ham qoldir. Boshqaning boyligidan o'z ulushingni olayotganingda o'z vaqtida to'xtashni bil. Agar ko'p narsadan andak olsalar, bu o'g'rilik emas, bu shunchaki bo'lishish hisoblanadi! Buni buyuk yozuvchi aytgan, aynan qaysi yozuvchi ekanligini Sashka unutgandi. Muhim emas: u yozish tajribasini egallab bo'lgandi.

Shoqollar esa tortinmasdan yeldek yugurishardi! Mashinaning ichida kimningdir kiyimi ichidan banka lip etib chiqib ketdi. Devorning ostidan hammaning ko'z o'ngida tashishardi. Bir gal esa devorning ustidan yashigi bilan oshirib tashlashdi, bu ishda ajoyib yahudiy yukchi yordamlashib yubordi.

Haydovchi Vera furajkasining soyabonini orqaga qayirib hazil-lashardi:

– Hap, qarochqilar! Hap, zumrashalar! Eh, mashinam bugun og'irlashadi chog'i!

Vera hammasini ko'rib tursa-da, hech kimga hech narsani aytmasdi. Qisqasi, bolalarni sotib bermadi.

Sashka va Kolka bankalardan uzoqlashganiga bir yoki ikki hafta bo'ldi.

Ular tinchgina yurishar, o'zlari ham o'g'irlashmas, biroq boshqalarga ham xalaqit berishmasdi. Hammasi ikki nafar koloniyachi qop solingan savatni go'yoki hovliga olib chiqib ketishayotganida ro'y berdi.

Burgut ko'zli Zina xola ularni to'xtatdi:

– Qoplar bilan qayoqqa ketyapsizlar? Qo'yinglar, o'zim keyin... Ishlash kerak!

– Biz yordam beryapmiz! – qiyinchilik bilan gapirishardi koloniyachilar. Savat og'ir, juda ham og'ir edi: ular ochko'zlik qilib chama-

si o'n beshtacha banka solishgandi! Endi esa zo'riqqanlaridan qizarib turishar va nima qilishni bilishmasdi...

– Yordam kerak emas! – dedi Zina xola. – O'zim olib chiqaman!

Koloniyachilar o'rinsiz jim turishardi, chunki madorlari qolmagandi. Buning ustiga savat ham pastga tortar, bosimdan qarsillardi. Keyin savatning tubi tushib ketdi va bankalar jaranglab, beton poldan dumalab keta boshladi.

Bankalar ko'p edi. Ular notekis polda dumalab borar, bittasi esa, xuddi atayin qilgandek, shu atrofdan o'tib ketayotgan bosh texnologning oyoqlari ostiga kelib urildi. Keksa texnolog egilib, bankani ko'tardi, temir gardishli ko'zoynagini to'g'rilab qo'ydi va yorlig'iga qaradi.

– Olxo'ri jemi, GOST 36-72 RRU, – deb o'qidi u va atrofiga qaradi: butun sex ishini qo'yib, unga tikilib turardi. Oxirgi banka esa qochib ketayotgandek hamon sex bo'ylab dumalab borardi.

– Bu axir o'g'rilik-ku! – dedi texnolog o'sha dumalab ketayotgan bankaning orqasidan qarab. – Bu axir haqiqiy o'g'rilik-ku!

Shu orada ikkita shoqol savatni tashlab, qochib qo'fshdi. Sexning temir eshiklari orqali hovliga va yo'lakka... Ularni hech kim tutishga harakat qilmadi. Buning ustiga, ikkitasini tutishdan nima foyda: ikkitasi qo'lga tushdi, qolganlari esa tutilmadi, bor-yo'g'i shu.

Koloniyachilarni zavodda ishlashdan chetlashtirishdi.

19

Yakshanba kuni kechqurun kolonna bo'lib – biroq bu yaqindagina o'zining kattaligi bilan lol qoldirib poyezddan tushgan kolonna emasdi – bolalar mahalliy xalq bilan uchrashish uchun Qayin qishlog'i klubiga kelishdi.

Badiiy havaskorlik konserti zavoddagi mashmashaga to'g'ri kelib qoldi.

Aniqrog'i, bu konsertni kolxozchilar va koloniyachilar o'rtasidagi sovuqchilikni yumshatish uchun o'tkazishga shoshildilar. Bu o'lkada bo'lib turgan ikki oy davomida koloniyachilar hammaning ta'bini xira qilishga ulgurgandilar.

Bir qavatli, g'ishtli, fasadida ustunlari bor klub qishloqning qoq markazida joylashgandi. Ustunlarda o'q parchalarining shosha-pisha suvoq qilingan va oqlangan izlari ko'rinib turardi.

Zal keng, qaytarma yog‘och stullar bilan to‘ldirilgan edi. Sahna-ning pardasi yo‘q, chap va o‘ng tomondan zinalar tushirilgan, ikki eshik o‘rtasidagi devorda, sahnaning ikki tomonida ruscha bo‘lmagan qandaydir yozuvlar ko‘rinardi, ular moybo‘yoq bilan o‘chirilib, qisman davlat rahbarlarining portretlari bilan berkitilgandi. Shu sababli quyidagi manzara hosil bo‘lgandi: rahbarlar o‘z orqalari bilan uyali boshqa, o‘zlarining hozirda nomaqbul bo‘lgan tilda yozilgan chaqiriqlarini berkitib turishardi.

Chapda, peshsahnada, deyarli stol yoqasida to‘q qizil rangga bo‘yalgan faner minbar turardi.

Qiziq tomoni, kechaga ko‘plab odamlar tashrif buyurishdi. Ko‘chirib keltirilganlarning aksariyati shirakayf edi, ular baland ovozda gaplashishar, u qatordan bu qatorga qarab baqirishardi. Zalda shovqin turardi.

Kolonyachilar bo‘sh joylarga bildirmasdan o‘tib olishdi. Ammo ko‘pchiligi boshpanasizlarning azaldan qolgan begona yerda bir-biridan ajralmaslik odatlariga ko‘ra (balki do‘pposlashni boshlashar!) oldinga suqilib o‘tib birinchi qator va sahna o‘rtasidagi oraliqqa o‘tirib olishdi. Sig‘maganlari esa devorning yonida saflanishib, devorga orqalari bilan yopishib olib (bu ham o‘zini o‘zi himoya qilish tuyg‘usi!) yon yo‘laklarni egallashdi.

Sahnaga direktor Pyotr Anisimovich o‘zining odatiy portfelini qo‘ltiqlagancha chiqdi, ba‘zilar uni ko‘rib, qarsak chalib yuborishdi. U minbarga yo‘l oldi. Unga laqab qo‘yishgandi: «portfelcha». Kolonyachilar aytishardi: «Portfelcha yotoqxonada tintuv uyushtirdi!» Endi esa ularning orasidan kimdir ovoz chiqarib aytdi:

– Portfelcha ma‘ruza qiladi. Bizning yutuqlarimiz to‘g‘risida.

Oldinda o‘tirgan shoqollarning ba‘zilari kulib yuborishdi. Ularning yutuqlari hammaga ma‘lum edi.

Direktor biroz sukut qildi va shovqin hamda kulgi tinchigandan so‘ng gapira boshladi. Pyotr Anisimovich qog‘ozsiz gapirardi. U yangi ko‘chib kelgan kolxozchilarni dushmandan ozod qilingan zamindagi birinchi murakkab yil bilan tabrikladi va hosil terish hamda yangi hayotning boshlanishi bilan hammaga omad tiladi. Buning ustiga nemis-fashist bosqinchilari tor-mor etilyapti, qochishyapti va tez orada qasos olish vaqti kelishi kerak. U ezgulik har doim g‘alaba qilishini ham qistirib o‘tdi.

Hamma qarsak chaldi.

– Bizning koloniyachilar ham, – davom etardi direktor, – bu yerga ushbu hosildor yerlarni o‘zlashtirish va ocharchilikdan, boshpanasiz hayotdan so‘ng yangi, bunyodkorlikka asoslangan hayotni boshlash uchun kelishdi... Bolalar yaqin orada tahsil o‘lishni ham boshlashadi, biroq ular mahalliy mehnatkashlarga hosil yig‘im-terimida yordam berishadi...

– Ha, yordam berishyapti! – baqirdi kimdir zaldan. Zal uzra kulgi ko‘tarildi.

– ...Koloniyadan yoshga binoan o‘n besh yoshdan oshganlar esa kolxozga yoki konserva zavodiga ishga kiradi, – davom etardi direktor luqmani eshitmaslikka harakat qilib. – Shu sababli biz sizlar bilan uzoq vaqt qo‘shni bo‘lib yashashimizga to‘g‘ri keladi. Bugungi uchrashuv bir-birimizni yaxshiroq tushunishga va do‘stlashishga yordam beradi deb o‘ylayman... Mana, boshlanishiga kolxoz bizga yordamchi xo‘jalik ajratdi, to‘g‘ri, biroz uzoqroq... Mayli. Bizning oyoqlarimiz chaqqon, tezda yetib olamiz... Xo‘sh... Endi oziq-ovqat bazasi ham bor, u yerda ekinlar, buzoq va echkilar... va hokazo bor. Rahmat!

Zalda arang eshitiluvchi qarsaklar chalindi. Koloniyachilar bilan davomli qo‘shni bo‘lish katta zavq keltirib chiqarmadi. Buning ustiga, dalaning bir bo‘lagini moli bilan ajratib berishga to‘g‘ri keldi! Lekin direktor, minbardan tushib, koloniyachilar shubhasiz iste‘dodli, mahoratli xalq ekanini va ular kolxozchilar uchun o‘zlarining birinchi havaskorlik konsertlarini tayyorlab qo‘yishganini qo‘yshib qo‘yganda hamma jonlandi.

Sahnaga yigirma chog‘li mitishiliklar chiqishdi. Tarbiyachi Yevgeniya Vasilyeva qo‘shiqni e‘lon qildi. Direktor ma‘qullab bosh qimirlatdi. Xor boshlab yubordi:

*G‘alaba qo‘shig‘i, parvoz qilib yur,
Dalalarimizda savlat to‘kib tur.*

Xorning oldingi qatoridagi bolalar birdan sahnada kolxozchilarni tasvirlagan holda raqsga tushib, aylana boshlashdi va hammaning kayfiyati ko‘tarildi. Zal bag‘rikenglik bilan qarsak chaldi, xor esa xijolatomuz ta‘zim qildi. Qarsaklar tugagani, ro‘yxat bo‘yicha kuy-

lanadigan qo'shiq qolmagani bois mitishiliklar joylarida turib kutishardi. Keyin ular, buyruq bo'yicha o'ng oyoqlarini oldinga tashlab kuylay boshlashdi: «Tum-ta, tum-ta, tum-ta, tum-ta...»

Direktor o'rnidan turib, olomon orasidan chiqish eshigi tomon yo'l oldi.

Bolalar bu vaziyatni, albatta, «portfelcha» u tomonidan ma'qullanmagan qo'shiqni eshitishni xohlamadi, deb tushunishdi. Biroq sabab bu emasdi yoki faqatgina bu emasdi.

Shoshilinch ravishda – bu haqda hech kim bilmasdi – haydovchi Vera bilan koloniyaga borib, tintuvda ishtirok etish lozim edi, ba'zi taxminlarga ko'ra aynan ushbu koloniyaga hududida zavoddan o'g'irlangan jem bankalari berkitilgandi.

Konsert tintuv o'tkazib qaytib kelish uchun koloniyachilarni bita qoldirmay texnikum binosidan chiqarib olishning qulay usuli edi. Konsert yakunida kolxozchilar do'stlik belgisi sifatida koloniyachilarni kechki ovqatga chaqirishi ko'zda tutilgandi.

Kuzminlar, boshqa bolalar kabi, bu safar hech narsadan xabardor emasdilar. Hattoki ziyrak Sashka ham beparvo edi, uni faqat qachon sahnaga chiqishi qiziqtirardi.

Ikkalasi sahna ortidagi yo'lakka o'xshash tor xonada o'ralashib yurishar, tarbiyachi Yevgeniya Vasilyevna esa ro'yxat bilan navbatdagi ishtirok etuvchilarni e'lon qilardi.

– Kashiraliklar... Tezroq! Tezroq! Lyubersiliklar, tayyormisiz? Lyublinoliklar...

– Biz-chi? Qachon galimiz keladi? – deya tarbiyachiga yaqinlashishdi Kuzminchalar.

– Familiyangiz?

– Kuzminlar!

– Ikkalangiz hammi?

– Ikkalamiz ham!

– Ha... – dedi tarbiyachi Yevgeniya Vasilyevna. – Demak, oilaviy duet? Kutib turinglar.

Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi va javob berishmadi. Umuman olganda, Yevgeniya Vasilyevna – Yevgesha bilan ular avval uchrashishgan, bu uchrashuvni u unutgandi chog'i. Bir kuni Regina Petrovnanikiga kelganlarida uch kishi choy ichib o'tiribdi – uning yonida Yevgesha va direktor ham bor edi. O'g'irilib qarashsa,

Kuzminchalar ko'rsatish uchun namunaga qo'yilgandek xonaning o'rtasida qotib turishibdi, darrov ketishga noqulay.

Regina Petrovna kulib yubordi va ularga ko'rsatib, mening do'stlarim, bir-biridan farqlab bo'lmaydi va ularni Kuzminchalar deb chaqirishadi, deydi. Alohida eslab qolish shart emas, baribir chalg'itishadi. – Chalg'itasizlar-ku? – so'radi u aka-ukalardan. Ular bosh chayqashdi. Hamma chin dildan kulib yubordi, Regina Petrovna ham kuldi, biroq boshqalarga o'xshab chin dildan emas, qadrdonchasiga.

Lekin Kuzminchalar o'zlarini tanitib o'tirishmadi. Faqat sahnaga chiqish haqida unutishmasa bo'lgani.

Bu paytda bir necha kishi, jumladan zavod texnologi, direktor va mina izlagichli askar texnikum hovlisini tintib-titkilashardi. Temir parchalari, qandaydir eski mashinalarning detallari uchrardi, lekin izlagan narsalari hech qayerda yo'q edi.

Kimdir katta yoshli bolalarning shundoq ham ag'dar-to'ntar qilingan yotoqxonasiga qaytishni taklif qildi.

Bir necha marta u burchakdan bu burchakka o'tishdi – natijasiz. Ketishga chog'lanishdi, ammo askarning quloqchinlari oz miqdorda metallning mavjudligini bildirib pishillab ketdi.

Askar o'zining uzun tutqichli «kastrulkasi» bilan xona bo'ylab yurdi, keyin quloqchinlarini yechib olis burchakka ko'rsatdi.

Misrang olib kelishdi, qalin pol taxtasini yorishga tushishdi. Pol osongina bas kelmasdi.

Direktor ushbu holatni shubha bilan tomosha qilardi, u soatiga qarab, askardan so'radi:

– Adashmayapsizmi? – Va boshqalarga yuzlanib: – Axir nimalar bo'layotgani noma'lum-ku! Ular qanday qilib bu yerga bankalarini yashirishlari mumkin! Ularning asbob-anjomlari bo'lmasa! – dedi.

– Mayli, – qo'shildi texnolog va temir ko'zoynagini to'g'rilab qo'ydi. – Bu oxirgisi. Topmasak, tugatamiz. Demak, sening azamatlaring bizdan uddaburonroq bo'lib chiqadi!

– Yoki rostgo'yroq! – dedi direktor. – Ular hech narsani o'g'irlashmagan!

– O'sha o'n oltitasidan tashqari...

– O'sha... – chuqur xo'rsinib, takrorladi direktor.

Bu vaqtda ramenskoyelik o'smir she'rmi ifodali o'qiyotgan edi.

...Nihoyat taxta polni ochishdi, oxirida uzun mixlarni chiyillatishdi va komissiya ko'z o'ngida o'ra, yerto'la namoyon bo'ldi. Pastda bankalarning qopqoqlari oltin shu'laday tovlanardi. Yerto'lada nechta banka bor edi: yuzta yoki mingta, darhol payqab bo'lmasdi.

Bankalar yerga uyum qilib taxlangan va har birining qopqog'iga sohibining belgisi: harf va raqam yozilgandi. Bu keyinchalik adashtirib yubormaslik uchun!

Texnolog oh-voh qilib o'raga tushdi, temir ko'zoynagini to'g'rilab qo'ydi, atrofqa qarab, bunday bo'lishi mumkinligiga hech ishonmasdi. Boshini yuqoriga, direktor turgan tomonga burib, qog'oz va qalam berishni so'radi.

– Akt tuzamiz! Bu yerda mahsulot zavoddagi omborimizdan ham ko'proqqa o'xshaydi. Kirim daftariga yozib qo'yamizmi? O'rtoq Meshkov?

Rangi quv o'chgan Pyotr Anisimovich ma'qullab portfelini ochdi va qog'oz chiqardi. So'niq ovoz bilan dedi:

– Axir nimalar bo'layotgani noma'lum-ku...

Kuzminchalar sahnaga chiqqanlarida zalda zo'rma-zo'raki jim-jitlik turardi. Aka-ukalar koloniyachilar o'tirgan oldingi qatorga qarashdi, keyin bo'shliqqa qarab kuylay boshlashdi:

*Keng dalalar ustida,
Ko'm-ko'k eman po'stida,
Ikki lochin turardi,
G'amgin suhbat qurardi.
Bu lochinlarni esa
Har bir odam bilardi...*

Albatta, qayg'uli qo'shiq, unda lochinlarning bir-biri bilan vido-lashayotgani, ulardan biri jon taslim qilayotgani, ikkinchisi esa unga egilsalar ham, bukilsalar ham yo'ldan burilmasligini aytishi haqida hikoya qilinadi.

*Bergan va'dasining ustidan chiqdi,
Muqaddas vatanin baxtiyor qildi.*

Ular yuqori notada yakunlashdi.

Sahnani tark etayotib, aka-ukalar polda o'tirgan koloniyachilar orasidan o'z joyiga direktor Pyotr Anisimovich ko'kragiga portfelini

qisganicha o'tib borardi. Uning yuzida, buni payqash qiyin emasdi, shunchaki qayg'u aks etmagan, u qandaydir ezilgan edi.

U og'ir xo'rsinib, stuliga o'tirdi va konsert yakuniga yetayotganini bilmay eshitishga tayyorlandi.

– Ko'zboyloqchilik va manipulatsiya¹lar! – sahnadan turib e'lon qildi Yevgeniya Vasilyevna va qo'lida siqilgan ro'yxatni silkitib, markazga Mitkani chaqirdi.

Mityok sharqlik sehrgarlar kabi boshini qo'shimcha binodan topib olgan quloqchinlar bilan o'rab olgandi, lekin koloniyachilar uni tanib qolishdi va darhol qiqirlab kula boshlashdi:

– Bu Mityok-ku! Mityok! – Mityok o'zini hech narsani eshitmayotgandek ko'rsatdi va umuman, o'zidan qandaydir afsungarni yasab olgandi. U qo'llarini yuqoriga ko'tarib, havoda aylantirdi, kaftida olma paydo bo'lib qoldi. Mityok olmani tishladi, birinchi qatordagi koloniyachilar esa yoqa ushlashdi:

– Buni qarang-a! Jem bankasini topa olasanmi? – Bu so'zlarni eshitgan direktor sapchib tushib, qo'rqib atrofiga qaradi.

Mityok ishtiyoq bilan olmani yeb tugatdi, yana qo'llarini havoga ko'tarib, barmoqlarini qimirlatdi va qo'lida sexda bankalarni bekituvchi tillarang qopqoq paydo bo'ldi. Keyin qopqoqlar ko'payib ketdi va sahnaga to'kildi, ikkitasi esa zalga dumalab ketdi.

– Zavodda o'g'irlagan... – kimdir qattiq gapirdi, unga tshsh deyishdi.

– Ko'rishga xalaqit berma!

– Eng asosiy shahna ko'rinishi! – ogohlantirdi Mityok va zalga qaradi. – Jalda o'tirganlarning biridan havo orqali bir narsasini olib qo'yaman...

Zal jonlanib, cho'ntaklarini tekshira boshladi. Direktor junjikib Mitkaga xavotirlanib qaradi. Balki u hozir Mitkaga sahnaga chiqishga ruxsat berganidan afsuslanayotgan bo'lsa kerak.

Mityok parvosizlarcha zalga ko'z yugurtirdi, direktorni topdi va uning portfeliga e'tiborini jamladi, hatto unga qo'lini cho'zdi.

Pyotr Anisimovich portfelini bag'riga qattiq bosdi. Mityok donolarcha jilmayib qo'ydi. Uning qo'lida qog'oz paydo bo'ldi.

¹ Manipulatsiya – qo'lida murakkab va nozik harakatlar.

– Mana! – baqirdi u va qog‘ozni havoda aylantirdi. – Bu portfel-dan.

– Isbotla! – baqirdi zal, direktor esa portfeliga ko‘z qirini tashla-di. U mustahkam yopilgandi.

– Ruxshat bershangij, ishbotlasham? – so‘radi Mityok direktor-dan.

– Ruxsat, ruxsat, – horg‘in ovoz bilan qo‘l siltadi direktor, qo‘lidan portfelini tushirmay.

– O‘qiyman, – dedi Mityok va qog‘ozga tikildi. – Bugun, shak-kijinchi oktabrda koloniyada, xushushan, katta guruh bolalarining yotoqxonashida tintuv o‘tkajildi... Yotoqxonaning pollari ochildi va maxfiy joy aniqlandi, u yerda esha...

– To‘xtang! – qichqirib yubordi Pyotr Anisimovich va hattoki hayajondan sal turganday bo‘ldi. – Axir bu mening hujjatim-ku!

– O‘qi! O‘qi, afshungar! – baqirdi zal.

– ...maxfiy joy aniqlandi, – takrorladi Mitka aniq-ravon, – u yerda esha javodda ishlab chiqarilgan besh yujta konshervalangan olxo‘ri jemi...

– Qog‘ozimni qaytarib ber, – so‘radi direktor. – Hozir hammasini tushuntiraman...

Biroq koloniyachilar chiqish eshigi tomon yo‘l olishdi, ehtimol xazinalarining bir qismini qutqarib qolishga umid qilishgandir. Bu-ning ustiga, bu qanday do‘stlik kechasi bo‘lsin, orqangdan tintuv qi-lishayotgan bo‘lsalar!

Kolxozchilar ham o‘zaro kulishib o‘rinlaridan tura boshlashdi. Mana sizga ko‘zboyloqchilar, qo‘shnilardan do‘stlik munosabati bilan besh yuzta bankani o‘marib ketishdi va hattoki rahmat deyishmadi.

Shovqin va stullarning qarsillashi orasidan orqa qatordagi ovoz-ni darrov payqashning iloji bo‘lmadi: «Sekinroq! Hoy, sekinroq!» Odamlar ovoz tomonga qayrilib qarab, tushunmay jimib qolishdi: ni-maga so‘yilayotgan odamga o‘xshab baqiradi, balki uni ham shipirib ketishgandir?

Pastlab borayotgan jimjitlikda, shundoq yaqinginada tuyuq dupu-ri eshitildi, otlarning kishnashi va hayqiriqlar eshitildi. Keyin shift taraqlab tushgandek bo‘ldi, devorlar titrab, suvoq ko‘chib tushdi. Butun gumbaz tushib ketayotgandek taassurot uyg‘ondi. Odamlar g‘ayriixtiyoriy ravishda engashishdi, ba‘zilar esa polga yotib olishdi.

Atrof sukunatga cho'mdi. Hamma quloq solib, tepaga qarab kurtardi. Biroq hech narsa ro'y bermasdi. Shunda odamlar o'zlariga kelib atrofga alanglab qimirlay boshlashdi. Birdan tiqilinchsiz, baqiriq-chaqiriq qilmay, umuman gaplashmay eshik tomonga harakatlanishdi va koloniyachilarni nim qorong'i klubda qoldirib g'oyib bo'lishdi.

– Yangi do'stlar aynib qolishdi-ku?! – dedi kimdir sukunatda bezbetlik bilan. Shu payt Pyotr Anisimovichga jon kirdi.

– Hamma koloniyachilar klubda qolsin! – baqirdi u eshikka qarab. – Uyushqoqlik bilan chiqamiz, qachonki... Qachonki... Qachonki...

– «Portfelcha»ning qo'rquvdan plastinkasi aylanmay qoldi! – shivirladi Sashka.

Kolka bosh silkidi. U ham eshikka qarardi. Ko'chadan kimdir baqirib kirdi, hamma cho'chib tushdi.

– Ular mashinani portlatib yuborishdi! Unda bizning Vera o'tirgandi! Uy ham yonyapti!

– Odamlar-chi? – so'radi direktor xirillab. U qaysi odamlarni nazarda tutayotgani noma'lum edi. Shu yerda bo'lib qochib ketganlar-nimi yoki... anavilarnimi...

– Xo'sh, u yoqda kimdir borini? – direktor chinqirib yubordi.

Koloniyachi mashina va Vera haqidagi gapini qaytardi... Yonayotgan dom haqida ham eslab o'tdi.

Direktor sekingina eshikka yaqinlashdi va tashqariga qaradi. Ko'chadan kelayotgan tovushlarga quloq solib, yana bir marta qaradi. Yo'talib, qat'iyatsiz dedi:

– Demak... Tashqariga... chiqamiz. Axir nimalar bo'layotgani noma'lum-ku...

Koloniyachilar chiqish eshigi tomon intilishdi, lekin hech kim oldinga shoshilmasdi.

Ko'cha kimsasiz, qorong'i, uylarda birorta ham derazasida chiroq ko'rinmasdi. Balki uylarni tark etishga ulgurishgandir?

Klub orqasidagi maydonda koloniyachilarni zavodga tashigan o'sha «Studebeker» tutab turardi. Bolalar uni payqab olovga termilishdi. Ular ayni damda Vera haqida o'ylayotgan bo'lsalar kerak.

Direktor to'xtamasdan, yonayotgan mashinani sezmagandek bo'lib oldinga qadam tashladi, hamma uning orqasidan yurib ket-

di. Uzoqroq joyda, daraxtlar orqasida pushtirang alanga pirpirardi. Yaqinlashganlarida uy yonayotgani ko'rindi.

Kolka seskanib ketib dedi:

– Bu axir Ilyaning uyi-ku! – Sashka esa so'radi:

– Ilya ichida qoldi deb o'ylaysanmi?

– Qayoqdan bilay.

– Qochib ketgan bo'lsa kerak... Yoki... Yo'q? – Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi. Yong'inga tikilib turgan Sashkaning ko'zlarida qizil olov raqs tushardi.

Direktor o'girilib qaradi, jazavaga tushib baqirdi:

– Hech kim... hech qayerga... yaqinlashmasin! Faqat men bilan! Tushunarlimi?

Uning shunday qattiq va shunday ayollarcha baqirganidan bolalar g'uj bo'lib butunlay jimib qolishdi.

Manzara quyidagicha edi. Direktor portfelini qalqon qilib oldinda ketardi.

Uning qadam tashlashi jur'atsiz emas, qandaydir notekis, siltangan, xuddi yurishni esidan chiqarib qo'ygandek edi. U bolalar orqasidan tiralib kelishayotganini sezardi. Ularga ham mana shunday, uning orqasidan yurish xavfsizdek tuyulardi.

Xudoga shukur, ulardan hech biri bu vaqtda uning yuzini ko'rmasdi.

Buning ustiga quyuq qorong'ilik, ayniqsa, yorug' olovdan so'ng zim-ziyo zulmat atrofni egallagandi!

Biz birlashib indamas zichlik sari borardik. Qop-qora tunga odatlanmagan ko'zlarimiz o'zining to'r pardasida cho'g'ning qizil shafaqlarini saqlardi. Qorong'ilikning hamma tomonidan olovning tili chiqib turgandek ko'rinishi mumkin edi. Poyabzallarimiz bilan tovush chiqarmaslik maqsadida sekin qadam bosardik. Nafas chiqarmasdik, yo'talmaslikka, aksirmaslikka urinardik.

Orqadagilar tez-tez alanglab o'rtaroqqa suqulib olishga harakat qilishardi, ularga bu xavfsizroqdek tuyulardi. Atrofdagi hamma narsa bizga tahdid qilayotgandek edi: tun ham, og'ir, komiga tortuvchi qorong'ilik ham, yo'lning har ikki tomonidagi yengil shabadadan qar-sillovchi, o'tib bo'lmaydigan jo'xorizor ham.

Bizga tahdid solayotgan xavf haqida nimani bilganmiz? Hech narsani, biz uni tushunmaganmiz ham!

Koloniya-dagi baxtsiz yong'inga o'xshab faqat tasavvur qilish mumkin bo'lgan qandaydir ishlar atrofidagi shivir-shivirlar-u maxfiyliklar...

Ammo biz ishonuvchan, beg'am edik, biz hali o'lishimiz mumkinligini anglamasdik, hatto bizga tushunarsiz bo'lgan xavf ham biz uchun o'yindek tuyulardi.

Urush bizni hayot uchun kurashga o'rgatdi, biroq u bizni o'limni kutishga mutlaqo ko'niktirolmadi.

Keyinroq, kim omon qolsa, balog'atga yetib hammasini qaytadan boshidan kechiradi: otlarning kishnashi, begona bo'g'iq ovozlari, portlashlar, bo'm-bo'sh qishloqning qoq markazida yonayotgan mashina va qorong'ida daladan yurib o'tish...

Biz halok bo'lishimiz mumkinligidan qo'rqqmasdik. Alla-qanday mexanik maxluq burchakka taqab qo'yib, yorug'lik yo'lagidan qo'yib yubormayotgan hayvon shunday qo'rqadi! Biz, mitti hayvonchalar singari ushbu tunga, ushbu makkajo'xori dalasiga, ushbu portlash va yong'inlarga taqalganimizni terimiz bilan sezardik...

O'sha, qirq to'rtinchi yilning kuzgi voqealaridan qirq yil o'tib yozilgan ushbu so'zlar... Moskvadagi shinam xonadonda o'tirib, bizdan ko'ra ko'proq bo'lgan o'sha najotsiz qo'rquv hissini tasvirlab bera olish mumkinmi! U har birimizning vahimamizga ko'paytirilgandek edi, biz birga edik, lekin hammaning o'z, shaxsiy, tomoqni bo'g'uvchi vahimasi bor edi!

Men faqat qo'rquvdan tizzam bukilganini, biroq na yura olganimizni, na yugura olganimizni, bu yugurish bizga najot bo'lib tuyulganini eslab qoldim.

Qorin va ko'krakda sovuqlik bor edi, qayergadir ketish, g'oyib bo'lish, biroq yolg'iz emas, hamma bilan yo'q bo'lib ketish istagi mavjud edi bizda! Va albatta, biz qichqirish chegarasiga yetib kelgandik! Biz jim turardik, lekin bordi-yu oramizdan kimdir baqirganida, uvillaganida hammamiz baqirib uvillagan bo'lardik va shunda biz aniq aqldan ozardik...

Har holda, halokatli tundan o'tgan ushbu yo'l o'zimiz tomonimizdan anglanmagan hayotga intilish edi. Biz qornimiz bilan, ko'ksimiz bilan, oyoqlarimiz, qo'llarimiz bilan yashashni istardik...

Oramizdagilardan hammaning ham omadi chopmadi.

O'sha kuni tunda Kuzminchalar qochishga qaror qilishdi.

Direktor Pyotr Anisimovichdan tortib kichik sinflardagi oxirgi shoqolgacha butun koloniyani egallagan vahima egizaklarimizni ham chetlab o'tmadi.

Nima sababdandir kechqurun qishloqning o'rtasida yangragan portlashning o'zi yoki «Studebeker»ning gulxan bo'lib yonishi emas (biroq, bir tomondan, temirning qanday qilib yonishi mumkinligi ham tushunarsiz edi), balki Ilyaning olov bilan yonib kulga aylantirilgan uyi ko'proq hayron qoldirdi.

Aynan Ilya xavf haqida birinchi bo'lib ogohlantirgandi!

Ogohlantirdi-yu, tentakning o'zi birinchi bo'lib qo'lga tushdi! Taqdirni aldab bo'lmas ekan. Ustomonlik qildi va yonib ketdi. Shunday fikr kelgan bo'lsa-da, Ilyaga achinishdan o'zga iloj yo'q edi. Qalloblik qilgan Ilya emas, Voronejda olibsotlarlar hayqirib aka-ukalarning orqasidan quvlashganida erkakning yuziga bayroqchalari bilan niqtagan Ilya dastlab xayolga kelardi. Buning ustiga bu yerda, begona yerda aynan Ilya birinchi bo'lib ularni o'zining uyiga taklif qilgandi... Kuzatayotib esa, qochinglar, aks holda ko'ngilsizlik bo'ladi, deb ogohlantirgandi!

Gapirish oson, biroq qayerga qochishsin? Endi esa, ularda jemli bankalar zaxirasi to'plangan bir vaqtda vaziyat biroz o'zgardi!

Bundan buyon har qanday provodnik bir banka jem uchun va-gonga qabul qiladi! G'ildirakda, itxonada emas, tokchada barinlar-dek ketishadi!

Aka-ukalar, bir-birlariga qaramasalar ham, umumiy narsani bilishar, his etishardi: atrofda hamma narsa yonyapti, olov koloniyachilarga ham yaqin kelganini, qizdira boshlaganini sezmagani odam ko'r va kar bo'ladi...

O'sha kuni tunda hech kim uxlamadi, shu jumladan aka-ukalar ham.

Katta guruh bolalari o'zlarining ag'dar-to'ntar qilingan yotoqxonalari-ga joylashishdi. Chuqur, sovuq yerto'laga g'amgin boqishardi, u yerdan kalamush hidi kelardi.

Bu manzaradan yurak muzlardi. Kech kuzda, qahraton qish arafasida non uyasi xonavayron qilingan dalasichqon shunday muzlasa kerak.

Kuzminlar yerto'la haqida bilishmagan, biroq payqashgandi. Bunday katta banka oqimi uchun katta joy kerakligini tushunishardi. Biroq ular bankalarni bu tarzda saqlashni ma'qul deb bilishmasdi.

Ana, maxfiy tashkilot a'zolari dushman frontining orqasida uch-tadan bo'lib joylashishgandi. Bunga sabab kamroq ko'zga tashlanish uchun edi.

Shoqollar esa to'da bo'lib o'g'irlab, to'da bo'lib berkitishdi va oxir-oqibat to'da bo'lib qo'lga tushishdi – hammasini bir zumda qo'ldan boy berishdi!

Lekin aka-ukalar bu kecha begonalarning emas, o'zlarining zaxiralari haqida qayg'urishardi.

Shunday qaror qilindi: g'ala-g'ovur bosilganda o'z boyliklarini qoplarga solish va orqaga ortib stansiyaga piyoda jo'nash... Poyezdga! Va qochish, qochish, to'xtamay qochish! Yong'in yorug'ligida ushbu tunda ular uchun hammasi ravshan edi.

Yarim kechada, koloniya nihoyat o'zining betinch uyqusiga ketgan vaqtda aka-ukalar uyning orqasiga ship etib o'tib, tikanak tuy-nukka kirishdi, bu tuynuk bugun nima sababdandir ayniqsa noqulay edi. Aka-ukalar daryochaning qirg'og'iga o'tishdi.

Yaqinlashib kelayotganlarida, tuplarning orasidan lip-lip etayotgan faralarning yorug'ligini ko'rishdi, erkaklarning ovozi eshitildi.

Ikkalasining yuraklari tez-tez ura boshladi, tovonlarigacha qaltiroq yugurdi! Ularning zaxiralari yetib borishdi, uni titkilashmoqda, degan xulosaga kelishdi. Yotoqxonadagi taxtalarning ostidan topib olishgan bo'lsa, qirg'oqdan topa olish undan ham oson!

Ammo yaqinlashib, g'amlagan narsalariga tegishmaganini tushunishdi.

Aytishadi-ku: kim nimani, bitliqi esa hammomni orzu qilarkan deb!

Shunchaki askarlar mototsikllarida sohil bo'yida dam olish uchun kelishgandi. Gulxan yoqishmadi, balki bir-biriga faralarini yoritib, o'z mashinalari atrofida tipirchilashgancha so'kinishardi. Benzinning o'tkir hidi uzoqdan dimoqqa urildi.

Suhbat esa qandaydir dara haqida ketib, u yerda ularni qurollangan o'g'rilar izma-iz ta'qib qilib borishgan va yo'llarini toshlarga to'ldirgancha tog'dan o'qqa tutishgan ekan.

Jangarilar daradan chiqib, kajavali mototsiklni yaroqsiz holga keltirishdi, biroq ulardan birining boshi va yelkasini kontuziyaladi.

Kuzminchalar jarohat olgan jangchini ham ko'rishdi. Unga birinchi yordam ko'rsatishayotgandi, u esa ingrar, so'kinardi, shunday chinqirdiki, egizaklar sapchib tushishdi:

– Bosmachilar, muttahamlar! Ularni otish kerak! Yuz yil qaroqchi edilar, shundayligicha qolishdi! Ular boshqa tilni tushunishmaydi, hammasini otish kerak! Butun Kavkazni tozalash kerak! Vatan xoinlari! Gitlarga sotilishdi!

Jarohatlangan odamning yarasini bog'lab qo'yishdi va u tinchidi, jangchilar esa oxiri ko'rinib qolgan urush haqida gaplashishni boshlashdi! Ularga omad kulib boqmagani haqida suhbatlashishdi – do'stlari Yevropani qamal qilishyapti, ular esa daradagi o'lik uylarga hujum qilishyapti... Kampir va chaqaloqlar bilan urushishyapti!

Jangchilar gaplashib bo'lib, yotishga taraddudlana boshlashdi. Aka-ukalar ketolmasliklarini tushunishdi. Bugun aniq keta olishmaydi. Bu esa qochish boshqa kunga qoldirilganini anglatardi. Bankalarsiz qochish – bo'lmaydigan ish. Qayerga qochishmasin, ularni zaxiralarisiz ochlik, tilanchilik, o'g'rilik va oxir-oqibat – militsiya kutyapti...

Buning ustiga kim ham o'zining bunday boyligini tashlab ketadi?

Kolka shunday dedi ham: yotib qolsam-da, o'lib qolsam-da, o'zimning boyligimdan bir qadam jilmayman! Qirg'oqda, zaxiraning oldida jon taslim qilaman, bunday boylikni tashlab ketgandan ko'ra!

Xullas, tongni kutishga qaror qilishdi. Kechasi yotib o'yla, ertalab turib so'yla, deb bekorga aytishmaydi.

Tong esa otib borardi va hozircha ko'rinmay turgan tog'lardan g'ira-shira yengil soflik hamda makkajo'xori dalasidan esayotgan shabada bilan birga kirib kelardi.

Ertalab nonushta paytida shifoxonadan tarbiyachi Regina Petrovna qaytib kelgani ma'lum bo'ldi.

Kuzminchalar bu yangilikni oshxonada eshitishdi va bir-biriga qarab qo'yishdi. Ikkalasi ham omad kuldi, deb o'ylashdi.

Tezda zaxiralariga, daryo qirg'og'iga yugurib borib kelishdi. Jangchilar ketishgan edi, maysaning ustida qonga belangan paxta, bint parchalari, sigaretalar yotardi, xolos.

Kolka tuynukka qo'lini tiqdi: butun! Zaxira joyida! Hamma bankalar besh qo'lday turibdi! Sovuqqina, silliqqina, paypaslab ko'rilganda ham og'irligi bilinadi!

Jangchilar qanday boylikning yonida xurрак otganlarini bilishganida edi!

Endi ular yana qochishni rejalashtirishgan keyingi tungacha albatta o'zlarining Regina Petrovnalarini ko'rishlari lozim edi. Qizlar uning qaytib kelganini ko'rganlarini aytishsa-da, u hech qayerda ko'rinmasdi. Bolalar derazadan har qancha mo'ralashga urinishmasin, oshxona orqasidagi xonasida ham ko'rinmadi.

Kun bo'yi u yoqdan bu yoqqa yugurib holdan toyishdi. Hammasi behuda. Kechqurun Kolka qochishlari kerakligini va kutishga boshqa madori yo'qligini aytganda Sashka birdan Regina Petrovnasiz, uni ko'rmasdan bir qadam ham jilmasligini aytdi. Kolka zaxirasiz o'lishi mumkin, u, Sashka esa tarbiyachini ko'rmasdan hech qayoqqa ketmaydi! Regina Petrovna va uning erkakchalarisiz ketmaydi! Aks holda aka-ukalar o'zlarini qutqarib, Regina Petrovna kabi insonni bu yerda halokatga tashlab ketayotgandek bo'lardi!

Ular birgalikda qochishlari kerak, mana nimani tushundi u!

Va qochish uchun yana bir kun boy berildi.

Birinchi vahima hissi, barcha koloniyachilar boshlaridan o'tkazgan o'sha qalb sarosimasi tuyg'usi bartaraf bo'ldi, qo'rquv, najotsiz qo'rquv eriy boshladi. Hattoki haydovchi Veraning uchinchi kuni dafn etilishi ham aka-ukalarning asablarini tarang qilmadi.

Ertalabdan katta sinf tarbiyalanuvchilarini olib ketish uchun zavoddan uvadasi chiqqan, aravaga o'xshab zirillagan tovush chiqaruvchi ZIS yetib keldi.

Undagi skameykalarda o'tirib bortga suyanib bo'lmasdi, ular kuzovga ko'ndalang joylashgan bo'lib, qotirilmagani uchun silkinishardi.

Koloniyachilar uchun hamma narsa noodatiy tuyuldi. Qovog'i osilgan, indamas qariya haydovchi va mana bu noqulay skameykalalar, hattoki ehtiyotkorlik bilan, xuddi oyna ortilgandek harakatlanish – epchil Vera bolalarni umuman boshqachasiga olib ketardi!

Haydovchi Veraga bolalar achinishardi: u shumtakalarga deyarli qarddon edi. Har holda, begona emas, boisi koloniyachilarning ahvolini tushunar va hech qachon sotqinlik qilmagandi! Mashina ham

haydardi! Chiroyli qiz edi! Quvnoq, sho‘x! Go‘yo koloniyada bir asr yashagandek!

Qiziq tomoni: bolalardan hech kim dafn marosimiga borishni istamadi, nima uchun borishni xohlashmayotganini tushuntirishmadi.

Hammani zavod oshxonasida osh-non kutayotgani va hatto-ki go‘st bo‘lishini e‘lon qilishgandagina bolalar rozi bo‘lishdi. Go‘stni, aytish joizki, ularga hali bir marta ham berishmagandi. Kuzminchalar ham boshqalarga qo‘shilib yo‘lga chiqishdi.

Ularning, tushlik berilishini inobatga olmaganda, o‘z sabablari bor edi: agar imkon tug‘ilsa, orqa hovliga o‘tish – yana qachon bunga imkon bo‘ladi – va ushbu g‘ala-g‘ovur boshlanguncha yashiklar orqasiga berkitilgan bir nechta banka omon qolganini tekshirib qo‘yish.

Bankalarni ham o‘zlari bilan olishning iloji bo‘lganida! Qochishdan oldin!

Janoza marosimi, kutilganidek, to‘ppa-to‘g‘ri zavod hovlisida bo‘lib o‘tdi.

Olomon orasidan ko‘rinmagan tobutning oldida bir gala xotinlar turib, oppoq dastro‘molchalarini tutganча yig‘lashardi.

Koloniyachilarni yo‘lakdan ko‘rib qolishdi, o‘girila boshlashdi, ularni oldinga o‘tkazishgancha orani ochishdi.

Kuzminchalar, xohlamasalar ham, to‘ppa-to‘g‘ri silliq, g‘adirbudur taxtalardan qilingan va hech narsa bilan bo‘yalmagan tobutning oldiga borib qolishdi. Bu taxtalar aka-ukalarning bo‘ylari baravar kelardi.

Qahramonlarimiz oyoq uchida turib, qiziqish va qandaydir qo‘rquv bilan tikilib qolgan tobutda go‘zal ayol labini qisgancha uxlayotgandek yotganini ko‘rishdi; uning malla, tovlanuvchi sochlari xotirjam begona yuzni qurshab olgandek edi.

Bu ayol kepka va erkaklar kiyimidagi dadil haydovchiga o‘xshamasdi.

Bu boshqa, begona Vera edi, aka-ukalar darhol shunday tushunishdi va nigohlarini chetga olishdi. Boshlarini quyi solib, ular marhuma yotgan stolning oyoqlariga qaray boshlashdi.

Temir qoplangan, hozir esa choyshab yotqizilgan stol ularga sexda ishlagan paytlaridan tanish edi. Uning ustida, odatda, banka yopuvchining orqasidan o‘marilgan jemli bankalar turardi.

Aka-ukalar marosim tezroq tugashini va sekingina orqa hovliga, bankalar yashiringan joyga chiqib ketishni istashardi.

Ko'z yoshlardan, motam qo'shiqlaridan, xo'rsinishlardan, burun qoqishlardan, bu olomondan ularning boshi og'riy boshladi. Oxirgi marta ularni bozorda militsiya tutib olganida boshlari shunday og'rigandi.

Nihoyat xalat kiygan qariya texnolog chiqdi va hammaga Vera haqida gapira boshladi, biroq bu payt uning nigohi marhumaning yuziga qaratilgandi. U Vera yosh qiz ekanligini, endi o'n to'qqizga to'lganini, lekin qisqa hayoti davomida ko'p narsalarga guvoh bo'lganini, asosiysi esa, u fashistlar istilosini boshidan o'tkazganini aytardi. Fashistlar aholini qullikka olib ketishgan, biroq Veraga bas kela olishmagan. U yo'lda uch marta qochib ketgan va uch marta uyiga qaytib borgan. Oxirgi marta fashistlar uni shkafdan topib olishgan edi.

Egizaklar haydovchi Veraning shkafda o'tirganini tasavvur qilib kulgilari qistadi. Lekin boshqalar texnologga qarab uni jiddiy tinglardi.

Zavodda Vera erkaklarga xos og'ir haydovchilik ishini bajarishiga to'g'ri kelardi: u stansiyaga mahsulotni olib borib bolalarni ishga olib kelardi. Chol shu asnoda barmog'i bilan Kuzminchalarga ko'rsatdi va ular uyali ketishdi.

– Uxla, qizim, biz seni unutmaymiz, – dedi chol va boshini egdi. Uning kalta oq sochlari quyosh nurida yaltirab ketdi. Ayollar hiq-hiq yig'lay boshlashdi, baqiroq Zina xola esa butun hovliga eshittirib gapirib yig'lashga tushdi. Uning yig'isidan ular bir qishloqdan ekanligini, ularni bu yerga birga olib kelishganini va zavodga biriktirishganini anglash mumkin edi...

Yahudiy yukchilar tiqilib-suqilib tobutning oldiga kelishdi. Toshdek qotgan chehralari bilan, xuddi changni ko'targandek, Veraning tobutini ko'tarishdi va koloniyachilar kelgan yuk mashinasiga ortishdi.

Orkestr chaldi: ikkita truba, likopcha va barabanning yangroq zarbalaridan aka-ukalarning ko'kraklarida nimadir og'riganday bo'ldi.

Mashina bortiga, tobut qo'yilgan stolning uzunasiga bir nechta ayol va yig'i-sig'i qilayotgan Zina xolani mindirishdi-yu olib ketishdi.

Hamma darvozadan chiqa boshladi.

Qariya texnolog hovlining o'rtasida turib, koloniyachilarga qarab gapirib-gapirib qo'yardi:

– Boringlar... Boringlar! Bugun ishlamaymiz!

Ularga hech qanaqa go'sht berishmadi. Ularga yo'lakdan javob tegdi! Aka-ukalar jo'nab qolishdi.

Yo'lda ko'rganlarini muhokama qilib ketishdi. Ikkalasi ham Vera o'ziga o'xshamasligini va qarib qolganini ta'kidlashardi. O'n to'qqiz – bu deyarli qarilik, deb hisoblashdi Kuzminchalar. Mana, ular endi yosh bola emaslar, bir-birining yoshlarini qo'shishsa, Veranikidan ham oshib ketar ekan.

Shuningdek Kolka orqasidagi pichir-pichirdan Vera mashinada o'tirib koloniyachilarni kechki ovqatga olib ketish uchun kechani tugashini kutib o'tirganini eshitdi... U chavandozlar paydo bo'lganini sezmagandi. Ular Verani ko'rmagan bo'lsalar kerak, faqat mashinani ko'rishgan. Biroq ular granata tashlaganlarida, Vera yonayotgan mashinadan chiqishga ulgurgan va bir necha metr yugurib yiqilgan edi. Keyin esa granata parchasi to'g'ri yurakka tekkani ma'lum bo'ldi... Unday bo'lsa, qanday qilib Vera teshilgan yuragi bilan yana biroz yugurib, so'ng yiqilishi mumkin edi?

Sashka o'ylanib qolib javob bermasdi. U Kolkaga faqat: «Ishonmayman», dedi. Ping'illadi va jimib qoldi.

– Nega ishonmaysan? – so'radi Kolka. – Yuragini teshib o'tganigami? Ishonmaysan, shundaymi? – Sashka indamasdi.

– Sen ular yurak haqida to'qishyapti deb o'ylayapsan... – Sashka hamon lom-mim demasdi.

– Yoki anavilar... Bosqinchilar haqida?

Dala bo'ylab yurib, yo'lning bir qismini kesib o'tib Sunja qirg'og'igacha yetib borishdi va maysaga o'tirishdi.

Oqish-zangori osmonda jonsiz, sarobga o'xshagan tog'lar yarqirardi. Ular bordek tuyulsa-da, lekin ularning haqiqiyiligini his qilishning mutlaqo iloji yo'q edi.

– Men hech narsaga ishonmayman, – dedi dabdurustdan Sashka. Keyin esa biroz jim turib qo'shib qo'ydi: – Menga ba'zi narsalar tushunarsiz-da. Vera bor edi, bizni olib borardi, nimalarnidir baqirardi... Keyin esa to'satdan g'oyib bo'ldi. U qayoqqa ketdi?

Kolka hayron bo'lib e'tiroz bildirdi:

– Qayoqqa bo'lardi... Ko'mishdi!

– Men bu haqda gapirmayapman.

Sashka ko'zlarini qisdi va olisga qaradi. Mayda toshlar ustidan sarg'ish suv dirillab oqar, uning ustida kapalaklar uchib yurardi.

– Misol uchun, ular... – Va Sashka tog'larga ko'rsatdi. – Ular ham g'oyib bo'lishadi, paydo bo'lishadi, lekin ular har doim bor. Shunaqami?

– Xo'sh...

– Ana... Jilg'a... U ham har doim bor...

– Xo'sh?

– Nega unda odamlar qayta paydo bo'lmaydi?

– Sen Vera haqida gapiryapsanmi? – Sashka istar-istamay aftini burishtirdi:

– Hamma haqida gapiryapman. Sen bilan men haqimizda ham. Tobutning oldida turganingda qo'rqmadingmi?

– Yo'q, – dedi Kolka. – Qo'rqmadim. Biroq... noqulay bo'ldi.

U boshqa so'z topa olmasdi. Faqat junjikib qo'ydi.

– O'shanda – tunda-chi? Daladan yurib o'tganimizda? Qo'rqmadingmi?

– Unda qo'rqqandim, – tan oldi Kolka.

– Men ham qo'rqqanman. Faqat nimadan qo'rqqanimni bilmayman. Shunchaki qo'rqdim, tamom, vassalom.

– Haligilardan qo'rqmadingmi?

– Yo'q, – dedi Sashka va xo'rsindi. – Men ulardan qo'rqmadim... Men hamma narsadan qo'rqdim. Portlashlardan ham, olovdan ham, makkajo'xoridan ham... Hattoki sendan ham.

– Mendan?

– Ha.

– Mendan? – qayta so'radi Kolka hayron bo'lib.

– Yo'q, sendanmas, hammadan... Sendan ham. Umuman qo'rqdim. Menga o'zim bilan o'zim qolib ketgandek tuyuldi. Tushundingmi?

Kolka tushunmadi va indamadi. Kechqurun esa ular Regina Petrovnanikiga yo'l olishdi.

Dastlab ular o'zlari bilan jem bankasini ola ketishdi. Biroq keyin qoldirishdi. Bu jem haqida koloniyada har xil gap-so'zlar bolalab yurardi. Aka-ukalar o'zlarining bankalarini ko'tarib borsa o'ng'aysizlik bo'ladi!

Kechqurun, ko'mish marosimidan keyin yetib borishdi va Regina Petrovna uyda ekanligini ko'rishdi. U oshxonaning siyqasi chiqqan sariq yo'l-yo'l paxmoq adyol bilan ajratilgan uzoq burchagiga joylashib olgan edi.

Regina Petrovna ularni ko'rib chin dildan quvondi.

– Aziz Kuzminchalarim, – dedi u bolalarni karavotga o'tqizib. – Xu iz xu? – Va bu safar sovg'a qilingan belbog'ni beliga bog'lab olgan Sashkaga ko'rsatib, so'radi: – Sen, albatta, Kolka bo'lsang kerak?

Aka-ukalar kulib yuborishdi va shunda Regina Petrovna yanglishganini tushundi.

– Mayli, men kelishim bilan kir yuvishga tushdim, yig'ilib qolibdi... Erkakchalarim qizlar bilan qolgan bo'lsalar ham, kir-chirlanib ketishibdi. Lekin, hammasini tashlayman, hammasini... Hozir choy ichamiz... Konfet bilan! Men haqiqiy konfetlarni olib keldim!

Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi va bir vaqtda bosh silkishdi. Tarbiyachi esa darhol so'radi:

– Yoki sizlarni konfet bilan hayron qoldirib bo'lmaydimi?

U ichida sovun ko'pigi bo'lgan tog'orani ko'tarib tashqariga olib chiqdi. Qaytib kirdi va bolalarning qarshisiga o'tirib so'radi:

– Jem bilan nima bo'ldi? O'rtoqlaringiz aytganidek, anchagina o'marib qo'ydingizmi? G'amlab qo'ydingizmi? To'g'ri aytyapmanmi o'zi?

– Nima qipti? – do'ng'illadi Sashka. – G'amlab qo'ydik.

Regina Petrovna kulib yubordi va uning mayin kulgisi qo'shiq yanglig' jarangladi.

Ular tarbiyachilariga razm solishga ulgurishgandi, ikkisi ham uning ozib ketganligini va ozg'in yuzida tabiiy bug'doy ranglik orasidan sarg'imtir rangparlik ko'rinib turganini payqashdi. Faqat sochlari yanada qalinlashgan, hurpaygan, soch emas, orqaga turmaklangan bo'ysunmaydigan qora yolga o'xshab qolgan edi. Ayni damda,

Kuzminchalarning ko'z o'ngida u ko'zgudagi aksiga qarab, yengilgina harakat bilan sochto'g'nag'ichini chiqarib oldi va sochlari qora sharshara bo'lib yelkasiga tushdi, yuzi esa yanada xiralashdi, ko'zlari kirtayib qoldi.

– Biroz nafas olsin, – dedi u, sochlari orqasiga yotishi uchun boshini orqaga tashlab. – Men esa choy tayyorlayman. O'shanda gaplashib olamiz.

Regina Petrovna choynak, stakanlar, taqsimchada tillaqo'ng'izlarga o'xshash konfetlar olib keldi.

– Olinglar, olinglar, – dedi va ularga yaqinroq surib qo'ydi. – Bu yostiqlar, choy bilan rohatning o'zginasi.

EGIZAKLAR bittadan konfet olishdi. Sashka darrov og'ziga solib yeb qo'ydi, Kolka esa yalab cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Xo'sh, boshimni aylantirmayotganingizni endi tushundim, – dedi Regina Petrovna va yana kulib yubordi. – Sashka – bu chindan ham Sashka. Kolkaning belbog'ini taqib olgan bo'lsa ham. Endi esa gapiringlar... Sizlar axir nimanidir gapirib bermoqchisizlar-ku?

Sashka Kolkaga qaradi va boshini silkidi.

– Qanday, azizlarim, yashadinglar? Men axir qochib ketasizlar deb qo'rqqandim! Sizlar qochib ketmoqchi edingiz-ku? Tan oling?

– Shunday, – dedi Sashka.

– Qo'rqdinglarmi? – Aka-ukalar javob berishmadi. Shundoq ham tushunarli. Regina Petrovna ularga uzoq o'ychan nigoh bilan qaradi, bolalar boshlarini quyi solishdi.

– Men ham qo'rqdim, – oddiygina dedi Regina Petrovna.

– Siz ularni... ko'rdingizmi? – Sashka tarbiyachiga tikildi.

– Ko'rdim.

– Ana! – baqirib yubordi Sashka. – Men bilgandim!

Regina Petrovna o'ziga va aka-ukalarga choy quydi. Stakanini olib deraza yoniga keldi. Shunda bolalar uning qo'li qaltirayotganini sezishdi.

– Yaxshiyamki choy topdim, – dedi u derazadan qarab. – O'shanda esa... Negadir uzoq vaqt uxlay olmadim, chirog'im yonib turgandi. Keyin esa ular tashqaridan qarashdi... Uch kishi. Ular bilan bitta bolakay ham bor edi. Deraza ochildi, men esa hech narsani tushunishga ulgurmadim. Uchalasi menga, qo'limga qarab turishibdi, men telpak bichayotgandim. Ularga qaradim... Keyin esa...



Regina Petrovna stoliga qaytib kelib o'tirdi.

– Azizlarim, do'stlarim... Nega konfetlarni yemayapsiz?

– Yeb bo'ldik, – dedi Kolka. – Keyin nima bo'ldi?

Regina Petrovna labini tishlab xayolga cho'mdi. O'ziga kelgandek aka-ukalarga qaradi.

– Ha, ha... Faqat bu haqda hech kimga, xo'pmi?

Aka-ukalar bosh irg'ashdi.

– Menga militsiyada hech kimga aytmasligimni tayinlashdi. Demak, ular qurolini mana bu yerga o'qtashdi, – u peshanasini ko'rsatdi. – Bolakay esa erkakning tirsagini tortdi, bu uning otasi bo'lsa kerak. Va miltiq yonga yotdi. Bola yana nimadir deb baqirdi va shunda erkak menga qarab ruschasiga baqirdi: «Yukol! Daf bul! Anavilar bilan...» – Va miltig'ini bolalarimga qaratdi. Men bolalarimni quchoqlab oldim... Ular esa menga o'qtalishdi, qayoqqa yursam – miltiq o'sha yoqqa... Balki ular baqirib yuborishimdan qo'rqishgandir? Men esa hovliga sakrab chiqishim bilan darrov portladi... Hamma narsa yondi... Telpagingiz ham yonib ketdi. Keyin esa hushimni yo'qotdim. Hech narsani eslolmayman. Faqat o'sha so'z: «Yukol!» Hamma yoqda kimdir orqamdan miltiq tirab turgandek tuyuladi. Hozir ham uni ko'ryapgandekman.

– Ular Verani o'ldirishdi, – dedi Kolka. – U kabinada o'tirgandi. Uning yuragini teshishdi, u esa qochib ketdi, keyin yiqildi.

– Menga esa rahm qilishdi... Nega? Men bu haqda kasalxonada tinmay o'yladim. Meni so'roqqa tutganlarida bu haqda gapirmaslikni tayinlashdi. Umuman hech narsa haqida aytmaslikni. Qurollangan o'g'rilar ekanini... Tutib olishsa ish tamom, vassalom. Faqat men... telpakka tegmaslik kerak edi deb o'ylayman.

– Nega tegmaslik kerak?

– Bilmayman. Tegmaslik kerak. Ular telpakka qarashardi... G'alati qarashardi... Xuddi men tirik narsani kesayotgandek...

– Bu yerda askarlar ham bo'lishdi, – dedi Kolka, – tutadigan askarlar.

Sashka so'radi:

– O'sha... Uchtasi – qo'rqinchlimi?

– Tushunishga ulgurmadim ham! – Regina Petrovna nima uchundir yana derazaga boqdi. – Hamma qatori odamlar. Biri oddiy kiyimda, qolgan ikkitasi esa adashmasam harbiychada... Pogonsiz. Bola

ham sizlarga o'xshaydi... Qorachadan kelgan... U menga tikilib qarardi... Otasi mo'ljalga oldi, – va u yana peshanasiga ko'rsatdi, – bola esa uni tirsagidan tortdi.

– Otlar ham bor edi?

– Ko'rmadim, – dedi Regina Petrovna. – Balki bo'lgandir.

Sashka Kolkaga qaradi va cho'ntagidan sariq gilzani oldi.

– Mana, – deb stolga qo'ydi. – Ularniki. O'sha o'q uzishdan qolgan.

Regina Petrovna qo'rqib gilzaga uzoqdan qaradi. Bolalarning ko'zlariga qarab bezovtalanib so'radi:

– Demak, sizlar qochishga... Qayoqqa?

Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi va javob berishmadi. Kolka orqaga, Moskva viloyatiga tortardi. Sashka oldinga, tog'lar bor joyga undardi. Ular o'rtani tanlashdi: birinchi poyezd qayoqqa ketsa, o'sha yoqqa yo'l olishadi.

– Halok bo'lasizlar! – birdan qizishib ketdi u. – Yaxshisi, birga ketamiz. Faqat hozir emas, hozir ilojim yo'q. O'zimni hali o'nglab olganimcha yo'q. – Derazaning oldida turib so'radi:

– Yordamchi xo'jalik haqida biror narsa eshitingizmi?

– Ha, – dedi Kolka, Sashka esa bosh chayqadi.

– Meni u yoqqa jo'natishyapti. Sog'lig'imni tiklashga. U yerda ikkita sigir, echki, buzoqlar bor emish. Men bilan ketasizmi?

– U yoqda nima qilamiz? – so'radi Sashka. Lekin u Regina Petrovna bilan qayoqqa bo'lsa ham borishga rozi edi. Bundan chiqdi, Kolka ham boradi. Keyin esa ular butunlay juftakni rostlashadi.

– Mollarni o'tlatamiz... Qaraymiz, boqamiz... Men uchun ataylab shunday dam olishni o'ylab topishdi. Lekin bir o'zim borishga qo'rqyapman!

– Uzoqmi? – so'radi yana Sashka. U umuman boshqa narsani so'ramoqchi edi, lekin shuni so'radi.

– Tog'da, lekin u tog'da... Temir yo'lning narigi tomonida, – dedi tezda Regina Petrovna, Sashka gapni nimaga burayotganini darrov payqab. – U yerda hech kim yo'q. Ular stansiyadan nariga o'tishmaydi... Hozirgacha o'tishmagan.

Ammo Kolka birinchi navbatda yashirilgan narsalari haqida o'ylardi.

– Bu yoqqa-chi? Qaytib kelamizmi?

– Bu yoqqa? Albatta. Bizning hatto shaxsiy transportimiz ham bo'ladi. Sut va boshqa narsalarni bolalarga yetkazib turamiz.

– «Studebekker»mi? – xitob qildi Sashka.

– Bu sir, – javob berdi Regina Petrovna.

Kolkani mashina emas, yashirgan narsalari ko'proq tashvishlantirardi. Zaxiralardan uzoq muddatga ayrilish – qaltis ish. Bundayda ayrilib qolishing ham hech gapmas! Bu yerda-ku u yonginangda, borib, qo'ling bilan paypaslab sanab ko'rasan va ovunasan. U yoqda esa... sen xotirjam uxlaysan, tushingda o'n bitta bankani ko'rasan, har biri tilla tangadek yaltiraydi va har biri – jannatga kirish hujjati-dek! Mina izlovchilar kelib, o'sha yerto'ladek ag'dar-to'ntar qilishsa bormi...

Kolka zaxira borasida qayg'urayotgan bir paytda Sashka erkakchalar to'g'risida tashvishlanardi.

– Erkakchalar biz bilan ketishadi, – dedi Regina Petrovna va yana takrorladi: – Bir o'zim ular bilan ketishga qo'rqaman. Hammamiz oiladek birga yashaymiz. Tushundingizmi?

Yo'q, aka-ukalar oila haqida tushunishmadi. Ular buni tushuna olmasdilar ham. Buning ustiga «oilalar» degan so'z ular uchun begona, dushmanona edi.

Ular uchun butun dunyo ham oilali va oilasiz degan tushunchalarga bo'lingan va bir-biriga zid so'zlar edi.

22

Tarbiyachidan keta turib (Kolka mushtida tejab qolingan shirin «yostiqlar»ni siqib turardi), ular tunda tortishib qolishdi. Qattiq emas, salgina.

Ikkalasi ham qochishni xohlashardi, bu borada kelishmovchilik yo'q, lekin Kolka zudlik bilan, hech qanaqa xo'jaliksiz qochishni talab qilardi! Sigir va echkilarni nima qiladi?

Sashka esa Regina Petrovnani kutib turishni taklif qilardi. Uning hozir madori yo'q, u o'zi shunday degan. Hozir qocha olmaydi. Kuch-quvvatga to'lib olsin, birga qochishadi.

Keyin, yordamchi xo'jalikdan foyda bo'lib qolishi mumkin. Zaxiralarga qo'shimcha! Ana, konserva zavodidan hech narsa kutishmagandi ham, hech bo'lmasa olxo'riga to'yib olishdan xursand edilar, biroq hammasi boshqacha tus oldi-ku!

Sashka aqlliroq, bu tushunarli. Hammasini oldindan o'lchab, chamalab qo'ydi.

Kolka xo'rsindi va istar-istamay ko'ndi.

U ham tushunardi: hech kim ularni hech qayerda kutib turgani yo'q. Poyezdlar esa ko'p. Bittasiga chiqa olmasang, ikkinchisiga ulgurasan... Kambag'alning yo'qotadigan narsasi yo'q, bir qishloq yonsa, ikkinchisiga ko'chib ketadi.

Ketishdan oldin Qayin qishlog'iga borib, Ilyaning uyini tomosha qilishdi.

Hammasi yonib kul bo'lgandi: xonalar ham, omborxonalar ham, uying atrofidagi qishloq ham. Tomorqa bo'sh edi. Ehtimol, kartoshkani qo'shnilar kovlab tashlashgandir. Balki koloniyachilar yordam berishgandir.

Chang bosgan supurgi o't orasida zanglagan g'ildirakli tanish arava dumalab yotardi. Unda Ilya bir vaqtlar o'tin tashigan.

Kolka aravaning oldiga kelib, oyog'i bilan uni tepib ko'rdi. Arava birmuncha siljidi. Kolka yana bir marta tepdi... Keyin engashib, arqonni oldi-da, o'zi bilan tortib ketdi.

– Tashla! – dedi Sashka. – Nima keragi bor senga?

– Kerak bo'lib qolsa-chi?

– Nimaga kerak bo'lishi mumkin?

Kolka javob bermadi. Biroq aravani Sunjagacha itarib olib bordi va tuplarning orasiga yashirib qo'ydi.

– Nima, u senga xalaqit beryaptimi? – so'radi u Sashkadan.

– Menga xalaqit bermayapti! – jerkib javob berdi u.

– Menga ham xalaqit bermayapti. Shunga yotaversin. – Va qo'shib qo'ydi: – U ovqat so'ramaydi-ku...

Kolka Sashkaga o'xshab hammasini oldindan chamalay olmasdi. Uning miyasi boshqacha tuzilgandi. Biroq u ham tushunardi: agar bi-ror narsa behudaga yotgan bo'lsa, uni albatta olish kerak. Keyin esa nima uchun kerakligini hal qilaver.

Bolalar Ilya va uning kulga aylangan uyiga achinishardi. U frib-gar odam bo'lsa ham, lekin quvnoq, deyarli qadrdon bo'lib qolgandi.

Kolka oyog'i bilan kulning orasini tita turib, o'ylanib dedi:

– U yoqib yuborishlarini sezgandek!

– Nima uchun? – so'radi Sashka. – Nega boshqalarga tegishmadi, unga esa tegishdi?

– Chekkada joylashgani uchun...
– Nima qipti? Ana, mashinani qoq markazda ham portlatib yuborishdi-ku!

– Balki ular Ilyaning o'g'ri ekanligini bilib qolishgandir!
– Qanday qilib?
– Oddiy, – dedi Kolka. – Ana tomorqa... U ketmonchasini bir marta bo'lsin ishlatmagan! Birovnikini, undan avval ekilganini o'zinikidek terib yegan!

– Qolganlar-chi? Ular begonalar emasmi?
– Ular kolxozchilar...
– Nima farqi bor!
– Unda nimaga yoqishyapti?
– Fashistlar-chi, nimaga yoqishyapti?
– Fashistlar? Solishtirgan narsangni qara-yu... Ular qanday qilib fashist bo'lishsin!

– Nima bo'пти? Jangchi ular haqida nima deganini eshitdingmi? Ularning hammasi vatan xoinlari dedi!

– Bola-chi?.. Derazaning orqasidan kuzatgan, u ham sotqinmi? – so'radi Kolka. Sashka javob bermadi.

Aka-ukalar gapni bir yerga qo'ya olishmadi.

Kulni ag'darishdi, atrofga razm solishdi, biroq hech kim Ilyaning yonib bitgan uyi bilan qiziqmasdi. Hamma o'zinikidan xavotir olgan bo'lsa kerak.

Ular erta tongda yo'lga otlanishgan, bu payt hali quyosh ko'kka chiqmagandi. Hovlining qoq o'rtasida ikki g'ildirakli aravaga qo'shilgan ma'yus ko'zli kulrang eshak turardi. Eshak aravaga tugunlar, kastrullar, yormali qopchalar, o'simlik yog'i solingan shishalarni yuklashdi.

Direktor o'zining doimiy hamrohi – portfeli bilan chiqib keldi. Uning ko'rinishi bugun ham uxlamagandek edi. U Regina Petrovna-ga, uning hiqillayotgan erkakchalariga qaradi – ularni bugun barvaqt uyg'otishgandi.

Kuzminchalar shu yerda, bir nimalarni chaynab va junjikib turishardi.

– Bular-chi? – so'radi direktor aka-ukalarga bosh irg'itib ko'r-satib. – Nima, ular ham siz bilan ketadimi?

– Ha, – dedi tarbiyachi. U ham bolalarga qarab qo'ydi. – Bular aka-uka Kuzminlar. Men ular haqida sizga so'zlagandim.

Direktor peshanasini tirishtirdi, nima uchundir portfelini ochdi.

– Kuzminlar... Kuzminlar... Qayerdan?

– Tomilinodan, – ming‘illadi Sashka. «Ramenskoyedan» deyish kerak edi, biroq Regina Petrovna shu yerda, qarab turibdi... U Kolka-ga boqdi va nima haqda o‘ylayotganini tushundi. Bekorga Portfelcha ularni eslamagandi! Cho‘zmasdan, issig‘ida tuyog‘ini shiqillatish kerak.

Direktor esa bu orada portfelini titkilab, hech narsani topa olmadi.

– Xat bor edi... – dedi u. – Nima haqida edi o‘lgur... Qandaydir oshxona haqidami... Yo‘q, eslolmadim!

– Qidiravering, biz kutib turamiz. Sizni eslashsa, yozib turishsa yaxshi-ku... – dedi Regina Petrovna va arava yonida junjikib, gavda og‘irligini goh u oyog‘iga, goh bu oyog‘iga solib turgan aka-ukalarga muloyim qarab qo‘ydi. Ular bu qanday xat ekanligini va uni qancha izlash kerakligini yaxshi bilishardi! Bilmaganlari yaxshiroq edi.

Direktor yana qadrdon portfelini ochdi, biroq bolalarning baxtiga hech narsa topa olmadi.

– Mayli... Ikkita og‘izga kamroq bo‘ladi. – dedi u va Regina Petrovna-ga yuzlanib: – Mana sizga qog‘oz... Kolxozdan. U yerda bir odam bor, u hammasini ko‘rsatadi... Bir o‘zingiz ularni eplay olasizmi? – deb so‘radi.

– Ular ahil bolakaylar, – dedi Regina Petrovna. – Aksincha, yordam berishadi.

Direktor osmonga qarab qo‘yib, chuqur nafas oldi:

– Erkinroq bo‘lganimda jo‘nardim! Qayda! Hozir zavodga ket-yapman, bizni qaytib qabul qilishlari uchun ko‘ndirib ko‘raman... Keyin yana Gudermesga, o‘qituvchilarni olib kelish uchun... Maktabni qayta yo‘lga qo‘yish vaqti keldi. Oziq-ovqat ham topish kerak. Axir nimalar bo‘layotgani noma‘lum-ku! – xulosaladi u va yelkasini qisib qo‘ydi.

Portfelcha nimaga tushunmayotganini bolalar ham tushunishmadi: oziq-ovqatni, maktabmi yoki zavodmi... Tiranchalarni zavodga boshqa kiritmaslik kerakligi kuppa-kunduzdek ravshan! Buni faqat direktor tushunmayapti! Shoqollar zavodni yana ship-shiydam qilishadi!

– Bo‘shashingiz bilan kelib turing! – taklif qildi Regina Petrovna va tayyorgarlik ko‘ra boshladi. – Sut bilan mehmon qilamiz...

– Men shoqollarni jo‘nataman, makkajo‘xori terish uchun. Siz esa sovqota boshlashingiz bilan qaytib keling! Omad yor bo‘lsin!

Direktor qo‘l siltadi va oshxona tomonga yo‘l oldi. U yerda navbatchi qizlar kuymalanishayotgan edi, yangi tong ota boshladi.

Regina Petrovna yana biroz mizg‘ib olishlari uchun erkakchalari ni aravaga qulay joylashtirib qo‘ydi. Boshlarining ostiga latta joyladi. Eshakni yuganidan ushlab yo‘lga otlandi.

Dastlab shunday ketishardi: Regina Petrovna oldinda, u eshak orqasidagi aravani dalaga sudrab ketishidan xavotir olardi, aravaning orqasida esa Kuzminchalar yurib borishardi.

Lekin eshak itoat bilan o‘zining yuk aravasini yo‘ldan sudrar, faqat uchli quloqlari bilan shamolni kesib borardi. Ko‘p o‘tmay Regina Petrovna eshakni tinch qo‘ydi va yoniga tushib o‘zi ham yurib bordi.

U gohida biroz to‘xtab, dam olar, aka-ukalarga esa qo‘li bilan: ketaveringlar, yetib olaman, degandek ishora qilardi...

Lekin egizaklar eshakni to‘xtatib kutib turishardi. Yo‘l tekis bo‘lsa ham, chakalakzor bor, kim bilsin, dushmanlar chiqib qolsa-chi!

Regina Petrovna, bolalarning fikricha, yo‘l uchun noodatiy tarzda kiyinib olgan edi: erkaklarning yengi shimarilgan och rangli ko‘ylagi va qora shalvari. Kuzminchalar tarbiyachini bunday kiyimda hali ko‘rishmagan edi, biroq unga tanbeh berishmadi. Axir haydovchi qiz Vera bundan-da dadilroq kiyinardi-ku!

Regina Petrovnadan uzoqroq masofada turganlarida Kolka ukasiga dedi:

– Xat kovlash haqida edi...

– U rostdan ham yo‘qotib qo‘ygan bo‘lsa-chi?

– Portfelcha yo‘qotib qo‘ymaydi! U hammasini o‘zi bilan ko‘tarib yuradi! Portfelchasida hammasi!

Sashka egilib, yo‘lda yotgan toshchani oldi va chetga otib yubordi.

– Olib yuraversin! Biz esa qochib ketamiz!

– Bekitgan narsalarimiz-chi? – so‘radi Kolka.

– Ularni olamiz-u qochamiz. – U tarbiyachiga o‘girildi va qo‘shib qo‘ydi: – Faqat Regina Petrovna tuzalsa bo‘lgani.

Ular o‘rtamiyona tezlikda yurib tushlikka yaqin stansiyaga yetib borishdi. Qo‘shimcha yo‘llarda mol poyezdi turar, undan harbiy tex-

nikalarni: qandaydir kichkina, och yashil rangga bo'yalgan zambarakchalar, «villislari», ot aravalarini tushirayotgan edilar.

Aka-ukalar qadamlarini sekinlatishib, zambarakchalarga tikilib qolishdi. Ular urush paytida har xil zambaraklarni ko'rgan, buning ustiga Moskvaga, madaniyat bog'iga – nemislardan o'lja qilib olingan qurol-aslahalar ko'rgazmasiga olib borgan bo'lsalar ham, qaysi haqiqiy erkak bunday tomoshani o'tkazib yuboradi. Qurol-yarog' nima uchundir har doim chiroyli bo'ladi. Hattoki qanchalik xavfli bo'lsa, shunchalik chiroyli. Zambarakchalar nihoyatda chiroyli edi.

Askarlar qiya taxta to'shamada turib olib chekishar, bir-biri bilan baland ovozda suhbatlashishardi. Regina Petrovnani ko'rib qolishdigu, buyruq berilgandek u tomonga yuzlanishdi.

Bolalar zambaraklarni tomosha qilishar, askarlar esa yosh go'zal tarbiyachiga tikilishardi.

Bu Kuzminchalarga yoqmadi.

– Ha-a, nega turib qolding! – o'shqirdi Sashka eshakka va xipchin bilan urdi. – Namuncha, askarlarning harbiy eshelonini ko'rmaganmisan.

Arava jaranglab shpallarda sakrab-sakrab qo'yardi, ular yo'lni kesib o'ta boshlashdi.

– Bularga bir qarang! Mahalliy xalq-ku! – baqirishdi orqalaridan askarlar.

Aka-ukalar ko'z tashlashib olishdi, biroq javob qaytarishmadi. Askarlar bo'lsa ham, lekin ular Regina Petrovna va uning erkakchalari hech qanaqa mahalliy xalq emasligini bilishmaydi! Ularning ko'rinishi boshqacha, buni har qanday geografiya darsligidan bilib olish mumkin!

Ular tog'larning o'rtasiga, rotondaning orqasiga olib boruvchi so'qmoq bo'ylab sanatoriy xarobalariga ko'tarilishdi va shu yerda nafaslarini rostlab olishdi.

Aka-ukalar cho'milish uchun alohida chuqurcha tanlashdi. Regina Petrovna erkakchalarini sho'ng'itdi, ularni o'ynash uchun qoldirdi, o'zi esa nariroqqa, katta to'rtburchak basseyniga ketdi va u yerda, yolg'izlikda boshiga ko'ylagini bog'lab olib suvni shapillata boshladi.

Regina Petrovnaning baqirgani eshitilganda esa bolalar uni bug'ning orqasidan turgani bois ko'rmay, u shunchaki bolalarning

otini aytib chaqiryapti deb o'ylashdi va u chuqurchadan bu chuqurchaga sakragancha chuvvos solib baqirishdi.

Birdan u bor ovozi bilan baqirdi:

– Bolalar! Bolalar! Yordam bering! Bu yoqqa! Tezroq!

Aka-ukalar ho'l badanlariga kiyimlarini kiyishdi-da, ovoz kelgan tomonga yugurishdi. Ular tarbiyachilariga chechenlar hujum qilishgan deb o'ylashdi.

Biroq hech qanaqa chechenlar yo'q edi.

Hovuzning chetida bir askar turib, Regina Petrovnadan ko'zini uzmasdi. Regina Petrovnaning o'zi esa iyagigacha suvga sho'ng'ib hovuzning narigi tomonida o'tirib olib askarga qo'rqib qarardi.

Askar ularni stansiyadan kuzatib kelgani ma'lum edi. Birinchi bo'lib yo'lda yerda yotgan chag'irtoshni olishga ulgurgan Sashka yugurib keldi. U hovuz va askarning o'rtasiga turib oldi. Shunda askarning to'qasi shu'la qaytarib Sashkaning ko'zida akslandi.

– Senga nima kerak? – baqirdi u boshini yuqori ko'tarib. – Nega mo'ralaysan? Seni bu yerga chaqirishdimi? – Bu orada Kolka ham yetib keldi:

– Senga nima kerak? Xo'sh? Qani, tuyog'ingni shiqillat, bo'lmasa komandiringni chaqiramiz!

Askar ro'parasidagi ikkita bir xil ko'rinishli, bir xil ovozli yigitlarni ko'rib hayron bo'ldi. U ajablandi va shu zahoti ular haqida unutib, yana tarbiyachiga xotirjam ko'z tikdi. Burnini tortib, xo'rsingancha nari ketdi. Ketayotib, ayolga yana bir necha marta qarab qo'ydi.

– Jo'na! Yo'lingdan qolma! – ketidan baqirdi Sashka va hattoki tosh otishni mo'ljalladi. Kolka esa kinodagi dengizchi kabi o'zining chiroyli belbog'ini yechdi.

Askar birdan to'xtadi, aka-ukalar tushunishdi: hozir u qaytib keladi va aylantirib soladi... Ketayotganida orqasidan baqirish kerak emasdi.

Shunday bo'lsa ham egizaklar bir usulni bilishardi: biri orqasidan bildirmay borib oyoqlariga tashlanadi, ikkinchisi esa ko'ksidan turtadi... Dushman o'mbaloq oshib uchadi! Ammo askar bilan bunday usul ish bermasligi haqiqatga yaqinroq edi.

Tishlab olish – bu boshqa gap. Ular bu usulni sinab ko'rishgan. Tomilinoda aka-ukalar bittalab poylab turib navbatma-navbat yerto'la qaziyotgan mahalda katta yoshli bezorilardan biri kelib ular-

ni kaltaklashga tushgan. Bir safar ular ilojsizlikdan unga tashlanishdi va shunday qopib tashlashdiki, u aka-ukalarni ko'rganda quturgan itlardan qoehganday qochardi! Ko'rib qolsa bormi, bir kilometr naridan o'tardi!

Lekin askar qaytib kelmadi va mushtlashishga tushmadi. So'nggi marta, afsuslanib, Regina Petrovnaga qaradi va yana xo'rsinib qo'ydi. Sashkaning baqirganida esa taajjub bilan yelkasini qisib qo'ydi va tezda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Balki u Kolka komandirni chaqirishini aytgani uchun qo'rqib ketgandir?

Aka-ukalar tashlanishga shay bo'lib turgan bir mahalda Regina Petrovna suvdan suzib chiqdi, kiyimini kiydi va erkakchalarining oldiga yugurib ketdi. Kichkintoylar hech narsadan bexabar aravaning yonida o'ynab o'tirishardi.

Sodir bo'lgan voqeadan so'ng Regina Petrovnaga jon kirgandek bo'ldi, nima uchundir sergap, hazilkash bo'lib qoldi. Balki unga qaynoq suv ijobiy ta'sir qilgandir.

U o'zining qo'rqib ketganini eslab hazillashardi. Shunday chinqirdiki, hammani qo'rqitib yubordi.

– Men sizlarni juda ham cho'chitib yubordimmi? – so'radi u aka-ukalardan. Keyin esa qo'shib qo'ydi:

– Endi sizlar mening tansoqchilarimsiz! Himoyachilarim!

Aka-ukalar xijolat tortishdi. Hattoki qizarib ketishdi. Ular hech qachon kimnidir himoya qilishmagan edi. Faqat o'zlarini. Bu yoqimli tuyg'u ekan.

– U nimani xohlagandi? – so'radi Sashka do'q qilgandek. U hali boyagi voqeadan o'ziga kelishga ulgurmagandi. – Balki u o'g'rilik qilmoqchi bo'lgandir?

Regina Petrovna askar ketgan tomonga qaradi va g'alati jilmayib qo'ydi.

– Bilmayman. Yigitning istarasi issiq ekan... Nega men chinqira boshladim, qo'rqitib yubordim shekilli... Qiz bolaga o'xshab! Sizlar ham uni battar qo'rqitib yuborgan bo'lsalaring kerak! Azamatlar!

Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi va yana qizarib ketishdi. Regina Petrovna ularning bir lahzaga juda cho'chib ketganlarini bilganida edi!

Tarbiyachi kastrulkani ochib o'ralgan narsani oldi. Unda buterbrodlar, sariyog'li non bor edi.

– Bu sizlarga nishonning o'miga, – dedi u kulib. Eh, u ayni damda naqadar qizil yuz, naqadar mehribon ko'rinardi.

Aka-ukalar nonga tashlanishdi, uning sariyog'i allaqachon erib, shimilib ketganiga qaramay, juda shirin edi. Onasi bolalariga ham bir parchadan berdi.

Sanatoriydan boshlangan yo'l bir necha kilometrga asfaltlangan edi, keyin u chag'irtoshga aylanib, oppoq, kuygan va yorilgan yerga ulanib ketardi.

Tog'lar koloniyaning orqasidan boshlanuvchi tog'larga umuman o'xshamasdi. Bu tog'lar bo'sh edi, na daraxtlar, na tuplar ko'rinmasdi, faqat supurgi o't-u quruq maysazor. Tor soyliklarda, bu loqlarning bo'yida tikanakli o'simliklar o'sib yotibdi.

Bolalar chuqur nafas olib atrofga qarashar va koloniyalarning orqasida qad rostlagan tog'lar borish uchun taqiqlangan bo'lsa-da, chiroyliroq, farovonroq, mo'l-ko'lroq ekanligini sezishardi. U yerda yong'oqlar, yovvoyi noklar, tog'olchalar o'sib yotardi. Bu yerda esa yovvoyi zaytunlar, ular ham mayda, achchiq, yeb bo'lmaydi.

Tetiklangan Regina Petrovna ham atrofga hayrat bilan boqdi.

U bir necha marta: «Bibliyada keltirilgan tog'lar», deya takrorladi. Bu nimani anglatishini bolalar tushunishmadi, biroq fahmlashdi: hamma yoq bo'm-bo'sh. Sashka Kolkaga aynan shunday tushuntirdi: «Hech vaqo yo'q, faqat nomi bor, uni ham aytib bo'lmaydi».

Regina Petrovna kulib yubordi va Bibliya – bu katta ertak ekanligini, uni yahudiylar yozganini aytdi.

– Yukchilarmi? – so'radi Kolka.

– Nega yukchilar?

– Zavoddagi yukchilar! Ular yahudiylar-ku!

– Ular yaxshi yahudiylar, – ukasining gapini tasdiqladi Kolka.

– Nega yahudiylar yomon bo'lishlari kerak? – qiziqib so'radi Regina Petrovna va nimadir haqida o'ylay boshladi. Birdan dedi: – Yomon xalqlar bo'lmaydi, faqat yomon odamlar bo'ladi.

– Chechenlar-chi? – to'rsilladi Sashka. – Ular Verani o'ldirishdi. – Regina Petrovna javob bermadi.

Bu orada arava so'nggi marta aylandi va sayyohlarning ko'z o'ngida – ular chamasi o'n soat yo'l yurishgandi – ko'kalamzor

tup otgan va olisdan ikkita oppoq uy ko‘rinib turgan tepaliklarning o‘rtasidan tep-tekis vodiya ochildi.

Keyinroq uy bitta, u ham bo‘lsa juda kichkina – loysuvoq uy, ikkinchisi esa – aravada kirib borish mumkin bo‘lgan ayvon ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ular o‘sha ayvonga kirib borishdi.

Ayvoning ostidagi g‘ishtlarning ustida kichik uch oyoqli o‘choq turardi va har xil asboblari: xaskashlar, chalg‘io‘roqlar, dastaki so‘qalar, belkuraklar sochilib yotardi. Dastaki so‘qalar ko‘proq edi.

– Keldik, – dedi Regina Petrovna atrofga nazar tashlab. Hech kim ularni kutib olmagan. – Shu yerda yashaymiz, – qo‘shib qo‘ydi u. Uning hayajonlanayotgani shundoq ko‘rinib turardi.

Bir erkak keldi. Aka-ukalar ularni otda eltib qo‘ygan sobiq askarni darrov tanishdi. Hozir u gimnastyorkada emas, ko‘ylak va kepkasiz, sochi to‘kilgan edi va buning ustiga oqsoqlanardi.

Lapanglovchi yurish bilan u mehmonlarning oldiga keldi va koloniyachilarni tanib qoldi. Aka-ukalarga qo‘lini cho‘zib, o‘zini tanishtirdi: «Demyan». Regina Petrovna uzoqdan boshini silkiib so‘rashib qo‘ydi.

– Demak, kelibsizlar-da? – deb so‘radi Demyan. Ularga kattalardek murojaat qildi. Regina Petrovnani esa sezmayotgandek edi.

– Keldik, – javob berdi Sashka unga tengdoshiga gapirgandek. – Xo‘jalik bilan shug‘ullanamiz. – Kolka esa qo‘shib qo‘ydi:

– Chorva mollarini o‘tlatamiz.

Demyan direktordan farqli ravishda bolalar xo‘jalik bilan shug‘ullanishga kelganlaridan hayron bo‘lmadi. U ma‘qullab bosh silkidi.

– Bo‘lmasam-chi... Bizda kurashish kerak deb aytishardi. Demak, ikkita sigir, yettita buzoq, uchta echkini sizlarga qoldiraman... Sigir sog‘ishni bilasizlarni o‘zi?

– O‘rganamiz, – dedi Regina Petrovna va ularga yaqinlashdi.

Demyan uning qo‘liga, shalvariga qaradi va quyoshda qoraygan sochsiz boshini silab qo‘ydi.

– Bu, kechirasiz... O‘rtoq xonim: bu ish... bizning tilda aytganda o‘lib-qutulib ishlash kerak... Bu sizga pardozi qilish emas!

– Unday bo‘lsa, o‘lib-qutulib ishlaymiz, – ochiqko‘ngillik bilan javob berdi Regina Petrovna va Kuzminchalarga qarab kulib qo‘ydidan, erkakchalarining oldiga ketdi.

– Nima bo‘ldi o‘zi, – so‘radi Demyan egizaklardan, – koloniyada ishchilarga qiron keldimi, ayollarni jo‘natishyapti?

Bolalarga erkaklarga xos suhbat qurish yo‘qayotgan bo‘lsa-da, biroq Regina Petrovnaga qarshi hujumga ular toqat qila olishmasdi. Har holda uning himoyachilari, tansoqchilari bo‘lishsa!

Kolka tersaydi, Sashka esa xuddi Demyanni birinchi marta ko‘rayotgandek jiddiy qarab qo‘ydi.

– Regina Petrovna kasallikdan so‘ng... – dedi u. – Uyini portlatishganidan so‘ng... Shifoxonadan keldi, u bu yerda sog‘lig‘ini tiklashi kerak...

– Ishni esa o‘zimiz qilamiz! – o‘rtaga qo‘shildi Kolka. Va salmoq uchun yolg‘on gapirdi: – Bizga direktor yordam berishni tayinladi! Hamma umid sizlardan, deydi...

Demyan o‘zini yo‘qotib qo‘ygandek bo‘ldi. U tez-tez bosh irg‘ata boshladi, Regina Petrovna tomonga o‘girilib, pichan va qamishdan bir dunyo o‘rib qo‘yganini, mehmonlar yaxshisi somonli xom g‘ishtdan qurilgan uychada yashaganlari ma‘qulligini, u yerda issiqroq ekanligini tushuntira boshladi. Ovqatni uch oyoqli temir o‘choqda qaynatishga, tezak yoqishga to‘g‘ri kelishini ham qo‘shib qo‘ydi. Xo‘jalikda makkajo‘xorini maydalash uchun qo‘lbola tegir-montosh bor. Pushtalarda pomidorlar qolgan, bodringlar chirib ketgan, oshqovoqlar, karam, lavlagi, kartoshka bor... Uzumzor bor, biroq tashlandiq, tokzor tamomila yovvoyilashib ketgan, yerga o‘rmaalab ketgan... Shakarqamish ham ekan, topib olarsiz, sekin-sekin hammasini topib olasiz, deydi...

Kechga borib Demyan otiga aravani uladi va xayrlasha boshladi. Ketayotib, bolalarning qo‘lini siqib qo‘ydi.

– Haligi, bilasizmi... Artistlardek kuylar ekansiz... Ha, kulaverib tinkam quridi! Klubda, kolxozda... – Va birdan boshqacha ohang bilan, xo‘mrayib: – Verkaga achinaman, – dedi.

Oqsab-to‘qsab, yoni bilan aravasiga chiqdi, unga shunisi qulay edi, chetiga o‘tirdi, kepkasini kal boshiga qo‘ndirdi va otini niqtab, yo‘lga ravona bo‘ldi. Orqasiga o‘girilmay va hech narsaga qiziqmagan- ganday ketdi.

Yengil chang yo‘lning ustida uzoq vaqt turdi, botayotgan quyosh unga oltin tus bag‘ishlardi.

Regina Petrovna erkakchalari bilan uychaga ko'chdi. Uchalasi bitta karavotga sig'ishning yo'lini topishdi. Kuzminchalarga esa yerga joy to'shab berishgandi, ular rad etishdi. U yer tor va dim edi. Ayvonning ostidagi burchakka mo'rt, lekin xushbo'y hid taratuvchi qamishni to'shashdi va u yerga yotar joy qilishdi. Ayvon devorlari quruq qamishdan ko'tarilgandi. Tunlari bu qamish devor onda-sonda g'ijirlab qo'yardi.

Birinchi bo'lib ular kal Demyan shakarli deb nom qo'ygan qamishni izlab topishdi. U bilan hammani mehmon qilishdi, Regina Petrovnani ham, uning erkakchalarini ham. Uni tugaguncha yeyishdi. Mazali qamishni xo'jalikda o'ylab topishgan edi, chayna-yu tupur, kun bo'yi shunday qilsang.

Uzumzorni ham izlab topishdi. Uzumlar yer bag'irlab o'sib yotar va novdalarining ostida, agar ko'tarib qaralsa, yerga bulg'angan qoramtir uzum shingillarini topish mumkin edi.

Sashka uzib, tatib ko'rdi-yu, aftini burishtirdi.

– Jag'ing uzilib ketadi-ya! Nordonligini!

Ammo Regina Petrovna boshqacha fikrda edi. U savatga qancha sig'sa, shuncha uzum terishni so'radi.

Shu yerda, bolalarning ko'z o'ngida bir uzum boshini tog'oraga to'kib, suvda chaydi va chag'irtosh bilan eza boshladi. Loyqaga o'xshash sharbat oqib tushdi. Aka-ukalar barmoqlarini tiqib yalab ko'rishdi.

Regina Petrovna sharbatni shishaga quydi, qopqoq bilan yopdi, shishani esa yerto'laga qo'ydi.

– Bayramga vino bo'ladi.

– Qanaqa bayram? – qiziqishdi bolalar.

– Bilmayman, – dedi u. – O'ylab toparmiz!

– Bayramlarni o'ylab topishadimi? – so'radi Sashka. – Ularning o'zi keladi deb o'ylardim.

– Ba'zida o'zi keladi... Ba'zida esa... – Tarbiyachi aka-ukalarga razm soldi va qiziqdi:

– Qachon tug'ilgansizlar?

– Nima? – bir ovozdan so'radi aka-ukalar. Ular savolni tushunmagandi.

– Tug'ilgan kuningiz qachon? – Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi va tarbiyachiga tikilib qolishdi.

– Kun? Nimaga kun? Biz tunda tug'ilgan bo'lsak-chi? Yoki tongda?

– Ha, albatta, – dedi u kulib. – Bu dunyoda hammaning, hatto sigir va buzoqlarning ham tug'ilgan oyi, kuni bor. Sizlarda ham bor. Faqat u esingizdan chiqib ketgan, shundaymi?

Kolka xo'rsinib Sashkaga qaradi. Uning miyasi o'tkirroq. U eslasin.

Agar berkitilgan joyda nechta banka jem bor, deb so'rashsa, u javob berardi. Bu savolga esa...

Biroq Sashka ham indamadi.

– Biz o'zimiz sanani o'ylab topamiz, – dedi Regina Petrovna. – Va bizda bayram bo'ladi! Xo'sh? – Kolka befahmlik bilan so'radi:

– Qachon?

Regina Petrovna lablarini qimirlatib, ichida nimalarnidir sanadi.

– Deylik, bir haftadan so'ng. O'n yettinchi oktabrda. Ma'qulmi?

– Bilmayman, – dedi Kolka. Sashka ham shu so'zni qaytardi.

– Qachon ketamiz? – qiziqdi Kolka.

– Qayoqqa ketamiz?

– Qayoqqa bo'lsa ham.

– Bu yer sizlarga yoqmayaptimi? – so'radi Regina Petrovna bu safar Sashkaga murojaat qilib.

U ikkilandi. Ichida «bu yerda yoqyapti, koloniyada esa yoqmaypti», deb o'yladi.

U Portfelcha ularni bu yerda abadiy qoldirishini tasavvur qildi. Maktabga borish shart emas, Demyanga o'xshab o't o'rib, shakarqamish yeb yurishni o'rganib olishadi.

Keyin ulardan biri ulg'ayib Regina Petrovnaga uylanadi va erkakchalarni bo'tqa bilan boqadi. Biroq erkakchalar ham ulg'ayishsa kerak. Ular birgalikda poda boqishadi.

– Mayli, – dedi Regina Petrovna. – Tug'ilgan kunni nishonlaymiz, keyin esa ko'ramiz. Rozimisiz?

Uning ovozi, iliq mehri bolalarni xotirjam qilardi. Ular bayramgacha kutishga rozi bo'lishdi. Bayramda esa, buni ular o'z tajribalaridan bilishardi, oshxonaga chaqirishadi, bittadan qotgan non va biroz pista qo'shib berishadi. Keyin to'rt tomoning qibla...

Agar aka-ukalar bayram o'ylab topishni xohlaganlarida, o'ylab topgan bo'lishardi. Ana, Sashkaning miyasi chaqqon, u bunday bayramlardan qancha kerak bo'lsa o'ylab topadi! Hech qanaqa tug'ilishlarni o'ylab topish shart emas.

Balki bularning bari ertakdir – koloniyachilar-u bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining yetim-yesir tug'ilishi? Balki ular bit, burga yoki taxtakanaga o'xshab o'z-o'zidan paydo bo'lishgandir. Ular yo'qday, lekin bir qarasang qandaydir teshikda turgan bo'lishadi! Bij-bij g'imirlashadi, qo'ng'izlarga o'xshab, yuvilmagan turqlaridan, o'ziga xos harakatlaridan ko'rinib turibdi: fu! Bizning boshpanasiz do'stimiz bu yorug' olamga o'rmalab chiqdi! Hamma kasallik, kuya, o'lat, qichima u sababli... Shundoq ham davlatda oziq-ovqat yetishmaydi, jinoyatchilik tobora o'sib boryapti. Uni suvaraklarga o'xshab fors kukuni, kerosin bilan dorilab o'ldirish kerak! Yebto'ymaslarini esa Kavkazga jo'natish, buning ustiga, nom-nishoni qolmasligi uchun poyezdning orqasidagi relslarga dust¹ yoki kanadori sepish kerak. Qarabsizki, ular yo'q. Va hamma bexavotir. Vijdoning qiynamaydi. Yo'q joydan chiqding-u, yo'q joyga ravona bo'lding! Qanaqa tug'ilish?

Aka-ukalar hayotda hamma narsaga dosh berishgan. Tug'ilgan kunga ham bir amallab chidashar. Bundan-da og'ir mushkulotlarni ko'rishgan!

Biroq qiziq tomoni, koloniyada vaqt sekin o'tar edi. U yoqda sandiroqlab yurasan, qachon ovqatlantirishlarini kutasan. Bu yerda esa kunlar poyezd vagonidek uchib o'tardi.

Hammasiga sabab Kuzminchalarning ish bilan mashg'ul bo'lishlari edi.

Ular navbatma-navbat tog'ning etagiga, buloqqa borib, xo'jalik uchun suv tashishardi. U yerda yuvinib olish ham mumkin. Biroq aka-ukalar bu ishni ochiqchasiga yoqtirishmasdi. Buning ustiga sovuq suv bilan yuvinish zararli. Tering shilinib, kiyiming ho'l bo'ladi.

Podani o'tloqqa haydash ham ularning vazifasi. Sigir sog'ishni esa Regina Petrovna ularga ruxsat bermadi. Yashirincha urinib ko'rishgandi, o'xshamadi. Sigir tuyog'i bilan paqirni tepib yuborsa deng... Yaxshiyamki kallasini emas!

¹ *Dust* – zararkunanda hasharotlarga qarshi ishlatiladigan kukun.



Sigirlarni Zorka va Mashka deb atashardi. Ularni Demyan shunday nomlagandi.

Zorkaning yonlari tik, qo'ng'ir, yuvosh. Aynan uni aka-ukalar sog'ishga urinib ko'rishdi. Mashka esa oriqli, oq-qora dog'li va injiqli. Uning yoniga yaqinlashib bo'lmaydi. Keyinroq moslashib, tarbiyachini, Sashkani, erkaklarni yoniga yaqinlashtira boshladi, biroq ehtiyotkorlik bilan, orqa-o'ngigiga qarab. Faqat Kolkani hadeganda suymasdi, uzoqdan ko'rishi bilan bo'ynini cho'zib, ho'l burnini u kelayotgan tomonga burib hidlaydi. Bordi-yu Kolka yaqinlashishni ixtiyor etsa oldingi tuyoqlari bilan deysinishni boshlaydi, shoxlari bilan o'qталadi, ma'raydi.

Kolka Mashkadan jiddiy xafa bo'lib, uzoqdan mushtini ko'rsatib po'pisa qilardi. Va – ketib qolardi.

Aka-ukalar sigirni laqillatishga urinib ko'rishdi, kiyimlarini almashtirishdi, biroq sigirni Zina xola kabi ahmoqlik qilishning iloji bo'lmadi.

Aka-ukalar dumaloqlik tegirmontoshni aylantirib makkajo'xori maydalashardi. Tepadagisini aylantirasan, teshikka esa bug'doy solasan. Aylanalarning o'rtasidagi teshikdan oppoqlik uvoqlar to'kiladi. Uni elakdan o'tkazsang, un va yorma tayyor. Qisqasi, mazali yegulik hosil bo'ladi.

Xohlasang cho'rak non, g'adir-budur obinon yop, istasang jo'xori bo'tqasini qaynat. Bularning barchasini, ayniqsa, yeyish ma'nosida, aka-ukalar tezda o'zlashtirib olishdi. Faqat tegirmontoshni aylantirishni yoqtirishmasdi.

Dastavval navbatma-navbat aylantirishardi. Keyin bu ish faqat Sashkaga qoldi. Kolkaning aytishicha, uning bunga sabri chidamas emish.

Ammo u o'tin va tezaklarni jon deb terardi. Sashka esa tezaklarga toqat qila olmasdi. Unga bitta tezakni tergandan ko'ra tegirmontoshni aylantirgani yuz baravar oson.

Ularning tilida balki tezak deb nomlanar, lekin insoniy tilda u baribir – axlat. Ular guruch bo'lgan paytda shirguruchni sut bilan pishirishardi, keyin qovoqqa o'tishdi.

Dastlab, tomorqadan bo'yi erkakchalarning biriga teng qovoqlik dumalatib kelishganda. Regina Petrovna bolta bilan sariqlik bo'laklarga bo'lguniga qadar aka-ukalar uning atrofida tinmay parvona bo'lishdi.

Ikkalasi shu zahoti bir bo'lakdan yulqib olishdi. G'ajib, g'ajib, tashlab yuborishdi. Ta'mi tarvuznikiday, deb o'ylashgandi, xashaki sabziday bo'lib chiqdi, ko'rinishi chiroyli-yu, ta'mi yog'ochnikiday!

Tarbiyachiga bu oxirat tarnovini yemaymiz deyishdi.

– Bu oxirat tarnovi emas, bu oshqovoq, – tuzatdi Regina Petrovna.

– Baribir. Uni Zorka va Mashka yoki buzoqchalar yeyishsin. Ularning aqli yo'q, tanlab o'tirishmaydi.

Regina Petrovna shodlanib, o'zicha po'pisa qilib qo'ydi:

– Qo'shimcha so'raysizlarmi?

– So'ramaymiz! – deyishdi aka-ukalar bir ovozdan. – Nega bunday befoyda o'simlik tomorqada joy egallab yotibdi! Bahaybat – ichi esa pista bilan to'la!

Regina Petrovna bo'laklarni tunuka tovaga terib, ko'mir solingan pechga tiqdi. Pishirdi, ustida sehr-jodu qildi va mug'ambirona indamay turdi.

Tushlik vaqtida dasturxonga bir bo'lakdan qo'ydi: tatib ko'ring, noziktabiatlar!

Aka-ukalar o'ylab turib, chimdib uzib olishdi. Yana bir marta chimdilashdi. Har bir bo'lak qizarib, shishib, xushbo'y, mazali bo'lib pishgandi. Po'stidan yopishqoq asal oqadi-ya... Qisqasi, mazali.

Aka-ukalar uni yeb bitirishgach, nechta dona qoldi ekan, deb tovaga qarashdi. Regina Petrovna barmog'i bilan do'q qildi, lekin qo'shimcha solib berdi. Mag'rur egizaklar o'zlari so'ramasdilar. Ana bayram-u, mana bayram!

Kolka barmoqlarini yalab dedi: – Yaxshiyamki Kavkazda bunday bahaybat o'sarkan! – U shunday deb Kavkazni maqtagan bo'ldi, birato'la oshqovoqni ham. Sashka indamadi. Biroq ichida sezdi: bu ishda ular xato qilishdi. Sharmanda bo'lishdi. Regina Petrovna sutdan smetana qildi, dokaga osib tvorog tayyorladi. Ichishga berdi. Faqat sut mahsulotlarini aka-ukalar suyishmasdi. Ichib yuzlarini burishtirishar, dasturxondan qochishga urinishardi.

– Tentakkinalarim-ey, – ko'ndirardi Regina Petrovna krujkalarga yangi sog'ilgan sutni quyib. – Sizlarga qanday baxt kulib boqqani-ni tushunmayapsiz! Bu tabiat sizlar uchun in'om etgan eng ajoyib ne'mat-ku!

– Biz tabiatsizimiz, – qaysarlik qilardi Kolka. Sashka ham ma'qullab bosh irg'ardi. – Biz o'zimiz bilan o'zimiz.

– Sizlar tabiatsizlar-ku... Siz haqiqiy tabiatsiz, tabiiy hodisa! – kulardi Regina Petrovna va sutni o'zi ichardi. Cho'rak nonni esa ham-maga teng bo'laklarga bo'lib berardi.

– Nima uchun, ayting, ko'p bo'lsangiz sizlarni umuman boshqarib bo'lmaydi? Siz to'fon kabisiz: na tuta olasan, na tinchlantira... Birlashganingizda esa, – yana bittadan cho'rak non berib, – siz boshqachasiz, yaxshiroqsiz. Butunlay emas, lekin yaxshiroq...

– Shoqollarsiz yaxshiroq, – tushuntirdi Sashka. – Ular kelishsa bormi, hamma yoqni tozalab ketishadi. Oshqovoqni ham, sutni ham, cho'rak nonni ham...

– O'z'laringiz-chi? – so'radi Regina Petrovna erkakchalarining oppoq labi va burunlarini artib qo'yib. Kichkintoylar taqsimchalar-dagi sutni mushukchalarga o'xshab tillari bilan chapillatib ichish-moqda edi.

– Nima – o'zimiz?

– Xuddi bilmaydigandek? – dedi Regina Petrovna.

Sashka bilmasligini aytmoqchi edi, biroq tili gapga kelmay qoldi. Ular kecha Kolka bilan uchta cho'rak non zaxira qilib qo'yishgandi. Tarbiyachi sezmaydi deb o'ylashgandi. Qo'shimchasiga shishani un bilan to'ldirishdi.

Regina Petrovna stoldan ushoqlarni sidirib oldi, lekin uning aka-ukalardan bulbul yozni kutgandek javob kutayotgani ko'rinib turardi. Qora qoshlarini tutashtirdi, demak, jahli chiqyapti. Tumshayib, o'tirib oldi va qo'lini chakkasiga tirab, bir oila bo'lib yashayapmiz deb o'ylaganini, hamma narsalari umumiy ekanligini aytdi. Kimdir esa o'zini shoqolchasiga tutyapti, ya'ni o'zinikini o'zi o'g'irlayapti. Buni Regina Petrovna hech qachon tushuna olmasdi. Qanday qilib o'z dasturxonningdan o'g'irlashing mumkin?

Aka-ukalar bir og'iz so'z demay turishdi va chiqib ketishdi. Dast-lab muhokama qilib olish uchun o'tloqqa, keyin bekitilgan joyga o'tishdi.

Qaytib kelishdi va o'g'irlangan narsalarni, ya'ni cho'rak non va shishadagi unni stolga qo'yishdi.

Ular boshqa bu haqida eslashmadi.

Tug‘ilgan kun arafasida Regina Petrovna pirog uchun xamir qordi. Bolalarga tomorqadan qizg‘ish oshqovoq olib kelishlarini tayinladi. Podaga ham, erkakchalarga ham ko‘z-quloq bo‘lishni so‘radi.

O‘zi esa eshakni qo‘shdi va stansiyaga yo‘l oldi. Kechroq qaytdi, stolga ikkita konservalashtirib dimlangan go‘sh bankasini qo‘ydi. Uni o‘tib ketayotgan poyezddan sutga almashtirgandi.

Aniqrog‘i, mana bunday: dimlangan go‘shli konserva bankasi bitta edi, ikkinchi, kalitchali oval bankachaning ustiga esa «Amerika konservalangan kolbasasi» deb yozib qo‘yilgandi.

Kalitchaga ilmoqni tiqib aylantirsang, qopqog‘i chiziq bo‘ylab ochiladi, qopqoqning ichida esa... Yo Xudo, ana mo‘jiza! Bunday bankalar uchun aka-ukalar har kuni o‘z tug‘ilgan kunlariga chidashga tayyorlar!

Kuzminchalar stoldan nari ketishmas, bankachalarga termilishar, hidlashar, silliq chetini silab qo‘yishardi. Yalashga harakat qilishdi, biroq temirning ta‘mi tilni o‘ymalardi.

Hech kim taklif qilmagan bo‘lsa-da, kutilmaganda Demyan aravada kelib qoldi. U tug‘ilgan kundan, albatta, bexabar edi, ammo o‘zi bilan lattaga o‘ralgan cho‘chqa yog‘i va bir banka jern olib keldi: zavoddagilardan so‘rab olgandi.

Regina Petrovna Demyanni vazminlik bilan kutib oldi, jemga esa xursand bo‘ldi: haqiqiy mazali pirog bo‘ladi!

Aka-ukalar jemga mensimasdan qarashdi. Ularni bunday bankalar bilan hayratga sololmaysan. Agar zaxiralariga dimlangan go‘sh yoki kalitli oval bankachada kolbasa yashirishganda edi... Buni esa bekorga yeb qo‘yishadi, Demyan ham ularga jo‘r bo‘ladi. Hid bilish qobiliyatini qarang – konservaning ochilishiga yetib keldi-ya.

Demyan esa ish bo‘yicha kelgan bo‘lsa ham, oshxonaning oldida aylanar, Regina Petrovnaga xalaqit berardi. Unga o‘zining xo‘jaligi haqida so‘zlab berar, qanday qilib kartoshkani kovlaganini, tarvuzni sug‘organini aytib maqtanar, bu yerdagi olmalarni esa koyir, o‘zining yurtida Antonovka deb nomlanadiganlarini maqtab qo‘yardi.

– Men ishbilarmon, omilkor odamman, faqat xotinim yo‘q-da, – derdi u Regina Petrovnaga qarab qo‘yib. – Men o‘zimni ham, xotinimni ham ta‘minlay olaman, biroq baribir xotinsiz uy go‘shsiz oshdek gap. Qorning to‘yadi-yu, ko‘ngling to‘lmaydi. Sizga ham, qaragam, ikkita go‘dagingiz bilan oson emas ko‘rinadi. Nima dedingiz?

Regina Petrovna o'girilib qaramay qaynoq pechka va qozonning oldida yelib yugurar, uning savollariga javob bermasdi. Birdan Regina Petrovna shu yerda qorovullik qilib turgan Kuzminchalar tomonga ko'z qirini tashladi-da, gapira ketdi:

– Men uchuvchining xotiniman... Bu nimani anglatishini bilasizmi? Bu kasb... – dedi u. – Shahrimizda urushgacha meni shunday deyishgan: uning kasbi «uchuvchining xotini». Kuzatish... Kutish. Keyin esa yana kuzatish... Biz, uchuvchilarning xotinlari uchrashganimizda bir-birimizga o'xshardik: hamma zeb-ziynat, latta-puttalar haqida gaplashishsa, biz samolyot va parvozlarning haqida suhbat qurardik. Kimning eri Shimolga uchgan, kimniki Amerikaga... Bunday gurunglar o'shanda urfdagi edi. Va har doim – urush haqida. Chunki o'sha samolyotlar bombalarni olib yurishardi, ular shunday deb nomlanadi – bombardimonchi samolyotlar. Bu harbiy sir bo'lsa-da, biz samolyotlar haqida hamma narsani bilardik: uning qancha bomba tashiy olishini, tezligini va biror kor-hol ro'y bergan taqdirda qayerga uchishini.

Urush boshlanganidan keyin esa ularni darhol Leningradga jo'natishdi, so'ngra ular Berlinga bombardimon qilish uchun uchib ketishdi. U yerdan masofa qisqaroq edi. U birinchi parvozdan qaytib keldi, uni o'zim kutib oldim. O'sha vaqtda mening erkakchalarim juda ham kichkina edilar. Urushdan qaytib kelmaganlarning oilasiga esa biz, qaytib kelganlarning rafiqalari borishimiz lozim edi. Shunday yozilmagan qoida bor edi bizda. Hali hech narsadan bexabar oilaning uyiga borishdan og'iri bormi. Va o'zingni unikiga tasodifan kirib qolgandek ko'rsatish...

Keyin esa ikkinchi uchish bo'ldi, bosh qo'mondonning o'zi shaxsan ularga buyurgandi uchishni. Kuchli taassurot qoldirish uchun. U yerda esa dushman tayyorlanishga ulgurgan edi, uchuvchilarimizni ularning yurtiga uchib borishga jur'at qilishlari birinchi safar fashistlarning miyalariga kelmagandi... Shunday qilib boshqa uchuvchilarning rafiqalari menikiga kelishdi...

Bizning yozgi shaharchamiz front chegarasiga aylandi, nemislar yaqinlashib kelar, menga esa uchuvchilarni kutib olishimga hojat yo'q edi. Bevaman, buning ustiga ikkita bolam bilan...

Bolalar uyiga bordim, begonalar bo'lgan joyda o'zingniki ham bo'ladi, boshqarish yengilroq. Buning ustiga ochlik! Keyin esa

bu yerga kelishga qaror qildim... Bu yerda yengilroq bo'ladi deb o'yladim...

Pishillab, kastrul chetidan suyuqlik oqa boshladi, Regina Petrovna voy deb yubordi:

– Qochib ketdi! Ana, bekorchi gap sotish nimalarga olib keladi...

U shosha-pisha pechkaga o'zini otdi, Demyan ham unga yordam berish niyatida irg'ishladi.

– Kel, ushlab turaman! Ushlab turaman! – bidirley ketdi u bekaning atrofida aylanib. – Men chaqqonman! Men o'zim ko'p narsani pishira olaman! Sen o'ylama!

Regina Petrovna olovni o'chirdi, qo'lining tashqi tomoni bilan peshanasini artdi-da, so'radi:

– Kartoshkani, Demyan Ivanich, tozalay olasizmi?

Shu zahoti kal Demyanga kartoshka tutqazdi, nafaqat stoldagi bankalar, balki jivirlanayotgan mehmonni rashk bilan kuzatib turgan Kuzminchalarni esa yoqilg'iga, ya'ni quruq shoxlar va tezaklar terib kelishga jo'natishdi. Bugun ko'p o'tin talab qilinaradi.

– Uni qara-ya, – dedi Kolka, ular uzoqroqqa, tomorqaning orqasiga yetganida orqasiga o'girilib. – Dimlangan go'shtni ko'rib qoldiyu, oshxonaga yopishib oldi... Chaqqonman! Chaqqonman emish! Dimlangan go'shtning oldida hammamiz chaqqonmiz! Chaqqonligidan kal bo'lib qolibdi!

– Yaltirboshlarning hammasi epchil, – tasdiqladi Sashka.

– O'zinikiga epchillik qilsin!

– Unga hech qanaqa banka kerak emas!

– Banka kerak emas? U oshqovoqqa qiziqyapti deb o'ylaysanmi? – so'radi Kolka.

– Yo'-o'q... Biz oshqovoqmiz, hech narsani tushunmadik! U o'zining xo'jaligi haqida gapirib bezor qila boshlaganida...

– Nimasini tushunish kerak? – hayron bo'ldi Kolka. – Eskirgan deydi... Pechkasiz.

– Eskiga-ku eski, – tasdiqladi Sashka. – Pechka haqida og'iz ochishi bilan darhol uni fosh qildim... U uylanishni xohlaydi!

Kolka dovdirab ukasiga tikilib qoldi. Hattoki tezak haqida ham unutdi. Uni Sashkaning kashfiyoti lol qoldirgandi.

– Kimga?

– Kimga?! Eh, sen!

Kolka ishonqiramay jim turar, ichida ushbu yangilikni hazm qilardi. Kutilmaganda gapirdi:

– U axir qari-ku? O‘ttizlarda bo‘lsa kerak...

– Nima bo‘pti? Regina Petrovna necha yoshda?

– Regina Petrovna boshqacha, – dedi Kolka dadil. – U chiroyli. Unga general uylanadi... Yoki marshal...

Kolka o‘ylab turib gapini to‘g‘riladi: – O‘zimiz unga uylanamiz.

– U bizga tegmaydi, – qo‘l siltadi Sashka.

– Nega tegmas ekan?

– Tentaksan sen, Kolka! – baqirdi Sashka ranjib. – Qanday qilib unga uylanasan, agar hali yosh bola bo‘lsang?

– Men axir o‘ saman-ku! – ping‘illadi o‘jar Kolka.

– Sen o‘sguningcha mana bunday kal va aqlli odamlar kelib, yonida sakrab, pechka, kartoshkalar haqida so‘zlab, keyin o‘zi bilan olib ketib qoladi!

– Men uni bermayman! – dedi Kolka. – Men uni o‘ldiraman!

– Demyannimi?

– Yoki zaharlayman! Uning pirogiga mingdevona aralashtirib qo‘yaman, – qaysarlik bilan takrorlardi Kolka. – Otini ham zaharlayman.

U tuplar orqasida oshxonaning ko‘kintir tutuni ko‘ringan tomonga qaradi-da, kuchining boricha baqirdi:

*Bitta oyoqli odamning
Shimi hecham yirtilmas.
Tole kulib boqqan, unga
Bir poy etik bo‘lsa bas.*

Kal Demyan uni bu yerdan, uzoqdan eshitmasdi. Kolkaning baqirig‘idan aka-ukalarning kayfiyati ko‘tarilmadi.

24

Biroq bayram – bu bayram, ko‘ndingmi – chida.

Buning ustiga, aka-ukalar qaytib kelib, yasanib, ko‘ylak kiyib olgan Regina Petrovnalarini ko‘rganlarida, uning kal Demyanga parvo qilmay, faqat Kolka va Sashkaga qarayotganini bilganlaridan so‘ng shunday fikr miyaga urdi: erta tegish? Kalga? Ikki dunyoda ham!

Uch karra chaqqon bo'lsin! Aylanib, o'rgilib, oxirgi shoqol kabi uyiga jo'naydi!

Kuzminchalar esa uning yonida qolishadi.

Tashvishlar sabab Kuzminchalar Regina Petrovna ularga qanday stol tayyorlab qo'yganini darrov payqashmadi. Mana buni dasturxon desa bo'ladi! Bordi-yu hamma bekitgan narsalarini qo'ysalar ham, ular bu stolga qo'yilgan go'zallikka bas kelolmaydi.

Kosalarda – Regina Petrovna o'zining erkakchalari bilan o'ylab topgan bo'lsa kerak – oq choyshab to'shalgan stolda misli ko'rilmagan har xil mahsulotlar savlat to'kib turardi. Bu yerda jo'xoridan yopilgan qizarib pishgan obinonlar, piyoz halqasi bilan bezatilgan cho'chqa yog'i, yupqa parrak qilib kesilgan kolbasa, yopishib qolgan shivitli tuzlangan bodringlar, pomidorlar, sarimsoq-piyoz va sevimli oshqovoq tilimlari bor edi. Tilimlar obi tobiga yetkazib pishirilgan, chetlari biroz kuygan va asali oqib turardi.

Yana bu stoldan Kazbek tog'iday chaqnab turgan qandlar ham joy olgandi. Shuningdek qahva yostiqchalari sochilgan, alohida idishga solingan jem ham stolga ko'rk bag'ishlardi.

Pirog dasturxonning o'rtasidan joy olgandi.

Pirog haqida alohida to'xtalib o'tish joiz.

Bu dumaloq, ko'p qatlamli, shu bois baland, hali sovib ulgurmayan pirog edi, u nafas olayotgandek tuyulardi!

Pirogning usti aylana qilib olxo'ri va olma bo'laklari bilan bezatilgan, o'rtasida esa oq kremda yirik harflar bilan: «KOLYA, SASHA, 17.10.44-y. URA!» deb yozib qo'yilgandi. Bu pirogga xuddi shamchalarga o'xshab o'n bir dona tillarang qamishchalar qadalgandi.

Bu bolalar ko'rishga ulgurgan hamma narsa emasdi, shu payt ularga ushbu sehrlil, aql bovar qilmas stolga birinchi bo'lib o'tirishni taklif qilishdi!

Ular hayiqib ketishdi!

Qahramonlarimiz taomni ko'rganlarida hech qachon o'zlarini yo'qotib qo'yishmagan, turibdimi, demak, yeyish kerak, keyin qolmaydi deb hisoblashardi. Bu yerda esa nima qilishni bilmay tikilib turishibdi.

Sashkaning badani jimirlab ketdi, hayajondan kutilmaganda sovqotganday bo'ldi. Kolka esa o'rindiqqa o'tiraman deb yiqilib tushay dedi, bunday go'zal manzaradan tili kalimaga kelmay qoldi.

Nihoyat o'tirishdi. Erkakchalarni ham o'tqizishdi. Kalbosh Demyan esa yoni bilan o'tirib oldi, unga yog'och oyog'i bermalol joylashib olishga xalaqit berardi.

U orqasidan qo'lbola araq to'ldirilgan shishani chiqarib, tirjayib (u tug'ilgan kun haqida bexabar edi, shishani esa oldindan tayyorlab qo'ygandi, kal shayton!), o'ziga va tarbiyachiga quydi. Regina Petrovna rad qilmadi. Demyan bolalarga ham quyib bermoqchi edi, Regina Petrovna darhol: «Yo'q. Ularga quymang», dedi.

Regina Petrovna o'shanda egizaklar Ilyanikida quyushqondan chiqqanlarini bilganida edi!

U yerto'laga tushib, bankaga berkitilgan sharbat olib chiqdi, bankani latta bilan artdi va bolalarning piyolasiga quyib berdi. O'ziga ham quyib, birinchi bo'lib ichdi.

– Mana ularga nima kerak! – dedi u. – Ichinglar, lekin bir ko'tarishda emas, ho'plab-ho'plab. Kelishdikmi?

Aka-ukalar bir vaqtda bosh silkishdi va uning qop-qora, miltillovchi, katta va chuqur ko'zlariga qarashdi.

Shu lahzada ularga hech qanaqa kalbosh kerakmasligi ayon bo'ldi! Baland dorga osilibsan! Tez-tez kelib turinglar! Hammasiga shunday deyishsa! Kal bo'libmi, cho'loq bo'libmi, titig'i chiqibmi... Qanday bo'lsa ham!

Regina Petrovna pechkadan qamishchani yoqib oldi va u bilan boshqa qamishchalarni uchidan yondirdi. Keyin esa:

– Puflang! – dedi.

– Nima? – hayron bo'lishdi Kuzminchalar.

– Olovni puflang! Qani? – Aka-ukalar turib puflashdi va qamishlarni o'chirishdi. Stolning ustini tutun qopladi.

– Haqiqiy erkaklar! – dedi tantanali ravishda Regina Petrovna va zavqqa to'lib stakanini ko'tardi. – Qani, bolalar, sizlarni tabriklayman. Mehribon, sog'lom, doim hozirgidek bo'lib qoling, sizlarni juda yaxshi ko'raman! Mening himoyachilarim!

Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi. Ular eshitishni xohlagan asosiy narsa shu edi. Regina Petrovna ularni yaxshi ko'radi. Kallarni esa yo'q. Va ular nordon vino icha boshlashdi. U bolalarga birdan yoqib qoldi. Bo'shatib bo'lgach, yana so'rashdi.

– Bu sharbat emas-ku! – dedi Regina Petrovna. – Bu axir vino-ku! Uni chelaklab ichishmaydi!

– Biz esa ichamiz! – javob qildi Kolka. – Endi har oy shunday bo‘ladimi?

– Nima bo‘ladi? – so‘radi Regina Petrovna.

– Bayram. Tug‘ilish bayrami.

– Bularni qarang-a! – xitob qildi Demyan, u kafti bilan yog‘och oyog‘ini qarsillatdi va qahqah urib kula boshladi. Tarbiyachi ham kulib yubordi.

– Yo‘q, azizlarim, – dedi u. – Faqat bir yilda bir marta... Biroq – har doim.

– Har doim? – so‘radi Kolka. – Yigirma yoshda hammi?

– Albatta. O‘ttizda, qirqda ham...

– Biz unda qari bo‘lamiz, – gap tiqishtirdi Sashka. – Biz hammasini esimizdan chiqarib yuboramiz.

– Hech narsani esingizdan chiqarmaysizlar...

Regina Petrovna qizlarga o‘xshab yengilgina sakrab turdi, paxsa uyning orqasiga g‘oyib bo‘ldi va shu zahoti qo‘lida bir narsani ko‘tarib qaytib keldi. Kelib aka-ukalarning tizzasiga gazeta o‘ramini qo‘ydi.

– Bu esa bizdan... Erkakchalardan ham.

Chaqnab turgan ko‘zlari bilan bolalarga qarab, joyiga o‘tirdi.

U bo‘yniga terilgan mevalardan qizil marjon taqib olgandi... Hatto Demyan ham mahliyo bo‘lib tomoq qirdi va xijolat bo‘lib o‘zining yog‘och oyog‘ini yig‘ishtirdi.

Boshqa vaqt bu holat aka-ukalar e‘tiboridan chetda qolmasdi, lekin ular hozir o‘ram bilan mashg‘ul edilar.

Ular hayotlarida hech qachon sovg‘a olishmagan. Bugun ularning bayrami ekanligini aytib, bittadan qotgan non va ozgina pista berishgan kunlardan tashqari... Qotgan nonlarni chaynamay yutib yuborishdi, pistani chaqib tashlashdi, bayram esa ularning yana yegulik xohlashi bilangina xotiralarida saqlanib qoldi! Ammo hech vaqo berishmagan edi!

Endi esa ular o‘ramlarni nima qilishlarini bilmay turishardi. Ochish yoki ochmaslik, balki, olib qo‘ymagunlaricha tezroq zaxira joyga olib borib berkitib qo‘yish kerakdir!

Regina Petrovna hammasini tushundi.

– Hozir uni birgalikda ochib, ichida nima borligini ko‘ramiz...

U yaqinroq o‘tirgan Sashkaning qo‘lidan o‘ramni olib, gazetani ochdi.

Uning ichida yangi, havorang, yoqa va tugmali ko'ylak bor edi. Ko'ylakning ostiga esa cho'ntakli shim joylangandi. U ham moviy rangda edi. Yana uning ichida sariq, osti baland, keng tilli va sariq bog'ichli botinka ham bor edi. Qo'shimchasiga katak dastro'mol: arifmetika daftariga o'xshash va rangdor naqshli shapka. Shapkani do'ppi deb nomlashdi. Sashka esa darrov: «Po'ppi» deb hammani kuldirdi.

Faqat Kolka birdan yuzini burishtirdi va kosaga qarab sekingina: «Menga-chi?» deb qo'ydi. U tizzasida xuddi shunday o'ram turganini unutgan ekan.

Davrada yana kulgi ko'tarildi va ular gazetani ocha boshlashdi. Uning ichidan xuddi shunaqa, faqat yashil rangdagi narsalar joy olgandi.

Bolalardan sovg'alarni kiyib ko'rishni so'rashdi.

Ular zo'r diqqat bilan pishillab, burchakka o'tib ketishdi va kiyina boshlashdi.

Kiyina turib, bolalar bir-biri bilan gaplashmasalar-da, har biri ayni damda nimani o'ylayotgani va his qilayotganini bilishardi.

Sashkaning hayajondan yuzi qichishardi, hatto qizil dog'lar ko'rindi, buni Kolka darhol payqadi. Kolkaning esa birdan chap oyog'i qaltiray boshladi, u o'sha chap oyog'ini shimga hecham tiqolmasdi.

Kayfiyati tushib dedi:

– Sen birinchi bo'lib bor! Sen aqlliroqsan! – Sashka esa javob berdi:

– Sen ham ahmoqmassan! Nega men birinchi bo'lib borarkanman?

– Men qo'rquyapman, – tan oldi Kolka. – Men hech qachon bunday yurmaganman.

– Men ham yurmaganman. Yarashdi deb o'ylaysanmi? Yoki yarashmadimi? – Kolka Sashkaga qaradi va ko'zlarini qisdi. Har kuni shunday yurishi mumkinligini o'ylab aqldan ozay dedi. Ko'zlari jimirlashib ketdi. Umuman, bu koloniyachining kiyimi emas, bir zumda uxlatib ketishadi. Ko'rganlar ularni koloniyachilar emas, qandaydir qalloblar deb o'ylashi aniq! Aqli raso odamning ustida shuncha kiyim bo'lishi mumkinmi! Kiyib ko'rsatib darrov yashirish kerak! Keyin esa chayqov bozoriga olib borish! Olibsotarlilar qo'llari bilan uzib olishadi!

Biroq Kolka bularni aytmadi, u xuddi o'ziga chetdan qarayotgandek edi. Xo'rsinib, dedi:

– Yarashibdi.

– Senga ham!

– Yana... Xuddi bu sen emas, fon-baron!

– Senda g'ichirlayaptimi? – so'radi Sashka.

– Qayerimda?

– Hamma yog'ingda. Menda biroz siqyapti... Balki tugmalarini uzib tashlash kerakdir?

– Uzib tashlasa bo'ladi, – dedi Kolka biroz o'ylanib. – Faqat achinadi odam. Qara, qanday yaltirashini!

Chiqishni kechiktirib, uzoq gaplashib qolishdi. Shuning uchun yig'ilganlarning o'zlari aka-ukalarning oldiga kelishdi. Demyan hayratda qolib: «Ha-a. Bashangvoylar!» dedi. Erkakchalar zavqdan qotib qolishdi. Regina Petrovna qarsak chalib yubordi.

– Ha, yigitlar! – xitob qildi u. – Ana, haqiqiy egizaklar! Lekin endi sizlarni umuman tanimayapman! Sen Kolkamisan? – deya Sashkaga barmog'i bilan ko'rsatdi.

Bolalar kulib yuborishdi. Regina Petrovna esa xijil bo'lmadi, bu safar u hazillashayotgan edi.

– Yuringlar dasturxonga, – dadillik bilan buyurdi u, hamma bolalarga o'girilib qarashdi, ular aka-ukalarning qochib ketishidan qo'rqishardi. – Yeyishni boshlashinglar bilan darhol bilib olaman... Xu iz xu?

Kalbosh Demyan bu so'zlarni eshitib negadir uyalib ketdi va yana bir karra ichishni taklif qildi.

Keyin ular aylanishga chiqishdi va podani ko'rib qolib, Demyan ularga fokus ko'rsatdi. U sigarka¹ni yoqib uzoqdan echkiga ko'rsatdi. Echki shu zahoti yugurib kelib sigarkani og'ziga oldi. Uning burun teshiklaridan tutun chiqa boshladi... Keyin echki sigarkani yeb qo'ydi va og'zi ham tutay ketdi!

– Eh, nega bechora hayvonni xo'rlayapsiz? – so'radi Regina Petrovna. Biroq uning kayfiyati chog' edi va bu so'zlarni gina-kuduratsiz aytdi. – Keling, yaxshisi buzoqlarimizga laqab o'ylab topamiz.

¹ Sigarka – qog'ozga qo'lda tamaki o'rab yasalgan papiros.

Birinchi bo'lib aka-ukalarga o'ylab topishni taklif qilishdi, axir bugun ularning tug'ilgan kunlari-ku!

Aka-ukalar cho'zib o'tirmay birinchi, ochko'z buzoqni Shoqol, ikkinchisini Tekintomoq, ikkita g'unajinni esa – Bepul va Yaramas deb nomlashdi.

Regina Petrovna laqablarni ma'qullamadi, biroq hech narsa demadi. Qanday bo'lsa, shunday nomlashdi. Ammo ikkinchi juft buqachalarni Kuzminchalar deb nomlashni taklif qildi.

– Shunday nomlash mumkinmi? – so'radi Sashka.

– Nima qilibdi? Ahil buzoqchalar. O'marishsa, qaytarib berishadi. Xullas, yaxshi buzoqchalar.

Ular nom borasida bahslashishayotgan bir paytda cho'loq Demyan ko'zini qisdi va tomorqaning olis burchagiga, butazor tomonga qarab ketdi. Birdan kattakon tarvuz bilan qaytib keldi.

Kuzminchalar dastavval uning qo'lida oshqovoq bo'lsa kerak, deb o'ylashdi, keyin yaxshilab razm solishdi: yo'l-yo'l! Axir bu tarvuz-ku! Haqiqiy tarvuz!

Shunda hamma raqsga tusha boshladi, erkakchalar ham hech bo'lmasa tarvuzni ushlab ko'rishni so'rab sakray ketishdi.

– Qayerdan oldingiz? – so'radi hayron bo'lgan Regina Petrovna. – Siz ham zaxira qilib qo'yasizmi? – Demyan kulib qo'ydi va sochsiz boshini chayqadi.

– Axir men tarvuz arig'i haqida aytishni unutilibman-ku... Ketishim bilan mana bular, – boshini irg'itib aka-ukalarni ko'rsatdi, – topib olishadimi-yo'qmi deb o'yladim. Ular tajribali ayg'oqchilar bo'lsa-da, buni payqamabdilar!

Kuzminchalar bir-biriga qarab qo'yishdi va bir vaqtda tarvuz arig'ini payqamaganliklarini anglashdi, ha, bu chindan ham sharmanda! Hamma yoqni hidlab chiqishdi, shakarqamishni ham, yong'oq darraxtinini ham, Regina Petrovnaning bo'ynida osilib turgan marjondagi mevalarni ham. Ularni zirk deb nomlashar ekan. Biroq tarvuzlarni, yana bunday ulkan tarvuzlarni... Ha, yaramas kal, yaxshigina boplad-ing! Aka-ukalarni butun koloniyaga sharmanda qilding! Balki aldayotgandir, tarvuzni uyidan olib kelib hammaga maqtanayotgandir!

Ammo Demyan gijgijlashni oshirib yuborganini o'zi ham tushundi. Tarvuzni stolga olib kelib, hammaga bir tilimdan kesib berdi, aka-ukalarga esa eng shirin o'rtasini berdi.

– Bundayini yemagan bo'lsalaring kerak!
– U temirdan emasmi? – so'radi Kolka ahmoq qilib.
– Nima? Qanaqa temir? Tarvuzga o'xshagan tarvuz! – Aka-ukalar esa shunday latifa borligini aytishdi...

Ular ikkita lofchi o'rtoq haqidagi latifani aytib berishni so'rashdi.

– Qani, ayting-chi, – qiziqsindi Regina Petrovna.

Aka-ukalar turib, bir-biriga qarashdi.

KOLKA: Qayerlarda bo'lmadim deysiz... Ha! Har yerda bo'ldim!

SASHKA: Parijda bo'lganmisan?

KOLKA: Bo'lganman.

SASHKA: Fel minorasini ko'rganmisan?

KOLKA: Nafaqat ko'rganman, yeganman ham!

SASHKA: Qanaqa qilib yegansan? Axir u temirdan-ku!

KOLKA: Hm. Sen Kavkazda bo'lganmisan?

SASHKA: Bo'lganman.

KOLKA: Qimiz ichganmisan?

SASHKA: Nima?

KOLKA: Qimiz, deyman, ichganmisan?

SASHKA: Yo'q... Uni tuta olmayсан. U temirdan-ku!

Atrofdagilarga qo'shilib aka-ukalar ham kulib yuborishdi. Erkakchalar esa tushunmagan bo'lsalar-da, qarsak chalishni boshlashdi. Regina Petrovna ularni maqtab qo'ydi, lekin to'g'riladi: Fel emas, Eyfel minorasi. Uni Eyfel qurgan.

Berkutilgan tarvuzdan qasos olindi va aka-ukalar uni mamnuniyat bilan yeb tugatishdi. Endi ular maxfiy ariqni aniq qo'ldan boy berishmaydi! Butun qamishzorni yoyib tashlashadi, lekin tarvuzni albatta izlab topishadi. Agar Demyan yolg'on gapirmagan bo'lsa! Bordi-yu aldagan bo'lsa, demak, latifa aynan u haqida!

Regina Petrovna buni tushundi. Biroq u ushbu kun do'stona ruhda yakunlanishini xohlardi. U qo'shiq kuylashni taklif qildi. Qanday bayram qo'shiqsiz bo'lishi mumkin?

Aka-ukalar darrov rozi bo'lib, o'ktamlik bilan boshlashdi:

*Qiyinalar yolg'iz boshim,
Yetmas sabr-u bardoshim,
Bu g'amlarga chidolmay,
Sekin oqar ko'z yoshim.*

Biroq Regina Petrovna xuddi ularni qo'shiq bilan birga nariga su-
rib qo'ygandek qo'l siltadi. U o'zinikini kuylay boshladi:

*Qaytardi bir kazak bozordan uyga,
Yo'lda ko'rib qoldi Galyani shunda.
Yo'ldan urdi qizni, Galya, Galyani,
Olib ketdi qizni, Galya, Galyani...*

Shu paytda Demyan yo'talib tomog'ini qirdi va birdan shunday
ta'sirli, shunday ingichka, baland ovoz bilan jo'r bo'ldiki, aka-uka-
larning nafasi giriboniga keldi:

*Ketik Galya, Galya, men kazak bilan,
Baxtli qilay seni har lahza, har dam.*

Kuzminchalar ham, Regina Petrovna ham xursandchilik bilan ilib
ketishdi:

*Eh, Galyajon, Galya, seni aldashdi,
Yo'ldan ozdirishdi, olib ketishdi.*

Kal Demyan bo'lsa qayoqqadir ketdi-da, balalayka bilan qaytib
keldi. Balalayka g'ayrioddiy, uzun dastali bo'lib, bundayini aka-uka-
lar ilgari ko'rishmagandi.

– Kulbadan topvoldim, – maqtandi Demyan va uchta torini chalib
qo'ydi. – Chechnyaliklar vaqtichog'lik qilishgan, yog'och garmon
deb nomlashgan deyishadi... Omi odamlar! U qanday qilib garmon
bo'lsin, bu haqiqiy balalayka-ku! Yupqa instrument! U bilan o'ziga
xos muomala qilish kerak!

U mast odamday kulib, torlarini chertdi va bo'g'iq qisqa tovush-
lar chiqarib, to'satdan qo'li bilan zarb berdi va ko'zlarini osmonga
qaratib, baland ovozda kuylay boshladi.

Kuylab bo'lib, to'xtam qildi va Regina Petrovnaga qaradi. Yana
mastlardek tirjaydi. Uning ko'zlari chaqnardi.

Demyan baland ovozda kuylamasa-da, biroq ephillik bilan cha-
lardi. U xuddi Regina Petrovna haqida kuylayotgandek edi. Kuzmin-
chalar rashkdan oyoq uchida turib, bo'yinlarini cho'zib, Demyanning
og'ziga qarashga harakat qilishardi... U o'zining ovozini shunday
kuchli, shunday silliq boshqarardiki... Va uchta torli chechencha ba-
lalayka uning qo'lida ruschasiga nola qilardi. Ana mo'jiza!

Shu lahzalarda aka-ukalar uni, ayyor ablahni hammasi uchun kechirishdi: berkitilgan tarvuz uchun ham, sigarka chekkan echki uchun ham, hattoki tarbiyachi Regina Petrovnaga qilayotgan xushomadi uchun ham.

Bolalarni hayratga solgan yana bir narşa: nafaqat qamoqxona haqidagi qo'shiqlarni, balki bir beva to'g'risidagi ashulalarni ham ta'sirli qilib kuylasa bo'lar ekan.

Ular bundayini ilgari ko'rishmagan va bilishmagan edi. Ayniqsa, qo'shiqning oxiri ularni qayg'uga botishga majbur qildi. Ikkalasi ham yig'lab yuborishlari mumkin edi, biroq bu haddan tashqari bo'lardi... O'sha qo'shiqning mazmuniga ko'ra oxirida beva ayol savdogar va baliqchini dasturxonga taklif qiladi, ular esa qo'shiq kuylay boshlashadi, bu vaqtda pahlavon yigit derazadan poylab, tishini tishiga qo'yib, chidab turardi... Keyin esa dosh berolmay sakrab chiqib hammasini o'ldiradi! Demyanning qo'shig'i mana shunday yakunlanardi.

O'sha vaqtdan boshlab qishloqda hech kim yashamas, yolg'iz bulbul baland ovozda qo'shiq kuylar emish...

Hamma yo bunday mudhish voqeadan, yoki sevgi o'tida yonib bevani o'ldirgan pahlavondan ta'sirlanib jim o'tirardi. Regina Petrovna erkakchalarini uxlatishga olib ketdi va biroz o'tib qaytib keldi. Quyosh botmoqda edi, qorong'ilasha boshladi, g'amginlik, sokinlik, iliqlik hukm surardi atrofda. Qisqasi, baxtiyor lahzalar edi. Aka-ukalar baxtni sezishmayotgan bo'lsalar-da, balki keyinroq sezishar. Agar sezishsa. Agar buni tushunish uchun vaqtlari bo'lsa!

Yo Xudo, hayot, yillar naqadar o'tkinchi...

Kavkaz tog'i etagidagi jannatmonand qishloqchamizda o'tgan o'sha ta'rifga sig'mas kechamizni eslayman. Qanchalik ajablanarli bo'lmasin, sehrGAR Regina Petrovna tomonidan biz uchun o'ylab topilgan kun butun hayotim mobaynida mening tug'ilgan kunim bo'lib qoldi. Ehtimol o'shanda haqiqatan ham tug'ilgan bo'lsam kerak, deb o'ylayman. Men atrofga qarab, hayotning shu o'sha damdan e'tiboran men uchun o'zgargan lahzalarini topishga urinardim. Lekin hammasi odatdagidek edi: kechga borib qorong'ilashgan, biroq musaffo, bulutsiz osmon ham, iliq, bir kun oldin iligan maysa ham, quruq, yovshan hidi ham, Demyanning shu atrofda o'tlab yurgan oti ham – hammasi tinch va osoyishta hayotimiz manzarasini to'ldirib turgandek edi. Men bunday bo'lmasligini, bordi-yu bo'lsa

ham, bu yaxshilikka emasligini bilardim, aniq bilardim, hammasi haddan tashqari yaxshi edi, keyin yomon bo'lmasa bo'lgani. Biroq aynan o'shanda har xil yomonliklarni sezib, men birinchi marta tirik ekanligimni, chindan ham mavjudligimni, keyin esa o'lib qolishim mumkinligini sezdim. Ushbu yurakni ezuvchi bebaqolik tuyg'usi meni butun umrga shikastladi, menga chaqmoq kabi, haydovchi Veraning naq yuragiga tekkandek tegdi! Hech qachon o'lmaslikni qanchalar xohlar edim, yo Parvardigor! Biroq keyinroq, bir ilmiy maqolani o'qigachgina, menda o'sha mahal «o'lim geni» uyg'onganini tushundim. U hamma odamlarga berilgan, biroq ma'lum vaqtgacha o'zini namoyon qilmaydi, faqat erta yoshlikning qandaydir daqiqasida o'zini ayon etadi... Keyin bo'lsa butun umrga... Bolalar esa, o'sha vaqtda men kabi, sodir bo'layotgan narsalar haqida bexabar bo'lgan holda yashaydilar, shu sababli ular mangudirlar.

25

Ertasi kuni ertalab, tog'lar ortidan quyosh ko'rinishi bilan Demyan qaytishga tayyorlik ko'ra boshladi. Aravasiga qamish to'shab, ikkita katta oshqovoq soldi.

Regina Petrovna derazadan uning taraddudini ko'rib, yo'l-yo'lakay ko'ylagining tugmalarini qadab shoshilib chiqdi.

– Siz Kuzminchalarimni o'zingiz bilan olib ketolmaysizmi? Biz oziq-ovqatlar olishimiz kerak edi.

U Demyanning yuziga qaramas, sal narida turardi.

Hammasiga sabab kechagi tunda sodir bo'lgan voqea edi. O'shanda Demyan sovuqotganini bahona qilib loysuvoq uyning polida uxlashni so'rab kirib, keyin o'zini mastlikka solib adashib to'shakka yotib olgan, Regina Petrovna esa uni haydab yuborgandi. Demyan qotib uxlab yotgan bolalarning yonidagi qamishga joylashib oldi. U tuni bilan qo'lda o'ralgan papirosini chekib, tong ottirdi. Biyskdagi gospitalda o'zini suvga tashlab o'ldirish uchun daryoga kelganini esladi: xatda fashistlar xotini va ikkita farzandini uyi bilan birga yoqib yuborishganini yozishgandi, u esa cho'loq, hech kimga kerak emas... Uni hali zaxiraga olishmagan, u gospital xo'jaligida ro'yxatda turardi.

Xullas, u qarmoq bilan daryo qirg'og'iga keldi, u yerning suvini esa tep-tekis Rossiya bilan solishtirib bo'lmaydi – girdob-u ko'piklar. Gumburlab tevarak-atrofnı boshiga ko'taradi.

Suvga egildi, boshi aylana boshladi. Eh, oilasiz hayot hayot emas!

Shu yerda Demyanni baqirtirib uning taxta oyog'ini arra bilan aralagan shifokor ayol yurgan edi... U qanday qilib o'sha qirg'oqqa borib qoldi, aylanib yurganmidi? Ayol uni ko'rib qoldi va: «Demyan Ivanich, spirtidan xohlaysizmi? Yuring, siz uchun olib qo'yganman» deydi. Demyan rozi bo'ldi. Bir stakan ko'tardi, yengillashdi. Chekdi. Ayol esa yana quyyapti. «Ichavering, qo'rqmang. Siz bu yerdan qayoqqa ketmoqchisiz?» U yana yarim stakanni bo'shatdi. «Bilmayman», deb to'ng'illab qo'ydi. O'zi esa o'yladi: «Sal qoldi ketishimga... Girdobga, boshim bilan».

Ayol esa Kavkazda hosildor yerlar bo'sh yotibdi, erkaklarni kutyapti deydi. O'zini sinab ko'rsa nima qilibdi? O'ttiz yosh – hech narsa emas, bu erkaklarda o'smirlik davri degan gap.

– Bo'ldi, – takrorladi ayol. – Farzandli bo'lishga, bolalaringizni katta qilishga ulgurasisiz.

Shifokor ayol yahudiy edi. Turmushga chiqqandi. Eri surgunda, u erining yonida, balki eri uning oldida shu yerda, o'rmon xo'jaligida mehnat qilishardi. Ularning hayoti ham, bundoq olib qaralsa, asal emas. U, Demyan esa ozodlikda, balki chindan ham oila qurib farzandlarini katta qilar. Baribir bundan yomoni bo'lmaydi, deb mulohaza qildi. Chindan ham, yo'qotadigan nimasi bor! Va o'zi ko'nikmagan tog'larga ajabsinib qarab, ketdi. Qora yerga shox tiqasan, bir necha kun o'tib qarabsanki, gullab turibdi!

Egasi kimligi noma'lum begona uyga joylashib, uni tartibga keltirdi, yerto'la qazidi, yo'lga tosh yo'l yotqizdi va ikki tomoniga terak ekdi...

Omborxonani ta'mirladi, quduqni tozaladi, o'zining qishlog'ida bo'lgani kabi qo'lbola araq tayyorlab shishalarni to'ldirdi. Atrofiga nazar tashlab qarasa, hamma narsasi bor, lekin nimadir yetishmayotgandek! Unga aslida bir hovuch makkajo'xori-yu bir bo'lak non kifoya. Boshqa hech narsa kerak emasdek. Kerak ekan! Shu yerda yashasang, atrofigda bolalaring yugurib yurishsa, mollaring ma'rab xo'rozlaring qichqirsa va ostonadan qo'lida ko'za bilan ayoling kutib olib, qo'lingga suv quyib, sening pishqirib ish kunidan orttirgan teringni yuzingdan yuvayotganingni kuzatib tursa.

Ichishni boshladi. Yana bir o'zi. Yana ko'ziga suv girdobi ko'rina boshladi. Ko'zini yumdi – hech narsa yo'q. Bo'lmagan ham. Gap

mana shunda. Bari xom xayol, tirikdek tuyulasan o'zingga... Jon-landing... Ayol shifokor aqlli bo'lsa ham, Demyanning ichki kechinmalarini his qilishga ulgurmagan. Mana qanday xulosaga keldi u. Yordamchi xo'jalikka birinchi marta kelganida, poyezd tez-tez o'tib turadimi deb relslarga qarab qo'yardi. Bu yerda girdoblar yo'g'u, relslar qancha xohlasang yetarli. Relsga yotasan-u poyezdni kutasan. Buning ustiga poyezd uchib o'tsa, uning aks sadosi tog'ga urilib orqaga qaytadi.

— Qarasa – yordamchi xo'jalikda tarbiyachi bolalari bilan paydo bo'ldi.

— O'zingiz bilan olib ketasizmi, yo'qmi, Demyan Ivanich? – so'radi u quyosh nuridan ko'zini qisib.

— Chiroyli xotin, qaddi-qomati raso, qo'llari ham, oyoqlari ham joyida, sochi yalmog'izlarnikidek orqaga turmaklangan. Og'ziga labbo'yoq surmagan, yuzi tabiiy.

— O'zing-chi? – qo'pol ovozd qiziqdi Demyan. – Meni yengiltak deb o'ylayapsanmi?! Xotinboz deb, ha?

— Nega unday deysiz?.. Men sizga ishonaman, Demyan Ivanich. O'zim shunday shubhalanuvchi ko'rinsam kerak... Shunaqa ahmoqman! – dedi Regina Petrovna, hamon quyosh nuridan ko'zini qisib va unga qaramay. – Bolalarimdan biri kasal bo'lib qoldi... Ortiqcha yeb yuboribdi, tun bo'yi ichi ketdi. Bo'lmasa albatta o'zim ohb borardim. Men aynan Kuzminchalarni jo'natgim kelmayapti. Ulardan xavotirlanaman!

U aybdordek turardi. Demyan unga achindi.

— Men sizga popka olib kelaman. Onam tovuq oshqozonining yupqa pardasini olib quritib, keyin maydalashni o'rgatgan, shuning uchun nomi shunaqa antiqa – popka. Har qanaqa ichburug' va kasalliklarni davolaydi...

— Rahmat, – sekingina dedi Regina Petrovna hamon uning javobini kutib.

— Bolalarni olsam olaveraman. Aravam katta. Lekin qaytishdachi?

— Qaytishda olib kelolmaysizmi? – Demyan chamalab ko'rdi:

— Borib kelish – bir kun. Qo'yib yuborishmaydi-ku.

— Unday bo'lsa siz stansiyagacha olib keling, – jon-jahd bilan dedi Regina Petrovna. – Stansiyagacha yetkazing, men bo'lsa eshakda sizlarni kutib olaman... Bo'ladimi?

Demyan tomog'ini qirib, kal boshini silab qo'ydi. Burilib aravasi tomon yo'l oldi. O'girilmay, gapirdi:

– Uyg'oting ularni! Vaqtim ketyapti!

Regina Petrovna aka-ukalarni shoshib uyg'ota boshladi. Ular esa kecha holi-joni qolmay charchashgandi, hozir uyqusirab hech narsani tushunishmaydi. Tarbiyachi ularni turtib uyg'otdi, yuzlarini yuvib qo'ydi, u-bu narsa yeb olishni tayinladi. Biroq bolalar rad etishdi.

Ularga sumkaga yorma uchun ikkita kattagina qop soldi, sumkaning o'zi esa non uchun mo'ljallandi. Ichiga yana buterbrodlar va sut quyilgan shisha soldi. Bu shishaga, agar imkon bo'lsa, qaytishda o'simlik yog'idan quyib olishlari kerak bo'ladi.

– Eslab qoldingizmi? Esingizdan chiqmaydimi? – so'radi aka-ukalardan. Ular esnagancha bosh silkishdi. Hech ham uyg'ona olmasdilar. Har birining qo'ltig'ining ostida o'ram: kechagi sovg'ani o'zlari bilan birga olgandilar.

– Bularni nega oldingiz? – hayron bo'ldi Regina Petrovna. – Koloniyada qoldirib kelmoqchimisizlar?

Aka-ukalar bosh chayqab qo'ydilar. Yo'q, ular bunday boylikni koloniyaga olib borish uchun ahmoq emaslar!

– Zaxiraga berkitishgami? – fahmladi u. Aka-ukalar indamadilar. Javobi ma'lum edi.

– Yaxshisi, tashlab keting, – maslahat berdi Regina Petrovna. – Hech kim kiyimlaringizga tegmaydi. Va'da beraman. Xo'sh?

Aka-ukalar bir-biriga qarab qo'yishdi va o'ramlarni qaytarib berishdi.

– Boringlar... – deya boshlarini silab qo'ydi, birini o'ng, ikkinchisini chap qo'li bilan. – Agar direktor so'rasa, bu yerda yaxshi yashayapmiz, hamma narsamiz yetarli, deb aytinglar. Koloniyachilarni qo'rqmay terimga jo'nataverishi mumkin.

– Qo'ysangiz-chi ularni! – dedi Sashka o'girilayotib. Kolka ham bosh silkidi.

Regina Petrovna aka-ukalarni aravagacha kuzatdi va orqaga o'tqizib qo'ydi.

– Ularga ko'z-quloq bo'ling, Demyan Ivanich! Har holda... U yoqda notinch... Men esa, kelishganimizdek, ertaga kutib olishga chiqaman.

Demyan poxolni titkilab, sitilgan kepkasini topdi va peshanasiga bostirdi. Kepkasining soyabonidan tarbiyachiga tik qaradi. Uning ko'zlari ertalabki yorug'likda moviyrang, bolalarcha ko'rinardi.

– Ko'z-quloq bo'lish nimaga kerak, u yoqda hozir tinch. Men bu yerga kelayotganimda hammasini frontchasiga o'rganib chiqdim. Bizning jangchilarimizni toqqa mashinalarda olib chiqishdi. Shu qadar ko'p opchiqishdiki, xuddi Stalingradni qurshab olmoqchiday. Qarama-qarshi tomonga esa, haligi... qoralarni ortib olib ketishdi.

– Olib ketishdi? Qanday qilib olib ketishdi? – so'radi Regina Petrovna birdan rangi oqarib. – Umid qilamanki, ular tirik qolgan.

– Har xillarini! – qo'l siltadi Demyan. – Men kecha aytmoqchi emasdim. Ular bilan hammasi tugadi deb o'ylayman – endi tinchroq yashaymiz...

Regina Petrovna qovog'ini soldi.

– Meni kechirasiz-u, siz xuddi xursand bo'layotgandeksiz...

– Nima, yig'lashim kerakmi! – birdan tutaqib ketdi u. – Ular bizni yo'q qilgandan ko'ra, biz ularni... Yoki sen, uzr-ku, boshqacha bo'lishini xohlaganmiding? Shuncha qo'rqitishgani kamlik qildimi?

Regina Petrovna boshini chayqab bolalarga qaradi.

– Men-ku hech narsani xohlamayman. Biroq nega ularni o'ldirish kerak?

– Boshqa iloji bo'lmagan ko'rinadi. Gitlarga sotilishibdi! Urushdan oldingi prokurordan o'zlariga general qilibdi! Ularda ruslarni qirish – milliy bosh og'riq!

– Bordi-yu sizni ham uyingizdan haydab chiqarishsa-chi? – so'radi asta Regina Petrovna.

– Meni haydab chiqarishgan! – ensasi qotgandek kulib qo'ydi Demyan. Lekin unga kulgili tuyulgani amrimahol. – Ot uchun, o'n olti yoshda edim. Quloq sifatida ro'yxatga olishdi. Mayli. Berib yubordim otimni. Rahmat dedim. Aksincha, otsiz yengilroq bo'ldi. Mana, kolxoz aravasida yuribman... Shu shababli hozir tirikdirman!

– Bilmayman... Biz boshqa narsa haqida gaplashyapmiz. – xo'rsindi Regina Petrovna. – Siz shunchaki urushda diydangiz qotib, bag'ritosh bo'lib qolgansiz. Shuning uchun xavotirdaman... Siz har ehtimolga qarshi bolalarga ko'z-quloq bo'lib turing, iltimos... Eshit-yapsizmi?

Demyan burilib otini qamchiladi.

Aka-ukalar bir-birini quchoqlab olib, oyoqlarini aravada osiltirib o'tirishar va Regina Petrovnaga qarashardi.

– Men ertaga tushlikka yetib borama-a-an! – orqalaridan baqirdi u va qo'l siltadi.

Aka-ukalar har xil ovozda: «Xo'-o'p!» deya javob berishdi. Demyan javob bermadi va burilib qaramadi ham. Xuddi bu so'zlar unga tegishli emasdek. U kepkasining soyabonidan yo'lga qarab indamay ketardi.

U butun yo'l davomida gapirmadi.

Aka-ukalar uning nima uchun jim ketganini darrov anglashdi: unga yo'lakdan javob berib yuborishgandi! Uning ovozi shirali bo'lsa ham, kuyovga arziydigan emas-da!

Yo'lda aka-ukalar ehtiyoj yuzasidan yo'l yoqasidagi jo'xorizorga kirishganlarida Kolka shunday dedi:

– Kalning kavushini to'g'rilab qo'ydi!

– Mening esa rahmim kelyapti unga, – javob berdi Sashka. – U zo'r kuylaydi!

– Bizni esa bugun direktor kavushimizni to'g'rilab qo'ymas-mikin? – mavzuni o'zgartirdi Kolka. – Xat haliyam unda-ku!

– Esidan chiqib ketgan bo'lsa kerak... Uning bizga vaqti yo'q!

– Asosiysi, bekitilgan narsalarni olsak bo'lgani, – dedi Kolka. – Men juftakni rostlash kerak deb o'ylayman.

– Regina Petrovna-chi?

– Nima Regina Petrovna? U axir tug'ilgan kundan keyin ketishga va'da berdi-ku!

– Kelmasa-chi?

– Nima qipti?

– Unga achinaman...

– Achinma! Hozir uning atrofida achinuvchilar ko'p! – Sashka jah! ustida shimining tugmasini uzib yubordi. Yo'lga chiqayotib, dedi: – Nima desang de, men uni tashlab ketmayman.

– Umumanmi?

– Nima deganing – umuman?

– Umuman-da? – qaytardi hayron bo'lib Kolka. – Men bilan ketmaysanmi?

Sashka bosh irg'adi.

Ana sizga gaplashib olish. Umrlarida birinchi marta ular o'z ixtiyorlariga ko'ra bir-biridan ajralishlari mumkinligi ma'lum bo'ldi.

Kolka quloqlariga ishonmadi. Agar unga kimdir bu haqda aytganida, bunga ham ishonmasdi! Ularni ajratib bo'lmaydi, ular bo'laklarga ajralmaydi, arifmetikada shunday tushuncha bor... Bu aynan ular haqida!

Kolka Sashkaning aqldan ozganini tushundi. Vaqtincha bo'lsa mayliga, biroq... U noxush xayollarni nari haydadi, Sashkaga esa:

– Qaytib kelaylik, o'shanda hal qilamiz. Kelishdikmi? – dedi va unga tugmaning o'miga Regina Petrovna sovg'a qilgan kumush kamarini berdi.

– Kelishdik. – rozi bo'ldi Sashka. Ehtimol u o'zi emas, balki Kolka fikrini o'zgartiradi deb o'ylagandir. Lekin belbog'ni bog'lab oldi.

Keyin ular aravaga yotib uxlab qolishdi.

Qosh qoraygan payt uyg'onishdi va qayerga kelganliklarini darhol tushunishdi.

Arava otdan yechilgan, otlar esa nariroqda, jo'xori dalasida o'tlab yurishgan edi. Demyanning o'zi nima uchundir yerga o'tirib olib atrofga alanglardi. U sarosimaga tushgan, hattoki rangi o'chgan edi.

Aka-ukalar boshlarini ko'tarishib, atrofga qarashdi.

– Hoy! – sekingina chaqirdi Demyan qo'l silkib. – Bu yoqqa kelinglar... Faqat sekin, sekin!

Aka-ukalar zo'rg'a aravadan sakrab tushib Demyanning oldiga kelishdi.

– Koloniya qani?

Ammo Demyan g'alati tarzda qo'l silkita boshlab, yanada yaqinroq kelib o'tirib olishlarini ko'rsatdi.

– Kasal bo'lib qoldingmi? – so'radi Sashka hayron bo'lib. Kolka esa qo'shib qo'ydi:

– Men ham kecha ortiqcha yeb yuboribman! Qornimda haqiqiy konsert ketyapti! Orkestr!

Bolalar qah-qah ota boshlashdi, Demyan esa atrofga nazar tashlab, ularga qarab «tshsh» dedi:

– Ji-im! Jim dedim... U yerda sizlarning koloniyangiz! – va o'sha tomonga qo'li bilan ko'rsatdi. – Faqat u yoqda... haligi... bo'm-bo'sh!

– Qanaqasiga bo'm-bo'sh? – so'rashdi aka-ukalar Demyanga tikilishib. – Nima bo'm-bo'sh?

– Bo‘m-bo‘sh, tamom-vassalom! – shivirlash bilan kesdi u. – Xohlasanglar, borib kelinglar. Katta yo‘lga chiqmanglar... Tushundinglarmi?

– Yo‘q... Nima qipti?

– Ehtiyotroq bo‘linglar, deyapman. Ko‘ringlar-u orqaga qaytinglar. Men shu yerda sizlarni kutib turaman.

Aka-ukalar biroz mulohaza qilib turishdi.

Biroq o‘ylab bir fikrga kelishmadi. Gapni bir yerga qo‘ymay ketishdi. Bemalol, sayr qilgandek yurib borishdi, bu joylar endi ularga tanish, qadrdon bo‘lib qolgandek edi. Ammo dastlab boyliklari berkitilgan joyga borishni istashayotgan edi: jonajonlarimiz tirikmi, busbutunmi?

Besh-o‘n metrlardan so‘ng jo‘xori dalasi siyraklashdi va katta, ikki qavatli koloniya binosi ko‘rina boshladi. Jimjitlik hayron qolarli darajada edi. Birorta ovoz eshitilmasdi, bu yerlardan har doim taraluvchi baqiriq-chaqiriq, chiyillashlar bir kilometr naridan eshilitildi.

– Kirasanmi? – so‘radi Sashka tuynukni ko‘rsatib.

– Sen-chi?

Hozircha nimadandir qo‘rqishga sabab bo‘lmasa-da, ular shivirlashga o‘tishdi. Shunchaki o‘sha sukunatda baland ovozda gaplashishning iloji yo‘q edi. Demyanga kelsak, bolalarga so‘nggi daqiqalarda, u gavdasini g‘alati holatda tutib yerda o‘tirgan vaqtda kechagi kundan so‘ng yana ozgina ichib hali o‘ziga kelmagandek tuyuldi. Balki unga nafaqat bo‘m-bo‘sh koloniya, balki o‘tning ustida yashil jinchalar ham ko‘rinayotgandir?!

Aka-ukalar harsillagancha o‘zlarining tuynuklaridan o‘tib olishdi va ikki qavatli uyning orqa devoridan chiqishdi.

Uy jimjit, hech kim derazadan qaramasdi. Balki hamma tushlikka ketgandir? Ehtimol dalada terimdadir?

Ular uyning devori bo‘ylab yurib o‘tishdi, burchakka burilishdi va qotib qolishdi.

Orqada kelayotgan Kolka Sashkaga urilib ketdi. Ikkalasi lol bo‘lib o‘zlarining hovlilarini ko‘zdan kechirishardi. Ushbu hovlining ko‘rinishi g‘alati edi. U yerda, xuddi evakuatsiya qilinayotgandek, eski-tuski narsalar qalashib yotgandi. Odamlar qochishga shaylanayotgandek tuyulishi mumkin edi: narsalarni tashqariga olib chiqish-

gan, karavotlarni, matraslarni, stol-stullarni betartib uyishgan-u, keyin hammasini tashlab qochib ketishgandek.

Va – sukunat. Qandaydir jonsiz jimjitlik. Faqat tepadan, xuddi osmondan taralayotgandek, bir maromdagi qo'ng'iroq jarangi eshitilardi: bom, bom...

Aka-ukalarning badanlari jimirlab ketdi. Xuddi dafn marosimidagidek!

Sekin-asta, atrofga nazar tashlab hovlidan yurishdi, oyoqlarining ostida shisha g'ichirlar, uyning derazalari urib sindirilgandi. Oshiq-moshig'idan yulib olingan eshiklar yerda chalqanchasiga yotardi.

Ikkinchi qavatdagi devor teshiklarining biridan karavot, aniqrog'i, uning havorang suyanchig'i chiqib turardi. Derazaning bo'sh tavaqasi shamol ta'sirida o'sha suyanchiqqa taq-taq urilar, mungli tovush o'sha yerdan taralardi.

Sashka egilib, amerika konserva bankasidan qilingan tunuka kosani ko'tardi. Biroz aylantirib, tashlab yubordi. U shishalardan, yer ustidan sakrab dumalab ketdi. Konserva banka dumalab borib to'xtagan joyda, taxminan o'n qadamlar narida bir narsa qorayib yotardi.

– Qara, – dedi Kolka topib olgan narsani qo'lida aylantirib. – Bu axir to'qa-ku... To'qa...

U: «Portfelning to'qasi» demoqchi edi, biroq ulgurmadi, chunki yerda yotgan qora narsa portfelning o'zi edi.

Bu o'sha, har bir koloniyachiga ma'lum bo'lgan, shishgan oqimtir yonli va oldida ikkita chaqnab turuvchi tugmali – hozir bitta tugmasi uzilgan edi – Pyotr Anisimovichning portfeli. Har doim o'zi bilan olib yurardi, hech qayerga, hech qachon va hech qanday sharoitda qoldirib ketmasdi!

Aka-ukalar bu portfelga qarab, hang-mang bo'lgan holda nimani-dir fahmlaganday bo'lishdi.

Portfel ham shu yerda yotibdi, direktorning o'zi esa yo'q, demak, fojia ro'y bergan.

Balki osmondan bomba yog'dirishgandir? Ehtimol qayoqdandir nemislar bostirib kelishgandir? Balki... Balki...

Ularni hozircha sababsiz, g'ayriixtiyoriy vahima bosa boshladi va bu vahimaning sababi noaniqligi bois kuchayib borardi.

Sashka o'tirib, qo'li bilan portfelni xuddi jonsiz narsadek sekina ushlab ko'rdi.

Ammo birdan chetroqda nimadir gursulladi, Kolka baqirib yubordi: «Atas! Qochdik!» Va ular sapchib o'rinlaridan turib qochishdi.

Shishalar, faner eshiklar, o'zining poxol dumlarini chiqarib turgan matraslar ustidan yugurishdi... Uyning burchagiga o'tib va, mo'jizani qarangi, bitta ham tikanakka tegib ketmay tuynukka uchib kirishdi. Ular yo'l-yo'lakay qarsildoq poyalarni sindirgancha jo'xorizorga bostirib kirib ketishdi.

Ikkalasini nima qo'rqitib yuborganini ular tushuntira olishmasdi. Balki shamol temir parchasini uchirib yuborib ularning asabini ksganday bo'lgandir!

Ular qanchalik uzoqqa yugursalar, sarosima, qo'rquvlari shunchalik kuchayib borardi.

Aka-ukalarga ular bu yerda yolg'izdek, hech qanaqa Demyan yo'qdek tuyulardi. Endi ular nima qilishadi?

Biroq Demyan, ularning baxtiga, hamon ular qoldirib ketgan joyda o'tirgan edi. U bolalar paydo bo'lishganda shiddat bilan, cho'chib ketib ularga o'girildi.

U joyidan turmay, holatini o'zgartirmay, kepkasining soyaboni ostidan bolalarga tik qaradi va: «Xo'sh? Ko'rdinglarmi?» – deya so'rab, tamakisini o'ray boshladi. Qo'llari unga quloq solmas, qaltirar, tamaki kiyimi va yerga to'kilardi.

Aka-ukalar uning qo'llariga termilib qolishdi. Qo'rquvdanmi yoki yugurishdan ikkalasi harsillab qolishgandi. Endi esa uning behalovat itoatsiz qo'llariga qarab og'ir nafas olishardi.

Nihoyat Demyan yondirib cheka boshladi. U bir nuqtaga, qarshisida turgan bolalarning orqasiga tikilgancha tutunni bir necha marta kuch bilan ichiga tortdi. Tamakini tashlab yubordi va aka-ukalarning yordamisiz turdi.

– Ketish kerak, – dedi ovozi bo'g'ilib.

Uning kimga murojaat qilayotgani tushunarsiz edi, o'zigami yoki Kuzminchalarga. Boshqa bir og'iz so'z aytmay, chakalakzor tomonga yurdi; uning oqsayotgani mutlaqo sezilmasdi.

Bolalar uning orqasidan qo'zg'alishdi, biroq sumkali aravaga va hamon o'tlab yurgan otga nazar tashlab gangib to'xtab qolishdi.

Demyan burilib qarab qo'l siltadi.

– Sadqayi sar, – ming‘illadi xuddi bu safar ham o‘ziga o‘zi gapirgandek. – Ularga vaqt yo‘q! O‘zingning boshingni qutqarishing kerak!

– Bosh... Nima? – so‘radi Sashka.

Lekin Demyan barmog‘ini labiga qo‘yib jim degandek ishora qildi va har bir oraliq, har bir o‘tzorni kezib chiqishga harakat qilib, urushdagi razvedkachilardек orqa-oldiga qarab, ehtiyotkorlik bilan jo‘xori dalasi tomon yo‘l soldi.

Egizaklar uning Qayin qishlog‘i tomon yo‘l olganini darrov tushunishdi. Demak, uyiga ketyapti.

U aka-ukalarga boshqa gapirmadi, ular haqida eslamadi ham.

Faqat bir marta, Sashka imillab shoxni qattiq qarsillatganda qo‘rslik bilan qaradi va mushtini ko‘rsatib:

– Sekinroq! Tovush chiqmasin! – dedi.

Va shu zahoti Kolka qoqilib ketib, quruq poyani shaqirlatdi. Demyan qaytib kelib, bolalarni imlab o‘ziga chaqirib, boshlarini yerga og‘ritib egdi. Jahl bilan quloqlariga shivirladi:

– Ahmoqlar! Yashash jonlaringga tegdimi? Unday bo‘lsa ana, katta yo‘ldan yurlaring... Darrov bo‘yningdan uzib tashlashadi!

– Kim? – so‘radi Sashka ko‘zlarini chaqchaytirib. U hech qachon bunday g‘azablangan, aniqrog‘i, qo‘rqib turgan erkak kishini ko‘rmagandi. U katta insonlar, buning ustiga sobiq askarlar qo‘rqishlari mumkin emas deb o‘ylardi.

– Kim! Kim! – yana jahl bilan shivirladi Demyan. – Nima, hali ham tushunmadilaringmi? Shu yerda ular! Atrofda yurishibdi. – Va atrofga ko‘z tashladi.

U bolalarni qo‘yib yuborib, oqsay boshladi, lekin yurishi sekinlashdi, ehtimol toliqqandir, hammasi toliqishgan.

Kolkani esa buning ustiga ichburug‘ bezovta qilardi. Koloniyada shunday degan bo‘lishardi: ana, qo‘rqib ketganidan!

Demyanning o‘zi esa xuddi Kolkaning azoblarini ham, aka-ukalarni ham sezmagandek jo‘xorizor bo‘ylab o‘g‘rilarga o‘xshab pisib, goh o‘tirib, goh turib borardi.

Qaysidir lahzada hammasi sodir bo‘ldi. Demyan oldinda edi, to‘satdan yon tomonga o‘zini tashladi va g‘oyib bo‘ldi. Navbatdagi marta o‘tirib olib ichburug‘dan qiynalayotgan Kolka Sashka

Demyanning orqasidan kumush belbog'ini yaltiratgancha o'zini otganini ko'rdi. U ham birdan ko'zdan g'oyib bo'ldi.

So'ngra Demyan yana paydo bo'ldi. U o'zining yog'och oyog'i bilan yerni ezgancha tezlik bilan, endi o'zini ehtiyotlamay oqsoqlanib borardi. Orqaga qarab, Sashkaga baqirdi:

– Gala bo'lib yugurmasang-chi! Bittalab... Ularga tutish qiyin bo'ladi!

U shatir-shutur qilib qalin jo'xorizorga kirib ketdi va yana ko'zdan g'oyib bo'ldi. Sashka ham yo'q bo'ldi. Kolka bir o'zi qolib ketdi.

Bularning hammasi ko'z ochib yumguncha ro'y berdi. Kolka o'ziga kelishga ulgurmay yonida, shundoqqina makkajo'xorining ustida otning tushmug'i paydo bo'ldi. Kolka o'tirganicha ushbu tumshuqqa qarardi, tumshuq esa qizil gumonsirovchi ko'zlari bilan naq unga tikilib qoldi. Va dabdurustdan otning ustidagi «chuh-chuh» layotgan chavandozni, so'ngra uning qora sharpasini payqadi.

Kolka ko'zini yumib, yerga yotib oldi.

U ot makkajo'xorini shovqin bilan ikki tomonga surgancha unga bostirib kelayotganini eshitdi. Ot pishqirar, Kolkaning naq bo'yniga nafas olar, u esa ko'zini yengilgina ochib, shundoqqina yuzining oldida bexalovat qadam tashlab, nozik poyani ezib o'tayotgan tuyoqni ko'rdi. Poya tortilib Kolkaning yuziga qattiq urdi, sochlariga, orqasiga tuproq sachrab ketdi.

Sakrab turib qochish kerak edi. Kolka uni topishganlarini, hozir qo'lga olishlari mumkinligini tushundi. Ammo turayotib, tebranib yuborgan edi, ot birdan qo'rqib, pishqirib ketdi va shiddat bilan yonga saphidi.

Kolka o'zining egilmayotgan, qo'ltiqtayoqqa o'xshab sezmas bo'lib qotib qolgan oyoqlari bilan, qaltirab mayda qadamlab jo'xorizor bo'ylab yurib ketdi. Yaqin-atrofdagi, orqa tomondan yana bo'g'iq hayqiriq va akillovchi: «Chuh-chuh! Chuh-chuh!» lar eshitildi. Keyin esa qasir-qusur, shovqin-suron, dukur-dukur, gumbur-gumbur... Quvg'in.

U kulgili tarzda sakrab-sakrab va ishtonini ko'tarib yugurardi. Kolka uni ta'qib qilishyaptimi yoki boshqalarnimi bilmasdi, chunki o'zining nafasi va yo'lda yer bilan yakson bo'layotgan makkajo'xo-

ridan boshqa hech narsani eshitmasdi. Keyin uning nafasi ham, kuchi ham tamom bo'ldi. U chuqurlikka quladi va qimirlay olmay qoldi.

U sal nariroqdan ot poyalarni sindirib, tobora olislab, butunlay g'oyib bo'lganini eshitmadi.

Kolka hushiga kelganida qorong'i tushgandi. Atrof zimiston. Xuddi ko'z va quloqlaring bitib qolgandek.

U yotgan chuqurligini paypaslab, ushlab ko'rди, biroq o'midan tura olmadi. Shunda ostidagi tuproqni qo'li bilan qaziy boshladi. U barmoqlari bilan og'ir, chirindi hidi taralayotgan tuproqni sidirib olib oyoqlari bilan hayvonlarga o'xshab orqaga irg'itardi.

U bu ishni qancha vaqt qilganini, nima uchun qilganini bilmasdi. U mutlaqo hech narsani bilmasdi. U holdan toyganida yerga, o'zining qazilgan chuqurchasiga egilib yopishib oldi va yana bu dunyodan g'oyib bo'ldi. Yo'q bo'lib ketdi.

26

Tong edi, osmonda bitta ham bulut ko'rinmas, shamol esmasdi. G'ira-shirada yaqin turgan tog'larning sharpasi ko'rindi. Tog'cho'qqilaridagi qor ko'zni qamashtirardi.

Qandaydir kulrang qush qanotlarini lip-lip qoqib, o'ljani kuzatgancha dalaning ustida qotib turardi. Chigirtkalar chiyillar, qushchalar sayrardi. Chug'urchiqlar ustidan qora gala bo'lib shitirlab o'tdi.

Hamma yoq shunday odatiy, shunday sokin ediki, kecha sodir bo'lgan voqea noxush tushdek tuyulardi.

Agar qazilgan chuqurcha va jo'xorizor orasidan yo'lak hosil qilib o'tgan otlarning izlari bo'lmaganida Kolka bularning barchasi tushimga kirdi, degan xulosaga kelishi mumkin edi.

Qaniydi yordamchi xo'jalikda, qamishning ustida uyg'onib qolssa, yonida esa Sashka xurрак otib yotgan bo'lsa. Kolka esa mushti bilan biqiniga turtib: qanday tush ko'rganimni eshit, desa... Tushida bir chechen uning ortidan otda quvgan emish! Men esa tushib keta-yotgan ishtonimni ko'tarib undan qochyapman! Ana senga tomosha!

Biroq chavandoz bilan bog'liq bu voqea ham kechagi hodisa kabi qo'rqinchli qabul qilinmasdi.

Atrof haddan tashqari tinch va osoyishta edi. Bunday tongda qandaydir yomonlik bo'lishi mumkinligiga ishonib, tasavvur qilib ham bo'lmaydi.

Kolka ustidagi tuproqni qoqib, atrofga qaradi, hattoki Qayin qishlog'i qaysi tomonda ekanligini ko'rish uchun sakrab qo'ydi. Lekin hech narsa ko'rinmadi.

Quyosh va tog'larga qarab chamalab ko'rishga urindi, o'zi to'g'ri deb o'ylagan yo'nalishni tanladi va yashirinishga yoki egilishga harakat qilmay to'g'ri ketdi. Sashka va Demyan uzoqqa ketmagan bo'lsalar kerak va agar yo'lni topsalar, ular ham Qayin qishlog'i tomonga yo'l olishadi.

Balki ular allaqachon qishloqdadirlar? Quduqning oldiga o'tirib olib, sovuq suv ichishayotgandir? U ham juda chanqagandi.

U ba'zi joylarda makkajo'xoriga chirmashgan qalin o'rgimchak to'rini yuzidan olib va semiz qora qushlarni cho'chitib yurib borardi.

Bir marta tupning ostidan kulrang quyon otilib chiqdi va ship etib ko'zdan g'oyib bo'ldi, Kolka faqat oyoqlarining ostidan tuproq sachraganini ko'rishga ulgurdi.

U qo'rqib ketmadi, balki: «Ehtimol o'shalar meni emas, mana shu quyonni ovlagan bo'lsalar-chi? Biz ahmoqlar bo'lsa... mana bu quyonga o'xshab qaltirab yotibmiz!» deya o'yladi. Bitta yam-yashil poyaning – kech ekilgan bo'lsa kerak – makkajo'xori so'tasini uzib, mag'izi bilan yeb qo'ydi. Yana shundayini topmoqchi bo'ldi-yu, boshqa yam-yashillari uchramadi. Quruq so'talar esa shunday qattiq ediki, ularga nafaqat tish, balki tosh ham o'tmasdi.

Umidini uzgan mahal kutilmaganda yo'lga chiqib qoldi. Yengil chang qoplagan quruq, oppoq dala yo'li.

Yo'l yoqasida mayda va sertup kechki moychechaklar gullab turibdi, kapalaklar parvoz etyapti. Bu yerdan o'tuvchi mashina yoki aravaning bitta ham izi yo'q edi.

Kolka yana tog'larga qaradi va sarson-sargardon yurib Qayin qishlog'ining orqasidan chiqib qoldim, orqaga qaytishim kerak, aks holda stansiyaga borib qolaman, deb o'yladi. Stansiyagacha esa rop-pa-rosa bir kun yurish kerak. Buning ustiga agar uni Demyan bilan Sashka kutib turgan bo'lishsa stansiyani boshiga uradimi? Demyan bilan Sashka Kolka ularni Qayin qishlog'ida izlashini fahmlamaslik darajasida ahmoq emaslar. Biroq dastavval u biror quduqni topib suv ichib olishi kerak.

Qiziq, ular chavandozdan qochganlarini qanday qilib tushuntirishar ekan? Hech narsadan qo'rqmaganliklarini, boshqalar qochgani

uchun ketidan yugurganlarini aytib to'qiy boshlasalar kerak... Sashka o'zini birinchi bo'lib jo'xorizorga otgan Demyanni bahona qiladi, Demyan esa Sashka uning boshini aylantirib vahima qo'zg'aganini aytadi.

Mayli, aldayverishsin, agar bu ularga ma'qul bo'lsa. Shaxsan Kolka otning tuyoqlari ostida yotganini eslashni xohlamasdi, buning uchun otga kattakon rahmat. Keyin shoshilib jo'xorizor oralab ishtonini ko'tarib chopganini, orqada esa nimadir qasir-qusur qilganini ham! Chuqurga qulaganini ham... Chuqur haqida u so'zlamasligi aniq. Uning hech narsani tushunmay o'sha o'raga chuqurroq ko'milmoqchi bo'lgani o'zi uchun ham qiziq!

Muyulishdan so'ng dala siyraklashdi, oshqovoq va qovoqcha palaklari dumalab yotgan tomorqalar, teraklarning uchlari, uylarning tomlari ko'rina boshladi.

Kolka qadamini tezlatdi, deyarli yugurib ketdi.

U nima uchundir hozir qishloqqa kirib Sashka va Demyanni darhol topishiga ishonardi. Topa olmasa, so'raydi. Unga ularni qayerda ko'rishgani va qayoqqa yo'l olishganini aytishadi.

Biroq boshida u suv ichib olishi kerak.

Tomog'i quruqshab ketdi, og'zida hattoki so'lagi qolmadi, yutishga hech narsasi yo'q edi. Tishida quruq chang qolgan. Siqsang – g'ichirlaydi.

Ehtimol Kolka haddan tashqari beparvo bo'lgan bo'lsa kerak. Yo'qsa kiraverishda qishloqda hech kim yo'qligini sezardi. Lekin u Sashka haqida o'ylar va atrofqa qaramasdi.

Birinchi uyga yaqinlashganidan so'nggina u bu yerda koloniyadagi kabi, derazalar urib sindirilganini, ular oq devorlar fonida bosh suyagida ko'z kosasiga o'xshab qorayib turganini ko'rdi.

Yo'lda dumaloq beton kamgak va biroz ezilgan, ilmoqqa ilingan chelakli quduq turgan edi.

Kolka tubida suv yiltirab turgan qora quduqning ustida turib pastga qaradi. Chelakni oldi, biroq chelak qandaydir quyuq qizil rangga belanganini ko'rdi... va birdan sapchib ketdi.

Shu mahal uzoqdan Sashkani ko'rib qoldi.

Kolkaning yuragi quvonchdan tez-tez ura boshladi: Sashka ko'chaning oxirida devorga suyanib turibdi va bir nimaga sinchiklab qarayapti. Atrofdan aylanib yurgan qarg'alarni tomosha qilyaptimi?

Kolka ikki barmog'ini og'ziga solib hushtak chaldi.

Agar kimdir egizaklarning odatlarini bilsa, u bolalarni hushtak chalishidan farqlagan bo'lardi. Kolka faqat ikki barmog'i bilan hush-tak chalar, hushtak tovushi jaranglab, jimjimador chiqardi. Sashka esa ikki qo'li, to'rtta barmog'i bilan, qattiq, Kolkadan ham jarangli chalardi, biroq hushtagi bir notada yangrardi.

Hozir Kolka hushtak chalib kulib qo'ydi: «Ha-a, Sashka endi hushtakni ham eshitmaydi, kar bo'lib qolgan! Haykalga o'xshab qotib turibdi!» Kolka yo'l bo'ylab to'ppa-to'g'ri Sashkaning oldiga yugurdi, o'zi esa sekingina, Sashka qarg'alarni ovlayotgan bir paytda – bunday holatlar unda ilgari ham bo'lib turgan – devorning orqasidan kirib bor ovozi bilan: «Qo'lingni ko'tar – men chechenman!» deb baqirishni mo'ljalladi. Biroq yaqinlashayotganida qadamlari o'z-o'zidan sekinlasha boshladi: Sashka yaqinroqdan juda ham g'alati ko'rinar, uning nimasi g'alati ekanligini Kolkaning o'zi ham tushunmasdi.

Uning yo bo'yi o'sgan, yoki noqulay holatda turibdi, buning ustiga uning uzoq vaqt qimirlamay turishi shubhali tuyula boshlagandi.

Kolka yana bir necha qat'iyatsiz qadamlar tashladi va to'xtadi.

U birdan sovqota boshladi, nafasi qisildi. Qo'rquvdan dong qotib qoldi, oyoq-qo'llari uch-uchigacha muzladi. U hatto oyog'ida tik turolmay qoldi, Sashkaning dahshatdan kengayib ketgan ko'zlaridan ko'zlarini uzmay maysaga cho'kdi.

Sashka tikka turmas, u qo'ltig'idan devorning uchiga ilingan holda osilib turar, qornidan esa popugi shamolda hilpirab turgan sariq makkajo'xori tutami do'ppayib chiqqan edi.

Bitta so'ta, uning yarmi og'ziga tiqilgan, yo'g'on tomoni og'zidan tashqariga chiqib turar va bu bilan Sashkaning yuziga dahshatli ahmoqnamo, hattoki tentaksifat qiyofa bag'ishlagan edi.

Kolka qo'zg'alnay yerga o'tirdi. U qo'rqinchli parishonlik hisini tuydi. U xuddi hozir o'ziga tegishli emasdek, biroq hammasini ko'rar va tushunardi. U, misol uchun, qarg'alar galasi daraxtda o'tirib olib uning harakatini kuzatayotganini, yonida pitrak kulrang chumchuqlar changda cho'milishayotganini, devorning orqasidan esa och mushukdan qo'rqan tovuq birdan yugurib chiqqanini ko'rib turardi.

Kolka turishga harakat qildi va bir amallab turib oldi. U yura boshladi, lekin Sashkaning oldiga bormadi, uning atrofida, murdaga yaqinlashmay va undan uzoqlashmay aylanardi.

Endi, uning ro'parasiga turganida u Sashkaning ko'zlari yo'qligini, ularni qarg'alar cho'qib tashlaganini ko'rdi. Qarg'alar uning o'ng yuzini ham, qulog'ini ham ozroq cho'qilashgan ekan.

O't bilan birga qorniga zichlab tiqilgan makkajo'xoridan ham pastroqda, ishtonining oldida Sashkaning qonga belangan ichak-chavog'i osilib turardi.

Kolka quyidagi manzaraga barcha tafsilotlari bilan guvoh bo'ldi: qarg'alardan biri, eng sabrsizi, balki eng yovvoyisi katta yo'lga sakrab chiqdi va sekin-asta Sashkaning jasadiga yaqinlasha boshladi. U Kolkaga mutlaqo e'tibor bermasdi.

Kolka bir siqim tuproqni olib qushga qarab otdi. – Maraz! Iflos! – deya baqirdi u. – Yo'qol!

Qarg'a sakrab chetga o'tdi, lekin uchib ketmadi. Xuddi chindan ham unga Kolkaning kuchi yetmasligini bilgandek. Qarg'a birmuncha nariroqda yo'lida o'tirib kutardi. Kolka bunga chiday olmadi. Baqirib, faryod qildi va hech narsani o'ylamay, o'sha qarg'aga eng ashaddiy dushmani kabi tashlandi. U egilib va tuproqni irg'itib orqasidan quvlab ketdi. Kolka qattiq qichqirgan bo'lsa kerak – u butun qishloqqa, butun vodiya baqirardi; yo'lida biror tirik jon uchraganida, u ham ushbu g'ayriinsoniy dod-faryodni eshitib qo'rquvdan qochib ketgan bo'lardi. Biroq atrofda hech kim yo'q edi.

Faqatgina yovvoyi qarg'alar qo'rqib daraxtdan guv etib uchib ketishdi.

Kolka bo'lsa hamon ko'chadan yugurib, qumni, chimni va toshlarni to'g'ri kelgan tomonga irg'itgancha tinmay baqirardi. Ammo uning ovozi so'nib, tili gapga kelmay qoldi va tuproqqa yiqildi. Boshidagi changni qoqib va yengi bilan yuzini artib o'tirib oldi. U qishloq bo'ylab to uning chetigacha nima uchun yugurganini va nima sababdan baqirganini tushuna olmasdi.

Zo'rg'a yurib, ukasining yoniga qaytib bordi va nafasini rostlab olish uchun jasadning oyoqlari ostiga o'tirib oldi.

U keyin nima qilgan bo'lsa, hammasini go'yoki o'ylab, mantiqiy ravishda bajarayotgandek edi, biroq o'ziga chetdan qaragandek bo'lardi.

Biroz dam olib, Sashkaga yaqinlashdi va uni qo'llari bilan quchoqlab, o'ziga tortdi. Jasad darhol yerga quladi va g'ujanak bo'lib oldi. Uning og'zidagi makkajo'xori tushib ketdi, og'zi esa ochilib qoldi, Kolka bosh tomondan o'tib, egizagini qo'ltig'idan ko'tardi va eng yaqin uyga sudrab ketdi.

Uyning eshigi uzib olingandi. Dahlizda bir talay makkajo'xori uyulib yotardi.

U ukasini makkajo'xorining ustiga yotqizdi, ustiga shu yerda mixda osilib turgan paxtali kurtkani yopdi. Keyin u eshikni ko'tarib yovvoyi qushlar uyga kira olmasligi uchun kirish yo'lagini yopib qo'ydi.

Bularning barchasini tugatib bo'lib va oz-moz dam olib, Kolka hech kimdan yashirinmay koloniyaga yo'l oldi.

27

Bir necha soat o'tib, qorong'i tusha boshlagach Kolka qaytib keldi va o'zi bilan Ilyaning uyida topgan o'sha aravani arqonga bog'lab sudrab keldi.

Arava zaxira joyning yonidagi tupning ichida yashiringan edi, Kolka uni darhol topdi.

Berkutilgan narsalar ham butun saqlangandi: murabbo ham, qoplar ham, poyezd kalitlari bilan o'ttiztalik ham – hammasi joyida edi.

Kolka ikkita qop bilan yarim litrlik jem bankasini chiqardi. U bankani tosh bilan ochdi, ikki qoshiq yedi. lekin shu zahoti qayt qilib yubordi.

U soyning yoniga tushib yuvindi va o'zini biroz tetiklantirish uchun boshini suvga soldi.

Yo'lda aravani sudrab, kecha ot-aravani qoldirib ketishgan jo'xorizorga burildi. Bu joyni u tezda topdi. Arava izi ko'rinib turar va yonida Demyanning kecha chekib tugatilmagan sigaretsi yotardi.

Qayin qishlog'idagi uyga qaytib kelib, Kolka yana Sashkani ko'chaga sudrab chiqdi va aravaning tagiga ikkita qopni to'shadi, bosh tomoniga esa paxtali kurtkani qo'yib, ukasini aravaga yotqizdi.

Keyin u dahlizdan topib olgan qalin, biroq chirigan arqonni olib keldi, u uzilib ketishi mumkin edi, shu sababli uni mustahkam bo'lishi uchun ikkiga buklashga to'g'ri keldi. Yo'l-yo'lakay Sashkaning belida kumush kamari yo'qligini payqadi. Kamar g'oyib bo'lgandi.

Kolka arqonni aravaning ostidan o'tkazdi, keyin esa Sashkaning ko'krigidan o'tkazib bog'ladi. Uning qorniga tegib ketmaslikka harakat qilardi.

Bog'lab bo'lib, qaradi. Sashkaning yuzida xotirjamlik va hattoki ajablanish aks etgandi, sababi uning og'zi hamon ochiq edi. Sashka boshini yuqoriga qilib yotqizilgandi, Kolka unga shunday yotish qulayroq bo'ladi deb o'yladi.

Shaylanguncha g'ira-shira tushdi. Tog'lar iliq tuman pardasida erib ketdi, faqatgina yorug' cho'qqilari osmonning chetida ko'mirga o'xshab yonib tugayotgandi va tez orada g'oyib bo'ldi.

Ular kunbotar payt Demyanning aravasida uyg'onganlaridan roppa-rosa bir kun o'tdi. Biroq hozir Kolkaga bu ancha ilgari ro'y bergandek tuyuldi. Ular koloniyaning xonavayron bo'lgan hovlisiga oyoq qo'yishar, jo'xorizorlar aro chopishar, Demyan esa yerda o'tirib olib qaltirayotgan qo'llari bilan chekishga harakat qilardi. U hozir qayerda ekan? U-ku hammasini, hammasini bilgan! Aka-ukalar ahmoqlik qilishdi.

Yordamchi xo'jalik, Regina Petrovna va uning erkakchalari haqida Kolka eslamasdi. Ular uning bugungi hayotidan, uning hissiyotlaridan, xotirasidan tashqarida edilar.

U biroz dam olib, joyidan turdi. Aravani qo'lini kesmasligi uchun yaxshilab ilib oldi va yo'l yoqalab sudrab ketdi.

Kolka hattoki unga aravani sudrash og'irimi yoki yengil anglamasdi. Buning ustiga, bu yerda qanday og'irlik o'lchovi bo'lishi mumkin, axir u hech qachon ajralishmagan, har doim birga yurgan, biri ikkinchisining parchasi bo'lgan ukasini olib ketyapti-ku, bundan chiqdi, Kolka o'zini olib ketyapti.

Qishloqning orqasiga yetganda yo'l kengayib, qisqa muddatga yorug'lashdi. Havo quyuqlashdi, yo'lning ikki tomonida ovoz o'tkazmaydigan devor bilan qo'shilgan holda jo'xori dalasi qorayib borardi.

Keyin esa umuman hech narsa ko'rinmay qoldi, Kolka yo'lni oyoqlari bilan paypaslab topa boshladi. Oldinda, qop-qora osmon ostida butazorlar tutashishi kerak bo'lgan joyning orasidan yorug' tirqish bazo'r ko'rinardi.

Kolkani bu zimiston, na odamlar, na aravalar uchramaydigan yo'lning timqorong'i jimjitligi vahimaga solmasdi.

Agar Kolkadan ukasi bilan yo'lda qanday ketish qulayligini so'rganlarida, u aynan shunday, yo'llarida hech kim bo'lmasligini, hech kim ularga stansiyagacha yetib borishga xalaqit bermasligini so'rardi.

Hozir yo'lda uchrashi mumkin bo'lgan har qanday kimsa: chechenlarni yoki boshqa – mayli, mehribon insonlar bo'lsin – odamlar u o'ylab qo'ygan ishga xalaqit berishlari muqarrar edi.

Kolka zim-ziyo tunda aravani sudrab ukasi bilan gaplashib borardi.

U ukasiga: «Qara, hozir faqat men mindirib ketyapman. Ilgari esa biz bir-birimizni navbatma-navbat mindirardik. Lekin sen o'ylama, men charchaganim yo'q, men seni manzilga yetkazib qo'yaman. Balki sen bu ishni mendan yaxshiroq o'ylab topgan bo'larding, bu aniq. Sen har doim mendan yaxshiroq tushunarding, miyang ham tezroq ishlardi. Men hayotda sening qo'l va oyoqlaring edim – taqdir bizga shunday bo'lib bergandi – sen esa mening boshim eding. Endi esa bizning boshimizni chopib tashlashdi, qo'l va oyoqlarimizni esa qoldirishdi... Nega qoldirishadi?» Kolka bir qo'lini ikkinchisiga almash-tirdi, qo'li uvushib qolgandi.

Biroq qo'zg'alishdan oldin u Sashkani ushlab ko'rdi va uning qulay yotganiga, paxtali kurtka boshidan tushib ketmaganiga ishonch hosil qildi.

Biroq Sashka go'yo sovqotib, muzlay boshlagandek edi. Uning tanasi dag'allashib, qo'l-oyoqlari jonsiz edi. Lekin baribir bu Sashka, uning ukasi Sashka edi. Kolka uning o'nqir-cho'nqirda silkina-verib qiyshayib qolmaganini, qulay joylashib olganini tekshirib olib yo'lida davom etdi.

Kolka yana o'zi bilan o'zi gaplasha boshladi.

«Bilasanmi, – derdi u, – men hozir nima uchundir Tomilinodagi bolalar uyimizga kolxozdan savatda qorag'at olib kelishganini esladim. Men o'shanda kasal bo'lib yotgandim. Sen esa aravaning ostiga kirib menga bir dona qorag'at topib olib kelganding... Sen izolator-dagi karavotning ostiga kirib: «Kolka, men senga qorag'at olib keldim, tezroq sog'ay, xo'pmi?» deb shivirlaganding. Men sog'ayib ketdim... Keyin esa Kubandagi stansiyada, qorning og'rib vagonda burishib qolganingda kasalni yengib chiqqansan-ku! Sen turding-ku, sen Kavkazgacha yetib kelding-ku! Nahotki sen bilan men ichaklarimizni

kesib ichimizga makkajo'xori tiqishlari uchun bu yerlarga kelgan bo'lsak? Narsalarimizni yeb bo'kib o'linglar, og'izlaringdan chiqib tursin degandek!» Shu joyda Kolka uzoqroqda yukli arava taraqlayotganini eshitdi. G'ildirakning g'ijirlashi va erkaklar ovozi yaqinlashganda shoshilganicha butazorning ichiga kirib ketdi va yashirinib oldi. Xuddi jonivor odam paydo bo'lganida berkinib olgandek.

Biroq u yo'ldan ko'zini uzmas, atrofga sinchiklab qarardi (endi ularning ikkalasi uchun ikkitagina ko'z qolgandi!). Askarlar kelayotganini tushundi. Qurollari shaqirlar, aravalari gursullar, fonarlari yo'l chetini tilimlab charaqlardi. Askarlar past ovozda gaplashishardi, lekin ularni tog'da qurshab olishganini, ularning bir qismi otib tashlanganini, ikkinchi qismi esa vodiya yorib kirib qirg'in uyushtirganini eshitish mumkin edi. Mahalliy aholi orasidan omon qolganlari qochgandi. Endi buyruq shunday: hech kimni ayamasklik, bordi-yu bog'dami, uydami yoki daladami yashirinib olsa, uy va dalasi bilan birga yondirib yuborish... Agar dushman taslim bo'lmasa, uni qirib tashlash!

O'tib ketishdi. Qorong'ida olov asta-sekin g'oyib bo'ldi. Hammayoq tinchidi.

Kolka boshini chiqarib, qulog'ini u tomonga, keyin bu tomonga tutdi – hech kim yo'q.

Sashkaning qanday yotganini paypaslab ko'rdi, yana aravani yo'lga sudrab olib chiqdi. Arqonni ikki qo'li bilan olib tortib ketdi.

«Ana, – dedi u, – shonli askarlarimiz nima deyishganini eshitgan bo'lsang kerak... Chechenlarni o'ldirish uchun ketishyapti. Seni chormixga osganni ham o'ldirishadi. Agar o'sha odam menga uchraganda bormi, men, bilasanmi, uni o'ldirmagan bo'lardim. Men faqat uning ko'zlariga boqardim: u hayvonmi yoki odammi? Uning yuragi bormi o'zi? Agar yuragi borligiga amin bo'lganimda, undan nega bunday bezorilik qilayotganini so'rardim. Nega atrofdagilarni o'ldiryapti? Axir biz unga yomonlik qilmadik-ku! Men shunday degan bo'lardim: «Eshit, chechen, sening ko'zing ko'rmi? Sen Sashka ikkimizning senga qarshi urushmayotganimizni ko'rmayapsanmi? Bizni bu yerga yashash uchun olib kelishdi, biz yashayapmiz, keyin esa baribir bu yerlarni qoldirib ketardik. Endi esa, qara, nima qilib qo'yganingni... Sen men bilan Sashkani o'ldirding, askarlar esa kelib, seni o'ldirishadi... Sen esa askarlarni o'ldirasan va oqibatda sen

ham, ular ham o'lasizlar. Axir sen ham, ular ham, men bilan Sashka ham tirik qolganida hammaga yaxshi bo'lmasmidi? Axir odamlar bir-biriga xalaqit bermay, hamma tinch-omon, koloniyamizdagiga o'xshab yonma-yon yashasa yaxshi-ku!» Kolka suhbat bilan band bo'lsa ham, stansiyaga yaqinlashib qolganini payqadi. Dastlab stansiyaning ovozini eshitdi, keyin esa yap-yalang'och yaylovga chiqdi va ko'ziga chiroq tushdi, zaxira yo'lida eshelon turganini ko'rish mumkin edi. U joyda projektorlar yonib turibdi, ot-aravalarning kish-nashi va taraq-turug'i eshitilyapti: yana bitta harbiy qism keldi.

Kolka biror kor-hol ro'y bersa yashirinib olish mumkin bo'lgan masofaga yaqinlashdi. Aravani orqasiga berkitdi.

«Yetib keldik, – dedi Sashkaga. – Biz yaqindagina sen bilan shu yerga kelgan edik. Birga ketishni orzu qilgandik. Endi sen bilan poyezdni kutamiz. Men sal-pal charchadim. Sen ham charchagan bo'lsang kerak? Sen shu yerda bo'lib tur, men razvedka qilib kelay. Sen meni tashlab ketyapti deb o'ylama. Men qaytib kelaman, faqat stansiyada nimalar bo'layotganini bir ko'ray-chi...» Kolka Sashkani tupning orqasida qoldirdi, o'zi esa yorug'lik va eshelon tomon siljidi.

U harbiylardan bo'lak hech kimni ko'rmadi. Harbiylar esa o'z ishlari bilan mashg'ul edilar: kuymanishar, aravalarini qiya taxta yordamida vagondan tushirib taraqlatishardi.

Kolka chamalab ko'rdi: eshelon unga to'siq bo'lolmaydi. Poyezd siljigach o'zi bilan aka-ukalarni askarlardan to'sib qo'yadi va hech kim ularni ko'rmaydi.

U Sashkaning oldiga qaytib keldi. Unga: «Ko'rdingmi, qaytib keldim. U yoqda hozir askarlar senga makkajo'xori tiqqan checheni o'ldirish uchun kelishdi. Lekin poyezd kelsa, bizni ko'rishmaydi. Sen bilasan-ku, men senga o'xshagan aqlli emasman, tushunishimga uzoq vaqt ketdi. Biroq buni o'zim o'ylab topdim. Miyangni ishlatish qanchalik qiyin bo'lganini endi tushundim. Biroq qanday qilib o'sha otdagi chechenlarni laqillatishni o'ylab topmaganingni tushunmayapman. Balki o'zing ularning oldiga chiqqandirsan? Ular senga Regina Petrovnaga o'xshab hech qanaqa yomonlik qilmasligiga ishongandirsan?» Kolka tuplar orasidan stansiyaga qaradi va o'ylab turib qo'shib qo'ydi: «Tez orada tong otsa kerak. Poyezd kun chiqquncha kelsa edi... Kun yorishsa chiqib olishga qiynalamiz».

Shu orada poyezd ham lop etib chiqib keldi, Sashkaning yo'qolgan kamariga o'xshab olis tepalik bo'ylab cho'zilib yotib oldi. Uning parovozi esa ikkita yarqirovchi toshli to'qaga o'xshaydi.

Nima sababdan Kolka yana o'sha kumush kamar haqida esladi? Yo'qolgan kamar unga tinchlik bermasdi. Agar o'ylab ko'rilsa, u aka-ukalar ajralishgan vaqtda ko'rgan eng oxirgi narsa o'sha kamar edi. Sashka jo'xorizorga sho'ng'idi, faqat g'ira-shirada kamari yalt etdi, xolos...

Agar o'sha eski chechencha kamar Sashkani fosh qilgan bo'lsa-chi?

Balki u Sashkaning o'ldirilishiga sabab bo'lgan bo'lsa-chi?

Lekin koloniya tomonga ketayotganlarida o'sha kamarni Sashka emas, Kolka taqib olgandi-ku! Tugma bilan bo'lgan voqea hammasini o'zgartirib yubordi...

Poyezd yaqinlashardi. Tepalikdan ko'ringan vagonlarning bo'g'iq taqillashi eshitila boshlandi.

Kolka birdan payqadi va ukasi yotgan arava bilan birga yaylov bo'ylab g'izillab ketdi. Ular tarkib birdan tormoz berib to'xtab, g'ildiraklarining ostida pishillagan tovush chiqqan paytga ulgurishdi.

Kolka aravani ko'tarma ostidagi qariqiz barglarining orasida qoldirdi, o'zi esa vagonlar yoqalab yugurib ketdi. U egilib, itxonani izlardi.

Birinchi va ikkinchi vagonlarning ostida itxona yo'q edi, faqat uchinchi vagonning ostidan temir qutini topdi.

Ushlab ko'rdi, qopqog'ini ochdi, ichida yo'lovchilar yo'qmi deb hattoki qo'lini ham tiqdi.

So'ngra yugurib borib Sashkani vagonga olib keldi-da, arqonni yechdi. Paxtali kurtkani itxonaning ostiga to'shadi. Sashkani qo'ltig'ining ostidan tortib, poyezd yurib ketmasin deb iltijo qila boshladi. Sashkaning tanasi qattiq edi, bukilmasdi, biroq oldingiga qaraganda yengilroqdek tuyuldi.

Kolka harsillab uni qafasga yuzini tepaga qilib ag'dardi, sovqotmasligi uchun usti va atrofini qoplar bilan yopdi. Har holda qafasning hammayog'i temirdan!

Arqonni aravaga solib, aravani maysazorga itarib yubordi. Bo'ldi, u o'z xizmatini qilib bo'ldi.

Lekin poyezd turishda davom etardi, Kolka qutining oldiga kelib, Sashkaning qarshisiga cho'kkaladi va teshikdan unga gapirdi:

– Mana, ketyapsan. Axir sen toqqa ketmoqchi eding-ku... Men esa shu yerda bo'lib turaman. Sen bilan ketardim-u, ammo Regina Petrovna erkakchalari bilan yolg'iz qolyapti-da. Qo'rqma, Sashka, men har doim sen haqingda o'ylayman.

Kolka Sashka yolg'iz ketayotganiga qo'rqmasligi uchun mushti bilan qutini taqillatib qo'ydi.

Ketayotib, provodnik vagondan sakrab tushib, Kolkaning oldidan yugurib o'tib ketayotganini ko'rdi. Provodnik birdan to'xtab:

– Ha! Salom! – deya tishlarini ko'rsatib baqirib kuldi. Kolka sinchiklab qaradi: ro'parasida Ilya turibdi.

– Salom, – deb javob berdi Kolka. – Axir sen yonib ketmaganmi-ding? – Ilya kuldi:

– Xa-xa! Men yonmayman! Mana shunaqa! Men u yoqda qanday chalkashliklar bo'layotganini oldinroq payqab, qochib ketdim. Ko'rib turganingdek, ketyapman. Xohlasang, istagan tomoningga olib ketaman.

– Yo'-o'q, – dedi Kolka. – Keta olmayman.

– Sen qaysi birisan? Kolkami yoki Sashka?

Kolka o'ylab turib dedi: – Men – ikkalasiman.

Shu payt poyezd hushtak chala boshladi.

Ilya yana baqirdi: «Xa-xa! Qara lekin! Bu balogardonda qolgan-dan ko'ra men bilan ketganing yaxshiroq emasmi?» – va vagonga yugurdi. Zinaga chiqib oldi.

– Yaxshiroq, – ma'qullab bosh silkidi Kolka, chuqur xo'rsinib, lekin Ilya uni eshitmadi. Poyezd bir siltandi va bu yerdan ko'rinmas tog'lar tomonga ketdi. Sashka ham ketdi. Kolka bir o'zi qora tepalikning oldida qoldi.

28

Kolka yana biroz vaqt relslarning ustida o'tirdi. Tong yorisha boshlaganda esa stansiyadan o'tib tepalikka, oq rotondaga chiqdi.

U zinapoyaga o'tirib pastga qaray boshladi. Turib-turib yig'lab yubordi. Sashkaning devorda osilib turganini ko'rgandan beri birinchi marta yig'lashi edi. U yig'lar, ko'zlari vodiy uzra ko'tarilayotgan quyosh nuridan hosil bo'lgan ajoyib manzaraga boqardi.

Keyin esa yig'lashdan charchab uxlab qoldi.

U tush ko'rdi: tog'lar devorlar kabi turibdi, pastda esa dara. U Sashka bilan ketyapti, Sashka daraning yoqasiga keldi, lekin u darani ko'rmayapti... Sekin muz ustidan pastga sirpana boshlayapti, Kolka esa uning paltosidan, yengidan tortyapti... Ushlay olmadi! Sashka pastga dumalab ketdi, ukasini qo'yib yuborgani uchun Kolkaning yuragi og'rib qoldi, bechora endi oyoq-qo'li sinadi va o'zi ham chilparchin bo'ladi. Qora dog' tobora uzoqlashib boryapti...

Kolka vahimadan uyg'onib ketdi. Yuzini ushlab ko'rdi: ko'z yoshidan ho'l bo'lib ketgan. Demak, u yana yig'lagan.

Pastdagi vodiya yana nazar tashlab, birdan she'r yodiga tushdi. U ilgari hech qachon bu she'rni eslamagandi, esidaligini bilmagandi ham.

*Boshin qo'yib qoya bug'riga,
Uxlar edi oltin bulutcha.
Tong saharda chiqdi u yo'lga
Ko'kdu quvnoq raqsga tusha.*

*Lek qoyaning yuzlarida nam,
Ma'yus bo'lib xayol surardi.
Atrofda ko'p bulut bo'lsa ham
Biyobonda yolg'iz turardi.*

Balki tepalik qoya, rotonda esa – bulutchadir. Kolka atrofiga qarab uf tortdi. Balki bulutcha – bu Sashkani o'zi bilan olib ketgan poyezddir. Yoki unday emasmi? Qoya ayni daqiqalarda – bu Kolka, u toshday qotib, mana shu Kavkazga o'xshab qarib qolgani uchun ham yig'layapti. Sashka esa bulutchaga aylangan... Xu iz xu? Biz bulutchalarmiz... Biz nam izmiz... Bormiz va yo'qmiz.

Kolka yana ko'ziga yosh qalqiganini sezdi va o'rnidan turdi. Ular bu yerda 10-sentabr kuni yozgan yozuvlarni topdi. Uchli toshni topib, ostiga yozib qo'ydi: «Sashka ketdi. Kolka qoldi. 20-oktabr».

Toshni irg'itdi, tog' yonbag'rida qanday qilib dumalab tushayotganini kuzatib turdi-da, orqasidan tusha boshladi.

Keyin u chuqurchalardan biridagi qaynoq suvda yuzini yuvib, yo'l bo'ylab yuqoriga, ilgari yordamchi xo'jaliklari bo'lgan joyga ketdi. U hali tarbiyachi Regina Petrovnaga nima deyishini bilmadi.

Xo'jalikka yaqinlashdi, oxirgi tepalikdan burildi, ammo rostini aytish yoki aldash haqida hanuz bir qarorga kelmagandi. U Regina Petrovna va uning erkakchalarini qo'rqitib yuborishni xohlamasdi. Bu yerda ular mutlaq xavfsizlikda. Molingni boq-u qovog'ingni qaynat. Faqat u bu yerda yashamaydi. U: «Sashka ketdi, men ham ketishim kerak», deydi. Albatta, Kolka ularga yashirib qo'ygan hamma jemini beradi, faqat bittasini o'ziga olib qo'yadi. O'ttiztaligini ham o'zi bilan oladi. Bu Sashka ikkichining boyligi, bekorga Tomilinoda shaxsiy o'ttiztaligiga ega bo'lish uchun po'choq yig'ishmagan. Endi Sashkaga pul kerakmas. U tekinga sayohat qilib yuribdi... U endi umrbod bepul yo'lovchi.

Kolka ayvonga yaqinlashdi, biroq hech kimni ko'rmadi. Uxlashyapti, deb o'yladi. Derazani taqillatdi, uyga kirdi. Ichkarida ham hech kim yo'q. Karavotga to'shak solingan, Regina Petrovna odatdagidek hammayoqni saranjom-sarishta qilib qo'ygan, buyumlar ham o'z joyida, beka esa ko'rinmaydi.

Kolka ular sigir sog'ishga ketgan bo'lsalar kerak, deb o'yladi. U ayvonning ostiga qaytib keldi, idish-tovoqlarni titkiladi, qozonda turgan jo'xori bo'tqasini topdi va qo'li bilan og'ziga soldi. U endigina qorni moldek ochganini his qildi. U hovuchlab hammasini yeb qo'ydi. Biroq qorni to'ymadi. Qozonni tozalab bo'lgach, tvorog topib oldi va uni ham paqqos tushirdi. Regina Petrovna qaytib kelsa urishadi, lekin har doimgidek kechiradi. U ataylab qilmadi-ku, ochiq-qanligi sababli yeb qo'ydi-ku.

Yeb bo'lgach orqasidan suv ichdi, o'zi va Sashka yotgan qamishga yotib oldi va uxlab qoldi.

Tunga yaqin jimjitlikdan uyg'ondi. U bir o'zi edi, faqat tomدا qushlar chug'urlashardi. U buloqning yoniga borib, to'yib ichdi va yuzini chaydi.

Kolka bunday sokinlik va yolg'izlikda o'zini yomon his qilardi. U tomorqaga, undan mollar o'tlab yurgan o'tzor tomonga o'tdi. Yaqindagina ular shu yerda turib buzoq va g'unajinlarga nom qo'yishgandi. Echkilar esa qo'lda o'ralgan papirosni yeb qo'yib, burunlaridan tutun chiqargandilar. Endi esa butun pada unga o'girildi, echkilar tanib ma'rashdi, Shoqol nomli buzoq Kolkaning ro'parasiga yugurib keldi... Eng qizig'i, Kolkani umuman suymagan badjahl sigir Mashka uni ko'rib yolvorgandek birdan

qattiq ma'ray boshladi: «Mu-mu-u-u». Nihoyat tan olibdi-da. Endi nima naf. Agar u Regina Petrovna erkakchalari bilan qayoqqa g'oyib bo'lganini aytganida edi. To'satdan esladi: eshak bilan arava yo'q-ku!

Ha, albatta, Regina Petrovna ularni olib kelish uchun koloniyaga ketgan! Sashka buni darrov payqagan bo'lardi! Ehtimol, stansiyaga borib, ularni topa olmagan va koloniyaga shoshilgan! U takasaltang bo'lsa bu yerda uxlab yotibdi!

Kolka qishloq orqali koloniyaga qaytishni umuman xohlamas edi. Lekin dabdalasi chiqqan, tashlandiq uylarni, ularning orasida sarosimaga tushgan, vahima bosgan, egizaklarni izlayotgan Regina Petrovnani tasavvur qildi! U aka-ukalarni deb o'sha tashlandiq, chechenlar titkilab yurgan joyga ketdi, o'zi esa hali ham ikkilanyapti, hamon qiynalyapti – boraymi, bormaymi deb!

Kolkadan boshqa kim uni qutqaradi!

U so'nggi bor atrofga qarab, nimanidir axtarardi. O'zini ko'ndirganiga qaramasdan mayli yo'qligini juda qiyinchilik bilan yengib o'tardi. Buning ustiga nimadir unga qarshilik qilardi, lekin nimaligini bilmasdi.

Faqatgina chiqib qizigan yo'lda yarim soat yurganidan so'ng esladi: sovg'a qilingan chiroyli kiyimlar: sariq botinkalar, ishton-u ko'ylaklar va guldor «do'ppi» butunligini tekshirmoqchi edi-ku... Yoki o'marib ketishdimi? Endi, Regina Petrovna bilan bir-birini izlab yurgan bir vaqtda aniq o'g'irlab ketishadi!

Qosh qoraygan paytda u stansiyadan o'tdi. Harbiy eshelon ketib bo'lgandi. Biroq yo'lda ko'plab izlar bor edi, yo'l yoqasidagi makka-jo'xori ham bosib tashlangandi.

Keyin esa kuyindi hidi keldi. Kolka gap nimadaligini tushunmadi, Sashka esa bir lahzada fahmlagan bo'lardi. Sashka miyasini ishlatib: «Bilasanmi, ular hosilni yoqishyapti! Chechenlarni daladan siqib chiqarishyapti!» degan bo'lardi. Kolka shunday o'yladi va keyin Sashkaning emas, o'zining aqli yetganini angladi.

Kuyindi hidi ko'paydi, yo'lning ustini tutun qoplab, yalatma izg'iringa o'xshab o'rmalab borardi. Kolkaning ko'zlari yoshlanib ketdi. U ko'zlarini ishqaladi, chiday olmaganida yuzini pastga qilib maysaga yotar, yengillashib olardi.

Yondirib yuborilgan taqir joylar uchrardi. Ikki tomonda, ayniqsa, osmonning old tomonida yashin shu'lalari chaqnardi, shu yer, ya'ni yo'l o'sha shu'lalar sababli yorug'lashgandi.

Keyin esa Kolka olovgacha yetib bordi. Maysa qoldiqlari buruq-sab, kungaboqar poyalari – qizil qizdirilgan tayoqlar tutab yonardi. Bu yerda olovning hovri shunday baland ediki, Kolka qoshlari kuy-masligi uchun yuzini ko'ylagi bilan yopib oldi. Kipriklari ham yopishqoq bo'lib qoldi, ularni ham kuydirib olgan bo'lsa kerak.

Shunda u yerga yotib o'ylay boshladi: koloniyaga boraymi yoki qaytib ketaymi? Agar borsa, yonib ketishi mumkin. Bormasa, Regina Petrovnani erkakchalari bilan olov va xavf ichida qoldirib yolg'iz tashlab ketgan bo'ladi.

Biroz yotdi, to'yib nafas yutib, yengillashdi. Regina Petrovna-ni yoniga borish kerak, degan qarorga keldi. U bormasligi mumkin emas. Sashka borgan bo'lardi.

Endi olov hamma tomondan yaqinlashar, Kolkani tutundan ko'ngli ayniy boshlagandi. Kulga, kuyindiga u bir amallab ko'nikdi, deyarli ko'nikdi, faqat tevarak-atrofni olov qoplagan bo'lsa-da, odamlar hamon yo'qligi unga g'alati tuyulardi.

U Sashka bilan ketayotganda yo'lda odamlar uchramasligini xoh-lagandi. Endi esa odamlarga ro'para kelishni juda istayapti.

Bir marta bo'lsa ham.

Kim bo'lsa ham.

Shunday holat yuz bersa: u ketyapti, qarama-qarshi tomondan esa Regina Petrovna eshak aravada kelyapti! Erkakchalar qo'rqqancha aravada o'tirishibdi, uning o'zi esa atrofga qarab olovdan himoya qilyapti. Kolka bo'lsa unga: «Xu iz xu? Qo'rqmang! Men shu yer-daman! Men sizlar bilanman! Men olovdan qanday qilib o'tishni bi-lib oldim! Hozir, hozir, men sizni erkakchalarinigiz bilan yordamchi xo'jalikkacha olib borib qo'yaman, u yerda esa jannatmisan jannat! Yuz yil yashasang ham hech qanaqa olov, hech qanaqa chechenlar yo'q!» deb baqiryapti. Kolka o'ziga kelib qarasa, yo'lni o'rtasida yotibdi, is tegib gangib qolgan chog'i. Qanday qilib yiqilganini eslol-maydi, boshi og'riyapti, qayt qilgisi kelyapti. Turishga urinib ko'rdi, turolmadi. Oyoqlari yurmayapti. Oldinga qaradi: yo Parvardigor, uylarning tomi ko'rinib turibdi. Qayin qishlog'i! Mana u! Qo'lingni cho'zsang yetadi! Emaklab bo'lsa-da yetib olaman...

U yerda esa tomorqalar, daraxtlar, tuplar bor, ularning orasidan olov o'tmaydi. Kolka qanday qilib quduqqacha yetganini eslay olmaydi. Zanjirni uzoq tushirdi, tortishga esa kuchi yetmadi. Chelakni ikki marta o'rtasigacha tortib ko'tardi, u esa qo'lidan chiqib pastga tushib ketdi.

Quduqning yoqasiga kelib engashib, quduqdan nafas ola boshladi. Havo nam, sovuq, yiqilib ketmasa bo'lgani. U oyoqlarini zanjir bilan bog'lab quduqning labida uzoq yotdi – boshi ichkarida, oyoqlari esa tashqarida.

Yengil tortdi. Faqat yengil behuzurligi qoldi.

Bitta-bitta qadam tashlab, dalaning oldidan, qabristonning yonidan o'tdi. Qabristondan o'tayotib, unga granit ustunchalar emas, chechenlar qator bo'lib turgandek tuyuldi... Qo'zg'almas olomon Kolkani ko'rib qotib qolgan, uni nigohi bilan kuzatayotgandek... Qandaydir vasvasa! Yoki u aqldan oza boshlagan. Ko'zini yumib, yuzini qo'li bilan ushladi-yu, yana qaradi: ustunchalar toshdan yasalgan, hech qanaqa chechenlar yo'q. Biroq har ehtimolga qarshi qadamlarini tezlatdi va Xudo ko'rsatmasin ular yana chechenlarga aylanib qolmasligi uchun nigohini yerdan uzmad! Koloniya tomonga olov kirmagan, u yerda boshingni ko'ylaging bilan yopishing, may-saga yotishing shart emas. Biroq Kolka o'zini ko'rmagan bo'lsa-da, qorayib ketganligini sezardi. Agar yo'lida kimdir uchrab qolsa iblis jahannamdan yo'lga yugurib chiqdi deb o'ylashi mumkin edi. Biroq Kolkaning boshidan o'tkazganlari chindan ham jahannam edi.

U Sunjaga qanday yetib olganini eslay olmaydi. Unga, sap-sariq daryoga yopishib olib, boshini suvga goh tushirib, goh chiqarib yotdi.

Atrof yorishgunga qadar uzoq yotdi. O'ziga kelib hayron bo'ldi: tong. Quyosh charaqlab turibdi. Qushlar chirqillashyapti. Suv shovqinlanyapti. Do'zaxdan to'ppa-to'g'ri jannatga. Faqat koloniyaga tezroq borish kerak, u yerda Regina Petrovna kutuyapti. Bu yerga olov yetib kelmaguncha uni tezroq chiqarib olish kerak. Kolka esa suvga maza qilib sho'ng'ib oldi!

Kolka chuqur nafas olib, yurib ketdi, ustidagi kiyimini siqmadi. O'zi qurib qoladi. Biroq koloniyaga darvozalar orqali bormadi, balki shaxsiy tuynukdan kirdi, shu joy odatiyroq va xavfsizroq.

Sashka bilan bu yerlarni tark etganidan beri hech narsa o'zgarmagan. Faqat hovlining o'rtasidagi do'nglikning oldida yoni

bilan yotgan shaloq harbiy aravani ko'rdi. Do'nglikka yupqa taxtacha tiqilib, kimyoviy siyoh bilan yozib qo'yilgan:

Pyotr Anisimovich Meshkov. 17.10.44-y.

Kolka taxtachaga muk tushdi. Anglab yetgunicha ikki marta harfma-harf o'qidi: axir bu direktor-ku! Uning qabri-ku! «Portfelcha» deb yozganlarida tezroq yetib borardi. Voqealar mana shunday tus olibdi-da. Demak, o'ldirishibdi. Regina Petrovnani ham o'ldirgan bo'lishlari mumkin...

U hovlining o'rtasiga turib, bor kuchi bilan baqirdi: «Re-gi-na Pet-rov-na-a!» Unga faqat aks sado javob berdi.

U sochib tashlangan narsalarga qoqilib va ularni sezmay barcha qavatlarni, barcha xonalarni yugurib aylanib chiqdi. U yugurar va umidsizlik bilan qaytarardi: «Regina Petrovna... Regina Petrovna... Regi...» Birdan to'xtab, uning bu yerda yo'qligini tushundi.

U bu yerda umuman yo'q edi.

Ma'yus tortdi. O'zini o'zi tuzoqqa tushirgandek edi. Hovlidan tashqariga otildi, biroq qaytib keldi, olovdan boshqa o'ta olmasligini tushundi. Kuchi qolmagandi. Balki Regina Petrovna va uning erkakchalari bilan o'tgan bo'lardi... Ular uchun, ularni qutqarish uchun o'tgan bo'lardi. O'zi uchun esa kuchi qolmagan.

U yonida matras va yosti q dumalab yotganiga qaramay ostiga hech narsa to'shamay uyning burchagiga biroz yonbo'shladi. G'ujanak bo'lib yotib oldi va o'zini unutdi.

U vaqti-vaqti bilan o'ziga kelar va shunda Sashka hamda Regina Petrovnani chaqirardi... Uning hayotida chaqirish uchun boshqa hech kimi yo'q edi.

Kolka ular shu atrofda, faqat eshitishmayapti deb tasavvur qilar, noilojlikdan baqirar, keyin tizza va kaftlarini yerga qo'yib kuchukka o'xshab akillardi.

U o'zini uxlayapman deb o'ylardi va hecham uyg'ona olmasdi. Faqat bir marta tunda, qayerdaligini tushunmay kimdir tez-tez va og'ir nafas olayotganini eshitdi.

– Sashka! Kelishingni bilardim! Seni kutgandim! Kutgandim... – dedi u va yig'lab yubordi.

Kolka ko'zini ochib uning yuziga temir krujkani suqayotgan Sashkani ko'rardi. Kolka boshini chayqar va suv uning yuziga to'kilardi.

Sashka tilini sindirib so'rardi: «Xi... Xi... Ichish, bo'lmasa mutlaqqa ulib kolish... Suv ichish... Xi... Tushunding, xi...» Kolka bir necha marta ho'plab yana uyquga ketardi. U Sashkaga «ulib kolish» degan so'zni qanchalik kulgili talaffuz qilayotganini aytsa edi, biroq shunga ham kuchi yetmasdi. Hatto ko'zini ochishga ham kuch topolmayapti. Xi-xilarga yo'l bo'lsin.

Sashka akasining ustiga qalin narsa yopib ketib qolar va biroz o'tib yana krujkasi bilan paydo bo'lardi.

Bir marta Kolka ko'zlarini ochib notanish chehrani ko'rди. Aniqrog'i, bu yuz unga tanish edi, boisi Sashka Kolkaning og'ziga krujkasini tiqqanda uning yuzi g'alati, qoramag'iz, keng yonoqli bo'lib ko'rindi... Biroq negadir avvallari bu Kolkani shubhaga solmasdi. Sashkaning miyasi shundayki, u o'ziga har qanday yuzni o'ylab topishi mumkin.

Shunda Kolka sinchiklab qarab angladi: bu hech qanaqa Sashka emas, tizzasigacha tushgan kuygan chopon kiygan notanish bolakay qarshisida cho'kkalab o'tirib nimalarnidir g'uldurlayapti.

– Xi, xi, – deya ming'illaydi. – Yiyish gerag... O'lmash gerag...

Kolka ko'zlarini yumib yana bir marta bu Sashka emas deb o'yladi. Unday bo'lsa Sashka qani? Va nima uchun qorachadan kelgan bu begona bolakay Sashkaning yangi yuzini o'zlashtirib olib Sashkaning buzuq ovozi bilan gapiryapti? Kolka hech narsani tushunmadi va uxlab qoldi. Uyg'onganida esa darrov:

– Sashka qani, – deb so'radi.

U o'zining ovozini eshitmadi, lekin begona ovozni yaxshi tushundi.

– Sask yo'k. Alhuzur bar... Mani atim shunaka... Al-hu-zur... Chundin?

– Yo'-o'q, – dedi Kolka. – Sen menga Sashkani chaqir. Ayt, usiz o'zimni yomon his qilyapman. Nega u maynabozchilik qilyapti, kelmayapti.

Unga o'zi shunday degandek tuyuldi. Aslida esa u hech narsa demadi, faqat ikki marta to'ng'illab qo'ydi. Keyin yana uyquga ketdi, unga qoramag'iz Alhuzur uni uzum bilan boqayotgandek ko'rindi. Yong'oq bo'laklarini ham og'ziga solayotgandek tuyuldi. Avval yong'oqni o'zi chaynab, keyin Kolkaning og'ziga tiqyapti.

Bir marta u shunday dedi:

– Men, men Sask... Xaxla shunday chakir... Sask bulaman... – Va yana yong'oq chaynab, uzumni bittalab og'ziga sola boshladi.

– Men Sask... Sen chaynash... Chaynash... Tuzalish... – Kolka birinchi marta bosh silkidi. Sog'lig'i asta yaxshilana boshladi.

Alhuzur Sashka ismiga javob qaytarar, bu ism unga yoqardi. Kolka Alhuzur uni ko'tarib o'tkazib qo'ygan matrasda yotardi. Alhuzur Kolkaning ustini ikkinchi matras bilan yopgandi.

Bir safar chidab turolmay, Alhuzurning yuziga qarab, so'radi:

– Sashka chindan ham yo'qmi? – Alhuzur ma'yuslanib betob do'stiga qaradi va bosh chayqadi.

– Askar buldi, – dedi u. – Men... kaligi... Kochgan...

– Bizning askardan qo'rqdingmi?

Alhuzur xavfsirab derazaga qaradi va javob bermadi. Yonoq suyaklari bo'rtib chiqqan bolakayning o'tkir ko'zlari chaqnardi.

– Yong'in-chi? – so'radi Kolka.

– Yangin? – takrorladi Alhuzur unga tikilib. – Yangin? Yangi?

– Yo'q... Men olov haqida so'ramoqchi edim? Jo'xorizor yondimi?

U o'zining paxtali kiyimiga va undagi ko'plab teshiklarga ko'rsatib bosh irg'adi.

– Kup olov... Kazir yangan... Barish kerakmas... Menda kup tutun...

Kolka tashvishlangan Alhuzurga qaradi va kulib qo'ydi. Unda tutun ko'pligi juda ham kulgili eshitilgandi.

Alhuzur o'girildi, Kolka esa:

– Xafa bo'lma, men ataylab emas-ku... Senda qalam topilmaydimi? – dedi

Alhuzur Kolkaga ko'z qirini tashladi-yu javob bermadi.

– Yoki ko'mir... Kerak!

Alhuzur indamay ketdi va kuygan taxtacha bo'lagi bilan qaytib keldi.

Kolka kuyindini qo'lida aylantirib:

– Direktorning uyidan, – dedi og'ir xo'rsinib. – Unga granata tashlaganlarida. Tun bo'yi yondi, tasavvur qilyapsanmi... – Alhuzur xuddi yong'in haqida xabardordek bosh iring'adi. Kolka hayron bo'ldi:

– Nima, sen ko'rdingmi? Rostdan ham ko'rdingmi?

– Men ko'rmagan, – gapini kesdi Alhuzur va teskari burilib derazadan qaray boshladi. U nimanidir yashirayotgandek edi. Balki Kolkaga shunday tuyulgandir.

U matrasning chetiga surildi va mo'rt ko'mir bilan polda rasm chiza boshladi, koloniya, daryocha, qabristonni tasvirladi. Alhuzur chaplangan chiziq'larga qarab, barmog'i bilan qabristonni ko'rsatdi:

– Churt!

– Mayli, churt bo'laqolsin, – qo'shildi Kolka. – Bizningcha esa bu qabriston. Bu yerda, demak. Qayin qishlog'i.

Alhuzur Qayin qishlog'ini chaplab o'chirdi, qo'lini esa kiyimiga artdi.

– Yuk Kayin... Dey Churt, shunday namlanadi!

– Nega?

– Ata... Ata kabristan...

– Ota qabristonimi? – fahmladi Kolka. – Otangning qabri shu yerdami?

Alhuzur o'ylanib qoldi. Ehtimol, otasini eslagan bo'lsa kerak.

– Yuk meni atam... Xammaning atasi...

Kolkaga endi yetib bordi: qishloq shunday nomlanadi – Ota-lar qabri. Qabriston – Churt, qishloq esa – Dey Churt. Shuning uchun ham Ilya hadeb takrorlayverardi – churt, churt! Chindan ham, o'xshaydi.

Kolka o'rnidan turayotib, ko'rinishi uchun chizmaga yuzlandi. Daryocha yonidagi tupni belgiladi, tupning yoniga esa tuynukcha chizib qo'ydi.

– Topa olasanmi? Yo'qmi? – xavotirlanib so'radi. U umrida hech qachon va hech kimga berkitilgan joy sirini ochmagan bo'lardi. Bu o'zini sotish bilan barobar. Lekin Alhuzur endi Sashka edi, Sashka esa boyliklar qayerga berkitilganini bilardi. Buning ustiga Kolka o'zi u yerga yetib borolmaydi, kuchi yetmaydi.

– Topsang... jem bankasini olib kel!

Aytdi va suyanib o'tirib oldi. Uzoq suhbat uning sillasini quritgandi.

Alhuzur yana bir marta chizmaga qaradi va ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yerning tagiga kirib ketgandek. Kolkaga tutingan ukasi abadiy yo'q bo'lib ketgandek tuyuldi. Zaxira joyni topib, hammasini o'zi bilan olib g'oyib bo'ladi. Endi Kolkaning kimga keragi bor? Kasal va bemajol! Endi Alhuzur boy! Biroq Kolka bunday o'ylamaslikka harakat qilardi. Uning xayollari ixtiyoridan tashqarida paydo bo'lar. Kolka esa ularni o'zidan haydardi. Ammo nega Alhuzur qaytib kelmayapti?..

Bir necha soat o'tdi... adabiylik! Alhuzur taraq-turuq qilib uchib kirgan vaqtda uning yuz qiyofasi o'zgargan edi. U qoqilib ketib yiqildi, sakrab turdi, yana quladi va eshikka qarab, har bir shitirlashda seskanib shunday holatda, ya'ni yotgancha qolaverdi.

Kolka uning boshini ko'tardi.

– Nima bo'ldi? Urilib ketdingmi? Lat yemadingmi? – Biroq Alhuzur javob bermay, matrasni ustiga tortib olib uning ostida jimib qoldi.

– Garang bo'lib qoldingmi? – baqirdi Kolka achchiqlanib. Kuttib turdi, so'ngra emaklab borib matrasning chetini ochdi: Alhuzur ko'zlarini yopib, xuddi uni kimdir urishini kutayotgandek yotardi. To'satdan yig'lab yubordi. Yig'lar va tinmay qaytarardi: «Churt... Churt...» – Bo'ldi qil! – iltimos qildi Kolka. – Men senga tegmayapman-ku!

Alhuzur yuzini pastga qilib o'girilib, boshini qo'llari bilan yopib oldi. Xuddi eng yomoniga tayyorlangandek.

– Qoyil senga! – dedi Kolka va turishga harakat qildi. U majol-sizlikdan qaltirardi. Emaklab deraza o'rnigacha bordi, poldagi shisha parchalarini jaranglatib cho'zildi.

Kechki g'ira-shirada hovliga va u yerdagi bir guruh askarlarga ko'zi tushdi. Askarlar o'zlari yotgan tiqilib qolgan aravani itarib chiqarishga urinishardi, Kolka uzun qabr toshlarini darrov tanidi. «Nahotki qabristondan olib kelayotgan bo'lishsa? – o'yladi u. – Qayoqqa? Nima uchun?» Arava mahkam tiqilib qolgan bo'lsa kerak.

Aravakashlardan biri qo'l siltadi va atrofga qaradi.

– Misrang bo'lsa edi... Qidirib ko'ray-chi.

U atrofga nazar tashladi va ularning uyi tomonga yo'l oldi.

Kolka buni ko'rib orqaga tashlandi, lekin matrasning ostida yashirinishga ulgurmadi. Inidan tushib ketgan esi yo'q qushchaga o'xshab polda o'tirgancha qolaverdi.

Askar Kolkani darrov payqamadi. Xonani ko'zdan kechirayotib, bir necha qadam tashladi va birdan Kolkaga duch keldi. Hattoki kuiltilmaganlikdan sapchib tushdi.

– Eh-he! Sen bu yerda nima qilyapsan? – so'radi hayron bo'lib. Askar malla soch, sepkilli, ko'kko'z edi. Tasodifdan burnini tortdi.

– Yashayapman, – javob berdi Kolka xirillab.

– Yashayapsan? Qayerda?

– Shu yerda, koloniyada...

Askar atrofga qaradi va birdan tushundi.

– Koloniya deysanmi? – U bolani yaxshiroq ko'rish uchun cho'kka tushib o'tirdi va yana burnini tortdi. – Unday bo'lsa boshqalar qani?

– Ketishdi, – dedi Kolka.

– Sen nega ketmading? Yolg'izmisan? Yoki yana kimdir bormi?

Kolka javob bermadi.

Askar esa o'tkir ko'zli edi. U Alhuzurning ustidagi matras silkiniganini allaqachon payqagandi. Kolka bilan gaplashayotganida matrasga bir necha marta ko'z qirini tashladi.

– U yerda kimdir yashirinyaptimi?

– Qayerda? – so'radi Kolka.

– Matrasning ostida-da.

– Matrasning ostida?

Kolka yaxshiroq yolg'on o'ylab topish uchun vaqtni cho'zayotgandi. Sashka darhol fahmlagan bo'lardi, Kolka esa kasallikni boshidan o'tkazganidan so'ng mutlaqo miyasi aynidi, kallasi ishlamay qoldi. Miyasiga kelgan birinchi narsani aytdi.

– Ha-a, matrasning ostidami... Axir bu Sashka-ku! Ukam mening... Uning ismi Sashka. U kasal. – Va ishonchlilik uchun qo'shib qo'ydi. – Biz ikkalamiz kasalmiz.

– Sizlarni kasal holda tashlab ketishibdi-da! – xitob qildi askar va o'rnidan turdi. – Men bo'lsam kecha kimlardir gaplashayotganini eshitdim... Men soqchilikda turgandim... Atrofda hech kim yo'qligini bilardim... Qanday qilib sizlarni yolg'iz tashlab ketishdi ekan-a?

U Alhuzurning yoniga yaqinlashdi va matrasning ostiga qaradi.

– Albatta-da! Uning isitmasi baland! Balki bezgakdir! Qara, qanday qaltirashini!

Alhuzurni koʻzdan kechirib, ustini matras bilan yopdi. Chiqish yoʻlagi tomon ketdi, biroq qayrilib, Kolkaga qarab baqirdi:

– Hozir kelaman.

Kolka sergaklandi. Nega keladi? Yoki Alhuzur ukasi emasligini bilib qoldimikin?

Lekin askar Kolkaga tanish konservadan yasalgan temir kosa bilan qaytib keldi, soʻkdan pishirilgan boʻtqa va bir burda non ham olib keldi. Kolkaning oldiga polga qoʻydi.

– Mana, demak... Senga. Ungayam ber. Mana, yana dori...

U kosaning yoniga oltita sariq habdori qoʻydi.

– Bu xinin, tushudingmi? Bizda koʻpchilik bezgakdan qiynaladi, shunda xinin yordam beradi... Sening isming nima?

– Kolka, – dedi Kolka. Hozir ismini oʻzgartirishdan maʼno yoʻq edi. Buning ustiga endi nima deb nomlaysan oʻzingni? Alhuzur debmi?

– Men oddiy askar Chernovman... Vasiliy Chernov. Tambovdan.

Askar Kolkaning boshi ustida turar, ketishni paysalga solardi. Burnini tortib kasal bolakayga rahmdillik bilan boqardi. Ketayotib, dedi:

– Sen, Kolka, hammasini oʻzing yeb qoʻyma... Ukangga ham qoldir. Men esa sanitarlarni joʻnataman. Ertaga. Mayli, omon boʻl!

Qorongʻi tushgandagina Alhuzur matrasning teshigidan tashqariga moʻraladi. U askar ketganligiga ishonch hosil qilmoqchi edi.

Kolka unga baqirdi:

– Chiq... Qoʻrqadigan narsa yoʻq! Qara, oddiy askar Chernov qancha narsa opkeganini! Sengayam, mengayam opkepti...

Alhuzur teshikdan qarab indamasdi. Ustidagi matras qimirladi.

– Boʻtqa yeysanmi? – soʻradi Kolka. Alhuzur biroz chiqib boshini aylantirdi.

– Soʻk! – qoʻshib qoʻydi ishtaha bilan Kolka. – Non bilan! Sen hech soʻk yeganmisan?

Alhuzur matrasni ozigina ochib, kosaga qaradi va uflab qoʻydi.

– Qani... Qani... – askar Chernovga oʻxshab buyruq ohangida dedi Kolka. – U yeyishingni tayinlab ketdi.

Alhuzur xo'rsinib qo'ydi, lekin matrasning ostidan chiqishga jur'at qilolmadi. Shu tarzda Kolkaning oldiga matrasi bilan sekin-astata sudralib, yaqinlashib kelaverdi. Biror xavf yuzaga kelganda matrasini yana yopib olishi mumkin. Unga matrasning ostida yaxshiroq himoyalangandek tuyulardi.

Kolka nonni ushatdi va habdorilarni ikkiga bo'ldi. Uchtadan tegdi. Nonga ko'rsatib, so'radi:

– Buni sizlarda nima deyishadi?

– Bepig...

Alhuzur nonga ochko'zlik bilan tashlandi.

– Sen shoshilma, sen bo'tqa bilan ye, – maslahat berdi Kolka. – Bo'tqa bilan har doim to'yimli! Suvni esa biz keyinroq Sunjadan olib kelamiz.

– Solja... – to'g'rilab qo'ydi Alhuzur. – Ikta darya, shunday nami...

– Ular ikkitami? – ajablandi Kolka bo'tqani tatib ko'rayotib.

– Bita, birak iktaday.

– Ikkita o'zanlimi? – hayron bo'ldi Kolka. – Biz ham Sashka bilan xuddi shunday... edik... Biz ham ikkalamiz bitta odamday... Solja, xullas!

Bo'tqani qo'l bilan yeyishdi, hammasini o'pirishdi va kosani barmoqlari bilan tozalab qo'yishdi. Nonning jildi bilan tozalamoqchi edilar, lekin uni oldinroq chaynab qo'yishgandi-da. Mamnun bo'lib bir-biriga qarashdi.

– Endi sen mening ukamsan, – dedi o'ylab turib Kolka. – Biz sen bilan Soljamiz... Ular ertaga bizni olib ketish uchun kelishadi, familiyangi so'rashadi, sen Kuzminman degin... Eslab qoldingmi? Odatda esa Kuzmincha... Non esa sen bilan men uchun bepig, ular uchun esa bu non... Aytib qo'yma, qara... Sashka Kuzmin, mana endi kimsan sen!

– Men Sask, – tasdiqladi Alhuzur. – Men uka Sask... – U xo'rsinib so'radi:

– Bashka uka Sask kani?

– Ketdi, – javob berdi Kolka. – U poyezdda tog'ga ketdi.

– Men xam kitaman, – arz qildi Alhuzur. – Men kachaman... Askardan...

– Nega? – tushunmadi Kolka. – Askarlar yaxshi. Oddiy askar Chernov bizga bo'tqa berdi.

Alhuzur ko'zlarini yumib oldi.

– Askar churt buzadi...

– Qabrlarnimi? Buzsa buzaversin, bizga nima!

Lekin Alhuzur o'zinikini ma'qullardi.

– Churt buzsa yaman... yaman... – U buning qanchalik yomonligini ko'rsatish uchun ko'zini tepaga qaratdi.

– Hoy, nega zorlanasan! – baqirdi Kolka. – Yaman, yaman. Qabrda yotganga yomon bo'lishi mumkinmas-ku! U o'lgan-ku!

Alhuzur labini cho'chchaytirib, xuddi kuylayotgandek gapirdi, ko'rinishi ahmoqnamo bo'lib qoldi.

– Tash yuk, kabr-churt yuk... Chechen xam yuk... Alxuzur xam yuk... Nega, nega men?

– Men bo'lsam senga qayta-qayta gapiryapman, – dedi Kolka jahli chiqib. – Agar men bor bo'lsam, demak, sen ham borsan. Biz ikkalamiz bormiz. Angladingmi? Sening Soljangga o'xshab.

Alhuzur derazani qoraytirgan osmonga qaradi, barmog'i bilan ko'rsatdi, keyin o'ziga ko'rsatdi:

– Alxuzur va chechen – kush, shunday namlanadi. U uchadi... Toglar. Dada-bum! Nana-bum! Alxuzur toglarga uchmaydi va unga... bum...

U ifodali qilib barmog'i bilan pistoletni ko'rsatdi.

30

Moskvada, Lefortovoda, Moskva energetika institutining talabalar yotoqxonasi orqasida to'rt qavatli g'ishtli hammom binosi turibdi. Chorshanba kunlari u yerda cho'milish va bug'da paranish ishqibozlari jamoasi – talabalar, nafaqaxo'rlar, harbiylar to'planishadi.

Bir safar mening tanishim, polkovnik meni shu yerga olib keldi. Bu mart oyining boshlari edi. Meni nafaqa yoshidagi, baquvvat, bi-roq qorindor insonga tanishtirib, dedi:

– Mana, Viktor Ivanich... Unga (ya'ni menga) hamnomimizni batafsil ko'rsatish kerak!

Viktor Ivanovich to'qilgan shapka va dastaksiz oyoq kiyimida edi.

U menga emandan tayyorlangan ikkita supurgini uzatdi – o'zi yasagan! – va yo'l-yo'lakay ularni sovuq hovuzga botirishni, keyin nami qolmasligi uchun yaxshilab qoqib tashlashni tayinlab ham-

momga yetaklab bordi. Ushbu supurgilarga muk tushib, bizga yopishib, bizni chulg'ab olgan kuchli bug'xonada nafas olish mumkin edi. Bu yerda, tokchalarda hamma bir-birini chaqirar, hamma bir-birini tanir edi. Tinmay baqirishardi: «Kolya, yana! Yalpiz bo'lsa yaxshi bo'lardi! Evkaliptdan! Vitya! Evkalipting yo'qmi?» Keyin meni tosh tokchaga yotqizishdi – bu endi bug'xonada emas – va Viktor Ivanovich mening oshnam bilan ustimda afsungarlik qilishdi, ayniqsa, Viktor Ivanovich qattiq urinardi. U ikkita tog'ora qo'ydi: bittasini ikkinchisining ustiga qilib, ustiga esa uchinchisini – sovun ko'pigi solinganini joylashtirdi. Ular ikkita supurgini qaynagan suvga botirishar va ularni tezda tanamga bosishardi. Biqinimga, orqamga, umurtqamga bosib, terini og'riguncha qizdirib, shivirlardi: «Chida... Chida...» Va tinmay meni qizdirishar, shunday qizdirishardiki, sal-pal oshirib yuborilsa chiday olmasligim aniq edi, biroq ular shunday mahoratga ega edilarki, me'yorini bilishardi!

So'ngra ular har bir mushagimni, har bir tomirimni ishqalashar, sovunlashar, silashardi, qo'limni bilagimdan to yelkamgacha va oyog'imni barmoqlarimdan tizzalarimgacha, keyin esa qoshlarimni, yuzlarimni burnimdan chakkamgacha uzoq ezishardi, so'ngra bularning hammasini goh me'yorida qaynoq (biroq o'sha me'yordan bir marta ham o'tishmadi), goh sovuq suv bilan chayishardi (u ham bardosh chegarasida edi).

Yana mening radikulitli belimga qaynoq supurgilar bilan urishni boshlashdi, bu maxsus qilingandi, men hammomga kasal bo'lib qolganim uchun ham borgandim: radikulitim menga azob berardi...

Radikulit haqida alohida aytishim kerak, bu kasallik meni anchadan beri qiynab keladi... Bir vaqtlar bolaligimda dalada quruq mak-kajo'xori orasidagi chuqurchada yotganimdan beri... Chavandozlar orqamizdan quvishgandi. Bitta ot mendan bir necha santimetr narida o'tib ketdi. Men uning boshimdagi sochlarimni qimirlatgancha tuyoq bosib o'tganini va kishnab nafas olganini eshitdim... Biroq g'ira-shira payt edi, shu sababli chavandoz nima uchun uning oti bir joyda depressina boshlaganini tushunishga ulgurmadi. Uzoqdan cho'zib, begona bo'g'iq tilda uni yordamga chaqirishdi – kimnidir tutib olishgandi! Va u tepsa-tebranmas otini qamchilab choptirib ketdi.

O'sha vaqtdan beri meni orqamdagi shafqatsiz og'riq azoblaydi... Hammomga ham, Viktor Ivanovichga, mening xaloskorimga ham ming rahmat.

Tanaffusda esa mening xushbaxtlilik ila charchagan yangi do'stlarim araqni stolga qo'yishdi, hammomchidan pivo sotib olishdi: shishasi uchun bir rubldan, Viktor Ivanovich esa to'sh go'shti, yashil piyoz va bodring bankasini topib keldi... Sekin-asta, choyshabga o'ranib, marosim stakanchalaridan qittak-qittak qildik.

Viktor Ivanovich o'zi sindirib olib, keyin yuk ostiga bostirib qo'yib, so'ng balkonda quritib, polietilen qopda saqlovchi eman su-purgilar haqida gapira boshladi... Naq keyingi mavsumgacha yetadi!

– Yozgachami? – so'radi mening oshnam, polkovnik-tankchi.

– Eh, yoshlar! – dedi Viktor Ivanovich boshini tebratib. – Hammasini o'rgatish kerak, hech narsani bilmaysizlar! Troitsa'gacha! Shundayini eshitganmisizlar?

Ular so'nggi marta loklangan bug'xonaga kirishdi! Keyin esa ichib tugatishib, kiyinishdi va tashqariga chiqishdi. Biroq bu, tushunishimcha, diniy marosimning hammasi emasdi. Ular o'sha hammomga, faqat boshqa tomondan burilishdi. Viktor Ivanovich kirlangan eshikning orqasiga yashirindi, lekin tez orada qaytib kelib bizni imlab chaqirdi: «Bu yoqqa! Bu yoqqa kelinglar!» Ivirsib ketgan yarimyerto'la xonada faner taxta turardi, uning orqasida esa ikkita odam o'tirib ichishardi: biz ularni o'sha hammomda ko'rgandik... Ularning yonida qishki quloqchin va paxtali kurtka kiygan past bo'yli erkak turgan edi.

– Xo'sh, Nikolay Petrovich, bo'ladimi? – so'rashdi undan.

– Bo'ladi, bo'ladi, – javob berardi u tashvishlanib. – Sizlar, agar xohlasangiz shu yerda, xohlasangiz boshqa bo'lmada...

– Boshqa bo'lmaga o'tsak... Agar mumkin bo'lsa, – dedi Viktor Ivanovich. Buyruq ohangida gapirdi.

Bizni duradgorlik qaqir-ququrlari bilan ko'mib tashlangan yo'lak orqali yetaklab borishdi va birinchisidan kattaroq boshqa qaznoqqa olib kelishdi. Bu yerda ham fanerlar, kursi o'rniga yashiklar qo'yilgan edi. Nikolay Petrovich bir zumda g'oyib bo'lib, shisha va stakanlar ko'tarib qaytib keldi.

¹ Troitsa – xristian dinida yagona xudo sharafiga o'tkaziladigan bayram nomi.

Har birimizga quyayotib, Viktor Ivanovich yo'lak tomonga bosh qimirlatib dedi:

– Anavilar... biznikilar! Biri podpolkovnik, ikkinchisi esa esimda yo'q... Intendant'lardan bo'lsa kerak...

– Siz qaysilardansiz? – nima uchundir so'radim men.

U, javob bermay, urush qatnashchisi daftarchasini oldi.

– Mana, – dedi. – Men urushni boshidan oxirigacha... – Ichishdi. U bankadan tuzlangan suvni ho'pladi va ustidan nonni tishlab, qo'shib qo'ydi:

– Qirq birinchi yil paradidan boshlab... Keyin esa hamma yoqda... Men avtomatchi bo'lganman... Mana, Kavkazda... Biz u yerdan haligi, qoralarni olib chiqqanmiz. Ular Gitlerga sotilishgandi! Ularning respublika prokurori general tomonidan bizga qarshi tayinlangandi...

U yana quydi va biz ichdik.

– Fevralning yigirmanchilarida, esimda, bizni bayram arafasida qishloqqa, adashmasam dam olish uchun olib borishdi. Qishloq kengashi raisiga esa: soat oltida miting, hamma erkaklar qishloq kengashining oldida yig'ilishsin, aytamiz va qo'yib yuboramiz, deyishdi. Ular maydonda yig'ilishdi, biz esa tundanoq atrofni o'rab olganmiz va darrov, o'zlariga kelib olishga fursat bermay mashinaga ortdik va soqchilar nazorati ostiga oldik! Hammasini uyiga tarqatdik, tayyorgarlik ko'rish uchun o'n daqiqa berdik va hammasini ortdik! Butun operatsiyani uch soat ichida tamomladik. Qochib ketganlari esa... Eh, avjiga chiqishdi... Biz ularni tog'lardan turib otdik, ular ham, albatta bizni...

Nikolay Petrovich keldi, bo'sh shishaga qarab, dedi:

– Yopaman, vaqt bo'ldi!

Biz turdik, Viktor Ivanovich birinchi bo'lib chiqar va hikoya qilishda davom etardi:

– Esimda, Argun yonidan ketayotgandik... Shunday daryo bor... Eshaklarda, demak, o'n bitta eshak, men ikkinchi bo'lib ketyapman. Bittasi tepalikdan pulemyotdan o'q yog'dirsa bormi! Ikkitasi yiqildi, qolganlarimiz esa do'nglikning orqasiga o'rmalab o'tdik. Minomyotni to'g'riladik va u bekingan o'sha tepalikni o'qqa tutdik... O'sha tepalikni kallaklab tashladik, na pulemyotchi, na pulemyot

¹ Intendant – armiyada moddiy ta'minot xizmatini bajaruvchi harbiy xodim.

qolmadi! Kiyimi ham qolmadi. Bizda shunday: kallasini shtabga sudrab borasan, u yerda esa ularnikidan biri tanib olib ro'yxatdan o'chirib tashlaydi: Ahmad yoki boshqa birovi... Bahorgacha orden berishdi, keyin esa Qrimdan tatarlarni ko'chirdim... Ko'proq narigi dunyoga... Qalmiqlarni, litvaliklarni... Ular ham yaramas fashistlar, ablahlar...

Nogahon men bir vaqtlar tinglagan, tanish narsani eshitdim. Ehtimol o'sha yoqda, Kavkazda eshitgan bo'lsam kerak.

– Hammasini, hammasini otish kerak! O'shanda batamom yakson qilmadik, endi esa ta'mini tatimoqdamiz.

Shu yerda biz shishachaga burildik, u ham yo'limizda tasodifan uchramagandi. Cherkovning yonida joylashgan bu joy shunday nomlanadi: Pyotr va Pavelning shishachasi, uni Moskvada ham bilishadi. Bir rublni ho'l tanga chaqaga alishtirdik, krujkalarni chayqadik, avtomatlardan pivo sirqitib oldik va iflos stol ustida ichib, tuzlangan teshik kulchalar bilan gazak qildik.

Yon-atrofdada odamlar bir-biriga tiqilishar, salomlashishar, bir-birini chaqirishardi. Va shu yerda, hammomdagiga o'xshab, hamma bir-birini tanirdi.

Viktor Ivanovichga yuzini ajin bosgan, eski bichimdagi uzun etakli, qora movutli palto kiygan ikkita odam yaqinlashdi. Menga ularni «o'zimizning yigitlar», hozir-u nozirlar deya tanishtirishdi.

– Mana ular jang qilishgan... – maqtadi ularni Viktor Ivanovich. – Biz uchrashmagan bo'lsak-da, bitta qo'shinda bo'lganmiz... Bu yerda biznikilar ko'p!

U qo'lini qimirlatdi va men ham g'ayriixtiyoriy ravishda o'girilib qaradim. Haqiqatan, kiyimi va yoshiga qarab ajratib olish qiyin bo'lmagan talabalarni aytmaganda hamma yoki deyarli hamma bizning Viktor Ivanovich bilan tengdosh edi... Ko'rinishi juda yosh emas-u, lekin aniq xotirjam, ko'rsang bahri-diling ochiladigan. Pogonsiz bo'lsalar-da, ularning malakalari sezilib turardi... Maktab. Qanday maktab!

Viktor Ivanovich sho'r teshik kulchani karsillatganicha o'zining o'rtoqlariga baqirar, shunda teshik kulchani ushoqlari polga to'kildi:

– Men bu yaramaslarni hozirgidek eslayman... Menda shaxsan bosh qo'mondon bergan faxriy yorliq bor! Ha!

Uning yuvosh jilmaygan do'stlari bosh irg'ab krujkalarini cho'zishardi.

Axir, yashirmayman, Yaratganning nomidan uning ixtiyorini amalga oshirgan o'sha insonlar hayot, qayerdadir mavjud degan fikr kelgan, kelmasligi mumkin emasdi.

Hayotlar, biroq qanday hayotlar?

Ularni yomon tush bezovta qilmayaptimi, yarim tunda o'ldirilganlarning soyasi o'zlarini eslatish uchun kelmayaptimi?

Yo'q, kelmayapti.

Ular nevaralari bilan o'ynab, ko'z ilg'amaydigan, ular uchun ravshan bo'lgan belgilari orqali bir-birlarini tanigan holda to'planishadi. Kasblari bosgan muhr pishiq ko'rinadi.

Hammomlardami, pivoxonalardami to'planishib, ular bo'g'iq jarang bilan yuvilmagan krujkalarini birlashtirishadi va sog'liq hamda o'zlarining kelajaklari uchun ichishadi.

Ular hammasi ortda qolmaganligiga ishonishadi...

Tong yorishgan paytda vodiyni berkitib turgan qalin tuman tarqadi va daladan yengil shabada hamda chirik maysa hidi taraldi, biz ikkimiz jimjit hovlidan bildirmay chiqib ketdik. Hovlida, sariq direktor qabri tepaligining oldida tosh ortilgan arava turardi. Uni kecha sudrab chiqara olishmagan ko'rinadi.

Biz tuynukka lip etib kirdik va qabriston tomonga chiqdik.

Qolaversa, qabriston endi yo'q edi. U-bu yerda singan va kundakov qilingan, jo'natilishga tayyor toshlar sochilib, qo'porilgan yer sarg'ayib yotardi.

Biroq dala bo'ylab daryoga yo'l olganimizda biz yana qator qilib terilgan qabr toshlariga duch keldik.

Bu nima uchundir qishloqqa emas, kimsasiz tog'lar tomon yotqizilgan noodatiy yo'l edi.

Mening hamrohim birinchi toshdayoq qoqilib ketdi. Oyoqlarining ostiga qarab, biroz turdi, so'ng egilib, cho'kkaladi. Boshini ikki tomonga burib, ovoz chiqarib bir nimalar dedi.

– Nima? – so'radim men sabrim chidamay. – Nimani o'qiyapsan?

U o'zining g'alati mashg'ulotidan uzilmay, dedi:

– Bu yerda Zuyber yatgan...

– Zuyber? Kim u? – Alhuzur yelkasini qisdi.

– Dada...

Va keyingi toshga emaklab o'tdi.

– Bu yerda Umran yatgan...

– Bunisi kim?

Birinchi martada bo'lgani kabi, menga qaramay takrorladi:

– Dada...

Va hokazo, toshdan toshga o'tib: – Hasan... Deni... Toita...
Vohid... Ramzan... Sotsita... Vaxa...

Men atrofga qaradim. Kun shunday yorishgandiki, bizni uzoqdan ko'rish mumkin edi. Oshig'ich ravishda va yashirinib ketishi kerak edi.

Men hamrohimni tezlatdim.

– Ketdik, ketdik... Vaqt bo'ldi!

U meni eshitmasdi.

Toshdan toshga emaklab, ismlarni o'qir, xuddi o'z avlodining tarixini takrorlayotgandek edi.

Yo'l daryoning baland tik jarligiga borib taqalmaganida bu ibodatning qancha davom etishi mumkinligini bilmayman. Ehtimol davomi ko'priikka ulanardi, uni qurishni boshlagandilar.

Biz xavfli jarlikdan o'tib, daryoga tushdik, toshlar ustidan sakrab narigi tomonga o'tdik va tog'lar tomonga keta boshladik.

Hamrohim bu joylarni eslab qolish maqsadida atrofni ko'zdan kechirardi.

Na u, na men, albatta, shunday vaqt keladiki, ismlari abadiy toshlarga o'yib yozilgan odamlarning farzandlari, nevaralari adolat izlab o'z zaminlariga qaytib kelishlarini bilmasdik.

Ular bu yo'lni topishadi va qaytib kelganlarning har biri bu yerga kelib, ajdodining toshini o'z joyiga qaytarish uchun uni ko'taradi. Ular hamma toshlarni tashib ketishadi va jarlikka olib boruvchi yo'l o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi.

– Balki stansiyaga borarmiz? – so'radi oxirgi marta Kolka. – Yordamchi xo'jalikda bilasanmi qanchalik zo'r! Cho'rak non yopamiz, oshqovoq qaynatamiz... Xo'sh?

Alhuzur boshini chayqadi va tog'ga ko'rsatdi.

– Bu yerda atadi, u yerda atmaydi, – u qaysarlik bilan to'ng'illar va oyoqlarining ostiga qarardi.

– Mayli, – ko'ndi Kolka. – Aka-uka ekanmiz, birga yurishimiz kerak. Biz ukam bilan alohida-alohida yurmaganmiz. Tushundingmi?

– Tushundi, – ma'qullab bosh silkidi Alhuzur. – Bir uka – ikita kuz, aka-uka – turta kuz!

– Qoyil! – xitob qildi Kolka va shu zahoti atrofga qarab, og'zini yopib oldi. Past ovozda davom etdi: – Sen xuddi Sashkadek aytding... Uyam shunday derdi!

– Men Sask... – tasdiqladi Alhuzur. – Men yaxsi Sask buladi. U yakda esa... – U tog'larga ko'rsatdi. – Men yaxsi Alxuzur buladi... Nan bepig buladi, makajuxari esa – kachkash... Suv esa xi buladi...

Kolka qovog'ini uydi. Mangu muhrlanib qolgan xotirasida Kuban stansiyasidagi sariq issiq vagon paydo bo'ldi. Uning panjara-langani derazalaridan qo'llar cho'zilardi, lablar, yolvoruvchi ko'zlar... Va hanuz quloqni qomatga keltiruvchi hayqiriqlar: «Xi! Xi! Xi! Xi!» Mana ular nimani so'ragan ekanlar!

Bolalar tog' burmalariga ulanuvchi tor jarliklar bo'ylab o'tib borishardi. Yo'lda katta yong'oq daraxti uchrab qoldi va Alhuzur tayoq bilan yong'oqlarni mohirona tarzda urib tushirar, Kolka esa qo'yniga terardi. Keyin ular yovvoyi shirin na'matak yeyishdi, bir nechta qo'ziqorin topishdi, biroq ular achchiq bo'lib chiqdi.

Quyuq tutun qochoqlarga yo'l bo'yi yo'ldosh bo'ldi va kasallikdan so'ng hali bemajol bo'lgan Kolka tez-tez o'tirib dam olardi.

Alhuzur bo'lsa toshlar ustidan tirmashib chiqar, choponining ostidan yalang oyoqlarigina ko'rinardi. Kolka dam olayotgan bir vaqtda u tuplarni aylanib kelib yovvoyi nordon olmalar-u noklarni terib kelishga ulgurardi.

– Kata fayda, – derdi odatda u mevalarni uzatib va jilmayib. – Tagda esa tutun yuk... U yakda yakshi buladi...

Bir marta askarlarga duch kelishdi, lekin ular bolalarni payqashmadi. Ular qanday qilib yo'l chetiga sirpanib chiqqani va o'sha yerda tiqilib qolgani noma'lum mashinani chiqarish bilan ovora edilar. Askarlar so'kinishar, tog'larni, chechenlarni va ularga qo'shib mashinalarini la'natlashardi.

Kolka balandlikdagi tupning ichida o'tirib olib ularni kuzatdi. So'ng Alhuzurga pichirladi:

– Xohlaysanmi ularning yoniga tushaman? Yegulik so'rayman? Alhuzur koloniyadagiga o'xshab qaltirab ketdi.

– Yuk! Yuk! – baqirib yubordi u, ikkita askar shu zahoti o'girilib qaradi. Bolalar engashishlari bilan avtomatdan qatorasiga o'q uzish-

di. Biroq askarlar boshqa tomonga o'q uzishgandi, so'ng yana mashina bilan kuymalanishga tushishdi. Ular har eltimolga qarshi otishganga o'xshaydi. Otilgan o'q ovozi tog'larda aks sado berdi. Shu sababli hamma tomondan tasir-tusur otayotgandek tuyulishi mumkin edi.

Bolalar o'rmalab nari ketishdi va qarama-qarshi tomonga yura boshlashdi.

Tunda ular odatda qo'tondagi cho'ponlar yashaydigan puturdan ketgan omborchaga kelishdi. Alhuzur shunday deb tushuntirdi. Qo'tonning atrofida kichkina bog'cha va tomorqa bor edi, hozir ular qarovsiz qolgan, tashlab qo'yilgandi. Shunday bo'lsa-da, bolalar bir nechta sabzi kavlab olishdi, maysaga ishqalab tozalashdi va yeb qo'yishdi. Yong'oqlarni ham yeb tugatishdi.

Tun sovuq, tog'lar o'zidan darak berib turardi. Bolalar poxol to'shamada bir-birini quchoqlab uxlashar, biroq baribir sovgotishar, yopinishga hech narsalari yo'q edi. Ertalabga yaqin chidab bo'lmaydigan darajada qaltiray boshlashdi va sovuqdan tillari ham aylanmay qoldi.

Shunda Alhuzur qo'tonning yonida aylanib o'zining g'alati, qulqullovchi qo'shiqlarini kuylay boshladi.

Kolka ham yugurib, bor kuchi bilan o'zining qo'shig'ini ayt ketdi. Biroq bu qo'shiq uni qizdirolmadi. U Budyonniy va Klim Voroshilov haqidagi qo'shiqlarni eslay boshladi... Ularning hammasi poygachilarniki bo'lib, ot maqomi ostida yugurishga moslashgan. Keyin esa ular yotoqxonada baqirib aytishgan qo'shiq miyasiga keldi: «Do'stim bilan aylandik... Do'stim bilan yovvoyi tog'larni, chiroyli bog'larni...» U Alhuzurga ushbu qo'shiqni o'rgata boshladi. Ikkalasi bor ovozi bilan baqirishdi, sakrashdi, yugurishdi, bir-birini yelkalari bilan turtishdi... Keyin esa quyosh chiqib, qalin tuman orasidan mo'raladi va kun biroz ilidi.

Ular sovuqdan boshqa qaltiramasliklarini bilib xursand bo'lib to'ppa-to'g'ri maysaga yotib uxlab qolishdi.

Alhuzur tushida qadrdon uyini ko'rdi. Tushida onasi uni darsini qilmagani uchun urishardi. Kolka esa ukasi Sashkani ko'rdi, u qo'tonga kelib: «Naga uxlaysan? Kara, xammayok tog, sen esa uxlaysan? Xa?» deb so'rar va yelkasidan siltardi.

Kolka uyg'onib nimalar sodir bo'layotganini tushunmasdi. Boshining ustida Alhuzur va sariq qo'y terisi yopingan, qishki qalpoq kiygan, qo'lida miltig'i bor bir erkak turardi.

– Uxlayapsan, xa? – baqirdi erkak g'alati to'liqinli sado bergan ovozda. – Rus chuchka bilan uxlaysan, xa? Uzing chechen, xa?

Alhuzur uning miltiq ushlab turgan qo'lini tortar, miltiq Kolkaga yo'naltirilgandi.

Uyqusirayotgan Kolka hech narsani tushunmasdi. U ko'zlarini ishqaladi va turmoqchi bo'ldi, lekin erkak uni oyog'i bilan tepdi va Kolka yelkasi bilan yerga yiqildi.

– Yat! – baqirdi erkak. – Ataman!

U yana Kolkaga miltig'ini to'g'riladi, Kolka esa ko'zlarini yerga qaratib yotib oldi. U shunday yotib erkak va Alhuzurning baqir-chaqir qilishayotganini eshitardi. Lekin Alhuzur baland ovozda o'zining tilida gapirar, erkak esa ehtimol Kolka eshitishi uchun unga ruschasi-ga javob qaytarardi. Hozir uni o'ldirishlarini tushunishi uchun!

Erkak guldurardi:

– Mening yer! Seniki mening yerga keldi! Mening uy! Mening bag! Men shunga ataman! Men uldiraman...

– Ma toxa sunna! – qichqirardi Alhuzur. – Uldirma! U mini askardan kutkargan... U mini uka digan...

Erkak Kolkaga qaradi:

– Xan se xun yu? Uka? Yuk? Ating nima?

Kolka o'girildi. Erkak Kolkaga sovuqqina qarab qo'ydi, uning ko'zlarining rangi Kolkaga yo'naltirilgan miltig'ining stvoliday po'latrang edi.

Kolka yana turmoqchi bo'lgandi, biroq erkak baqirib berdi:

– Yat! Javab ber! Xan se xun yu? Xo mila vu?

– Kolka, – dedi Kolka yotgan holda erkakka qarab. U ko'zlarini miltiqdan uzdi va erkakning kalish kiyib olganini ko'rdi. Po'stini esa yirtiq-sirtiq, tikanaklar orasida ko'p yurganga o'xshaydi. Boshida xuddi shunday juldur telpak, po'stini esa yaltiroq kumush kamar bilan bog'langandi... Xuddi u bilan Sashkanikidek. Qizig'i, aynan telpak va kamar Kolkani hayron qoldirdi, u ayni daqiqada bu narsalar haqida o'ylamasligi lozim edi, axir uni o'ldirmoqchi bo'lishayotgandi.

– Kolka? – qayta so'radi erkak. – Niga keldin? Tag – niga? Chechenni kuzatasan niga?

- Men kuzatmayman, – dedi Kolka. – Men bu bilan birgaman...
- Biz – aka-uka, biz – aka-uka! – baqirdi Alhuzur.
- So xkeru xex, – dedi tog'lik Alhuzurga burilib.
- Ma xeve so, – javob berdi u.

Tog'lik Kolkaga, keyin Alhuzurga qaradi va ruschasiga qo'shib qo'ydi:

- Uni uldirish karak! U askar alib keladi!

– Ma xeve so, – qichqirdi Alhuzur va yig'lab yubordi. Manzara shunday edi: Kolka yotib olib erkakka, uning miltig'iga tikilar, yonida esa Alhuzur yig'lardi. Kolka hech bir vahimasiz uni hozir o'ldirishsa kerak deb o'yladi. Sashkaga o'xshab. Balki miltiq o'qtalsalar og'risa kerak, keyin, otganlaridan so'ng og'rimaydi-ku. Shunda ular Sashka bilan odamlar bulutlarga aylanadigan joyda yana uchrashishadi. Ular bir-birini tanishadi. Ular Kavkaz tog'larining kumush cho'qqilarida oltin bulutchaga bo'lib suzishadi va Kolka shunday deydi:

– Salom, Sashka! Senga bu yer yoqyaptimi? – Sashka esa javob beradi:

- Ha, albatta. Menga bu yer yoqyapti.

– Men esa Alhuzur bilan do'stlashib oldim, – deydi Kolka. – U ham bizning aka-ukamiz!

– Men hamma insonlar bir-biriga aka-uka deb o'ylayman, – deydi Sashka va ular uzoqqa, olis-olislariga, tog'lar dengizga cho'kuvchi va odamlar aka-ukalar bir-birini o'ldiruvchi urush haqida hech qachon eshitmagan o'lka tomonga suzib ketishadi.

Kolka tezda o'ziga kelmadi, uni qancha vaqt davomida o'ldirmoqchi bo'lishganini bilmasdi.

Balki uni o'ldirib bo'lishgandir?

Alhuzur Kolkaning yonida o'tirib olib hamon yig'lardi. Ammo tog'lik g'oyib bo'lgan, qosh qoraygan mahal atrof sukunatga cho'mgandi.

Kolka Alhuzur hali ham yig'layotganidan hayron bo'lib so'radi:

- U seni xafa qildimi?

Alhuzur uning ovozi eshitib yanada qattiq yig'lab yubordi. U ko'z yoshlarini qo'li va teshiklaridan kuygan paxta chiqib turgan choponining etagi bilan artdi. Chopondan yong'inning hidi kelardi. Alhuzur paxtani yulib olib shamolga qo'yib yuborardi.

Kolka yana so'radi:



– Nega bo'kirasan? Nega paxtani yulyapsan?

Alhuzur yengi bilan yuzini artdi-da, Kolkaga qaradi.

– Men uyladim sen ulding.

– O'ylagan narsangni qara-yu!

– Sen kuzingni yapding va mana bunaka: xir-xir... – Alhuzur xirillashni ko'rsatdi. – Men esa yaman buldim... Bitta aka-uka bulmaydi...

Kolka dedi:

– Agar u otmagan bo'lsa, demak, men tirikman. U ketdimi? – Alhuzur tog'larga ko'rsatdi.

– U anavi yirda... U uzining yirini kuriklaydi... U yirini yakshi kuradi...

– Agar u meni otib o'ldirganda-chi? – so'radi Kolka va birdan sovqotib ketdi. G'amginlik chulg'ab oldi uni. Hattoki Alhuzurning mavjudligi bu tuyg'uning bostirib kelishiga to'sqinlik qilmadi.

U tog'lik erkak uni chindan ham o'ldirmoqchi bo'lganini tushundi. Hozir u ichak-chavog'i tashqariga chiqqan holda shu yerda yotgan va qarg'alar uning ko'zini Sashkanikiga o'xshab cho'qiyotgan bo'lardi. Alhuzur Kolkaga qaradi.

– Men yiglagan, – dedi u va darhaqiqat yig'lab yubordi. Shundagina Kolka yengillashdi, juda yengil tortdi. Va u tug'ishgan ukasini ovutib, unga bir-biri bilan yanada yaqinlashishlari, ya'ni qo'llarini kesib bir-birining qonini aralashtirishlari kerakligini tushuntira boshladi.

Ular shisha parchasini topishdi, birinchi bo'lib Kolka, keyin Alhuzur chap qo'llarining terisini kesishdi va kesilgan joyni bir-biriga ishqalashdi.

– Mana, – dedi Kolka. – Endi biz qon-qarindoshmiz. Bu yerdan esa ketishimiz kerak. Chechenlar meni baribir otib tashlashadi.

Alhuzur indamasdi.

– Kel, pastga tushamiz, – taklif qildi Kolka. – Pastda issiqroq.

– U yoqda askar atadi, – vahima bilan dedi Alhuzur.

– Bu yerda esa chechen otadi, – javob berdi Kolka.

– Xamma yok yomon! – xo'rsindi Alhuzur. – Nega ular atadi?

Sen tushunding?

– Yo'q, – dedi Kolka. – Buni hech kim tushunmasa kerak deb o'ylayman.

– Birak ular katta... Ular akilli... Shunday?

Kolka indamadi.

Kech tushdi. Ular yarqirab turgan tog'larga boqqancha qanday yashash kerakligini bilmay hayron bo'lishardi.

31

Ularni vodiy yaqinidagi tog' yonbag'rida tutib olishdi, ular tupning ichida bir-birini quchoqlab uxlab yotishgan edi. Ularni safdan qolib ketgan askar ko'rib qoldi.

Kolka bilan Alhuzurni ajrata boshlaganlarida ular baqirib yuborishdi. Alhuzur tishlar, Kolka esa bor kuchi bilan buralib tushunib bo'lmaydigan narsalarni gapirardi.

Mashinadagi askarlar ularning qo'llarini qayirib bog'lashdi, biroq keyin yechishdi va yegulik berishdi.

Ular kosadan qo'llari bilan yeyishar va hech kimga qaramasdilar. Ular faqat bir-biriga boqishar va imo-ishora hamda g'o'ldirash bilan gaplashishardi. Ular hech qanday savolga javob bera olishmasdi.

Yetib kelgan shifokor ikkala bola ham distrofiya¹ holatida ekanligini va hozir ularning yashab ketishi mumkin yoki mumkin emasligiga umuman javob berib bo'lmashligini qayd qildi. Oriqlab ketishdan tashqari, ikkisida asab buzilishi belgilari namoyon edi.

Bolalar bir-biridan ajratishga yo'l qo'yishmadi va ulardan birini tibbiy ko'rikka olib ketmoqchi bo'lishganda qattiq baqirishardi.

Bir oy va o'n kundan so'ng esa Grozniy shahrining o'n oltinchi sonli bolalar klinikasidan qahramonlarimizni bolalar qabulxonasiga o'tkazishdi. Bu yerda tutib olingan va boqimsiz bolalarni har xil koloniyalar va bolalar uyiga jo'natishdan oldin saqlab turishardi.

Men xilvat ko'chada joylashgan sobiq maktabning yog'och binosida qad rostlagan ushbu uyni yaxshi eslab qolganman.

Bu yerda hech kimni o'qitishmagan, lekin xonalarda partalar turar va stollarning yo'qligi bois bizni ushbu partalarda boqishar, odatiy taom: unli suv va piyoz, ba'zi omadli kunlarda muzlagan qora kartoshka bilan boqishardi... Ertalab choyga ikkita xurmo yoki o'n dona mayiz, kechqurun hidlangan selyodka bo'lagi va yana choy. Gohida, bayram va yakshanba kunlari – bo'tqa.

¹ Distrofiya – to'qima va a'zolarida moddalar almashinuvining buzilishi.

Bizning yotoqxonamizda turli millat vakillari yashashgan. Jumladan quvnoq, yuziga husnbuzar toshgan, beso'naqay novcha tatar Musa. U hammani laqillatishni yaxshi ko'rardi, lekin jahli chiqqanda so'yib tashlashi ham mumkin edi, oqarib, tishlarini g'ijirlatardi. Musa hamisha o'zining Qrimini, dengizdan uzoqdagi, tog' yonbag'ridagi loysuvoq uyini va uzumzorda mehnat qiluvchi ota-onasini eslardi.

Balbek no'g'oy edi. Uning vatani qayerdaligini hech birimiz, hattoki Balbekning o'zi ham bilmasdi. U past bo'yli, yonog'i keng, haqiqatgo'y edi. Ular Musa bilan har biri o'zining tilida gaplashib ko'rmoqchi bo'lishdi, hattoki ba'zi so'zlarni tushunishdi. Ikkalasi ham soqqa o'ynashni bilardi. Balbek bizga no'g'oycha so'kinishni o'rgatdi...

Qizlardan bir o'zi bo'lgani va sovuq yotoqxonada yolg'iz yotib bo'lmasligi uchun bolalar yotoqxonasidan joy berilgan Lida Gross bizdan uni ruschasiga, Grossova deb chaqirishimizni so'rardi. U hamma dorilarni yoddan bilar, juda ham tartibli qiz edi va hamma-ning to'shagini yig'ishtirib qo'yardi. U polni ham supurardi. O'zining o'tmishi haqida faqat katta daryo bo'yida yashaganini, lekin bir kuni tunda begona odamlar kelib ularga ketishni buyurganini eslardi, xolos. Onasi qo'rquvdan yig'lagandi. Keyin esa poyezdda onasining tobi qochib, uni olib chiqib ketishdi, Lida ham chiqib ketdi; uni begona shaharda, vokzalda jon berayotgan holda topib olishdi...

Yana bizning xonada aka-ukalar yashashardi, Kuzminlar, biz ularni Kuzminchalar deb chaqirardik. Ular bir-biriga mutlaqo o'xshamasdilar: biri burni puchuq, sariq, rus, ikkinchisi qoramag'iz, sochi olingan va qora ko'zli, u ruschada zo'rg'a gapirardi... Biroq Kuzminchalar, ulardan hech kim so'ramasa ham, qondosh aka-uka ekanliklarini takrorlayverishardi!

Biz bilan qo'shni xonada armanlar, qozoqlar, yahudiylar, moldavanlar va ikkita bulg'or yashardi. Bir xona narida esa ko'zi ojizlar istiqomat qilishardi.

Ko'zi ko'rmaydigan bolalar bu yerda anchadan buyon yashardilar, buni ular oshxona va yotoqxonaga yo'lni o'zlari topib borganlaridan, stoldagi o'z joylarini bilganlaridan va hattoki ko'chada, devorning oldida mustaqil sayr qilganlaridan bilish mumkin edi.

Biz ko'zi ojizlardan biri bilan tanishishga ulgurdik, uning ismi Antosha edi. U kichkinagina, yuziga xuddi sochma o'q sachragandek

mayda xolchalar bilan qoplangan edi. Anton granata topib olganini va uni qismlarga ajratmoqchi bo'lganini so'zlab berdi. Shu bilan birga u chap qo'lida uchta va o'ng qo'lida ikkita barmog'i bo'lmagan qo'llarini ko'rsatdi.

Anton teshikchalari ko'p bo'lgan g'alati kitobni olib keldi va barmog'i bilan yurgizib, bir necha satr o'qib berdi.

– Katta bo'lsam, to'tiqush boqaman va bozorda chiptalar sota-man, – derdi Anton. – Bizda ko'pchilik bozorda fol ochadi. Shuncha topishadiki, og'zing ochilib qoladi.

Kuzminchalar birga, bitta karavotda yotishardi, dekabr oyi bo'lib, tashqari qorsiz, lekin izg'irin, yotoqxona juda sovuq edi.

Ular, hammamizga o'xshab, qismlari qanday kechishini kutishardi.

Bolalar qabulxonasida taqdirlar turli-tuman bo'lishi mumkin edi: ba'zilarni koloniyalar yoki boshqa bolalar uylariga jo'natishsa, boshqalarni fabrika-zavod o'quvchiligi maktabi yoki, agar yoshi to'g'ri kelsa, hunarmandchilik bilim yurtlariga yuborishardi.

Lekin mo'jizalar ham ro'y berib turardi: kimnidir ota-onasi yoki qarindoshlari topib olishar yoxud uy-joyiga ega va yedirib-kiyintirishga imkoni bo'lgan odamlar tarbiyaga olishardi.

So'nggisi borasida mish-mish va afsonalar ayniqsa ko'p edi. Bo'lmasam-chi! Bozorda qafasga solib qo'yilgan quyonga o'xshab yashaysan, yashaysan: sotib olishadimi, yo'qmi, deb o'ylaysan. Bu yerda esa birdan sehrGAR paydo bo'lib seni olib ketadi. Qayerga – muhim emas. Muhimi, bu yerdan va umrbod olib ketishayotgani. Ajoyib-g'aroyib istak deysizmi? Axir yetim-yesirlarning ham ertagi bo'lishi kerak-ku. Qanday qilib ular ertakka ishonmasdan yashashlari mumkin?

Bir marta taqsimlagichga bir ayol keldi va Kolkani mudiraning oldiga chaqirishdi. Hamma qo'zg'aldi va kabinetga yaqinroq joyda tentiray boshlashdi. Balki ularni ham chaqirib qolishar. Hech kim Kolkani asrab olmoqchiliklariga shubha qilmasdi.

Alhuzur Kolkadan bir qadam ham jilmadi, biroq uni kabinetga kiritishmadi. Alhuzur qanchalik baqirmasin, qanchalik janjal qilmasin, eshikni yopib qo'yishdi va u yolg'iz qolib ketdi.

Shunday bo'lsa ham Kolka unga shivirlashga ulgurdi:

– Qo'rqma, men sensiz hech qayoqqa ketmayman!

Bolalar qabulxonasi mudirasi to‘lachadan kelgan ayol Olga Xristoforovna Myuller edi. Uning yonida – Kolka uni eshikdan kirgandayoq ko‘rgandi – ozib-to‘zib ketgan, biroq yanada go‘zallashgan Regina Petrovna o‘tirardi. U ro‘mol o‘rab olgandi.

Olga Xristoforovna dedi:

– Kuzmin? Mana, senga... qiziqishyapti!

Kolka markazida yozuv stoli turgan, xuddi shunday shkafcha va uchta bir xil stulcha bo‘lgan xonaning o‘rtasida turardi, uning ko‘zlari yerga qadalgandi.

– Tushunishimcha, sizlar tanishsizlar? – so‘radi mudira.

Kolka indamasdi.

Olga Xristoforovna Regina Petrovnaga qarab qo‘shib qo‘ydi:

– Shu yerda gaplashib olishingiz mumkin...

U beso‘naqay bo‘lib turdi va chiqib ketdi. Dahlizdan Alhuzur kirishga urinib ko‘rdi; u eshik tirqishiga qarab baqirdi:

– Men shu yer! Men shu yer!

Eshikni yana zichlab yopishdi.

– Xo‘sh, salom, – dedi Regina Petrovna va kulib qo‘ydi. U Kolkani quchoqlash uchun o‘midan turib unga yaqinlasha boshladi. Biroq Kolka bir qadam ham jilmay joyida turaverdi. Uning yuzida befarqlik aks etgandi.

Regina Petrovna yarim yo‘lda to‘xtab qoldi, qadamini sekinlatib, Kolkaga yaqinlashdi va yelkasidan ushladi. Kolka junjikib bir qadam orqaga tashladi. Begona qo‘l unga xalaqit bergandek edi.

– Senga nima bo‘ldi, Kolya? Meni tanimayapsanmi?

– Yo‘q, – dedi u.

– Tanimayapsanmi? – qayta so‘radi Regina Petrovna yuzida qotib qolgan nim tabassum bilan.

– Yo‘q.

U zo‘rtma-zo‘raki kulib yubordi.

– Ahmoqlik qilma... Aytgancha, xu iz xu? Sen chindan ham Kolkamisan?

– Yo‘q.

– Demak, sen Sashkasan?

– Yo‘q.

– Ikkinching... qani?

Kolka Regina Petrovnaga pastdan qaradi va xo‘rsinib qo‘ydi.

– Qani, o'tir! O'tir! – dedi Regina Petrovna va o'zi ham o'tirdi. Kolka stulning uchiga o'tirdi. Biroq shunday o'tirdiki, nimadir ro'y bersa qochib ketish mumkin edi.

– Axir men sizlarni izladim!

Kolka uning qo'llariga qaradi va darrov ko'zini oldi.

– Meni o'shanda Demyan... Ivanich olib ketgandi, – davom etardi Regina Petrovna. – U aravada keldi, bolalar yo'qolib qoldi dedi. Bizga esa qochish kerak, chechenlar vodiya bostirib kirishdi, dedi. Biz erkakchalarni aravaga soldik, ular tug'ilgan kundan so'ng qattiq og'rib qolishgandi va tezda stansiyaga borib, poyezdga o'tirdik... Keyin men o'zimga kelib oldim, qaytib kelmoqchi bo'ldim, lekin Demyan Ivanich meni qo'yib yubormadi. U yoqlarda urush ketyapti, hech kim qolmagan, dedi. Kutilmaganda seni topdik. Aytgancha, anavi bola kim? – so'radi Regina Petrovna va eshikka bosh irg'itib ko'rsatdi. – Yangi o'rtog'ingmi? Men uni qayerdadir ko'rgandayman...

– Bilmayman, – dedi Kolka.

Regina Petrovna qoshlarini chimirdi. Yuzining rangi o'chdi.

– Men bilan shunday gaplashaverasanmi?

Bu vaqtda Olga Xristoforovna qaytib keldi. Sekin o'zining stoli tomonga o'tdi, og'ir nafas olib so'radi:

– Xo'sh? Gaplashib oldinglarmi?

– Ha, rahmat, – shoshilib dedi Regina Petrovna. – Men sizlarniki-ga, agar mumkin bo'lsa, yana kelarman?

– Unchalik cho'zmang, – dedi mudira va Kolkaga qaradi.

– Nima, raznaryadka'lar bormi?

Mudira nimadir deb g'udrandi. Keyin Regina Petrovnaning qu-log'iga engashib nimalarnidir pichirladi.

Regina Petrovna hayron bo'lib so'radi:

– U qayerdan biladi? – Mudira yelkasini qisdi.

– Kelishsa, aniqlik kiritishadi. Shuning uchun ushlab turishibdi, jo'natishmayapti.

– Mayli, – dedi Regina Petrovna. – Men yaqin kunlar ichida kelaman... Xo'sh, ko'rishguncha, Kolya?

¹ *Raznaryadka* – biror ishni bajarish, biror narsani berish yoki jo'natish uchun hujjat.

Kolka boshini ko'tardi. Birinchi marta uning ko'zlariga qaradi. Shunday qaradiki, Regina Petrovna dosh berolmay, orqaga sapchidi. Kolka bo'lsa shoshmasdan burildi va eshikka yurdi. Orqasidan mudiraning:

– Bu hali holvasi... Siz boshqalarini ko'rmapsiz! – deganini eshitdi.

32

Yangi, qirq beshinchi yilga bir necha kun qolganda sinf xonasiga archa o'rnatishdi va badiiy havaskorlik konsertini ham tayyorlashdi, mashinada harbiy va oddiy kiyimdagi ikkita odam kirib kelib, shoshilinch ravishda e'lon qilishdi:

– Kuzminlarni zudlik bilan devonxonaga!

Bolalar kutilmaganda isitmalab qolgan Musaning karavoti yonida o'tirib, uning ko'nglini ochishardi. Balbek o'zining botirlar haqidagi afsonalarini so'zlab berardi. Uning hikoyasida hammasi bir xil edi: botir ulg'ayib dushmanlarni yengadi va xalqni ozod etadi.

Shu paytda Kuzminchalarni chaqirishdi, xuddi yong'in boshlangandek qattiq ovozda chaqirishdi. Biroq eshikning oldida Kolkani ushlab qolishdi, Alhuzurni esa olib chiqib ketishdi. Kolka eshikni taqillatib baqira boshladi, shunday baqirdiki, eshik ochildi va bir erkak chiqib dedi:

– Mayli, kiraversin! Ikkalasi bo'lgani yaxshi!

Kolka xonaga uchib kirdi va Alhuzur stulda xonaning o'rtasida o'tirganini, uning qarshisida harbiy kiyimdagi kishi o'tirganini, ikkinchisi esa derazaning oldida turganini ko'rdi. Mana bu, ko'zoynak taqqan, yaltiroq baland etik kiygan va papkali kal erkak esa tinmay gapirardi. U nimalarni gapirayotganini Kolka dastlab tushunmadi. Keyin u Alhuzurga Kolkaning tarixini gapirib berayotganini payqadi. Qayerdan bilibdi... Shuning uchun Demyanga o'xshagan kalda. Yaltirboshlar bilgich, derdi Sashka. Harbiy kishi so'radi:

– Qayerda uchrashdinglar? Sen va Nikolay? Sizlar Qayin qishlog'ida uchrashdinglar, shundaymi?

Alhuzur indamasdi. Harbiy kishi Kolkaga burilib, tilyog'lamalik bilan so'radi:

– Sen qayerda tanishganlaringizni eslaysanmi? Sening oshnangandan javob olib bo'lmayapti.

- U oshnam emas, u mening ukam.
- Qanaqa ukang? - jon kirdi harbiyga. - Tutinganmi?
- U mening tug'ishgan ukam, - takrorladi Kolka.
- Tug'ishganmi? - istehzoli takrorladi harbiy.
- Ha.
- Uning ismi nima?
- Sashka.

- Bu - Sashkami? Sen bir qara! - Va harbiy ikkita barmog'i bilan Alhuzurni chakkasidan olib kuch bilan yuzini Kolkaga qaratdi. - Axir u qora-ku! Sen esa sariq! Qanaqasiga aka-uka bo'lasizlar?

- Haqiqiyisiga, - dedi Kolka.

Harbiy kishi Olga Xristoforovnaga shivirladi va u chiqib ketdi.

Harbiy shaxs etiklarini onda-sonda g'ijirlatib xonada katta-katta qadam tashlab yurishda davom etar va Alhuzurga har tomondan nazar tashlardi. U Kolkaga e'tibor bermasdi.

Oddiy kiyimdagi odam esa jim turardi. U go'yoki yo'q edi.

To'satdan Olga Xristoforovna bilan birga Regina Petrovna ham kirib keldi.

- O'tiring, - xuddi buyurgandek taklif qildi harbiy kishi. - Siz Qayin qishlog'idagi koloniyada tarbiyachilik qilganmisiz?

- Ha, - asta javob berdi Regina Petrovna va Kolkaga qaradi. Uning nigohida bu safar qandaydir yolvorish aks etgandi.

- Siz u yerda yashagan aka-uka Kuzminlarni eslaysizmi?

Regina Petrovna bosh irg'atdi.

- Yaxshi eslaysizmi? - so'radi harbiy va Regina Petrovnaga jahllanib qarab qo'ydi.

- Ha, eslayman, - javob berdi u.

- Mana, qarang... Ularni taniyapsizmi? - Va harbiy qo'li bilan Alhuzurga ishora qildi. Kolka uning yonida turgandi.

- Ha, - past ovozda dedi Regina Petrovna.

- Bu kim? - Harbiy kishi Kolkaga barmog'i bilan ko'rsatdi.

Regina Petrovna biroz jim turib, dedi:

- Adashmasam, bu Kolya.

- Ha, - bosh irg'atdi mamnun bo'lgan harbiy. - Bu-chi? - Va Alhuzurga ko'rsatdi.

Regina Petrovna Kolkaga qarashda davom etardi.

- O'ylashimcha... - boshladi u va tutilib qoldi.

– Siz o‘ylaysizmi? Yoki bilasizmi?

Regina Petrovna indamasdi.

– Men sizni eshitaman! Eshitaman! – qattiq gapirdi harbiy va oddiy kiyimdagi odamga ma’noli qarab qo‘ydi. U hech qanday javob bermadi.

– Bu... Sasha... – kuchsiz ovozda dedi Regina Petrovna.

– Siz aynan u Sasha, ya’ni uning ukasi ekanligiga ishonchingiz komilmi?

Regina Petrovna zo‘rg‘a bosh silkidi.

– Siz savollarimga javob berayotib yaxshilab o‘ylab ko‘rdingizmi? – Harbiy kishi Regina Petrovnaning orqasiga o‘tdi va endi u bilan uning ensasiga murojaat qilayotgandek gaplashardi. Regina Petrovna cho‘chib ketib sapchib unga burildi.

– Nima? – so‘radi u va shu zahoti biroz hovliqib takrorladi: – Ha. Albatta ishonchim komil. Ular, to‘g‘risi, boshida ko‘p edi, men dastlab ularni adashtirardim...

– Demak, siz hozir ham adashtirib yuborishingiz mumkin deb taxmin qilsa bo‘ladi, shundaymi? – Harbiy odam Regina Petrovnaning boshi ustida turib olib uni so‘roqqa tutardi. Hatto Kolka ham uning dangal-qat‘iy ohangidan charchab ketdi. Xuddi ularni, bu yerda so‘roq qilinuvchilarni bitta o‘tmas arra bilan arralashayotgandek.

Regina Petrovna chuqur xo‘rsindi.

– Yo‘q, o‘ylashimcha...

– Yana o‘ylashimcha! Siz o‘ylamang! – dedi harbiy masxaralaganday kulumsirab. – Siz axir tarbiyachisiz-ku, shundaymi? Va bolalarga yolg‘on so‘zlamaslikni o‘rgatgan bo‘lsangiz kerak? Endi esa qanday qilib siz, buning ustiga ularning oldida yolg‘on gapiryapsiz?!

– Men yolg‘on gapirmayapman, – aybdor o‘quvchidek javob qaytardi Regina Petrovna.

– Juda soz! – dedi harbiy va xonada bir necha qadam bosdi. – Demak, siz bolalarni adashtirib yuborishingiz mumkinligini aytyapsiz, shu sababli bu yerda, qarshingizda aka-ukalar turganiga ishonchingiz komil emas? Men sizni to‘g‘ri tushundimmi?

Regina Petrovna javob bermadi.

– Shundaymi? – Harbiy ovozini balandlatdi va kutilmaganda tarbiyachining gardaniga qo‘lini tegizdi. Regina Petrovna sapchib tushdi, lekin o‘zini chetga olmadi.

– Yo‘q, – dedi u va Kolkaga qaradi.

– Nima, yo‘q! Nima, yo‘q! – baqirdi harbiy va qo‘lida ushlab turgan papkasiga kafti bilan urdi. Qattiq qarsak chalindi. Hamma sapchib tushdi.

– Yo‘q... Ya‘ni men ajrata... Demoqchimanki... Ular... aka-ukalar...

Harbiy kishi endi uni eshitmas, qog‘ozlarni papkaga sola boshlagandi.

U xayrlashmay xonadan chiqib ketdi, tashqarida mashina g‘izillab ketgani eshitildi.

Qolganlar xonada qolishdi. Oddiy kiyimdagi odam ham qoldi.

Hamma jim turib uning nima deyishini kutardi, u esa indamay turishda davom etardi. Oraga suv quyganday jimjitlik turdi.

Olga Xristoforovna unga murojaat qilishga jur‘at etdi:

– Sizda... kechirasiz, hech qanaqa savollaringiz yo‘qmi?

Odam qimirlamadi ham. U xuddi unga murojaat qilishmagandek derazadan tashqariga boqishda davom etardi. Ammo birdan qayrilib dedi:

– Iltimos, ro‘yxatni bersangiz.

– Bolalar ro‘yxatinimi? – so‘radi mudira. Erkak hech narsani tushuntirib o‘tirmay qo‘lini cho‘zdi va Olga Xristoforovna unga varaqani uzatdi.

U tezlik bilan birrov ko‘z yugurtirdi va qiziqib so‘radi:

– Mana bu Musa, u tatarmi?

– Ha, – dedi Olga Xristoforovna. – U hozir og‘ir kasal.

– Qayerdan? – so‘radi erkak, kasallik haqidagi gapni eshitmagandek. – Mabodo Qrimdanmasmi?

– Adashmasam, Qozondan, – javob berdi mudira.

– Adashmasangiz... Gross-chi? Nemismi?

– Bilmayman, – dedi mudira. – Buning nima ahamiyati bor? Men ham nemisman!

– Men ham shunday deyapman-da. – Erkakning ovozi juda ham ravon jarangladi, unda sokinlik, qandaydir ohistalik bor edi, xuddi orqasida ikkita qanoti bordek. Undagi hamma narsa Kolkaga yoqqan bo‘lardi, faqat lablari, ingichka, biroz qiyshiq lablari o‘z-o‘zidan hayot kechirayotgandek, ushbu lablarda, ularning egilishida begonalik, sovuqlik sezilardi.

– Yig‘ib tashlabsizlar, – dedi erkak va Olga Xristoforovna uning harakatini oldindan anglab qo‘lini cho‘zgan bo‘lsa-da, ro‘yxatni to‘g‘ri stolga otdi.

– Biz bolalarni yig‘maymiz, – dedi Olga Xristoforovna. – Biz ularni qabul qilamiz.

– Kimlarni qabul qilayotganingizni bilishingiz kerak! – ovozini sal ko‘tarib dedi erkak, biroq uning so‘zlarida hech qanaqa yomonlik yoki tahdid yo‘q edi. Ammo kattalar nima uchundir seskanib ketishdi.

Va faqat Olga Xristoforovna o‘jarlik qilardi, biroq uning xastaligi va suhbatni davom ettirish ayni damda uning uchun qiyin ekanligi ko‘rinib turardi.

– Biz bolalarni qabul qilamiz. Faqat bolalarni, – javob berdi u. Ro‘yxatni oldi va qo‘li bilan silab qo‘ygandek bo‘ldi.

Ertasi kuni hamma bolalarni, shu jumladan ko‘zi ojizlarni teatrga olib borishdi. Juft-juft bo‘lib yurishdi, ko‘ra oladiganlar ko‘zi ojizlarni yetaklab borishardi. Teatr pardasi ochildi va «O‘n ikki oy» nomli ertak tomoshasi boshlandi.

Kolka Antonning yoniga joylashdi, narigi tomondan Alhuzur joy oldi. Ular Antoshaga sahnada ko‘rganlarini so‘zlab berishga harakat qilishar, biroq bu juda murakkab ish edi! Badjahl ona o‘zining o‘gay qiziga qishda qizil yertut topib kelishni buyuradi va qiz muzlagan o‘rmonga yo‘l oladi. U sovuqdan muzlab qoladi, ammo birdan... Birdan dalaning o‘rtasida katta gulxan gur etib yongan va uning atrofida o‘n ikkita oy o‘tirgan sahnani Kolka qanday qilib tasvirlashi mumkin?

Alhuzur zavqdan qotib qoldi, Kolka esa og‘zini lang ochdi.

Antosha ularni qo‘lidan tortib so‘rardi: «Nima bo‘lyapti? Nima bo‘lyapti o‘zi?» Bolalar hech qachon teatrdan bo‘lishmagan va shu sababli u yerdan karaxt bo‘lib chiqishardi. Yo‘lda Kolka indamas, so‘zlari bilan ko‘rganlarini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqardi.

Kechqurun hammaga – Olga Xristoforovnaning o‘zi buni o‘ylab topgandi – bittadan konfet, ikkitadan pecheniy va teshik kulcha tarqatishdi – mana shunday ajoyib sovg‘a va barcha ko‘ruvchilarni archaning bir tomoniga, ko‘zi ojizlarni esa boshqa tomonga tizishdi. Ko‘zi ojizlar ularga archa haqida qo‘shiq kuylab berishdi, so‘ngra

Olga Xristoforovna «ura» deb baqirdi, bolalar ham uning orqasidan takrorlashdi. Hattoki betob Musa ham yotgan yotoqxonasidan ushbu hayqiriqlarni eshitib, jo‘r bo‘ldi.

Keyin ko‘ra oladigan bolalar har biri nimaga qodir bo‘lsa, o‘sha bilan chiqish qilishdi, Kolka esa she‘r o‘qiy boshladi... Oltin bulutcha haqida.

Kolka ko‘zi ojizlarga qaradi: ular bo‘yinlarini cho‘zib, diqqat bilan eshitishardi. Go‘yo uning sukutini ham o‘tkazib yuborishdan qo‘rqishgandek... Bu sukut esa cho‘zilib borardi, chunki Kolkaning nafasi ichiga tushib ketdi va tomog‘i bo‘g‘ildi. U «yolg‘iz» degan so‘zni hech ham talaffuz qilolmasdi...

Ko‘ziga yosh qalqidi.

Archaning yonida Alhuzur turar va Kolkaga qarardi. Unga so‘zlarni pichirlab aytib turishardi, lekin u chidab turolmadi va yo‘lakka yugurib chiqib ketdi. Ko‘zi ojizlar esa orqasidan qarsak chalib qolishdi.

Ertalab ularni odatdagidan barvaqtroq, soat oltalarda uyg‘otishdi. Hattoki Musani kiyinishga majbur qilishdi, uni ham jo‘natishardi. Faqat ko‘zi ojizlar qolishmoqda edi. Hammani stansiyaga olib ketish uchun bir safga tizishgach, qayerdandir Anton paydo bo‘ldi va baqirdi:

– Kuzminchalar? Shu yerdamisizlar? Qanisizlar?

– Anton! – qichqirdi Kolka va safdan sakrab chiqdi. Anton Kolkaning qo‘lini topdi va qog‘ozni uzatdi. Unda teshikchalar bilan ko‘zi ojizlar tilida bir nimalar yozilgandi.

– Bu senga kelajakda o‘qishing uchun! – dedi Anton va faqat ko‘zi ojizlarga xos, bo‘shliqqa qarab kuldi.

– Lekin men bu yerda nimalar yozilganini o‘qiy olmayman-ku!

– Agar shahrimizga kelib qolsang, bozorga kel! – dedi Anton. – Men o‘sha yerda bo‘laman. Men senga o‘qib beraman. Sen yaxshi insonsan, Kolya!

– Bolalar, joyingizga! – baqirdi Olga Xristoforovna. Bu, albatta, Kolkaga tegishli edi. – Hamma orqamdan yursin.

Ko‘chada sovuq edi. Yer bag‘irlab qorli izg‘irin esardi. Bolalarni poyezdga, bo‘sh iflos vagonga joylashtirishdi. Yangi yilning birinchi kunida poyezdda ulardan boshqa hech kim hech qayoqqa ketmayotgan edi.

Kolka Alhuzurga eng yuqoridagi tokchani ko'rsatib dedi: «Bular biznikilar. Biz Sashka bilan shu yerda o'tirardik».

Shu payt vagonga Olga Xristoforovna kirdi va Kolkaga qarab baqirdi:

– Kolya! Seni so'rashyapti!

– Kim? – norozi bo'lib ping'illadi Kolya, Alhuzurning yonidan ketishni istamay.

– Chiq! Bilib olasan! – dedi Olga Xristoforovna. Og'ir qadamlar bilan u hamma joylashib olganini tekshirish maqsadida vagonma-vagon yura boshladi.

– Musa, sovqotmayapsanmi? – so'radi u tatar boladan.

Musa g'ujanak bo'lib yotar, lekin shikoyat qilmasdi. Umuman olganda u ham qayoqqadir ketayotganidan xursand edi. Nima uchun bir o'zi qolishi kerak...

Kolka tamburga chiqdi va vagonning yonida turgan Regina Petrovnani ko'rdi. U qo'lida gazeta o'ramini ushlab turardi.

Kolkaga tashlandi, biroq qoqilib ketdi. U esa tamburda turib kuzatardi. U Regina Petrovnaning o'ng'aysiz zinapoyalardan shoshilib chiqayotganini ko'rdi, qo'lidagi o'ram tushib ketay dedi.

– Mana! – nafasi tiqilib dedi u. – Bu kiyimlar! Sashka ikkingizniki! – Kolka indamay turgani bois, u yolvorganday bo'lib gapini tugatdi: – Ol! Ketayotgan joyingda...

Va o'ramni Kolkaning yoniga qo'ydi. Ular bir-biriga qarab, jim turishdi.

– Men sizlarni qayoqqa olib ketishayotganini bilmayman... – dedi u Kolkaga qarab. – Nima uchundir sir saqlashyapti... Qandaydir bema'nigarchilik. Biroq sen yana o'ylab ko'r. Balki biz bilan qolarsan? Biz Demyan Ivanich bilan o'ylashib ko'rdik, u seni olishga qarshi emas.. – U gapini to'g'rilab qo'ydi: Seni... va anavi bolakayni...

Kolka: «Yo'q», dedi.

Regina Petrovna xo'rsindi.

– Mayli, – dedi u. – Balki yozarsan? Yetib borganingda?

Kolka indamadi.

Regina Petrovna to'satdan qo'lini cho'zib uning boshini silab qo'ydi. Kolka o'zini chetga olishga ulgurmadi.

– Mayli. Xayr, do'stim! – deya keta boshladi va birdan qayrildi. – Sen mening bitta savolimga javob bera olasanmi?

Kolka ma'qullab bosh silkidi. U Regina Petrovna undan nima haqida so'rashini bilardi va bu savolni kutgandi.

– Ukang qani? Men haqiqiy Sashka haqida gapiryapman...
Qani u?

Kolka dunyodagi eng chiroyli bu ayolning ko'zlariga qaradi. U Regina Petrovnani qanchalik sevardi! Ular Regina Petrovnani qanchalik sevishardi! Endi esa... Sashka balki uni qochib ketgani uchun kechirardi, lekin Kolka kechirolmadi. Ammo indamay turolmasdi ham. Shunda u dedi:

– Sashka ketdi.

– Uzoqqami?

– Uzoqqa.

– Xudoga shukur! Tirik ekan-da... – bexosdan aytib yubordi Regina Petrovna.

U vagon zinapoyasidan sakrab tushdi: poyezdga jo'nashga ruxsat berishdi.

Kolka esa darrov vagonga tashlandi, o'ram haqida eslamadi ham. U Alhuzurning yoniga shoshardi. Ammo Alhuzur derazadan qarab xayol surardi. Endi ikkalasi ham derazadan qaray boshlashdi. Tashqarida bir ayol turardi, sovuq shamol esayotganiga qaramay u vagondan ko'zini uzmas va stansiyadan ketmasdi.

Nihoyat poyezd sekin harakatlanishga tushdi. Ayol qo'l siltay boshladi.

Kolka yana bir marta, so'nggi bora Regina Petrovnani ko'rish uchun deraza oynasiga yaqinlashdi. Unga Regina Petrovna nima-dir deb baqirgandek tuyuldi. U bosh chayqadi. Bu Kolkaning uni eshitmaganini bildirardi. Lekin Regina Petrovna buni boshqacha tushunishi ham mumkin edi. Shunday bo'lsa ham Regina Petrovna qadamini tezlatganicha baqirishda davom etardi. Keyin esa u yugura boshladi...

Uning boshidagi ro'moli qora sochlarini yalang'ochlaganicha bo'yniga tushib ketdi. Paltosining tugmalari ham yechilib ketdi. U bularni sezmedi. U xuddi baxtini quvlab ketayotgandek yugurardi... U baqirardi, tinmay baqirardi...

Shunda Kolka nimanidir tushungandek unga qo'l silkidi. U Regina Petrovnani boshqa ko'rmadi. Tokchaga chiqib, Alhuzurning

yoniga yotdi va uni quchoqlab oldi. Uning yelkasiga yopishib, nima uchundir yig'lab yubordi. Alhuzur uni ovutardi:

– Yiglama! Kirakmas... Biz ketish, ketish va yetib kelish, shunaka? Biz birga bo'lish, shunaka? Umrbad birga bo'lish, shunaka?

Kolka o'zini to'xtata olmasdi, u tobora qattiq yig'lardi, poyezd esa nimanidir tasdiqlaganday taqillab yelib borardi: «Taq-taq-taq-taq-taq...»





Eski klub binosida, shahar tipidagi qishloq markazida falonchi tank zavodi yig'ish sexi ishchisi Konstantin Vedernikov ustidan sayyor sessiya sudi bo'lib o'tayotgan edi.

Mayning ayniqsa tashvishli (chunki odamlar urushning tez orada tugashini his qila boshlagandilar) iliq kunida sudga yig'ilganlardan hech kim Vedernikovning ishi uzil-kesil hal bo'lganiga va unga yaxshigina muddat berilishiga shubhalanmasdilar, sababi ular bejizga bunday sessiyani o'tkazmagan va butun zavod hamda qishloq ahlini bu yerga to'plamagan bo'lardilar.

Sakkiz daqiqaga kechikkanligi uchun shartli ravishda olti oylik majburiy mehnat tayinlangan galvanik sex elektrigi Sirkov bilan bo'lib o'tgan voqea hali unutilmagan edi. Biroq unda hech qanaqa sessiya bo'lmagan deyishadi, ma'muriy korpusni chaqirishgan, qog'ozdan hukmni o'qib berishgan va o'sha sexda mehnat qilaverishni tayinlashgan. Faqat bundan buyog'i bepulga.

Biroq farqi shundaki, Sirkov sakkiz daqiqagagina kechga qolgan, Vedernikov esa bunday sakkiz daqiqalardan ancha ko'p va hattoki sakson daqiqa emas, butun boshli ish smenasi, ya'ni to'liq o'n bir soat! Axir buni smenaga chiqmaslik, sen zanjirning bir halqasi bo'lganing uchun yoningdagilar o'lib-qutulib ishlab seni topa olmayotganlarida, reja esa yonayotganida, ish to'xtaganida, harbiy boshliqlar brigadirni ham, ustani ham, sex boshlig'ini ham qiyayotganida, ular esa sarosimalik bilan soatga va yana bu yerdan to'ppa-to'g'ri frontga harbiy texnikani zudlik bilan jo'natish uchun keng hovlining o'rtasida safga tizilgan bo'sh platformaga qarab turganlarida sababsiz bir ish kunini o'tkazib yuborishni tushunuvchilar tasavvur qilishlari ham, o'ylashlari ham qiyin! Texnika – qani? Qani? Qani?

Urush yillari davomida bunga o'xshash holatlar bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emasdi. Bo'lmagan, bo'lishi mumkin emasdi,

biroq sodir bo'ldi. Bu har narsani kutish mumkin bo'lgan navbat-chi takasaltang bilan sodir bo'lgan bo'lsa ham mayli, biroq Vedernikov bilan, familiyasi har doim og'izda bo'lgan, uning nomi barcha ko'rgazma taxtalari, ko'p adadli gazetalaridagi chaqiriqlar, mitinglar, Moskvagacha bo'lgan turli-tuman majlislar orqali hammaga tanish bo'lib qolgan o'sha Vedernikov bilan sodir bo'ldi. Hammayoqda mis karnaylardan taralgandek: Vedernikovdek bo'ling! Vedernikovga o'xshab frontchasiga ishlang! U ham zarbdor, ham ilg'or, ham tashabbuskor... U esa aslida nimaga arzirli ekanligini ko'rsatib qo'ydi. Bu axir zinapoyaga, shuhratga o'xshash narsa – qanchalik yuqoriga ko'tarilsang, shunchalik og'riqli yiqilasan!

Odamlar erta tongda o'sha sud majlisi bo'lib o'tishi kerak bo'lgan klubning hali yopiq eshiklari oldida turib bir-biri bilan suhbatlashishardi. Ular nomi aytilgan Vedernikovni ko'k ko'zlari uchun Vasilyok laqabi bilan dong taratgan muttaham Tolik Vasilyev bilan bekorga ko'rishmaganini pichirlab boshqa odamlarga uzatishardi. U, Vasilyokning og'zi qonligi kamdek, indamas Vedernikovni o'zining voyaga yetmagan jiyani bilan qishloq chetidagi uychada yashagan olibsotar Zinaning uyiga tortib borgan. Go'yoki o'sha uyga bu yerdagi ko'pchilik erkaklar qorong'i kechada yo'l ochib Zinaning oldiga yoki bunday qayg'uli yakun topgan, mashhur aprel kunida butun qishloqqa dovrug'i taralgan o'sha mashmasha yuz berishiga sababchi bo'lgan ahmoq jiyaning oldiga borishgan emish.

Aftidan, agar yigitlar qonunga qarshi borishgan bo'lsa, xotinarimiz yigitlarimizning boshlarini qattiq aylantirgan ko'rinadi. Axir ular birinchimi yoki ular oxirgimi? Butun dunyo paydo bo'lganidan buyon, Odam Ato va Momo Havo paytidan beri ayollar masalasida qoqiladi. Odamlar birlashishadi, ajralishadi, vijdonlari bilan har qanday bitimlar tuzishadi, buning ustiga mashhur odamlar, bizning ko'pirtirib yuborilgan zarbdor-tashabbuskorlarimizning tengi emas! Qara-ya, Zinaning maxfiy buzuqxonasiga tashrif aylagan emishlar! Qiz, voyaga yetmagan jiyani esa bu voqeada qopqon bo'lgan ko'rinadi. Bu qizni qishloqdagi ko'pchilik tanir edi, u shu yerdagi bozorda Zinaning bog'idan uzilgan olmalarni sotar, o'zini yuvosh qilib ko'rsatardi, shunday bo'lsa-da ko'pchilik uning indamasligini tentakligiga, ahmoqligiga yo'yishardi. Nimasini aytasiz, agar u eplab gapira olmasa,

uni hattoki maktabga ham berishmayapti. Tirjayib turib, rubllar-u yag'iri chiqqan chervon'larni qo'yninga tiqadi.

Yana zavoddagi usta Ilya Ivanovich Bukatini go'yoki u Zina-ning uyiga borgan degan bema'ni, noaniq gaplar tarqatishdi, biroq bu cholni axloqsizlikda mutlaqo ayblab bo'lmasdi. Ayniqsa, uni yaxshi bilganlar. U so'qqabosh bo'lib yashardi va zavoddagi ishidan tashqari hech narsani tan olmasdi. Uni sexda Temir odam deyishardi. U chindan shunday edi. Uni suyuqoyoq Zina bilan nima bog'lashi mumkinligini hech kim durustroq tushuntira olmasdi. Go'yo u o'sha tentak jiyani bilan qandaydir qarindoshlik munosabatida bo'lgan emish. Bordi-yu chindan ham shunday bo'lsa, qanday qilib u, o'sha qarindoshcha buzuqxonaga aylangan va Bukatining sexida ishlagan Vedernikovning jinoyatiga olib kelgan uyda bunday noma'qulchiliklarni tashkil etishlariga yo'l qo'ygan? Buni tushuntirib bo'lmasdi, hamma gap shunda. Bu voqealar, unda nomlari tilga olingan va Chemodanov familiyasi kelgindi chayqovchi singari hali tilga olinmagan shaxslarning ishtiroki ham chigal va tushunarsiz edi. Hamma shu fikrda edi.

Mayning o'sha yakshanba tongida xalq birinchi o'n yillik paytida barak tipidagi, ba'zi joylari to'kila boshlagan va yupqa taxtasini yang'ochlagan holda ichi yog'och, usti suvoq bo'lgan klubning uyiga xuddi mitingga kelgandek yig'ildi.

Ko'pchilik xuddi chetdan kelgan artistlarni ko'rish maqsadida yaxshiroq joylarni egallash uchun ertaroq uyg'onishgandi. Biroq yenglarida zavoddan ajratilgan qizil bog'ichi bo'lgan faollar dastlab rahbariyat tomonidan tuzilgan ro'yxat bo'yicha turli sexlardan butun boshli brigada bo'lib kelayotgan o'zlarinikini kiritishdi. Albat, o'ziniki va boshqalarga ajratish shartli edi, bu yerda kim begona bo'lsin, axir butun qishloq, yura olmaydigan chollar-u go'daklarni inobatga olmaganda, zavoddagi har xil sex va bo'limlarda mehnat qilgan bo'lsa.

Bosh sexdagi odamlar raznaryadka² bo'yicha kelganliklari boshqa gap, bugungi kun dam olish kuni hisoblansa-da, ular klubda xud-

¹ Chervon – o'n so'mlik pul.

² Raznaryadka – biror ishni bajarish uchun hujjat.

di ishga kelgandek paydo bo'lishlari lozim edi; agar o'ylab ko'rilsa, ushbu ibratli sud ularga mo'ljallangan edi.

Boshqalarga esa hech kim tayinlamagandi ham, ular o'zlari kelishdi, paydo bo'lishdi – ular hammasini birov orqali emas, bevosita bilishni xohlashardi.

Ular sabr bilan kutib eshikning oldida to'planishar va o'zlarining sex bo'yicha omadli kasbdoshlarini hazil bilan ichkariga o'tkazib yuborishar, ulardan o'zlariga joy olib qo'yishlarini unutmashlikni so'rashardi.

Shu orada do'konda shakar talonlari bo'yicha shakarni sutda qaynatib tayyorlangan konfet berishayotgani haqida mish-mish tarqaldi – favqulodda hodisa – bu mish-mish atayin tarqatilmadimikin! Va navbat ham katta emasmish, sotuvchi ayol ham shakarni ko'p olishganini aytib ont icharmish. Boshida ishonishmadi, lekin o'sha shakarni nigohlarni rom qilib mo'rt rang-barang bo'laklar bilan ko'tarib ketganlarida mish-mishlar tasdiqlandi, lekin bu vasvasaga eng betoqatlar, qisqasi bo'sh odamlargina dosh berolmadilar. Asosiy omma esa, ohlashga va xo'rsinishga ulgurib, hech narsaga qaramay eshikni tirashda davom etar, ular sudda ko'rsatilishi rejalashtirilgan tomosha asosli ravishda shakardan ham shirinroq bo'ladi deb hisoblashardi. Buning ustiga Zinaning maxfiy buzuqxonasi va uning tashrif buyuruvchilari haqida batafsil so'zlab berishadi.

Eshikning oldida to'planishgan odamlar sariq sochli, lablarini yaltiratib bo'yab olgan yosh ayol paydo bo'lib chiqish tomonga yurishganini darrov payqashmadi. Uni sezishganlarida, ko'rib qolishganlarida esa bu ma'lum-u mashhur Zina ekanligini tushunishdi. U usta Bukati hamrohligida ketar, bu ularning tushunarsiz munosabatlari bejiz emasligini isbotlab turgandek edi, ammo balki Bukati unga emas, u Bukatiga hamrohlik qilayotgan bo'lishi mumkin edi. Bukati ushbu g'alati voqealardan so'ng yuragi og'rib yotib qolgan va kasalxonaga olib ketilgandi. Yo unga javob berib yuborishgan, yoki sud vaqtiga ruxsat berishgan.

Olomondagi barcha xotinlarning diqqati Zinaga qaratildi. U kamtarona – qora jaket va kulrang ko'ylak kiyganiga, buning ustiga hech kimga qaramay va hattoki o'zining taqdirga hamda ushbu insonlarga itoatkorligini tan olgan holda boshini biroz tushirib ketayotganiga qaramay eng ashaddiy ayollar ovozlari ko'tarib, bor ovozda uni

haqoratlashga tushishdi, sudga labini bo'yab olishni unutmaganini, bu yerda ham prokuraturadagi erkaklarni qarmog'iga ilintirmoqchi bo'layotganini aytishdi. Va yana shunga o'xshash haqoratlar aytili.

Chindan ham, do'mboq, o'ziga jalb qiluvchi lablaridami, deyarli bo'yalmagan, biroq katta, kulrang, chaqchaygan ko'zlaridami erkaklarni o'ziga jalb qiluvchi, shirin, umidvor qiluvchi narsa bordek edi.

Xotirjam, xuddi hech narsani eshitmayotgandek ketayotgan Bukati oxiriga borganda, eshikning oldiga yetganda chidab turolmadi, jahl bilan kim tomog'ini ayamay boshqalardan ko'proq haqoratlayotganini ko'rish uchun o'girilib qaradi.

Biroq shu joyida u ham koyish eshitdi: u qadar nafrat bilan bo'lmasa-da, «atrofga alanglamasdan, oldingdagi yaqiningga boqqaning yaxshiroq bo'lardi, uning yana nimalarni o'ylab topishi noaniq... Ilon!» deyishdi.

Shunday bo'lsa-da, bu so'zlarni gapirgan odam qo'llab-quvvatlanmadi.

Ammo Vedernikov onasi va militsioner bilan o'tib ketayotganlarida esa hamma jimib qoldi, chunki bu yerda yigirmanchi yillardan beri yashab ishlab kelayotgan farrosh Taya xolani tanishar edi. U vaqtlarda birjaga navbatlar bo'lar, hamma oilasi bilan «yotiq osmono'par binolar» deb nomlanuvchi tor baraklarda kun ko'rardi. Taya xola indamas, ichmaydigan erini shu yerda uchratdi, eri keyinchalik o'qimishli odamlarga o'xshab buxgalteriyada ishlagan, o'sha buxgalteriyadan frontga borgan va tez orada nom-nishonsiz yo'qolib ketgandi.

Vedernikov militsioner bilan eshikning ortiga g'oyib bo'lishganda kimdir baland ovozda butun umr qiynalgan sho'rlik Taya endi o'zining zurriyoti sababli ham azoblanishi kerak deya baqirdi; u dumi kalta nodon bo'lsa o'sha Zinaga, uchiga chiqqan yaramasga bog'lanib qolganida qayoqqa qaragan, nimalarni o'ylagan. Onasi haqida o'sha vaqtda o'ylamagan bo'lsa kerak! Endi esa hech narsa uchun sudlashadi. Biroq boshqalarning e'tirozicha, aynan «hech narsa uchun». Ular g'azab bilan e'tiroz bildirishardi, chunki olomon kengayib borar, turish dimiqtirar, faollar esa hadeganda ichkariga kiritishmasdi. Qanday qilib «hech narsa uchun»? Bizda, agar sudlashsa, demak, aybdor, aks holda sudlashmagan bo'lardi. Aybsizlarni militsioner o'zi bilan yetaklab yurmaydi, bekorga qamoqqa olishmaydi

va sexlardan delegatlarni sudga behudaga chaqirishmaydi! U aybdor emas, bu aybdor emas, unday bo'lsa kim qishloqda bezorilik qilyapti, o'shalarining dastidan kun botgandan keyin ko'chaga chiqishga ham qo'rqib qolasan kishi. Kim yaqinda tabelchini shildi: soat va sumkasini olib qo'ydi? Kim pichoq o'qtalib klubning oldida qaroqchilik qildi? Biroq bunga Vedernikovning nima dahli bor, uning aybi nima? Xo'p, u bo'lmasa, uning o'rtoqlari, deya javob berishdi, qishloqda ularni deb yashab bo'lmay qoldi, mana uning aybi. Bittasini qamasha, qolganlari bezorilik qilishdan o'zlarini tiyishadi!

Shu joyda suhbat uzildi, faollar o'zlarining odamlari boshqa kelmasligini tushunib eshikdan uzoqlashishdi va odamlar bir-birini tur-tib, ezib, bo'sh joylarni egallash maqsadida chiqish tomonga shoshilishdi. Ammo bo'sh joy qolmagandi, klub quti kabi to'la edi, odamlar yo'lakda va devorlarning oldida bir-biriga yopishishardi, eng topag'onlari esa hammasini yaxshiroq eshitish uchun sahna va birinchi qatorning o'rtasiga yerga o'tirib olishdi... Ular Zinanikida, haligi, nima deyishardi – yeyishdi-ichishdi-vaqtichog'lik qilishdi, hisoblashdi – ko'z yosh to'kishdi. Xuddi ularga atab aytilgandek. Umumiy va ahil zarbdor mehnat ichida ongli intizomni buzishayotgan va buning uchun og'ir, harbiy vaqtning barcha qonunlariga binoan jazoga tortiladigan mehnatkashlarning harbiy intizomi haqida ikki kun oldin mahalliy gazetada keltirilgan ushbu maqol o'z vaqtida aytilgan edi.

Hamma ushbu so'zlarni o'qigan edi va sudda shafqat bo'lmasligini, imkon boricha uzoq muddat berilishini, kamida sakkiz yilga kesilishini tushundi, biroq hech kim ushbu muddatning qanchalik uzoqligini bilmasdi va ishga sababsiz kelmaslikka yana boshqa fosh qiluvchi dalillarni qo'shib yuborish-yubormasligi noaniqligi savol ostida ekanligini tushunishardi. Balki hukm ham tayyordir va rasmiyatchilik uchun aybdorning so'zlarini eshitish, qolganlar gumburlab ketishi uchun gumburlatish qolgandir. Aks holda ularni, qolganlarni yig'ishdan nima naf? Ilgari maxsus joy'da qatl qilish jazosi ijro etilgani kabi ibratli sud o'z nomi bilan ibratli sud: qara va u bilan nima ro'y bersa, sen bilan ham, Xudo ko'rsatmasin boshqalar bilan ham shu narsa ro'y berishi mumkinligini fikr qil!

¹ *Maxsus joy* – bu yerda: qadimgi zamonda podsho farmonlari o'qib eshiritiladigan, mahkumlar jazolanadigan yoki qatl qilinadigan maxsus joy, tepalik.

Ayni damda sahna bo'sh edi, faqat grafin qo'yilgan stol va bir nechta omonat stullar turardi.

Lekin odamlar o'zaro qisqa so'zlashib, grafin qo'yilgan stolga qarab kutishardi, boshqa qaraydigan narsa yo'q edi.

Ba'zi, eng bardoshsizlari cheka boshlashdi, chekuvchilar tutunni yenglari ichiga tutatishga harakat qilsalar ham qo'lbola tamakining zaharli hidi taraldi, ammo janjalkash xotinlar badhazm erkaklarga qarab, ularni ko'chaga haydash kerak, bo'lmasa shundoq ham nafas olib bo'lmaydigan bu isxona yanada badbo'ylashishini va chiqish qiluvchilarni eshitib bo'lmasligini aytib shovqin ko'tarishdi.

Erkaklar baqiriqlarga qo'l siltab istehzoli iljayib qo'yishdi, lekin tutatishni to'xtatishdi. Boshqalar esa cho'ntaklariga pistalarni to'ldirib va ularni tanishlariga qurumsolik bilan tarqatgancha chaqib ermak qilishardi; yoshlar qatorlarda shovqin solib o'zaro gaplashishar, kulgi va baqiriqlar eshutilib turardi.

Ba'zi betoqatlar zavod va qishloqning yuqori rahbariyatidan kimlar sudga tashrif buyurganini ko'rish uchun oldingi qatorga qarab o'rinlaridan turishardi. O'sha faollarning, sex boshliqlarining orqalarini ko'rishdi, kimdir sudda ishlaydigan, ilgari zavod kasaba uyushmasi kotibasi bo'lgan Knyazevani ko'rib qoldi.

Qandaydir harbiylarni ham orqasidan farqlash mumkin edi, ehtimol ularning orasida hamma qattiq tartib-intizom haqidagi maqolasini mahalliy gazetada o'qigan Zelinskiy familiyasi yangi prokuror ham bo'lgandir. Zelinskiy bu yoqlarga frontdan jarohat olgandan so'ng kelgani va ofitser bo'lgani yoki razvedkada xizmat qilgani, yoxud kontrazvedkada ishlagani ma'lum edi, ular mayda-chuyda narsalarga vaqtlarini sarflamaydi va ko'ngilchanlik qilmaydi. Shunisi yaxshi. U prokurorlik lavozimida o'zining urushdan oldingi shuhrati bilan dong taratgan, har qanday intizom buzilishi va kech kelish faktini to'sqinlik qilish, asoslarning yemirilishi sifatida baholagan, ba'zida esa diversiyani qo'shib qo'ygan Grigoryevni almashtirgandi. Lekin Grigoryev so'nggi vaqtlarda o'zini ancha oldirib qo'ydi va boshqa ishga o'tib ketdi. Ammo oldinda o'tirgan harbiylarning qaysi biri Zelinskiy ekanligi, uning ko'rinishi qandayligi, uning yahudiy yoki belorus millatiga mansubligini orqa qatorlardan aniqlashning iloji yo'q edi. Taxmin qilish-u kutish qolgandi. xolos. Maqolda aytilganidek, kutish va quvishdan og'irroq narsa yo'qligi ma'lum bo'lsa ham...

Nihoyat bo'sh stolga qarash joniga tekkan odamlar uzoq kutilgan artistlar kabi qarsak chalib sudni chaqira boshladilar. Ba'zilar hush-tak chalishdi. Biroq yarim soat va undan ortiq vaqt o'tgandan keyingina sud boshlandi.

2

Bundan uch haftalar oldin, erta aprel tongida qishloqning hali bo'sh ko'chalaridan qo'lida sakvoyaj¹ ko'targan odam yurib o'tdi. U baland bo'yli, chamasi qirq yoshda yoki undan yoshroq, pogonsiz harbiy kiyimda edi va ushbu kiyim buyurtma bo'yicha asl ingliz mo-vutidan tikilgandi, u yana french² va etikka mos galife kiyib olgan-di. Faqat yumshoq, ajoyib, o'lja qilib olingani aniq velyur shlapa ki-yimlarga yaqqol mos emasdi, shunday bo'lsa-da, har holda bu yerlik bo'lmagan, ishchi emas, qishloqda ham yashamaydigan bu insonga g'ayrioddiy ko'rinish bag'ishlab turardi.

Bu odam keng qadam tashlab, g'ayrat bilan yurar, biroq shu payt-ning o'zida atrofga qarab va ushbu ajoyib may oyi oldidan ayniqsa o'ta ta'sirli qabul qilinuvchi havodan to'yib nafas olib, shoshilmayot-gandek yurib borardi.

Boshida bulutli tuyulgan osmon asta tarqala boshladi, ko'kardi va bu odam, ko'rinishidan, o'ziga xos kayfiyatda edi, u qadamlariga monand qandaydir operani xirgoyi qilar, lablarini tirillatar va ehti-mol, o'ziga shunday kayfiyatda ekanligi yoqardi. Asl qora charmli, yonlari dumaloq va tepasida ilgagi bor eski sakvoyaj esa (bundaylari bilan qadimda zemstvo shifokorlari uyma-uy yurishgan) og'ir bo'lsa ham – buni kelgindining tez-tez qo'lini almashtirib turishidan bilish mumkin edi – uni tashvishga solmas va ajoyib kayfiyatiga xalaqit bermasdi.

U eng uzoqdagi, hech qayerga olib bormaydigan boshi berk ko'chaga burildi – bu ko'cha bog'larga shunday burkangandiki, uning orqasidagi uychalar deyarli ko'rinmasdi – va ushbu sokin tong mahali shoshmay sayr qilib yurgan qo'ltiqtayoqdagi nogironga urilib ketdi. Ana, odamlarning uyqusi yo'q, urushni tamomlading, boringni berding, yotib uxla, xurragingni ot, boshqalar hanuz urushayotgan bir

¹ Sakvoyaj – yengil chemodan.

² French – harbiy formada tikilgan kurtka.

vaqtda urushni tugatganing uchun, qo'shimchasiga omon qolganing uchun hayotdan rohatlan. Yo'q, tentirab yurishadi, tomosha qilishadi... Nimani tomosha qilishadi! Boshqa vaqt bo'lganida kelgindi ortiqcha guvohlarni xush ko'rmay bunday uchrashuvdan zardasi qaynagan bo'lardi, biroq bugun u nogironni ko'rganidan deyarli xursand bo'ldi va o'zi uning oldiga yaqinlashdi.

– Otaxon! – baqirdi uzoqdan, nogiron kekxa va uning otasi tengi emasligi shundoqqina ko'rinib turgan bo'lsa-da. Hozir, u nogironga murojaat qilganida ozgina, sal-pal ichganligi bilinib qoldi. – Otaxon! Senda yondirib olishga topilmaydimi?

Nogiron keng ko'kragi bilan qo'ltiqtayoqlariga tayanib to'xtadi, shinelining uzun etagidan chap oyog'ining kesik joyi ko'rinmasdi, u kelgindiga shoshmay qaradi va sakvoyajiga, xromlangan, hali yangi bo'lgan, yaltirab turgan etiklariga ham ko'z yugurtirdi (vokzaldagi hojatxonada dastro'mol bilan artib olgan bo'lsa kerak), keyin shlapasiga ham qaradi, ehtimol kun chindan ham endi boshlanayotganiga, uning qarshisida esa yasanib-tusanib olgan, buning ustiga shirakayf yigitcha turganiga ishonch hosil qilish uchun atrofga nazar tashladi.

Bo'g'i q ovoz bilan chekmasligini, gospitaldagi shifokor chekishni qat'iy an qilganini aytdi. Ilgari esa yoshlik, tajribasizlik sabab chekkan, juda ko'p chekkan, qo'liga tushgan narsani chekkan, chekishga jiddiy narsa bo'lmaganida po'stloqni ham, o'tni ham, choy shamasini ham chekkan... Shu sababli oshnasining sabri tugamagan bo'lsa, chidab turishi kerak!

– Yo'l uchun-da! Poyezdda! – xitob qildi kelgindi. Xotinlarga hamroh bo'ldim, bitta erkak bo'lsa ham mayli! Vokzalda ham shu holat! – Va uzun og'zini yoy qilib va katta lablarini ko'rsatib: – Menga esa, otaxon, shifokorlar chidashni tayinlashmagan... Hayot uchun xavfli deyishyapti... Chidashni-ya!

Nogiron suhbatdoshiga qaradi va bosh chayqadi, kulrang jiddiy ko'zlarida nimadir yumshagandek bo'ldi.

– Qiziq ekansan... Lekin. Erta boshlagan bo'lsang kerak?

– Vaqtida boshlaganman, otaxon! – hayqirib yubordi kelgindi shlapasini to'g'rilab. Men axir shunchaki emas, men uylanish uchun keldim! – Nogiron hayron bo'lmadi. U urushda har xil mo'jizalarning guvohi bo'lgan. Buning ustiga ayni kuchga to'lgan erkakning oilali bo'lishni xohlashining nimasi yomon. Urush tugab boryapti, tashqa-

rida g'alaba havosi kezib yuribdi, xotinlar esa urush davrida «turib qolishdi», ularga erkak bo'lsa, buning ustiga bunday omadli, zor-intizor bo'lib kutilgan qalliq bo'lsa, kimningdir toleyi kulishi aniq!

– Zang bosmagan soatlaring nechani ko'rsatyapti? – so'radi bu orada kelgindi hazilkash.

Nogiron boshini chayqadi va quyoshga ishora qildi:

– Mana mening soatlarim... O'ylashimcha, beshga zang urgan bo'lsa kerak.

– Besh? – qayta so'radi kelgindi. – Hayron bo'lishadi. Men axir ogohlantirishsiz bostirib kelayotgan bo'lsam! – va yana xaxolab kula boshladi.

Nogiron unga qarab, kayfiyati ko'tarildi. Odamdan bunday baxt nurlari taralayotgan bo'lsa qanday qilib xursand bo'lmaslik kerak. G'ayriixtiyoriy ravishda quvonib ketasan kishi. Va endi suhbatdoshining ohangiga moslashib, hazil qilgandek so'radi:

– Balki kelining unga uylanmoqchiligidan bexabardir?

Kelgindi kayfiyati chog' bo'lib ilib ketdi:

– U aniq bilmaydi! Uxlaydi va bilmaydi. Ha, otaxon! Men esa u uyqusiragan paytda yonidan borib qo'lga uzuk taqaman, o'ylashga vaqti bo'lmasligi uchun! – Va birdan, endi jiddiy tusda so'radi: – Seni, otaxon, ensangdan urishganmi?

– Meni? – qayta so'radi nogiron, hamon beixtiyor kulgidan to'xtamay. – Urushda qayeringga urayotganlariga qarab o'tirishmaydi.

– Urush, otaxon, tugadi! – qat'iy dedi kelgindi. – Bo'ldi! U tugadi, men sevgi haqida gapiryapman. Erkak mushuk urg'ochi mushukni qanday erkalaydi, ha? U urg'ochining kallasiga sekingina urib qo'yadi va qarabsizki, mushuk uniki... Mushukchalari ham, qolgan narsalari ham...

– O'zing qaysi frontda bo'lgansan? – so'radi nogiron. Endilikda urushda ishtirok etib qaytgan odamlar shunday tanishishardi, nafaqat hamyurtlarini, balki polkdoshlarini ham axtarishardi. Buning ustiga odamdan front haqida so'raganingda uni bilib olish yanada osonroq bo'ladi.

Bu yo'lingda uchragan har qanday odam uchun tarjimayi hol, balki undan ham ortiqdir.

Kelgindi tishining oqini ko'rsatib kuldi:

– Eh, so‘rama, otaxon! Frontlar ko‘p... Shundaylari borki, ular haqida bilmaysan... – U ketishga chog‘langandi, biroq o‘girilib qo‘shib qo‘ydi: – Har bir odamning, otaxon, o‘z fronti bor!

Nogiron xabardordek javob berdi:

– Ha... Demak, razvedkada. Yoki haligi... dushmanning orqasidan hujum qiluvchi!

– Orqadan! – kulib yubordi notanish odam butun ko‘chaga eshittirib. – Aynan nuqtasiga urding. Dushmanning orqasidan! Biroq dushmanlar shu qadar ko‘pki, otaxon, sanab sanog‘iga yetolmaysan!

– Tirik qolganingga shukur, – dedi nogiron do‘stona. Biroq keldi bu ko‘chaning oxiridagi, bu yerdan ko‘rinmaydigan uycha tomonga qadamlarini tezlatgancha uni eshitmadi.

G‘alati va quvnoq mehmon yo‘l olgan uyda tong yorishi bilan Katya o‘rnidan turdi. O‘ziga sal kichkina bo‘lgan yengil ko‘ylak kiyib olib, eshik oldiga chiqdi. Umivalnikning ustunchasiga qotirilgan ko‘zgu parchasiga qarab, o‘ziga o‘zi yoqmadi. «Fu, tasqara... Maymun», – dedi u tilini ko‘rsatib va o‘girilib oldi.

Bu tongda hamma narsa unga yoqimsiz tuyulardi: tunda aqldan ozganga o‘xshab akillab, unga uyqu bermagan itlar ham, ushbu bulutli tong ham, daraxtlar ham, hattoki daraxtlarning orqasidagi yo‘lda turgan nogiron ham, biroq, to‘g‘risi, nogironida nima ayb? Ehtimol har kuni sababsiz aylanishlari bilan itlarni bezovta qilgani uchundir? Shunday bo‘lsa ham, itlar ilgari ham vovullashgan, ammo Katya qattiq uxlagan, ularni eshitmagan. U bilan nimadir ro‘y berdiki, uyqusizlik dardiga muhtalo bo‘ldi, shu sababli uyda taraqlash va g‘ijirlash tovushlari necha marta yangrashini va pillapoyaning orqasida zanjirband qilingan itlarning necha marta vovullashini sanash mumkin edi.

Mana hozir ham, Katyaning eshikning oldida yalang oyog‘iga kiyib olgan rezina botinkalarining yengil qadamlarini eshitib ular ovozlari kuchaytirishdi va Katya ovoz chiqarib dedi: «Nega baqiraverasizlar? Hozir, birpas kutib turinglar.. Hozir ovqatlantiraman».

U uyga qaytib kirdi va kastrulka bilan chiqib keldi. Yegulikning hidini sezgan itlar uni shodon chiyillash bilan kutib olishdi va Katya ularga yaqinlashishi hamono uni yiqitib yuboray deb, zanjirlarini cho‘zib tashlanishdi. Katya ovqatni yog‘och o‘yma tog‘orachaga solguncha uni havoda ilib olishardi. Tog‘ora oldingi cho‘chqadan qolgan edi.

Itlar chapillatib va qorinlarini tortgancha ochko'zlik bilan yeyishar, Katya esa ularning yeyayotganini tomosha qilardi, dabdurustdan miyasiga har qachongidan aniq ravshan bir fikr keldi: «Men o'zi nima uchun yashayapman? Mana, Damka va Reks uyni qo'riqlashadi, ular shuning uchun tug'ilishgan, ularni shuning uchun boqishadi, meni esa nima uchun? Agar men nima uchun tug'ilganimni tushunganimda bunday qiynalmay tinchgina uxlab yotgan bo'lardim, axir, tug'ilgan ekanman, demak, nima uchundir kerakman-ku? Men agar kimgadir kerakligimni bilsam it bo'lishga, zanjirlanib o'tirishga va tunlari vovullashga tayyorman. Biroq men hech kimga kerak emasman, hamma gap shunda. Va bordi-yu men tug'ilmaganimda, atrofda-gi hammaga osonroq bo'lardi, chunki ular ham mening bo'lmasligim kerakligini tushunishar va mening borligim tabiatning xatosi ekanligini anglashardi. Balki chindan ham o'zimni ossammikin? Arqon yerto'lada yotibdi...»

U nima qilishi kerakligini tushunganida yengillashdi. U ushbu tongda birinchi marta kuldi va Damkani silab qo'ydi. «Ahmoq, – dedi itga. Sen yeb bo'lding va o'zingni yaxshi his qilyapsan. Faqat tunlari vovullash kerak emas, uxlash kerak. Men esa bir qarorga keldim va uni bajaraman. Menga ishonishing mumkin».

U kastrulka-yu itlar haqida unutib, o'zining yangi va birdan unga ozodlik bag'ishlagan baxtli tuyg'ulari bilan tomorqaning olis burchagiga yo'l oldi. U ushbu tuyg'u bilan uzoqroq qolishni, unga ishonch hosil qilishni, hech kim va hech nima unga bostirib kirmasligini, bostirib kirgan taqdirda uni vayron qilib yoki ozgina bo'lsa-da o'zgartirib yuborishini xohlardi.

Shu vaqt terrasa eshigidan sochi biroz paxmaygan, uyqudan andak shishgan va uy xalati kiyib olgan Zina mo'raladi. Jiyani yo'qligini tushunib, u chuqurdagi eshiklarga ishora qildi va shu zahoti ostonada yosh, qotma, istarali, ko'k ko'zli yigit paydo bo'ldi. U yo'l-yo'lakay pidjagini kiyib borardi.

– Tolik! – dedi Zina past ovozda, lekin uning hozir har tongdagi kabi g'oyib bo'lishini, yashirinishini tushunib va u kun bo'yi bir o'zi, o'zining ayollarga xos bo'shlig'ida qolishini anglab. Endi u yarim ongli ravishda ketish fursatini cho'zishga harakat qilardi. – Tolik! – takrorladi u. – To'xtab tur! Men ishingga nonushtangni o'rab bera-man.

Tolik qo‘l siltab qadamini tezlatdi. Zina uning baribir ketayotganini, deyarli xayrlashmay qochayotganini tushundi va shippagi bilan yerni shapillatib va ko‘ylagining yoqasini ushlab orqasidan otildi.

– Tolik! – deya qattiqroq baqirdi. – To‘xtasang-chi! Tolik!

Balki Tolik nonushtadan va Zinaning jo‘shqin xayrlashishidan bo‘yin tovlashning iloji yo‘qligini tushungandir. U xayrlashuvning qanday bo‘lishini bilardi.

– Xo‘sh, nima? – so‘radi burilmay, takabbur bo‘lishga intilib. – Zina, xayrlashdik-ku, necha marta xayrlashish mumkin!

Biroq Zina bir qo‘li bilan o‘ramni uning cho‘ntagiga soldi, ikkinchi qo‘li bilan bo‘ynidan quchoqladi.

– Bu kerak... – g‘uldurladi u Tolikni qattiqroq quchoqlab. – Va bahslashma... Har doim yemay yurish mumkin emas-ku. Senga kuch kerak.

– Ha, Zinaida, – injiqlik bilan dedi Tolik uning qo‘llaridan chiqishga urinib va atrofga qarab. – Odamlar bor-ku... Senga kammi?

– Kam! Albatta, kam! – aytdi yig‘lamsirab Zina va dunyodagi hamma narsani unutib, uni o‘pa boshladi, Tolik aynan shu narsadan qo‘rqqandi. Hozir ta‘nalar, balki ko‘z yoshlar ham boshlanadi va ularning oxiri ko‘rinmaydi. – Kam! Sen men uchun har doim kam-san! Bir soatga ushlanib qolsang nima qipti! Xo‘sh?

Tolik birdan uzoqdan Katyaning kulrang ko‘ylagini payqab, zudlik bilan xitob qildi:

– Katya uyg‘onibdi-ku! Undan uyalsang bo‘lardi! Katta qiz bo‘lib qoldi! U axir hammasini ko‘ryapti, eshityapti!

Biroq Zina sevgi ayolni ne ko‘ylarga solayotganidan aqldan ozib, uni qattiq ushlardi va tinmay takrorlardi:

– U hech narsani ko‘rmayapti... Hech narsani! U devonasifat! U tentak!

Darrov keta olmasligini va chekinishning boshqa yo‘llarini izlash kerakligini anglab – oxir-oqibat Zinani erkalash bilan sekin-asta tinchlantirish mumkin-ku, uni har doim suyish bilan qo‘lga olish mumkin – Tolik quchoqdan chiqishga intilishdan to‘xtadi va uning sochlarini silab, dedi:

– U axir tengdoshim-ku... Uni ko‘rganimda ko‘zlariga qarashga uyalaman.

– Oh, boshidan! – Zina Tolikning bag‘riga ko‘mlib, boshini chayqatib qo‘ydi, xolos. – Bir yil sabr qilib tur... Sal katta bo‘lsin, men uni amakisinikiga zavodga jo‘natib yuboraman... Shunda shu yerda yashay boshlaysan... Bu yerda hammasi seniki bo‘ladi... Xo‘jayinga aylanasan: uyga xo‘jayin kerak...

Bunday suhbat birinchisi emasdi. U Zinaning uyiga va uning o‘ziga xo‘jayin bo‘lishni, ya‘ni uyni o‘z nomiga o‘tkazib olishni va uning to‘la xo‘jayiniga aylanishni istardi.

U ro‘yxatda turgan yotoqxonada esa ko‘ngil aynishi darajasida joniga tekkandi. U uyga ega bo‘lishi bilan hujjatlarni qo‘lga kiritadi, shunda... Shunda u nimalarga qodir ekanligini ko‘rsatib qo‘yadi. Tolikning bir ishni yumaloq-yassi qilish uchun bitta ishonchli rejasi bor edi, biroq uni bajarishga deyarli vaqt qolmagandi. Zina, Xudoga shukurki, Tolikni kuzatib va cho‘ntagiga ovqat o‘ramini solayotib, uning la‘nati zavodga bormayotganini bilmasdi, chunki uni u yerdan quvib haydashgandi, hovlini supurishga va boshqa yordamchi iflos xo‘jaliklarda mehnat qilishga majburlashgandi. Bu yerdan esa yo‘l bitta – qochish.

Tolik qayerga qochish haqida bir qarorga kelmagandi, biroq qochishini bilardi, chunki u hovlida supurgisi bilan paydo bo‘lganida unga barmoqlari bilan ko‘rsatib, qaranglar, bizning Vasilyok qayerga joylashib olganini deyishardi! Chaqqon edi, biroq uni ham chetlatishdi! Tolik esa pichinglarni eshitmay, xuddi butun umr ushbu hovlini supurishni orzu qilgandek supurgisini silkitar va hushtak chalib kuyarlardi. Lekin ichida kek saqlab chamalardi: «To‘xtab turinglar! Sizlar hali Tolik nimalarga qodir ekanligini bilib olasizlar!» Kechga borib esa jig‘ibiyron bo‘lib, Zinaga uzil-kesil shart qo‘ydi: yoki uy, yoki ajralish. Zina undan keyinga surib turishni so‘rab yalinardi, chunki qo‘lida opasidan yetim qolgan Katya bor. U bilan rosa qiynaldi va yana ozgina qiynalish qolgandi. «Axir men hali unchalik qari emasman-ku? – so‘rardi Zina. – Men hali bolani ham dunyoga keltira olaman...»

Gapni bir yerga qo‘ya olishmadi va bir-birining bag‘riga cho‘mishdi. Endi esa, chiqishda suhbat xuddi kechagi voqeaning aks sadosi bo‘lib qalqib chiqdi va Tolik har qanday natijadan umidini uzganicha takrorladi:

– Sen o‘zing yopishib olding! Xo‘jayinmish! Qanday qilib xo‘jayin bo‘lay? Boshimni aylantirib tashlab ketasan! Men esa iz-

zat nafsli insonman! Meni nafaqat so'zda, balki amalda ham yaxshi ko'rishlarini bilishni xohlayman! Shartta ketaman qolaman!

Zina esa to'satdan uni o'zidan itarib yubordi, jahli chiqdi. Va yuziga qarab baqirdi:

– Ketaver! Meni qiynab yubording!

Biroq Tolik o'girilib tezda keta boshlaganida – u Zina yana uni quvib yetishiga ishonchi komil edi va aynan shunday bo'lishini xohlardi, chunki kelishmovchilik, ayniqsa, bunday kelishmovchilik uning rejalariga kirmasdi – Zina chindan ham o'zini tutib oldi, uning orqasidan otildi, uning ko'ziga noumidlikdan yoshlar qalqigandi. Zina ham ular hozir umrbod ajralib qolishlari mumkinligini tushu-nardi.

– To'xtab tursang-chi, – so'radi aybdorlardek. – Qayoqqa ketyap-san? Qayoqqa borasan, kim seni kutyapti? Sen mendan boshqa hech kimga kerakmassan, buni o'zing ham bilasan... Faqat men seni seva olaman, shunday sevamanki, hammasiga tayyorman... – So'ngra er-kalik qilib, unga suykilib, es-hushini yo'qotib, uning uyatsiz ekanli-gini, uni qanchalik azoblayotganini, chunki hamma qog'ozlarni tay-yorlaganidan xabardor ekanligini va uning nomiga yozib qo'yganini, biroq hammasi yuristning stolida yotganini va o'z vaqt-soatini kuta-yotganini bilishini aytib to'ng'illadi.

Tolik qog'ozlar haqida birinchi marta eshitayotgan edi. Zina bu yangilikni undan astoydil bekitayotgandi. Bu gaplar endi yorilib chi-qib ketdi, chunki o'zini va Tolikni tutaqtirib yuborgandi. Tolikning esa yuragi taka-puka bo'lib ketdi, darrov miyasiga bir fikr joylashdi: aldamayaptimikin? Biroq bir daqiqa o'tib qaror qildi – yo'q, aldama-yapti, u aldashga qodir emas, bunga aqli yetmaydi va haddan tashqari mehribon. Buning ustiga endi qo'rqitib qochirib yubormaslik kerak bo'lgan baxt, Zinaga uning samimiyligidan afsuslanishi uchun baho-na bermaslik... Yaxshisi shu joyda to'xtash, bu suhbatni kechgacha qoldirish, kechqurun esa oxirigacha bosish...

Shu orada Katya xaloskor bo'lib uydan chiqib keldi. O'zini Tolikni mutlaqo tanimaydigandek qilib ko'rsatib, boshini quyi solib xolasiga murojaat qildi:

– Xolajon... Men...

Lekin Zina darrov uning gapini bo'ldi:

– Zinaman men, Zina, xola emas! Qancha o'rgatish kerak!

Bu soʻzlarni chin dildan aytdi, chunki Tolik bilan suhbatdan nari ketmagandi va ichida qogʻozlar haqida aytib toʻgʻri qildimmikin deb oʻylardi. Shu joyda esa bemavrid, u oʻzi har doim bemavrid paydo boʻladi, Katerina oʻzining: «Xolajon!»i bilan yetib keldi. Xuddi uning yoshiga urgʻu berish uchun atayin kelgandek, buning ustiga Tolikning oldida... Shunday bemaza qizki...

Katya bu safar xolasining gʻazabiga yengilgina bardosh berdi va soʻzini toʻgʻriladi:

– Zin... Men mana bu savat bilan bozorga borsam boʻladimi deb soʻramoqchiydim, u har holda yengilroq... – deya qoʻlida ushlab turgan yangi savatni koʻrsatdi.

– Olmalar kamroq siqqani uchun ham yengil, – dedi Zina biroz hovuridan tushib. – Nega odamlar bilan salomlashmayapsan? Koʻrmisan?

– Salomalaykum, – dedi Katya Tolikka qaramay, u nigohini hamon yerga qaratgandi. – Olmalarni oʻzim solaymi?

– Yarmini ezib tashlaysan! – dedi Zina, biroq Tolikni u bilan qoldiraymi, qoldirmaymi deb ikkilanib qoldi. Uzoqlashishi bilan dumini silkitadi va Tolik gʻoyib boʻladi. Lekin Zinaning ishbilarmonligi ustun keldi, u qoʻshib qoʻydi: – Boshqa savatni olib kel, oʻzim yertoʻlaga tushaman.

Katya ketdi, Zina esa Tolikning bagʻriga otildi, Tolik eshitgan yangiligidan gangib turgandek edi, mana shunday sarosimaga tushgan, biroq endi qoʻlga oʻrgatilgan, deyarli oʻziniki boʻlgan Tolikni u hammadan koʻproq sevardi.

– Jahling chiqmadimi? – soʻradi Zina. – Kelasanmi? Bugun? Kelasan-a?

Tolik mingʻirladi, lekin yana oʻziga xos, yotsiramay, albatta ke-lishini, ammo ishida muammolar borligini va hozircha qanday yoʻl tutishni bilmayotganini aytdi.

– Axir akam senikida usta boʻlib ishlaydi-ku? – gapini boʻldi shoshilib Zina. – Xohlasang, u bilan gaplashib koʻraman.

– Bukati bilanmi? – dedi Tolik dargʻazab boʻlib. – Yoʻq! Befoyda! Uning qandayligini oʻzing bilasan!

– Battol, – tasdiqladi Zina. – Men u bilan butun umr ixtilof-daman, u Katkaga pul berib tursa ham... Oʻzi esa, aytganday, kelmaydi!



Shu zahoti yo'qlab turganda Katya boshqa savat bilan hozir-u nozir bo'ldi. Yerga qarab, uzatdi: «Mana. Shundayi kerak, to'g'rimi?»

Biroq Zina unga javob bermadi. Tolikka qarab: «Kelishganimizdek, xo'pmi?» dedi va yerto'laga tushib ketdi. Tolik esa depsinib turib, ushbu g'alati va odamovi qiz bilan o'zini qanday tutishini bilmay, o'ng'aysiz, deyarli betakalluf xayrlashdi:

– Yaxshi qol, sohibjamol!

– Ko'rishguncha, – dedi Katya. Birinchi marta unga qaradi va shu zahoti ko'zini oldi. – Haligi, siz... kelib turing.

Uning so'zlarida shunday hamdardlik bor ediki, ketishga chog'lanib burilishga ulgurgan Tolik to'xtadi va hayron bo'lib Katyaga qaradi: u chin dildan aytdimi yoki shunchaki gap qistirdimi?

Katya bosh irg'itdi:

– U sizni sevadi... Siz uni badjahl deb o'ylamang. U charchagani uchun achchiqlanyapti. Unga qiyin... Odam qanday yashashni bilmaganda unga doim qiyin. Keyin esa u tushunadi va yengil tortadi.

Katya shu daqiqalarda o'zini va Zinani ham o'ylardi, u mushkul ahvolga tushib qolgan xolasiga achinardi. Lekin Tolik Katyaning yoniga yaqinlashib, lablarini qiyshaytirib chin dildan dedi:

– Eh, Katerina! Jonga tegdi! Bu qishloqda hamma narsa jonimga tegdi!

– Men sizni tushunaman, – dedi Katya jilmayib.

– Nimani ham tushunarding! Meni ishdan haydashdi! Tez orada yotoqxonadan ham quvishadi... Men bo'lsam ishchi varaqalarisiz, karavotsiz va meni tashlab ketgan do'stlarimsiz kimman... Kim? Darvoqe, hammasi tog'ang sabab! Temirmish! – Va Tolik qo'l siltadi.

– Men ham uni yoqtirmayman, – dedi Katya biroz o'ylanib. – U biznikiga kelmaydi. Xolamda... Zinada, – deb so'zini tuzatdi, – bu-fetda muammolar bo'lganida, o'shanda uni o'g'ri urganda va qamab qo'ymoqchi bo'lganlarida... Siz o'shanda anavini... Vasil Vasilichni olib kelgandingiz...

– Nima qipti? – birdan dushmanlarcha so'radi Tolik.

– U bizga yordam berdi, tog'am esa umuman yordam berishni xohlamasdi va shuning uchun uni yoqtirmay qoldim... – Va Katya yana, xuddi o'zi uchun so'rayotgandek iltimos qildi. Tolik hech qachon uning ovozida bunday ohangni sezmagandi: – Ketmang! Iltimos! Yaqinda o'zim ketaman... Butunlay... Tushunyapsizmi? Zina bir

o'zi qoladi, siz esa... Siz uni tashlab ketmaysiz-ku, to'g'rimi? Agar uning ahvoli yomonlashsa-chi?

– Qanday qilib? – so'radi Tolik, chunki to'satdan ushbu tushunasiz qiz bilan suhbatdan qo'rqib ketgandi. Katya xuddi u haqida hamma narsani biladigandek va qalbiga boqqandek edi. Tolikning qalbida esa shunday narsalar ro'y berayotgan ediki, uni hech kimga ochishni xohlamasdi va uni ochishlarini ham istamasdi. Shu sababli u Zina aqli raso odam sifatida ko'rmaydigan va shuning uchun Tolik ham jiddiy qabul qilmagan ona suti og'zidan ketmagan ushbu qizchadan hadiksirardi... Ular, devonalar, har doim fahmi o'tkir bo'lishadi, deb o'yladi Tolik irim-sirimlarga ishonib, u Katyaga qaramay imkoni boricha beparvolik bilan dedi:

– Mayli. Ko'rishguncha, Katerina.

– Boravering va kelib turing, – dedi Katya orqasidan kayfiyati chog' bo'lib. – Xayr!

G'ayrat bilan aytilgan ushbu «xayr» ham Tolik uchun noodatiy tuyuldi, lekin u endi hech narsani tushunishni va o'ylashni xohlamasdi, u barcha vahima va shubhalarni pillapoyaning oldida qoldirib ketgandi.

Tor yo'lak bo'ylab bog'dan chiqayotib, ochish uchun biroz ko'tarish kerak bo'lgan, aks holda yerga tiqilib qoladigan qiyshiq ko'cha eshigining oldiga yetganda u bir insonni ko'rib qoldi va yoniga yaqinlashmay turib kimligini topdi: «Chemodanov! Xizrni yo'qlasa ham bo'lar ekan, – mana xayoliga kelgan birinchi narsa, keyin esa: nima uchun bunday barvaqt kelibdi, nimadir sodir bo'lganmikin? Yana bir muammo yetmay turuvdi!»

Lekin aftidan Vasil Vasilich «xushkayfiyat» edi. U kayfiyati yaxshi bo'lganda o'zini shunday atardi.

U ko'zini qisib Tolikka boshdan oyoq qaradi va uning salomlashishiga faqatgina istehzoli hm deb qo'ydi:

– Aha. Shu yerda! Unday bo'lsa ushla! – va sakvoyajini uzatdi, xuddi Tolik bu yerga uning yukini tashish uchun kelganday. Sakvoyaj esa og'ir edi!

– Nimadir bo'ldimi? – so'radi har ehtimolga qarshi Tolik.

– Bo'ldi! – Chemodanov hamon Tolikni ko'zdan kechirardi.

– Ag'anadingmi?

– Nega unday deyapsiz?

– Zajigalka-chi... Men senga bergan?

– U bilan hammasi joyida, – bosh silkidi Chemodanov va yana Tolikka qaradi. Uning yuzida qandaydir tutqich bermaslik, yoqimsizlik, pismiqlik bor edi.

– Unday bo'lsa nima? – so'radi Tolik, boshqa narsani so'rashni xohlab, aslini olganda, nima uchun Vasil Vasilich bunchalik erta va kutilmaganda kelganini, qanday zarurat uni bunchalik olisga kelishga majbur qilganini bilishga qiziqib. Vasil Vasilich ming kilometr narida yashar, temir yo'lda ishlardi.

– Hech nima, – javob berdi u ochiqchasiga gaplashishni istamay. U yoqimsiz va xunuk iljayardi.

Tolik achchiqlana boshlab sakvoyajini silkidi. To'ppa-to'g'ri so'radi:

– Bu yerda nima bor? Bu mengami? Menga emasmi? Men ketishim kerak!

Chemodanov uning chindan ham jahli chiqayotganini tushundi va do'stona ravishda Germaniyadan donasi o'n rubldan bo'lgan «zinger» tikuv ignasini olib kelganini aytdi... Biroq bu keyinroq, keyinroq... U narsalar vokzalda.

Shu vaqt itlar hura boshlashdi, u cho'chib tushdi va uy tomonga mushtini ko'rsatib po'pisa qildi.

– Ha-a, hayvonlar! Isimdan bilishdi... Tanishdi... Ular meni yoqtirishmaydi! Biroq men ularga ko'rsatib... Boshqalar qani?

– Sen xuddi xo'jayinga o'xshaysan-a, – dedi Tolik birdan tinchlanib.

– Nima qipti, – o'zining yoqimsiz pichingiga o'tdi Chemodanov. – Biznikilar Berlinni qurshab olishibdi... Eshitdingmi?

– Xo'sh?

– Ana senga xo'sh! Sen bu yerlarda nima qilib lapanglab yuribsan?

– Zavoddan haydashdi, – birdan shikoyat qildi Tolik. Aytmoqchi emasdi, lekin nima uchundir aytdi.

– To'g'ri qilishibdi-da, – darhol javob berdi Chemodanov. Bog'ning ichkarisiga, terrasaga tikilib qarab, so'radi: – Turishmaganmi hali?

– Endi qayoqqa boraman? – gapni o'zi istagan yoqqa burardi Tolik. Uni Chemodanovning hozirgina o'zi payqagan boshqalarni eshitmaslik odati yana g'azablantira boshlagandi.

– Qayoqqa xohlasang, – dedi u yo‘lak bo‘ylab ketayotib. – Buni uyga olib bor, – deya sakvoyajga boshi bilan ishora qildi. – Uyg‘ot! Menga zarur!

– Senga yollanib ishga kirganmanmi! – g‘azabi qaynadi Tolikning. – Uyg‘ot, olib bor... Sotish uchun berasanmi?

Chemodanov terrasaga qarab turib, dedi:

– Keyin.

– Ignalarnimi? Nechta berasan?

– Aytdim-ku, keyinroq deb! Hammasi keyinroq! – gapini uzdi Chemodanov, uning ohangida qandaydir shak-shubhasizlik bor edi. Tolik yana arazlashga tayyorligini sezib, murosasozlik bilan qo‘shib qo‘ydi: – Hozir ishlarim bor... Biroq bu ishlar senga tegishli emas. Tushudingmi?

Ammo Tolikning asabi taranglashdi, axir hozirgacha ularning ishlari birga edi. Shunday ekan, uymalanishingga va o‘zingni undan yana nimanidir so‘ramoqchidek tutishingga nima hojat?

– Xohlamasang, kerakmas, – dedi u. Burilib keta boshladi, lekin so‘qmoqda to‘xtab, Chemodanovni nozik joyidan olish uchun baqirdi: – Men ham sening ishlaringga tupurdim. – Va hushtak chalib ketdi; uning uchun tong beo‘xshov boshlanayotgandi.

Chemodanov esa ko‘tarmaning shundoqqina qarshisida qiyshiq kovlab o‘rnatilgan skameykaga o‘tirdi va shlapasini yechdi. Biroq yana itlar akillay boshlashdi va u seskanib tushdi. Tufladi va mushti bilan do‘q qildi. Shu payt Zina terrasaning orqasidan chiqib keldi, orqasidan Katya bir savat olma bilan ko‘rindi.

Zina yo‘l-yo‘lakay Katyaga, ehtimol yuzinchi marta bo‘lsa kerak, chuv tushirmasliklari uchun bozorda olmalarni qanday qilib sotish kerakligini tushuntirardi.

– Sen, Katya, qara, arzon-garovga sotib yuborma, – uqdirardi u. – Askarday qat‘iy tur, lekin narxni ushla... Savatchani oldinga chiqarib qo‘yma, ostingga yashir-u bir donadan ol... Sotdingmi, pulni bekit, uni qayerga yashirishni bilasanmi o‘zi?

– Har kuni shu narsa, – dedi Katya. – Bilaman, Zina.

– Yaxshi, – xursand bo‘ldi Zina. – Achchiqlanish kerakmas. Pul qog‘ozdan bo‘lsa ham, yurakni isitadi.

Shu yerda u Chemodanovni payqadi va biroz xijolat tortdi. Bunday erta tashrif har qanday insonni xijolat qilishi mumkin edi.

– Eh, Vasil Vasilich! – dedi u sarosimalanib. – Kutilmaganda! – O‘zi esa mehmonning yuziga qarab, bunday erta tashrif nimani anglatishini tushunishga harakat qilardi.

– Birinchi poyezd bilan, Zinochka, – dedi Chemodanov va Katyaga qaradi, diqqat bilan razm soldi, Katya esa yerga qaradi. – Ogohlantirishga vaqt yo‘q edi... Ishim shunday... Salom, Katyunya!

Katya bosh irg‘adi va Zinadan so‘radi:

– Ketaveraymi? – dedi u, hozir kattalar o‘z ishlarini muhokama qilishlari kerakligini, o‘zi esa bu yerda ortiqcha ekanligini tushunib. Balki ular Katyaning bu yerdan daf bo‘lishini kutishayotgandir. U bunday holatga o‘rgangandi.

Biroq Chemodanov nima uchundir shoshilib, Katyaga murojaat qildi, u ilgari Katyaga hech qachon gapirmagandi:

– To‘xta! Kutib tur! Gapim bor... O‘tir, Zinochka... Sen ham, Katyunya... O‘tir... Qani?

Zina Chemodanovdan ko‘zini uzmay o‘tirdi, u bugun bu odamni tushunib olishga urinar, lekin uddalay olmasdi va shu sababli cho‘chirdi. Katya ham xolasiga taajjublanib qarab, agar sizlarning tanishlaringiz kelgan bo‘lsa, mening bunga nima dahlim bor, degandek o‘tirib oldi. Chemodanov unga tikilib turganini ko‘rib, o‘zini o‘ng‘aysiz sezdi. Chemodanov esa jiyanga boqib, ichida uning noto‘g‘ri o‘rilgan kokilli sariq sochlarini, kulrang, faqat ma‘suma qizlarda uchrovchi ko‘zlarini, ozg‘in bo‘ynini, tor yelkalarini o‘zicha baholardi. Butun yo‘l davomida u tinmay gapirib va jasorat uchun ichib olgandi, biroq, chamasi, ko‘proq ichish lozim edi, buning ustiga chekishni xohlardi. Va u birdan Zinadan so‘radi:

– Papiroschang yo‘qmi mabodo?

– Albatta, Vasil Vasilich! – shodlanib javob berdi u. – Papiroslar ham bor, – va yugurib borib olib kelish uchun o‘rnidan turdi, ammo Chemodanov to‘satdan shoshib dedi:

– Yo‘q, hozir emas... Men axir, Zinochka, sening Katyunyanga uylanish uchun keldim!

Xudoga shukur, ayta oldi va darrov Katyaga qaradi. U esa noqulay, hozir xalaqit qilayotgan qo‘llarini qo‘ltig‘ining ostiga yashirgancha qimirlamay o‘tirardi. O‘zi ham sichqonga o‘xshaydi: kulrang, qo‘rqqoq.

Zina esa birdan ahmoqona hingillab yubordi:

– Sen hazillashyapsan shekilli, Vasil Vasilich?

Biroq uning hingillashi sun'iy chiqdi. Bu hazil emasligini fahmladi, buning ustiga Chemodanovga qarab bu so'zlar chin dildan aytilganligini payqamaslik mumkin emasdi. Har doim kibrli bo'lgan bu odam bolaga o'xshab qizarib ketdi, Zina ilgari uni bunday holatda ko'rmagandi. Chemodanov xijolat tortib po'ng'illadi:

– Yo'q... Zinochka, men jiddiy!.. Hazilga yo'l bo'lsin. – Va nima uchundir dastro'molchasini olib, burnini qoqa boshladi. Dastro'moli ko'k, xol-xol gulli edi.

Biroq Zina o'ziga keldi, chunki endi unga hammasi tushunarli edi. U davomini eshitishi shart bo'lmagan Katyaga buyurdi:

– Yukni uyga olib kir va dasturxon yoz...

– Olmalar-chi, bozor-chi? – so'radi birdan ahmoq Katya. U nima ro'y berayotganini tushunmasdi.

– Eh, qanaqa olmalar! – jahl bilan dedi Zina va uni eshikning oldiga kuch bilan itarib yubordi. – Bor! Bor! Aytganni qil!

Qaytib kelib, Katya ketganini, burchakda turib quloq tutmayotganligini bilish uchun qaradi, ammo Katya hech qachon bunday qilmagandi. Buning ustiga bugungidek sabab hech qachon bo'lmagan. O'tirdi, labini qisib, Katya hali yosh ekanligini aytdi. Haddan tashqari yosh. O'zi ham uning tentakligini ko'rib turibdi-ku.

– Yoshlik, Zinochka, tez o'tib ketuvchi kamchilik, – javob qildi Chemodanov oldingi ishonchini tiklab. U dastro'molini cho'ntagiga solib qo'ygandi.

– Axir u... Bola!

– Boqamiz! – dedi Chemodanov ishonch bilan. – Ular cho'chqalar kabi. Tezda voyaga yetishadi!

– Buning ustiga devonasifat bo'lsa... – fikrida qattiq turardi Zina.

Shunda Chemodanov o'rnidan turdi va tepadan Zinaga egilib, har bir so'ziga urg'u berib, aqllilardan ko'ngli zada bo'lganini, ulardan to'yib ketganini aytdi... Shunga o'xshash aqllilardan biri Chemodanov ishga ketganda uyini shunday ship-shiydam qilib ketgandiki, ushog'ini ham qoldirmagandi. Katya bo'lsa indamas, yuvosh. Yana sabrli, uyda o'tirishni yaxshi ko'radi. Qiz emas, tilla.

– Men uni bir yil oldin ko'rgandim, – dedi Chemodanov chuqur xo'rsinib, Zinaning sinchkov ko'zlaridan yuzini burib. – Ko'rdim-u,

o'zimizniki, deb o'yladim! Shunaqa, Zinochka, – va uning kalta sochini silab qo'ydi.

Zina esa birdan yumshadi. Ko'zlarini ko'tarib, so'radi:

– Men-chi, men o'zimizniki emasmanmi?

– Sen o'zimizniki emassan, – dedi u muloyim.

– Nega?

– Shunga... – javob berdi u bir maromda hamon epga kelmaydigan sochlarini silab. – Chunki sen hamma uchun o'zinikisan... Tolik uchun ham o'zinikisan. Piyonistalar uchun ham...

Shunda Zinochka uning qo'lini boshidan olib, turib ketdi. U chindan ham g'azablangandi:

– Sen nima, Chemodancha! Sen meni kim deb o'ylayapsan?

– Sen o'zingni bolakayning orqasiga yashirma! Shunda boshqacha o'ylamayman! – qo'rslik bilan yuziga gapirdi Chemodanov. Biroq haqorat bilan hech narsaga erishib bo'lmastligini tushunib shu zahoti yumshadi, bunday qilish kerak emas: – Katka kerak menga! Urushdan oldingi qo'shiqda kuylangandek: «U yurtimizni saqlasin, sevgini esa Katyusha asraydi!»

– Qanaqa sevgi! – qo'l siltadi Zina. – Senga uyingga va pulingga qorovul kerak!

– Sen, Zinochka, mening pulimni sanama! – o'dag'ayladi Chemodanov. – Sen pullarimdan ba'zi narsalarga ega bo'lgansan... Balki qaytarish vaqti kelgandir? Qarzni?

Zina Chemodanov unga uni qamoqdan saqlab qolgan qarz, aql bovar qilmas mablag' haqida eslatishini bilardi. Vozkaldagi bufetini o'g'ri urgandan so'ng Zinani uzoq vaqt tergovchiga yugurtirishdi, undan nimanidir bilishga urinishdi. Balki o'zi o'zini shilgan va yaxshi davrlar kelguncha yashirib qo'ygan deb hisoblashgandir. Uy qaysi yo'l bilan va qachon xarid qilinganini surishtirib, tagiga yetishga harakat qilishdi va Zina bu uy qishloqda o'qituvchi bo'lib ishlagan, urushning boshida vafot etgan Katyaning onasidan meros qolganligi haqidagi ma'lumotnomalarni olib kelganidagina tinchlanishdi. O'sha mashaqqatli damlarda uyda g'ayratli, hamma narsa qo'lidan keladigan va hamma narsaga ega bo'lgan Chemodanov Tolikning yordami bilan paydo bo'lgandi. Tilxat olib pulni berdi, biroq, darrov itoatli Zinani o'ziga moslab olib yana shu yerda maza qilib yashadi, Tolik uning Zina bilan o'rtasidagi munosabatlari borligini aytgan bo'lsa-

da, aytmasligi mumkin emasdi. Keyin esa bostirib keldi va stolda konyaklar-u araqlar ham, patefon musiqasi ham, o'zini hammasi binoyiday ketayotgandek qilib ko'rsatgan sho'x Tolik ham paydo bo'lardi. Va Chemodanov Katyaga qarindoshiga baqirgandek baqirib-baqirib qo'yar, kunduzi esa bozorda yoki o'rtoqlarinikida yo'q bo'lib ketar, shirakayf holatda qaytar, Zinadan etigini yechishini va tezroq to'shakka ichish uchun suv olib kelib, yotoqxonadan tuyog'ini shiqillatishini talab qilardi.

Biroq pul haqida Chemodanov, unga tan berish kerak, eslatmasdi. Ehtimol yaxshi vaqtlar kelguncha daf qilib bo'lmaydigan eslatish fursatini asrab turgandir. Zina esa indamasdi. U o'zining endigi ishi – stansiyadagi yukxona bo'limida ter to'kib qarzga olgan o'sha salmoqli mablag'ni hech qachon to'play olmasligini tushunardi. Olmalar sotuvidan yig'ilgan oz-moz pulni Zina bahorgacha ishlatmay saqlab qo'yishni bilardi. Biroq olingan qarzga yetishi uchun qancha bahor-u qancha yoz kerak, baribir kifoya qilmasdi... Oqibatda Zina bu qarzni umrining oxirigacha ko'tarib yurishi kerak edi, agar berganlar kutishni xohlashsa. Shu sababli biqiniga kimdir urgandek junjikishga to'g'ri kelardi.

– Nimalar deyapsan! – chiyillab qo'ydi u zo'rg'a eshitiluvchi ovozda. – Qayerdan olaman senga?

– Bunisi menga qorong'u, – dedi u va seskaniib ketdi, chunki u toqat qila olmaydigan itlar akillay boshlagandi, itlar ham unga o'sha toqatsizlik bilan javob qaytarishardi. Hozir ular uyga begona odam kelganini sezib, sayray ketishdi, tinchishni xohlashmasdi.

– Odamxo'rlaringning ovozi o'chirsang bo'lardi! – baqirdi u qizishib. – Shunday kunni boshimdan o'tkazyapmanki, jin ursin! Ularning tushunchasi yo'q!

– Ularga nima deyishim mumkin, – jur'atsizlik bilan dedi Zina. – Tirik jonivorlar. Yashashni xohlashadi.

– Hamma xohlaydi, Zinochka! – dedi Chemodanov nasihat-omuz. – Men ham xohlayman! G'alabaning qulog'i ko'rindi! Berlini qurshab olishdi... Men esa o'sha yangi hayotga, qanday tushuntir-sam ekan senga... Yangi odam bo'lib... Xo'sh, tushundingmi?

Zina ma'qullab bosh silkidi. U-ku allaqachon hammasini tushungan edi. Va iloji yo'qligini tushundi, Chemodanovga qarshi tura olmaydi. Katka o'zini qanday tutadi, hamma gap chilparchin bo'lgan Zinada emas, unda-ku. Zina gap qaytarayotgan ekan, demak, vijdoni

qiynalyapti. Zinaga butun umr vijdoni yashashga xalaqit beradi. Buning ustiga marhum opasi Lyusya va boshqalar: «Sen, Zina, mehribonsan va bu mehribonchiliging bilan nobud bo'lasan. Sen hammaga achinasan, bufetdagi araqxo'rlarga ham, poyezd provodniklariga ham, kelgindi yo'lovchilarga ham. Hammaga ochiqsan, hammani boqasan, dabdalangni chiqarishadi ular. Zaifa ekanligingni ko'rishlari bilan rasvoyingni chiqarishadi», deyishardi.

Zinaning uyida sig'indi Lyosha yashagan, doim ichgan va hech qayerda ishlamagan. Zina esa uni boqqan. Unga achingan. Keyinroq, tergovdagi uzoq o'yga cho'mish vaqtida o'sha Lyosha o'rtog'i bilan uni tozalab ketmaganmikin, deb taxmin qildi, chunki u o'sha kunlari g'oyib bo'lib qolgandi. Biroq hech kimga hech narsani aytmadi. Ishondimi, o'zi aybdor. Bordi-yu paydo bo'lib qolsa, ehtimol yana eshigini ochardi, chunki uni sevardi. Endi esa Tolikni ham o'lguday sevib qoldi. Ularning yoshlari o'rtasidagi farq o'n yil, o'ylab ko'rilsa, yer bilan osmoncha farq. Va Zina mahkum ekanligini biladi, ammo ishonadi, hamma narsada unga ishonadi, uning burnidan ip bog'lab olganini bilsa ham. Zina shunga ham xursand, ipini bog'layversin, mayli, talab qilsin, balki uning, Zinaning baxti o'sha ip bo'lishdadir, kimningdir ko'nglini olishdadir, faqat tashlab ketishmasa bo'ldi... Katya esa boshqacha. Qanday, darrov tushunmaysan ham. Biroq aniq boshqacha. Zina o'zining musibatlari bilan uning bo'yi o'sib qolganini, sergak o'smiringa aylanganini sezmay qolgandi. Miq etmay jim yuradi, miyasida esa nimalar borligini hech qachon bilolmaysan. Shu bois Zina ushbu suhbatni tugatish uchun bo'sh kelib dedi:

– O'zi hal qilsin. – Va uyga kirishlari kerakligini ko'rsatib o'rnidan turdi.

Chemodanov turdi, daraxtlarning orqasida ehtiyotsizlik bilan suhbatlashgan o'sha nogironni ko'rdi.

– Bu nima qilib yuribdi? – deb so'radi. – Nega mo'ralayapti?

– Aylanib yuribdi, – javob berdi Zina. – Ketdikmi?

Chemodanov nogironga o'girilib qaradi va militsiya aylanib yurib, bir vaqtning o'zida ish qiladi, deb to'ng'illadi. Anavi esa negadir hushyor, u davrini surib bo'ldi, kallayi saharlab ko'chada tentirab yurgandan ko'ra maza qilib yotib uxlamaydimi.

– U gospitaldan, – dedi u, go'yo nogironni oqlab. Tong bo'yi unga oqlanishga majbur bo'layotgandi. – Shu atrofda yashardi, oilasi

esa Ukrainaga mehmonga ketgandi, o'sha yerda ularni kulbada yoqib yuborishdi. U qayerga borsin? Bir o'zi qoldi, shunga aylanib yuribdi. – Va eshikning oldiga kelganda Chemodanovga o'girilib, yuzini yaqinlashtirib, begonadan sadaqa so'ragandek so'radi: – Balki, yana bir yil kutib turarsan? Katyani... U hali yosh bola-ku. Xo'sh? Vasil Vasilich...

– Yo'q, – dedi u qat'iy va uning yonidan aylanib o'tishga harakat qildi. Lekin Zina ostonada turib uning ko'ziga qarardi. Uning yuzida azob-uqubat aks etgandi.

– Axir men tayyormasman-ku!

– Ertagacha vaqt ko'p!

– Ertaga?

– Ertaga, – tasdiqladi u. – Qaynatamiz, pishiramiz va o'tkazamiz. Mening vaqtim hisobli, Zinochka! Mening uyim va ishim bor... Gap shunday.

Uyga kirayotib, Chemodanov nima qilishini bilardi. Zinani ko'ndirdi, qizni-ku osonlikcha rozi qiladi, u bunga shubhalanmasdi. Shu joyda nogironga mushukcha haqida tushuntirganidek ensasiga urish kerak edi. Bekorga tushuntirmagan, nimani gapirayotganini bilgan. Mushuklar aqlli, itlar esa ahmoq... Mana, hozir ham terrasaga kirib kelayotib, unda qandaydir g'alati, hech narsa bilan tushuntirib bo'lmaydigan qo'rquvni chaqirgancha qattiq vovullay boshlagani eshitdi. Uning o'zi qo'rqqanini hech qachon tan olmasdi. Biroq hozir u itlardan har qancha nafratlanmasin, xayolini Katya band qilgandi. U ayollarni tanigan, ular hayotida ko'p bo'lgan, ularning ba'zilari chindan ham go'zal edi, ayniqsa, viloyat teatridagi bir aktrisa. Biroq o'sha ayollar Chemodanovning oldida uzoq qolmaganliklarining sababi ular o'zlarini erkaklar kabi shaxs deb hisoblay boshlagandilar. Ularga hamma narsa kerak: jamoat ishlari, yumushlar, safarlar. Uning esa bo'lajak oila haqidagi tasavvurlari boshqacha, jumladan xotini uyda o'tirib to'qisa... Nima to'qishining ahamiyati yo'q. Sho'rva yoki kotlet tayyorlasa va to'qisa, derazadan qarab erini kutsa. U, mehnatkash er esa ham xo'jayin, ham janob bo'lib oldiga keladi: etigimni yech, dasturxonga ovqat tort... Xotin esa so'ramagunlaricha churq etmasa, etigini yechishga ruxsat bergani va omborxonadan konfetlar olib kelgani uchun ko'zlari bilan xo'jayiniga minnatdorchilik bildirsa. Konfetingni ye, yong'oqlar, yana boshqa narsalar ham olib keladi,

xursand bo'l va xursandchiligingni eringga ko'rsat, u ham qanchalik yaxshi odam ekanligini his qilishi uchun, uning oldida quvonishayotgani uchun va uydan farovonlikning isi kelayotgani uchun...

Balki Zina, Chemodanovning tushunchasida shunday xotin bo'lishi mumkin edi, lekin Zinani ko'plab erkaklar yo'ldan urishgandi. Katkasining esa axloqi buzilmagan, qalamning ostidagi varaq kabi oppoq, nima yozsang ham birinchisi bo'ladi. U – ham birinchi erkagi, u ham otasi, ham ustoz, qisqasi, madadkori.

Bu narsalar esa u o'zinikida asrab turgan oxirgi suyuqoyoq uni shilib g'oyib bo'lishi bilan bir vaqtga to'g'ri kelib qoldi. U esa militsiyaga shikoyat qilmadi, Xudoga shukur, mayda-chuyda narsalarni boy berdi, tilla tangalarini esa u yaxshilab berkitib qo'ygandi. Generallarning xotinlari hammasini o'zlarinikiga tashiganda bekorga Germaniyadan lash-lushlar ortilgan poyezdlarni olib kelmagan. Bir vagoni generalga, ikkinchi vagoni o'ziga; eski latta-puttalar emas, gilamlar yoki avtomobillar emas, zinger ignalari kabi noyob buyumlar, ularni bir chamadonga milliontalab joylash mumkin, hammasi toza pul! Donasini o'n tangadan – hammasi o'n million rubl! Bunday pullar xayrixoh qashshoq Zinkaning tushiga ham kirmagan. Zajigalkalar bilan shug'ullanayotgan muttaham Tolikning ham. U Katyani mana shu narsalar bilan kutib oladi, u bilan esa urushdan keyingi yangi dunyoda yangi hayotini boshlaydi!

Vasil Vasilich burun ham shunday o'ylar, chamalardi. Bo'sag'adan kirishi bilan Katya qo'lida idish-tovoq ko'tarib uchrab qoldi. Unga o'ziga kelishga bermay, Chemodanov uning qarshisida gursillab tiz cho'kdi va darrov ojiz, hattoki nochor bo'lib ko'rindi. Biroq u nima qilayotganini bilardi. Eskicha, kulgili usul, xuddi gullarni berganga o'xshab, ammo bu ayollarning yuragini zabt etishi ma'lum.

– Katenka, – qaltiroq ovozda dedi u. Ayni daqiqalarda uning o'zi ham Katyani sevishiga ishonardi. – Katenka, men qariman, men hammasini tushunaman, lekin sen haydama... Qari tentakni eshit, faqat eshit, keyin o'zing bir qarorga kelasan! Nima desang, har qanday so'zing qonun... Faqat eshit, iltimos!

Katya qo'rqqancha unga qarab, qo'lida likopchalarni ushlab turardi. O'zi ham o'sha likopchalar kabi qaltirardi: hech qachon uning qarshisida tiz cho'kishmagan, bundayini faqatgina kinolarda ko'rgandi. U yerda yolg'on bo'lgani uchun ham kino-da. Bu yerda esa...

– Vasil Vasilich, bu nima qilganingiz! Voy, turing! Men bunga odatlanmaganman! Menga noqulay! – derdi u, qo‘lidagi likopchalarni nima qilishini bilmay, o‘zini yo‘qotib va Vasil Vasilichning oldida dovdirab. Tashqaridan qaraganda bularning hammasi g‘alati ko‘ringan bo‘lsa kerak. Mana, Zina ham orqadan qarab turardi. Indamasdi. Chemodanov esa hiqillab yig‘lay boshladi, ko‘zlariga yosh qalqidi.

– Katenka! Agar rozi bo‘lsang... Men baribir sensiz ketmayman... Mana, menda ikki kishi uchun liter¹ bor...

– Turaqoling, – yolvordi Katya, o‘zining ham birdan yig‘lagisi kelib. – Turing... Iltimos, Vasil Vasilich.

Lekin u eshitmayotgandek edi.

– Hozir mening taqdirimni, mening hayotimni hal qilishing mumkin... – ho‘ngrab yig‘lab gapirardi Chemodanov. – Bu yorug‘ olamda yolg‘izman, – deya po‘ng‘illadi va oyoqlarini o‘pa boshladi. Katya qo‘rqib oyoqlarini tortib oldi va Chemodanov peshanasini polga urdi. Qattiq urdi, lekin sezmadi ham, yig‘lashda va unga yopishishda davom etdi. E Xudo, nega Zina qarab turibdi, turishga yordam bermaydimi, axir u hozir o‘lib qolishi mumkin-ku! Peshanasi zarbadan ko‘karib qoldi, aqldan ozdimikin?

Biroq o‘likdek oqarib ketgan Zina bir nimalar deb pichirladi, Katya Zinaning nima deganini labidan o‘qidimi, qulog‘i bilan eshitdimi, ammo yashaydigan sen... O‘zing hal qil, Katya... O‘yla va hal qil, deganini ilg‘adi. Shu so‘zlar bilan birga qulog‘ida boshqa narsalar ham xuddi tabiiy ofatdek eshitildi-yu, tushunarsiz javob ko‘z yoshlarini chaqirgan holda Katyaning ichidagi hamma narsani ag‘dar-to‘ntar qildi. Bu ko‘z yoshlar g‘alati erkakka emas, o‘ziga atalgandek edi. Go‘yo erkakning bu ko‘z yoshlarga aloqasi yo‘qdek.

– ...Birga... Birga bo‘lamiz... Qo‘g‘irchoqdek yasataman. Shokolad bilan boqaman. Hammadan chiroyli bo‘lasan, oyimcha! Ipak baxmal kiyasan! Sen uchun Germaniyadan maxsus bir vagon latta-putta keladi. Har qanday so‘zing qirolichalarnikidek bo‘ladi. Qo‘lingni qimirlatsang, hammasi vojib. Axir men hamma narsaga qodirman!

– U hamma narsaga qodir, – unga jo‘r bo‘lardi jonsiz Zina.

¹ Liter – temiryo‘l va ba‘zi boshqa transportga bepul yoki imtiyozli narx bilan chipta olish huquqini beradigan guvoohnoma.

Katya Zinaga qarab, uning endi hech narsani hal qilmasligini va u, Katya hozir nima qilsa ham birinchi marta o'ziga o'zi xo'jayinligini birdan tushundi. Va buni anglab, to'satdan shoshilib stolning yoniga bordi, idishlarni stolga qo'ydi va Chemodanovning yig'idan qizargan, ko'z yoshidan ho'llangan yuziga qaragancha uning qarshisiga o'tirdi. Nima uchundir qo'lida paydo bo'lib qolgan oshxona sochig'i bilan uning yuzini arta boshladi va aytayotgan so'zlarining mazmunini anglamay, takrorlardi:

– Aytaman... Siz turing, Vasil Vasilich... Bo'lmasa menga noqu-lay. Men roziman. Men, albatta, roziman... Chin so'zim...

Zina jim turgancha stulga o'tirdi va boshini mushti bilan tirab, birdan beparvolik aralash gapirdi:

– Ahmoq! Avval o'ylab olsang bo'lardi!

– Zina! – baqirdi Chemodanov va sakrab turib qo'lini musht qil-gancha Zinaning yoniga yaqinlasha boshladi, Katya qo'rqib ketdi.

Zina esa qilt etmadi, qo'rqmadi, xuddi Chemodanovni ko'rmayotgandek edi, u faqat Katyaga qarardi.

– Baribir ahmoqsan, – takrorladi xirillab. – Sal qaysarlik qilsang bo'lardi.

– Zina! – baqirdi yana Chemodanov, g'azab otiga minib likop-chani oldi va polga uloqtirdi. Zina chilparchin bo'lgan likopchaga qaradi, so'ngra o'zi ham boshqa likopchani olib yerga otdi, likop-cha sachrab ketdi. Xuddi uyqudan uyg'ongandek: ovozi, harakatlari, ko'zlari – hamma narsasi boshqacha edi.

– Mayli! – dedi Katyaga. – Jo'na! Qaytuvchi chipta bo'yicha! Xotin aravadan tushsa otga osonroq bo'larmish!

Mana shunda Katyaning yuragi uvushdi. Ushbu uyqusiz tunlarda o'ylab boshidan kechirganlarini to'kib sochdi.

– Men esa, xolajon... – bu so'zga urg'u berib qaytardi: – Xola-jon... Bundan ham battariga rozi bo'lardim... Faqat uyingizdan chiqib ketsam bo'ldi... – va yuzini qo'llari bilan yopib, yig'lab yubordi.

– Katya! – o'ziga kelib, sakrab turib baqirdi Zina. – Nimalar de-yapsan! Rostini aytyapsanmi? – deya uni bor kuchi bilan bag'riga bosib boshini, qo'llarini silay boshladi. – Men-ku, mayli... Qutu-rib ketdim, men qil ustida turgandim. Sen-chi! Sen mening orqam-dan urushni boshingdan o'tkazding, sen haqiqiy qiyinchiliklarni ko'rmading hisob! Uyda boshingdan o'tkazding urushni! Uyda!

– Yerto'lada! – dedi Chemodanov. U es-hushini yig'ib olgandi, xuddi ko'z yoshi va baqir-chaqirlar bo'lmagandek.

– Nega yerto'lada bo'larkan? – so'radi Zina, birinchi marta unga qayrilib qarab.

– Unda Katyani qayerda saqlading? Yerto'lada emasmi?

– Shunday jazolagandim...

– Aytyapman-ku: jazolagansan! – tezda javob berdi Chemodanov. – Yerto'la bilan... Shunday emasmi?

– Ammo o'zingnikida, – qo'l siltadi Zina va yana Katyaga murojaat qildi: – Qarindoshingnikida... Onangning, Lyusyanning o'limidan keyin kimga ham kerak eding? Balki tog'anggadir? Ayt? Qani?

Chemodanov bir Katyaga, bir Zinaga qarab xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi, ular begonalardek jim turishardi. U qo'llari bilan yuzini yopib olib o'tirgan Katyaning yoniga yaqinlashdi. Uni xuddi otalardek quchoqladi va gapira boshladi, ikkisi ham uni eshitayotganini bilardi.

– Xolangni qara-yu... Katyunya. Unikida qancha o'tirdim deding? – Katya bunday narsani aytmagan va aytishni xayoliga keltirmagan bo'lsa ham. Shunchaki Chemodanov Zinanikiga, Toliknikiga mehmonga kelgan, Katya esa bu vaqtda quloqsizligi uchun yerto'laga qamalga paytlar bo'lgandi. U hammasini ko'rgan, lekin bir og'iz so'z ham aytmagan, hozir esa nima uchundir Katyaga rahmi kelib ranjigandi. – Qancha? Urush davrida? – deya takrorladi. – Men esa Zina bilan yarim soatdan beri o'tiribman-u, sabrim esa tugab bo'ldi! – Va dabdurustdan, Katyadan uzoqlashib va Zinaga barmog'i bilan ko'rsatib, taklif qildi: – Xohlaysanmi, Katyunya, uni qamoqqa tiqaman? Axir biz sen bilan birgamiz, u esa bizga qarshi...

– Meni? – so'radi Zina, yana rangi o'chib: bugun unga nimani xohlasalar, o'shani gapirardilar. – Meni nima uchun?

– Hammasi uchun! – baqirdi Chemodanov xursand bo'lib. – Katkaning azoblari uchun!

Chemodanov derazaning oldiga yaqinlashdi va o'zidan o'zi rangli uchqunchalari bilan yarqirab jilvalanayotgan, shaffof toshli tilla uzugini qo'lidan yechdi. Qayrilmay, dedi:

– Shunday afsona bor... Podsho jallodga to'rtta so'z yozibdi, lekin orasiga vergul qo'ymabdi... – Va shu zahoti, aynan shunday bo'lishini bilgandek, uzugining yaltiroq g'alati toshi bilan dag'al ke-

suvchi tovush chiqarib deraza oynasiga o'sha to'rtta so'zni yozibdi: «O'ldirish mumkin emas kechirish». – Vergul esa bu yerda insonning hayoti bilan barobar edi!

Chemodanov yana Katyaning oldiga yaqinlashdi, uning qo'lini ushladi va uzugini qo'lga tutqazib qattiq qisdi:

– Bu senga, azizam... To'y sovg'asi. Endi esa bor... – U sekingina Katyani turg'izdi va deraza tomonga yengil turtib qo'ydi. – Bor va vergulni qo'y. Xolangning taqdiri sening qo'lingda... Qayeriga qo'ysang, shunday bo'ladi... Tushudingmi?

Katya derazaning oldida turar, Zina bilan Chemodanov esa unga qarashardi. Balki bu bir lahza davom etgandir, balki butun umr, Katya mushtiga siqilgan uzuk bilan derazaning oldida qancha vaqt turganini hech kim bilmaydi.

Xira oynaning orqasida, yirik-yirik va oralari ochiq yozilgan «O'LDIRISH MUMKIN EMAS KECHIRISH» so'zlarining ortida daraxtlar qorayib turar va yoriqdan tushgan shu'lada, ko'karib borayotgan osmonda quyosh uyg'onayotgan edi. Bu vaqtda Katya allaqachon bozorda turgan bo'lardi. Har tong, u jimjit chekka ko'cha bo'ylab vokzal yonidagi ushbu, uyidan-da qadrdon bo'lib qolgan bozorga ishga kabi kelganda – u bu yerda barcha olibsotarlarni va pista sotuvchi hamma kampirnlarni besh qo'lday bilardi – yo'lida g'alati tarzda, shoshqaloq va uyqusiragan, xuddi hech kimni ko'rmayotgan hali o'smir yigitchani uchratardi, u qaynatilgan kartoshka solingan yarim litrlik bankasi bilan ishga ketardi. Ishga ketayotgani aniq edi, u uyquli ko'zlari bilan Katyaga to'qnash kelar va oxirgi lahzada orqaga tashlanishga ulgurar, so'ngra ajablani, nigohi bilan uni kuzatib qolardi. Uning ismi nima, kim u, qayoqqa ketyapti? Ozg'in, uzunchoq iyakli va keksalar hamda ko'pni ko'rgan odamlarnikidek ko'zli yigitcha. Bir yildan beri bir joyda to'qnash kelaverib Katya haqida nimalarni o'ylar ekan? «Salom sizga»... Katya birdan shundoqqina pastda derazaning ostida bozor uchun tayyorlab qo'yilgan olma savatini ko'rdi. Uyg'ongandek, atrofga qaradi, keyin uzukni stolga itqitdi – u to'ppa-to'g'ri Chemodanovning oldiga dumalab bordi – va xonadan yugurib chiqib ketdi. Zina uni quvlab yetib olmoqchi edi, o'rnidan turdi ham, biroq Chemodanov uni yelkasidan ushlab kuch bilan joyiga o'tqizib qo'ydi.

– To‘xta! O‘ziga kelib olsin. U endi bizniki. Sen esa ziyonli mavjudot ekansan-ku, ha... Eh, zararli, men uning o‘rnida bo‘lganimda «o‘ldirish» so‘zidan keyin vergul qo‘ygan bo‘lardim... O‘ldirish, vergul, mumkin emas seni, Zina, kechirish! Mana u sen haqingda nimalarni o‘ylagan. Biroq rahmi keldi! Ahmoqcha!

Shu joyda u javonning oldida turgan sakvoyajini titkilay boshladi va ichidan vino hamda konservalarni oldi. Epchillik bilan shishani ochdi, stolda tayyorlab qo‘yilgan stakanlarga quydi va o‘zining stakanini ko‘tardi.

– Lekin men seni kechiraman. Katyunya uchun kechiraman. Tushungdingmi?

Zina indamadi.

– Yo‘q, xursand emassan, – dedi jiddiy Chemodanov. – Demak, tushunmaysan. Katya hozir seni qamoqdan qutqarib qoldi, mana nima qildi u. – Va deyarli baqirib, buyurdi: – Ol stakanni va yuzingda xursandchilik paydo bo‘lsin! Qani?

Zina nima uchundir oppoq qo‘li bilan stakanni qat‘iyatsiz oldi va past ovozda takrorladi:

– Tabriklayman... Vasil Vasilich...

– Shunday bo‘lsin! Xola! Men endi seni xola deb chaqiraman! Va gap qaytarilmasin! G‘alabamiz uchun ichamiz! Ura!

Chemodanov qattiq baqirgan bo‘lsa kerak, chunki hovlida itlar yana vovullay boshlashdi va u itlarning ovozini eshitib sapchib tushdi-yu oqarib ketdi.

– Hu-u, hayvonlar, – ming‘irladi u, kolbasaning katta bo‘lagini kesib olib, bu kolbasa qandaydir o‘zgacha edi, bundayini bu yerda, qishloqda ko‘rishmagandi. U kolbasa bo‘lagini chaynab orqasidan yangi qadahni ko‘tardi. – Hayvonlar kuni yetganini sezishyapti. Sen, Zina, nima uchun kuni yetgan deb so‘rayapsanmi? – dedi Chemodanov, Zinaning yuziga qarab, uning ovozida zarracha kulgi alomati yo‘q edi. – Shuning uchunki, biz Katya bilan bu yerda yashay boshlaganimizda... Ha, to‘g‘ri, biz shunday qilamiz, biz bu yerda yashaymiz, sen esa pardaning orqasida... Lekin biz seni, Zinochka, xafa qilmaymiz. Sen bizga, Katyunchka ikkimizga xola, ona bo‘lasan... Xotinim bilan ikkimizga...

Zinaning ko‘z o‘ngida Chemodanovning kayfi oshardi, uning ko‘zlari aylana boshladi.



– To'xta, – to'satdan boshini ko'tardi Zina, ichib bo'shatilmagan stakanni qo'ydi. – Kim qoladi? Sen qolasanni? Qaytish chiptasi-chi? Liter-chi?

Chemodanov o'zini ustun qo'ygandek Zinaga qarab, o'ziga quydi va yana ichdi.

– Aqllisan sen, Zinochka! – dedi idrok qilib. – Lekin ahmoqsan! Katya ham sendan aqlli. Sen hammaga ishonganing uchun ham seni bufetda shipirib ketishdi!

– Men hozir sen bilan ishonuvchanman, – eslatdi Zina, biroq unga qarab, javobni kutardi.

– Men bilan ham! Hamma bilan ham! – dedi betakalluf ravishda Chemodanov va yana quya boshladi. Lablariga yaqinlashtirgan edi, biroq uning tushunolmay hayron bo'lib, so'roqlab qarab turgan ko'zlariga yo'liqib, shashtidan qaytdi. – Menga bu yer yoqyapti, Zinochka, senga aysam. Uyingda, tushunyapsanmi... Literlar esa – tuf! Nega ularga yopishib olding! Hozir men... Qara...

U cho'ntagiga qo'lini tiqdi, katta charm hamyonini oldi, ochdi, zich turgan pullar ko'rindi. Ularning orasidan hamma mashaqqatlar bilan ega bo'lgan temiryo'l literlarining ko'k qog'ozchalarini topdi, Zina ularning qiymatini bilardi, ularni Zinaning burni ostiga suqdi, keyin namoyishkorona g'ijimladi va darchadan tashlab yubordi.

Shunda itlar butun ko'chaga baqira boshlashdi. Bu baqiriqlardan Chemodanovning vujudini qaltiroq bosdi. U atrofga nazar tashladi, u ilgari bu uyda bo'lgandi va miltiq qayerga yashirilganini bilardi. Tulada yasalgan, urushdan oldingi markadagi bu miltiqni Zinaning akasi Bukati urushdan avval ovga borgan va bu yerda ikkita singlisi bilan yashagan vaqtlarda qoldirib ketgandi. Chemodanov qaltirayotgan qo'llari bilan miltiqni oldi va ko'chaga tashlandi. Ostonada turib, o'girilib Zinaga baqirdi:

– Jin ursin, otib tashlayman... Jonga tegishdi, gazandalar...

– Ko'chaga uchib chiqdi, biroq miltiqni ushlagancha shu zahoti qaytib keldi, miltiqning stvoli qayrilgandi: o'qni joylashtirish qolgandi, xolos.

– O'qlar! Qani o'qlar? – araqdan qizishgan Chemodanovning yuzida qahr-g'azab aks etgandi. – Zina! Sendan so'rayapman: qani o'qlar? Qani?

– Demak, senga nafaqat Katka, balki uyim ham, itlarim ham... Hammasi sengami? Hammasimi? – dedi sekingina Zina, Chemodanovga ko'zlarini baqraytirib. Zinaga hali nimadir yetib bormagandek

edi. Axir unga uyi yoqqanini aniq-tiniq qilib aytdi-ku... Bu yerda Katya bilan yashashlarini, u esa pardaning ortida bo'lishini... Uni xafa qilmasliklarini... Xola bo'lishini... Uy xizmatchisi bo'lishini ham, busiz bo'lmaydi... Chemodanov uning yuziga qarab yaxshilab tushuntira boshladi, biroq itlar haqida esladi va yana qo'zidi, o'shqirdi, ovozidan idish-tovoqlar jaranglab ketdi:

– Zinka! O'qlar qani deb so'rayapman? Jim turaverasanmi? – unga mushtini ko'rsatdi. – Jim turaver! Ular ham tez orada jimib qolishadi! – U miltiqni siniq «G» shaklida qilib stolga tashladi, shishada qolgan araqni stakaniga quydi, bir simirishda ichib yubordi, shishani esa to'g'ri terrasadan itlar tomonga irg'itdi. Keyin esa etikda katta, baland, och qizil yamalgan adyolli temir karavotga yiqildi va katta ish qilgandek darrov xurрак ota boshladi, bahaybat, kuchli erkak hatoki hozir, uxlayotgan paytida ham Zinaga qo'rqinchli tuyulardi.

Lekin Zina oldingidek yoniga yaqinlashmadi, etigini yechmadi, kamarini bo'shatmadi va bo'ynidagi yoqasining tugmasini yechmadi, balki cheksiz behushlikka o'xshash qandaydir sirli uyqusirash holatida o'tiraverdi.

3

Sahnaga o'zaro bir-biri bilan gaplashganча bir necha kishi chiqdi, ularning orasida Nina Grigoryevna Knyazeva va zavod qo'mitasi kotibi Vostryakovni tanishdi. Yana to'rt kishi bor edi, ikkitasi pogon-siz harbiy kiyimda, shu sababli yig'ilganlar ushbu ikki kishidan qaysi biri gazetada o'tkir maqolani chop etgan o'sha yangi prokuror ekanligini darrov fahmlay olishmadi.

Zal qorong'iligida kimdir cho'zib dedi: «Qara, bitta odamga qarshi nechta tumshuq tish qayraganini! Yeb qo'yishadi!» Oldingi qatorda o'tirganlar eshitib, sekininga kulib qo'yishdi.

Bir necha daqiqa kelganlarning o'zaro maslahatlashib olishiga ketdi. Ular turib, zalga qaramay, xuddi zal yo'qdek, muhokama qilishar, ehtimol joylarni taqsimlashardi. Nihoyat stolga o'tirishdi, Knyazeva esa markazdan joy oldi. Uni urushning boshlanishidan, evakuatsiyaning birinchi kunlaridan tanib olishgandi: dastlab texnik nazorat bo'limi jamoatchisi, keyin sex qo'mitasi, so'ngra esa butun zavod kasaba uyushmasi raisi sifatida bilishardi, shundan so'ng u sirdan yuridik fakultetni tamomlab qishloqda sudya bo'lib oldi.

Knyazeva baland ovozda zalga e'lon qildi: «Turinglar, sud kel-yapti!» Hamma qaytarma stullarini taqillatib itoatkorona o'midan turdi va shunday qattiq o'tirdiki, go'yo qora suv pufaklanib, shirillab toshib qirg'oqdan chekingandek. Birdan zal jimjitlikka cho'mdi. Pa- uza yuzaga keldi, sahnaning yon tomonidan Vedernikovni olib chi- qishdi, uni militsioner olib chiqdi va shu zahoti ketib qoldi. Klubning sariq lampalari nurida ayblanuvchi ko'chadagiga qaraganda yanada kichkinaroq ko'rindi: hovlilarda sanqib yuruvchi, notabiiy ingichka bo'yinli va tor yelkali o'smir. U fabrika-zavod shogirdligi maktabi formasini kiyib olgan bo'lib, bir necha yildan beri undan o'sib ket- magandi: tizzalari ishqalangan qora diagonal shimlar va gimnas- tyorkaga o'xshab beli kamar bilan bog'langan to'q-oqimtir ko'ylak. Vedernikov uning uchun sahnaning burchagiga qo'yilgan stulga o'tirganda temir tugmalari xira yarqiradi.

Knyazeva zal bo'ylab o'tgan shovqin pasayishini kutdi – odamlar ayblanuvchining paydo bo'lganini muhokama qilishardi, ba'zilar uni zavoddan, sexdan bilishardi, lekin ko'pchiligi birinchi marta ko'rib turgandi – va sayyor sud tarkibini o'qiy boshladi, bu shunday ata- lardi. U o'zini sudya emas, rais deb, yonida o'tirgan erkak va ayol- ni esa – erkak pogonsiz harbiy kiyimda edi – xalq maslahatchilari deb e'lon qildi, keyin esa himoyachi va prokurorni tanishtirdi. Shu joyda zalga yig'ilganlar nomi aytilgan prokurorni ko'rish uchun bo'yinlarini cho'zib va hattoki turib baland ovozda pichirlay bosh- lashdi, hamma sahnaning o'ng burchagida pogonsiz harbiy kiyimda o'tirgan va qo'lida papka ushlagan odamga ko'rsatardi.

– Shumi? Kalmi?

– Kal emas! Qanaqasiga kal bo'lsin, uning sochi olingan!

– Alanglayapti, qanday qilib turmaga tiqsam ekan deb o'ylayapti!
Qara, qancha qog'ozga qo'l qo'yganini!

– Diqqat bilan qarayapti!

Prokuror chindan ham kalta sariq sochli, kichkina siyqa joyli ba- land peshanali edi. U qari emas, ko'rinishidan o'ttiz besh yoshlarda bo'lib, ko'zlari chiroyli, o'tkir edi. Yaqinroqda o'tirganlar prokuror- ning ko'zlari porloq, ko'k-moviy rangda ekanligini payqashgandi. Himoyachi esa hammaga hidli, naftalin hidi anquvchidek tuyuldi, u g'ijimlangan kastum kiyib olgandi, xaloyiq uni tilga olmadi ham. Ko'pchilik Kozlov yuvosh va beozor odam ekanligini, ehtimol qish-

loqdagi eng ehtiyotkor inson ekanligini bilardi, u nafaqat jinoyatchilarni, balki biror kor-hol ro'y bersa, o'zini ham jiddiy himoya qila olmasdi. Shuning uchun ham uni ko'pincha murakkab bo'lmagan, aynan hozirgiga o'xshab tekshirilgan, hammasi aniq-ravshan bo'lgan: jinoyat ham, jinoyatchining o'zi ham mavjud bo'lgan ishlarga chaqirishardi.

Oxirida yana Olga Vostryakovani zavod jamoatchiligi vakili sifatida e'lon qilishdi va zalda g'ala-g'ovur ko'tarildi, ko'tarildi-yu yo'qoldi. Olga Vostryakovani a'zolik badallaridagi diqqatvazliklarni hisobga olmaganda turli yig'ilish-mitinglar orqali yaxshi tanishardi. Undan hadiksirashardi, biroq badallar tufayli emas va uyda yoshlar yig'ilgan paytlarda uni chaqirmaslikka harakat qilishardi.

G'ala-g'ovur esa bu sababli yuzaga kelmagandi.

Sahnada turgan ikki ayolni tanigan, tanimagan odamlarga ayollar erkaklardan og'ir kelishi tushunarli bo'ldi, buning ustiga uchinchi – maslahatchi ayol, keksa, indamas bo'lsa ham, sobiq frontchilar ularga bas kela olishmasligi ravshanlashdi. Shunday bo'lsa-da, hozirda, urushda ayollarsiz bo'lmaydi. Ular sudlaydi, ular sudlashadi va bari-bir haq bo'lib chiqishadi!

Knyazeva Vedernikovdan sud tarkibi borasida e'tirozlari bor-yo'qligini so'radi, Vedernikov unga bir nimalar qedi. E'tirozlarim yo'q degan bo'lsa ajab emas. Knyazeva ko'zoynagini taqdi va stoldagi qog'ozlarni olib, o'n olti yoshli, partiyasiz, bo'ydoq, qirq ikkinchi yilda fabrika-zavod shogirdligini bitirgan, yig'ish sexining markazlovchi chilangari Vedernikov Konstantin Sergeyevichga ayblov xulosasini o'qiy boshladi. U Vedernikov 1945-yil 19-aprel kuni ish smenasida ishga kelmay mehnat intizomini buzganligi, bu haqda zavod ma'muriyatidan prokuraturaga tegishli ariza kelib tushgani haqida o'qib eshittirdi. Tergov va guvohlarni so'roq qilish mobaynida barcha faktlar tasdiqlandi va ayblanuvchining o'zi dastlabki tergov vaqtida hech qanday sababsiz smenasiga kelmaganini aytib o'z aybini tan oldi, bu esa sex va butun zavodning ishida uzilishga olib keldi, shu sababli unga 1940-yil 26-iyun, ikkinchi modda, ishga yigirma daqiqadan ortiq kechga qolganlik uchun jinoiy javobgarlik haqidagi Oliy Sovet prezidiumi Farmoni asosida ayblov e'lon qilindi.

Vedernikovning vaziyati fuqaro Gvozdevaning uyidagi fojiali tugagan mushtlashish sababli yanada og'irlashdi. Biroq ayblanuvchi-

ning tilga olingan voqealardagi ishtiroki guvohlar tomonidan shubha ostiga olinmoqda va faqat sud jarayoni vaqtidagina aniqlashtirilishi va isbotlanishi mumkin...

Yig'ilganlar, albatta, mushtlashish haqida, shuncha gap-so'zlar bo'layotgan uy bilan bog'liq boshqa narsalarda bo'lgani kabi, yo'l-yo'lakay, tafsilotlarsiz va har qanday dalillarsiz aytilganiga e'tiborlarini qaratishdi. Sudning aynan buning uchun bu yerga kelmagani kundek ravshan edi va ehtimol yuqoridan qandaydir ishrat-xona ishlariga urg'u bermaslik, balki asosan ishga oid tarbiyaviy va namunaviy misollarga e'tibor qaratish haqida buyruq berilgandir.

Asosiysi esa: Vedernikov zavod obro'-e'tiborini pisand qilmay bekor yurgan va bu haqli ravishda uni axloqsizlik va bezorilikka olib borgan. Axloqiy buzilish – bu endi shunday ataladi. Va bularning barchasi uning zavoddagi do'stlari va sexdagi tanishlari kuchlarini ayamay mehnat qilayotgan va shavkatli mehnatlari bilan dushman ustidan g'alabaga o'z hissalarini qo'shayotgan bir vaqtda.

Knyazeva o'z ayblovini shunday yakunladi.

Yig'ilganlarning birmuncha yumshashi, deyarli beparvoligi sekin-asta eriy boshladi, uning o'rnini bezovtalik va hattoki sudlanuvchiga qarshi nafrat egalladi. Chindan ham, ular ter to'kishdi, ular uxlashmadi, ular oxirgi kuchlarini berishdi, u esa... Ishyoqmas, ablah, sulloh, progulchi, bezori, kallakesar, yig'i-sig'i qilayotgan bo'lsa ham... Tumshug'iga bir tushirsang-da! Boshqalarga yukini ag'darish qanday bo'lishini bilishi uchun yaramasning oyoq-qo'llarini uzib olsang. O'zganing yelkasida, tekintomoq, jannatga kirib olmoqchi bo'ldi! Tirjayishini qara, maraz! Bizning qonimizni ichib, muttaha...

– Sekinroq... Nima degani eshitilmayapti!

– Nima ham deyishi mumkin?

– Baribir, sekinroq! Sekinroq! – deyishdi orqa qatordagilar.

Knyazeva, ayblanuvchidan nimalarnidir so'rab, takrorladi, uning ovozi artistlarnikiga o'xshab jarangli edi:

– Sudlanuvchi, o'zingizni aybdor deb tan olasizmi?

Biroq Knyazeva tashqi ko'rinishidan ko'zlari yovvoyi kiyiknikiga o'xshash chiroyli qiz taygada josusni tutib, so'ng Moskvaga kelib, hamma yoqda tartib o'rnatib, mo'yna kiyimlar do'konidagi har xil tartibsizliklar va patefon plastinkalari fabrikasining o'rtasida ba-

land ovozda yangrovchi musiqa sadolari ostida, orden bilan taqdirlanib, boshqa quvnoq qizlar bilan birga Uzoq Sharqqa nimadir qurish uchun yo'l oluvchi urushdan oldin chiqqan mashhur filmdagi artistkaga o'xshardi.

Knyazevaning fe'li ham anoyilardan emasdi, buni hamma bilardi. Uni bekorga turli jiddiy lavozimlarga tanlashmagan va tayinlashmagan, u tartib o'rnatishni bilardi. U hozir ham shunday so'radiki, vakillarga ham, yangi direktor Zelinskiyga ham, sudlanuvchining o'ziga ham o'z aybini tan olmasligi mumkin emasligi tushunarli edi.

– Marhamat qilib, – so'radi u muloyimlik bilan, o'qituvchilarga o'xshab, – zalga o'giriling va hammaga eshitalishi uchun baland ovozda javob bering! Aybdor ekanligingizni tan olasizmi?

Vedernikov burildi, biroq u zalga emas, polga qarardi.

– Men... Ha... Men tan olaman... – shosha-pisha, biroz adashib dedi u.

– Aybdor ekanligingiznimi?

– Ha, albatta.

– Nimada aybdorsiz?

– Nimada? – so'radi Vedernikov va ko'zini ko'tardi, bu ko'zlarda beparvolik va charchoqdan bo'lak hech narsa aks etmagandi. Balki shunday ko'ringandir, uning ko'ziga chiroq nu'ri tushib, yuzidagi o'ziga xos xususiyatlarni yashirgan holda har qanday ifodani o'chirayotgandir.

– Nimada? – so'radi serg'ayrat Knyazeva.

– Ishlashni... xohlamaganimda, – va u gapini to'g'riladi, – sizda hammasi yozilgan-ku... – U qog'ozni nazarda tutayotgandi.

– Demak, siz ayblov xulosasiga qo'shilasizmi? – qayta so'radi Knyazeva yumshoqroq.

– Qo'shilaman. Men ilgari ham qo'shilgandim, – tushuntirdi Vedernikov.

– Ilgari – tergovdami?

– Ha-da, ular bizni o'sha yerga yig'ishdi-ku...

– Kim ular? Kimni yig'ishdi? – so'radi Knyazeva.

– Zavoddan... Men ishlaydiganlardan... Mana bu ham bor edi... – Va Vedernikov bosh irg'ab prokurorga ko'rsatdi. U qandaydir varaqlarni taxlagancha papkasini titkilardi.

– O'sha tergovchi edi-da, – esiga soldi Knyazeva.

– Ha, – bosh iring'adi Vedernikov. – Xo'sh, ular yig'ilishdi va men- ga nimani va qanday gapirishni tushuntirishdi.

– Kim sizga nimani gapirishni tushuntirdi? – hozirgacha mudrab o'tirgan himoyachi birdan jonlandi. Shunday bo'lsa-da, u buni hay- ron bo'lib so'radi, bor-yo'g'i shu.

– Aybdor ekanligimni va tayyorligimni...

– To'g'ri qilibsan! Ertaroq o'tirsang, ertaroq chiqasan! – baqirdi kimdir sho'xlik bilan.

Biroq Knyazeva zalga jiddiy qaradi va qiqir-qiqirlar o'chdi.

– Demak, sizga aybdor ekanligingizni tushuntirishdimi yoki buni o'zingiz tushunib yetdingizmi? – so'radi u Vedernikovning ohangi- da. – Va o'sha yerga yig'ilganlarning bunga nima aloqasi bor?

Vedernikov sudyaning ovozi yashirin yangragan tahdidan o'zini yo'qotib jim turardi. Uning hozir aytayotgan hamma gapi to'g'ridek edi, boisi uning ishini muhokama qilish uchun sexda odamlarni yig'ishgandi va u yerda uning uchun bu yerdagiga qara- ganda hammasi tushunarliroq edi. Hozir esa bular undan qandaydir tushunarsiz so'zlarni qo'lga kiritishga urinishardi va u mana bu stol atrofidan o'tirgan insonlarga qanday qilib yordam berishni bilmay dovdirar va ta'bi xira bo'lardi. Ularning orasida majlisga kelgan, har- biy kiyimdagi ko'k ko'zli odam ham o'tirgan edi, uni Zelinskiy deb chaqirishardi. Sexda hammasi binoyidek bo'lganini va o'sha odam xabardorligini, eshitganini va hattoki o'zi ham savollar berganining tasdig'i sifatida Vedernikov hozir aynan unga o'zining savolomuz nigohini qaratgandi. Lekin prokuror indamay qog'ozlarni varaqlar, hech narsaga e'tibor bermasdi.

– Sudlanuvchi, javobingizni kutyapman, – so'radi Knyaze- va, ammo uning so'zlari havoda qolib ketdi, zal esa bo'g'iq guldi- rash bilan javob berdi. Bu endi g'azab guldirashi emasdi. Sahnada yuzaga kelgan g'alati chalkashlikka qiziqsinayotgan zal ham tu- shunmay hayron bo'lardi, boisi faraz qilingan narsa ro'y bermayot- gan edi. Aniqrog'i, sahnada hech narsa ro'y bermayotgandi, biroq nimadir ro'y berishi kerak edi. Sudlanuvchi o'zining hamma narsa- ga rozi bo'lishga shayligi va aybiga iqrorligi bilan faqatgina ishning ketishiga xalaqit berardi, to'planganlar ko'rganlarini mana shun- day tushunishdi. Agar u tan olmaganida, yashirganida, hammani chalg'itganida, tuhmat qilganida, ustalik bilan o'zini olib qochgani-

da, sir saqlaganida, tonganida, chalkashtirganida hammasi tushunarli bo'lardi. Shu yerda uni yig'ilganlarga ermak va qiziq bo'lishi uchun fosh qilishardi va uning kimligini va nimaga haqli ekanligini tushuntirib qo'yishardi. Bu galvars esa yordam berishga tayyor, biroq qanday qilib, qaysi kerakli so'zlar bilan yordam berishni bilmaydi. Shu bilan hammasini barbod qilyapti. Jim tursa, sudning ijod qilishiga xalaqit bermasa edi: oxiri baribir ma'lum-ku!

Shu joyda prokuror Zelinskiy o'rnidan turdi va zal oh deb yubordi, hamma uning ovozi eshitishni xohlardi. Bizning inkor qilib bo'lmaydigan haqqoniy adliyamizning ovozi, boisi u qonunning mudramaydigan ko'zi. Odamlar zo'r berib kutishardi: bu-ku hozir aytadiganini aytadi, bu-ku hozir boplaydi, bolaning oldida birdan o'zini yo'qotib qo'ygan va to'tiqushga o'xshab bir narsani qaytarayotgan Knyazevadan farqli ravishda. Aybdor – aybdormas... Aybdor! Aybdor! Sen uni ezma va yo'lga gilam yozma! Aks holda boshqa tomonga yozib yuborasan!

Prokuror zalga, keyin esa sudlanuvchiga qaradi va hammayoq jimib qoldi. Klubning orqasidagi yo'ldan mashina o'tib ketgani va kimdir tashqaridan klubning eshigini qo'riqlab turgan navbatchi bilan tortishayotgani eshitildi.

– Men aniqlik kiritishim kerak, – boshladi prokuror va uning ovozi, uning yumshoq baritoni ancha do'stona, tinchlantiruvchi ohangda yangradi. – Men shunga aniqlik kiritishim kerakki, sudlanuvchi Vedernikov sexdagi guvohlar bilan uchrashuvda ro'y bergan majlis haqida eslatib o'tdi... Protokollar ham bor, – u o'zining shaxsiy papkasini kovladi va bir nechta qog'ozni chiqardi. – Hozir ularni sizga o'qib beraman va hammasi tushunarli bo'ladi.

4

Katta yig'ish sexida bir zamonlar parovozlarni ta'mirlash zavodi joylashgan edi, xilvat joyda, yog'och idora binosida smenadan so'ng Vladimir Pochkaylo brigadasidan ishchilarni yig'ishdi. Vedernikov o'sha brigadada sababsiz ishga kelmaslikdan oldin mehnat qilardi.

Idora binosida shior va e'lonlar, yig'ish va tayyor mahsulotni harbiy boshliqlarga topshirish grafiklari osilib turardi. Shu orada favquodda hodisa bo'yicha oshig'ich telegramma – markazlovchining si-fatsiz ishi sababli sex harbiy mashinalarni yuklash jarayonini kechik-

tirdi. Sobiq ishchi Vedernikov aynan markazlash bilan shug'ullanardi, endi zudlik bilan unga o'rmini bosuvchi ishchi izlanayotgandi.

Och, holdan toygan, jahli chiqqan ishchilarni smenadan so'ng yig'ishdi, hamma ertalabki yettidan kechki yettigacha ishlab uyiga shoshilardi. Xudoga shukur, aprelda ko'cha yorug' va unchalik uyqing kelmaydi. Shunday bo'lsa-da, sexdagi ko'ngilsizliklarning aybdorini ko'rish va nima deyishlarini eshitish uchun hamma keldi: hozirgacha faqat mish-mishlar aylanib yurgandi. Mish-mishlar esa turli-tuman bo'lib, ba'zilariga ishonish ham qiyin edi.

Paraxa qutilarining ustida aylana bo'lib o'tirishdi, rahbariyat uchun esa ustuncha va ikkita kursi qo'yishdi. Olga Vostryakova keldi, u qachonlardir shu sexda ishlagan, u bilan o'zini tuman prokurori o'rtoq Zelinskiy deb tanitgan pogonsiz harbiy kishi ham paydo bo'ldi. Biroz vaqt o'tib sochi olingan va ozib-to'zib ketgan Vedernikovni ham olib kelishdi, uning uchun joy topilmadi va undan hozircha ishchilarning yonida o'tirib turishni so'rashdi. Odamlar unga goh-goh qarab qo'yishib va shivirlashib mamnuniyat bilan surilishdi.

Olga Vostryakova har xil majlislardan farqli ravishda ko'p gapirmadi, balki prokurorni tanishtirdi, u esa ko'pchilik umumiy tarzda bilgan narsalarga: ishga sababsiz kelmaslik va buning oqibatlarini hamda hammaning shu yerga to'planishi boisiga qisqacha to'xtalib o'tdi. Sud esa keyinroq bo'lishi aytildi.

Mahalliy hazilkash Petya Bondarenko – uni ishchilar o'zaro Shveyk deyishardi – darrov o'rtaga suqildi:

– Savol bersam bo'ladimi?

– Qanaqa savol? – gapini cho'rt kesdi Olga. – Bondarenko, o'tir va eshit. Bu senga ham tegishli. Senga va o'rtoqlaringga, chunki sizlar hammangiz sobiq ishchi Vedernikovning qilmishi uchun javobgarsizlar.

– Nimada turgan bo'lsang, o'shanga o'tirib ol, – dedi Shveyk norozi ohangda. Unga joy yetmagandi.

– O'z kayfiyatingni esa keyingi safarga asrab qo'y, tushundingmi? – qo'shib qo'ydi Olga. – Bu yerda teatr emas, majlis ketyapti.

– Nima, endi so'rab ham bo'lmaydimi? – do'stini qo'llab-quvvatladi Pochkaylo, u Bondarenkodan farqli ravishda gavgav va suyagi yo'g'on edi. Fabrika-zavod shogirdligi maktabidayoq unga Silich degan laqab birlashtirilgandi. Uni hozirgacha shunday deb cha-

qirishar, ism-sharifi bilan esa goh-gohida, begonalarning oldida chaqirishardi. – Biz bilmoqchi edik, – qo‘shib qo‘ydi u, Shveykni tirsagi bilan turtib. – Bizni uzoq qiynashadimi?

Shu joyda prokuror, Olgaga og‘zini ochishga bermay, bu yerda hech kimni qiynash niyatlari yo‘qligini, biroq qancha talab qilinsa, shuncha ushlab turishlarini darrov aytdi. Kerak bo‘lsa, boshqa vaqt ham chaqirishadi. Biroq shaxsan u ish sexdagi suhbat bilan yakunlanishini xohlashini qo‘shib qo‘ydi. Keyin, albatta, ba‘zilar sudga guvoh sifatida ham chaqirilishi mumkin ekan.

– Sud qachon? – deb so‘rashdi.

– Vaqti kelganda, – javob berdi prokuror. – Bu, jumladan, sizga ham bog‘liq.

Olga esa shu zahoti ular vaqt haqida qayg‘urishlari emas, qanday qilib o‘z kollektivlarida kasbdoshi jinoyat sari pastlab borayotganini sezishmagani haqida o‘ylashlari lozimligini aytib nasihat qilib oraga tiqildi... Bunga hamma aybdor! Mana shu narsa haqida gapirish kerak!

– Biroq sen shundoq ham bizning o‘rnimizga hammasini aytding, – past ovozda, xuddi ichida aytgandek dedi Shveyk. Olga hammasini eshitgandi, u Shveykka o‘qituvchi o‘yinqaroq o‘quvchiga qaragandek qaradi.

– Bondarenko, – nasihatomuz qo‘shib qo‘ydi u. – Sen o‘zing haqingda hech narsa deyishni xohlamaysanmi? Sen axir Vedernikov bilan ishlagansan-ku? Nahotki hech narsani payqamagan bo‘lsang?

– Payqaganman, – javob berdi u darhol, Olganing ko‘zlariga tikilib.

– Nimani payqagansan?

– Uning ishlashini.

– Bor-yo‘g‘i shumi?

– Yana nima bo‘lsin! Tankning ichiga kirib olib markazlaydi. Qanday markazlashini esa sen texnik nazorat bo‘limidan so‘ra.

– Men ish haqida emas. Axir sizlar o‘zaro gaplashgansizlar-ku... Uy haqida, kayfiyati to‘g‘risida... Balki qizlar haqida ham...

– Axir u uylanmaganmi? – so‘radi prokuror.

– Kim? Vedernikovmi? – hayron bo‘ldi Olga, ishchilar esa hingilab kula boshlashdi.

– Hali voyaga yetmagan-ku!

– Qachon uylanardi? Tanishish uchun vaqt yo‘q bo‘lsa!

– Yo‘qmi? – so‘radi Olga. – Omborda patefonga raqsga tushishchi! Xo‘sh?

– Qanaqa omborda? – qiziqdi prokuror.

– Eski yog‘och uyni qaytadan yasashdi... Smenadan so‘ng yig‘ilishadi, har biri bittadan tarasha opkeladi, pech yoqishadi va tun bo‘yi raqsga tushishadi... Bilmaydi deb o‘ylaganmidinglar? – so‘radi Olga. – Men hammasini bilaman.

– Bu qanaqa sir bo‘lsin? – so‘radi Shveyk. – Kelsang, seni ham raqs tushishga o‘rgatamiz.

– Ana bo‘lmasa! – to‘ng‘illadi Olga. – Qiladigan ishim yo‘qday! Vedernikov ham o‘sha yerga borganmi yoki bormaganmi?

– Vedernikov u yerga bormagan, – dedi Shveyk. U sexdan boshqa hech qayerga bormagan. Bir marta, to‘g‘risi, Moskvaga ZISga va komandirovkaga borib kelgan.

Har qanday noaniqlik ko‘nglini aynituvchi Pochkaylo gapirishni yoqtirmasa ham va buni vaqtini behuda sarflash deb hisoblasa-da, hozir suhbatga suqildi.

– U bizning Lyalkadan boshqa tirik ayolni ham ko‘rmagan... Ya‘ni o‘rtoq Vostryakovadan boshqa. Modomiki Vostryakova o‘rtoq ekan, qanday qilib u, kechirasiz-u, ayol bo‘lsin? – yelkasini qisdi u va o‘tirdi. Ishchilar esa kulib yuborishdi.

– Nima, ayol kishi o‘rtoq bo‘lolmaydimi? – qizarib, jahl qildi Olga.

– Bu tergov emas, maishiy komissiya, – bosh chayqadi prokuror. – Tartib-intizom masalasi sizlarda oqsayotgani durbinsiz ham ko‘rinib turibdi... Frontda sizlar menda bu qadar ko‘p gapirmasdinglar... Yaxshiyamki front ortidasizlar... Va shunday sharoitda sizlarga yana harbiy texnikani ishonib topshirishyapti!

– Sizda ish bo‘yicha e‘tirozlar bormi? – so‘radi Shveyk.

Olga o‘shqirdi:

– Bondarenko!

Biroq prokuror qo‘l harakati bilan Olgadan jim turishni so‘radi va o‘z navbatida Shveykka murojaat qildi:

– Unday bo‘lsa nima uchun sizlarda kechikib qolinganlik haqida oshig‘ich telegramma osilib turibdi? Menga shuni tushuntirolmaysizmi? Pyotr... Pyotr...

– Antonovich, – pichirlab aytishdi.

– Ha, Pyotr Antonovich?

– Nima uchun? – so‘radi Shveyk, noodatiy murojaatdan biroz o‘ng‘aysizlanib. – Bizning markazlovchimizni qamoqqa olishdi, shuning uchun kechikdik. Qo‘yib yuborsalaring, kechikish ham bo‘lmaydi!

– Boshqasini topinglar! Bu qanday taklif bo‘ldi!

Shu payt ishchilar orasida kulgi ko‘tarildi. Hamma nima uchundir Silichga qaradi. U yana bir karra suhbatga kirishishni qanchalik xohlamasin, biroq sexdagi ishdan ko‘ra urush haqida ko‘proq narsani bilgan befahm prokurorga tushuntirib qo‘yish uchun o‘rnidan turdi.

– Faqat qisqaroq, – sekin aytdi Olga va soatiga qaradi.

Biroq Pochkaylo qo‘l siltadi.

– Sen, Lyalka, jim tur. Bu ishda sen hech narsani tushunmaysan.

– Ana xolos, – xafa bo‘ldi Olga va yelkasini siltadi.

Ammo prokuror kutilmaganda kulib qo‘ydi, ko‘zlari chaqnab ketdi:

– Nega qisqa, men sizlarni eshitish uchun keldim. Marhamat qilsinlar, hammasini ayting, tortinmang! Marhamat!

Prokuror cho‘ntagidan o‘sha vaqtlar uchun kamyob bo‘lgan oltin peroli avtoruchkani chiqardi, hamma avtoruchkaga tikilib qoldi va tezlik bilan qog‘ozga yoza boshladi.

Beshinchi sonli yig‘ish sexi brigadiri Pochkaylo Vladimir Nikanorovichning guvohlik ko‘rsatmasi.

«Men Vedernikovni fabrika-zavod shogirdligi maktabida uchratganman, biroq biz tanish emasdik. Men bir yil oldin tamomlaganman va u qirq ikkinchi yilning fevralida seximizga Bondarenko, Vostryakova, Vasilyev va boshqalar bilan birga kelgan vaqtda men Busiginning brigadasida T-60 ni yig‘ishda ishlaganman, keyinroq esa biz og‘irroq T-70 va SU-76 o‘ziyurar tanklariga o‘tkazilganmiz. Beshinchi sex sborkasining boshqa zanjirini esa hozir shifoxonada yotgan endigi usta Bukati boshqargan. Vedernikovni va boshqa fabqyonlarni – biz ularni shunday ataymiz – Bukatiga jo‘natishdi, biroq u ularni o‘ziga olishni xohlamadi va Kostya Vedernikovni ham rad qildi. Bukati shunday degandi: «Nima, men enagamanmi, bu bo-

lalar bog'chasi bilan imirsilashga, ularning burnini artib yurishga». Bu Vedernikov tushlikka talonini yo'qotib qo'ygan voqeadan so'ng bo'lgan, bu talonga bizga zavaruxa berishgan. uni yana zatiruxa deyishadi: o'simlik moyi va piyoz qo'shilgan unli yovg'on sho'rva. Vedernikov talonini yo'qotib qo'yganida yig'lab yuborgandi, bu voqeani hamma eslaydi. Shunda sexda hamma bunday bolani ishga olishning nima keragi bor, agar u ish quroli tugul oddiy qoshiqni ham qo'lida ushlab turolmasa, deyishgandi. Shunda ularni dastlab brusdan yonimizdagi o'n birinchi sexni qurishga jo'natishdi, uning ostida shundoqqina yerda dastgohlar turardi va ularda Kolomnadan evakuatsiya qilinganlar ishlashardi. Devorlarni esa biz keyinroq yasadik. Ammo ularning hammasi bizning beshinchi sexda ro'yxatda turar va o'zimizda ahvol chatoq bo'lsa ham biznikiga isinish uchun kelishardi.

Hamma ayozda, ko'chadan oq qirov qoplagan tankni olib kirgan holatni yaxshi eslaydi, o'shanda tashqarida qirq darajadan sovuq edi, hali tajribasiz bo'lgan Vedernikov esa qo'li bilan zirhni ushlab unga terisi bilan yopishib qolgan, terisining bir bo'laki zirhda qolib ketgandi. Qo'lidan qon quyilib oqa boshladi, u oqarib ketdi, lekin miq etmadi. Sobiq usta bo'lgan Bukati uni tibbiy xonaga kuzatib qo'ygan, qaytib kelganida esa yarasining ochiq go'shtini bint bilan bog'lashganida churq etmaganini, shu sababli unga o'rgatib, bunday bardosh bilan markazlashga qo'yish kerakligini aytdi. U yerda ham kuchli sabr-bardoshga ega bo'lish kerak, bu fabquyonning esa – u Vedernikovni shunday degan edi – zo'r irodasi ko'rinib turibdi. Brigadada xuddi shu payt markazlovchi Sinitsin ko'ngilli ravishda frontga ketgandi, biz bir yil o'tib uning nomiga qoraxat olgandik. U, o'sha Sinitsin, ishchi bo'lsa ham, skripka chalgan va markazlash uchun barmoqlarning o'ziga xos sezgirligi talab qilinadi deb aytgan. Mana markazlash nima degani. Skripkamdagidan ham sezgirroq, degan. U bo'lsa biladi. Sinitsin nomiga qoraxat kelganda hammamiz unga achinganmiz, Kostya Vedernikov bo'lsa bu vaqtga kelib uning o'rnini egallab bo'lgandi, Bukati esa: «Sen endi bizda bitta qolding, almash tirib bo'lmaydigan. Kerak bo'lsa biz Silichni ham – meni fabrikazavod shogirdligi maktabi vaqtidan shunday atashardi, yana Bosqon ham deyishardi, men ko'p bosqon ishlatishni yaxshi ko'rganman-da – demak, biz Silichni. – deydi – ichiga kirib markazlashga majburlay-

miz», degandi. Biroq u hazillashgandi, chunki markazlash tankning ichida amalga oshiriladi va hattoki hammamizdan kichkina bo'lgan Kostyaning ham uning ichiga kirish uchun uch bukilishiga to'g'ri kelgan. Harbiy rahbar ehtimol hammaning ishini bir onda tekshirmas, g'altakmola, har xil o'ratmalarni, lekin markazlagichni albat ta ko'zdan kechiradi. Bizda shunday shior bor: «Birinci martada-yoq topshirish!» Brigadir sifatida tasdiqlashim mumkinki, Vedernikov ishlayotgan uch yil-u ikki oyi davomida birorta nuqsonga yo'l qo'ymagan. U hattoki haddan tashqari tirishqoq, hamma tushlikka ketadi, unda esa nimadir chiqmaydi, u tankning ichida o'tiraveradi, biz esa unga yovg'on sho'rva olib kelib beramiz. Yoki ishdan so'ng kuymalanib uxlab qoladi. Uyg'onganda esa yuzi, kechirasizlar-u, pechkada pishirilgan olmadek bo'lib qolgan. U shunday ishlagan va shu sababli uni eng ilg'or ishchi sifatida Hurmat taxtasiga osishgan va gazetalarda ilg'or xodim ekanligini yozishgan, Moskvaga ham jo'natishgan, biroq u bilan tanishganimizda bo'yi sababli hech kim uni jiddiy qabul qilmagan. U hech qachon ishga kech kelmagan, uning butun smenaga kelmasligi tugul bir daqiqaga qayerdadir ushlanib qolishini tasavvur qilish qiyin. Agar menga oldin aytishganida men ishonmagan bo'lardim. Ba'zilar unga Vasilyev ta'sir o'tkazgan deyishadi. Biroq men bunga ham ishonmayman, garchi ular o'zaro do'st bo'lgan bo'lishsa ham.

Ko'rsatmalarim mening so'zlarimdan o'qib berildi va ularga qo'shilaman. V.Pochkaylo. 1945-yil 19-aprel».

«Markazlashtirish va uning qanday qilinishi borasida aniqlik. Tankka motor o'rnatiladi – bu, aytgancha, mening ishim – va friksion quti qo'yiladi, ularning vallari shunday birlashtiriladiki, shchup orasidagi tirqish yuzdan besh millimetrdan oshmasligi kerak. Bu xuddi inson sochining tolasidek gap, undan qalin emas. Agar xato sodir bo'lsa tebranish, vibratsiya va tortuvchi kuchning uzilishi ro'y beradi. Urushda bunday nuqson harbiy texnikani eng qiyin daqiqada ishdan chiqarishi mumkin. Lekin urush qatnashchilari mamnun bo'ldilar va hattoki bir general kelib, bizni va shaxsan Vedernikovni ishi uchun maqtab ketdi, shunday bo'lsa-da bir noxush hodisa sodir bo'ldi, lekin bu haqda gapirishni xohlamayman, chunki uning ishga aloqasi yo'q.

Hozir shifoxonada bo'lgan Bukatiga kelsak, uning ishchilarga munosabati yaxshi, u keyinroq nuqson uchun haydab yuborgan Vasilyev ham rul tyagasini birlashtirishda ishlagan va biz uning intizomi muhokama qilinganda yig'ilganmiz. Biroq bizda Bukati bilan hech qanaqa ixtilof bo'lmagan va men Vedernikovning u bilan janjallashganini eshitmaganman. Garchi Bukati juda ham talabchan usta bo'lsa ham. Biroq Vedernikov hech qachon hech kim bilan bahslashmagan va umuman, kamgap inson bo'lgan. Vasilyev va Vedernikovning do'stligi borasida esa hech narsa deyolmayman. Ular, nazarimda, fabrika-zavod shogirdligi maktabida birga o'qigan bo'lsalar-da, har xil insonlar. Aniqlashtirish bilan tanishdim va mening so'zlarimdan yozib olinganiga qo'shilaman, faqat «uzilish» so'zini «tyaganing sinishi uchun ko'chishi»ga o'zgartirish kerak, shunda to'g'riroq bo'ladi. V. Pochkaylo. 1945-yil 15-aprel».

5

Mana uch kunki, beshinchi sexdagi ish izdan chiqqandi, odamlar u yoqdan bu yoqqa yurar, qo'mita raisi-yu sex boshlig'i Vaksheldan tortib hamma rahbarlar brigadani, brigadarni, ustani hadeb koyiyverardi, biroq o'zlarini xo'jayindek tutib sexga burnini suqaveruvchi va hamma ishga aralashuvchi harbiy boshliqlar bu borada jonbozlik ko'rsatardi. Shubhasiz, ularning ham boshini silashmagan, Moskvadan xalq komissarligidan qo'ng'iroqlar tobora tahdidli yangrar, texnika esa kechikar va eshelonni yuklash sekin ketardi. Noodatiy sekin. Bukati, albatta, jinnilik qilar, bu yerda esa tajribali, namunali ishchi Vedernikov kechagi smenada nimanidir xayol surib, himoyalangan ko'zlari bilan payvandlash avtomatidan taralayotgan bengal alangasi uchquniga qarab turganini sezmagani. Kechasi bilan ko'zlari qizarib, yoshlandi, qovoqlari ishib ketdi, u bulletin olishi kerak edi, lekin hamma uzluksiz tezlatishdan aqldan ozgan bo'lsa qanday bulletin haqida gap bo'lishi mumkin. Vedernikovni qutqarib turgan yagona narsa: uning markazlagichida ko'zlardan ko'ra ko'proq qo'llar kerak edi. Biroq, afsuski, ko'zlar ham kerak edi. Buning ustiga Tolik Vasilyev bilan ko'ngilsizliklar ham qo'shildi, fabrika-zavod shogirdligi maktabida uni Vasilyok deb chaqirishardi, xuddi shunday Petyani – Shveyk, Olgani – Gavroshik, Kostyani esa – shunchaki Kostik deb atashardi. Unga nima uchundir laqablar hech ham yopishmasdi.

Biroq bunday poyga ketayotganda, ko'pchilik o'zining ismini ham unutgan bunday vaqtda u nimalar haqida xayol surib qolishi mumkin edi! Chig'anoq bo'lib buralib navbatdagi mashinaning temir tubida o'tirgan bo'lsa kerak. Bir kun o'tirgan, ikki kun, hafta, yil, ikki yil, uchinchi yil ham... Qandaydir ish sabab sakrab chiqqan, ammo u shu yerda sexda, tankning tubida butun umrga ro'yxatga olingan va uning ichidan chiqishga ehtiyoji yo'qdek tuyulishi mumkin edi: topshir-u boshqasiga o't va yana topshir... Midiya kosasini shunday o'zgartiradi, usiz midiya na chig'anoq, na hech nima... Hattoki tanasini Kostik shilliqqurt kabi ichkariga tiqardi, boshi bilan emas, oyoqlari bilan kirardi, shunday kirish osonroq edi unga.

Qo'shni sexdan chopib o'tayotgandi va birdan qotib qoldi: boshi va oxiri yo'q, faqat motor va sovuq-silliq valli friksionlardan iborat g'alati dunyoning qoq o'rtasida daf'atan sehrlı favvora kabi uchqun shu'lası ko'zga tashlandi! Qizig'i, olovli, oqim bo'lib uchayotgan uchqunlarga qarab, Kostya issiqlik va ehtimol hozir ko'chada chaqnab turgan quyosh haqida o'ylamasdi! Yo'q, Kostya quyosh yoki o'tmish haqida o'yga tolmasdi, agar o'ylab ko'rilsa, uning o'tmishi ham yo'q edi. Uning o'tmishi, xuddi hoziri va kelajagi singari o'sha temir tank edi! U bir vaqtlar «O'rkachli ot» ertagini o'qiganini esladi, u yerda dalaga uchib keluvchi sehrlı qush bor edi... Payvandlovchi – uning faqat qora sharpasi ko'rinardi – go'yo qo'lida o'sha qushni ushlab turgandek edi, u payvandlovchiga va atrofdagi hamma narsaga lovullagan patlarini sochgan holda talpinardi...

Keyin esa o'sha ko'zdgı sanchiq va besabab ko'z yoshlar boshlandi.

Kunning oxiriga borib Silich, ya'ni Pochkaylo asboblarini jaranglatib temir polga qo'ydi va ishni tugatganini ko'rsatib o'rnidan turdi. Shoshilmay faqat raqamlar bo'lgan topshirish jadvaliga yaqinlashdi va bir parcha bo'rni qarsillatib yuz raqamini yozib qo'ydi. Bu ish yuz foiz bajarilganini bildirardi. Shu vaqt tomdan tarasha tushganday Bukati paydo bo'ldi. U xuddi ishning tugashi ko'rinadigan lahzani kutib turgandek edi. Ammo hammasi oxirigacha qilinmagandi, mayda-chuyda narsalar qolgandi va hammasi tankning ichini chuqulayotgan va tashqariga chiqmayotgan Vedernikov sababli. Biroq Kostik og'rikan ko'zlari bilan ham ishni uzoqqa cho'zmaydi, unday odam emas Kostya.

– Ishlar qalay, pahlavonlar? – so‘radi Bukati va uning ohangida hech qanaqa yaxshilik alomati sezilmasdi.

– Pahlavonlamikidek, – hamma uchun javob berdi Petya-Shveyk. Bukati achchiqlanayotgani va hazillashish niyati yo‘qligini sezib. – Nima bo‘ldi o‘zi, Ilya Ivanich?

– Hozir bilib olasan, – va‘da berdi g‘azab bilan usta. U Silich yozgan raqamga ko‘z tashladi. – Charchadim deysanmi? Hechqisi yo‘q. Urushdan keyin dam olasan. – Ammo Sheyk charchash haqida og‘iz ochmagandi. – Biz hozir kichkina majlis o‘tkazamiz... Nima deysizlar?

– Kichkina bo‘lsa, mayli. – istar-istamay javob berdi Silich, qo‘lidagi bo‘rning oqini artib. Majlis haqidagi ma‘lumot, umuman olganda, brigadir sifatida aynan unga tegishli edi. U esa gap nima haqida ketishini bilardi.

– Besh daqiqa, – so‘z berdi Bukati va shu yerda turgan Vasilyokka birinchi marta qarab qo‘ydi. – Vasilyev, sen ketma, sen kerak bo‘lasan. Vostryakova ko‘rinmadimi? Hozir borib kelaman... – Bukati ketdi, hamma kutish uchun qoldi.

– Eh, – dedi Shveyk cho‘zilib. – Menga esa Tonechka kerak! Azizam mensiz nima qilyapti ekan!

– Lyudochka? – qayta so‘radi Silich, chunki Shveyk yaqindagina Lyudochka ismli qandaydir go‘zal bilan tanishganini aytib maqtan-ganini esidan chiqarmagandi.


– Lyudochka? – taajjublandi Shveyk. – Qanaqadir Lyudochka-ning bunga nima dahli bor?

– O‘zing aytganding-ku?

– Men? Ha... Bu axir qachon bo‘lgan! – esladi u, xuddi suhbat o‘tgan haftada bo‘lib o‘tmagandek. – Yo‘q, Silich... Tonechka, faqat u! Yagona, betakror, abadiy... Darvoqe, daryoning narigi tomonidagi gugurt fabrikasida ishlaydi, uchrashuvga muzning ustida sirpanib ke-ladi va soqchidek kutadi meni!

Tolik Vasilyok hingillab kulib yubordi va o‘girildi. U Shveykning hamma safsatasini bilardi va unga ishonmasdi. Hazil-mutoyibadan bexabar bo‘lgan Silich esa Petyaning uydirmalarini eshitib soddalarcha bosh irg‘ardi.

– Lekin to‘xta-chi, – qayta so‘rardi u. – Qanday qilib daryodagi muzning ustidan, daryo hademay oqa boshlaydi-ku?



– Shunga xavotir olaman-da, – va suhbatni tugatish uchun Shveyk kalitni ko'tarib, zirgga urib taqillatdi. – Vedernikov, tunashni bas qil! Tonechka kutyapti!

Minoraning qopqoqli tuynugidan Vedernikov boshini chiqardi, uning ko'rinishi yaxshi emasdi. Ichida o'tirgani ham yaxshi, hech kim uni ko'rmaydi. Rahbariyat bilib qolsa shu zahoti haydab yuborgan bo'lardi: ko'zlari dengiz qaroqchilarinikiga o'xshab qiyamasi-ga dastro'mol bilan bog'langan va qizil qovoqlari jinnikiga o'xshab sho'lpillayapti. Ajoyib! «Tachka»dan chiqmasa bo'lgani.

Ishchilar ushbu haybatli texnikani o'zaro «tachka» deb nomlab olganlariga ancha bo'lgan: qisqa va tushunarli, bordi-yu tasodifan odamlarning oldida aytib yuborsang – siringni fosh qilmaysan. Qaysi tachka haqida gap ketayotganini qaydan bilishsin!

– Vedernikov! – chaqirdi yana paydo bo'lgan Bukati: u yaqinla-shib, ma'qullamay bosh chayqab bog'ichni ko'zdan kechirardi. – Ohi, tit-piting chiqibdi-ku! Sen tezroq tugata olasanmi? Gap bor...

– Harakat qilyapman, Ilya Ivanich, – xo'rsinib javob berdi Kostik va qulog'iga tushib ketgan bog'ichni to'g'rilab qo'ydi. U ko'ziga nur tushmasligi uchun ko'zlarini yashirdi.

– Ha, mayli, – ruxsat berdi Bukati, xuddi po'ng'illab so'kkanday. – O'tiraver, deymen. Ovoz berishni boshlaganimizda chaqirarmiz. – U tankka barmog'ini sanchdi va Olga Vostryakova-ni ko'rib nari ketdi. Kostya tankning ichiga kirib ketdi. Boshqa ish-chilarni chaqirishdi. Ishchilar, hammasi bo'lmasa-da, kelishdi, usta-ning atrofida to'planishdi, hech kim o'tirishni xohlamasdi, o'tirsang, Xudo ko'rsatmasin majlis ertalabgacha cho'zilib ketadi. Odamlar esa toliqishgandi, ko'rinishlaridan bilinib turardi. Uyquli ko'zlar, so'lg'in harakatlar.

Bo'zargan yuzlarda kichik hayajon, buning sababi hademay uyga ketishadi. Majlis uzoq davom etadi deyishganda o'tirgan bo'lishardi va boshqa turishmasdi, kuchlari yetmasdi bunga.

Bukati bularning hammasini tushunardi va ohangini yumshat-masdi, ularni faqat shunday, qattiq ushlab turish mumkinligini bi-lardi.

– Qolganlar qani? – so'radi u, yig'ilganlarga ho'mrayib qarab.

Ba'zi ishchilar me'yoriga yetkazishayotganini, chilangar Yelkinda jarohat borligini va Vedernikov yo'qligini aytishdi.

– Vedernikov joyida, – dedi Bukati. U ko‘zlari bilan qolganlarning orasida turgan Vasilyevni izlab topdi va yo‘talib qo‘ydi. – Demak, o‘rtoqlar, vaqtimiz chindan ham kam, bu yerda esa mana bu o‘rtoqni deb majlis qilishga to‘g‘ri kelyapti. – Shu joyda u Vasilyevga qaradi va u tomonga bosh irg‘itib ko‘rsatdi.

– Ot cho‘chqaga do‘st bo‘lmaydi, – hamma uchun gapirdi Silich. U Tolik Vasilyokni yoqtirmasdi va buni yashirmasdi ham. Ayniqsa, hozir, Tolikning brigadada bo‘lish masalasi ko‘tarilgandan so‘ng.

– Men cho‘chqa emasman, – e‘tiroz bildirdi Tolik xotirjam. – Haqorat qilmasligingizni so‘rayman, bo‘lmasa ketib qolaman.

– Balki o‘zingni ot deb o‘ylarsan? – so‘radi Shveyk istehzoli kulib.

– Ketaver, – dedi Silich. – Hech kim seni ushlab turgani yo‘q. Sen, aytgancha, cho‘chqadan ham battarsan.

– Pochkaylo, haqorat qilinmasin, – dedi jiddiy ohangda Olga. – Bizda majlis, gapning nafsilamrini aytish kerak.

– Sen ayt-da, – po‘ng‘illadi Silich va o‘girilib oldi. Bukati esa bosh silkidi, to‘g‘ri, ishchilar nimani o‘ylayotgan bo‘lsalar, aytaverishsin, degandek.

– Xo‘sh, Ilya Ivanich, – Olga hammaga emas, faqat ustaga murojaat qilardi va u tomonga yuzini burib gapirardi. – Men unga ta‘sir qilishga harakat qilganimni bilasiz... U axir qobiliyatli odam, u yaxshi chizadi va hamma uning stendni qanday bezatganini ko‘rgan.

– Buning uchun unga tushlikka talon berilganini ham ko‘rganmiz! – dedi kimdir. – Biz esa o‘sha talon uchun butun smena ter to‘kamiz!

– Aldayapsan! – o‘girildi gapirayotgan odam tomonga Silich. – Sen talon uchun emas, sen vijdon uchun ter to‘kyapsan. Va bu bilan undan ajralib turasan! U esa nafaqat plakatlarni, u talonchalarni ham chizadi. Buni hamma ko‘rgan.

– Kim? – so‘radi Bukati.

– Kim bilan tushlik qilgan bo‘lsa, o‘shalar. U olti donasini chizdi va oltita porsiya oldi, hech kim, hattoki ovqat uzatib turuvchi ham sezmadim buni!

– Xa! Sezmadimish! – dedi Shveyk. – Tushliksiz qolib ketganlar hammi? Ular, seningcha, sezishmadimi?

– Bo‘lmag‘ur gap, – yelkasini qisdi Tolik. – Menda hammasi bo‘lib oltita emas, uchta talon bor edi.

– Nima bo'пти, Tolik! – baqirib yubordi Olga. – Nahotki bu hujjatlarni soxtalashtirish ekanligini tushunmasang! Buning uchun sudlashadi-ku! Buni tushunyapsanmi?

– Isbotlab ko'rishsin-chi!

– Axir odamlar ko'rgan-ku?

– Kim ko'rgan? Silichmi?

– O'zing ham tan olib turibsan-ku...

– Hech narsani tan olmayapman. Menda uchta talon bor edi deyapman. Qayerdan olganim esa mening shaxsiy ishim. Sizlarda isbot yo'q.

– Menda esa Murkamning qorni och, men bo'lsam unga nimanidir isbotlashim kerakmi, – darg'azablik bilan dedi Silich. – Uni haydash va shu bilan quruq gapbozlikni yig'ishtirish kerak!

– Pochkaylo, mushugingizning bu ishga nima aloqasi bor? – so'radi Olga. – Biz axir Vasilyevni muhokama qilyapmiz-ku!

Hamma Silichga qaradi. U istar-istamay Murka mushuk emas, balki o'zi sotib olgan echki ekanligini, qo'lida uchta bolasi borligini, o'zidan boshqa sog'adigan odam yo'qligini aytdi.

– Ha, Silich! – hayqirdi Petya-Shveyk. – Bolalaring kurtaklanish bilan ko'payishganmi?

– Bondarenko, – dedi Olga qo'lining qattiq joyi bilan zirhni taqilatib. – Jinnilik qilishni to'xtating. Sizning biror a'niq gapingiz bormi?

Shveyk yelkasini qisdi. Shu vaqt Vedernikov bog'langan boshini minoradan chiqarib, ko'r-ko'rona atrofga qarab: «Chaqirdinglarmi?» dedi.

Brigadadagilar kulib yuborishdi, keskinlik yumshadi.

Bukati qo'l siltadi: «O'tiraver, chaqiramiz!» Va Kostik yana g'oyib bo'ldi.

– Ana, – dedi Bukati tankka ko'rsatib, lekin Kostyani nazarda tutib. – U hali ham ishlayapti, biz esa bir joyda qotib qolganmiz. Bu narsa esa, hamma biladi, u, ya'ni Vasilyev bilan birinchi marta sodir bo'lishi emas. Olga, – so'radi u. – Vasilyev sendan spirt olganmidi?

– Olgandi, – Olga xijolat tortdi, – u bo'yoq uchun olgandi...

– Mendan ham olgandi, – dedi Bukati. – Bo'yoqqa.

Tolik Olgaga dushmanona qaradi va chakkasining oldida barmog'ini aylantirdi:

– Seni kim tilingdan tortdi! Jin-ni!

– Hap, Tolik... – boshqalarni unutib, xitob qildi Olga, hayotida nimadir vayron bo‘la boshlaganini sezib. Ya‘ni, ehtimol oldinroq vayron bo‘la boshlagandir, aniq oldinroq, Tolik qishloqning chekka-sidagi qandaydir notanish Zinaidanikiga tez-tez boradigan bo‘lib qolganidan so‘ng buzila boshlagandi, lekin Olga dastavval buni jiddiy qabul qilmagandi. Buning ustiga Tolik u yoqlarga faqat ish yuzasidan qatnayotganini aytgandi. Biroq tunda qanaqa ish bo‘lishi mumkin... Ahmoq edi Olga, ahmoq va ko‘r, haqiqatni ko‘rishni istamay ko‘zlarini ataylab yopardi. Bu qiziqish tez orada o‘tib ketadi deb ovtardi, u, Olga esa o‘z sevgisi bilan har doim joyida...

Brigadadagilar ehtimol bu narsalarni payqashgandir, balki bu narsalar haqida bilishgandir ham, har holda shoshilinch janjal-suron hech kimni hayron qoldirmay o‘tib ketdi. Faqatgina Bukati, yo‘talib qo‘yib, Olga tomonga qaramay, so‘radi:

– Olga Viktorovna, shaxsiy tuyg‘ularni ichingizda saqlab turishingizni so‘rayman... Siz bu yerda qo‘mitadan vakilsiz.

– Men axir chindan ham aybdormasman-ku! – noilojlik bilan dedi u. – U meni aldayotganini bilmagandim-ku!

– Ilon, – dedi Tolik boshini chayqab, xuddi ichida aytgandek, biroq hammaga eshittirib. – Endi kelib ko‘r-chi...

– Ilon degani uchun tumshug‘iga tushirish mumkin, – dedi Silich gurziday mushtini ko‘rsatib.

Bukati xotirjam munosabat bildirdi:

– Qo‘l ko‘tarishlarsiz. Bizga shu yetmay turuvdi. Bizning o‘z kollektiv choralarimiz bor va ular, umid qilamanki, foydaliroq... Shunday! Vasilyev o‘zini shunday tutyaptiki, xuddi u bizning oldimizda emas, biz uning oldida aybdordek. Haydash bo‘lsa haydash! Olga Viktorovna, iltimos, ovoz bersangiz!

– Ovoz beramiz, – dedi lanjlik bilan Olga. – Ammo, balki boshqa takliflar bordir? – so‘radi u achinarli bir holda.

– Qanaqa boshqa?

– Bilmayman.

– Siz boshqa narsani taklif qilmoqchimisiz? – so‘radi dangal Bukati.

– Yo‘q. Shunday bo‘lsa ham...

– Unday bo‘lsa ovoz bering. Vaqtни boy bermaymiz.

Vasilyevni brigadadan haydash yuzasidan ovoz bera boshlashdi va hamma qo'lini ko'tardi. Biroq Shveyk shu vaqtda Vedernikov haqida esladi. Zirhni urib taqillatishdi. Yana taqillatishdi. Mabodo uxlab qolmadimikin, o'lguday charchaganingda shunday holatlar ham bo'lib turadi: hushsizlik kabi qutqarish uyqusi, bir necha daqiqaga.

– Tunashni bas qil! – baqirdi Petya va kalit bilan po'lat korpusni bir necha bor qattiq taqillatdi, kalitning ostidan uchqunlar ko'rinib ketdi. – Shunaqa latifa bor...

Kostya hammaning kulgisiga sabab bo'lgan holda o'zining qaroqchilamikidek bog'lami bilan boshini chiqardi.

– Nima? – so'radi u beo'xshov alanglab. – Menda tayyor. Rost.

– Men deyman, shunaqa latifa bor, – qichqirdi Shveyk Kostyaga. – Qishloqdan bir bolakay hunar o'rganishga kelibdi, uni navbatchi qilib qo'yishibdi. Ertalab soat oltidan «uyg'on» deb baqirishi kerak, u esa bu so'zni esidan chiqarib: «Tunashni bas qil!» dermish. Hech kim, turgan gapki, turmasmish!

– Ha, Shveyk, bopladings! – birdan xaxolab kula boshladi Tolik Vasilyok va shunday qadrdon, ko'k ko'z, ojiz bo'lib ketdiki, unga qarash ham noqulay edi. – Tunashni bas qil, shundaymi?

Ammo Shveyk kulishni bas qildi va dedi:

– Men seni emas, men uni, Vedernikovni kuldirmoqchi edim!

– Yana ovoz bering. – buyurdi Bukati Olgaga.

Olga yana qo'llarni sanay boshladi va Vedernikovga kelganda to'xtab qoldi, u minoradan qandaydir ahmoqona tarzda bosh chiqarib turar, atrofda nimalar bo'layotganidan bexabardek alanglar, biroq qo'lini ko'tarmasdi.

– Kostik, sen-chi? – so'radi Olga.

– Nima men?

– Sen nega ovoz bermayapsan? Sen tushunmadingmi? Biz Vasilyevni brigadadan chiqarib yubormoqchimiz.

– Nega? – so'radi Kostik, bog'ichini to'g'rilab. – Tushundim.

– Xo'sh?

– Hech nima.

– Sen ovoz berishni xohlamaysanmi?

– Nega? – yana qaytardi Kostik o'zining ahmoqona savolini.

– Nega unda qo'lingni ko'tarmayapsan?

– Bilmasam. Xohlamayman.

– Demak, xohlamaysan? Hamma biladi, xohlaydi, u esa xohlamaydi. – Olga o'zini nazarda tutgan bo'lsa kerak. U Bukatiga qaradi, lekin Bukati indamay turardi. Kostya ham jim turardi, u yo ishlayverib tentaklashib qolgan, yoki jinnilik qilyapti. Biroq buni Shveykdan kutsa bo'ladi, Kostik esa yuvosh, har doim gapga kiradigan bola bo'lgan.

– Aytgancha, sen uchrashayotgan qiz kim edi? – kutilmaganda es-ladi Olga. Shveyk hazillashgan vaqtda qulog'ining cheti bilan nima-nidir eshitib qolgan bo'lsa kerak, balki Tolik gullab qo'ygandir.

– Bilmayman, – dedi Kostik, birdan o'zini yo'qotib. – Men uni yo'lda ko'raman. U menga: «Salom sizga» deydi.

– Har qayerda uchrashish mumkin, – jahl bilan dedi Olga. – Aso-siysi, kim bilanligini bilish kerak... Sening tanishing esa, darvoqe, olmalar bilan olibsotarlik qiladi. Mehnatkashlar hisobiga boqilgan...

– Men u bilan gaplashmaganman-ku, – dedi Kostik aybdorlardek.

– Gaplashish kerak edi! Hammasini so'rash... Demak, ovoz bera-mizmi? Hami yoki yo'q? Yana bir marta o'ylab ko'r, Kostik...

– Nimasini o'ylayman? – hayron bo'ldi u. – Men aytdim-ku...

– Guvoh Pochkaylo, – so'radi Knyazeva. – Siz Vedernikov ovoz bermaganini aniq eslaysizmi?

– Hamma eslaydi, – dedi Silich.

– Va siz u bu daqiqadan boshlab o'zgardi deb hisoblaysizmi?

– Bilmayman, lekin u hech qachon bunday qilmagan.

– Qanday qilgan?

– Hammaga o'xshab, – dedi Silich va zalga qaradi. – U har doim kollektiv bilan qadam-baqadam yurgan.

– Bu yerda esa, fikringizcha, u kollektiv bilan qadam-baqadam yurdimi?

– Ha, albatta, kollektiv bilan yurmadi. Tolik esa unga o'shanda degandi... U shunday degandi: «Ko'tar, qo'lingni ko'tar! Meni ez! Keyin navbati kelsa, ular seni ham ezg'ilab tashlashadi!»

– Tahdid qilgan ekan-da?

– Yo'q. U tahdid qilmagan, u hattoki mayna qilganday kulgan... Uni hech narsa bilan urib tesholmaysan. Tolikni bilish kerak!

– Unday bo'lsa Vasilyev nimani nazarda tutgan? Agar tahdid qilmagan bo'lsa?

– Qayerdan bilay? U shunday baqirdi va kulib yubordiki.

– Balki u o‘shandayoq Vedernikovga yomon ta‘sir o‘tkaza boshlagandir?

– Ehtimoldan yiroq, Vedernikovga ta‘sir o‘tkazish qiyin. Ana, qancha siqmaylik, u ovoz bermadi.

– U bu harakatini qanday izohladi?

– Hech qanday. U tushuntirib o‘tirmadi. Bukati esa uning fe‘li shunday og‘ir degandi. Shu yerda unga qancha uqtirmasinlar, qancha siquvga olmasinlar, zirhga tiralib qolgandek bo‘lishdi, siljita olmay-san.

– Ammo, balki u chindan ham shunday charchagandirki, nimalar bo‘layotganini tushunmagan. Axir sizlar muhokamani deyarli usiz o‘tkazdinglar-ku?

– U hammasini tushundi... Charchaganiga kelsak, hamma charchagan. U keyin yana bir kechaga qoldi-ku.

– Tushunmadim. Axir smena tugamaganmidi?

– Tugagandi.

– Unday bo‘lsa qaysi kecha haqida gapiryapsiz?

Silich xijolat bo‘lib, jimib qoldi.

– Guvoh Pochkaylo, sizdan so‘rashyapti!

Silich javob bermadi.

– Nimasini o‘ylaysan? – so‘radi Kostya.

– Aynan, hamma nojo‘ya ishlar sizlar o‘ylashni bilmaganlaring uchun sodir bo‘ladi, – ilib ketdi Olga: u kimdan achchiqlanardi, o‘zidanmi yoki Kostikdan?

– Ko‘tar, qo‘lingni ko‘tar, Kostik! – zaharxandalik bilan dedi Tolik. – Sen menga baribir yordam bera olmaysan. Ez meni, ana Olga, ont ichgandi. buyurishlari bilan eza boshladi! Keyin, navbati kelsa seni ham ezishadi.

– Mayli, – xulosa qildi Bukati, oxirgi so‘zlarni eshitmaganga olib. – Kun tartibidagi masala tugadi. Endi oxirgisi...

– Men nima qilay? – so‘radi aybsizlardek Tolik, ko‘k ko‘zlarini chaqnatib.

– Sen endi hech narsa qilmasang ham bo‘ladi, – dedi Silich biroz g‘azablanib. U hali yoqimsiz suhbatdan so‘vishga ulgurmagan edi.

Va Shveyk istehzo bilan qo‘shib qo‘ydi:

– Tolik, har doimgi ishingni qilaver!
– Ketaveraymi? – qayta so‘radi Tolik.
– Agar vijdoning shunga yo‘l qo‘ysa! – birdan ovozini ko‘tardi Olga. U oxirgi lahzada chidab turolmadi, asablari dosh bermadi. Shuning uchun baqirib yubordi.

– Uning vijdoni yo‘q.
– O‘zingizni qo‘lga oling, – dedi Olgaga Bukati. – U asablarinigizni ketkazishga arzimaydi... – Va Tolikka o‘girilib:
– Menda supuruvchi bo‘lib ishlaysiz! Idora binosining oldida kutib turing! – dedi.

Tolik sustkashlik qilib, chiqib ketdi.

Ketayotib kulib qo‘ydi, biroq uning kulgisi qanday bo‘lganligi tushunarli edi – mag‘lub bo‘lganning ojizona kulgisi. Brigadadagi ishchilar hovlini supurish qanday jazo ekanini bilishardi. Buning ustiga hamkasblarining ko‘z oldida. Ular masxara qilishadi, hazillashishadi. Biroq eng asosiysi, payokni kesib tashlashadi, sababi konveyerda o‘ziga xos ish normasini berishardi: bir kilo non, supurgi bilan esa «xizmat» kartochkasiga ham yeta olmaysan, oylikni-ku aytmasa ham bo‘ladi.

6

– Va oxirgisi, – dedi Bukati va hamma uni eshitayotganiga ishonch hosil qilish uchun sekingina birma-bir ko‘z yugurtirdi. Biroq ko‘pchilik shundoq ham gap nimadaligini bilib ko‘zini oldi.

Nima ham deyish mumkin, og‘ir daqiqa, ushbu poygadan so‘ng, og‘ir smenadan keyin odamlarga yana bir kechaga qolishni taklif qilish. Biroq aytish kerak. Qolish ham kerak. Qolishadi ham, faqat dastlab tashvish tortishadi. U, Bukati ham boshqalar masxaralagandek chindan Temir odamga aylanib qolganidan tashvishga tushadi.

– Uyga shaylanyapsizlar, tushunaman, – qovog‘ini osiltirib dedi u. – Bizda esa yana uchta mashina bor. Uchta... Ularni deb esa bir sutkaga, ehtimol ikki sutkaga butun eshelon ushlanib qoladi... Bir sutka nimani anglatishi esa... Biznikilar oxirgi kuchlarini berib fashistlar poytaxtining ostanasida jang qilayotgan bir pallada, sizga buni tushuntirib o‘tirishim shart bo‘lmasa kerak. Albatta, bu buyruq emas. Men sizlarga buyruq bera olmayman. Biroq so‘rayman. Sizlar esa o‘ylab ko‘ring.

Atrofga o'lik sukunat turdi. Bukati ham hech kimni shoshiltirishni istamay jim turardi. Hali vaqt bor edi. Eng fahmlilar shu zahoti tiz bukib o'tirib olishdi, chunki charchashgandi. Yangi smena oldidan nafas rostlab olish kerak edi. Biroq boshqalar oyoqlarining ostiga qaragancha turishda davom etishardi. Ehtimol, ular dam olishga ketish uchun kichkina bo'lsa ham imkoniyat borligiga ishonishgandir. Biroq ularning bunday imkoniyatlari yo'q edi. Shunchaki ular o'z saflarini o'zgartirishga va hammasini oxirigacha zimmalariga olishga ulgurishmagandi. Hattoki Tolikni qoralab, ovoz berib ham hozir ularni qo'yib yuborishlariga ishonishardi va har bir ishchi o'zicha miyasida birinchi navbatda nima qilishini rejalashtirardi. Agar do'konga yangi narsa kelgan bo'lsa xarid qilishmi yoki daryoga borib, qayiqni tayyorlab teshik-yoriqlarini bekitib qo'yishmi: qo'ldan chiqarilgan, hech kimga kerak bo'lmagan yog'och suzib kelsa, undan o'tin tayyorlab qo'yish mumkin, u qish paytida allaqachon tugab bo'ldi, torf qoldiqlarining ham oxiri ko'rinib qolgandi. Yana bozor-o'char, chayqov bozorda zajigalkani payokka almashtirish kerak... Bu vaqt ichida odamlarning ko'plab ishlari yig'ilib qolgandi.

Va oraga Olga suqildi. Unga bu boshqalardan ko'proq kerak.

– Petya? Silich? Siz nega indamaysiz? Vedernikov-chi? Vedernikov ham nima deyish kerakligini bilmaydi?

– Bilaman.

– Xo'sh?

– Men qolishga roziman, – dedi Vedernikov va bog'ichini to'g'rilab qo'ydi. Qizarib ketgan ko'zli va iflos bog'ichli bu yigitga qarab ko'ngling ayniydi. Lekin Vedernikovning rozi bo'lishi boshqa nuqsonlarini berkitib turgandek edi.

– Balli, – xitob qildi Olga. – Qolganlar-chi?

– Agar kerak bo'lsa, mayli, – ishchilar har qaysisi o'z holicha dedi.

– Bizlar Toliklar emasmiz... – xotirjamroq dedi Silich, u ham rad qilmasligi ravshan edi.

Silichga esa, katta farzand sifatida kuzda sil kasalidan vafot etgan onasidan qolgan bolalar bilan boshqalardan ko'ra qiyinroq. Silich yugurib borib Murkani sog'ib kelishini qo'shib qo'ydi.

– Borib Murkangni sog'ib kelishing mumkin, – ruxsat berish unga xos bo'lmasa-da, ijozat berdi bir daqiqada mehribonlashib qol-

gan Bukati. U ham charchagan ko'rinadi va hozir odamlar bunday osonlik bilan rozi bo'lishlariga ishonmagandi. – Hammaga ishlarini bitkazib olish uchun bir soat beriladi. Qo'shimcha yegulikni esa hozir olib kelishadi. Sexga yig'ma karavotlar ham qo'yib berishadi...

– Ularni hali olib tashlashmagandi, – dedi Shveyk va hamma kulib yubordi. – Demak, tunashni bas qil! Eh, mening Lenochkam nimalar qilyapti ekan!

Bukati tankning yoniga yaqinlashdi, sovuq zirhini qo'li bilan shapillatib qo'ydi: «Mana shunaqa, o'rtoq! Vaqti keldi! Berlingacha, dushmanning la'nati poytaxtigacha! Bos, manfur bosqinchilarning taqdirini uzil-kesil hal qil, hamma uchun, hammamiz uchun... Bizni yondirgan o'sha kunlar va tunlar uchun... Biroq bu kunlar ham tugaydi-ku! Keyin kim ham bizning hamma kechki radikulitlarimizni, yurak og'riqlarimizni, sil kasalimiz-u yurak xurujlarimizni mana shu muttasil tunlarda ortirib olganimizga ishonadi! Biroq yurak xurujlarigacha omon yetib borarmikinmiz, hamma gap mana shunda...»

U brigada har tomonga yugurib ketayotganini ko'rib fikr yuritardi: qayerdandir jonlanish ham, yangi kuch ham paydo bo'la qoldi. Qayerdan? Kerak, kerak, kerak! deya takrorlanavergan so'zlardanmi? Ularni necha marta aytishga to'g'ri keldi. O'zi ham, boshqalar ham... Yonida Olga turganini sezib, uning ruhini ko'tarishga qaror qildi.

– Yaltiragan hamma narsa oltin emas, Olenka! Boshliq aytgandek, bizning ko'chada ham bayram bo'ladi!

Olga birdan unga yotsiragandek qaradi va yelkasi junjikib ketib biroz surildi.

– Siz nima haqida gapiryapsiz? – so'radi g'alati cho'ziq ohangda u va har doimgidek ishonchli, qat'iy qadamlar qo'yib yurib ketdi. Mana, uni temir desa bo'ladi. Ayollarga xos jihatlari kam-u, temirga xos xususiyatlari oshib-toshib yotibdi. Bukati shunday deb o'yladi-yu, birdan charchaganini sezib o'tirib oldi. Keyinroq, o'n daqiqalar o'tib u o'ziga o'sha buyuk «kerak» so'zini aytadi va ketadi, uchta tankni esa burunlaridan chelaklab qon ketsa ham ular bir kechada topshirishadi!

Prokuror Zelinskiy: Guvoh Bukati, ishchilarning dam olmasdan, kun-u tun ishlashlarini qanday tushunish mumkin?

Guvoh Bukati: Nega dam olishsiz bo'larkan... (*sukut*)

Prokuror Zelinskiy: Bu, tushunishimcha, mehnat qonunchiligi bilan taqiqlangan.

Guvoh Bukati: Qonunchilik... (*bosh chayqaydi*). Siz, kechirasiz, o'rtoq Zelinskiy... Siz frontda hammasini qonundagidek, ro'yxatdagidek bajarganmisiz?

Prokuror Zelinskiy: Solishtirgan narsangizni qarang! U yer frontku! U yerda urush ketyapti! Bu yerda-chi?

Guvoh Bukati: Bizda ham urush. Bizning ham o'z frontimiz bor... (*sukut*) Umuman esa, bu yerda ayb menda deb hisoblashingiz mumkin, chunki men ularni ishda qoldirdim. Buning ustiga bir kechaga emas, ikki, uch kechaga qoldirgan vaqtlarim ham bo'lgan... Xullas, qancha kerak bo'lsa, shuncha.

Prokuror Zelinskiy: O'smirlarnimi? Vedernikovga o'xshaganlarnimi? Men sizni to'g'ri tushundimmi?

Guvoh Bukati: Nima, Vedernikovning shoxi bormi? Uni ham, qolganlarni ham.

Prokuror Zelinskiy: Shunaqa deng!

Guvoh Bukati: Ha. Shunaqa! (*chaqiriq bilan*). Aks holda qanday qilib biz qirq ikkinchi yili o'sha tanklarni olgan bo'lardik? Xo'sh? Sizlar frontda bir-biringizdan bu haqda so'ramadinglarmi? Unday bo'lsa bizdan so'ranglar edi! Kolomnaliklar kelganini, dastgohlarni qorga qo'yishganini, simlarni yerning ustidan o'tkazib ishlaganliklarini. Keyinroq pechkaning atrofida bino qurishganini!

Prokuror Zelinskiy: Lekin bularni bolalar qilmagandir!

Guvoh Bukati: (*xotirjam*). Unday bo'lsa kim? Siz zalga bir qarang, kimlar o'tirganini ko'rasiz. Aynan shular boshlagan: o'n ikki, o'n uch yoshlilar...

Vostryakova Olga (*kutilmaganda*): Biz qiyinchiliklarni sezmaganimiz, Ilya Ivanich! Gaydar o'n yetti yoshda polkni boshqargan, Ostrovskiy esa...

Sudya Knyazeva: Nega sezishmagan? Har xil vaqtlar bo'lgan. Ba'zida esa...

Prokuror Zelinskiy: (*sudyaga o'girilib*): Nima ba'zida?

Olga Vostryakova: Yana Vedernikov! General kelganda!

Prokuror Zelinskiy: Shundaymi? Vunderkindlaringiz yana nima ish qilib qo'ydi?

Guvoh Bukati (*ikkilanib*): Men, umuman olganda, juda ham yaxshi eslay olmayman. Ko'zlari bilan payvandlashga qarab turgan...

Prokuror Zelinskiy: Biz bu haqda eshitdik. Keyin-chi?

Guvoh Bukati: Keyinmi? Ishlagan...

Prokuror Zelinskiy: General bilan nima bo'ldi?

Guvoh Bukati: Ha, general bilanmi? Bu shunchaki, bolalarcha...

Sudya Knyazeva: Mayli, aytavering. Hammaning esida.

Guvoh Bukati: Hammaning esida bo'lsa, eslatishga nima hojat?

Prokuror Zelinskiy: G'alati savol beryapsiz! G'alati! Eslash kerak!

Guvoh Bukati: Agar shunday bo'lsa... Kerak bo'lsa... (*o'ylanib qoldi*). Ular o'sha kecha, umuman olganda, uchta tankni tugatishdi... Biroq o'shanda biz yaxshigina qiynaldik. Esimda edi-ku... (*Yana o'ylanib qoldi*.)

– Tunashni bas qil! – baqirdi Shveyk, barmoqlari bilan qo'llarini artib. – Sharti shuki, oxirgi qolgan qo'shimcha yegulikka yuguradi.

– Men bo'ldim, – dedi Silich va Kostyadan xabar olish maqsadida tankning korpusini taqillatib qo'ydi. – Tirikmisan? – so'radi u, Kostya boshini ko'rsatganda.

– Bo'ldimi? Tongmi?

– Nima deb o'ylaganding? – tirjayib qo'ydi Shveyk. – Seniki savati bilan allaqachon bozorga ketgan! «Salom sizga»...

Kostikni gohida unga olis ko'chada to'qnash kelgan qiz bilan jig'iga tegishardi. Tegajaklik qilishardi-yu, Kostik uning ismini ham so'ramaganini, uning salomiga bir marta ham javob qaytarmaganini bilishardi.

– La'nati markazlagich, – dedi Kostik. U hech qachon so'kinmagandi, bu yerda esa chidab turolmadi.

– Yana o'xshamayaptimi? – so'radi achinib Silich.

– Kim, qiz bilan o'xshamayaptimi? – qayta so'radi Shveyk va atrofdagi hamma piqillab kulib yubordi. Silichning o'zi ham qahqaha urdi.

– Ha, Shveyk, yomonsan! Markazlagich... Xa-xa-xa... Qiz bilan markazlagich, deydi...

Shveyk davom etardi:

– Nozanin esa yuraksizlarcha uch kundan beri chorrahada ko'z yoshi to'kyapti... Savat to'la ko'z yoshi... U savatni shuning uchun ko'tarib yuribdi!

– Nega unday deysizlar, – toliqib qo'l siltadi Kostik. – Men rost aytyapman... Men hattoki uning ismini ham bilmayman-ku!

– Buning nimasi qiyin, – go'yo jiddiylashib, sirmi so'zlagandek dedi Shveyk. – Bor-da ayt: «Salom, Lyusya!» U esa: «Men Lyusya emas, Feklaman!» deb javob beradi. Sen esa shu zahoti, o'ziga kelishiga bermay: «Nahotki! Ismingiz jismingizga naqadar mos ekan!» deysan va hokazo.

– Keyin-chi? Hokazodan keyin nima? – Shveykning og'ziga bolalarcha tikilib qiziqardi Silich. O'zi to'qib chiqarishni bilmasdi, lekin Shveykni uning cho'pchaklari uchun yaxshi ko'rardi. Hozir ham undan biror g'ayrioddiy, hammani kuldirib yuboradigan narsani kurtardi.

Petya davom etardi:

– Keyinmi? U cryydi, hushyorlikni yo'qotadi, shu joyda esa erakka o'xshab harakat qilish, ya'ni esnamaslik kerak!

– Sen nima qilish kerakligini ayt! – talab qilib turib oldi Silich.

– Bizning Kostik unga markazlash kerak bo'lgan «tachka»ga qaragandek tikilib qaraydi! – Shveyk, Kostik qizga qanday qilib qarashini ko'rsatib berdi va yig'ilganlar bu bema'ni gapni eshitib yana qotib-qotib kula boshlashdi. – Qo'lini friksion valini ushlagandek ohista ushlaydi va bag'riga bosadi... O'zingning, o'zingning bag'ringga, adashtirma, – po'pisa qilib qo'ydi u qo'l siltayotgan bo'lsa-da, eshitib turgan Kostikka. – So'ngra, spirometriya bo'yicha besh yarim litrlik ko'kragi bilan nafas olib, quloqqa yoquvchi so'zlarni aytadi... Misol uchun, bunday: «Ijzat bering, Fekla Xaritonovna, sizni zavod oshxonasiga zatiruxaga taklif qilsam! Menda uchta ortiqcha ishlagan smenam uchun talonchalar yig'ilib qoldi: chin yurakdan mehmon qilaman! Shohona bazm bo'ladi!» Keyin esa patefon ostida raqslar... – Shveyk kursini oldi va otashin «Rio-rita» raqsini tasvirlay boshladi... – Tam-tam, – xirgoyi qilardi u, – tam-tam-tam-tam... Bizda bitta do'mboq qiz patefon olib keladi! Chidamli deyishadi! Qayerda chalmasin, ikki-uchta plastinkani ishdan chiqararkan!

«Boringlar-e!» degan so'zlar bilan Kostik tankning ichiga kalla tashladi, Silich esa kulib bo'lib o'tirib oldi va dedi:

– Sen qanchalik yetishmaysan gohida! To‘g‘risini aytsam, nafasim qaytib ketdi. Meni esa bilim yurtida nima deb chaqirishganini bilasanmi? Oltmish to‘qqiz! Mana shunaqa! Shunday raqam bor, uni teskarisiga aylantirsang ham baribir oltmish to‘qqiz bo‘ladi, men esa ham eniga, ham bo‘yiga shunaqa yirikman.

Petya raqsni tugatdi va raqs tushgan kursiga o‘tirib oldi. Silichga qaradi va dabdurustdan so‘radi:

– Mening fabrika-zavod shogirdligi maktabiga qayerdan kelganimni bilasanmi? Men bolalar uyidan kelganman!

– Nima bo‘pti? – so‘radi Silich.

– Hech nima. U yerdan bitta yo‘l bor: biroz ulg‘aydingmi, yomonroq kiyim kiydirib oyog‘ingni qo‘lingga olib jo‘na deyishadi... Jo‘na, uka, shaxsiy hayotingni yo‘lga qo‘y va karavotingni qorni och boshqa bolalarga bo‘shat! Demak, men bolalar uyi haqida aytayotgandim... U yerda tentaklsiz bo‘lmaydi. Biror tentaklik qildingmi, yengil tortasan. Ehtimol masxarabozliging uchun bir burda non tashlab ketishlari ham mumkin!

Olga qo‘lida plakatlar bilan kirib, bidirlab ketdi:

– Yigitlar, omonmisizlar? Men mana oshig‘ich xabar olib keldim: «Uchta tank – bizning dushmanga berilgan so‘nggi zarbamiz!» Yoqdimi? Men esa, demak, tungi soat bir yoki ikkida sexdan o‘tib boryapman, sizlar esa mashinaning oldida qattiq qotib-qotib kulyap-sizlar... Men bo‘lsam ularga dalda beraman deb eshitsam, kimdir qattiq zo‘riqyapti... Bu senmiding, Pochkaylo? Mana, menga plakatni osishga yordam ber!

U bosh irg‘adi. Plakatni ma‘qulladi va hozir osishga yordam berishini aytdi.

– Nega kulgandilaring o‘zi? – yana so‘radi Olga.

– Shveyk, – javob berdi Silich.

– Shveykligi tushunarli. U nima dedi?

– Nima degani esimda yo‘q... Ha... Ikkita og‘ayni uchrashib qolishibdi va birinchisi ikkinchisidan so‘rabdi: «Qayerda ishlaysan?» U esa javob beribdi: «Domna sexida». «Demak, po‘lat eritar ekansandada?» – «Yo‘q, – deb javob beribdi ikkinchisi, – domino yasaymiz».

– Domino, – hayron bo‘lib so‘radi Olga.

– Aha. «Domino» o‘yinini bilasanmi?

– Bilaman.

– Ular domna sexida «domino» yasasharkan, – dedi Silich kulib. Biroq Olga unga biroz garang boʻlib qarab turar, kulmasdi.

– Sen bu kulgili deb oʻylayapsanmi?

– Kulgili emasmi? – hayron boʻldi Silich. – Lekin sen oxirigacha eshit! Ikkinchisi debdi: «Men domino yasayman, ustiga nuqtalar qoʻyaman». – «Unday boʻlsa nega bugun ishda emassan?» – soʻrabdi shunda birinchisi. Ikkinchisi esa javob beribdi: «Eh, gʻoyat qiziq, – debdi u, – bugun menda dam olish kuni, chunki biz bugun «boʻsh – boʻsh» domino chiqaramiz!»

– Boʻldimi? – soʻradi Olga.

– Boʻldi, – bosh irgʻadi Silich va xoʻrsinib qoʻydi.

U Olgaga latifa yoqmaganini tushundi.

– Qandaydir bemaʼnilik, – dedi Olga ishonch bilan va Shveyk hamda Silichga ishonqiramay qarab qoʻydi. – Shuning ustida tun boʻyi xaxoladinglarmi? Bolalarga oʻxshaysizlar. Kostik qani? Men sizlarga yangilik olib keldim.

Kostikka bir, ikki marta taqillatishdi, lekin u javob bermadi.

– Pishib ketgan, – dedi Shveyk va mashinaning ichiga kira boshladi. Kuch bilan Kostikni tortib chiqardi, u yorugʻlikka chiqib koʻzlarini hech ocha olmasdi. Nur tushmasligi uchun qop-qora boʻlib ketgan bogʻichini koʻziga tushirdi.

– Tunashni bas qil! – baqirdi Shveyk uning qulogʻiga va uni mashinaning bortiga tiradi. – Mayli. Uxlayversin, otlar ham turib uxlaydi. Qanday yangiliging bor? – Bunday ketmaydi, – dedi Olga. – Hozir Bukati bilan general keladi... – U Kostikni turtdi va u kutilmaganda toʻppa-toʻgʻri polga asta oʻtira boshladi. Silich uni ushlab qolishga ulgurdi, lekin Kostik uning qoʻlida latta qoʻgʻirchoq kabi chayqalardi.

– Silich! Shveyk! Uygʻotinglar! – dedi Olga qoʻrqib. – Ular tez orada kelishadi, biz esa... Bu butun zavodga sharmanda-ku! – U Kostikni siltay boshladi va u mastlamikiga oʻxshagan koʻzlarini ochdi. – Kostik! Kostik! Eshityapsanmi? Sexga general kelyapti!

Kostik bosh irgʻab koʻzlarini yumdi.

Olga yordam uchun Shveyk va Silichni yoki biror kimni boʻlsa ham chaqirish niyatida hadik bilan atrofga qaradi, biroq ular oʻtirib va bir-biriga suyanib olib, dong qotib uxlashardi. Olga sarosimalanib, ichida oh tortib ularga ham tashlandi va ularni siltashga tushdi,



shu vaqt ular kirib kelishdi: sex boshlig'i Vakshel, Bukati, qandaydir harbiylar va ularning orasida telpakda past bo'yli, qotma, o'tkir ko'zlari bilan zimdan qarayotgan general.

Va shu joyda mo'jiza ro'y berdi: buyruq berilgandek Shveyk va Silich uyg'onishdi, o'rinlaridan turib yuqori martabali mehmonlarga peshvoz chiqishdi va faqat Kostya boshini quyi solgancha o'tirishda davom etardi. Ishchilar shu zahoti uni o'zlari bilan berkitib qo'yishdi. Faqat Olga xavotir bilan bir-ikki marta qayrilib qaradi, biroq behuda: Kostya uxlardi va bu lahzada uning uchun hech qanaqa generallar mavjud emasdi.

Rahbariyat va harbiylar esa bir nimalar haqida suhbatlashib konveyer bo'ylab tezda o'tib ketishdi va to'planib turgan brigadaga yaqinlashishdi.

– Mana, – dedi Bukati Silich va Olgaga ko'rsatib. – Mana ular, bizning front orti qahramonlarimiz. Bir marta ham pand bermagan yig'ish brigadasi! Bugun ham pand bermadi!

– Tasdiqlashim mumkin, – dedi harbiy vakil generalga qarab. – Bir marta ham pand berishmagan.

General bosh irg'adi, lekin hech narsa demadi.

Bukati gapirishda davom etardi, qolganlar esa tik turib generalga boqishardi. U esa o'tkir ko'zlari bilan sexni timirskilar, tankka, shiftga boshini ko'tarar va birdan quloqni teshadigan ingichka ovoz bilan so'radi. Shveyk unga ko'zlari sabab darhol «echkiovoz» degan laqab qo'yib oldi.

– Konstantin Sergeyich shu yerda ishlaydimi?

– Konstantin Sergeyich? – so'radi sex boshlig'i, tepakal, shalviragan yuzli va bo'ydor Vakshel. U Bukatiga qaradi. – Kim u?

Bukati yelkasini qisdi va nima uchundir Olgaga qaradi. Biroq u ko'zini oldi.

– Konstantin Sergeyich? Kechirasiz?

– Vedernikov, – pichirlab aytdi harbiy vakil generalga. Harbiy vakil qaddi-qomati kelishgan, mo'ylovli, xuddi gusarlarga o'xshardi.

– Ha, ha, Vedernikov, – dedi general.

– Ha, Vedernikov, – shu zahoti ilib ketdi Bukati va qo'li bilan ishchilarga ko'rsatdi. – U bu smenada, o'rtoq general. Hozir u yoninigizga keladi!

– Nega endi, – qaysarlarcha so‘radi general. – O‘zim uning oldi-ga boraman. Faqat menga uni ko‘rsatsangiz bo‘ldi! Qani u... Shular-ning ichidami?

Ushbu qisqa luqmalar orasida Olga nima qilish kerakligini ham-madan tezroq fahmladi. U oldinga tashladi, generalning to‘ppa-to‘g‘ri ro‘parasiga turdi va tez gapira boshladi, general so‘zlarning bunday oqimidan shoshib qolgan bo‘lsa kerak.

– Vedernikov! – bidirlardi u, generalning yo‘lini to‘sib. General to‘xtab uning gapini eshitishga majbur bo‘ldi. – Vedernikov bizning eng yaxshi zavod markazlovchimiz, u rejani bajaryapti va zarbdorlar safida ro‘yxatda turadi, sex undan faxrlanadi va doim o‘rnak oladi... Mana bugun ham brigadaning eng yaxshi ishchisi o‘rtoq Vedernikov o‘z postini tark etmagan...

– Mayli, mayli, – dedi general va dabdurustdan Olgani yuzidan silab qo‘ydiki, u bu kutilmaganlikdan oxirgi so‘zlarini yutib yubor-di. – Uning o‘zi qani... Zarbdoringiz? Bir ko‘ray-chi!

Olga generaldan uzoqlashdi, biroq oz-moz vaqt yutib olingan-di. Brigadadan ikki kishi – Shveyk va Pochkaylo Kostikni turtib uyg‘otishdi va qo‘llarining ostiga ko‘tarib, deyarli quchoqlashgandek turib olishdi. Xuddi oralaridan qil o‘tmas o‘rtoqlardek.

– Qaysi biri? – so‘radi general ko‘zini qisib, ularning chehralari-ga sinovchan boqdi va yoshi kattaroq, savlatli Pochkayloda to‘xtadi.

– Azamat! – dedi general.

– Markazda! Markazda u, Vedernikov! O‘rtoq general! – baland ovozda, xuddi karga aytgandek baqirdi Olga.

General Kostikka, uning bog‘ichiga qaradi va harbiy vakilga o‘girildi:

– Shumi Vedernikov? Xato qilmayapsizmi?

– Xuddi shunday, xato yo‘q, o‘rtoq general! – bir lahzada javob berdi u. G‘ayratidan qora mo‘ylovlari qimirlab ketdi.

Bukati ham bularning hammasi qayoqqa qarab ketayotganini tushunmay chilangar-markazlovchi Vedernikov Konstantin Sergeyevich, to‘g‘risi, biroz betobligini, ko‘zlari bilan muammo borligini tasdiqladi.

– Ko‘zlari kasal! – dedi yana baland ovozda Olga. – Hozir u tib-biy xonaga boradi! O‘rtoq general!

General unga xuddi so‘ragan odamini ko‘rsatishmayotgandek Kostikka qaradi va birdan kulib yubordi. Ingichka ovoz bilan, butun

sexga eshittirib va atrofdagi hamma generalga qarab qo'shilib kulishga tushishdi. U esa qotib-qotib kulardi. Faqat Kostik, faqat u aybdor bo'lib kasal ko'zlarini baqraytirib, sodir bo'layotgan narsalarni fahmlamay turardi.

General kulishni to'xtatdi va dedi:

– Ana sovg'a! Men bo'lsam uni faxriy deb o'ylayman! Soqolli! Bizning diviziyada tanklarda shunday yozilgan: «Jangda Vedernikov mehnatda bo'lgandek bo'li!» U esa mana bunaqa ekan...

Olga, fursatning muhimligini shu zahoti anglab, yana generalning oldiga lip etib sakrab chiqdi – bu safar Vedernikov uchun emas, balki o'zi boshqargan sex uchun – va: «Bizning harbiy postimiz! O'rtoq general! Vedernikov – frontchining o'g'li! Mehnat rezervlaridan keldi va biz zavodimizda u bilan faxrlanamiz...» dedi.

General uni eshitmay harbiy vakilga yuzlanib so'radi:

– Balki u emasdir? Qanaqadir isqirt, titig'i chiqib ketgan va kichkina-ku?

– U o'sha! O'rtoq general! Shaxsan o'zim uning ishini qabul qilib olganman! O'zi bir misqol-u, qadri baland! Aynan u haqida topib aytilgan!

– Keyin... U uxlayapti-ku? – general yana Kostyaga qaradi. – Qarang, uxlayapti-ku... Uni uyiga olib borish kerak!

– Xuddi shunday! – dedi orqada ko'zdan nari turgan harbiylardan yana biri. – Olib boramiz! Mashinada!

– U uxlamayapti, – qat'iyatsiz dedi Bukati. Generalga emas, Kostyaga shivirlab aytdi. – Uning ko'zlari shunaqa, yaxshi ko'rmaydi, buning ustiga tundan so'ng...

Olga ilib ketdi:

– O'rtoq general! Bu hayajonlanganidan! U va biz hammamiz biznikiga kelganingizdan baxtlimiz... Bizning seximizga...

General Bukatiga, Olgaga, boshqa ishchilarga qaradi va qo'mondonlik nomidan Konstantin Sergeyevich Vedernikovni va uning brigadadagi do'stlarini harbiy va jangda buzilmasdan ishlaydigan mashinalarni yaratish ishidagi zarbdor mehnati uchun tabriklashini aytdi.

Shu joyda uning qo'llarida yaltirab turgan ikkita konserva bankasi paydo bo'ldi.

– Bu esa sizga bizning nomimizdan front mukofoti! Harbiy payogimizdan! U dimlangan go'sht deb nomlanadi...

Hamma va hattoki Vakshel ham qarsak chalib yubordi, Kostyani generalning oldiga turtishdi, general esa: «Sazovor bo'ldingiz! Sog'ayib keting! Barcha tankchilar uchun!» Hamma yana qarsak chalishga tushdi. Kostik bankalarni ushlab, ularni va o'zini nima qilishni bilmay turardi. Olga Kostikka yordam berish uchun qo'lidagi bankalarni olmoqchi edi, lekin u bankalarni bermadi va bag'riga qattiqroq bosdi.

– Jim turma, – pichirladi u, buni yonma-yon turganlar eshittishdi. – Jim turma, biror nima de! Biz munosib bo'lamiz de... Qani!

– Biz munosib bo'lamiz... – takrorladi Kostik va birdan, xuddi uyqudan turgandek, anglab, qo'shib qo'ydi. – Rahmat... Biz onam bilan karam sho'rva pishiramiz, bizda anchadan beri go'sht bo'lmagandi...

– Gap dimlangan go'shtda emas, – shu zahoti yordamga keldi Bukati.

Shveyk esa past ovozda, faqat brigada uchun to'qib qo'ydi:

– Biz go'shtlarga boy emasmiz, degan ekan I.I. Bukati!

Shveykda Bukati haqida bunday badihalar ko'p edi.

Oylik tarqatish vaqtida u: «U oylikdan bu oylikka bizni boshliq Bukati boshlab borar!» derdi.

Kecha, reja yonayotgan paytda esa Shveyk: «La'nati rejani tugat-sam tinchiyman dedi Bukati!» deb yubordi.

Olga Bukatining orqasidan Kostik xijolat tortayotganini, bu tushunarli ekanligini, biroq Kostik bilan birga, o'rtoq general to'g'ri aytganidek, brigada ham, sex ham, zavodning butun boshliq mardonavor ishchi sinfi ham mehnat qilganini va ularning hammasi o'zlarining shonli mehnatlari bilan vatanlarini uzoq kutilgan g'alaba sari yetaklayotganini qo'shib qo'ydi.

– Armiyamizga rahmat! – Olga gapini shunday tugatdi va hamma yengil tortib qarsak chaldi. Kostikdan tashqari hamma, u qo'lida konservalangan dimlangan go'shtni ushlab turar, shu sababli uning qo'llari band edi. Chindan ham qimmatbaho sovg'a! Buni hamma tushunardi.

General yana bir marta Kostikka boshidan oyog'igacha razm soldi, harbiy vakilga nimanidir shivirladi va xayrlashayotib Vakshel hamda Bukatining qo'lini qisdi, yonida turgan Olgani esa payqamadi.

– Xo'sh, o'rtoqlar, – dedi u tashvishlanib, biroq hozircha shoshilmay. Ammo kutilmaganda paydo bo'lgan yumshoqlik, iliqlik g'oyib

bo'ldi. U yana birinchi ko'rgandagi kabi haqiqiy qattiqqo'l generalga aylandi. – Biz sizning ajoyib texnikangiz va do'stona ishtirokingizdan qurollanib bu yerdan ketyapmiz... Bu tanklar Reyxstag uchun kurashga kirishini va'da beraman! Rahmat!

General tezda ketib qoldi, mulozimlar ham jo'nab ketishdi.

Olga zudlik bilan orqalaridan tashlangandek bo'ldi, ammo shu zahoti qaytib kelib, Kostikka talabchan qaradi-yu dedi:

– Xursandchilikdan tilingni yutib yubordingmi! Qanday sharmandalik!

– Nima deyishi kerak edi? – Silich o'rtog'ining yonini oldi. – Rahmat dedi-ku. – Shveyk darrov ilib ketdi:

– Hozir biz sexda qahramonlarcha ushbu mukofotning kallasini olamiz! Xo'sh? Bunday og'irlikni ko'tarib yurmaysan-ku... Yo'qotib qo'ysang-chi!

Hamma Kostikka, uning qo'llariga qaradi. Brigada birdan Kostik ularni amerika dimlangan go'shti, jangovar harbiy payok bilan mehmon qilishini tushundi. Biroq Kostik indamasdi va Olga hayron bo'lib takrorladi:

– Qanday odam bo'ldi-ya? U do'stlari nima deganini eshitdimi o'zi? Eshitdimi, yo'qmi? Tushuntiringlar, nega jim turibdi? Nega?

8

– Hech qanday jinoyatni ko'rmayapman, – dedi to'satdan himoyachi Kozlov deyarli jonlanib. Uning ma'yus chehrasi o'z ifodasini hech qanaqasiga o'zgartirmagandi.

– Unda nimani ko'ryapsiz? – so'radi Knyazeva.

– Hech narsani ko'rmayapman, – dedi Kozlov va zaldagilar kulib yuborishdi. Ehtimol, u ikkinchi marta hech qanaqa yomonlikni ko'rmayapman demoqchi bo'lgandir, biroq u xuddi hech narsani ko'rmayotgandek bo'lib chiqdi. Bu yerda qanday qilib omadsiz himoyachining ustidan kulmaslik mumkin.

Knyazeva beg'arazlik uchun o'ng'aysiz vaziyatni to'g'rilashga harakat qildi, u baland ovozda va hammaga yetib borishi uchun dimlangan go'shtda va Vedernikov smenadan so'ng uxlab qolganida, chindan ham, hech qanaqa jinoyat yo'qligini aytdi. Ammo keyin... Keyin nima bo'ldi?

– Ayting, – murojaat qildi u shu yerda, sahnada o'tirgan Vostryakovaga, Olga turdi. – U brigadaga konservadagi dimlangan go'shtni bermadimi?

– Yo'q, – dedi Olga zalga qarab. – U konservalangan dimlangan go'shtni hech kimga bermadi, uyiga olib ketdi va biz bu ishni bosti-bosti qildik. Biroq hozir buni bosti-bosti qilmaslik kerak edi deb o'ylayman. Mana natijasi!

– Men esa hech narsa bo'lmadi deb hisoblayman, – e'tiroz bildirdi Bukati. – Mukofot Vedernikovga belgilangan edi va uni qanday ishlatish Vedernikovning shaxsiy ishi. Asosiysi, u rejani bajargan!

– Ha, ha, – stolidan turib unga luqma tashladi Zelinskiy. – Tartib-intizom-chi? Rotamizda bitta jasur yigitcha bor edi, unga erk berishgandi. Yigitcha nazoratni qo'ldan boy berdi, ortiqcha maqtab yuborishdi! Bir to'pga biriktirilgan askarlarni buyruqsiz to'ppa-to'g'ri botqoq orqali yetaklab ketdi... Texnikani botqoqqa cho'ktirib yubordi, o'zi ham sal qolsa askarlar bilan cho'kib ketay dedi... – Zelinskiy to'xtadi, u yo qanday bo'lganini eslardi, yoki bunday epizodni tezda aytib berish mumkin emas deb hisoblab zalning reaksiyasini kutardi. Biroq jim turib, qo'shib qo'ydi; hozir hammaning ko'zi unda edi: Knyazeva ham, himoyachi ham, tik turishda davom etayotgan Olga ham, Bukati va Vedernikovning o'zi ham. – Biz axir... Biz jasumi ayamadik! Uning xizmatlari va medallariga qaramay... A-ya-ma-dik! O'rtoqlar!

– Buning Vedernikovga nima aloqasi bor? – so'radi Bukati.

Olga, undan hech narsa so'ramasalar ham, shu zahoti javob berdi, biroq bu javob Zelinskiyning o'ziga ham yoqmadi, garchi Olga unga xushomadgo'ylik qilayotgani tushunarli bo'lsa ham:

– Mana bunaqa, o'rtoqlar! Dastlab jinoiy jo'rasini himoya qildi, unga qarshi ovoz bermadi, keyin xususiy mulkdorga o'xshab konservalarni tashib ketdi... Silich, ya'ni Volodya Pochkayloning esa uchta jajji bolasi bor... Ular ham anchadan beri go'sht tatishmagan... Balki hech qachon tatishmagandir! O'rtoq generalning so'zlaridan ham bu mukofot faqat Vedernikov emas, hamma uchun mo'ljallangani tushunarli edi! Gap mana shunda!

– Konservalarni muhokama qilmaymiz, – dedi birdan joyidan turgan Zelinskiy. – Biz faqat Vedernikovning yonida bo'lganlarning o'zi uni ayblashganini eslab qolamiz. – Shu yerda prokuror Vostryakovaga qaradi va yuzini Kostikka burdi.

– Sudlanuvchi Vedernikov, aytganча, o'sha konservalarni qayerga qo'ydingiz?

– Sotib yubordim, – javob berdi Kostik bo'shashib.

– Ertasi kuniyoqmi?

– Biz ertasi kuni ishlaganmiz.

– Bo'lmasa qachon?

– Esimda yo'q, – dedi Kostik.

– Lekin ko'p o'tmay, shunaqami?

– Ha, ko'p o'tmay.

– Bundan chiqdi, generaldan mukofot olib, bozorga yugurib ketgansiz? – so'radi Zelinskiy zalning qattiq kulgisi ostida.

– Men yugurib ketmadim, men yurib bordim...

– Buning farqi yo'q. Ularni qanchaga pulladingiz? Yuzgami? Ikki yuzga?

Vedernikov javob bermadi. Undan javob kutishmagandi ham. Bu yerda savolning o'zida javob yashiringandi: odam o'z mukofotini sotib yubordi, pullarni esa aysh-ishratga sarflab yuborgan bo'lsa kerak. Onasi dastlabki tergov paytida hech qanaqa konservalar va hattoki pullarni olmaganini aytgan bo'lsa, demak, onasiga bermagan. Onasi bunday narsani eslab qolgan bo'lardi.

– Lekin sizning onangiz sizdan pul olmagan? – o'ljasini batamom yakson qilishda davom etardi prokuror. – Shundaymi yoki yo'q? Na konservalar, na pullar?

Vedernikov yana indamadi.

– Aynan shunday, – sudlanuvchining o'rniga dedi prokuror va mamnun bo'lib stulga o'tirdi. – Bedarak yo'qolgan frontchining xotini maktabda farrosh bo'lib ishlab arang tirikchilik o'tkazayotgan bir vaqtda... Nimasini aytay, barchasini o'zi aytar...

Zalda norozilik ovozlari eshitildi.

– Sharmanda! – baqirishdi birinchi qatordan. – Jinoyatchiga uyat!

Kostikning otasi zavod buxgalteri, vazmin va o'zining idora ishlariga berilgan inson edi. Zavodgacha u sut zavodida ishlagan va urushdan oldingi og'ir vaqtlarda Kostik eslab qolgandi – onasi, keyin esa o'zi ham daryoning narigi tomonidagi o'sha zavodga borishgan,

u yerda ularga oq suv – sutni qayta ishlangandan so'ng ortib qolgan yog'i olingan sut berishardi.

Qirq birinchi yili, ko'rish qobiliyatining pastligiga qaramay, otasini rotaga sanitariya yo'riqchisi qilib chaqirishdi va u hamda boshqalar bir necha oy davomida maktab binosida turishgan. O'shanda Kostik shox devorga yugurib kelgan, otasi esa teshik orqali to'ppato'g'ri siyqasi chiqqan shapkasida qayerdandir olib kelingan muzlagan kartoshkani unga uzatib turgan. U shoshilib atrofga qarab va Kostikka yana kelishini, u, otasi oilasi uchun yana boshqa narsalar topib qo'yishini tayinlab, u tutib turgan sumkaga kartoshkalarni to'kkan. Kostik og'ir yuk bilan uyiga qaytar, sumkadagi kartoshka esa yog'och kubiklarga o'xshab ora-sira taqillardi.

Ammo bir safar, Kostik devorning oldiga kelganda hech kimni ko'rmadi: faqat bosib tashlangan hovli bo'ylab sovuq shamol esardi. Va bitta ham tirik jon yo'q. Shunday bo'ldi, otasi bilan ko'p marta xayrlashishi mumkin edi-yu, bir marta ham vidolashishmadi. Undan xatlar ham qolmagandi.

Urushning o'sha birinchi sovuq oylarida Kostikning onasi dar-yoning narigi tomoniga, daraxt kesuvchilar brigadasi ishlovchi o'rmonning ichiga borishni o'ylab topdi. Ularning otlari bor edi va ona jiddiy qiyofadagi yuk tashuvchilardan (ko'pchiligi mehnat armiyasidan, O'rta Osiyodan kelgan, paxtali choponda edilar) ikki stakan sulini yalinib-yolvorib so'rab olardi. Bu suli yormasi ularning hayotini qutqarardi. Ular sulini suvda ivitib, go'shtqiymalagichdan o'tkazishardi, Kostik aylantirardi, onasining kuchi yo'q edi va ular atala qaynatishardi. Shunday jon saqlashardi, keyin zavodda ham ovqat bera boshlashdi.

Bir safar u ikkinchi smenadan qaytib kelayotgandi va kutilmagan boshiga baxt qushi qo'ndi: birato'la ikki kunga yetadigan yegulik bilan ta'minlashdi – bir buxanka non va yog' mahsulotlarini beradigan talonga yarim kilo paxta yog'i. U uyga yetib olgunicha nonni oz-ozdan chimdilab yog'ga botirib hammasini paqqos tushirdi. Uyga keldi, qo'lida esa bo'sh banka, ostida ushoqlari suzib yuribdi. Onasi ko'rib yig'lab yubordi. Achingani uchun emas, o'g'lining ozib ketganidan, doim ishda bo'lganidan yig'lab yubordi. O'sha vaqtdan boshlab ona unga me'yorni taqsimlab bera boshladi: kisel bilan bir miqdorini ish-gacha, ikkinchisini – u ham kiselli – ishdan so'ng.

Shu orada ularni ishdan bo'sh vaqtda – qiziq tomoni, bu nima uchundir tunda ro'y berardi, ular nima sababdan tundaligini keyin tushunishdi, lekin darrov yetib bormadi – jarohatlanganlarni poyezddan tushirishga jo'natishni yo'lga qo'yishdi.

Bir kechada o'ntagacha sanitar poyezdlari va eshelonlari kelardi. Baqiriy-chaqiriqlar, qon, bintlar... Ba'zilari baqirib, ustidagi kiyimlarini yirtishardi... Aholi bilib yoki eshitib qolmagunicha ularni tezroq yuk mashinalariga ortib gospitallarga tarqatish kerak.

Gospitallarning biridagi hovlida shunday voqea yuz berdi, Kostya zambilni ko'tarib ketayotib, to'satdan bir jarohatlangan askar ikkinchisini chaqirayotganini eshitib qoldi: «Vedernikov!» Zambilni tushirib yuboray dedi! O'sha yoqqa tashlandi: qarasa – odam, aniqrog'i, kesik – oyoqlari yo'q odam. Kostikning ko'z oldi xiralashdi. U bor kuchi bilan baqirib yubordi: «Dada! Dada!» Jarohatlangan kishi o'grilib qaradi va Kostik bu otasi emas, begona odam ekanligini ko'rdi. Qo'rqqanidan ho'ngrab yig'lab yubordi, oyoqsiz jarohatlangan odam esa uni ovuntira boshladi: «Hech qisi yo'q, yigitcha, sabr qil... Otang hali qaytib keladi... Men aniq bilaman, u tirik... Men oldingi pozitsiyada bir Vedernikovni ko'rgandim... Ismini eslolmayman, lekin senga o'xshaydi... Shunday ishbilarmon, og'ir-bosiq, u, adashmasam, yordamchi qismda edi...»

– Tibbiy qismdan bo'lsa kerak? – umid bilan so'radi Kostik.

– Ha! Aniq! O'sha yerdan! Shunga aytyapman-da, otang tirik! Sen kut! Onajoningga ham yashashi kerakligini ayt!

U generaldan mukofot sifatida dimlangan go'sht konservasini olgan o'sha baxtli tongda Kostik darrov o'sha konserva bilan nima qilishni tushundi, u konservani Vedernikovga olib borib beradi. Oyoqsiz va uning otasini ko'rgan Vedernikovga... U o'sha askar haqida ko'p marta eslagan, biroq bir necha soatini ajratib zavodning temir quchoqlaridan otilib chiqish oson emasdi.

Ikkita yaltiroq bankachalarni qo'lga siqib, yo'lovchilar beixtiyor nigohlarini unda to'xtatardi, hattoki izidan qarab qolardi – ko'zlarining o'ngida shunday boylukni oilb ketishyapti! – u butun shahar bo'ylab gospitalgacha olti kilometr yugurdi. Ko'zlari og'rirdi, biroq u buni sezmasdi! Ular eshelonni tushirishda qatnashmagan vaqtlarida stansiyadan pristangacha tor izli temir yo'lini o'tkazishibdi va endi undan yaradorlarni prichalgacha tashirdilar, biroq ko'pincha tunda...

Bankachalar bilan Kostik hovliga va palataga kirdi, u Vedernikov qayerda yotganini bilardi. U hech kimga o'z sirini ochmadi, endi uning gospitalda qarindosh jigari borligini hattoki onasiga ham aytmadi. Onasiga umuman aytmaslik kerak, u erini eslab qiynalsa ham, ovoz chiqarib aytmaydi, bu yerda esa, o'z-o'zidan ravshanki, bezovta bo'lib qoladi, tunlari yig'lashga tushadi. Kostikka shunisi yetmay turuvdi!

Gospitaldagi oyoqsiz Vedernikov bo'lsa juda ham quvnoq odam ekan. U havo o'qchisi bo'lgan va o'zining jangovar kasbi haqida har xil voqealarni so'zlab berardi: u ham havoda yongan, dushman pozitsiyasiga ham sakrashga to'g'ri kelgan... Shunday sakrashlarning birida havoning o'zida oyoqlarini otib teshishgan, yaxshiyamki o'zinikilar joylashgan pozitsiyaga uchib kelib qo'ngan. Shamol bizing tomonga esgan emish.

Kostik Vedernikov haqida hamma narsani bilardi, u askarga soqol olishga ham yordam bergan, daladan gullar uzib kelgan, bir safar esa unga sovg'a qilishgan sabzini olib kelgandi.

Bu yerda esa taqdir sovg'asi – konserva bankasi! U Vedernikov unga peshvoz chiqib, butun palatani boshiga ko'tarib: «Do'stlar, mening qarindoshim keldi! Bizda bayram!» deya baqirishini tasavvur qildi. Uning o'z farzandi ham bor edi, biroq u okkupatsiyada, Odesada edi, shaharni ozod qilishganiga qaramay, u o'g'li to'g'risida hech narsani bilmasdi, eshitmagandi. Kostik uni, albatta, o'g'li tirikligiga ishontirardi.

Ular shunday ko'rishib turishardi: biri ikkinchisiga o'g'li yoki otasi borasida tasalli berar, biri ikkinchisiga ishonardi. Asosiysi shu.

Endi Kostik eshikda turib oldi, lekin Vedernikovni ko'rmadi, chunki karavoti bo'sh edi.

Dastlab shunday fikr keldi: yarasini qayta bog'lash uchun olib kelishgandir, balki umuman boshqa palataga ko'chirishgandir. U anchadan beri bu yerda yo'q. Palatadagi Kostikni tanigan boshqalar indamadilar, go'yoki uni ko'rganlaridan xursand bo'lmadilar. Unga shunday tuyuldi. Yonidan o'tib ketayotgan yangi hamshira, u Kostyani ilgari bilmasdi, yo'l-yo'lakay so'radi: «Siz kimning oldiga, o'rtoq? – Va hayron bo'ldi: – Vedernikovning oldiga? U axir o'tgan haftada vafot etdi-ku». Aytdi va o'z ishlari bilan ketdi. Kostik esa hammaning ko'z o'ngida turib qotib qoldi, chunki hozir uning

o'zi ham yura olmasdi. Hattoki yig'lay olmadi, juda kutilmagan zarba bo'ldi. U bo'sh karavotning oldiga yurib bordi va bankalarni javonchaga qo'ydi. U buni nima uchun qilayotganini o'zi ham bilmasdi. Ehtimol, tirik Vedernikovga bunday boylikni olib kelmagani, endi esa o'lgan Vedernikovga keltirgani uchundir. Uning Kostyaning sovg'asini hech qachon ko'rmasligi, baholamasligi tushunarli bo'lsa-da. Hech qisi yo'q, tiriklar yeb qo'yishadi. Kostik buni darrov fahmlamadi, keyinroq, gospitalning orqasidagi pastqam hovlida dumalab tinmay yig'laganda xayoliga keldi. Qadrdon insonini yo'qotdi, Vedernikovni. Xuddi o'zini o'zi yo'qotgandek.

10

Kun bo'yi smenadan ozod Kostik karavotda dumalab yotdi, yaxshiyamki chindan ham og'riyotgan va yoshlanayotgan ko'zlarini bahona qilish mumkin edi. Ularning nimadan yoshlanayotgani tushunarsiz edi va buni kimdir tushunishini Kostik xohlamasdi. Hattoki onasi ham. Onasi esa past bo'yli, o'g'lidan ham past, sochlari deyarli oqarmagan, tutam qilib bog'langan, qora kiyimining ustiga quyoshrang eski sholro'mol tashlab olgan edi, uni bir vaqtlar o'zi to'qigandi.

Onasi oldinlari ko'p to'qigan, gilamlarni ham, divanga yopqichlarni ham, keyin ocharchilik bostirib kelganda hammasini sotib yuborgan. Ularning oq dog'li qora echkisi ham bor edi: Mashka, urush yilining birinchi qishi kelganda uni ham so'yishga to'g'ri keldi. Onaning o'zi so'yishga jur'at qilolmadi, qo'shnisi tikuvchi Vasya amaknikiga olib bordi, u keyin frontga ketdi. Olib bordi, Vasya amaki esa Mashkani chopdi, go'shtini uch oyga cho'zishdi, biroq u ham tugadi. Keyin esa sotishga hech narsa qolmadi: faqat divan, lekin uni ona asrardi. Eri bilan birga orttirishgan divan uylari batamom boy berilmagani, xo'jayini hali tirik va qachondir qaytib kelishiga bo'lgan ishonchni mustahkamlab turardi. Quyoshli sholro'molini ham sotmasdi. Sholro'molsiz sovqotib qolardi, buning ustiga u kiyimidagi yamoqlarni yashirib turardi.

Ona Kostikning oldida yelib-yugurdi, chuqur nafas olib, derazaning oldiga o'tirdi. Kostik gapirishni xohlamayapti, indamay turish ham mumkin. Xohlab qolsa, u shu yerda.

Uychalaridagi deraza bitta, katta emas, katta bo'lmagani ham yaxshi, tashqariga kamroq issiqlik chiqadi. Uychaning o'zi ham kat-

ta emas, devorlariga sarg'aygan gazeta yopishtirilgan, chit pardaning orqasida oshxona bor: sludali shishachalari allaqachon to'kilib tushgan kerosinli javoncha, qurumdan qoraygan tokcha, yonida esa qo'lyuvgich va uning ostida chelak. Va mixga qoqilgan krujka. Ikkita qopqoqli, kichkina, issiq pechka, yaxshi pechkachi qurgan. Bu pechka onasining xonasini umumiy xonadan ajratib turardi. Kostyaning o'z temir karavoti bor, uning ustida Pushkinning surati osilgan. Portretning orqasida onasi har xil kvitansiya va dorivor o'simliklarni saqlardi. Yonida Kostik mehnat g'alabalari uchun qo'lga kiritgan faxriy yorliqlar. Shaxsan zavod direktori general-mayor Yakovlev tomonidan topshirilgan shunday yorliqlarning biriga: «Eng yaxshi chilangar uchun» deb yozib qo'yilgan.

– Kostya, hoy Kostya, – dedi onasi qat'iyatsiz. – Qanday ajoyib yangilik... Qo'shnimiz frontdan qaytib kelibdi... Vasya amaki, tikuvchi, esingdami? – Kostya indamasdi, onasi esa davom etardi: – Endi nogiron, oyoqlarini yo'qotibdi... U esa o'ziga qo'ltiq tayoq yasab olib tomorqada zog'chaga o'xshab sakrab yuribdi... Hazillashyapti, boshim omon qoldi, onaxon deb... U oldin ham meni onaxon deb chaqirardi... Boshi-ku urushda omon qoldi, uni tayoq bilan almashtirib bo'lmaydi deydi... Mana shunaqa!

– Omadi chopibdi, – dedi Kostik. Xuddi yostiqaqqa eshitar-eshitilmas ping'illagandek, biroq onasi shunga ham xursand bo'ldi.

– Men ham shunday deyman! Vaska, omading kelibdi! Tiriksan! Oyog'ingga kelsak, sen axir futbolchi emas, tikuvchisan-ku, tikuvchiga esa oyoqdan ko'ra qo'l ko'proq kerak! U esa yana hazillashadi... Xotini Dunya va bolalari esa okkupatsiyada uychada yonib ketgan... Ular qarindoshlarinikiga mehmonga ketishgandi. Yig'layman, o'zim bilmayman nega. Otam Sergey Mitrofanichni eslaganim uchundir... Xotin va bolalarini eslab yig'lab oldim va yengillashdim.

Kostya karavotga o'tirib, oyog'ini tushirdi.

– Oyi, – so'radi u. – Agar otam bilan nimadir ro'y bergan bo'lsa... Shunga o'xshash?

– Oh, qaytib kelsa bo'ldi, – dedi onasi. – Qo'limda ko'tarib yuraman, yerga qo'yman.

Kostik diqqat bilan nimanidir o'ylardi. Yana so'radi:

– Oyi, umuman qaytib kelmasa-chi?

– Qanday qilib... – o‘zini yo‘qotib so‘radi u. – Men otang bilan umrimni yashaganman. Ishga ham birga borganmiz, doim birga bo‘lganmiz. Usiz menga yashashning nima keragi bor? Xohlamayman... – Birdan keraksiz narsalarni gapirayotganini tushunib, o‘g‘liga baqirdi. – Sen nega muddatidan avval uni ko‘myapsan? Nega? Sendan so‘rayapman? Ana, boshqalarga qoraxat keldi, keyin esa tirik bo‘lib chiqishdi... Bizga esa hech qanaqa qoraxat ham kelmadi! Tush, yaxshisi borib yuz-qo‘lingni yuvib kel... Kayfiyatsiz kelding, shuning uchun og‘zingga kelganini gapiryapsan.

– Kechir, ona, – Kostik boshini devorga o‘girib, yostiqqa o‘zini tashladi.

Ona o‘ziga keldi, karavotga uning oyoqlari yoniga o‘tirib oldi.

– U keladi, bolam, – dedi muloyim. – Sen otangni yaxshi eslaysanmi?

Kostik boshini burmay dedi:

– Oyi, otam tushimga kiradi... Har kecha.

– Ana, – ilib ketdi onasi, – demak, tirik! Biz haqimizda o‘ylayapti! U sanitar yo‘riqchiligiga o‘qiganda, maktabda turganda men uning oldiga devorga yugurganman... To‘siqqa yopishaman, u esa narigi tomonda turibdi va biz bir-birimizni eshitamiz, la‘nati urush tugab yana birga bo‘lishimiz haqida o‘ylaymiz. Yoki mana shu divanda o‘tirishimizni xayol qilamiz: biz biroz pul yig‘ib divan sotib olganimizda xuddi o‘z to‘yimizda ikkinchi martadek, shunday dabdabali bo‘lib o‘tirib oldik. Va bizga shunday yaxshi ediki, sen tug‘ilding, keyin esa yura boshlading... Biz yonma-yon o‘tiramiz, bu bizda bayram degani... Menga esa: divanni sot, sot deyishadi! Non ham taklif qilishgan... Men esa kelib, divanga o‘tiranman, u ham shu yerda o‘tiribdi deb tasavvur qilaman... Hech ham bir qarorga kelolmadim. Sotmadim. Sotib yuborsam-u, otang qaytib kelsa nima deyman, deb o‘yladim.

– Taisiya... Ismingiz Taisiya Petrovnami? – so‘radi prokuror Kostikning onasiga do‘stona qarab.

– Meni Taya xola deb chaqirishadi, – dedi u, xijolatdan ustidagi sholro‘molini tortib. – Meni otamning ismi bilan chaqirishlariga o‘rganmaganman, – qo‘shib qo‘ydi u.

– Iltimos, Taya xola, ayting-chi, o'g'lingizni dimlangan go'sht konservasi bilan mukofotlashganini bilarmidingiz yoki hech bo'lmasa bu haqda eshitganmidingiz?

– Eshitmaganman. – javob berdi u polga qarab.

– Ko'rmagansiz ham?

– E Xudo, albatta, ko'rmaganman! – undan qayta-qayta so'rayotganlaridan, bundan chiqdi. ishonmayotganlaridan achchiqlanib dedi u.

– Bozorga olib borganini ham ko'rmadingizmi? – so'radi prokuror. – Agar hech narsani ko'rmasangiz va bilmasangiz, qanday qilib o'g'lingizni tarbiyalayapsiz?

Taya xola yana sholro'molini tortdi va xo'rsinib dedi:

– U o'zining uyidan ko'ra sizlarning sexingizda ko'proq vaqtini o'tkazadi-ku... Kechqurun kelib to'shakka tashlaydi o'zini. Ertalab esa yana suhbatlashishga vaqti yo'q. O'zim ham ishlayman, maktabda o'z smenam bor, uning esa o'z smenasi...

– Demak, u konserva bankasini olganini sizdan yashirgan? – hadeb o'zinikini takrorlayverardi prokuror, bu Taya xolaning joniga tegdi. U achchiqlana boshladi. Achchig'i chiqqanda esa u hech kimdan istihola qilib o'tirmasdi. Shu joyda u sholro'molini to'g'riladi va prokurorni yaxshilab ko'rib turish uchun u tomonga burildi:

– Siz bilasizmi, o'rtoq... Mana siz, aytishlariha, frontchisiz va tushunishimcha, xizmat ko'rsatgan insonsiz... Siz botqoq, cho'kib ketgan qurol va o'sha bechora bolani o'lgunicha sudlaganingiz haqida qancha gapirmang...

– Taisiya Petrovna! – dedi Knyazeva. – Aniq-lo'nda javob berishingizni so'rayman!

– Qo'rqma, javob beraman, – dedi Taya xola va Knyazevaga burildi. – Sen esa, oyimcha, eshit, senga foydali bo'ladi!

– Qanday haqqingiz bor! – gapini bo'lib qo'ydi prokuror va guvohga o'girildi: – Gapiring, marhamat!

– Gapiryapman ham, – qat'iy ohangda dedi Taya xola. – Birinchi bo'lib mana bunga. – deya Knyazeva tomonga ko'rsatdi. – Bu yerda anavi, Bukata, o'ziga tuhmat ag'daryapti, u boshqalarni ishda va smenada ushlab qolgani uchun. Nega siz jim turgan edingiz? Siz-ku zavodda bo'lgansiz va bilgansiz, ular ko'r mushuklar emas, nima qilishayotganini bilishadi... Kostikni ham tortqilashgan... Tortqilashsiz

qanaqa reja bo'lishi mumkin? Siz esa, – yana Knyazevaga murojaat qilib, – jim turibsiz! Yana zavodda ishlagansiz! Sizga ehtimol yoqayotgandir anavi qari... – shu yerda Taya xola ko'zini qisdi va hozir Bukati o'tirgan oldingi qatorga qaradi. Uni topa olmadi va qo'l sil-tadi. – Uning hamma aybni o'z bo'yniga olayotgani, zavod yoki reja deb baqirayotgani boshqalar emas...

– Ayt ularga, Taya xola! – baqirishdi zaldan turib. – Hammasini ayt!

– Mayli, – so'z berdi u lablarini tishlab va prokurorga yuz bu-rib. – Endi esa sizga javob beraman. Siz frontda g'alaba qozondin-giz... Biz ham bu yerda, front orqasida g'alaba qozondik... Qanday qilib? Siz buni, o'rtoq frontchi, hech ham bilmaysiz... Siz mening Kostigim haqida nimalarni bilmoqchisiz, agar uni tanimasangiz? Uni ishdan qanday kutib olishimni... Qanday qilib kiyimini yechib, yosh bolaga o'xshab to'shakka yotqizishimni... Axir u sizlarning sexingiz-dan keyin umuman majolsiz qaytib kelyapti-ku...

– Unday bo'lsa, aytib bering, sizdan so'rayman, – vazminlik bilan va hattoki rahmi kelib so'radi prokuror. Knyazeva ham bosh irg'adi:

– Ha, ha! Aytib bering!

– Nimani aytishim kerak? – so'radi Taya xola va prokuror tomon-ga bir qadam bosdi. – Sizlar uni bu yerda baribir boplab... Siz ehti-mol unga muddatini ham belgilab qo'ygandirsiz? Endi esa bu yerda o'tirib olib javobni masalaga moslashtirayotgandirsiz: goh konserva-lar, goh pullar... Men esa, bundan chiqdi, bu ishda sizlarga yordam berishim ham kerakmi?

– Bunisi endi haddan tashqari! – baqirdi yana Olga. – Bunday so'zlar uchun, bilasizmi...

Taya xola sapchib ketdi va Olga tomonga qaradi. Unda nimani-dir tushunish niyatida unga uzoq tikildi. Tushundi. O'girildi. Boshini quyi soldi va shunday gapirdiki, zal suv quyganday jimjit bo'lib qol-di. Hamma uni eshitishga harakat qilardi.

– Siz meni qo'rqitmang... Men onaman. Men hech narsadan qo'rqmayman. – Va u yana prokurorga burildi va endi faqat unga gapira boshladi: – Siz bu yerda uni sud qilyapsiz, men esa sizlarni! Ichingizda o'ylab topmasligingiz uchun... Uning o'sha kuni, odatda-gidan ertaroq qaytib kelgan kuni haqida esa so'zlab beraman... Men uni yuvinmasdan yotib olgani uchun koyib berdim... Keyin esa biz

damiz haqida gaplashdik va mening ko'zimga uyqu kelmadi, tinmay u haqda o'yladim va ertalab uxlab qoldim... Ana balo!

11

– Ana balo! Ana balo! – uyqusirab Taya xola yelib-yugurardi, u soatsiz ham turishi kerak bo'lgan vaqtni uxlab o'tkazib yuborganini tushunardi. Ilgari u qanday qilib bo'lmasin nonushta tayyorlashga, Kostik ishda yeb olishi uchun bankani kartoshka bilan to'ldirishga ulgurardi. «Ey Xudo, – o'ylardi umidsizlik bilan, o'g'lining uxlayotganiga qarab, undan faqat qoq suyak qolgandi... Bo'yni ham jo'janikiga o'xshash! – Ey Xudo, odamlarga bu butunjahon azobi, urush nima uchun kerak! Uni o'ylab topganlarni shafqatsiz sud bilan jazolagin!»

Qo'lini o'g'li tomonga cho'zdi va shundoq ham qisqa uyqusini bo'lishga yuragi ijozat bermayotganini tushundi. Biroz xayolga cho'mib turdi va o'zini yengib:

– Kostik... Kostik... – deya past ovozd chaqirdi. – Tur, o'g'lim, ishga borish kerak!

U uyg'ondi. Boshini ko'tardi, faqat ko'zlarini ocha olmasdi.

– Hozir, oyijon... Qancha?

– Ko'p! Sen turaver, o'zim uxlab qolibman-ku! Eshityapsanmi?

U ko'zlarini ochmasdan, bosh irg'adi va yostiqa muk tushdi:

– Oyi... Men oz-moz... Jindak... Bir soniya... Oyi...

– Qanaqa oz-moz! – qo'llarini bir-biriga urib qo'ydi onasi. – O'sha oz-moz ham tugadi! Kostik! – u o'g'lini yelkasidan olib o'ziga torta boshladi va o'zicha so'zlanib, mehribonlik bilan tortib uning qudratli uyqusini yengishga harakat qildi. – Sen axir zarbdorimsan-ku... Tanklar yasaysan... Sen pahlavonimsan... – Va o'tirish holatigacha tortib bo'lganidan so'ng mahkam ushlab oldi, nafasini rostlashga ulgurmay kerosinkaga yugurib ketdi. – Endi bo'lsa o'zing tur! Men senga choy quyib beraman!

Kostya yumilgan ko'zlari bilan kiyimini, ishtonini paypaslab topdi va fabrika-zavod maktabi shogirdligi formasini kiydi, kamarini taqdi. Bularning hammasini ko'zini bir marta ham ochmay bajardi. Odatdagicha stol yaqiniga o'tirib, boshini qo'lga tushirdi. Uxlab qoldi!

– Ana choy, – dedi onasi pardaning ortida. Kostik uning ovozi ni eshitishiga va uxlab qolmasligiga harakat qilib. – Qoraqarag'ay qo'shib damladim... Qoraqarag'ay milklarni mustahkamlar emish.

Choynakni olib chiqdi-yu, oh deb yubordi:

– Kostik! Nimalar qilyapsan! Axir kechga qolasan-ku!

Dahshatli «kechga qolasan» degan soʻzni eshitgach – bu soʻz shu qadar dahshatli ediki, u eng qoʻrqinchli tushlarida kechga qolayotganini koʻrardi – Kostik sakrab turdi va eshikka tashlandi.

– Sen qayoqqa! – orqasidan baqirdi onasi. – Choy-chi?

– Oyi, qanaqa choy... – Kostik arang koʻzini ochardi. Qanday turgan boʻlsa, shunday eshik yondoriga muk tushdi. Tik turib uxlab qoldi. Biroq miyasining qaysidir qismi oʻz-oʻzini himoya qilganicha hamon ishlardi, chunki unga ishga ketayotgandek tuyulardi va u ketayotganini aytib mingʻillardi... U ketdi... U... Ket...di...

– Eh senimi! – Taya xola choʻntagini kovlay boshladi. Doim yonida olib yuruvchi nashatir idishchasini paypaslab topdi. Bunaqasi birinchi marta emas! U jips yopilgan shisha tiqinni ochdi va boʻgʻzini Kostikning shundoqqina burniga suqdi. – Qani!!! Ketding va yetib borolmading, – deya mingʻirladi. – Chuqurroq nafas ol... Mana shunaqa... Yana...

Kostya birdan boshini chayqatdi va tamomila uygʻondi. Hattoki koʻzlari tiniqlashdi.

– Oh! – dedi oʻziga kelib va yoqimsiz idishchani nari surib. – Ha, ona, oʻylab topding! Hatto fashistlar tinch aholini gaz bilan bunday zaharlamagan...

– Evaziga miyang ravshanlashdi, – oʻzining haqligini koʻrsatib dedi onasi va oʻgʻlini duo qilib, mashʼum idishchani choʻntagiga yashirdi.

Derazadan oʻgʻlining qanday ketayotganini kuzatib turdi, orqadan mitti chol bukchayib, qoʻllarini choʻntagiga solib ketyapti. Sumkasiga kartoshka bankasini solmaganini esladi, bundan chiqdi u butun smenaga och qoladi. Oʻzini va bu tunni ayblab chuqur xoʻrsindi, u frontdan qoʻshnisi Vasiliyning kelganini eslab, koʻngilni ezuvchi suhbatlardan dili ogʻrigandi. Qancha saqlanmasin, koʻz yoshi qilishga majbur boʻldi. «Chidaymiz», – ichida mingʻirladi u. Bu soʻz uning urush davomidagi yagona daldasi edi. Bu soʻzning aslida nimani anglatishini esa u oʻylashni ham xohlamasdi. Kostik yonida ekan, chidashi kerak. Bir oʻzi chiday olmasdi. Hozir ham shunday fikr keldi: «Chidaymiz». U oʻzi va oʻgʻli uchun koʻk osmon va maysaning xushboʻy hidi bilan shunday yorugʻ boshlangan aprel kuni nimalar bilan tugashini tasavvur ham qilolmasdi.

Lekin Kostikning tashqariga chiqishidan oldin shu ko'chadan qimmatbaho ingliz movutidan qilingan french va zamonaviy shlapa kiyib olgan baland bo'yli shaxs o'tib ketgandi, u o'zi bilan quvnoq serg'ayratlik va qishloqdagi ko'pchilik insonlarning, shu jumladan Kostik va uning onasining taqdirini oldindan belgilab bergan qandaydir vayronagarchilik, hattoki halokatni olib o'tgandi.

Galaktikalararo soatning qandaydir tishli g'ildiragi aylandi va hech narsani orqaga qaytarib yoki o'zgartirib bo'lmasdi. Bo'lg'usi voqealarning aybdori yaxshigina ichib olishga va hattoki Zinaning qiyqimlardan tikilgan ola-bula ko'rpali keng to'shagida xurрак otib mizg'ib olishga ulgurgan bo'lsa ham, ularning ko'pchiligi, jumladan Vasilyok laqabli Tolik ham, Katya ham, Bukati ham, Zina ham, Kostikning o'zi ham va hattoki nogiron Vasya ham harakatda edilar va bu harakat ularni bir-biriga ularning o'nglarida sodir bo'lganidan oldinroq ro'y bergan o'sha muqarrar kelajak sari yaqinlashtirardi.

12

To'shakda cho'zilib yotgan Chemodanovga sergaklik bilan ko'z tashlab, Zina eshikni sekingina tashqarisidan yopdi va ko'cha eshigi tomon tashlandi. Ko'chaning oxiriga borganda nogironga to'qnashib ketay dedi va hattoki cho'chib tushishga ulgurdi.

– Xayrli tong, – dedi nogiron og'zi qulog'iga yetib, ehtimol u bu yosh juvon uyqusirab shunday noaniq yurganidan hammaga to'qnashib ketyapti deb o'ylagandi.

Zina qandaydir soniyalar davomida nogironga hayron bo'lib qaradi va shunday javob berdi:

– Oh, xayrlimikin?!

Biroq bu savol nogironga emas, ko'proq o'ziga qaratilgan edi.

– Albatta-da... – darrov javob berdi nogiron. – Bahor va quyosh... O'tin ham deyarli kerak emas... Sokinlik... Sokinlik-ku... Xo'sh? – Shunday iljaydiki, bu sokinlikni hozirgina o'zi yaratgandek.

Zina esa u g'aplashmoqchi ekanligini tushundi va uni bir jumla bilan chetga surib qo'ydi.

– Mozordagiday sokinlik! – dedi-yu ketib qoldi.

Yugurib ketdi, nogiron esa hayron bo'lib orqasidan qarab qoldi, biroq uning yorug' kayfiyati mutlaqo xiralashmadi. Xuddi iz qoldirmay bulut bo'lib uchib o'tib ketdi.

«Bular nimadan norozi? – ovoz chiqarib o‘yladi u. – Tepalaridan o‘qlar uchmasa... Aksincha, kapalaklar...» Va o‘ngida ko‘rgan birinchi, nimjon, sariq bargga o‘xshash – shamol uni u yoqdan bu yoqqa uchirardi – kapalakni ko‘zlari bilan kuzatib, axir frontda ham bahorlar bo‘lgan-ku, kapalaklar esa nima uchundir bo‘lmagan, deb o‘yladi. Balki ularni urush yoqib yuborgandir, ular shunday nimjonki, ular tankda Kursk ostonasida yorib o‘tayotganlarida atrofdagi havo ham tutun edi...

Zina shu orada ikki tanish ko‘channing kesishmasida paydo bo‘ldi, ertalab bu vaqtda uning akasi shu yerdan har kuni ishga borardi. U shunday odamki, kasal bo‘lsa ham ishini qoldirmaydi. U sexga bayramga borgandek borardi. Zina bordi-yu akasining uyida yangi kiyim – chiroyli ko‘ylak yoki bo‘yinbog‘ paydo bo‘lsa, u o‘sha libosni birinchi bo‘lib faqat ishga kiyishini eslab qolgandi. Bularning hammasi u maktabdan va ota-onasidan yashirinchha parovoz deposiga qochib, u yerdagi ustaxonalarda unga egov berishsa va dastgohga yaqinlashtirishsa baxtiyor bo‘lgan vaqtlardan esdalik bo‘lib qolgandi. Bir safar tokarlik dastgohining yonida turishga ruxsat berishdi va shu bilan uning taqdiri umrbod hal qilindi. Odamlarning orzusi orzudek: uchuvchi, dengizchi, qutbchi, artist bo‘lish, buniki esa – chilangar bo‘lish. Ota-onasi – ikkisi ham o‘qituvchi – u maktabni qoldirsa hayron bo‘lishar, asabiylashishar, hattoki jazolashishardi, biroq bari behuda. «Xotirasi zo‘r, zehnidan muhandislikka o‘qishi mumkin edi», – deyishardi ular. U axir bazo‘r to‘qqizinchi sinfni tugatdi va parovozlarni ta‘mirlaydigan o‘sha ustaxonalarga umrbod ketib qoldi. Moskvaga, Kolomnaga ketdi, u yoqlarda ustaga aylandi. Biroq Kolomnadagi zavod bilan toza tasodif tufayli evakuatsiya paytida yana qadrdon shaharchasi qaytib keldi.

Zinaida uni uzoqdan ko‘rdi va kutishni istamay, unga peshvoz chiqdi.

– Ilya, – shoshilib chaqirdi u. – Bukati yerga ekilgandek to‘xtadi, atrofga qaramadi va balki bunday uchrashuvni kutmagandi. – Men esa seni poylab turibman... Shu vaqtda ketishingni bilaman... Sen bilan gaplashib olmoqchi edim...

– Agar Tolik haqida bo‘lsa, – javob berdi u yerga qarab, – vaqtingni behudaga sarflama.

– Tolikni sen ichak-chovog'i bilan paqqos tushirding, gap u haqida emas!

– Topgan gapini qara-yu! Paqqos tushirdingmush! Nima, u jar-kopmidi! – po'ng'illab qo'ydi Bukati.

– Lekin sen eshit! – undadi Zinaida unga yaqinlashib.

– Yo'q, sen eshit, – talab qilib turib oldi Bukati. – Men ularni fabrika-zavod shogirdligi maktabidan mishqi laycha bo'lgan paytlarida qabul qilib olganman... Sening Toliging, Vasilyok kalishini yo'qotib qo'ygan... Turib olib hiqillab yig'layapti... Mana ular qanday edilar!

– Ilya, uyg'on! – dedi Zinaida mehribonlik bilan. – Sexni eslab qancha alahlash mumkin?

– Men bo'lsam, – davom etardi Bukati uni eshitmay, – sening Toligingni bo'shatib yubordim deyapman! Sexdan! Sen esa, Zinaida, o'zing haqingda o'ylasang bo'lardi... O'smirga bog'lanib qoldingku! Buning ustiga u muttahami bo'lsa! Ana!

– Bo'ldimi? – so'radi Zina nafrat bilan. U bunday sahnani oldindan tasavvur qilayotgandi, shunday bo'lib chiqdi ham. Va temirlarning orasida yuraverib toshbag'ir bo'lib qolgan bu odamning ko'ngliga kira olmaysan, o'zi ham temirga aylanib qolgan! Oila ham qurmadi, hech ham vaqti bo'lmagan. Ishlari sabab diydasi qotdi, johillashdi, boisi o'sha ishlari, agar yonida ayoli bo'lmasa, ro'parasida bolalari yugurib yurmasa va uyda oila deb ataluvchi o'sha eshitilmas musiqqa yangrab turmasa qalbini oxirigacha oziqlantira olmasdi. Zinaning ham, agar o'ylab ko'rilsa, bu borada ishlari yurishmadi, biroq uning boshqa sabablari bor, u oila qurishni xohlagan va chunchuqqa o'xshab derazaga, o'sha juda kuchli istakka borib urilgan-u, faqat g'urra orttirib olgan.

Lekin hozir, ehtimol ushbu fursatda uning uchun hammasi hal bo'layotgandi va qarshisidagi o'q o'tmaydigan, atrofini o'zining garangligi bilan devor qilib to'sib qo'ygan bu odamga ko'p, juda ko'p narsa bog'liq edi.

– Bo'ldimi? – so'radi Zina.

– Bo'ldi, – dedi Bukati, uning bosimi ostida o'zining hukmini o'tkazadigan ovozini pasaytirib. Bukati hattoki o'zini oqlamoqchi ham bo'ldi. – Vaqtim oz... – Va cho'ntagidan kumush, kattaligi mushtumdek keladigan cho'ntak soatini chiqardi. – Smenam bor, Zinaida...

– Lekin sen meni eshitasan! Yoki eshitmaysanmi? – so‘radi Zina ho‘ngrab yuborishga tayyor bo‘lib.

– Qisqaroq! – so‘radi Bukati, uning ovoqidagi o‘ziga xoslikni sezib. Va tumshayib kutardi. Go‘yoki bu yangilikni ham oldindan sezgandek edi. Lekin u hech narsani oldindan seza olmasdi va umuman, u ko‘ringaniga nisbatan himoyasizroq edi. Shu sababli uning uchun bu yangilik tomdan tarasha tushgandek yangradi: «Katya erga teg-yapti».

– Kimga? – so‘radi u sarosimalanib.

– Gap shu haqda, – shoshilib dedi Zina, nihoyat nimadir deyish uchun imkoniyatga ega bo‘lib. Endi uning gapini bo‘lmasliklarini tushunardi. – Bittasi bor... Yosh emas... Keldi, talab qilib turib oldi... – Va chidab turolmadi, yig‘lab yubordi.

– Eh, Zina, – baqirib qo‘ydi Bukati o‘ziga kelib va o‘zining asl dadilligini tiklab. – Seni ogohlantirgandim! Ogohlantirgandim-a! Qizni buzasan deb! Bozor, olmalar, olibsotlar... Kechalari shubhali odamlar... Eh!

– Ilya, safsatavozlik qilma, – so‘radi Zina past ovozda, ko‘z yoshlarini artib. – Men axir sening oldingga chin dildan... O‘zim... Katerina uchun pul bergan bo‘lsang-da, biz tomonga bir qadam ham... Yo‘lni unutding... Bir o‘zim qanday qilib chorasini topib qutulishim kerak edi?

– Rad et, – bo‘g‘iq ovozda dedi Bukati. Taqqa to‘xtadi. U sexda ham buqaga o‘xshab, boshini quyi solib to‘ppa-to‘g‘ri bostirib kelardi.

– Qanday qilib rad etaman! – dedi Zina noilojlikda. – Uning o‘zi! O‘zi rozi bo‘ldi! Ilya!

– Sevgimi deyman?

– Uning yoshida qanaqa sevgi? Tentaklik!

Bukati yana soatini olib, qaradi.

– Vaqt qolmadi, – dedi o‘sha quruq begona ovoz bilan. – Bizda kech qolish masalasiga jiddiy qarashadi.

– Tirik odam uchun sening hech qachon vaqting yo‘q! – baqirdi unga Zina, uning ketishini tushunib va o‘zini hamda Katyani qanday qilib qutqarishni bilmay. Axir bunday vaziyatda aqldan ozish mumkin.

– Va shu joyda Bukati ham chidab turolmadi. Yer ostidan ko‘zlarini chaqnatdi.

– Axir sen qizni shu ahvolga olib kelding! Bilib qo‘y, agar Katerina bilan biror kor-hol ro‘y beradigan bo‘lsa... – hattoki qo‘lini po‘pisali ko‘tardi, lekin Zina uning tahdidini sezmay, tushunmay o‘g‘irilib oldi, Bukati esa qo‘lini tushirdi.

– Menga baqirma... Shundoq ham hamma tomondan baqirib bo‘lishdi... Mayli, men yomon bo‘lay, – dedi ko‘z yoshi aralash u, yuzini qo‘li bilan berkitib. – Mayli, sen o‘ylagandek bo‘lay, biroq men birinchi... Men o‘zim oldingga keldim-ku...

– Kechroq kelding, – birdan xotirjam bo‘lib dedi Bukati. – Mayli. Men u bilan gaplashib ko‘raman.

– Yaxshisi kuyov bilan, – iltimos qildi Zina, yuzidan qo‘lini tushirmay. – Chemodanov bilan!

– Nima desang shu, – takrorladi Bukati va yana soatiga qaradi. – Mayli, sexga oldingga kelsin... Yoki yo‘q, uni kiritishmaydi... O‘rtaxonaga kelsin, maylimi? Tushlikda?

Zina bosh irg‘adi. Bukati ham yo‘talib qo‘yib, singlisini qanday qilib tinchlantirishni bilmay so‘radi. U singlisini bunday ahvolda tashlab ketishni xohlamasdi. – U Katerina bilan qanday?

– Qayerdan bilay? – dedi Zina. – U g‘alati inson...

– Qozonga yaqin yursang, – qo‘l siltadi Bukati. – Eh, Zinka! Yoshlikdagidek ta‘ziringni berardim-u! Toliging puchun ham, Katka uchun ham... – U chuqur xo‘rsindi va chindan ham ketish kerakligini, aks holda kech qolishini tushunib soatiga qaradi. Odatiga ko‘ra uyg‘onib ertaroq chiqqandi, mana bu yoqimsiz suhbatga yo‘liqdi. – Bir gap aytaman, dedi u xayrlashayotib va jimib qoldi. – Bu sening vijdongga havola, Zina.

Va ketdi. Zina qarab turdi-da, to‘satdan baqirdi:

– Ilya!

U qayrilib qaradi, biroq endi to‘xtamasdi, chunki chindan ham kech qolishi mumkin edi va yo‘l-yo‘lakay g‘azablanib baland ovozda dedi:

– Nima Ilya! O‘zing o‘yla deyapman! Joningni ber... Lekin Katkani qutqar! Tushundingmi?

Akasi shunchalik tez ketib qoldiki, bir daqiqa o‘tib ko‘chada ko‘rinmay qoldi, Zina esa ikkilanib, ichida uning oxirgi so‘zlarini qaytarib turardi: «Jonni? Berish? Mayli, mayli, Ilya! Men jonimni beraman!» – go‘yoki unga tahdid qilardi. Va shu so‘zlar bilan boshqa

tomonga otildi. Vokzal oldidagi maydonda unga tanish bo'lgan qishloq yuristining kichkina idorasi joylashgan vokzal tomonga tashlandi. Yurist o'sha yerning o'zida, uyning narigi qanotida yashardi.

13

Bu vaqtda qishloqning boshqa ko'chasida Katya bir savat olma bilan turib xayol surardi. Turib hech narsani o'ylamay kapalakka qarardi, ehtimol nogiron sezib qolgan o'sha kapalak bo'lsa kerak. Kapalak egri-bugri yo'nalish hosil qilib uyning, devorlarning ustidan uchib o'tdi va ustidan qizil latta yopilgan olma savatiga kelib qo'ndi. Olmalarning hidi o'ziga tortdimi yoki kapalak o'sha qizil rangni tirik gul deb qabul qildimi. Lekin u yig'ilgan qanotlarini qimirlatib o'tirardi, Katya esa uni uchirib yuborishdan qo'rqib, savatni qo'lga olishga jur'at qilmay turaverardi. Dasdurustdan orqasidan kimdir gapirdi:

– Xayrli tong!

– Voy, – baqirib yubordi u va o'girildi. Uning qarshisida nima uchundir ertalab xayoliga kelgan o'sha yigitcha turardi. Shunday g'alatiki. U dastlab Katkaga, keyin kapalakka qaradi va asta qadam qo'yib, so'radi:

– Qo'rqitib yubordimmi?

– Yo'q, – javob berdi Katya. – O'ylanib qolibman.

– Nima haqida?

– Nima haqida? – qayta so'radi u va javob bermadi.

– Men ertalab ishga boraman, siz esa doim savat bilan... – dedi dovdirab Kostik nima qilishini – ketishinimi yoki javobni kutishini bilmay. – Nima haqida o'ylanib qoldingiz?

Katya uning nima sababdan so'rayotganini va u bilan gaplashish kerak-kerak emasligini tushunish maqsadida unga birrov ko'z yugurtirdi.

Gaplashish kerak degan qarorga keldi.

– O'ylanib turuvdim... Uyga qaytsammikin yoki... qaytmasammikin deb. – Katka yigitcha uning samimiyligini qanday qabul qilar ekan deb unga zimdan qaradi. Bolakay to'g'ri qabul qilgan ko'rinadi.

– Qaysi biri yaxshiroq? – deb so'radi yigitcha. Demak, tushundi, demak, ahmoq emas.

– Yaxshirog‘i... – dedi Katka, – qaytmaslik. – Biroz jim turib: – Hech qachon... – deb qo‘shib qo‘ydi.

– Ahvoling yomonmi? – darhol so‘radi Kostik.

Kapalak uchib ketdi va u yaqinroq keldi. Endi ular bir-biriga qarama-qarshi turishardi.

– Yomon edi, – jiddiy, xuddi eski tanishiga gapirgandek tushuntirdi u. – Endi esa... – Katka olmalarning ustidagi qizil lattani olib va chekkaga to‘shab o‘tirib oldi. Kostik ham yoniga o‘tirdi. – Men ertalab uyg‘ondim, men necha kundirki uxlamayapman... Itlarni eshityapman... Turdim-da o‘zimcha o‘ylab qo‘ydim: agar bugun hech narsa ro‘y bermasa, unda men nimadir qilaman... – U to‘ppa-to‘g‘ri Kostyaning yuziga qaradi va qo‘shib qo‘ydi: – Yo‘q, men shikoyat qilmayapman, o‘ylamang. Shunchaki biz notanishmiz, men sizga haqiqatni aytishim mumkin... – Va biroz jim turib: – Rostini aytsam, boshqa aytadigan odam ham yo‘q... Balki sizga qiziq emasdir? – Va bunday g‘alati dil rozidan so‘ng suhbatdoshiga qarashga jazm qilmay qandaydir maysa bilan o‘ynay boshladi.

– Nimalar deyapsiz! – dedi Kostik va hozir kunning qaysi vaqti bo‘lganini tushunish uchun quyoshga qarab, o‘rmidan turdi. Katya uning harakatini va nigohini sezmadi. U xayolga cho‘mgandi.

– Men bozorgacha borish va qaytishga o‘rganganman. Va birdan menga aylanishga ruxsat berishdi. Ishlab pul topishga emas, – aniqlashtirdi u. – Aynan aylanib kelishga. Men esa odat bo‘lib qolgani uchun savatni ham olibman...

– Olmalar bilanmi? – so‘radi nima uchundir Kostya.

– Ular olmalar deb nomlanadi, – g‘alati tushuntirdi Katya. – Ya‘ni ular chindan ham olmalar, biroq... Men ularning olma ekanligiga o‘rganolmayapman... Tushunyapsizmi? Ular sotish uchun bo‘lsa va Zina ularning hammasini sanab chiqsa... Rubldek gap... – Va bir fursat jim turib, Katya darrov ehtimol suhbatni boshlashi kerak bo‘lgan gapni aytdi: – Ularni jinim suymaydi. Mana. – Kostikka qaradi, balki uning o‘z so‘zlariga ishonmaslik va uni eshitayotganlarini va qanday eshitayotganlarini tekshirish odati bor edi. – Chemodancha esa orqamdan baqirdi: «Olmasang-chi ularni!» Men esa ushlab oldim... Balki Zina baqirgandir... – Katya kutilmaganda hiqillab yig‘lay boshladi, lekin gapirishda to‘xtamasdi, davom etardi va hattoki boshidagidan ko‘ra shoshilibroq gapirardi: – Men esa ushlab oldim va ko‘chaga yugurdim...

Mana, aylanib yuribman, ko'chani oxiriga yetib bordim va adashib qoldim... Endi qayoqqa borishni bilmay o'tiribman...

Kostik undan ko'zini uzmay, o'rnidan turdi va so'radi:

– Yig'lamang... Iltimos... Men borishim kerak. Smenam bor... – deya yana o'tirib oldi.

U shunchaki keta olmasdi. Tura olmasdi ham. O'tira olmasdi ham. U bunday holatlarda, yonida kimdir yig'layotganida nima qilish kerakligini bilmasdi.

– Ketavering, – birdan dedi Katya. – Men axir sizni ushlab turganim yo'q-ku.

U tizzasiga muk tushib o'tirar va o'sha, tasodifiy yigitcha shu yerda ekanligini bilishni istamay boshini ko'tarmasdi. Agar Kostik o'rnidan turib ketib qolganida u baribir buni sezmasdi.

– Qanday qilib ketaman? – so'radi u soddalik bilan. – Men bunday qila olmayman... – Va yana turib: – Men chindan ham so'rayman...

– Menga hech kim kerak emas, – va Katya tizzasidan uzilmay, qo'l siltadi. – Men sizdan so'ramagandim. Men o'zim...

Kostyaning nima sababdir jahli chiqdi. Ehtimol uni nazar-pisand qilmaydigan ushbu qo'l harakati achchiqlantirgandir, balki bu yo'qol degan ma'noni bildirar...

– O'zingiz bo'lsangiz o'zingiz-da! – dedi u qat'iy qarorga kelib va hattoki yonga bir qadam qo'yib. Qadam qo'ydi-yu, o'girildi. Va u tomonidan hech qanday reaksiya bo'lmaganini ko'rdi. Demak, uning ketayotganini tushunmadi. Demak, chindan ham baribir. – O'tiraver! – dedi u va ketdi. Yana o'girilib qaradi. – Yaxshilikcha xohlamaysanmi? Darvoqe, hamma g'alabalar kutyapti... – Nima uchun g'alabalar haqida esladi, o'zi ham tushunmadi. Shunchaki Katka u ham inson va o'z tuyg'ulariga ega ekanligini tushunishi uchun o'zi haqida nimadir demoqchi bo'ldi... Shunday bo'lsa-da... Uning qanday tuyg'ulari bo'lsin, hech qanaqa tuyg'ulari yo'q, bittasidan boshqa: har doim uyqusi keladi. Urush tugagach «tachka»ga kirishi shart emas... U shunda yotib oladi va onasidan uyg'otmaslikni so'raydi! Hech qachon! O'zi turmaguncha va o'zi uyg'onmaguncha! U esa... bir haftalardan keyin, yo'q bir oydan keyin uyg'onadi... Mazza qilib uxlab olganidan so'ng.

Katya bu orada turib, ustini maysadan qoqdi, olmalarning ustini esa qizil latta bilan yopib qo'ydi. Savatni oldi va Kolkaga qaramay nari ketdi. Ana sizga sabot!

– To‘xta! – qichqirdi unga Kostik. – Kel tanishamiz?
Savatini qo‘lidan qo‘ymay, Katka biroz boshini burdi:

– Bo‘ldik.

– Nima bo‘ldik? – shoshildi u, biroq u tomonga bir necha qadam bosdi, Katya esa orqasi bilan turar va unga g‘alati qarardi.

– Tanishib bo‘ldik, – takrorladi u. – Sen mening tog‘amga o‘xshar ekansan, u ham gaplashadi, o‘zi esa sexidan boshqa hech narsani bilishni xohlamaydi.

Kostik, Katya bularni aytayotgan paytida, oldiga kelib savatga qo‘lini cho‘zib dastasini ushlab oldi. Katya savatni o‘ziga tortdi va baqirdi:

– Ber savatni!

– Bermayman, – dedi u. – Mening ismim Konstantin Sergeye-
vich.

– Nima qipti? – birdan, undagi qandaydir kuchni sezib tinchidi. –
Mening ismim esa Katerina Yegorovna. Partiyasiz... O‘n yetti yosh...
Bugun...

Ular savatning ikki tomonini ushlab bir-biriga qarab turishardi.

– Nima bugun?

– Bugun erga tegyapman! Tushunmaydigan ahmoq! – dedi
Katya achchiqlanib. Biroq uning qattiq achchiqlanmayotganligi
ko‘rinib turardi.

– Haligi... – qiziqdi Kostya. – Chemodanchagami?

– Vasiliy Vasilich... U menga sovg‘a berdi, hattoki uzuk... U
yaxshi odam, – xuddi kim bilandir bahslashayotgandek edi Katya. –
U menga: «Ketamiz va boshqa hech qanaqa olmalar bo‘lmaydi!»
dedi.

– Nima, o‘sha, sening Vasiliy Vasiliching qarimi? – qiziqdi vaz-
minlik bilan Kostya. Lekin Katya o‘ziga kelgandi va yana achchiq-
landi. Balki unga qallig‘ining yoshi haqida eslatishgani uchun ach-
chiqlangandir.

– Sening ishing bo‘lmasin! Tushundingmi? – baqirdi u.

– Yo‘q, tushunmadim, – xotirjam dedi u.

– Menga qarang, Konstantin Sergeyevich, – so‘radi Katya, sab-
ri chidamay. – Zavodingizga boring... Tankingizning ichiga kirib
o‘tiring va hech narsani bilmang... U yerda tobutning ichidagidek
jimjit!

– Ketmayman, – baqirdi Kostya naq yuziga qarab. – Hech qayoqqa ketmayman! Sen uni yaxshi ko‘rmaysanmi?

– Yopishib olganini! – noilojlik bilan dedi Katya va o‘girildi. – Baqirsammi! Shuni e‘tiborga olingki, men baqiraman, ular esa eshitishadi! Tushundingizmi! Ular xohlashsa, sizni qiymalab tashlashadi! Ular sizni o‘ldirishadi!

– Baqiraver, baqiraver, – dedi bepisandlik bilan Kostya. – Baribir yaxshi ko‘rmaysan! – U savatni qo‘yib yubordi va unga istehzo bilan qaradi. – O! Bozoringga bor! Men seni tushundim... Sen shunchaki chayqovchisan!

– Men chayqovchimanmi? – esankirab qayta so‘radi Katya va savatni yerga qo‘yib, Kostya tomonga yurdi va oyog‘ini bosib olay dedi. – Qani, qaytar-chi! Qaytar gapingni, men kimman? Chayqovchimanmi?

Kostya birinchi marta uning qizigan yuzini va chaqrab turgan katta ko‘zlarini bu qadar yaqindan ko‘rdi. Agar u Katyaning siquviga bardosh berolmay chekinsa unga xippa yopishib olishi mumkinligini tushundi. Lekin o‘zining ham jahli chiqqandi, uning uchun jahli chiqqandi, chunki u aldagandi: uni va o‘zini o‘zi aldagandi... U nima ro‘y bermasin, chekinmaydi. U tentak qizni ayblaydi, o‘sha sevgisi uchun emas, boshqa, o‘zi ham haq bo‘lgan narsada ayblaydi.

– Ha! – baqirdi Kostya naq uning yuziga. – Ha, sen haqiqiy chayqovchisan. O‘zingning olmalaringdan boshqa hech narsani ko‘rmaysan!

– Hali shunaqami! – dedi Katya. Bir qadam orqaga chekindi, ko‘zlari bilan savatni qidirib burildi va birdan tezlik bilan savatning yoniga borib so‘zlanib turib olmalarni yo‘lga birin-ketin ota boshladi: – Qara! Qara! Hamma ko‘rsin... Nafratlanaman! Hammadan nafratlanaman! – Savati bilan shundoqqina yonidagi chang yerning ustiga o‘tirib oldi va bo‘kirib yig‘lay boshladi.

– Tentak, olmalarda nima ayb? – Kostya uni ko‘tarib qo‘ymoqchi bo‘ldi, lekin Katya qo‘llarini siltab o‘rnidan turmasdi.

Shu vaqt yo‘lda Zina ko‘rindi. Ehtimol u vokzalning yonidagi o‘zining yuristiga, balki boshqa joyga borib kelishga ulgurgandir, lekin u ikkita odam yo‘lda talashib olmalarni irg‘itishayotganini ko‘rganida junbishga keldi... Uning, Zinaning shunday qiyinchilik

bilan o'stirgan va aprelgacha saqlangan tillaga teng olmalarini... Bunisi oshib tushgan edi!

– Sen nima qilyapsan! – o'shqirdi u Kostyaga yaqinlashib. – Sen maraz, nega bezorilik qilyapsan? Hozir militsiya chaqiraman!

U hozir Kostya qochib ketadi, yashirinishga urinadi deb o'yladi, lekin qizig'i: u hali ham changda o'tirgan Katyaning oldida tek turar va hech qayerga qochmasdi. U yaqinlashib kelayotgan Zinaga xotirjam qarardi. Kostya hamon tentak Katerina Yegorovnani o'rnidan turg'izishga harakat qilardi, ammo quyushqonidan chiqqan Zinaga u Katyani ataylab changga yo'lga yiqitib olmalarini olib qo'yimoqchi bo'lgandek ko'ringan bo'lishi mumkin. Zina qochib ketmasligi uchun uning qo'lidan ushlab oldi va shundan keyingina Katyaga ahvolini so'rab, qattiq urnadimi degan savol bilan yuzlandi. Lekin Katyaning shikoyat qilish niyati yo'q edi, u sekingina o'rnidan turib na Kostyaga, na Zinaga qaramay ustidagi changni qoqa boshladi. Qoqib bo'lib, olmalarni terib oldi va xolasiga dedi:

– Zin, uning aybi yo'q... Uni qo'yib yubor.

– Nega bo'lmasa baqirding? – so'radi shubhalanib. – Savatni kim qo'lingdan tortdi? Men hammasini ko'rdim! Bosqinchi! Mevalarimni dabdala qilding! – Lekin uning qochib ketmoqchi emasligini tushunib qo'lini qo'yib yubordi.

– Menga baqirmang, – dedi Kostya past ovozdada, lekin qat'iylik bilan. – Bilmay turib baqirishga haqqingiz yo'q.

Va shu joyda Zina tutaqib ketdi: ona suti og'zidan ketmagan bu bolakay unga aql o'rgatyapti... Hamma aql o'rgatadigan bo'lib qolgan... Hamma haq-huquqlar haqida eslab qoldi... Bittasi uyini olib qo'yimoqchi, ikkinchisi qizchani olib qochmoqchi, uchinchisi vijdonni ro'kach qiladi, to'rtinchisi uning olmalarini irg'itadi! U esa o'sha olmalarni qish bo'yi... Har birini alohida qilib o'ragandi. Qancha mehnat, qancha kuch... Zina aravaning yoniga o'tirdi va ko'zining oldida aylantirib, birma-bir ko'zdan kechira boshladi va bu olmachalar qanday mashaqqat bilan o'stirilganini, qarzlaridan qutulish uchun olmachalarni qanchadan sotishi kerakligini tinmay aytardi.

Ammo uning hamma gaplari Katya nima uchundir himoya qilayotgan mana bu bezoriga emas, agar o'ylab ko'rilsa, ertalabdan boshlab Zinaning hamma baxtsizliklari boshlangan Katerinaga atalgandi... Undan, balki Tolikdan, ehtimol Chemodanovdandir.

Zina qo'yniga berkitilgan qog'ozlarni esladi va o'rmidan turib, ularni olib Kostyaga ko'rsata boshladi:

– Balki senga mening uyim ham kerakdir? Balki sen faqat olmalarni emas, boshqa narsalarinni ham olmoqchidirsan? Ol! Uyalma! Uyalib nima qilasan! Ol deganda ol! Tala deganda tala! Katerina bilan ikkimizni bir yoqlik qil...

– Zin, o'zingni bos, – dedi Katya, u Kostya tomonga qaramas, uning hali ham shu yerda turganidan g'azablanardi. U Zinaning Katyadan boshqa hech kimga tegishli bo'lmagan asabiy tutqanog'ini ko'rishi shart emas.

– Zin, kerakmas... Bo'ldi qil... Iltimos qilaman.

– Hammasi seni deb! – qaytardi po'pisa bilan Zina va qog'ozlarini qo'yniga yashirdi. – Meni tamom qilding. Seni deb toshyurak bo'lib qoldim... Uyga borasanmi?

– Boraman... Albatta, boraman, faqat o'zingni bos. Xohlasang, yerto'laga qamab qo'y, faqat asabiylashma, xo'pmi?

Ular birgalikda savatni ko'tarishdi va ketishdi, Kostya esa turib qoldi. U haqida eslashmadi ham. Kostya ular uchun mavjud emasdek edi go'yo. Ehtimol, u chindan ham militsiyaga olib borishmagani-dan xursand bo'lishi kerakdir, olib borishlari mumkin edi-ku. Ammo birdan unga hozir u kimnidir emas, uni kimdir talon-toroj qilgandek tuyuldi, balki endi unga hozir kerak bo'lgan qizni olib ketib uni chindan ham talon-toroj qilishgandir. U qiz unga nima uchun kerakligini o'zi ham bilmasdi. U bilan uch yil shu yerda, ko'chada uchrashish, «Salom sizga»sini eshitish va uning mavjudligini bilmay yashab yuraverish mumkin edi. Va umuman, dunyodagi hech narsani bilmay... Biroq mana aprel kirib keldi, uning o'n to'qqizinchi kuni o'tdi va Kostikning ko'zlari ochildi. Boshida u Katyaning savatida o'tirgan karam kapalagini, keyin Katerina Yegorovna degan qizning ko'zlarini shunday yaqindan ko'rdiki, ushbu kulrang-moviy ko'zlarda har qanday kichkina qoramtir dog'ni payqash mumkin edi va dabdurustdan u Katyadan taralayotgan qaynoq to'lqinni ko'rdi, hattoki his qildi ham. Uning ko'nglida nimadir uyg'ondi. Xuddi aprelning iliq havosidan kurtak ochilib bargga aylangandek. Hushiga kelib, orqasidan baqirdi:

– Katya! Katya! – U orqasiga qaramay, Kostikni eshitmay ketib borardi. Biroq u shunday baqirardiki, uni eshitmaslik mumkin emas-

di. Kostik orqasidan yugurib ketdi. U yugurar va butun ko'chaga bor ovozda baqirardi:

– Katya... Yekaterina Yegorovna! To'xtab turing! To'x-tang!

Zina nihoyat burilib qaradi. Katyaga savatni ko'tarib ketish uchun qoldirdi, o'zi esa Kostyaga boqdi. Kostya Zinaga qalin to'siqqa urilgandek to'qnashib ketdi. Uning oldida halloslab va nochor bo'lib to'xtadi.

– Baqirma, – dedi Zina. – Va umuman... Bu yerga kelma. Nariroq yur, tushundingmi? – Ko'zlariga dushmanona qarab qat'iy ishonch bilan qaytardi: – Nariroq yur deyman! Yigitcha!

Zina Katyaga yetib oldi va ular sayr-tomoshadagi tarallabedod opa-singillardek, savatni ikki tomonidan ushlab yonma-yon ketishdi. Kostya esa yo'lda qoziqday qaqqayib turaverdi.

14

Bu tong odatdagidan boshqacha edi. Quruq, iliq. Quyosh asl bahoriy iliq kunni va'da qilib tonggi tuman pardasidani yorib o'tardi. Nogiron qo'ltiqtayog'ida oqsab-to'qsab borardi. U Kostyaga nima-dir demoqchi bo'lgandek ma'noli qarab qo'ydi, lekin hech narsa so'ramadi va yo'lida davom etdi. Qandaydir qushchalar shoxlarda o'tirib chirillashardi va yana, omadni qarang, sariq yaproqdek notekis chiziq bo'lib karam kapalagi uchib o'tdi, uni yo shamol qishloq bo'ylab uchirib borardi, yoki u hali unib chiqmagan birinchi gulini izlardi. Ahmoq shoshildi, birinchi ilqlikka ishondi, gullar esa hali unib chiqmagan.

Kostik o'zi uchun yangi, g'alati, ajib, hech qachon xabardor bo'lmagan narsalarni kashf qilib boshini aylantirardi. U hech qachon bunday narsalar yo'lakdagi tabelchi bilan, aylanib yuruvchi yelvizaklar kuygan moy, bo'yoq, temir va payvandlash elektrodlarining turg'un hidini har tomonga taratuvchi, idorasining yonida tugmalarini qadab olgan Bukati bilan va unga, Kostikka doim ilhaq bo'lgan qadrdon «tachka»si bilan uning odatiy hayotidan tashqarida mavjud bo'lishini xayol qilmagandi. Kim kimga ko'proq tegishlilikini aytish qiyin... Bir narsa aniqki, ular bir-birisiz yashay olmasdilar. Kechagina odatiy, yagona bo'lib tuyulgan dunyo birdan yiroqlashdi va uning bugungi kayfiyatida umuman asosiy, yagona narsa bo'lmay qoldi. Unday bo'lsa nima asosiy edi? Bu ko'chami? Bu kapalakmi?

Daraxtlarning shoxlaridan o'tib turgan, ko'z zo'rg'a ilg'aydigan, biroq istaydigan quyosh nurimi? Shu narsa asosiya aylandimi? Yo'q, Kostik bu emasligini bilardi. Juda ko'p narsalar noodatiy, yangi edi, shunday bo'lsa-da u bu narsalar unga dushmanlik kayfiyatida emasligini bilardi. Biroq baribir asosiysi boshqa narsa edi. Birpasda epchillik bilan undan olib ketib qolishgan g'alati qiz, qizaloq. Deyarli kuch bilan olib ketishdi. u bunga shubhalanmasdi. Ammo olib ketishganlari shu qadar muhimmi? Og'riqli, hech kim bahslashmayapti. Buki-lib turganingda va og'riq hamda g'azabdan havo yetishmayotganda biqiningga zarba berishgandek. Biroq hozir gap boshqa narsadaligi, u, Katerina Yegorovna umuman mavjudligida, u uning uchun yangi dunyoda, yorib o'tayotgan va deyarli yorib o'tgan tonggi quyosh nuri o'rtasida borligida ekanligi ma'lum bo'ldi... Balki u yo'lakning ostonasidan hatlab o'tar va hammasi odatiy doiraga qaytar: tanklar, sex, Bukati... Va u yana bu narsalar unga abadiy berilganiga va faqat ular dunyoda qadrli ekanligiga, bu yorug' olamda boshqa hech narsa yo'qligiga ishona boshlaydi!

U o'zining yangi, o'zi uchun g'alati bo'lgan xayollariga cho'mib anchadan beri yo'lning yoqasida o'tirgandi. Balki xayollari ham yo'q edi, faqat u oxirigacha ishonmagan oldindan sezish hissi bor edi?!

Har yerda hozir Tolikning paydo bo'lishi uni tushga o'xshash ushbu gipnotizm holatidan chiqardi. Tolik unga rahmdil Zina tomondan cho'ntagiga solingan buterbrodini yo'l-yo'lakay chaynab tugatayotgandi – nima uchun rad etgandi – va do'stining achinarli holatini ko'rib tiqilib qolayozdi.

Tong unga kutilmagan sovg'alar taqdim qilayotgan bo'lsa, o'sha sovg'a mana shunisi bo'lsin deya irim qildi Tolik, u barcha fosiqlar kabi, irim-sirimlarga ishonuvchan edi.

U esa aql bovar qilmas narsa sodir bo'lganiga shubha qilmasdi. Eng yaxshi chilangar bo'lmish Vedernikov, itoatkor robot, unga o'zining tilla qo'llari bilan tanaffusda bozor uchun bir necha zazjigalka tayyorlashni taklif qilishganda nayrang ishlatishni bilmagan, istamagan ish savdoyisi smenaga besh daqiqa qolganida o'tirib quyosh nurida toblanardi va o'zining ko'klarga ko'tarib maqtalgan sexiga yugurishga shoshilmasdi.

Kun chindan ham aql bovar qilmas va undan nimani kutish mumkinligi noma'lum edi!

Tolik, shunday fikr yuritib, haqiqatga qanchalik yaqin ekanligini taxmin qilmagandi ham!

Dastlab Katka o'zining aqlga to'g'ri kelmaydigan gaplari bilan, so'ngra Zina, keyin Chemodanov... Vedernikov. Qandaydir vasvasa!

Shunday odamlarni miyasida sanab, Tolik bir narsanigina qilmadi, u hammasini yagona va tugal zanjirga birlashtirmadi, u bunday zanjir mavjudligini hali payqamagandi. Bu yerga nogironni va ehtimol Bukatini ham qo'shsa, u yagona, mustahkam, hech kim uza olmaydigan halqa bo'lib tutashadi.

U eshikdan tashqariga chiqib, Chemodancha bilan urishib-yulishib olgan allaqachongi vaqtdan beri u o'zi uchun zarur bo'lgan ko'plab ishlarni qilishga ulgurdi va asosiysi: Moskvaga ketayotgan kechki poyezdga liter oldi. Garchi literni soxtalashtirish uning uchun muammo tug'dirmasa-da, u qalbaki emasdi, uning odatdagi-dan boshqacha paydo bo'lishi esa Tolikning hayotini boshqarar va yo'naltirardi. Unga literning asqatishi haqida unda hali hech qanaqa ishonchi yo'q edi. Zina o'zining yurist va qandaydir qog'ozlar haqidagi g'alati shamalari bilan va Chemodanchaning paydo bo'lishi – bularning barchasi oldindan o'ylab qo'yilgan ketish rejasini chal-kashtirib yubordi. Aniqrog'i, ketish emas, qochish rejasini, boisi hech kim uni ishdan qo'yib yubormagandi...

Chalkashtirib yubordi. Lekin bekor qilmadi. Va Tolik, Zina bilan uchrashuviga bog'liq ravishda chiptalarni bugun olmoqchi edi.

Endi u Zinaning uyi atrofida, u yerga kirish yoqimli bo'lishiga shubha qilgan holda aylanardi. Shu yerda do'sti Kostik Vedernikovga duch kelib qoldi.

Ular juda ham qalin o'rtoq edilar deb bo'lmaydi. Buning ustiga, ularni fabrika-zavod shogirdligi maktabida birga o'qiganlaridan tashqari nima bog'lab turishi mumkin edi. Yana bu tentak Tolikni majlisda qutqarib qolmoqchi bo'ldi, xuddi hammasi allaqachon hal qilinganini bilmagandek va uning ovoz berish yoki bermasligi Tolikning taqdirini hal qilgandek. O'zgartirmagani yaxshi bo'ldi... Yaxshisi, Zina bilan ham, Olga bilan ham aloqalarini uzadi, chunki har kuni u bilan sexda ko'rishish, uning yolveruvchi ko'zlariga qarashga toqati yo'q edi!

– Nega o'tiribsan? – so'radi Tolik yaqinlashib. – Soat necha bo'lganini bilasanmi?



Kostik bosh irg'atib qo'ydi, bundan uning vaqt necha bo'lganini bilmasligi va bu uni qiziqirtmasligini tushunish mumkin edi.

– Besh daqiqa... Qoldi! Otgul'damisan deyman?

Kostik yana bosh irg'adi, bundan chiqdi, otgulda emas. Tentak-da u. Aqlli odamlar ishlamayotgan paytlarida o'z ishlarini qilishadi. Bu esa o'tirib olib devorni tomosha qilyapti. Yo'lning chetida o'tirib olib begona devorga uzoq vaqt tikila olasanmi!

– Qo'yib yuborishdimi? – qiziqdi Tolik. Va birdan fahmladi: kasallik bo'yicha ta'tilda! Qanday qilib do'stining ko'rinishi sog'lom emasligini darhol payqamagan ekan... – Ha, biroz kasal.

Tolik salgina ko'tarildi, unga Zinaning ko'cha eshigi qimirlagandek tuyuldi. Biroq bu shamol edi. Kostik esa eshitarlar-eshitilmas kasal emasligini, o'zi, shunchaki, ishga bormaslikka qaror qilganini aytib po'ng'illadi. Shunday qaror qildi, tamom, vassalom.

Bunday javob Tolikni mushkul ahvolga solib qo'ydi. Biroq, o'ylab ko'rilsa, bu telbanamo kunda hech narsaga hayron qolib bo'lmasdi. Hammasi qiyalab ketayotgandi. Asosiysi, bu yaxshilikkami, yomonlikkami bilish edi.

– Bunday qarorga qanday kelding, o'zingdan o'zingmi? – qayta so'radi Tolik kulib. – Tushunmayapman...

– O'zim ham tushunmayapman, – tan oldi Kostik.

Faqat chakkasining oldida barnog'ini aylantirib qo'ydi.

– Sen g'alatiroq ekansan, – dedi u. – Men har doim sen g'alatiroqsan deb aytganman. Me'yorida ham ishlay olmayсан, tanballikni ham bilmaysan... Zarbdor... Portretlar, tank kolonnasiga tejashlar... Bundan chiqdi, menga o'xshagan takasaltang ekansan-da! Ana hangoma-yu, mana hangoma!

Tolik yana, sal turib, Zinaning ko'cha eshigiga, keyin o'zining soatiga qaradi. Nemischa shtamplangan toshsiz, lekin chiroyli: qora siferblat, yaltirovchi raqamlar, millar va sariq ziynatli bog'ich.

– Maslahat beraymi? Bepul? – dedi kutilmaganda. – Yugur, quyon! Seni hali kechirishadi! Besh daqiqaga hayfsan berishadi... Va binoyidek ter to'kishda davom etasan. Yana hayfsan olganingga xursand bo'lasan, ishning o'zi senga mukofot bo'lib tuyuladi!

Tolik nima uchun ko'ndirdi, nimaga erishmoqchi bo'ldi o'zi ham tushuntira olmasdi. Agar o'ylab ko'rilsa, unga uning tutingan

¹ *Otgul* – ortiqcha ishlangan vaqt uchun olingan dam olish kuni.

himoyachisi Kostya Vedernikovni ne ko'ylarga solishlari baribir edi, chunki o'zining muammolari boshidan oshib yotibdi. O'z joning har doim azizroq. Ammo gap shunda ediki, Kostik unga hayotida hech ham xalaqit bermagan. Kostik yanglisha boshlaganida uni to'g'ri yo'lga boshlash esa ortiqcha urinish talab qilmasdi. Kimningdir qandaydir vaqtda miyasidagi murvati aylana boshlashi mumkin-ku... Shu sababli aqliga keltirardi va o'sha daqiqalarda o'ziga o'zi yoqib ketardi. Biroq ushbu vaziyatda Tolikni nimadir xijolat qilardi. Aytaylik, Kostik xatosini tushunsa va yugurib ketsa, hammasi o'z joyiga tushadi. Va ertalabdan aqldan ozgan dunyo maromiga tushadi va yana odatdagi kabi Tolikka tushunarli va boshqariluvchan bo'lib qoladi...

Balki u aynan shunday o'ylamagandir, lekin ushbu no'noq tentak Kostyani ahmoqona kech qolish uchun sudlashlarini aniq xohlamasdi.

U shunday dedi:

– «Belgilangan vaqt»ni o'tkazib yuborsang, hech kim senga yordam berolmaydi. Men bir marta sudda bo'lganman, ular u yerda mayda-chuyda narsalarga vaqt ketkazib o'tirishmaydi... Biz sen bilan «tachka»larimizni parchinlaganimizdek jazolarni parchinlashadi.

– Mayli, – birdan dedi Kostik. Shunday beparvolik bilan dedi: «Mayli».

«Aqldan o'zibdi», – darrov o'yladi Tolik. Hech qachon oldingi Kostik bunday so'zlarni aytmasdi. Hech qachon. Endi esa o'sha zarbdor ish odamlarni qanday ahvolga solayotganini bilaver, agar ular Tolik qayerdadir o'qigan, o'zlaridan o'zlari qirg'oqqa otilib chiqadigan kitlarga o'xshab es-hushini yo'qotsalar. Agar o'ylab ko'rilsa, bema'ni o'lim. Jinnilik.

U yana ko'cha yoqalab qaradi, lekin tanish eshikning oldida hech narsa chayqalmadi, vaqt esa ketib borardi. Buning ustiga bu yerda do'stining ahmoqona o'tirishi ham Tolikka xalaqit berardi.

U to'satdan dedi:

– Mayli! Ketdik! Birga! Men seni hech bo'lmasa yo'lakkacha kuzatib qo'yaman, bo'lmasa keyin butun umr vijdonim azoblanadi... Sen esa, agar hammasi joyida bo'lsa, menga sexdan spirt olib chiqib berasan. Meni endi u yoqqa kirgizishmayapti. Seximda spirt tebranib kutib turibdi. Kelishdikmi?

Kostik hech narsa demay o'rnidan turdi va Tolikning orqasidan itoatkorona odimlab ketdi. U indamas, faqat quloq solar va bosh irg'atardi. Uning o'zida emasligi shundoqqina sezilib turardi.

– Spirt menga to'yga kerak, senga aytsam, – bu orada Tolik gapirib Kostikni tobora uzoqqa olib ketardi. – Mening bir tanishim to'y o'ylab topdi. Ya'ni u menga aytmadi, biroq o'zim ham ahmoq emasman, ko'rib turibman. Bordi-yu to'y ekan, xotirjam bo'l, spirtsiz bo'lmaydi... Tushundingmi? Sen menga spirt, men senga sharmandadan qutulish... Boshma-bosh ayirbosh! Hazillashyapman, tentakvoy... Sen boraver, boraver, agar xohlasang yugur, chunki vaqting ketyapti. Ketib bo'ldi deyaver...

Soat roppa-rosa yetti, ish boshlanadigan vaqt bo'ldi...

15

– Guvoh Gvozdeva! – deyishdi sahnadan turib.

Qishloqda ovoza bo'lib ketgan va odamlar klubga kirish eshigi oldida ko'rgan o'sha ayolni chaqirishayotganini darrov sezgan zal sergaklandi.

Biroq shuni aytish kerakki, uning familiyasini sudyadan tashqari shu yerda o'tirganlarning hech biri eshitmagan va bilmasdi. Biroq gap sudya haqida emas.

Zinaning paydo bo'lishi birinchi qatordagi istiholasiz nigohlarning sershovqin e'tibori, suhbatlar, piching, qoralash va o'ziga xos diqqat bilan qarshi olindi. Ammo prokuror birinchi savolini berishi bilan oraga tubi ko'rinmaydigan chuqurlikning qora jarligiga o'xshash noodatijimjitlik turdi. Prokuror Zelinskiyning savoli ushbu jarlikka tashlangan toshga o'xshardi: tosh tubiga yetib boradimi va qachon yetib boradi, olis aks sado beradimi yoki boshqa toshlarning ovozi eshitiladimi?

– Guvoh Gvozdeva, – so'radi prokuror qandaydir varaqqa qarab va boshini egib. – Siz shu kunga qadar, ya'ni 19-aprelgacha sudlanuvchi Vedernikov bilan qachondir uchrashganmisiz?

– Yo'q, – dedi Zina. – Men uni birinchi marta mening Katkam bilan turganda ko'rganman.

– Qayerda turganda?

– Ko'chada.

– O'sha kungacha esa Vedernikovni hech qachon ko'rmaganingizni ta'kidlayapsiz, shundaymi?

– Ko'rmaganman, – dedi Zina.

– Siznikiga kelib turgan ma'lum-u mashhur Vasilyev sudlanuvchi Vedernikovning do'sti ekanligini bilmaganmisiz?

– U o'zi bilan o'zi, – dedi Zina. – Tolik yolg'iz o'zi kelardi, birga hech qachon kelishmagan.

– Tolik – bu Vasilyevmi?

Zina ma'qullab boshini irg'adi. Hattoki hozir, bo'lib o'tgan voqealardan so'ng Zina uni Tolik deb chaqirishda davom etardi. U sahnada kamtarlik bilan yerga qarab va qo'llarining barmoqlarini siqib, shunday batartib, itoatkor, yuvosh bo'lib turardiki, u, bunday muloyim ayol haqida shuncha gap-so'z tarqalganini tasavvur qilib bo'lmasdi.

Lampalar yorug'ligida u tashqaridagidan ko'rkamroq tuyulardi va erkaklar, ayniqsa, ular bu borada qanday fikrda ekanliklarini o'zaro muhokama qilib olish imkoniyatini boy berishmadi.

Ayollar esa uning o'ziga tortuvchanligini ta'kidlab («asalga surkanib olganmi, erkaklar ko'zlarini olaytirishyapti, ularning so'laklari oqyapti-ya»), barvaqt paydo bo'lgan ajinlariga ham, cho'pga o'xshash ozg'in oyoqlariga ham e'tibor qaratishdi, ovsar erkaklar uning nimasiga uchishdi, tushunish qiyin?! Biroq guvoh uchun eng asosiy zarar, albatta, sudya va prokurorning unga berishayotgan savollari edi, u bu savollarga fosh qiluvchi haqiqatdan boshqa narsa bilan javob bera olmasdi, aynan shuni zalda katta sabrsizlik bilan kutishar, bu ayolning uyalishi va chap berishiga to'g'ri kelganda har bir sabab bo'yicha unga malomat toshlarini otishardi.

Shunday bo'lsa-da, ochiqko'ngil kayfiyatdagi erkaklar unga shu damda achinishardi. Ularning rahmdilligidan yosh qizlardan biri oxirgi qatordan turib nozik joyidan olib uning ilon ekanligini, o'zini bokiralardek tutayotganini va hamma erkaklarni o'z tomoniga og'dirib olganini aytib baqirdi... Prokuror ham uni ko'rib erib ketgandir?!

Zal shu zahoti xaxolab kulib yubordi va ko'rinishidan kimnidir o'ziga jalb qila olmaydigan va shu sababdan begona go'zallikka toqat qilolmaydigan, quyushqonidan chiqqan qizni tinchlantira boshladi.

– Vasilyev esa... Tolik, siznikiga tez-tez kelib turganmi?

– Tez-tez, – oddiygina dedi Zina.

– Qaysi vaqtda?

– Qaysi... Qachon xohlasa.

– Shunday bo'lsa-da?

Zina chuqur xo'rsinib, prokurorga ma'yus qarab qo'ydi.

– Kechqurun. Ishdan so'ng...

– Tunda hammi?

– Ha, – biroz o'ylanib turib dedi Zina; zal gumburladi. Mana u, tog'lardagi uzoq kutilgan o'pirilish!

Biroq prokuror pinagini buzmadi. U qog'oziga qarab qizilishtonga o'xshab tinmay bir nuqtani cho'qilab teshardi.

– O'sha tongda u siznikida bo'lganmi? Men o'n to'qqizinchi aprelni nazarda tutyapman?

– Ha, – dedi Zina.

– U sizning oldingizga keldimi yoki... Kechirasiz, jiyaningiz Katyaning oldiga?

– Menga keldi, albatta, – javob berdi odatiydan jonliroq qilib Zina.

– Nega «albatta»?

Shu payt Zina to'xtab qoldi va ehtimol birinchi marta zalga qarab, u yerdan madad izladi. Ammo oldingi, bu yerdan ko'rinuvchi qatorlardagi chehralar sovuq edi, buning ustiga Zina hozir o'sha chehralarni ko'rmayotgandi ham. U umuman zalga yoki shunchaki o'tmishining timsoli bo'lgan qorong'ilikka boqardi. Zina uning hayotidan qandaydir foyda ko'rishni istaydigan, begonalarning tafsilotlariga qiziquvchi ochko'z zalga nigohini qaratgandi.

– Katya – qiz bola, – javob berdi u sekingina. – Menda esa Tolik bilan umuman boshqa narsa... Men... oila haqida orzu qilganman...

Shu joyda xotinlar o'zlarini tiya olmadilar, ular klubga shuncha vaqt jim o'tirish uchun kelmagandilar.

– Oila? Sen oila nimaligini bilasanmi, iflos!

– Qiz bola! Qiz bola! Qani o'sha qiz bolang?

– Odamlarni xarob qilding!

Biroq shu joyda erkaklardan biri ham chidab turolmadi va qo'lini karnay qilib qattiq baqirdi:

– Ahmoqlar, qaqaqalay boshladinglarmi! Erkaklarni o'zlaringga jalb qila olmaganlaring uchun boshqalarga hasad qilyapsizlarmi!

Va boshlanib ketdi: hushtaklar, qichqiriqlar, chiyillashlar va hat-toki Zina ham sahnada zaldagi to's-topolondan g'uj bo'lib oldi.

Ammo Knyazeva o'rnidan turdi va turib zalga qarab jiddiy kutib turgani uchun shovqinlar asta-sekin tindi, shunday bo'lsa ham ayollar uzoq vaqt tinchlanishmadi va o'sha sokinlikda kimningdir xotini tentak erini oldingi qatorlardan va umuman, sud zalidan sudrab tortib chiqarishga urinayotgani eshitildi. U ahmoq bu yerda har xil bemaza gaplarni eshitib o'sha yoqlarga ketib qolmasin uchun... Eri esa hech ham ketishni xohlamasdi va past ovozda xotinini ko'ndirishga urinardi, hech qayoqqa ketmaslikka va'da berardi, lekin voqeani oxirigacha eshitishni xohlar, chunki o'lguday qiziq edi.

«Siz erkaklarning qiziqishingiz bir xil...» – asosli javob qaytarardi xotini va o'jarlik qilayotgan erini eshikdan tortib chiqardi.

– Tinchlandinglarmi? – so'radi Knyazeva. – Eng qattiq shovqin soluvchilarni chiqarib yuboramiz, ogohlantiraman. Davom eting! – bosh irg'adi u Zelinskiyga. – Sizda guvohga yana savollaringiz bormi?

– Menda bor, – birdan dedi Olga va Zinaga murojaat qildi. – Siz Vasilyevga o'z uyingizni va'da qilganmidingiz? Nima, siz uni o'z uyingiz yordamida sotib olmoqchimingiz?

16

Zina Tolikni quvib yetdi, bu shundoqqina yo'lakning oldida sodir bo'ldi. U nima uchundir Tolik hozir zavodning tosh devorlaridan chiqib ketadi va uni boshqa topa olmaydi, degan qarorga kelgandi.

U uzoqdan: «Tolik! Tolik!» deb baqirdi. Tolik o'girildi va darrov hammasini tushundi. Kostikni boraver, ahmoqlik qilma, degandek turtib qo'ydi: sen uchun qo'limdan kelgan hamma ishni qildim... U hozir o'zi uchun hammasi hal bo'lishini tushunib Zina tomonga qayrildi. «Yo dong'im chiqadi, yo changim chiqadi!»

– Men seni hamma yoqdan izlab yuribman, – dedi Zina shoshilib, nafasi tiqilib va uning yuziga qarab. U Tolik oldida har doimgi holatda ekanligiga amin bo'lish maqsadida go'yoki uni paypaslab, ko'zdan kechirayotgandek edi. – Sizlar meni tashlab ketdingiz, – shosha-pisha gapirardi u. – Hammangiz...

– Men tashlab ketmadim, – dedi Tolik. – Men seni uyning oldida kutdim.

– Unday bo'lsa kirsang bo'lardi!

– Kira olmadim, – javob berdi u.

Zina «nima uchun» deb so'rab o'tirmadi. O'zi tushundi. Bu yerda tushunadigan narsaning o'zi yo'q edi.

– Mayli, – dedi. – Menga yordaming kerak.

– Chemodancha bilanmi? – aniqlashtirdi Tolik.

Zina atrofga qarab, ovozini pasaytirib dedi:

– Undan qo'rqaman... Katerinadan xavotirdaman...

– Unga nima bo'ldi?

Zina qo'l siltadi.

– Esi yo'q. Menga yaxshi qilyapman deb o'ylayotgandir...

– O'ziga-chi? – istehzoli so'radi Tolik. – Unga nimasi yomon? Maza qilib shokoladga to'yadi... Qorayadi... Unga kichkina Chemodanchalarni tug'ib beradi... Shunday mittigina, biroq hammasi quyib qo'ygan otasi, nusxa olinganday... Galife va shlapada!

– Hazillashishga qanday hadding sig'yapti! Tolik! – dedi Zina. Biroq aslo jahli chiqmadi, uning kayfiyati boshqacha edi. – U axir xohlaydiki... – Va yana atrofga alangladi, uning ko'zlari tashvishli chaqnardi. – U Katka bilan birga uyimni ham olib qo'ymoqchi!

Endi hammasi tushunarli bo'ldi: Zinaida pand yedi, shunday ko'rindi. Yaxshigina firib yedi. Shu sababli o'zi yugurib keldi, aks holda u qishloqda yelib-yugurib tong yorug'ida Tolikni qidirarmidi!

Tolikning gapi biroz qo'pol eshutilgan bo'lsa-da, u shunday dedi:

– Demak, pand yebsan-da, Zinaxon.

– Sening sharofating bilan! – xitob qildi u. – Sen uni yetaklab kelding! Sen!

Zina nima deb javob berishi mumkin edi? Yetaklab kelmaganida Zinaning o'zi qamoqda muddatini o'tab o'tirgan bo'lardi... Biroq u boshqa narsa dedi. Vasil Vasilich uddaburon chiqdi, dedi! Nima ham deyish mumkin, epchil!

– Qaysi biringiz epchilroqligingizni bilmadim, – gina-kuduratsiz dedi Zina, cho'ntagiga qo'lini soldi va qog'ozni chiqardi. – Mana, – xo'rsinib dedi u, – sen xohlagan narsa... Hadyanoma...

Tolik o'sha «uddaburon» degan so'zga arazlamoqchi edi va: «Rahmat, solishtirgan odamingni qara-yu», degan so'zlarni aytmoqchi bo'lib turgandi, biroq qog'oz, uning aytgan oxirgi so'zi ishni butunlay o'zgartirib yubordi. Tekin daromadning hidi kelganda arazlar-

ni chetga surib qo'yish kerak! Bu narsani esa u masofadan sezardi, adashmasdi!

– Hadyanoma? – so'radi u ehtiyotkorlik bilan, baxtli onlarni cho'chitib yuborishdan qo'rqib. Uning qimmatbaho qog'ozlarni ushlab turgan qo'llariga tinmay qarardi.

– Ha. Bu yerda sen uyning xo'jayini deb ko'rsatilgansan... – dedi Zina va birdan, uning qog'oz tomonga beixtiyor harakatini sezib, eh, u o'zini bemavrid sotib qo'ydi. – Shoshilma, – dedi hasratlanib, qog'ozni bag'riga bosib. – Bu seniki... Seniki...

– Demak, qo'rqib ketibsan-da? – so'radi Tolik zaharxandalik bilan, nima uchun o'zini o'tga urdi, tushuna olmasdi. Jonidan bezor qilgan ko'rinadi. – Uy begona qo'llarga o'tib ketishidan qo'rqib ketdingmi, Zinaxon?

– Qo'rqib ketdim, – bosh irg'adi Zina va burnini qoqa boshladi. Biroq yig'lab yubormadi, o'zini tutib qoldi. – Sen o'ylagan narsadan qo'rqmadim... Men begona qo'llar Katerinani...

– Boshini urib yorsang-da! – birdan dedi Tolik, Chemodancha bilan ertalabki voqeani, uning xuddi Vasil Vasilichni bu uyga o'zi olib kelmagandek Tolikni turtib yuborganini eslab. Keldi-yu gaplashishni ham xohlamadi. Uning minnatdorchiligi shunday edi.

Biroq Tolik bu yerda vijdotsizlik qildi, o'ziga nisbatan vijdotsizlik qildi. Ichida Chemodanchaga, uning olib keladigan «o'yinchoqlari»ga bog'liq ekanini bilardi. Yumshab, qo'shib qo'ydi:

– Faqat bunday odamni deb turmada o'tirgim kelmayapti... Mening hamma yo'llarim unga bog'liq... U chaqimchilik qilishi ham mumkin!

– U meni ham qamab qo'yishini aytib po'pisa qildi! – gapini ilib ketdi Zina. Va hushiga kelgandek bo'lib, xotinlar o'zlarini yo'qotganlarida, azobli jonbozliklaridan tashqari hamma narsani unutilganlarida ro'y beradigan kabi o'zini Tolikning ixtiyoriga topshirib uni quchoqlab oldi. – Sen meni sevasanmi? Yoki... – so'radi, xuddi malomat qilgandek, biroq bu yerda malomat hech narsani anglatmasdi. U shunchaki hozir o'zini qanday qilib bo'lmasin oqlashi kerak edi. – Yoki... Senga mendan faqat shu narsa kerakmi?

«Shu narsa» – bu u ko'kragiga bosib turishda davom etayotgan qog'oz.

– Ishonmayapsanmi? – jig'iga tegib so'radi Tolik, ish yakuniga yetgan deb hisoblab, to'g'ri hisoblab va hozir qog'oz uning qo'llarida bo'lishini bilib. – Berma! O'zim ham olmayman!

Zina uning o'ziga bo'lgan ishonchini va o'zi uchun noodatiy, shunday bo'lsa ham yoqadigan qattiqqo'lligini sezdi. G'alaba qozonganini sezib ohangini o'zgartirmadi. Lekin o'sha-o'sha, o'zi tanigan Tolik edi.

– Men senga emas, men o'zimga ishonmayman, – o'zini oqlashga harakat qildi Zina. Axir u ichidagini to'kib solishi kerak-ku. Tolikka, hozir uni tushuna oladigan odamga aytmay kimga aytsin. U ham tushunmasa, Zinaning jon fidoliklaridan foyda yo'q!

Zina unga sinchiklab qarab, uning uchun o'ziga xos daqiqalarda oxirgi sezgisi bilan, hozircha hujjatlar qo'lida ekanligi paytida to'g'ri yo'l tutyaptimi va o'z taqdirini to'g'ri odamga ishonyaptimi surishtirib aniqlashni istardi. Va cho'zardi, oxirgi daqiqagacha qog'ozni uza-tish fursatini cho'zardi, balki yuragi pichirlab aytar yoki ilohiy belgi yordamga kelib ichki shubhalarini eritib yuborar... Bunday yo'l tutish kerak, degandek!

Gapirayotganida esa bor gapini aytishga, ichida paydo bo'lgan bo'shliqni egallashga shoshilardi... Chemodanchaning o'lguday ichib olib, qo'llarini yon tomonga kerib, etikda gursillab yotib olgani haqida... Molga o'xshab... U yugurib borgandi, yurist esa, turgan gapki, idorada yo'q edi, u uyida endi ko'ylagini kiyayotgandi... Yurist unga qog'ozni berishni xohlamas, ertalabdan yugurib kelgan, bungacha esa bir oy qatnagan, ehtiyotkor, o'ychan, bamaylixotir bo'lgan bu xotin aqldan ozmadimi deb yaxshilab ko'z yugurtirardi. Ertalabdan hammayoq ag'dar-to'ntar bo'lib yotganda endi bamaylixotir bo'lsinmi, buni yuristga tushuntira olasanmi? Qaytib kelayotganida miyasi aralash-quralash bo'lib ketgandi, bu yerda esa savatdan tillarang olmalar uchayotganini uzoqdan ko'rib qoldi... Yuragi qotib qoldi... Nimalar deb baqirganini eslolmaydi... Hammasi o'sha qog'ozchani deb.

– Sen meni hech bo'lmasa yaxshi ko'rasanmi? – so'radi Zina, qizg'anchilik bilan uning har bir harakatini tutib olishga, undan nimani kutishni tushunishga intilib. – Meni quchoqla... Ahvolim yomon! Tolik! Bag'ringga bos! – dedi umidsizlik bilan. – Qattiqroq! Ey Xudo!

Uning yumshoq quchoqlaridan qutulib chiqib, o'zi qattiq, talvasa bo'lar darajagacha unga yopishib oldi, bo'g'ib qo'yay deb o'pib oldi. Keyin qo'yib yubordi va qog'ozni berdi. Shiddat bilan cho'zdi, qo'lga tiqishtirdi, xuddi uning keyingi fursatda aynib qolishidan va hammasi yana og'riqli, chidab bo'lmas darajaga kelishidan qo'rqib.

– Ushla! – deya shivirladi yoki uning ovozi darhol xirillab qoldi. – Mening butun hayotim! Mening va Katkaning!

Tolik qog'ozni shoshilib, biroq astoydil o'qidi, to'g'ri rasmiylashtirilganmi va undagi muhr qanday ekanligini tekshirdi-yu tezlik bilan, ko'z ilg'amas harakat bilan cho'ntagiga yashirdi. Har ehtimolga qarshi kimdir ko'rib qolmadimi deb atrofga qarab qo'ydi. Uning so'nggi atrofga qarashi birdan Zinaning g'azabini qo'zg'adi.

– Nega alanglaysan? – qizishib baqirib yubordi u. – Nimadan qo'rqasan? O'psam – qo'rqasan, gapirsang – yana qo'rqasan! Men axir xotin kishiman-ku, tushunyapsanmi! Meni sharmanda qilish oson! Lekin men qo'rqmayapman-ku!

– Unday emas... – dedi Tolik, qanday qilib bo'lmasin Zinaning shiddatini yumshatishga harakat qilib. U Zinaning yuragida qanday shubhalar avj olishda davom etayotganini payqardi. – Men shunchaki Kostyani izlayotgandim... U axir menga zavoddan spirt olib chiqishi kerak... Esidan chiqib ketmagan bo'lsin-da.


– Ulguradi, – dedi Zina va yana unga yopishdi. – Sen, Tolik, men bilan gaplash... Mening ichimni it tirnayapti... Shunday yomonki...

– Keyinroq, Zina, – va'da berdi Tolik. – Kostik kutyapti. – U hammasini tushunardi, Zinaning azob-uqubatlaridan ham xabardor edi, lekin ortiq qola olmasdi, qog'oz qo'lida edi va endi, Zina niyatidan qaytmagunicha qulay fursatni poylab ketish kerak edi.

– Sadqayi sar! O'sha Kostiging! – baqirib yubordi Zina. – Kutib turadi! Yoki senda hammasi soatma-soat yozilganmi... Mendan ol-ding, boshqasidan ham olishga shoshilyapsanmi?

– Tinchlan, Zina, tinchlan... – yana ko'ndirishga urindi Tolik, ammo Zina tutaqib ketgandi, xuddi hozir o'zini qanday xohlasa, shunday tutish huquqini sezgandek.

– Tinchlanmayman! – baqirdi u va hattoki ovozini yanada balandlatishga urindi. – Tinchlanishni xohlamayman... Tushundingmi? Men uyimni beryapman! Hamma bilsin buni!



Va Tolik yana o'zini o'zi baloga qo'ydi, biroq jarohatlangan ayol-ni batamom yakson qilish o'ng'aysiz edi. Lekin u haddan tashqari o'ziga ishongan edi, shu bois chuchvarani xom sanagandi.

– Nima, sen uy bilan birga meni ham sotib oldim deb o'ylayapsanmi? Unday bo'lsa men sening tirranchangni qaytarib berishim ham mumkin! – so'radi to'ppa-to'g'ri, tashlanishga tayyor bo'lib.

Albatta, tahdid qildi, Zinochkani qo'rquvga oldi. Biroq o'xshamadi. U Zinaning vijdon azoblarini hisobga olmadi va aytgan so'zlari uchun jazolandi. Zina shu zahoti o'sha so'zga, bemavrid va noo'rin aytilgan «tirrancha» so'ziga yopishib oldi.

– Demak, tirrancha de! – so'radi qoni qaynab. – Tirrancha de? Qaytarib ber!

– Ha, Zina... – Tolik yumshatishga, ovozi bilan tinchitishga harakat qildi, lekin Zina quyushqonidan chiqqandi.

– Men qaytarib ber dedim! Tirranchani! Eshityapsanmi?

Unga qarab mushtini qisdi, qizishib ketdi, to'xtatib bo'lmasdi uni. Hamma xotinlar shunaqa: asabi qo'zidimi, sevgisidan asar ham qolmaydi. Bunday vaziyatda yaxshisi jim turish. Jim turish har doim sevgiga o'xshaydi. Aytmagan narsalaringni o'zlari to'qib tashlaydilar. Va boy berganini, qaytara olmasligini, berish kerakligini sezib, Tolik asta-sekin cho'ntagiga qo'lini tiqdi va po'pisa bilan dedi:

– Zina, buni sendan kutmagandim... – Cho'ntagini kovlab, vaqtni cho'zardi. – Kutmagandim sendan... Mayli. Bizda shunday naql bor: sevgi o'z yo'lga, pul esa ikki yoqqa!» – Va istar-istamay boylikni cho'zdi. Endi qanchalik xomkalla ekanligini yanada ravshanroq tushundi. – Yashaganman, – dedi, – yana yashayman... Alvido, do'stim!

Berdi va o'zini eng jirkanch so'zlar bilan koyib ketdi, lekin Zinani ham yengilligi, hissiyotlarini jilovlay olmagan uchun so'kardi. Ammo ushbu keskin burilishda mittigina g'alaba u tomonda edi. U Zinani tashlab ketayotgandi, demak, so'nggi zarbani o'zi bergandi. Butun boshli jangda mag'lub bo'lib bor-yo'g'i mo'mataloq orttirib oldi!

Ammo hissiyotga berilgan Zinaga o'ziga kelib olishi uchun shu ham kifoya edi.

– Tolik, – chaqirdi u qo'rquv bilan, hattoki uni to'xtatish uchun undan ilgari ketdi. – Tolik, to'xta!

Tolik qanchalik qat'iyatli tuyulishga urinmasin, to'xtadi. Bu uni qaytarish uchun yagona imkoniyat edi.

– Men chindan ham qo'rqib ketdim, – tan oldi Zina uning yuziga qarab. – Senga kerak emasman deb qo'rqib ketdim! Senga faqat mening uyim kerak deb o'ylabman... Lekin men yozgandim-ku! Men beraman! Tolik! Keyin beraman! Men faqat bunga o'rganib olishim kerak... Darrov emas...

– Zinaida, uying bilan qo'shmozor bo'! – dedi u past ovozda, biroq aniq qilib, naq yuziga qarab. Go'yo vidolashuv paytida so'kingandek bo'ldi.

– Ey Xudoyim, to'xtasang-chi... Men bir narsa demoqchiman...

– Hammasini aytib bo'lding, – gapini kesdi Tolik, uning yon berayotganini va endi unga o'ziga kelishga imkon berish mumkin emasligini sezib. U bilan faqat shunday, faqat kuch orqali gaplashish kerak, u shuni unutmadi. – Men seni qo'rqitmoqchi emasdim! Lekin menda poyezdga chipta bor... Aytmagandim, senga achingandim... Bekorga achinibman. Achinganimning sababi esa, Zinaida, ketishimga o'zim ham ishonmaganim... Jin ursin, chipta bilan qolib ketaveraman, hayotni yangitdan boshlayman deb o'ylagandim... Sen bo'lsang... – Shu yerda u Zinaning hozir kuchsiz bo'lgan qo'llaridan yulqinib chiqdi va yo'lida davom etdi. Tashabbusni o'z qo'lga olganini sezayotgandi, chunki Zinaning shiddatini, uning qo'rquv ichidagi ko'zlarini ko'rgandi.

– Uyingda shunday tentak bo'lib qolaverasan! – baqirdi u biroz uzoqroqqa ketganidan so'ng. – Uyingni ham olib qo'yishadi! To'g'ri qilishadi ham!

Tolik ketdi, Zina esa devorga yopishib oldi, ular munosabatlarni oydinlashtirish uchun g'alati joy topishganini hozir payqadi. Balki kimdir devorning orqasida turib hammasini eshitgan bo'lsa-chi? Albatta, ahmoqlik: kimning nima ishi bor, deb o'yladi u va yig'lab yubordi. U endi yolg'iz ekanligini tushundi. Qog'ozi yonida, hammasi boy berilgan bo'lsa va ortga qaytarib bo'lmasa uning nima foydasi bor.

Ertalabdan ularning jimjit ko'chasida tentirab yurgan o'sha nogiron yonidan o'tib ketayotib orqasiga kelib to'xtaganini eshitmadi. U kerak-kerakmas joyda paydo bo'laveradi. Har doim o'zining gaplari bilan burnini suqadi. Shu yerda ham tiqildi, tinchlantirishga harakat qildi.

– Ahvoling yomonmi? – so‘radi u. – Eshityapsanmi? Hoy qiz? Yordam kerakmi?

Zina javob bermadi. Qo‘llari bilan ko‘z yoshlarini artdi va o‘z uyiga ketdi. Yetib borgunicha yuzi qurib qolishini bilardi. Nogiron esa joyida qoldi. U ichida hozirgina ko‘rgan ko‘z yoshlari kabi g‘alati narsalarni hayol qilardi. Frontda ham ko‘z yoshlar bo‘lgan, lekin u yerda urush g‘ildiratib o‘tgan... Tank bilan bostirib o‘tgan. Onalar farzandlaridan ayrilgan, farzandlar onalaridan. Askarlar ham yig‘lashgan. Mana shunisi qo‘rqinchli. Front yaqinidagi, daraxtlarning ostida apil-tapil qurilgan gospitalda oyog‘ini g‘o‘laga o‘xshab o‘tmas arra bilan narkozsiz kesishganida ham yig‘lagan... Bir narsani – chidash kerakligini bilardi, chunki hayotini qutqarishayotgandi. Qorasonning butun tanaga tarqalish xavfi bor edi! Bu yerda esa! O‘ylab ko‘rilsa, jannat. «Quyoshli kun, hamma g‘alaba bahorini kutyapti... Va birdan ko‘z yoshlari... Jiddiy emas bu! Yig‘lash kerak emas, yig‘lab bo‘ldik...»

Oxirgi so‘zlarni nogiron o‘zi sezmay ovozini chiqarib aytdi. Va yo‘lida davom etdi. Unga davolagan shifokor ko‘proq sayr qilishni tayinlagandi. U esa harakat qilishdan shundoq ham mamnun edi, chunki harakat – bu hayot ekanligini yaxshi tushunardi.

* * *

Kostik tergovlar va uning ko‘rganlari tushida ro‘y berganini tushunib ko‘zini ochdi. Demak, uni fosh qilish borasidagi qo‘rquvlari ham haqiqiy emas; bekorga u klubning sahnasida Zelinskiyning savollarini kutib hayajondan qaltiragan ekan, unga nima uchundir o‘sha Zelinskiy hammasini biladigandek tuyulardi: «Sening hamma jinoyatlaring, uka, hozir-u nozir, faqat bittasidan tashqari... Va sen qaysi ekanligini bilasan».

Tunlari uni seskanishga va yuragini barabanga o‘xshab gumburlashga majbur qilayotgan vahimadan uyg‘onardi. Unga kimdir uni chaqirgandek bo‘ldi: «Kos-tik!»

Kostik atrofga qaradi. Tuyuldi shekilli. Qulog‘iga musiqa chalindi, biroq bu yerda, zavodda musiqaga yo‘l bo‘lsin. Ammo musiqa chindan ham yangrardi, u hovlidan goh qattiq, goh sekin jaranglardi, bu marshlarning sadosi edi...

Shveyk odatiy so‘zlarini aytib baqirardi:

– Uxlashni bas qil! Oxirgi qolgan qo‘shimcha yegulikka yuguradi!
Silich sog‘ish vaqti kelgan echkisi Murka haqida po‘ng‘illardi.
Shveyk dedi:

– Bilasanmi, sening Murkang tushimga kiribdi?

– Xo‘sh, xo‘sh! Aytib ber-chi!

Hamma va shu qatori Silich ham Shveykka tikilib, uning odatiy cho‘pchagini kutardi.

– Eh, Anechkam qalay ekan, yagona, betakror, abadiy... – cho‘zildi Shveyk hammaga nazar tashlab va kulib.

– Sen echki haqida gapir! Anechka va Lyudochkalarining haqida bilamiz!

– Tushimda Silich qishloqda echkisini yetaklab ketyapti emish, – boshladi Shveyk va jimib qoldi.

– Gapir! – ruxsat berdi Silich kulib.

– Ruxsat berasanmi?

– Albatta!

– Demak, u echkisini yetaklab ketyapti, ro‘paradan esa militsioner kelyapti.

Shu joyda Kostyaning soqchisi uyg‘onib ketdi va darrov so‘radi:

– Kim? Kim?

– Siz emas! – darrov javob berdi Shveyk. – Boshqa militsioner. Va u Silichdan kimni sudrab ketyapsan deb so‘rabdi. Silich esa: «Mushugimni aylanishga olib chiqdim...» deb javob beribdi.

– Mushukni? – so‘rashdi yigitlar. Silich ham hayron bo‘ldi.

– Ha, mushugim Murkani debdi... – davom etdi Shveyk. – «Nega unda mushugingning shoxlari o‘sib chiqqan?» – so‘rabdi militsioner...

Silich bo‘lsa javob beribdi...

– Xo‘sh, xo‘sh? Silich nima deb javob beribdi? – so‘radi kimdir xaxolab.

– Silich shunday javob beribdi: Shoxlari – bu uning nozik joyi.

Shu joyda sexga Olga Vostryakova uchib kirdi.

– O‘tiribsizlarmi? – so‘radi u, og‘zi qulog‘ida. – Hech narsadan bexabar?

– Bilamiz, – to‘ng‘illadi Silich, unga hikoyaning oxirini eshitishga xalaqit berishgandi. – Mudofaani yorib o‘tdik...

Shveyk qo‘shib qo‘ydi:

– Militsiya ham yordam berdi!

– Yo‘q, yo‘q! – dedi Olga yorishib. Va birdan o‘ziga ham endi yetib kelgandek dedi: – Yigitlar, g‘alaba...

Bu so‘z ular uchun birinchi marta shu tarzda yangradi.

Keyin esa eshitganlarning har biri bu so‘zni mustaqil aytishga urinib ko‘rdi.

G‘alaba. G‘alaba. G‘alaba. G‘alaba. G‘alaba. G‘alaba. G‘alaba.

Uni mana shuncha marta takrorlashdi. Bu so‘z g‘oyibdan kelmadi, balki har birining ichida tug‘ildi va shu sababli darrov qadr-donga aylandi. Har bir insonning nafaqat bu so‘zi, balki G‘alabasi ham o‘ziniki edi, garchi hamma bilan birga aytilayotgan bo‘lsa ham. Va hech kim endi bu so‘z ular uchun butun umr yangrashini hali payqamagandi, boisi ular hali bilmagan, ko‘rmagan ushbu kunning o‘zi ular uchun umrlaridagi eng qimmatli va qadrlı kunlardan biriga aylandi.

Hozir esa bu kun tarixiy jihatdan hech qanday ahamiyatga emasdek edi, balki ortida dunyodagi barcha azob-uqubatlار, barcha yo‘qotishlar, barcha o‘limlar tugagan, yangi, hali nomi o‘ylab topilmagan hayot boshlanayotgandek edi. Sexdagi odamlar ko‘chaga yugurib chiqishdi, quyoshning yorug‘ nurlaridan ko‘zlari qamashdi, o‘z yurak urishlaridan quloqlari kar bo‘ldi.

Kim G‘alabani boshidan kechirgan bo‘lsa, u o‘sha kun ertalabdan o‘ziga xos va hattoki havo ham o‘zgacha bo‘lganini, u yilt-yilt tovlanaganini va quyosh qizdirganini eslamasligi mumkin emas.

Uylaridan chiqib ko‘chada paydo bo‘lgan odamlar ham o‘zgarishdi, boshqacha bo‘lishdi, ularning ko‘zlarida, harakatlarida, kayfiyatlarida tantanavorlik va shod-xurramlik paydo bo‘ldi, har bir inson o‘rtasida o‘zgacha yaqinlik yuzaga keldi.

Ular darvoza ortida turishardi: Silich, Shveyk, Kostik va smenadagi boshqa ishchilar.

Ular turishar va ko‘zlarini qisishardi, chunki ular hali G‘alaba ichida yashashmagan, unda qanday qilib yashashlarini bilishmasdi.

Bir bolakay o‘zi bilan o‘zi o‘ynab lattadan qilingan to‘pni tepib borar va o‘ziga o‘zi to‘pni oshirardi.

Hamma unga, uning oyoqlariga tikilib qoldi, ular go‘yoki umrbod unutgan o‘sha g‘alati o‘yinning har bir lahzasini ilib olishga intilishardi.

Va birdan kimdir o'ziga kelib, baqirdi:

– Uzat!

To'pga tashlanishib, uni bolakayning oyoqlaridan yulib olishdi va chang-to'zon ko'tarib, maysazor bo'ylab yugurib ketishdi.

– Oshir!

– Tep!

– Tashla!

– Yiqit!

– Qiyshiq!

Militsioner boshqalardan va ayniqsa qo'riqlashi kerak bo'lgan Kostikdan uzoqlashmasdi. Apil-tapil qilingan darvozaga yaqinlashganlarida u darg'azab bo'lib baqirdi:

– Sudlanuvchi! To'pni ber! Kimga aytyapman... Ber!

Qayerdandir Lyalka paydo bo'ldi.

– Bolalar. Meni ham olinglar...

Silich unga birrov, lekin ma'noli qarab qo'ydi va indamadi.

– Meni ham olinglar. Axir men birinchi bo'lib G'alabani olib keldim-ku!

– Qoralovchi! Olga Viktorovna! – dedi Silich baland ovozda, yigitlarning e'tiborini unga qaratib va uni tanishtirgandek bo'lib.

– Axir men Lyalkaman-ku.

– Ha, Lyalka!

– Ha, ha!

– Mayli, – ruxsat berdi Silich. – Lyalka, darvozaga tur va himoya qil. Sen esa, Kostik, o'sha darvozaga tepasan!

Olga tortishishga urinib ko'rdi, lekin hamma unga baqirdi va o'zini o'yinga qabul qilganlarini, deyarli qabul qilganlarini tushunib, kimningdir quyoshdan himoya qiluvchi qalpog'ini kiyib darvozaga turdi. Yonida yigitcha, to'pning egasi turib undan so'radi:

– Xolajon, men bu burchakni qo'riqlayman...

– Qo'riqla, – bosh irg'atib ijozat berdi u va qo'lga tupurdi.

Kostik tepish uchun yugurib keldi – hamma musobaqani tomosha qilib va o'zlari uchun o'ylab topgan bu musobaqaning qandayligini tushunishardi – va to'pni shunday tepdiki, Lyalka to'pni ushlay olmay yiqilib tushdi, to'p esa osmonga ko'tarilib, o'rmonning ichiga dumalab ketdi.



O'yin davom etardi, lekin militsioner Kostikni chetga olib ortidan yurishni buyurdi.

– Qayoqqa borishim kerak? – so'radi Kostik.

– Bilmayman, – javob berdi militsioner. – Sudga kuzatib qo'yishni tayinlashdi.

– Sud bo'ladimi o'zi?

– Kim uni bekor qiladi? – mantiqli so'radi militsioner. – Hayotimizni sudsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

– Bugunmi?

U o'ylanib bosh irg'adi.

Militsioner Kostik bilan tengdosh, biroq gavalibroq edi, qishloqdan bo'lsa kerak.

U aftidan o'zi qadrlagan formasini tuzatib, ustidagi changini qoqib qo'ydi va Kostik bilan nima qilishi kerakligini ovozini chiqarib fahmlay boshladi.

G'alaba bayram ekanligi tushunarli, biroq u, deylik, boshqa bayramlarga o'xshab tartib bilan kelmadi. Uni oldindan gazetalarda o'qib, qanday qilib, kimga va qancha vaqt bayram qilish, namoyishga nimalarni ko'tarib borish va umuman, ushbu tadbirni qanday o'tkazish kerakligi tushunarsiz edi. Gazetalarda ham, radioda ham u haqda e'lon qilishadi, hammaga qulay va tushunarli, chunki muammosiz.

– Balki seni nazorat-o'tkazish punktiga olib borsammikin? – so'radi u.

– Bo'ladi, – rozi bo'ldi Kostik va hamma narsani unutib, dalada to'p tepayotgan do'stlariga xo'rsinib qaradi. Lyalka darvozada turardi. – Balki onamning oldiga borarman?

Militsioner «ruxsat yo'q» degan so'zni aytmoqchi bo'ldi-yu, biroq tomog'iga biror narsa tiqilib yo'talib yubordi. «Ona» degan so'zni eshitib uning yuziga qon yugurdi.

– Mayli. Faqat tezroq, – ogohlantirdi u va Kostikni oldinga o'tkazib yubordi.

Biroq Kostik onasini juda ham ko'rgisi kelayotgan bo'lsa-da, uning oldiga bormadi. U Katyaning uyiga yo'l oldi, militsionerga, umuman olganda, uning qayerga borishining farqi yo'q edi, u bu yerga yaqinda kelgan va qishloqni ham bilmaydi.

Ular birdan gavjum bo'lib qolgan ko'cha yoqalab ketishdi: radio yangrar, garmon chalishar, kimdir ko'chaning o'rtasiga stol qo'yib,

o'tgan-ketganni noz-ne'matlar bilan mehmon qilardi. Hukumat vakili sifatida militsionerga ham uzatishdi, lekin u qo'l siltadi. – Ularning o'z ishi bor, bizning esa o'z ishimiz, – ming'illadi va Kostikka yo'lida davom etishni buyurdi.

Tanish uyning eshigiga yetganda Kostik bog'ning ichkarisiga qarab, uyda kim – Katya yoki Zina borligini bilish maqsadida qadamini sekinlatdi. Biroq nimadir unga bog'ning ostonasini hatlab o'tishiga xalaqit berardi.

– Kiraver, men shu yerda kutib turaman, – dedi militsioner.

Kostik birmuncha vaqt depsindi va so'qmoq bo'ylab terrasa tomonga ketdi. Atrofga emas, faqat oyoqlarining ostiga qarab ketib borardi.

Eshikni asta, keyin sal qattiqroq taqillatdi. Hech kim javob bermadi. Derazaga qaradi, u yerda ham hech kim yo'q edi. Faqat derazalarning birida tinab yozilgan so'zlar ko'rinardi: O'LDIRISH MUMKIN EMAS KECHIRISH. «Emas» so'zidan so'ng qog'ozning yelimgan parchasi bilan yopishtirilgan qalin vergul turardi. Bu vergulni boshqa vaqt qo'yishganligi bilinardi.

Kostik chuqur xo'rsindi va hamon o'sha holatda, esnayotgan militsioner turgan eshikning oldiga qaytib keldi. U Kostikni ko'rib, hayron bo'ldi:

– Shunchalik tezmi?

Kostik bosh irg'adi.

– Ketdikmi?

– Qayoqqa?

– Bilmayman.

– Balki kutib turarmiz? – so'radi Kostik.

– Senikilar ketishganmi? – Militsioner ko'zini qisib quyoshga qaradi va dedi: – Bizda Pervomayskda esa hozir ichishyapti... Otam halok bo'lgan, onam esa kelini bilan, kelinoyim akamning xotini, qadarni olib to'xtovsiz ichishayotgandir... Va yig'lashayotgandir. Ular, xotinlar yig'ilishganda ichib yig'lashadi, yig'loqi tentaklar... Bugun ku turgan gap!

U furajkasini to'g'rilab qo'ydi:

– Ketish kerak, fuqaro Vedernikov! Aks holda mendan so'rashadi! Bayramda sudlanuvchini yo'qotib qo'yding, uni esa mutlaqo yo'qotib bo'lmaydi deyishadi... Bo'lmasa – sud, sudlanuvchi esa yo'q, degan qarorga kelishadi... Unday bo'lsa kimni sudlashadi?

– Yana bir soniya, – so‘radi Kostik va yugurib uyning ichiga qaytib kirdi. Militsioner javob berishga ulgurmad.

Uyni hamma tomonidan aylanib chiqdi va hech kim, hattoki itlar ham yo‘qligiga amin bo‘ldi, ular qayoqqa g‘oyib bo‘lishdi ekan!

Yerto‘laning eshigi ochiq edi, u yerto‘laga tikka tosh zinapoyalar bo‘ylab tushib eshikdan kirdi. O‘ziga xos og‘ir sovuq havoni, toshning hidini va yerto‘laga xos chuqur jimjitlikni darrov payqadi.

Bu yerda, odamlardan olisda ular yaqinda aytishgan o‘sha tovuqlar, o‘sha so‘zlar hamon saqlanib qolgan degan xayolga bordi. U zulmatga qaradi va birdan qulog‘iga chalindi:

– Salom sizga... Tanimadingizmi?

– Salom. Konstantin Sergeyich?

– Xuddi o‘zlari... Qalaysiz endi? Esmayaptimi?

– Yo‘q, esmayapti. O‘lik podsholikdagidek.

– Sayr qilishni xohlaysanmi?

– Haqiqiysigami?

– Ha, albatta! Ko‘chada!

– Men bugun bitta ko‘chani aylandim...

– Shunday aylanaylikki, iblislar qaynab ketishsin! Tasavvur qil-yapsanmi?

– Tasavvur qilmayapman, Konstantin Sergeyich.

– Chiqamizmi? Xo‘sh?

– Yo‘q.

– Nima yo‘q? Chiqolmaysanmi yoki xohlamaysanmi?

– Yo‘q.

– To‘tiqushga o‘xshab hadeb qaytaraverma! Yo‘q, yo‘q... Sen boshqa so‘zlarni bilasanmi?

– Yo‘q...

Kostik xo‘rsindi va chiqib ketdi.

Devorning orqasida, terrasaning qarshisida bir ayol unga indamay qarab turardi. U ayolni darrov tanidi, u sudda guvoh sifatida ishtirok etgandi.

– Hoy, – deb baqirdi ayol. U Kostikni tanigandi. – Senga kim kerak?

– Katya, – dedi u va Kostya tomonga bir necha qadam bosdi.

– Ular yo‘q, – javob berdi ayol.

– Qani?

– Bilmayman. Ertalab ketishgan. Umuman, ular bu yerda yashamaydilar, ularni haydashmoqda deyishyapti...

– Haydashmoqda? – so‘radi Kostik ayolga yaqinlashib. – Kim ularni haydayapti?

– Kim... Zinka uyni kimgadir bergan, u esa yana kimgadir sotgan va umuman chalkashlik... Shuning uchun bu yerga kelma!

– Ularni qayerdan izlasam bo‘ladi? – so‘radi Kostik yalingandek.

– Bunisini bilmayman, – dedi ayol va uyiga kirib ketdi.

Kostik eshikning oldiga qaytdi. Militsioner ko‘chaning oxirida aylanib yurgandi, devorning oldidagi esa Katya bir qo‘lida savatni ushlab yerga o‘tirib olgandi. Kostik unga qaradi va yoniga o‘tirdi.

Katya o‘girildi va oh deb yubordi: «Sizmi?»

– Qo‘rqitib yubordimmi? – so‘radi u.

– Yo‘q, – javob berdi Katya. – Xayolga berilibman.

Birdan Kolka uning so‘zsiz, ovozsiz, faqat lablarini qimirlatib yig‘layotganini ko‘rib qoldi.

– Katya, – so‘radi u. – Nima bo‘ldi? Mana ko‘rasan, hammasi yaxshi bo‘ladi... Sen uydan chiqdingmi?

U bosh chayqab qo‘ydi.

– Tog‘amga achinyapman.

– Bukatigami?

– Sening xabaring yo‘qmi?

– Yo‘q, – dedi Kostik.

– U bugun ertalab qazo qildi... Zina o‘sha yerda...

– Zavodda ham bilishmaydi, – nima uchundir dedi Kostik. – Lekin g‘alaba-ku...

Katya hiqillab unga qaradi. Ko‘z yoshlarini yutib, duduqlanib so‘radi:

– Chindanmi?

– Albatta, chindan!

– Men ahmoq bo‘lsam bilmabman... Nima uchun musiqa yangrayapti va hamma shodon deb o‘ylabman... Men esa hamon hech bexabar ekanman. Ketyapman va hech narsani bilmayman... Dunyo boshqacha bo‘lib qolibdi. Daraxtlar ham, ular ham sezishgan ko‘rinadi. Rost. Osmon ham, quyosh ham... Eshityapsizmi?

Kostik Katyaning yuziga qaradi.

– Nima?

– Ularning hammasi shivirlashyapti-ku... Maysa ham, daraxtlar ham... Qish poyoniga yetdi. Hammasi go'yoki boshqacha. Nahotki eshitmayotgan bo'lsangiz?

Shu orada militsioner qaytib keldi:

– Ketik, fuqaro Vedernikov! Yetar!

– Qayoqqa? – so'radi Katya.

– Kerakli joyga, – jiddiy javob berdi militsioner. – Nazorat-o'tkazish punktiga ketdik!

– Men ham ketaman, – qaror qildi Katya.

– Xohlaganingiz, – o'ylab turib dedi u. – Biz esa ketishimiz kerak.

Ko'chani oxirida Zina ko'rindi. U yerga qarab ketar va hech narsani ko'rmasdi: na Katyani, na Kostya bilan militsionerni va faqat ularga to'qnash kelgachgina to'xtadi. Katyaga tashlanib ho'ngrab yubordi.

– Zin... Nega unday qilyapsan? Zin, kerakmas... Mana Kostya... U g'alaba qozondik deyapti. Eshityapsanmi, Zin? Kostya, o'zing ayt, g'alaba qilganimiz rost-ku!

– Radiodan yetkazishdi, – tasdiqladi militsioner. – Fashizm taslim bo'lganini... Bundan chiqdi, bayram...

– Ana, ko'ryapsanmi, Zin! – dedi Katya, o'zi esa yig'lab yubordi.

– Endi qanday yashaymiz? – so'radi Zina va Kostyaga burilib qaradi. U boshidan ro'molini yechib ko'z yoshlarini arta boshladi.

– Militsioner ularga qarab, gavda og'irligini goh u, goh bu oyog'iga tashlab, nima qilishini bilmay turardi.

– Nima qilish kerak bo'lsa, o'shanday qilamiz, – tushuntirdi u. – Generalissimus qanday buyursa... Bugun esa, fuqaro, bayram va yig'lash kerak emas, hammaga xursand bo'lish tayinlangan!

– Axir hech kim yo'q-ku, – takrorladi Zina. – Uyda ham yo'q, hamma g'oyib bo'lgan...Tolik ham yo'q, Chemodanovni esa qamab qo'yishgan... Akam ham bu kungacha yetib kelolmadi... Bir necha soatgina...

– Siz ketmoqchi edingiz, ketavering, – dedi Katya militsionerga jiddiy ohangda. – Ayolning yig'layotganini tomosha qilish yaxshi emas!

– Men ham shuni aytaman-da... – militsioner yelkasini qisdi va Kostikni qo'ldan olib ketdi, oldinga yurishni buyurishni ham unutdi.

Katya esa orqalaridan baqirib qoldi:

– Kostik! Senga yetib olaman! Qo‘rqma! Men sen bilan bo‘laman!

Ular, ushbu kun chetdan qaraganda g‘alati ko‘rinayotgan ikkovlon – orasidan qil o‘tmas do‘stlar kabi – ko‘chaning oxirida ko‘zdan g‘oyib bo‘lishganda Katya Zinani yelkasidan ushlab devorning oldidagi yashil maysaga o‘tirg‘izib qo‘ydi.

U Zinaning boshini silab dedi: «Bu rost. Ularning yo‘qligi rost. Ular o‘sha yerda qolishgan, Zin... Ular shu kungacha hammasi qolishgan... Bilasanmi, Zin, endi bizda shunday bo‘ladi – o‘sha kungacha va o‘sha kundan keyin...»

Yengil, iliq, mayin shabada o‘zi bilan marsh musiqasi sadolarini olib keldi. Ehtimol, radio orqali Moskvadan eshittirishgandir.

Katya boshini ko‘tarib, quloq tutdi. Yana Zinaga mahkam yopishib oldi, uning yuzlariga oqqan ko‘z yoshlarini arta boshladi va qo‘llari o‘zining va Zinaning ko‘z yoshlaridan jiqqa ho‘l bo‘ldi.

«Zin, biz sen bilan qoldik-ku, rost... Mayli, uysiz bo‘lsak-da... Biz axir omonmiz-ku, biz bir-birimiz uchun bormiz... Kostikni sevaman... Men ulardan so‘radim... Men uni qanchaga sudlashadi deb so‘radim, ular besh yilga deyishdi. Balki kamroqqadir. Lekin men kutaman, agar uni surgun qilishsa, uning ortidan ketaman... Keyin esa hammamiz birga bo‘lamiz, sen ham uni yaxshi ko‘rib qolasan. Va bizning hayotimiz umuman boshqacha bo‘ladi... Yangicha bo‘ladi, rost, Zin... Sen bir qara! Qara! Dunyo naqadar go‘zallashib bora-yotganini ko‘ryapsan-ku! Bu dunyoda endi hech kim hech qayerga g‘oyib bo‘lmaydi. Hamma bir-birini sevadi... Rost-ku, Zin! Men esa birdan yashashni xohlashimni tushundim... Juda ham xohlayman. Zin... Baxtli bo‘lishni ham istayman...»

– Turinglar, sud kelyapti!

Uxlar edi oltin bulutcha 3
Mahshar kuni 257

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

ANATOLIY IGNATYEVICH PRISTAVKIN

UXLAR EDI OLTIN BULUTCHA

Qissalar

Rus tilidan **Gulnora Aripova** tarjimai

Nashr uchun mas'ul
Azimboy Boboniyozov

To'plab, nashrga tayyorlovchi
Toshpo'lat Mirzayev

Muharrir *Toshpo'lat Mirzayev*
Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*
Texnik muharrirlar: *Lina Xijova, Yekaterina Stepanova*
Kichik muharrir *Matluba Salimova*
Musahhah *Maqsuda Ishonxonova*
Kompyuterda tayyorlovchi *Gulmira Qulnazarova*

Nashriyot litsenzyyasi AI № 158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 28-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}.
Ofset qog'oz. «New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23,5. Nashr tabog'i 23,39.
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-430.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20 Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz www.iptd-uzbekistan.uz





A.I. Pristavkin

«O'ZBEKISTON»

